QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR.
2020- yildan nashr etiladi.
Yilda 4 marta chiqadi.

1 (5)-2022
Mart

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ

издаётся с 2020 года
Выходит 4 раз в год

УЎК 5/9(08)
КБК 72я5
Қ 99

MUASSIS:

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR-
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020- yil 9 - iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi:

2021- yil 5 -may
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8
Ofset bosma, Ofset qog‘ozi.
Adadi: 100 nusxa
Buyurma № 149

Nashr uchun mas’ul: V.Karimova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Muqova dizayni va original maket Qo‘qon DPI tahririyat - nashriyot bo‘limida tayyorlangan. “Poliraf Super Servis” MCHJ bosxonasida chop etildi.

Manzil: Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2-uy.
“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021- yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.
Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy.
Tel.: (0373) 542-38-38.
Сайт: www. kspi. uz
journal.kspi.uz

ISBN: 978-9943-7182-7-2

“CLASSIC”
nashriyoti 2021

BOSH MUHARRIR:
D. Sh. Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mas’ul muharrir:
N.S.Jo‘rayev, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mas’ul muharrir yordamchisi:
O.Y.To‘xtasinova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Tahrir kengashi:

ANIQ VA TABIIY FANLAR:

Sh.Farmonov	O‘zR FA akademigi
Sh.Namozov	O‘zR FA akademigi
S.Rashidova	O‘zR FA akademigi
I.Asqarov	kimyo fanlari doktori, professor
V.Xo‘jayev	kimyo fanlari doktori, professor
Sh.Abdullayev	kimyo fanlari doktori, professor
I.Abdug‘ofurov	kimyo fanlari doktori, professor
S.Aripova	kimyo fanlari doktori, professor
D.Altiboyeva	kimyo fanlari doktori, professor (Qirgizston)
I.Eshmetov	kimyo fanlari doktori, professor
A.Ibragimov	kimyo fanlari doktori, professor
N.Vohidova	kimyo fanlari doktori (DSc)
G‘.Ochilov	kimyo fanlari nomzodi, dotsent
R.Rasulov	fizika-matematika fanlari doktori, professor
B.Samatov	fizika-matematika fanlari doktori, professor
D.Akbarov	fizika-matematika fanlari doktori
M.Rahmatullayev	fizika-matematika fanlari doktori
V.Isaqov	biologiya fanlari doktori, professor
B.Kamolov	geografiya fanlari doktori, professor
G‘.Abdullayev	biologiya fanlari doktori
A.Batashov	biologiya fanlari doktori
H.Xonboboev	texnika fanlari nomzodi, dosent

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR:

N.Karimov	O‘zR FA akademigi
A.S.Sagdullayev	O‘zR FA akademigi
O.Akimova	filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
V.Borisova	filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
I.Artyushkov	filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
N.Mahmudov	filologiya fanlari doktori, professor
M.Rasulova	filologiya fanlari doktori, professor
Sh.Iskandarova	filologiya fanlari doktori, professor
A.Qosimov	filologiya fanlari doktori, professor
A.Sabirdinov	filologiya fanlari doktori, professor
D.Nabiyeva	filologiya fanlari doktori, professor
O.Bozorov	filologiya fanlari doktori
N.Uluqov	filologiya fanlari doktori, professor
H.Usmanova	filologiya fanlari doktori, professor
M.Umarxo‘jayev	filologiya fanlari doktori, professor
D.Quronov	filologiya fanlari doktori (DSc)
A.Ziyayev	filologiya fanlari doktori (DSc)
D.Jamolitdinova	filologiya fanlari doktori (DSc
Z.Qobilova	filologiya fanlari doktori (DSc)
M.Rasulova	filologiya fanlari nomzodi, dotsent
S.Mo‘minov	filologiya fanlari nomzodi
O.Bozorov	filologiya fanlari nomzodi
G.Kislov	falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya)
G.Abdullayev	falsafa fanlari doktori, professor
T.Fayzullayev	siyosat fanlari doktori, professor
A.Rasulov	tarix fanlari doktori, professor
R.Shamsiddonov	tarix fanlari doktori, professor
Z.Isomiddinov	tarix fanlari doktori, professor
X.Yunusova	tarix fanlari doktori, professor
O.Komilov	tarix fanlari doktori, dotsent
I.Yo‘ldashev	tarix fanlari nomzodi
T.Haydarov	iqtisod fanlari doktori, professor
N.Babayeva	iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Y.Dorojkin	pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
N.Erkaboyeva	pedagogika fanlari doktori, dotsent
O‘.Asqarova	pedagogika fanlari doktori, dotsent
Z.Azimova	pedagogika fanlari doktori, dotsent
V.Qodirov	pedagogika fanlari doktori, dotsent
A.Abdurashidov	pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
A.Tolibjonov	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
M.Temirboyev	falsafa fanlari nomzodi
J.Azamov	yuridika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MUNDARIJA

ANIQ VA TABIIY FANLAR

KIMYO, BIOLOGIYA

1. **I.R.ASQAROV, N.B.ATAKULOVA**
   Limon mevasining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xossalari **7**
2. **O.E.ZIYADULLAYEV, S.S.ABDURAHMANOVA, G.Q.OTAMUHAMEDOVA, S.B.SAMATOV, O.E.BOYTEMIROV**
   Yuqori Aatsetilen spirtlari sintezi **12**
3. **D.R.TOJIBOYEV, M.YU.ISAQOV, V.U.XO‘JAYEV**
   Ayrim o‘simlik moylari yog‘ kislotalarining IQ va xromatomasspektroskopiya spektorlarining qiyosiy tahlili **18**
4. **U.V. MUQIMJONOVA, M.YU. ISAQOV, N.T. XUJAYEVA**
   Vigna sinensis, Phaselousayreus, Arachhis hypogaea dukkakli o‘simliklar donlari va poyalaridagi elementar va organik tarkib tahlili **25**
5. **F.N.JURAYEVA, A.B.ABDIKAMALOVA, I.D.ESHMETOV, M.M.MURATOV, G‘.M.OCHILOV**
   Boyitilgan va modifikasiyalangan gil minerallarini termik tahlil qilish **30**
6. **N.SH.AZIMOV, N.A.MIRZAYEVA, V.U.XO‘JAYEV**
   Codonopsis clematidea o‘simligining ekstraktiv moddalarini standartlash va tovar sifatida sinflash **35**
7. **SH.A.TURSUNOVA**
   Tuproqni chuqur yumshatish natijasida suvo’tlarni profil bo’yicha taqsimlanishiga ta’siri **38**
8. **J.M.QURBONOV, SH.J.Yusupov, Yu.N.Ahmadiyarova**
   Meva va sabzavotlarning dielektrik o’tkazuvchanligini aniqlash **41**
9. **N.I.FAYZULLAEV, J.M.KURBONOV, J.J.KURBONOV**
   Nanokatalizator olish texnologiyasida “Navbaxor” bentonitining derivatografik tahlili **47**
10. **Н.Б.КАДИРОВА, А.А.АБДУРАХИМОВ, Д.С.САЛИХАНОВА**
    Физико-химические свойства пастообразных моющих средств, полученных на основе отходов производства **52**
11. **Д.К.ХАНДАМОВА, Ш.П.НУРУЛЛАЕВ, Ғ.М.ОЧИЛОВ**
    Бензол буғларини триметиламмонийли адсорбентга адсорбцияланиши **58**
12. **M.O.FOZILOVA, N.A.MIRZAYEVA, A.I.SANOYEV, N.V.VALIYEV**
    Kimyo faniga oid ayrim yangi atamalar **62**
13. **SH.A.KULDASHEVA, I.L.AXMADJONOV, D.X.ABDURAHIMOV, I.D.EHSMETOV A.B. ABDIKAMALOVA,**
    Ko‘chma qum disperslarini mustahkamlashda yangi polimerlar–strukturantlar sintezi va ularning kolloid-kimyoviy xossalari **65**

IJTIMOIY - GUMANITAR FANLAR **TARIX**

14. **J.Z.AXMEDOV**
    O‘zbekistonda arxeologik yodgorliklarni konservatsiya qilish, ta’mirlash va saqlash muammolari **70**
15. **D.T.KURYAZOVA**
    1917-80 yillarda O‘zbekiston muzeylarining shakllanish tarixi va faoliyati **75**
16. **С.Ж.МИРЗАХАЛОВ**
    Налоговые льготы при поддержке молодежного предпринимательства и их влияние на развитие отрасли (На примере областей Ферганской долины, 1991-2021 гг.) **81**

17. N.M.RADJABOVA
V.V. Krestovskiy va D.N.Logofetlarning kitoblarida Buxorodagi musiqa va raqs san’ati haqida ma’lumotlar **87**
18. SH.YU.OXUNJONOVA
Bozorlarning o`rni xususida (1991-2020 yillarda Toshkent shahri bozorlari misolida) **91**

ADABIYOTSHUNOSLIK

19. N.S.G‘ULOMOVA
Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda she’riy san’atlar tahlili **94**
20. О.И.АБДУРАХМОНОВА
Две копии источника **98**

TILSHUNOSLIK

21. F.SHARIPOVA
Pragmatik mazmun va uni badiiy tarjima matnlarida aks ettirish muammolari **100**
22. Sh.ISKANDAROVA, U.YOQUBBOYeVA
Sarlavhalarning semantik-uslubiy xususiyatlari **105**
23. Sh.A.GANIYEVA
O‘zbek hikmatlarining lisoniy tahliliga doir **109**
24. D.XODJAYEVA, O.TO‘XTASINOVA
Lingvistik tipologiya **113**
25. U.MAXSUDOVA
So‘zning grammatik ma’nosi, konsept, kognitiv tuzilma va referent o‘rtasidagi munosabatlarning funksional – semantik tahlili **117**
26. N.VALIYEVA, Z.N.ABDUSAMADOV
Phraseological units with anthroponymic components in uzbek language, and their classification **121**
27. M.R.ERGASHEV
Termin va terminologiya masalalari xususida **125**
28. SH.ISAKOVA, SH.XOTAMQULOVA
Fransiz tilining dunyo tillariga ta'siri **127**
29. D.RAHMATULLAYEVA
“Ilm-ma’rifat” semali lug’aviy birliklarning uslubiy xususiyatlari **130**
30. К.М.ХАМИДОВА
Исторические источники топонимии Ферганской долины и их изучение **133**
31. M.Xirojiddinova
Rang bildiruvchi sifatlar va o‘zbek etnografiyasi **137**
32. F.A.Ashurova
Abdurauf Fitratning o‘zbek tilining rivojlanishiga qo‘shgan xissasi **141**
33. N.G.ALLAMBERGENOVA
O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi “nutq” ma’noli frazemalarning tuzilishiga ko‘ra turlari **144**
34. D.A.KADIROVA
Ingliz tilida maqtov konseptining nutq harakatida ifodalanishi **149**
35. Z.M.TUXTASINOVA
Kognitiv tilshunoslik va lingvokontseptologiyada kontsept tushunchasining talqini **153**
36. Н.ИКРОМОВА
Практические аспекты использования эвфемизмов **159**

PEDAGOGIKA

37. Д.Х.МУХИТДИНОВА
Использование цифровых технологий и сельскохозяйственных терминов в преподавании при обучении русскому языку **163**
38. N.M.BABAEVA
Innovatsiya tushunchasi va uning pedagogikadagi muhim jihatlari **166**
39. D.X.MUXITDINOVA
Ta'limda suisid holatlarini oldini olish va korreksiya qilish masalalari **171**

ILMIY AXBOROT

ANIQ VA TABIIY FANLAR

KIMYO, BIOLOGIYA

1. I.R.ASQAROV, N.A.RAZZAQOV
Zirkning kimyoviy tarkibi asosida undan yangi oziq-ovqat qo'shilmalari olish **181**
2. Ш.О.ТЎРАХОНОВ, Х.ИСАҚОВ, И.Р.АСҚАРОВ
Анор мева пўстлоғи экстрактининг антиоксидант фаоллиги **184**
3. Х.В.ИСРАИЛОВА, А.М.ГАППАРОВ, Н.Т.ХУЖАЕВА
Химическое исследование растения c*onvolvulus spinifer,* произрастающего в Узбекистане **187**
4. M.R.XOLIKULOV, G‘.M.MAHKAMOV
Arsolquyruq (Leonurus turkestanisus V.Krecz. et Kuprian.) o‘simligining muhim shifobaxsh va asalli ekanligi xususida **190**
5. G’.N.Jo‘raqulov, A.A.Mamajonov, H.A.Musayev
G‘o‘za o‘simligida turichi va turlararo F_1 duragaylarda bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishi **193**

IJTIMOIY – GUMANITAR FANLAR

ADABIYOTSHUNOSLIK

6. O.J.HAMROYEVA
Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor” asari tadqiqi **199**
7. Ш.Н.АМОНОВ
О рукописи дивана Ахмада Табиби «Мунису-л-ушшак» **201**
8. F.ASHUROVA
To‘lepbergen Kaipbergenovning “narigi dunyoga, bobomga xatlar” badiasida ekologik muammolarning yoritilishi **204**

TILSHUNOSLIK

9. D.M.JAMOLIDDINOVA, SH.O.A’ZAMOVA
Badiiy matnda tarixiy terminlarning poetik-estetik qimmati **208**
10. Z.ISAQOV
Mustaqil va yordamchi so‘zlarning munosabat **211**
11. З.И.МИРЗАЮНУСОВА
Передача фразеологизмов при переводе **214**
12. D.BURXANOVA
Vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimida giperonim xarakteridagi “avlod” atamasining suppletivdosh giponimlari haqida **217**
13. М.Ш.Шералиева
Синонимическая парадигма адъективных фразеологических единиц русского языка **220**
14. A.SHAMSIDDINOVA
Gazeta sarlavhalarining lingvistik xususiyatlari **224**
15. K.ORIPOVA
Ingliz tilidagi antonimlarning strukturaviy jihatlari **228**
16. M.UBAYDULLAYEVA **230**

Gender va diskursga oid tadqiqotlarning rivojlanish tarixi

17. **K.ISMOILOVA**
Influence of words from the field of “it” on the uzbek language and its linguistic analysis **233**
18. **E.M.YUSUFALIYEV**
Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik va lingvokultrologik paradigmalar **235**
19. **S.A.USMONOVA**
Qo‘qon” toponimining manbalarida yoritilishi **238**
20. **A.A.PARMONOV**
Means of expressing irony in english **241**
21. **D.X.ZAKIROVA**
Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar **243**
22. **X.YU.OLIMOV**
Normandlar davrida ingliz tilining rivojlanishi **246**
23. **А.А.ЛУТФУЛЛИНА**
Имена собственные – онимы, как основной объект исследования ономастики **248**
24. **M.MAMADALIYEVA**
Color metaphorization as a way of conceptualizing the picture of the world in linguoculturological research **251**
25. **M.RAJAPOVA**
Allegoriya haqida umumiy tushunchalar **254**
26. **PEDAGOGIKA**
27. **С.А.АЛИМСАИДОВА**
Учебные тексты как основа формирования устной и письменной речи учащихся **256**
28. **G.A.ISMOILOVA**
Tabiatni asrash – umummilliy masaladir **259**
29. **Z.X.Masodiqova**
Increasing the efficiency of teaching german language in higher education institutions **261**
30. **Z.G.XATAMOVA**
Teaching vocabulary to young learners **265**
31. **S.R.OTAJONOVA**
Talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi **267**
32. **D.AZIMOVA**
Lesson plan analysis on speech acts **271**
33. **N.RAHMONOVA**
English learners’ listening comprehension difficulties in english language learning **274**
34. **G.OBIDOVA**
Communicative approach and its effectiveness **277**
35. **N.Qodirova**
Yozuvga o’rgatishning qiyinchiliklari **280**

LIMON MEVASINING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSH XOSSALARI

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ЛЕКАРСТВЕННЫЕ СВОЙСТВА ПЛОДОВ ЛИМОНА

CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES OF LEMON FRUIT

I.R.Asqarov – k.f.d., professor,
N.B.ATAKULOVA – o‘qituvchi, ADU

Anotasiya: Maqolada limon mevasining ichki qismi va uning po‘stlog‘ning kimyoviy tarkiblari, shifobaxshlik xususiyatlari, xamda xalq tabobatida qo‘llanilishi va mumkin bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmalari tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Limon po‘stlog‘i, yefir moyi, kaliy, magniy.

Аннотация: В статье даны рекомендации по химическому составу внутренностей плода лимона и его кожуры, его целебным свойствам, а также использованию в народной медицине и приготовлению возможных пищевых добавок.

Ключевые слова: Цедра лимона, ефирное масло, калий, магний, витамины.

Annotation: The article provides recommendations on the chemical composition of the inside of the lemon fruit and its peel, its medicinal properties, its concentration in folk medicine and the preparation of possible food additives.

Keywords: Lemon peel, essential oil, potassium, magnesium, vitamins.

Limon o‘simligini o‘rgangan chet olimardan R.Goodrich limon mevasining oziq-ovqat sifatida, Bruce Barrett limon mevasining tibbiyotda ishlatilishi, S.Jay Bawman, E.Jack va N.George limon mesini o‘sish sharoitlari xaqida ilmiy ishlar olib borilgan[1; 88-90-b].

Rossiyalik olimlar V.V.Voronsov va L.I.Uleyskayalarning limon va boshqa sitrus mevalar ustida olib borishgan ilmiy tadqiqot ishlarida mevalarning kimyoviy tarkibi va inson organizmi uchun foydali hususiyatlari tahlil qilingan[2; 66-68-b].

O‘zbek olimlaridan Sh.J.Tojiboyev, X.N.Atabayeva va J.B.Xudoyqulovlar limon o‘simligini o‘sish sharoitlari xaqida ilmiy ishlar olib borilgan.

I.R.Asqarov Jumladan, limon o‘simligining kimyoviy tarkibi, shifobaxsh xossaliri, ulardan kasalliklarni oldini olish va davolashda ishlatilishi xaqida o‘zining ilmiy ishlarida, 2019-nashr etilgan “Tabobat qomusi” va 2021-yilda nashr etilgan “Sirli tabobat” kitoblarida yetarlicha bayon etib ketganlar.

Bizning ilmiy ishimizda ilmiy raxbarim Ibroxim Raxmonovich Asqarov tavsiyalariga binoan limon mevasini aloxida mevasining ichki, mevasining po‘st qismlarga bo‘lgan xolda, ularni kimyovoviy tarkibi, shifobaxsh xossalarini aniqlash, olingan natijalarni bir-biriga solishtirish va bu asosida ularning kasalliklarni oldini olishda va davolashda qaysi biridan foydalanish foydaliroq ekanligiga yondashdik.

Limon – rutadoshlar oilasiga kiradigan o‘simlik bo‘lib, uning bo‘yi 4 m gacha bo‘lgan daraxtdir. Barglari qalin, o‘tkir uchli, tuxumsimon cho‘ziq va to‘q yashil rangda bo‘ladi. Barglari qisqa bandi bilan poyasida ketma-ket joylashgan. O‘simlik gullari esa mayda, yoqimli xidga ega va oq rangda barg qo‘ltiq qismida joylashgan.Limon o‘simligining mevasi tuxumsimon, meva g‘o‘ra paytida yashil tusli va pishgandan so‘ng sariq rangga kiradi. Limon o‘simligi asosan Yevropaning subtropik mintaqalarida, Osiyo va Amerika mamlakatlarida yetishtiriladi[1; 88-90-b].

Limonning faqatgina meva ichki qismigina emas, balki uning po‘stloq kismi xam foydalidir. Uning po‘stidan ko‘p yillardan buyon foydalanib kelingan. Asosan yurak va ichak faoliyatini yaxshilash maqsadida xalq tabobatida qo‘llanilgan.

Xozirgi kunga kelib limon va limon po‘stlog‘idan organizm uchun vazn yo‘qotishda, oshqozon-ichak tizimini

yaxshilashda, yurak-kon tomir tizimini yaxshilashda va immunitetni mustaxkamlashda ishlatiladi[2; 68-70-b].

Limon po‘stlog‘i iste’mol qilinganda inson tanasi toksinlar va shlaklardan tozalanadi. Oshqozon va ichaklarda oziq-ovqat mahsulotlarini hazm bo‘lishi va so‘rilishini tezlashtiradigan fermentlarni ishlab chiqarishni taьminlaydi. Uning tarkibida tola miqdori yuqori bo‘lgani uchun ich qotishini oldini oladi. Antiseptik ta’sirga ega bo‘lib, oshqozonni ish faoliyatini buzadigan va yallig‘lanishni keltirib chiqaradigan zararli mikroblarni nobud qiladi. Bundan tashqari limon po‘stlog‘i tarkibida juda ko‘p miqdorda S-vitamini mavjudligi shamollashdan xalos bo‘lishga yordam beradi. Kuzda va bahorda immunitet tizimini mustahkamlaydi. Limon po‘stlog‘idan tez-tez foydalanish organizmni shamollashdan saqlaydi [2; 68-70-b].

Limon po‘stlog‘ining foydali hususiyatlari uzoq yillardan beri ma’lum bo‘lib, ko‘p yillar davomida yurak va ichak faoliyatini ishlashini yaxshilashda qo‘llanilib kelinmoqda. Yana limon po‘stlog‘i ortiqcha vazndan halos bo‘lishda, oshqozon-ichak tizmi va shu bilan birga yurak – qon tomir tizimni yaxshilash uchun hamda immunitetni ham oshirish uchun ham foydalanilib kelinmoqda. Po‘stlog‘ining tarkibida tola miqdori ko‘pligi sababli hazm bo‘lishni tezlashtirib, fermentlar ishlab chiqishini tezlashtiradi. Inson tanasini toksin va shkalalardan tozalanadi. Po‘stlog‘ning asosiy xususiyatlardan biri bu tarkibida C vitaminining ko‘p bo‘lishi bu shamollashni oldini olish va davolash uchun zarur hisoblanadi. Yana kuniga 1 dona limon inson organizmning C - vitaminga bo‘lgan ehtiyojini 30-35% gacha qoplay oladi. Bundan tashqari limon palmitin, olein, linol, linolein kabi yuqori yog‘ kislotalari va B, E, C - guruh vitaminlari tashkil etadi[3; 236-245b, 4; 562-573b].

1-jadval

Limon mevasini va uning po‘stlog‘ini tarkibidagi vitamin va ozuqa moddalar

	LIMON MEVASINING		LIMON PO‘STLOG‘INING	
Nomlanishi	**100 gr massadagi miqdori, mg**	**Kunlik normaga nisbatan (%)**	**100 gr massadagi miqdori, mg**	**Kunlik normaga nisbatan (%)**
Oqsillar	900 mg	1.18	1500 mg	1.967
Yog‘lar	100 mg	1.79	300 mg	5.37
Uglevodlar	3000 mg	1.37	1600 mg	0.73
Organik kislotalar	5700 mg	71.25	1500 mg	18.75
Ozuqa tolalar	2000 mg	10	1600 mg	8
Saxaroza	400 mg	1.6	300 mg	1.2
Omega-3 yog‘ kislotalari	26 mg	1.57	2.6 mg	0.157
Omega-6 yog‘ kislotalari	63 mg	0.42	6.3 mg	0.042
Vitamin A, retinol	0.002 mg	0.22	0.003 mg	0.33
Vitamin V_4, xolin	5.1 mg	1.02	6.8 mg	1.36
Vitamin V_5, pantoten kislota	0,2 mg	0.04	0.3mg	0.06
Vitamin V_6, piridoksin	0.06 mg	3	0.2mg	10
Vitamin V_9, folat	0.009 mg	2.25	0.013mg	3.25
Vitamin S, askorbin kislotasi	40-80mg	50-100	129mg	161.25
Vitamin Ye, alfa tokoferol (TE)	0.2 mg	1.33	0.3mg	1.995

Limon po‘sti-zich, sariq rangli, qalinligi 5mm, ichki qismida oq plyonka qatlambo‘lib unda 10-12 bo‘laklarga bo‘lingan mevaning och sariq pulpasi saqlanadi. Po‘stining 20%

minerallar, vitaminlar va yog‘lar tashkil esa, 80% ini suv tashkil etadi. Po‘stni yuqori qatlamida 0.6% efir moyi bo‘lib, uni asosiy tarkibini terpen (90%) va sitral aldegid (6%) tashkil etadi. Efir moyi och sariq rangga, yoqimli hidga va aniq bakterisid xususiyatiga ega [3; 236-245b]. Kimyoviy tarkibini asosan K, Ca, Mg, P, Fye, Cu, Sye, Na, Zn kabi makroyelementlar uchraydi[5;233-235b].

2-jadval

Limon mevasini va uning po‘stlog‘ini tarkibidagi makroyelementlar miqdori

	LIMON MEVASINING		LIMON PO‘STLOG‘INING	
Nomlanishi	**100 gr massadagi miqdori, mg**	**Kunlik normaga nisbatan (%)**	**100 gr massadagi miqdori, mg**	**Kunlik normaga nisbatan (%)**
Kaliy, K	163 mg	6.52	160 mg	6.4
Kalsiy, Ca	40 mg	4	134 mg	13.4
Kremniy, Si	2 mg	6.67	2 mg	6.67
Magniy, Mg	12 mg	3	15 mg	3.75
Natriy, Na	11 mg	0.85	6 mg	0.46
Oltingugurt, S	10 mg	1	10 mg	1
Fosfor, P	22 mg	2.75	12 mg	1.5
Xlor, Cl	5 mg	0.217	5 mg	0.217

Limon po‘sti kosmetologiyada keng qo‘llaniladi. Undan niqoblar, surtmalar va kremlar tayyorlanadi. Limon po‘stlog‘idan tayyorlangan mahsulotlar tarkibidagi S-vitamini teriga foydali bo‘lib u zaytun moyi bilan aralashtirilgan holda ishlatiladi. Bunday muolajalar terining qarishini oldini oladi [1; 88-90-b, 2; 68-70-b].

Limon po‘stlog‘idagi kalsiy miqdori askorbin kislotasi bilan deyarli bir xil bo‘lib, ular suyaklar va tishlarni mustahkamlashga yordam beradi. Limon po‘stlog‘i bilan tishlar artilsa ular oppoq tusga kiradi. Limon po‘stlog‘i osteoporoz, artrit, artroz va boshqa suyak kasalliklarining oldini olishda ishtirok etadi. Og‘iz gigiyenasini yaxshilaydi, tish kasalliklarini keltirib chiqaradigan zararli bakteriyalarini nobud qiladi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatidagi yoriqlar, tirnalishlar, mayda yaralar kabi mexanik shikastlanishlarni davolaydi. Stomatit, gingivit, periodontit va boshqa kasalliklarning rivojlanishida profilaktika chorasi sifatida limon po‘stlog‘idan foydalaniladi [2; 68-78-b, 3;236-245b].

Limon po‘stlog‘i tarkibida ayrim kimyoviy elementlarning mavjudligi qonda qand miqdorini kamayishiga olib keladi. 1-toifa va 2-toifa diabet bilan kasallangan odamlar uchun limon po‘stlog‘idan foydalanishga ruxsat beriladi. Bunday bemorlarga nonushtadan keyin bir osh qoshiq miqdorida kuniga bir marta limon po‘stlog‘ini iste’mol qilish tavsiya etiladi [2; 68-70-b, 3; 236-245b].

3-jadval

Limon mevasini va uning po‘stlog‘ini tarkibidagi makroelementlar miqdori

Nomlanishi	**Limon mevasining 100 gr maxsulotdagi massa miqdori, mg va mkg**	**Limon po‘stlog‘ining 100 gr maxsulotdagi massa miqdori, mkg**
Alyuminiy, Al	44,6 mkg	51mkg
Bor, B	175 mkg	175 mkg
Vanadiy, V	4 mkg	4 mkg
Temir, Fe	0,6 mg	0,8-1 mkg
Yod, I	0,1 mkg	0,1-0,6 mkg
Kobalt, Co	1 mkg	1 mkg

Litiy, Li	10,3 mkg	10,3 mkg
Marganes, Mn	0,04 mg	30-40 mkg
Mis, Cu	0,24 mg	90 mkg
Molibden, Mo	1 mkg	1 mkg
Nikel, Ni	0,9 mkg	0,9-23,9 mkg
Rubidiy, Rb	5,1 mkg	5,1 mkg
Selen, Se	0,4 mkg	07 mkg
Ftor, F	10 mkg	15 mkg
Xrom, Cr	0,2 mkg	0,2 mkg
Rux, Zn	0,125 mg	250 mkg

Limon qobig‘ining shifobaxsh xususiyatlari: qobig‘ni og‘izda tutib turilsa, nohush hidni yo‘qotadi. Kiyimga qo‘yilsa kuya tushishidan saqlaydi, turli konditer pishiriqlar tayyorlashda ham ishlatiladi. Limon po‘stini quritib choy idishlarga solib qo‘yilsa. Choy damlamalariga hushbo‘y hid berib turadi, agarda oyoq kiyimiga solib qo‘yilsa undagi barcha nohush hidni limon po‘stlog‘i o‘ziga tortib oladi. Zanglamaydigan po‘lat va mis idishlarini limon po‘stlog‘i va osh sodasi bilan tozalash mumkun. Bitta limon po‘stlog‘ini shisha idishga solib ustiga 150 ml uksus qo‘shilib 12 soat tindiriladi, so‘ngra 150 ml suv qo‘shib olingandan keyin u bilan istalgan yuza sathini tozalash uchun foydalaniladi[6; 512-b, 7; 8-9 b].

Ichak parazitlari va gijjalarni haydash – bunda bitta limon po‘stini, sedrasini (go‘shtini), danagini maydalanilib idishga solinadi va ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladi. Ikki soat davomida o‘rab, tindiriladi. Keyin unga bir choyqoshiq asal qo‘shib siqib olinadi. Har kuni uyqu oldidan ichish tavsiya etiladi.

Migrenda – yangi limon po‘sti bosh og‘rig‘ini qoldirishga yordam beradi.Bunda boshda og‘riq turishi bilan limon po‘stini ho‘l tomonini quruguncha chakkaga bosib turiladi, bunda chakkani qichishtirib, achishtirib qizil dog‘ hosil qilishi mumkun. Bu usul yordamida bosh og‘rig‘idan tezda halos bo‘linadi.

Gipertoniyaning (qon bosimini oshishi) oldini olish - uchun birinchi navbatda limon po‘stlog‘larini quritib, maydalab olinadi. So‘ngra 2 oshqoshig‘ini olib uning ustiga 2 stakan suv quyib, yopiq idishga 30-35 daqiqa davomida past olovda qaynatiladi. So‘ng 10-15 daqiqa davomida sovutib suzib olinadi. Tayyor bo‘lgan sharbatni kuniga 3mahal ovqatlanishdan 30 minut oldin 100ml dan ichiladi.

Qalqonsimon so‘lak bezlari kasalliklarining oldini olish - Gipotireoz (qalqonsimon bezlarning faoliyatini pasayishi) bir dona limon po‘stlog‘ini, bir choy qoshiq asal va bir choyqoshiq zig‘ir urug‘ini 1 litr suvda 10 daqiqa qaynatiladi, so‘ngra sovutib olinadi. Tayyor bo‘lgan sharbatni har kuni suv o‘rniga ichib boriladi.

Xashoratlar chaqsa- chivin chaqib olsa, o‘sha joyga tezlik bilan limon po‘stlog‘ida artib tashlash kerak bu qichishishni yo‘qotishga ancha yordam beradi.

Yurak quvvatli bo‘lishi uchun - 6 dona limon po‘sti bilan qiymalagichdan o‘tkaziladi. Unga 1kg asal, 1 dona sarimsoqpiyozni maydalab qo‘shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Uni shisha bankaga solib, salqin, qorong‘u bo‘lgan joyda 1 hafta saqlanib, har kuni ertalab 1 oshqoshiqdan istemol qilish tavsiya etiladi.

Qon tomirlari va yurak devorlarini mustahkamlash uchun - 1 dona limon po‘stlog‘i bilan 200 gr qizilchani va 200 gr urug‘siz atirgulni maydalagichdan o‘tkaziladi, so‘ngra ularga asal qo‘shiladi va ular yaxshilab aralashtiriladi. Tayyor bo‘lgan sharbatni 1 oy davomida, kuniga 2 marta, 1 choy qoshiqdan ichiladi. Qorong‘u joyda saqlansin. Malumot uchun shuni ham aytish kerakki teng nisbatda olingan 50 gr limon po‘sti va 50 gr asal aralashmasi yurakdagi talvasalarni yengillashtiradi.

Tuzlarni eritishda - 250 gr petrushka bargi va ildizi, 150 gr limon po‘stini go‘sht maydalagichdan o‘tkazib unga 300 gr asalni quyib aralashtiriladi. So‘ng uni 1 sutka

davomida tindiriladi va suzib olinadi. Tayyor bo‘lgan sharbatimizni 1 kunda 3 mahal ovqatdan 1 soat oldin 1 oshqoshiqdan ichib boriladi. Davolash muddati esa 3 oygacha davom ettiriladi. So‘ng 1 oy dam olinib turib yana takrorlanadi. Jami muolajalar sonini 3-4 tagacha yetkazilishi kerak [8; 384 b, 9; 632 b].

Tanadagi tuzlarni haydashda – 3 dona limon po‘stlog‘ini, 150 gr sarimsoq piyozni maydalab, unga 500ml qaynatib so‘ng sovutilgan suv quyiladi. Uni 1 sutka davomida tindirib olinadi va doka yordamida shisha idishga suziladi va idish og‘zi yaxshilab mahkamlanadi. Tayyor bo‘lgan sharbatni har kuni ertalab nonushtadan oldin 50 mldan ichiladi.

Kasmetalogiyada - limon hammuhim o‘rin egallaydi. U terini rangini yaxshilash va kislota balansini yaxshilash uchun ishlatiladi. Meva sepkili va yosh dog‘lrni oqartiradi, quyosh olishini davolaydi va aknadan xalos etadi. Sitrus mevali shampunlar sochni tez o‘stiradi. Limon pulpasi qo‘shilgan niqoblar va sochlarni chayish terini yangilaydi, oqartiradi, husunbuzarlardan halos etib, teshiklarni berkitadi. Po‘stlog‘idan tayyorlangan mahsulotlar tarkibidagi vitamin – C teriga juda foydali bo‘lib zaytun bilan birga qo‘llanilsa terini qarishini oldini oladi va taranglashtrib beradi.

Tanani namlantirishda – 100 gr shakar, 1 dona limon po‘stlog‘ini maydalab va 2-3 osh qoshiq zaytun yog‘ini aralashtiradi. So‘ng tanani massaj qilinadi. Shundan so‘ng skrabni iliq suv bilan yuvib tashaladi [3; 236-245b, 4; 562-573b].

Xulosa Limon mevasini foydalilik jixatlari bizga tarixdan ma’lum. Uni ko‘pincha choy qilgan xolida ichilgan va xozirda xam shu tartibda ichilib kelinmoqda. Bunda uning po‘stini olib tashlab yuboriladi. Ammo xozirda limonning ichki qismidan ko‘ra uning po‘st qismining foydali xususiyatlari ko‘proq ekanligi aniqlangan. Shuni xisobga olgan xolda uning ichki va po‘st qismlarini ushbu maqolada solishtirilgan jadvallarni berib o‘tdik. Bundan ko‘rinib turibdiki limonni faqat ichki qismigina emas balki, uning po‘st qismlaridan xam foydalanish mumkin. Limon po‘stining foydali hususiyatlarini juda ko‘p. Chet davlatlarda limon po‘stidan keng foydalaniladi. Bu ma’lumotlarni tahlil qilgan holda limonni po‘stinini foydali yekanini hisobga olib limon po‘stini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqishni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.М.Скурихин “Химический состав пищевых продуктов”. М.-2009 г. С.88-90.
2. В.В.Воронцов, Л.И.Улейская “Лимон и другие цитрусовые растения в доме”. - М.: «Фитон», 2008 г. С. 68-70.
3. И.Р.Асқаров. Табобат қомуси. Мумтоз сўз. Тошкент – 2019. – 236-245б.
4. И.Р.Асқаров. Сирли табобат. – Т: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. 2021. – 562-573б.
5. Тўрақулов Ё.Ҳ. Биологик кимё. Т. Ўзбекистон 1996 йил 233 – 235 б
6. Ибодов А.Ю. Фармацевтик кимё (I-II-қисм). –Т. : Абу Али ибн Сино, 1996.- 512 б.
7. Машковский М.Д. Лекарственная средства (II-том). –М. : ООО “Новая Волна”, Издатель С.Б.Дивов, 2002.-8-9 с.
8. Холматов Х.Х., Ахмедов Ў.А.“Фармакагнозия”-Т.”ФАН”. 2007 й.384 б.
9. Березовский В.М. “Химия витаминов” / -М.: Пищевая промышленность, 1973. С. 632.

YUQORI ASOSLI KATALITIK SISTEMADA ATSETILEN SPIRTLARI SINTEZI

СИНТЕЗ АЦЕТИЛЕНОВЫХ СПИРТОВ В ВЫСОКООСНОВНОЙ КАТАЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

SYNTHESIS OF ACETYLENE ALCOHOLS IN A HIGHLY BASIC CATALYTIC SYSTEM

O.E.Ziyadullayev- Toshkent viloyati Chirchiq DPI,
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, k.f.d., dotsent
S.S.Abdurahmanova- O‘zbekiston Milliy universiteti,
kimyo fakulteti o‘qituvchisi, k.f.f.d. (PhD)
G.Q.Otamuhamedova- Toshkent viloyati Chirchiq DPI,
ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar
tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, k.f.f.d. (PhD)
S.B.Samatov - Toshkent viloyati DPI instituti,
fizika va kimyo fakulteti tayanch doktoranti
O.E.Boytemirov- O‘zbekiston Milliy universiteti,
kimyo fakulteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu ishda ilk bor turli xil tabiatga ega bo‘lgan aldegidlarning yuqori asosli katalitik sistemada fenilatsetilen bilan reaksiyalari o‘rganilgan. Aldegidlar molekulasining tuzilishi, formil guruhiga bog‘langan o‘rinbosarlar tabiati va fazoviy joylashuvining atsetilen spirtlari hosil bo‘lishiga ta’siri o‘rganilgan, aldegidlarni etinillash reaksiyalari samaradorlik qatori ishlab chiqilgan, reaksiya mexanizmlari taklif etilgan, sintez qilingan birikmalarning tuzilishi, tarkibi va tozaligi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullarida yordamida isbotlangan hamda qo‘llanish sohalari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. fenilatsetilen, aldegidlar, atsetilen spirtlari, reaksiya mexanizmi, mahsulot unumi, ingibitorlar.

Аннотация. В данной работе впервые изучены реакции альдегодов разной природы с фенилацетиленом в сильнощелочной каталитической системе. Изучены действия структуры молекулы, природы связанных заместителей формиловой группы и пространственного расположения альдегидов на образование ацетиленовых спиртов, разработан ряд эффективности реакций этиниллирования альдегидов, предложены механизмы реакции, доказаны структура, состав и чистота синтезированных соединений при помощи современных физико-химических методов и предложены области их применения.

Ключевые слова. фенилацетилен, альдегиды, ацетиленовые спирты, , механизм реакции, выход продукта, ингибиторы.

Abstract. In this study, for the first time, the reactions of aldehydes of various natures with phenylacetylene in a highly basic catalytic system were studied, the structure of the aldehyde molecule, the nature of the substituents bound to the formyl group, and the effect of spatial location were observed on the formation of acetylene alcohols, a series of efficiencies of ethynylation reactions of aldehydes have been developed, reaction mechanisms have been proposed, the structure, composition and purity of the synthesized compounds have been proven using modern physicochemical research methods, and recommendations for areas of application.

Key words: phenylacetylene, aldehydes, acetylene alcohols, reaction mechanism, product yield, inhibitors.

Hozirgi kunda kimyo, neft-gaz, farmatsevtika, to‘qimachilik sanoati, tibbiyot, qurilish, energetika, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida biologik faolligi yuqori yangi turdagi organik moddalarni sintez

qilish, ularni keng masshtabda ishlab chiqarish orqali talab va ehtiyojga ega bo‘lgan tibbiy preparatlar, gerbitsidlar, fungitsidlar, protravitellar, rodentitsidlar, defoliantlar, erituvchilar, antibiotiklar, garmonlar va bo‘yoqlarni ishlab chiqarish keng ko‘lamda ortib bormoqda [1-3]. Jumladan atsetilen birikmalari ham bundan mustasno emas, ayniqsa molekulasida bir nechta reaksiya markaziga ega bo‘lgan atsetilen spirtlari, ularning galloidli hosilalari, atsetilenidlari va vinil efirlari, geteroatomli birikmalari qishloq xo‘jaligida, kimyo, neft va gaz, tibbiyot va farmatsevtika sohasida yarim mahsulotlar va biologik faol moddalar sifatida qo‘llanilib kelinmoqda [4-6]. Oxirgi yillarda dunyo olimlari tomonidan atsetilen spirtlarini sintez qilishda kompleks katalitik sistemalardan foydalanilmoqda [7, 8].

Tajriba qismi. ***Atsetilen spirtlarini CsON/NH₃/CH₃OH katalitik sistemasida sintez qilish usuli.*** Laboratoriya sharoitida suyuq ammiak ishtirokida 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3 ni sintez qilish qurilmasi (avtoklav) ning hajmi 500 ml bo‘lib, 100 atm. bosimga bardoshli bo‘lgan zanglamaydigan korroziyaga chidamli po‘latdan yasalgan umumiy g‘ilof (1) dan iborat. Umumiy g‘ilofning oltita ventili mavjud bo‘lib, uning to‘rttasiga ballon (3, 4, 5, 6) lar o‘rnatilgan, ularga boshlang‘ich mahsulotlar, jumladan 3 ga kroton aldegidi, 4 ga fenilatsetilen, 5 ga metanol, 6 ga seziy gidroksidining metanoldagi suspenziyasi solingan. Qolgan ikkita ventilning bittasiga suyuq azot yuborish uchun kapillyar (8) o‘rnatilgan va oxirgi ventil doimiy ravishda navbatchi vazifasini bajaradi.



1- umumiy g‘ilof, 2- avtoklav golovkasi, 3, 4, 5, 6- reagentlar uchun ballonlar, 7- monometr, 8- kapillyar, 9- ventil

1-rasm. Suyuq ammiak ishtirokida 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3 ni sintez qilish qurilmasi (avtoklavi)

Avtoklavdagi harorat termometr (Thermemeters of 2-Channel markali) orqali va bosim monometr (MOTG MP2-Uf markali orqali doimiy ravishda nazorat qilib turiladi. Avtoklavning umumiy g‘ilofi tashqi tomonidan uzluksiz ravishda suyuq azot bilan sovutib turiladi. Avtoklavning bardoshliligi, haroratga nisbatan | -70÷350 ^{o}C, bosimga nisbatan 100 atm. ga teng. 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3 ni sintez qilishda dastlab 1 da 20 minut davomida katalizator seziy ishqori va erituvchi metanolning suspenziyasi tayyorlab olinadi. Suspenziyani tayyorlashda 2 ga suyuq azot nazorat ostida berib turiladi, bunda harorat -25 ^{o}C dan, bosim 50 atm. dan oshib ketmasligi kerak. So‘ngra avtoklavdagi suspenziyaga 45 minut davomida 3 va 4 orqali mos ravishda kroton aldegidi va fenilatsetilen o‘zaro ekvimolyar nisbatda yuboriladi. Avtoklavga yuborilgan boshlang‘ich mahsulot va reagentlar-metanol, seziy gidroksidi, fenilatsetilen va kroton aldegidi to‘liq joylangandan so‘ng hosil bo‘lgan katalizat 25 minut davomida -25 ^{o}C haroratda mexanik aralashtirgich (Strurrer RW28 basic markali) yordamida aralashtirib turiladi. Avtoklavda tindirilgan aralashma 24 soatdan keyin distillangan suv (3×50 ml) bilan gidroliz qilinadi va mahsulot sentrifuga orqali tarkibidagi atsetilenid va alkogolyatlardan tozalanib dietilefir bilan (3×100 ml) ekstraksiya qilinadi. Ekstrakt filtrlanib dastlab oddiy sharoitda ammiak,

dietilefir, metanol va suvdan tozalanib, so‘ngra vakuumda haydash orqali 71% unum bilan 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3 (2), qo‘shimcha va boshlang‘ich mahsulotlar fraksiyalarga ajratib olinadi.

Olib borilgan tajribalar asosida fenilatsetilenning sirka aldegidi, siklogeksankarbaldegid va benzaldegid bilan reaksiyasi natijasida 82% unum bilan 4-fenilbutin-3-ol-2 (1), 76% unum bilan 1-siklogeksil-3-fenilpropin-2-ol-1 (3) va 86% unum bilan 1,3-difenilpropin-2-ol-1 (4) unum bilan sintez qilindi va reaksiya sxemasi adabiyot manbaalari asosida quyidagicha taklif qilindi [9, 10].



Bu yerda: R= -Me (1), -CH=CH-Me (2), -cHex (3), -Ph (4)



1 2 3 4

Olingan natijalar tahlili. Sintez qilingan atsetilen spirtlari unumiga tanlangan aldegidlarning tabiati, uning molekulasini fazoviy tuzilishi va optik faolligi ta’siri o‘rganilgan. Atsetilen spirtlarining hosil bo‘lish samaradorligi va kimyoviy reaksiyalarning borishiga harorat, reaksiya davomiyligi, erituvchilar va katalizatorlar tabiati, boshlang‘ich moddalar konsentratsiyasi hamda mol miqdorlari ta’siri o‘rganildi.

Atsetilen spirtlarining suyuq ammiak ishtirokida sintez qilish jarayoni 20-100 minut oralig‘ida o‘rganildi. Reaksiya 20-40 minut vaqt davomida olib borilganda mahsulot hosil bo‘lish samaradorligining juda pastligi kuzatildi. Ya’ni jarayonda boshlang‘ich mahsulotlar katalizatorlar bilan to‘liq reaksiyaga kirisha olmaydi hamda katalizator reaksiya davomida o‘z faolligini to‘liq namoyon qila olmaydi natijada atsetilen spirtlari unumning past chiqishi kuzatildi. Jarayon 60 minutda olib borilganda esa katalizatorlarning faolligi, fenilatsetilenning eruvchanligi va dissotsiyalanish darajasining eng yuqori cho‘qqiga chiqishi natijasida sistemada atsetilen spirtlarining hosil bo‘lish qiymati maksimumda chiqadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida sintez qilingan atsetilen spirtlari – 1 – 82%; 2 – 71%; 3 – 76; 4 – 86% unum bilan sintez qilindi va reaksiyaning muqobil sharoiti uchun 60 minut tanlab olindi. Reaksiyada harorat yana ortishi bilan sistemada hosil bo‘lgan atsetilen spirtlari katalizator hamda boshlang‘ich moddalar bilan ta’sirlashib sistemada alkogolyatlar, viniloksi efirlari, bundan tashqari sistemada oligomerlanish reaksiyasi ketishi natijasida qo‘shimcha mahsulotlar chiqishi hisobiga mahsulot unumini kamayishi aniqlandi.

1-Jadval

Atsetilen spirtlari unumiga reaksiya davomiyligi ta’siri (harorat -25 ^{o}C, fenilatsetilen:seziy gidroksid:aldegid 1:0,25:1: mol nisbatda)

Reaksiya davomiyligi, minut	Mahsulot unumi, %			
	1	2	3	4
20	41	36	39	48
40	64	54	59	69
60	82	71	76	86
80	79	67	73	82
100	71	62	66	76

Atsetilen spirtlari unumiga boshlang‘ich moddalar mol miqdori ta’sirlari o‘rganildi, bunda reaksiya 60 minut davomida, -20 ^oC haroratda, metanol eritmasida olib borildi. 2-Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, fenilatsetilen tanlangan aldegidlar bilan ekvimolyar nisbatda olinganda mahsulotning unumi yuqori chiqishi kuzatildi. Lekin fenilatsetilen bilan aldegidlarni 3:1, 2:1 nisbatlarda olib borilgan reaksiyada esa unumning keskin ravishda pasayganligi kuzatildi. Sababi reaksiya huddi 1:1 nisbatdagi kabi olingan miqdorda chiqishi kerak edi, ammo sistemadagi qolgan ortiqcha fenilatsetilen hosil bo‘lgan atsetilen spirtlari bilan reaksiyaga kirishib viniloksi efirlarini hosil qiladi

2- Jadval

Atsetilen spirtlari unumiga boshlang‘ich moddalar mol miqdori ta’siri (Reaksiya davomiyligi 60 minut, harorat -25 ^oC, CsOH miqdori 0,25 mol (fenilatsetilen massasiga nisbatan))

Reagentlarning mol miqdori nisbatlari		Mahsulot unumi, %			
PhCCH	RCHO	1	2	3	4
3	1	54	48	50	57
2	1	68	59	62	71
1	1	82	71	76	86
1	2	80	68	73	84
1	3	76	64	69	80

Bu esa jarayonga salbiy ta’sir etadi, ya’ni mahsulotning unumini pasaytiradi. Bundan tashqari ushbu holatda oraliq va qo‘shimcha mahsulotlar hosil bo‘lish miqdori kam bo‘ldi. Aldegidlar miqdori oshirilganda esa mahsulotning unumi nisbatan pastroq unum bilan hosil bo‘ladi. Buning sababi sistemada ortiqcha miqdorda olingan aldegidlar sistemadagi seziy ishqori bilan qisman ta’sirlashib, ya’ni oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga kirishib tegishli karbon kislotalarning tuzlarini va turli tabiatga ega bo‘lgan spirtlar hosil qilishi kuzatildi. Bu holat o‘z navbatida katalizatorning katalitik faolligini kamaytirishi, karbon kislotalarning tuzlari esa sistemada hosil bo‘lgan atsetilen spirtlari bilan ta’sirlashib murakkab efirlarga aylanishi aniqlandi. Bundan tashqari sistemada poluatsetallar va aldollar hosil bo‘lishi kuzatildi.

Karbonil guruhi uglerodiga joylashgan radikallarning tabiati va ularning fazoviy ta’sir etish xossasiga ko‘ra aldegidlarning reaksiyasiga kirishishini quyidagi – kroton aldegidi < siklogeksankarbaldegid < sirka aldegid < benzaldegid qatori bo‘yicha oshib borishi aniqlandi. Molekulasida aromatik benzaldegid karbonil guruhga qaraganda elektronodonor xossaga ega ega bo‘lib, namoyon qilgan musbat mezomer ta’sir (+M) reaksiyaning borishini qiyinlashtirganligi sababli reaksiya davomida sistemada qo‘shimcha mahsulotlarning chiqishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, ya’ni qo‘shimcha mahsulotlarning kamroq hosil bo‘lishi atsetilen spirtlari unumining maksimum chiqishini ta’minladi.

Olib borilgan tadqiqot ishida ammiakning roli juda muhim ahamiyatga ega, ya’ni ammiak fenilatsetilenning uchbog‘iga oriyentatsion ta’siri etadi va fenilatsetilening molekulasidagi vodorod atomining haratkatchanligini yanada oshiradi. Bu esa CsOH dagi Cs metall atomlari harakatchan vodorod o‘rniga oson kelib birikib fenilatsetilenidlar hosil bo‘lishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari ammiak ishqor molekulasidan OH- guruhini oson siqib chiqarib katalitik faol $CsNH_2$ hosil qiladi va fenilatsetilen bilan oson ta’sirlashib mos ravishdagi fenilatsetilenidni hosil qiladi.

Atsetilen spirtlarini sintez qilish jarayonida haroratning ta’siri ham tahlil qilindi. Reaksiya -25 hamda -10 ^oC haroratlarda olib borildi va -25 ^oC haroratda mahsulot unumining maksimum chiqishi kuzatildi.

3-Jadval

Atsetilen spirtlari unumiga harorat ta’siri (reaksiya davomiyligi 60 min., erituvchi metanol, fenilatsetilen:seziy gidroksid:aldegid 1:0,25:1: mol nisbatda)

Harorat, ºC	Mahsulot unumi, %			
	1	2	3	4
-25	82	71	76	86
-10	65	52	59	69

Tadqiqot natijalariga ko‘ra suyuq ammiak ishtirokida olib borilgan ushbu ish uchun muqobil sharoit topilgan bo‘lib, unga ko‘ra reaksiya 60 minut davomida, -25 ºC haroratda, erituvchi metanolda hamda boshlang‘ich moddalar mol miqdori ekvimolyar nisbatlarda olib borildi hamda 4-fenilbutin-3-ol-2 (82%), 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3 (71%), 1-siklogeksil-3-fenilpropin-2-ol-1 (76%), 1,3-difenilpropin-2-ol-1 (86%) unum bilan sintez qilindi va ularning xususiy xossalari va fizik-kimyoviy kattaliklari zamonaviy tadqiqot usullari orqali aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida sintez qilingan atsetilen spirtlari tarkibi hisoblandi va aniqlandi.

4- Jadval

Sintez qilingan atsetilen spirtlari element tahlili natijalari

Atsetilen spirtlari	Brutto formulasi	Molekular massasi, g/mol	Tahlil natijalari	Elementlar nomi va tahlili, %		
				C	H	O
1	$C_{10}H_{10}O$	146,2	Hisoblangan	83,81	8,26	7,93
			Aniqlangan	83,24	8,32	8,44
2	$C_{12}H_{12}O$	172,2	Hisoblangan	83,31	8,15	8,54
			Aniqlangan	83,18	8,21	8,61
3	$C_{15}H_{18}O$	214,3	Hisoblangan	84,77	8,65	7,58
			Aniqlangan	83,60	8,85	7,55
4	$C_{15}H_{12}O$	208,26	Hisoblangan	84,19	9,47	6,34
			Aniqlangan	84,03	9,67	6,30

Sintez qilingan atsetilen spirtlari kvant-kimyoviy ko‘rsatkichlari − HyperChem Activation 7,0 paketi STAT dasturi bo‘yicha aniqlandi.

5- Jadval

Cintez qilingan atsetilen spirtlari kvant-kimyoviy hisoblashlari

Kvant-kimyoviy xossalar	Atsetilen spirtlari kvant-kimyoviy natijalari			
	1	2	3	4
Umumiy energiyasi,	-40141,22	-43771,35	-55509,33	-57517,82
Hosil bo‘lish energiyasi,	-2276,47	-2700,22	-3201,08	-3562,18
Hosil bo‘lish issiqligi,	13,02	35.25	47,06	-1,43
Elektron energiyasi, eV	-186922,89	-231201,6	-310809,6	-349827,3
Yadro energiyasi	146781,68	187430,30	255300,31	292309,49
Dipol momenti, (D)	1,381	1,604	1,362	1,619
Kislorod atomi zaryadi	-0,316	-0,303	-0,316	-0,320

Sintez qilingan atsetilen spirtlari ayrim fizik kattaliklari fizik-kimyoviy tadqiqot usullarida tadqiq qilindi.

6- Jadval

Sintez qilingan atsetilen spirtlari ayrim fizik kattaliklari

Atsetilen spirtlari	Molekular massasi, g/mol	$T_{qayn.}$, ˚C	n_d^{20}	d_n^{20}	Rangi

1	146,2	251-253	1,5667	1,005	Rangsiz
2	172,2	153-155	1,4031	1,1784	Sariq
3	214,3	346-348	1,569	1,1	Sariq
4	208,26	110-112	1,618	1,099	Yashil

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kobychev V.B, Vitkovskaya N.M., Orel V., Schmidt E.Yu. Alkyl and arylketone reaction with phenylacetylene promoted by KOH-DMSO superbase // Russian Chemical Bulletin, 2015, № 3. pp. 518-524.

2. Gui Lu, Yue-Ming Li, Xing-Shu Li, Albert S.C. Chan. Synthesis and application of new chiral catalysts for asymmetric alkynylation reactions // Coordination Chemistry Reviews, 2005, Volume 249, pp. 1736-1744.

3. Suyog Marathe, Anil V Karnik. A convenient methodology for the synthesis of substituted BINOL derivative using Cu-amine complexation method // Indian Journal of Chemistry, 2018, Volume 57, pp. 534-537.

4. Меркулов В.В., Алмазов А.И., Мантлер С.Н., Жуманазарова Г.М. Синтез непредельного ацетиленового спирта – диметилдигексилбутиндиола // Современные наукоемкие технологии, 2019, № 3/1. С. 54-59.

5. Schmidt E.Yu., Cherimichkina N.A., Bidusenko I.A., Protsuk N.I., Mikhaleva A.I. and Trofimov B.A. Alkynylation of Aldehydes and Ketones Using the Bu_4NOH/H_2O/DMSO Catalytic Composition // European journal Organic Chemistry, 2014, №21, pp. 4663-4670.

6. Qin Wang, Lina Pu. Diverse Transformations of Chiral Propargylic Alcohols Generated by BINOL-Catalyzed Alkyne Addition to Aldehydes // Synthetic letter, 2013, Volume 24, pp. 1340-1363.

7. Ziyadullaev O.E., Abdurakhmanova S.S., Samatov S.B., Otamukhamedova G.Q., Tirkasheva S.I., Ikramov A. Synthesis of acetylene alcohols by catalysts $ZnEt_2/Ti(O^iPr)_4$/PhMe and $Sn(OTf)_2/NEt_3$/MeCN // IV Scientific-Technological Symposium “Catalytic Hydroprocessing In Oil Refining”, Novosibirsk, Russia, 2021. – pp. 133-134.

8. Темкин О. Н. “Золотой век” гомогенно-каталитической химии алкинов: димеризация и олигомеризация алкинов // Кинетика и катализ,– 2019, № 6, С. 683–724.

9. Abduraxmanova S.S., Ziyadullayev O.E., Otamuxamedova G.Q., Tirkasheva S.I., Ablakulov L.K. Ayrim aldegidlarni suyuq ammiak ishtirokida fenilatsetilen yordamida alkinillash // “Kimyo-texnologiya fanlarining dolzarb muammolari” mavzusidagi Xalqaro olimlar ishtirokidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani, Toshkent. 2021. 38-39 b.

10. Ziyadullaev O.E., Tirkasheva S., Otamukhamedova G., Abdurakhmanova S., Salieva M., Ikramov A. Enantioselective alkynylation of aldehydes and ketones by catalyst KOH-Et3N-Et2O or TGF // XXIV International Conference on Chemical Reactors «Chemreactor-24», Milan, 2021. P.439.

AYRIM O‘SIMLIK MOYLARI YOG‘ KISLOTALARINING IQ VA XROMATOMASSPEKTROSKOPIYA SPEKTORLARINING QIYOSIY TAHLILI

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИК-СПЕКТРОВ И ХРОМАТО-МАСС-СПЕКТРОСКОПИИ ЖИРНЫХ КИСЛОТ НЕКОТОРЫХ РАСТИТЕЛЬНЫХ МАСЕЛ

COMPARATIVE ANALYSIS OF IR AND CHROMATOMASSPECTROSCOPY SPECTRA OF FATTY ACIDS OF SOME VEGETABLE OILS

D.R.Tojiboyev- doktarant,
M.Yu.Isaqov- kimyo fanlari nomzodi, dotsent
V.U.Xo‘jayev- kimyo fanlari doktori,professor, Qo‘qon DPI

Annotatsiya: Istemol qilinadigan besh xil turdagi o‘simlik moylari yog‘ kislotalarining tarkibi va miqdoriy ko‘rsatkichlarining qiyosiy taxlili o‘tkazildi. Tarkib va miqdor orasidagi bog‘liqlik asosida moylarning mansubligini aniqlashga oid mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: o‘simlik moylari, yog‘ kislotalar, infraqizil spektr, xromatomaspsektr.

Аннотация: Проведен сравнительный анализ состава и количества жирных кислот пяти видов потребляемых растительных масел. Сделаны замечания по определению принадлежности масел по соотношению содержания и количества.

Ключевые слова: растительные масла, жирные кислоты, инфракрасный спектр, хроматомный спектр,

Annotation: A comparative analysis of the composition and amount of fatty acids of five types of consumed vegetable oils has been carried out. Remarks were made on determining the belonging of oils by the ratio of content and quantity.

Keywords: vegetable oils, fatty acids, infrared spectrum, chromatom spectrum.

O‘simlik moylari kelib chiqishiga ko‘ra turli tarkib va xossalarga ega. Ularni oziq-ovqat sifatida, texnik maqsadlarda, maishiy turmushda, tabobatda va boshqa soxalarda ishlatilishi ularning individual xossalari bilan bog‘liq. Moylarni ko‘p miqdorda ishlab chiqarilishiga qaramasdan bugungi kunda ularga bo‘lgan talab darajasi ortib bormoqda. Bazi sohalarda ularning yetishmovchiligi ham mavjud. Turli moylarning kimyoviy tarkibini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan o‘rganish va taxlil qilish, kompazitsion moylar yaratish orqali istemol moylarining istemol zaxirasini ko‘paytirishiga olib keladi. Shu sababli Respublikamizda istemol qilinadigan asosiy o‘simlik moylari xalq amaliyotida aralash moylar olishda hamda tabobatda foydalaniladigan 5 xil moylarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari, infraqizil va xromatomas spektrlarini o‘rganish asosida yog‘ kislotalari kimyoviy tarkibining qiyosiy taxlili o‘tkazildi.

Tahlil uchun namunalar O‘zbekiston hududida yetishtirilgan o‘simliklar-paxta, kungaboqar, sedana, kunjut, zig‘ir urug‘laridan sovvuq pres usulida ajratib olingan moylardan foydalanildi.

To‘yinmagan kimyoviy bog‘lar tebranish chastotasiga va unga mos yutish intensivligiga o‘rin oluvchi moddalar hamda pozitsion izomerizatsiya katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu hol bog‘lanish dipol momentining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bog‘lanish polyarligi ortishi bilan unga mos yutish spektri intensivligi ham oshadi. Masalan, olein kislotasi *C=O* guruhining tebranishi chastotasi 1712^{sm-1}, 2-okadetsen kislotasiniki esa 1708^{sm-1}. Bunday farq C=C ga nisbatan olib qaralganda, uning yanada katta ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu C=C bog‘lanishning elektron buluti kislorod atomi tomon siljishi natijasida polyarlanishi bilan bog‘liq. 2-oktadetsen kislotasi C=C guruhining tebranishi chastotasi olein kislotasinikidan 30^{sm-1}ga past, uning spektri intensivligi esa deyarli 2 marta ortiq.

Molekuladagi har xil guruhlar (izolyatsiyalangan to‘yinmagan bog‘lanishlar, CH_2-guruhlari va.h.k)

miqdorini aniqlash bu guruhlarning molekuladagi miqdori oshishi bilan ular spektri intensivligining ham oshishiga asoslagan. Masalan, normal alkanlar qatorida pentandan boshlab CH_2 deformatsion tebranishlarining (v=1468^{sm-1}) yutilishi molyar koeffitsenti har bir keying CH_2 guruhi qo‘shilishi bilan 8 birlikka oshadi.

Yog‘ kislotalaridagi karboksilning OH-guruhi valentlik tebranishlari chastotalari kislotaning assotsiatsiyalanish darajasiga bog‘liq. Assotsiatsiyalangan OH-guruhi keng yutish zonasiga ega (v=3000-2500^{sm-1}). Bug‘larda va juda ham suyultirilgan eritmaladra assotsiatsiyalanmagan OH-guruhi juda ham kuchsiz spektrga ega (v=3600^{sm-1}).

Spektrlar intensivligi o‘zgarishlariga tadqiq etilayotgan molekulalardagi ichki molekulyar va molekulalararo o‘zaro tasirlashuvlardan tashqari aniqlash (o‘lchash) sharoitlarning ta’siri ham (harorat, agregat holat, erituvchi tabiati) sabab bo‘ladi. Bu xususan yog‘ kislotalari uchun xarakterlidir.

To‘yinmagan yog‘ kislotalarini strukturasini aniqlash uchun –C=C- guruhlar spektrlarini xarakteristik tahlil etish imkoniyatlari juda katta qiziqish uyg‘oyadi. Zanjir ichida COOH guruhidan uzoqda joylashganida u past intensivlikda spektrlarni beradi (v=1670 va v=1650 $^{sm-1}$). Spektrlar radikalning uglerod atomlari soniga bog‘liq emas. Lekin, tsis-trans-izomeriya spektrga ta’sir etadi, tsis-izomer kislotalar (olein, petrozelin, eruk) spektrlari v=3003^{sm-1}da paydo bo‘ladi. Trans-izomer kislotalarda (elaidin, petrozoelaidin, brassidin) v=3003^{sm-1}da nurlanish yutilishi kuzatiladi.

*v=700-1000 $^{sm-1}$*trans izomerlar C-H gruhi *v=968^{sm-1}* nurlanish spektrini beradi. Bu nurlanish spektrli intensivligi trans-bog‘lanishlar miqdoriga proportsional. Tsis-izomerlar *v=700^{sm-1}* dagi yutilish spektrlari bilan xarakterlanadi.

Yog‘ kislotasi agregat holatining suyuqlikdan qattiqga keskin o‘zgarishida *C=O-* gruhi xarakteristik spektri 1705-1725 $^{sm-1}$ dan kichik chastotalar tomon (1350-700^{sm-1})ga siljiydi. Bunda ko‘rsatib o‘tilgan chastotalar intervalida bir-biridan teng orqada qoluvchi past intensivlikdagi spektrlar paydo bo‘ladi, bu spektrlar soni uglerod zanjiri uzunligi *n* haqida ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.

$C_p > C_{12}$ bo‘lganda ushbu seriyadagi spektrlar soni *p*/2 (p-juft bo‘lganida) va $\frac{n+1}{2}$ (*p*-toq son bo‘lganida)ga teng.

$C_p > C_{12}$ bo‘lganda spektrlar soni va ularning tartibi buziladi (o‘zgaradi).

IQ-spektrlarida yog‘ kislotalari kristallik panjaralari tuzilishidagi o‘zgarishlar (polimorfizm) o‘z aksini topadi. Turg‘un (stabil) formadagi kislotalar uchun 1200-1300^{sm-1} intervalidagi spektrlar xarakterlidir. δ (OH) uchun v=935-950^{sm-1}, CH_2-gruhi deformatsion tebranishlari uchun esa dublet 738 va 724^{sm-1} xosdir. Metastabil formalar uchun 1200-1300^{sm-1} dagi spektrlar yo‘qolishi, δ (OH) 870-880^{sm-1} tomonga siljishi, δ (CH_2) uchun esa v=724^{sm-1} bo‘lgan spektr xarakterlidir [4].

Tahlil uchun olingan moylarning IQ spektorlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Markaziy Bojxona laboratoriyasida *Agilent texnology Cary 630* infraqizilspektrometri yordamida olindi.

Olingan natijalar turli adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga taqqoslanib o‘rganilganda, moylar tarkibida quyidagi funksional guruhlar borligi aniqlandi: metil (-CH_3) hamda metilen (-CH_2-) guruhlar chastotasi 2800-2900 sm^{-1}, karbonil guruh (-C=O) va qo‘shbog‘ tutgan (C=C) guruhlar chastotasi 1500-1800sm^{-1}, efir bog‘ (C-O-C) guruhining chastotasi 1000-1200 sm^{-1}, tsis-xolatdagi dien qo‘shbog‘ tutgan guruhning chastotasi 650-750 sm^{-1} da ko‘rish mumkin. Shuningdek (=CH-) 1300-1500^{sm-1}, uglerod galogen bog‘lanish (C-Hl) 650-750^{sm-1} spektorlarining mavjudligi hamda boshqa adabiyotlarga taqqoslangan holda tadqiq etilgan moylar tarkibida sterinlar, fosfatidlar, vitaminlar A, D, E va K, karotinoidlar, yog‘, kapron, kapril, kaprin, laurin, araxin, begen va to‘yinmagan eruk kislotalar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bulardan tashqari, ba’zi yog‘lar tarkibida 4 yoki 5 tadan to‘yinmagan bog‘lanishi yoki oksi guruhi bo‘lgan, ba’zan esa siklik kislotalar ham

uchraydi degan xulosalarga kelindi(spektrlar 1-rasmda keltirilgan).



1-rasm. O‘simlik moylarining IQ spektrlari: a-kungaboqar moyi; b-paxta moyi; d-sedana moyi; e-kunjut moyi; f-zig‘ir moyi

Natijalarga aniqlik kiritish hamda moylar tarkibidagi yog‘ kislotalarning sifat va miqdoriy tarkibini o‘rganish maqsadida namunalar ustida Gaz-xromato mass-spektr taxlili amalga oshirildi.

Gaz-xromato mass-spektr taxlilini amalga oshirishda foydalanilgan materiallar va usullar.

Ushbu ishda 5 xil o‘simlik moylarining namunalari taxlil qilindi.

I.Moylarning yog‘ kislota tarkibini aniqlash. Yog‘ kislotalarning geksanli ekstraktini ozroq miqdor suvsiz Na_2SO_4 yordamida suvsizlantirildi. Erituvchini bug‘latish yo‘li bilan chiqarildi va yog‘ kislotalarning metil efirlari (ME-FA) [1] metodika bo‘yicha tayyorlandi. 50 mg moy tarkibida 0,4 M KOH tutgan 3 ml metanolda eritildi. Ishqor-metanol emulsiyasi aralashtirgichda 10 min davomida 60-65 ^{0}C haroratda aralashtirildi va reaksion aralashma sovitilgandan so‘ng teng hajimdagi suv qo‘shib suyultirilgan konsentrlangan H_2SO_4 ning tegishli miqdori bilan neytrallandi. Yog‘ kilsotalarning metil efirlari reaksion aralashmadan 1 ml geksan qo‘shib ekstraksiya qilindi. Geksan qatlamlari birlashtirildi, Na_2SO_4 yordamida

suvsizlantirildi va quruq xolga kelgunicha bug‘latildi. Quruq ME-FA 1ml geksanda eritildi va 2 mkl olingan massa GX-MS ga 1:20 nisbatta analiz uchun yuklandi. GX-MS o‘tkazishda GX-modulida GX 8890 bilan MCD 5977 (Agilent, AQSH) birgalikda foydalanildi. 5HP-MS (30 m nisbat 0,3 mm) qo‘zg‘almas fazali qutublangan kapilyar kalonnadan GX ajratgich uchun quyidagi sharoitdan foydalanildi:

Ijektor: 180 ^{0}C;

Tashuvchi: He 1,5 ml/min;

Thermostat: ishga tushurishda har bir minutda 100 ^{0}C, so‘ng har minutida 10^{0}C dan 180 ^{0}C gacha, keyin har besh minutda 6 ^{0}C dan 230 ^{0}C gacha oshirib borildi.

Umumiy vaqt: 22,33 min;

Detektor: 250 ^{0}C;

Ionlash: 70 eV da elektron biriktirish;

MS da belgilash har 4 minutda (vaqt oralig‘i erituvchi pikigacha) m/z chegarada 10-500;

Yog‘ kislotalari masspektorlarining etalon biblatekasidan (Wiley va NIST ning birlashgan biblatekasi [3]) foydalanib identfikatsa qilindi. Tekshirilayotgan moy namunalarining yog‘ kislotali tarkibi TIC-xromatogramma bo‘yicha hisoblandi: TIC maydoni, mavjud yog‘ kislotalarning metil efirlari pikida FA ga mos keluvchi miqdorda % sifatida qabul qilinadi.

O‘simlik moylarini KOH-metanol bilan tog‘ridan-to‘g‘ri transmetillash FA derevikatsiya qilishning, metil efiri kabi (FA-ME) oson va samarali usuli sifatida tanlab olingan.

FA-ME ning to‘liq identfikatsiya qilish GS-MS yordamida amalga oshirildi.

Kinoa urug‘i FA-ME moy TIC (total ion chromatogram)-xromatogrammasi 2-rasmda keltirilgan. Yog‘ kislotalarning tarkibini aniqlashda piklarni identfikatsiyalashdan avval NIST va Willey etalon masspektorlar biblatekasidan foydalanildi (2-rasm).



2-rasm. Turli moylardan olingan FA-ME TIC-xromatogrammasi, ko‘k bilan to‘yingan yog‘ kislotalarning piklari, pushti bilan to‘yinmagan yog‘ kislotalari piklari berilgan.


RT: 0.00 - 21.11
NL:
9.49E8
TIC MS
Fatty_acid2
03
7.35
11.57
10.38
18.77
7.43
11.75
12.26
13.28
13.15
13.52
14.41
19.39
8.93
10.25
10.83
15.86
16.22
18.17
20.52
3.02
3.80
3.99
4.41
6.15
6.21
7.28
7.90
Time (min)

a)


RT: 0.00 - 21.10
NL:
6.73E8
TIC MS
Fatty_acid2
04
7.34
11.55
10.37
8.93
18.77
8.85
10.25
7.42
11.50
12.26
13.15
14.40
14.83
15.63
16.42
17.22
18.69
19.38
20.49
3.88
3.99
3.01
3.71
4.94
5.30
6.75
7.26
8.69
10.15
Time (min)

b)


RT: 0.00 - 21.09
NL:
9.38E8
TIC MS
Fatty_acid
09
7.35
11.57
10.38
11.62
17.22
7.44
18.77
8.93
11.51
12.26
14.41
14.83
19.39
19.73
3.90
4.95
6.22
7.28
8.86
10.26
13.29
16.23
17.01
18.17
Time (min)



d)

e)



f)

3-rasm. O‘simliklardan olingan (a-kungaboqar; b-paxta; d-sedana; e-kunjut; f-zig‘ir) moy namunalarining gazxromatomass spektrlari

Gazxromatomass spektrlari taxlillar natijasida olingan ma’lumotlar 1-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Gidrolizatsiyadan keyingi moy tarkibidagi yog‘ kislotalar miqdori (% da)

Kislota nomi	Kungaboqar moyi	Paxta moyi	Sedana moyi	Kunjut moyi	Zig‘ir moyi
Miristin kislota ($C_{14:0}$)	0.16±0.03	0.17±0.03	0.16±0.03	0.16±0.03	0.17±0.03
Mristolein kislota ($C_{14:1}$)	≤0.1	≤0.1	≤0.1	≤0.1	≤0.1
Palmitin kislota ($C_{16:0}$)	17.16±0.30	19.54±0.30	15.16±0.30	11.16±0.30	13.34±0.30
Palmitolein kislota ($C_{16:1}$)	0.44±0.01	0.24±0.01	0.44±0.01	0.11±0.01	0.15±0.01
Stearin kislota ($C_{18:0}$)	5.53±0.06	10.92±0.05	8.53±0.06	4.51±0.06	6.91±0.05
Olein kislota ($C_{18:1}$)	24.14±0.75	27.95±0.70	24.14±0.75	24.14±0.75	23.95±0.70

Linol kislota ($C_{18:2}$)	49.73±1.80	33.98±1.80	45.73±1.80	42.71±1.80	43.18±1.80
Linolein kislota ($C_{18:3}$)	3.34±0.06	6.62±0.05	8.34±0.06	8.34±0.06	8.62±0.05
Araxidon kislota ($C_{20:0}$)	0.31±0.03	0.25±0.02	0.31±0.03	0.41±0.03	0.35±0.02

Gazxromatomass spektrlari taxlillar natijasida olingan ma’lumotlarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi.

O‘simlik moylari tarkibidagi kislotalarning miqdori moylarni qaysi o‘simlikka mansub ekanligini va bu orqali moylarni bir biridan ajratish imkonini beradi.

Miritsin va Miristolein kislotalari yuqorida keltirilgan moylar tarkibida deyarli bir xil miqdorda uchradi.

Palmitin kislotasi Paxta moyi tarkibida ko‘proq (19.54±0.30), Kunjut moyi tarkibida qolgan o‘simlik moylariga nisbatan esa ozroq (11.16±0.30) aniqlandi.

Palmitolein kislotasi Kungaboqar va Sedana moylarida bir xil (0.44±0.01) miqdorda, Kunjut moyi tarkibida (0.11±0.01) eng kam miqdorda aniqlandi.

Stearin kislotasi keltirilgan moylardan eng ko‘p Paxta moyi tarkibida (10.92±0.05%) va eng kam (4.51±0.06) Kunjut moyi tarkibida aniqlandi.

Olein kislota Paxta moyi tarkibida qolgan o‘simlik moylariga nisbatan qisman ko‘proq (27.95±0.70) miqdorni tashkil etdi.

Linol kislota o‘rganilgan o‘simlik moylarida bir-biridan ko‘p farq qilmagan holda eng ko‘p Kungaboqar moyi tarkibida (49.73±1.80) aniqlandi.

Linolein kislotasi ham o‘simlik moylarida bir-biridan ko‘p farq qilmadi, lekin Kungaboqar moyi tarkibida qolgan moylardan deyarli ikki barobar kam miqdorda (3.34±0.06) aniqlandi.

Araxidon kislota tekshirilgan barcha o‘simlik moylarida bir-biridan ko‘p farq qilmadi.

O‘simlik moylaridagi yog‘ kislotalari miqdorlari orasidagi nisbat doimiy qiymatga ega bo‘lishi ularning mansubligi haqidagi dastlabki xulosa uchun asos bo‘lishi mumkin. Turli iqlim va turli sharoitda yetishtirilgan o‘simliklar urug‘laridan muayyan sharoitda ajratib olingan moylarni yog‘ kislotalarini sistemalarini taxlil qilish bu masalalarni o‘rganishda muxim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PN-EN ISO 659:1999, Oilseeds – Determination of oil content (Reference method),PKN, Warsaw 1999.
2. R. Wirasnita, T. Hadibarata, Y.M. Novelina, A.R. Mohd Yusoff, Z. Yusop. A Modified Methylation Method to Determine Fatty Acid Content by Gas Chromatography. Bull. Korean Chem. Soc. 2013, Vol. 34, No. 11 3239-3942.
3. http://eu.wiley.com/WileyCDA/WileyTitle/productCd-1118143949,miniSiteCd-STMDB2.html
4. *[https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/oziq-ovqat-texnologiyasi/yog-larning-tarkibi-va-sifatini-analiz-qilish]*

VIGNA SINENSIS, PHASELOUSAYREUS, ARACHHIS HYPOGAEA DUKKAKLI O‘SIMLIKLAR DONLARI VA POYALARIDAGI ELEMENTAR VA ORGANIK TARKIB TAHLILI

АНАЛИЗ ЭЛЕМЕНТАРНОГО И ОРГАНИЧЕСКОГО СОСТАВА ЗЕРНОВ И СТОБОВ VEGNA SINENSIS, PHASELOUSAYREUS, ARACHHIS HYPOGAEA ЗЕРНОВЫХ РАСТЕНИЙ

ANALYSIS OF ELEMENTARY AND ORGANIC COMPOSITION OF VEGNA SINENSIS, PHASELOUSAYREUS, ARACHHIS HYPOGAEA GRAIN PLANTS GRAINS AND STEMES

U.V.Muqimjonova-tayanch doktorant,
M.Yu.Isaqov-k.f.n., dotsent, Qo‘qon DPI
N.T.Xujayeva katta o‘qituvchi, Qo‘qon DPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada *Phaselousayreus*(yeryong‘oq), *Vigna sinensis* (loviya), *Arachhis hypogaea* (mosh) kabi dukkakli o‘simliklar donlari va poyalaridagi makro- va mikroelementlar, ulardagi oqsillar aminokislotalar va vitaminlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Zaruriy komponentlarning o‘simlik poyalarida va donlarida tarkibiy jihatdan yaqinligi ko‘rsatib o‘tildi. Ushbu o‘simlik poyalaridan to‘yimli chorva ozuqalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi asoslandi.

Tayanch so‘zlar: oqsillar, makro- va mikroelementlar, aminokislotalar, vitaminlar, xromotografiya, neytron-aktivatsion analiz, Steven A., Cohen Davie metodi

Аннотация: В данной статье рассмотрено содержание макро- и микроэлементов в зерне и стеблях бобовых культур, таких как *Phaselousayreus* (арахис), *Vigna sinensis* (фасоль) и *Arachhis hypogaea* (маш) количественные показатели их белка, аминокислоты, витаминов. Показано структурное сходство необходи-мых компонентов в стеблях и зернах растений. На основе полученних данных установлено, этих растений можно использовать при приготовлении питательных кормов для животных.

Ключевые слова: белки, макро- и микроэлементы, аминокислоты, витамины, хроматография, нейтрон-активационный анализ, метод Стивена А., Коэн-Дэви

Annotation: This article examines the macro- and microelements in the grains and stalks of legumes, such as *Phaselousayreus* (walnut), *Vigna sinensis* (beans) and *Arachhis hypogaea* (мош) the quantitative indicators of their protein, amino acids, and vitamins. The structural similarity of the necessary components in plant stems and grains was demonstrated. It was based on the fact that the stems of this plant can be used in the preparation of nutritious animal feed.

Keyword: proteins, macro- and microelements, minoacids, vitamins, chromatography, neutron activation analysis, Steven A., Cohen Davie method.

Yeryong‘oq, loviya, mosh-dukkakli o‘simliklarning vakillari bo‘lib, qishloq xo‘jaligida muxim oziq-ovqat maxsuloti sifatida ko‘p yetishtiriladi. Ularning donlari makro va mikroelementlarga, moy, vitaminlar, oqsillarga boyligi xamda to‘yimlilik darajasining yuqoriligi tufayli suyib ist’emol qilinadi. Shu bilan birga sanoatda ulardan olingan mahsulotlar texnik maqsadlarda ishlatiladi. Xalq tabobatida ham muhim davolash vositalaridan xisoblanadi. Ularning poyalari ham o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lganligi sababli chorva ozuqasi sifatida foydalaniladi. Dukkakli o‘simliklarning ko‘plab turlari bor ularning element va organik tarkibini o‘rganishga katta qiziqish bilan qaraladi. [1-3]

Dukkakli o‘simliklardan olinadigan mahsulotlar ularning kimyoviy tarkibiga bevosita bog‘liq. Kimyoviy tarkib esa

ularning turlariga, yetishtiriladigan tuproq va iqlim sharoitlariga bog‘liq. Shu sababli ham turli sharoitlarda yetishtirilgan dukkakli o‘simliklarning donlari va poyalarining kimyoviy tarkibini o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Materiallar va metodlar. 2021-yili Farg‘ona viloyatining Beshariq tumani Soy bo‘yi maxallasida yetishtirilgan mosh, loviya, yeryong‘oq kabi dukkakli o‘simliklar poyasi va donlari(mevalari) tadqiqot ob’ekti sifatida olindi.

Bu tuproqqa ekilgan dukkakli o‘simliklar donlari yetilgandan so‘ng ularning poyalari va donlaridan analiz uchun olingan namunalar quyidagicha belgilandi: yeryong‘oq poyasi namunasi -2021 BYP; loviya poyasi namunasi -2021 BLP; mosh poyasi namunasi -2021 BMP; yeryong‘oq namunasi -2021 BYD; loviya namunasi -2021 BLD; mosh namunasi -2021 BMD.

Olingan namunalardagi mikro- va makroelementlar miqdori UzFA Yadro fizikasi institutining analitik laboratoriyasida instrumental neytron-aktivatsion analiz asosida o‘rganildi. [4,5]

Namunalardan 150 gr dan tortimlar olindi va quritish shkafida 60 ^{0}C da doimiy massaga keltirildi, so‘ngra chinni xovonchada bir jinsli holatga kelguncha maydalandi. Qisqa muddat mavjud bo‘ladigan radionuklidlarni aniqlash uchun 40-50 mg; o‘rta va uzoq muddat mavjud bo‘ladigan radionuklidlar uchun 90-100 mg dan namunalar olindi. Analiz uchun tayyorlangan namunalar polietilen paketlarga qadoqlandi.

Neytronlar manbayi sifatida VVR-SM yadro reaktoridan foydalanildi. Nurlantirish kanallaridagi neytronlar oqimi $5*10^{13}$ neytron/sm.sek ni tashkil etdi.

Dukkakli o‘simliklar poyalari va donlaridan olingan namunalardagi umumiy oqsillar, aminokislotalar va vitaminlar miqdorini o‘rganish UzFA A.S. Sodiqov nomidagi Biorganika institutining oqsillar va peptidlar laboratoriyasida bajarildi.

Oqsilning umumiy miqdorini aniqlash. Usulning mohiyati azotni Kyeldal bo‘yicha aniqlanib, uni oqsilga qayta xisoblashdan iborat. Buning uchun tekshirilayotgan namunalar qaynoq konsentrlangan sulfat kislotada parchalab, azot ammoniy tuzlariga o‘tkazildi, aralashma ishqor bilan neytrallanib, ammiak kislota eritmasiga haydab olindi. Ammiak miqdori titrametrik usulda topildi. So‘ngra azotga nisbatan umumiy oqsil miqdorini topish uchun qayta hisoblashlar o‘tkazildi. [6]

Erkin aminokislotalarni aniqlash Steven A., Cohen Davie metodi bo‘yicha amalga oshirildi.[7] Quritilgan va bir jinsli holatga keltirilgan dukkakli o‘simliklar poyalari va donlari namunalaridagi oqsil va peptidlar dietillangan suv bilan ekstraksiya qilindi. Oqsil va peptidlarni suvli ekstraktdan cho‘ktirish uchun sentrafuga stakanlariga 1 ml dan olinib, ularga 1 ml 20% li trixlorsirka kislota qo‘shildi. 10 min dan so‘ng cho‘kma 15 min davomida 8000 ayl/min tezlikda sentrafugalandi. Cho‘kma ustidagi suyuqlik (0.1ml) ajratib olinib quritildi. Gidrolizat bug‘latildi, quruq qoldiq trietilamin–atsetonitril–suv (1:7:1) aralashmasida eritildi va quritildi. Kislotani neytrallash uchun bu jarayon ikki marta amalga oshirildi. Feniltiizotsianat va aminokislotalar reaksiyasi bilan feniltiokarbamin xosilalari (FTK) olindi. Aminokislota xosilalari yuqori samarali suyuq xromotografiya usulida identifikatsiya qilindi. Xromotografiyalash quyidagi sharoitda amalga oshirildi: xromotograf Agilent technologies DAD 1200 detektorli, kolonka -75*4,6 mm Discovery HSC 18. Eritma A: 0.14 M SH_3COOK + 0.05% TEA pH 6.4 ; B: CH_3CN. Oqim tezligi 1.2 ml/min yutilish 269 nm. Gradiyent % V/mm: 1-6 %/0-2.5min; 7-30%/2.51-40min; 31-60%/40.1-45min; 60-60%/45.1-50min; 60-0%/ 50.1-55min.

Suvda eriydigan vitaminlarni YUSSX da aniqlash. Suvda eriydigan vitaminlar analizi Agilent technologies 1200 xromotografda – Exlipse XDBC18 (o‘tuvchan fazali) 3.5 mkm 4.6*150mm li kolonkada olib borildi. Detektori diod-matritsa (DAD) 230, 265, 254, 285 nm. Eritma A: 0.5% sirka kislota, pH 1.7: V: CH_3CN (atsetonitril). Oqim tezligi 0.6ml/min. Gradiyent %V/min. 0-5 min/96:4%, 6-8 min/90:30%, 9-15 min/80:20%, 15-17min/96:4%. Termostat 25^{0}S.

Natijalar tahlili. Neytron-aktivatsion usulda o‘rganilgan loviya, yeryong‘oq, mosh

tarkibidagi makro- va mikroelementlar 1-jadvalda keltirilgan. Makroelementlardan faqat kalsiy, kaliy va natriy aniqlandi. Ularning miqdori K<Ca<Na tartibda kamayadi. Kaliyning miqdori loviyada 15700, moshda 16600, yeryong‘oqda 12400 mkg/g ni tashkil etdi. Dukkakli o‘simliklarda 32 ta mikroelement aniqlandi. Ulardan molibden, bariy, temir, rux miqdori eng yuqori bo‘lib quyidagi ketma-ketlikda kamayadi.

Loviyada: Mo< Fe< Ba=Zn

Moshda: Fe<Zn<Ba<Mo

Yeryong‘oqda: Fe< Zn< Ba< Mo

Mn, Sm, Se, Cr, Sc, Pb kabi elementlar miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra ikkinchi o‘rinni egallaydi. Mishyak, simob, qo‘rg‘oshin, kadmiy, mis, rux kabi og‘ir metallar organizmga salbiy tasiri tufayli sertifikatsiyalash idoralari tomonidan nazorat qilinadi. O‘rganilgan namunalarda ularning miqdori meyoriy ko‘rsatkichlardan yuqori emas [8].

1-jadval

Yeryong‘oq, loviya va mosh donlari tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori

№	Element	Yeryong‘oq	Loviya	Mosh
1.	Natriy, Na	54	100	49
2.	Kaliy,K	12400	15700	14500
3.	Kalsiy, Ca	950	800	890
4.	Marganes, Mn	12,1	14,1	9,5
5.	Samariy, Sm	4,8	4,6	5,3
6.	Molibden, Mo	15,6	65,5	30,5
7.	Lyutensiy, Lu	0,02	0,02	0,01
8.	Uran, U	0,1	0,1	0,10
9.	Itterbiy, Yb	0,2	0,18	0,1
10.	Oltin, Au	0,0042	0,0045	0,0038
11.	Neodim, Nd	0,26	0,37	0,33
12.	Mishyak, As	0,7	0,9	0,9
13.	Volfram, W	<1.0	1,3	1,4
14.	Brom, Br	2,6	0,94	1,4
15.	Lantan, La	2,38	1,4	1,4
16.	Seriy, Ce	5,9	6,4	5,8
17.	Selen, Se	0,42	0,46	0,63
18.	Simob, Hg	0,42	0,053	0,035
19.	Terbiy, Tb	0,27	0,23	0,33
20.	Toriy, Th	0,2	0,1	0,2
21.	Xrom, Cr	0,47	0,32	0,52
22.	Gafniy, Hf	0,01	0,008	0,01
23.	Bariy, Ba	33,7	45,5	38,4
24.	Stronsiy, Sr	17	15	23
25.	Kumush, Ag	<0.1	<0.1	<0.1
26.	Seziy, Cs	0,03	0,02	0,02
27.	Nikel, Ni	2,2	3,6	2,5
28.	Skandiy, Sc	0,0032	0,0039	0,0058
29.	Rubidiy, Rb	5,4	5,1	7,6
30.	Rux, Zn	46	46	54
31.	Kobalt, Co	0,31	0,14	0,22
32.	Tantal, Ta	0,03	0,02	0,02
33.	Temir, Fe	63	51	54
34.	Yevropiy, Eu	0,1	0,04	0,04
35.	Surma, Sb	0,018	0,016	0,012

Namunalardagi aminokislotalar miqdori 2-jadvalda umumlashtirilgan. Dukkakli o‘simliklar poyalari va donlarida jami 20 ta aminokislota mavjudligi aniqlandi. Faqat loviya donida (BLD) 19 ta aminokislota qayd etildi. Unda gistidin aniqlanmadi. Aminokislotalarning umumiy miqdori yeryong‘oq poyalari (BUP)da 3.90, loviya poyalarida (BLP) 4.88, mosh poyalarida (BMP) esa 7.32 mg/gr. Ularning donlarida esa BYD da 6.43, BLD da 12.19, BMD da 9.15 mg/gr ni tashkil etdi. Aminokislotalarning dukkakli o‘simliklar poyalaridagi tarkibi ularning donlaridagi tarkibiga deyarli muvofiq keladi. Aminokislotalar mosh donlarida va loviya poyalarida eng yuqori miqdorda bo‘lib, BUR da glutamin va tirozin (0.423 va 0.458 mg/g), BLR da treonin va triptofan (0.762 va 0.774 mg/g), BMR da esa glutamin, sistein va tirozin (0.746 .0720 va 0.762 mg/g), eng ko‘p miqdorda, lizin, alanin nisbatan kichik qiymatga ega.

Gistidin loviya poyasida (BLR) da aniqlanmadi, lekin uning donlaridagi miqdori (1.134mg/g) nisbatan yuqori.

O‘rganilgan dukkakli o‘simliklar poyalari namunalarida deyarli barcha almashinmaydigan aminokislotalar – treonin, valin, metionin, izoleysin, leysin, triptofan, finilalanin, lizin mavjud.

2-jadval

Yeryong‘oq, loviya va mosh donlari va poyalaridagi aminokislotalar miqdori.

Aminokislotalar Nomi	**BYD**	**BLD**	**BMD**	**BYP**	**BLP**	**BMP**
	Konsentratsiya mg/gr					
Asparagin k-ta	0,224576	0,438162	0,528999	0,223914	0,126986	0,427701
Glutamin k-ta	0,76461	1,231643	1,043207	0,422952	0,111763	0,125874
Serin	0,090609	0,471803	0,510618	0,125885	0,141458	0,361373
Glitsin	0,122864	0,684226	0,644362	0,294562	0,180666	0,391942
Asparagin	0,12069	0,691351	0,644856	0,291266	0,176088	0,389486
Glutamin	0,35163	1,124427	1,078451	0,216633	0,669129	0,746689
Sistein	1,076748	0,212006	0,240881	0,070669	0,233283	0,720365
Treonin	0,263074	1,348925	0,66778	0,389163	0,762493	0,929837
Argenin	0,646261	0,78267	0,086751	0,079715	0,083333	0,56725
Alanin	0,04977	0,052118	0,035997	0,01779	0,043458	0,051075
Prolin	0,108371	0,172914	0,094278	0,113162	0,075536	0,10823
Tirozin	0,361901	1,262537	1,116579	0,458645	0,605352	0,762163
Valin	0,165112	0,19266	0,273748	0,259499	0,198791	0,252418
Metionin	0,182494	0,207053	0,194081	0,069521	0,044962	0,023048
Izoleysin	0,091471	0,28918	0,171338	0,148583	0,122363	0,204039
Leysin	0,104433	0,610242	0,351826	0,175913	0,231745	0,211238
Gistidin	0,105963	1,134698	0,096264	0,243894	0	0,35704
Triptofan	0,231747	0,368492	0,372831	0,185218	0,774087	0,475165
Fenilalanin	1,199538	0,252432	0,402602	0,101167	0,185919	0,162938
Lizin HCl	0,168184	0,664933	0,599155	0,016905	0,11736	0,055375
Jami	**6,430046**	**12,19247**	**9,154606**	**3,905057**	**4,884773**	**7,323244**

Dukkakli o‘simliklar donlari va poyalarida oqsilning umumiy miqdori 3-jadvalda keltirilgan.

Yeryong‘oq, loviya va mosh donlari va poyalaridagi umumiy oqsil miqdori ***3-jadval***

№	Namuna	Oqsil(%)
1	**2021 BYD**	31,00
2	**2021 BLD**	24,636
3	**2021 BMD**	25,99
4	**2021 BYP**	7.60
5	**2021 BLP**	11,131

6	**2021 BMP**	11,96

Yeryong‘oq, loviya, mosh donlaridagi umumiy oqsillar miqdori ularning poyalaridagiga nisbatan bir necha barobar ko‘p. Yeryong‘oq donidagi oqsil poyasidagiga nisbatan 4 barobar; loviya donida poyasiga nisbatan 2.2; mosh poyasida esa doniga nisbatan 2.2 barobar ko‘p. Shunday bo‘lsada bu ko‘rsatkichlar muxim oqsil to‘plovchi vosita sifatida qaralishiga asos bo‘la oladi.

Dukkakli o‘simliklarning donlari va poyalarida suvda yeruvchan 7 xil vitamin borligi aniqlandi. (4-jadval). Loviya (BLP) va mosh (BMP) poyalarida B_6, B_5, B_{12} vitaminlar aniqlanmadi. Lekin B_1, B_2, PP, C vitaminlarni o‘simlik poyalari va donlaridagiga nisbatan turlicha nisbatga ega.

4-jadval

Yeryong‘oq, loviya va mosh donlari va poyalaridagi suvda eriydigan vitaminlar

Vitamin	BYD	BLD	BMD	BYP	BLP	BMP
B-1	3,889096	3,364416	3,429069	6,589581	2,777571	2,870819
B-2	7,510395	16,58004	5,015593	11,85031	6,678794	5,392412
B-6	3,911672	6,100158	3,945189	12,75828	0	0
B-9	3,077322	7,483134	7,950182	2,143228	0	0
B-12	1,90659	1,631478	2,034549	4,772873	0	0
PP	3,168602	3,52015	1,768649	4,188947	3,590303	6,67706
C	2,320709	10,27397	3,553586	2,973409	3,4166	3,223207

Xulosa: Farg‘ona viloyati Beshariq tumanida yetishtirilgan dukkakli o‘simliklar yeryong‘oq, loviya, moshning donlari va poyalarining mineral va organik tarkibini tadqiq etish natijasida ular makro- va mikroelementlarga, oqsillar, aminokislotalar va vitaminlarga boyligi aniqlandi. Ulardagi zaxarli komponentlar miqdori meyoriy talablardan yuqori emas. Aniqlangan 20 ta aminokislotalarning 8 tasi almashinmaydigan aminokislotalarga mansub. O‘simlik poyalaridagi oqsillar va aminokislotalar miqdori donlaridagi tarkibga muvofiq keladi. Organizmlar uchun zarur mitaminlarning 7 turi mavjudligi qayd etildi. Olingan natijalar dukkakli o‘simlik donlari va poyalaridan turli kompozitsion ozuqa maxsulotlarini tayyorlashda asos bo‘la olinishini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Остриков А.Н., Горбатова А.В., Фименцов П.В. Анализ жирнокислотного состова маш, арахиса и грецкого ореха (https:// cyberleninka.ru/article/n/analiz-jirnokislotnog o-sostava-masel-arahisaI-gretskogo-oreха)// Технологы пишевой и перерабативающей промышленность АПК-продукти здрового питания. 4(12) 2016
2. Арсенова М идр Бобовые // Энциклопедия для детей. Биологиа -7-е изд –М.: Мир энциклопедий Аванта, Астрель. 2010-с.319.-589с-19BN 9785989861658
3. Струхина И.М. Химической состав пищевых продуктов. Сировочник “Агропроиздат “ 1987
4. Ehman W.D., Vance D.E., Radiochemstry and Nuclear Methods of Analysis N.Y.: John Wiley and Sons, 1991, 531p.
5. Lutz G.J. et al Activation Analysis: A Bibliography. NBS Technical Note 467 Gaithesburg, md, 1968
6. Методы кантроля Химичкские фактори. Руководство по методом контроля качества и безопасности биологически активных добавок к пище. Руководство Р 4.1 1672-03. М.: Федеральный центр госсанэпиднадзора Минздрава России .2004.
7. Steven A., Cohen Daviel J. Aminoacid analysis utilizing phenylisothioeyanata derivatives//Jour. Analytical Biochemistry. 1988. V. 17. №1,pp1-16
8. Сыре и продукти пишевые. Подготовка проб минерализация для определения токсичных элементов. ГОСТ 26429-94.

BOYITILGAN VA MODIFIKASIYALANGAN GIL MINERALLARINI TERMIK TAHLIL QILISH

ТЕРМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБОГАЩЕННЫХ И МОДИФИЦИРОВАННЫХ ГЛИНИСТЫХ МИНЕРАЛОВ

THERMAL ANALYSIS OF ENRICHED AND MODIFIED CLAY MINERALS

F. N Jurayeva-doktorant,
A.B Abdikamalova- k.f.d. kat.il.xod.,
I.D. Eshmetov t.f.d, prof., O‘zR FA UNKI
M.M Muratov-magistr,
G‘.M.Ochilov-k.f.n., dosent Qo‘qon DPI

Annotasiya: Navbahor va Krantau bentonit minerallari boyitiganda va Na^+ ionlari saqlovchi reagent bilan modifikasiyalanganda ular tarkibidagi Ca^{2+} ionlari Na^+ kationlari bilan almashinishi natijasida struktura tuzilishida bo‘ladigan o‘zgarishlar kompleks termik tahlil: termogravimetriya va kalorometriya usullari yordamida aniqlandi. Krantau bentoniti boyitilgan va modifikasiyalangan shaklida ikkita cho‘qqi, yani 73,247 ва 428,004°C haroratlarda parchalanish energiyasining keskin ortishi ko‘zatilib, bu mineral tarkibida asosiy montmorillonitdan tashqari qo‘shimcha minerallar borligini isbotlasa, Navbaxor bentonitida asosiy cho‘qqi 79,927°C horaratga to‘g‘ri kelishi montmorillonit mineralining tozalik darajasi yuqoriligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: termogravimetriya, differensial termogravimetriya, differensial skanerlovchi kalorometriya, montmorillonit, intensiv cho‘qqi.

Аннотация: Комплексный термический анализ: определение изменений структуры минералов бентонита Навбахор и Крантау в результате обмена ионов Ca^{2+} на катионы Na^+ при обогащении и модификации Na^+ содержащим реагентов. В обогащенной и модифицированной форме бентонита Крантау наблюдается резкое увеличение энергии разложения на двух пиках, 73 247 и 428 004 ° C, что доказывает, что минерал содержит дополнительные минералы помимо основного монтмориллонита, тот факт, что основной пик в бентоните Навбахор соответствует температуре 79,927 ° C, доказывает высокую степень чистоты минерала монтмориллонита.

Ключевые слова: термогравиметрия, дифференциальная термогравиметрия, дифференциальная сканирующая калориметрия, монтмориллонит, интенсивный пик.

Abstract: Complex thermal analysis: determination of changes in the structure of bentonite minerals Navbahor and Krantau as a result of the exchange of $Ca2^+$ ions for Na^+ cations during enrichment and modification of Na^+ containing reagents. In the enriched and modified form of Krantau bentonite, there is a sharp increase in the decomposition energy at two peaks, 73,247 and 428,004 ° C, which proves that the mineral contains additional minerals in addition to the main montmorillonite, the fact that the main peak in Navbahor bentonite corresponds to a temperature of 79.927 ° C proves a high degree of purity of the montmorillonite mineral.

Keywords: thermogravimetry, differential thermogravimetry, differential scanning calorimetry, montmorillonite, intense peak.

Yengil sanoatning to‘qimachilik va buyoqsozlik tarmoqlari hozirgi kunda turmush tarzimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Lekin undan hosil bo‘ladigan chiqindi suvlar atrof muhitga, qolaversa ekologiyaga katta zarar yetkazmoqda. To‘qimachilik tarmog‘ining chiqindi suvlari tarkibida turli kationli va anionli buyoqlar va sirt faol moddalar bo‘lib, ularni zararsizlantirish uchun gil minerallar

asosida yuqori sorbsion xususiyatga ega adsorbent va katalizatorlar tashuvchilarini yaratish dolzarb muammolardan xisoblanadi. Interkalirlangan sistemalar asosida adsorbentlar sintez qilish ilmiy ahamiyatga ega.

Zamonaviy adabiyotlarda interkalirlash bilan bir qatorda ustunli gil atamasi uchraydi – bu qatlamlararo bo‘shliqqa faqat noorganik birikmalar kiritishni nazarda tutadi. O‘ziga xos xususiyatlardan qat’i nazar, modifikasiya jarayonini uchta asosiy bosqichda amalga oshirish mumkin: 1) metall ionlarning ko‘p yadroli gidroskokompleklarni – interkalirlovchi eritma hosil qilishi bilan gidrolizlanishi; 2) ion almashinishi, 3) interkalirlangan materialni issiqlik bilan ishlov berish [1-3].

Ilmiy adabiyotlarda interkalirlangan montmorillonitli sistemalarni olish uchun natriyli montmorillonitga boy bo‘lgan minerallarni qo‘llash samarali ekanligi keltirilgan [4-6]. Bunday talabga mamlakatimiz xududida keng tarqalgan Navbahor va Krantau ishqoriy bentonit gil minerallari to‘g‘ri keladi.

Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari kation almashinish miqdori va ularning disperligi interkalirlash jarayoni borishiga va uning unumiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilishi isbotlangan [3]. Shu sababli tarkibida gidrofil kation Na+ miqdorini modifikasiyalash bilan ortirish sintez natijasida hosil bo‘lgan adsorbentning fizik-kolloid xususiyatlariing yuqori bo‘lishida katta ahamiyatga ega [7].

Navbaxor ishqoriy bentonit (NIB) koni Navoiy viloyati Navbahor tumani jan tog‘ining g‘arbiy yon bag‘irlarda 1998 yilda A.U. Mirzayev va Chiniqulovlar tomonidan o‘rganildi va ochildi. Tasdiqlangan zaxirasi 7142,6 ming t. Konda gilning 3 turi: ishqoriy, ishqoriy-yer xamda karbonatli poligorskitlar mavjud. Mineralda qo‘shimcha sifatida gidroslyuda, kvars va temir gidroksidlari o‘chraydi. Ishqoriy bentonitlar kulrang, yashilroq kulrang, yog‘simon, suvda sekin eriydi ammo kuchli bo‘kadi va yuqori disperslikka ega. [8-10].

Krantau (KR) bentonit koni Qoraqalpog‘iston Respublikasida Nukus viloyati Amudaryoning o‘ng qirg‘oqlarda joylashgan. Uning zahira manbai 5 mln tonnani tashkil etadi. Mineralning yuqori qatlamlari, kulrang rangli zich, bo‘lakli. Pastki gorizantal qatlamdagi gillarning qalinligi 20 m dan oshadi. Ular tarkib jihatdan yuqori gorizantal gillardan organik moddalarga boyligi bilan fariq qiladi. Uning tarkibida asosan Si, Al, Fe ва Ti metallari, metall gidroksidlari va oksidlari o‘chraydi. Meniral tarkibidan kvarsni olib tashlash natijasida silikon oksid miqdori KR va NIB lari mos ravishda 61,4 va 56,4% gacha kamayadi va alyuminiy,natriy, kalsiy va magniy oksidlar miqdori esa ortadi, bu almashinish reaksiyasiga kirishish qobilyatining oshishiga olib keladi[11].

Tanlab olingan tadqiqot ob’yektlari Na+ ionlari saqlovchi reaktivlar bilan modifikasiyalash jarayoni quyidagicha olib borildi: namuna distillangan suv.(pH=6,6) bilan 1:10 massa nisbatda aralashtirilib 100 g suspenziya hosil qilindi. Suspenziya tarkibidagi kalsiyli bentonitni natriyli formasiga o‘tkazish va Ca^{2+} xamda boshka Me^{2+} ionlarini cho‘ktirish maqsadida, tarkibidagi qattiq namuna massasiga nisbatan 0,5 % miqdorida Na_2CO_3 modifikator qo‘shilib, suspenziya 15 dakika davomida magnit aralashtirgichda aralashtirildi va 48 soat davomida tindirildi. So‘ngra suspenziya aralashtirilib turgan holda 1:5 xajm nisbatda suv bilan suyultirildi. Bu jarayonda dispersligi past bo‘lgan Ca^{2+}, Fe^{2+}, Fe^{3+} tuzlari, kvars va boshka cuvda erimaydigan moddalar cho‘kmaga ajralishi kuzatiladi [12]. Dastlabki 20 daqiqa ichida cho‘kmaga tushgan qismdan suspenzyaining yuqori qismi dekantasiya usulida ajratib olindi. Olingan suspenziya qattiq fazasi suyuq qismidan syentrifuga (Hekme Cole Parmer) yordamida ajratib olindi. Xar bir bosqichning ion ko‘rsatgilari IM-160 apparatda aniqlandi. Modifikasiyalangan bentonit namunalari LABSYS evo is a user friendly, robust and highly powerful thermal analysis platform (juda kuchli termik tahlil qiluvchi uskunada) kompleks tahlil qilindi. Uskuna bir vaqtning o‘zida namuna massasidagi o‘zgarishlarni (termogravimetrik tahlil TGA), issiqlik chiqishi yoki yutilishi bilan kechadigan jarayonlar (differensial skanerlash kolorametriyasi, DSK) va maьlum vaqt oralig‘ida moddaning parchalanish tezligiga nisbatini (differensial termogravametrik tahlil DTGA) qilish imkonini beradi. Uning aniqlik darajasi massa jihatdan 0,1 mkg ga va harorat jihatdan 0,001°S ga teng. Uskuna Universal Analysis dasturi

yordamida jarayonning borishi haqida maьlumot beradi [13].

Na+ ionlari saqlovchi reaktivlar bilan modifikasiyalash to‘rt bosqichda amalga oshirildi Xar bir bosqichning ion ko‘rsatgilari IM-160 apparatda aniqlandi, olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.

Bunda NIB va KR menirallarining pH ko‘rsatgichi mos ravishda 8,74 dan 7,22 ga va 8,68 dan 7,95 gacha kamayishini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlardan ma’lumki bentonit mineralining struktura tuzilishi aniqlash uchun 5°C/min tezlikda 20°C dan 1000°C gacha termik analiz qilinadi. DSK usulida uchta endotermik tepalik xosil bo‘ladi: birinchi kuchli endotermik cho‘qqi 100-170°C ga to‘g‘ri keladi, u adsobsiyalangan va katlamlararo joylashgan suv malekulalari bo‘lib yana Na+ kationlari bilan taьsirlashgan suv molekulalarining intinsivligini va termik effeklarni beradi. Ikkinchi endotermik cho‘qqi 520-570°C da bo‘lib, u moddalarning struktura tarkibidagi gidroksid guruxlarini olib tashlab qisman moddaning amorfizatsiya bo‘lishiga olib keladi. Uchinchi endotermik cho‘qqi 800°C ga to‘g‘ri keladi bunda montmorillonitning strukturasi butkul buziladi, shpinel hosil qiladi. [14].



1-rasm.

Boyitish jarayonlarida suspenziya pH qiymatlarining o‘zgarishi

NIB va KR namunalari 26,89°C dan 700°C gacha bo‘lgan haroratda TG tahlil qilindi. Mineral NIB va KR bentonitlarda massa yuqotadi 4,445mg va 2,623mg , ummumiy massaga nisbatan esa 9,071% va , 4,522% ga teng. Bu ko‘rsatgich boyitilmagan bentonit namunasida 2% va 1,2% ga teng. Asosiy massa yo‘qotilish haroratilari 128,96°C va 114,92°C ga to‘g‘ri keladi (1,2-jadval). Olingan termogravimetriya egrilari 2,3-rasmda keltirilgan.



2-расм НИБ ининг термогравиметрия эгриси.



3-расм КР бентонитининг термогравиметрия эгриси.

4,5-rasmlarda NIB va KR namunasining DSK egri chizig‘larni ko‘rish mumkinki. NIBda bitta endotermik intensiv cho‘qqi va KR da bitta endotermik va bitta ekzotermik intensiv cho‘qqi xosil bo‘ladi. Cho‘qqining boshlang‘ish va tugash nuqtasi 42,19°C va 227,17°C, 35,93°C ва 162,14°C oraliqlarda sodir bo‘lib, ikkinchi cho‘qqi y 345,59°C ва 467,84°C oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Parchalanish energiyasini 79,927°C, 73,247°C ва 428,004°C larda keskin ortishi ko‘zatildi. Moddaning parchalanish tezligi 1,136 μV, 1,423 μV ва -0,862 μV larga teng. (1 va 2-jadval)



4-rasm NISH bentonitining differensial skanerlovchi kalometriya egri chizig‘i.



5-rasm. KR bentonitining deffirinsial skanerlash kalorimetrik tahlili.

1-jadval. NIB namunasi termik tahlil natijalari

№	Temperatura,°C	Yo‘qotilgan massa, gr	Moddaning parchalanish tezligi, mg/min	Sarflanadigan energiya miqdori (μV*s/mg)
1	50	0,565	0,137	1,45
2	100	1,985	0,465	2,88
3	200	2,025	0,453	2,01
4	300	3,235	0,087	3,02
5	400	4,185	0,147	1,02
6	500	4,569	0,455	2,03

2- jadval.KR namunasi termik tahlil natijalari

№	Temperatura,°C	Yo‘qotilgan massa, %	Moddaning parchalanish tezligi, mg/min	Sarflanadigan energiya miqdori (μV*s/mg))
1	50	0,225	0,136	1,46
2	100	0,845	0,555	2,54
3	200	1,087	0,653	2,21
4	300	1,145	0,487	3,22
5	400	2,585	1,147	2,02
6	500	3,089	0,455	3,03

Tanlab olingan ob’yektlarda Na^+ ionlari saqlovchi reagentlar bilan modifikasiyalanganda pH ko‘rsatgichi birinchi bosqichda NIB va KR namunalari 8,68 dan 10,46 gacha va 8,74 gacha dan 10,01ga oshganligini ko‘rish mumkin, bu mineralning modifikasiyaga uchraganidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar natijasida Navbaxor ishqoriy bentoniti tarkibidagi almashinuchi kationlar miqdori va ularning yuza qismida kationlarning mavjudlik darajasi Krantau bentonitiga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Krantau bentoniti boyitilgan va modifikasiyalangan shaklida ikkita cho‘qqi, 73,247 va 428,004°S haroratlarda parchalanish energiyasining keskin ortishi kuzatilib, bu mineral tarkibida asosiy montmorillonitdan tashqari qushimcha minerallar borligini isbotlasa, Navbaxor bentonitida asosiy cho‘qqi 79,927°S horaratga to‘gri kelishi montmorillonit mineralining tozalik darajasi yuqoriligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Уташев Ё.И., Абдикамалова А.Б., Эшметов И.Д. Интеркалированные системы в качестве адсорбентов // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2020. № 6 (72). (02.00.00., №2)

2. Жураева Ф. Н., Ибадуллаева С.М., Абдикамалова А. Б , Темир ва алюминий аралаш полигидроксокатионларини бентонит минералига интеркалирлаш // Акбаров Хамдам Икрамович таваллудининг 70 йиллиги хамда илмий фаолиятининг 45 йиллигига бағишланган “Кимёнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани. Тошкент. 2021й., 4-5 февраль 67-68 б

3. Кормош Е.В. Модифицирование монтмориллонитсодержащих глин для комплексной сорбционной очистки сточных вод: дис. … канд. техн. наук. Белгород. 2009. 177 с.

4. Содикова Ш.А., Махкамова Д.Н., Усмонова З.Т. Бентонитовая глина, её физико-химическая характеристика и применение в народном хозяйстве // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2019. № 6 (63).

5. Белецкая, В.А. Адсорбционно-каталитические свойства алюмосиликатов / В.А.Белецкая // Сорбенты как фактор качества жизни и здоровья: материалы II Всерос. науч. с междунар. участием, Белгород, 13-18 сен. 2006 г. – Белгород : изд-во БелГУ, 2006. – С. 23-27.

6. Бондаренко, А.В. исследование ионообменных и адсорбционных свойств катионзамещенных форм слоистых силикатов / А.В.Бондаренко, Л.И.Бельчинская, Н.С.Поляков и др. // Физико-химические процессы в конденсированном состоянии и на межфазных границах: материалы II Всерос. конф. – Воронеж, 2004 г. – Т. 2. – С. 528-529.

7. Воловичева Н.А. Сорбционные свойства литиевых форммонтмориллонитсодержащих глин: дис. … канд. техн. наук. Белгород. 2009. 142 с.

8. Бельчинская, Л. И. Адсорбционные характеристики модифицированного органосилоксанами природного минерала с клиноптилолитовой структурной составляющей / Л. И. Бельчинская, О. Ю. Стрельникова // Сорбенты как фактор качества жизни и здоровья : материалы П Всерос. науч. конф. С междунар. участием, Белгород, 18-13 сент. 2006 г. – Белгород : Изд-во БелГУ, 2006. – С. 29-32.

9. Везенцев А.И., Воловичева Н.А. Вещественный состав исорбционные характеристики монтмориллонит содержащих глин // Сорбционные и хроматографические процессы. 2007. Т.7. Вып.4 -с 639-643.

10. Ибадуллааева С.М., Жураева Ф.Н., Маматалиев Н.Н., Абдукамалова А.Б., Эшметов И.Д. Исследование структурных особенностей и поверхностных свойств некоторых бентонитовых глин Узбекистана //Вестник Каракалпакского отделения АН РУз.-2021.-№1-С. 15-21.(05.00.00.,№19).

12 .Жураева Ф. Н., Абдикамалова А.Б., Эшметов И. Д., Бойитилган гил минералларининг физик-кимёвий хоссалари// Международная научно-техническая конференция роль современной химии и инноваций в развитии национальной экономики. Фергана 27-29 мая 2021 года С 328-330-с

13. Иванова Е.Н., Бурмистрова Н.Н., Алехина М.Б., Дудоладов А.О. Монтмориллонитовая глина, пилларированная алюминием, для селективной адсорбции аргона из его смеси с кислородом// Сорбционные и хроматографические процессы. 2018. Т. 18. № 1-с 93-103

14. Абдикамалова А.Б., Калбаев А.М., Артикова Г.Н. Исследование глин Крантауского месторождения // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2018. № 8 (50). (02.00.00 №2).

CODONOPSIS CLEMATIDEA O‘SIMLIGINING EKSTRAKTIV MODDALARINI STANDARTLASH VA TOVAR SIFATIDA SINFLASH

STANDARDIZATION AND COMMODITY CLASSIFICATION OF CODONOPSIS CLEMATIDEA EXTRACTIVE SUBSTANCES

СТАНДАРТИЗАЦИЯ И ТОВАРНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЭКСТРАКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ CODONOPSIS CLEMATIDEA

N.Sh.Azimov-tayanch doktorant,
N.A.Mirzayeva-tadqiqotchi,
V.U.Xo‘jayev-k.f.d., professor, Qo‘qon DPI

Annotatsiya. *C. clematidea* o‘simligining kimyoviy komponentlarini tadqiq etish natijalariga ko‘ra hamda ushbu o‘simlikdan olingan birikmalarning biologik faolliklarini o‘rganishdan olingan ma’lumotlarga tayangan holda, ushbu o‘simlik turidan olingan ekstraktiv moddalar asosida ozuqaga biologik faol qo‘shimchani ishlab chiqilib, standartlangan va tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi bo‘yicha tovar sifatida sinflashga tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: *C. clematidea*, ekstraktiv moddalar, mahsulotni standartlash, tovar nomenklaturasi

Аннотация. По результатам исследования химических компонентов растения *C.clematidea* и данным по изучению биологических активностей веществ, выделенных из данного вида растения, разработана и стандартизована биологически активная добавка к пище на основе экстрактивных веществ, а также рекомендована ее классификация по товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности.

Ключевые слова: *C. clematidea*, экстрактивные вещества, стандартизация продукта, товарная номенклатура.

Annotation. According to the results of the study of the chemical components of the *C. clematidea* plant and the data on the study of the biological activities of substances isolated from this plant species, a biologically active food supplement based on extractive

substances was developed and standardized, and its classification according to the commodity nomenclature of foreign economic activity was recommended.

Key words: *C. clematidea*, extractive substances, product standardization, commodity nomenclature.

Hozirgi kunda dorivor o‘simliklar asosida ozuqaga biologik faol qo‘shimchalarning qo‘llash diapazoni ortib borayotgani, ularning tovar sifatidagi aylanmasining ham ortib borishiga sabab bo‘lmoqda [1]. Bu esa o‘z navbatida ozuqaga biologik faol qo‘shimchalarning kimyoviy tarkibi asosida TIFTN bo‘yicha sinflash masalalariga ham e’tibor qaratishni talab etadi [2]. Chunki mahsulotni tovar sifatida tasniflash uchun bosh mezon sifatida uning kimyoviy tarkibi asos bo‘lib xizmat qiladi [3]. *C. clematidea* o‘simligining ekstraktiv moddalari yig‘indisi farmakologik tajribalarda samarali gepatoprotektor vosita sifatida namoyon bo‘lganligi sababli [4], ushbu o‘simlikdan olingan ekstraktiv moddalar yig‘indisini kimyoviy tarkibi [5] asosida standartlash, sertifikatlash va TIFTN bo‘yicha sinflash ishlari amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi TIFTN ning 2017 yilgi nashrida [6] ozuqaga biologik faol qo‘shimchalar odatda 21-guruhning 2106 90 980 9 pozitsiyasida “Boshqa joyda nomlanmagan va boshqa joyga kiritilmagan ozuqa mahsulotlari”, bundan tashqari, 12-guruhning 1212 qismida “boshqa joyda nomlari keltirilmagan yoki boshqa joyga kiritilmagan ... asosan ozuqa vositasi sifatida ishlatiladigan boshqa turdagi o‘simlik mahsulotlari ...” jumlalari mavjud. Tovarlarni TIFTN bo‘yicha ko‘rsatilgan amaldagi interpretatsiyalaridan ko‘rinib turibdiki, o‘simlik homashyosidan olingan ozuqaga biologik faol qo‘shimchalarni tovar sifatida tasniflashni takomillashtirish talab etiladi.

Uslub va materiallar.

C. clematidea o‘simligining ekstraktiv moddalari yig‘indisi analizi uchun 0,1 g aniq o‘lchovdagi namuna olinib, 25 ml hajmli kolbaga joylanadi va uning ustiga 15 ml miqdorida 50%-li etil spirti quyilib, 5 daqiqa davomida arashtiriladi. Hosil bo‘lgan eritma (A eritma) qog‘oz filtrdan o‘tkazib olinadi. Filtrlangan eritmadan (B eritma) 5 ml miqdorida o‘lchab olinib, hajmi 25 ml bo‘lgan o‘lchov kolbasiga quyiladi va kolbaga alyuminiy xloridning 96%-li etil spirtidagi 2%-li eritmasidan 2 ml quyiladi. So‘ngra kolbaning o‘lchamiga yetguncha 96%-li etil spirti quyiladi, yaxshilab aralashtiriladi va 40 daqiqaga qoldiriladi, hosil bo‘lgan eritmaning optik zichligi fotoelektrokolorimetrda, 400 nm to‘lqin uzunligida qalinligi 10 mm kyuvetalarda o‘lchanadi. Solishtiruvchi eritma sifatida B eritmadan 5 ml olinib, o‘lchov kolbasiga quyiladi va kolbaning o‘lchamiga yetguncha 96%-li etil spirti quyilib, aralashtirib tayyorlangan eritmadan foydalaniladi. Bunga parallel ravishda lyuteolinning standart namunasi eritmasining ham optik zichligi o‘lchanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Flavonoidlar yig‘indisining lyuteolin-standartga va mutlaq quruq xomashyoga nisbatan miqdori (*x*) quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$x = \frac{m \cdot \mathrm{D} \cdot 25 \cdot 25 \cdot 5}{m_0 \cdot \mathrm{D}_0 \cdot 5 \cdot 100 \cdot 5} = \frac{m \cdot \mathrm{D} \cdot 4}{m_0 \cdot \mathrm{D}_0},$$

bu yerda D – tekshirilayotgan eritmaning optik zichligi;
D_0 – lyuteolinning optik zichligi;
m_0 – lyuteolin standart namunasining massasi, g;
m – tahlil uchun olingan kukun massasi, g.

C. clematidea o‘simligining ekstraktiv moddalari yig‘indisini ozuqaga biologik faol qo‘shimcha sifatida standartlash va tegishli me’yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqishda mavjud texnologiya bo‘yicha har biri 5 tadan kam bo‘lmagan partiyalarda *C. clematidea* o‘simligi quruq ekstrakti ishlab chiqarildi. Olingan namunalar yuqorida bayon etilgan analiz usullari bo‘yicha har biri 3 martadan aprobatsiya qilindi. Natijalar turg‘un ekanligiga ishonch hosil qilingach, ushbu usuldan *C. clematidea* o‘simligining

ekstraktiv moddalari yig‘indisini ozuqaga biologik faol qo‘shimcha – tovar sifatida standartlash uchun tavsiya etildi. Ko‘rsatilgan usuldan olingan mahsulotlar Tashkilot standarti – Texnikaviy shartlar loyihasini ishlab chiqishga asos qilib olindi. Texnikaviy shartlarda tovar mahsulotlarini standartlash uchun qo‘yiladigan boshqa talablar – masalan, tovarlarni saqlash sharoitlari, zaharli elementlar va og‘ir metallar miqdori, mikrobiologik ko‘rsatkichlarni aniqlash, tartibi ham belgilab berilgan.

C. clematidea o‘simligining ekstraktiv moddalari yig‘indisini TIFTNda tovar sifatida sinflash uchun: 2106 90 980 6 – “ozuqaga biologik faol qo‘shimchalarning tayyor iste’mol shaklini ishlab chiqarish uchun o‘simlik xomashyosidan olingan ekstraktiv moddalar” kodini; yoki muqobil variant sifatida: 1212 99 950 1 “ozuqaga biologik faol qo‘shimchalarning tayyor iste’mol shaklini ishlab chiqarish uchun o‘simlik xomashyosidan olingan ekstraktiv moddalar” kodini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa. Ozuqaga biologik faol qo‘shimchalarni dorivor o‘simlik xomashyosidan olingan ekstraktiv moddalarni, jumladan, *C. clematidea* o‘simligi quruq ekstrakti hamda uning asosida olingan “Gepalyutin” tabletkalarini ularning kimyoviy tarkibi asosida tovar sifatida standartlash uchun kimyoviy analizning fotoelektrokolorimetriya usulidan foydalanish samarali bo‘lib, uning yordamida aniq natijalarga erishish mumkinligi amalda isbotlandi.

Olingan tovarlar – ozuqaga biologik faol qo‘shimchalarning kimyoviy tarkibi asosida standartlash natijasida mahsulotlarga tegishli me’yoriy-texnik hujjat – Tashkilot standarti – Texnikaviy shartlar ishlab chiqilib, vakolatli Davlat organlari tasdig‘idan o‘tkazilgan. Bu esa tadqiqotlar natijasida olingan mahsulotni sertifikatlash va tovar aylanmasiga kiritishga to‘la imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беспалов В.Г., Некрасова В.Б., Иорданишвили А.К. Современный взгляд на биологически активные добавки к пище и их использование в лечебно-профилактических целях в клинической медицине // Медицина. XXI век. ISSN: 2224-5413 — 2007. — № 8 (9). — С. 86-94.
2. Турурушкина Н.Н., Клюкина Л.В., Черненко Г.Ф. О порядке экспертизы БАД к пище // Здоровье населения и среда обитания. — 2012. — № 10 (235). — С. 17-20
3. Ибрагимов А.А., Игамбердиева П.К. Классификация лекарственных растений Южной Ферганы по товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности на основе химического состава // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2018. № 1 (55).
4. Azimov N.Sh, Mezhlumyan L.G., Ishimov U.Sh., Aripova S.F., Narbutaeva D.A., Khushbaktova Z.A., Rakhimova Sh.Kh. Protein constituents of the plants *Codonopsis clematidea* and *C. bactriana* and their biological activity. // Chemistry of Natural Compounds. ─2021. ─№3(57). ─P.599-600
5. Азимов Н.Ш., Жураев Ш.Ш., Юсуфжонова Д.О., Матчанов А.Д., Арипова С.Ф. Флавоноиды растений *Codonopsis clematidea* и *C. bactriana.* // Фармацевтический журнал. ─2021. ─№2. ─С.58-63.
6. “Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан”. Министерство внешней торговли Республики Узбекистан, Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан. 2017 г., С.655.

TUPROQNI CHUQUR YUMSHATISH NATIJASIDA SUVO’TLARNI PROFIL BO’YICHA TAQSIMLANISHIGA TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ ГЛУБОКОГО РЫХЛЕНИЯ ПОЧВЫ НА РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВОДОРОСЛЕЙ ПО ПРОФИЛЮ

THE EFFECT OF DEEP LOOSENING OF THE SOIL ON THE DISTRIBUTION OF ALGAE ALONG THE PROFILE

Sh.A.Tursunova- o‘qituvchi, Qo‘qon DPI

Annotatsiya: Tuprog’i yumshatilmagan yerlarning yuza qatlamida tuproq suvo’tlarning soni tuprog’i yumshatilgan yerlarning yuza qatlamiga nisbatan ko’proq hisoblanadi. Lekin chuqur meliorativ yumshatilgan haydov osti yerlarida tuproq tahlili shuni ko’rsatadiki yerni chuqur meliorativ yumshatish tuproq suvo’tlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Suvo’tlar turlarining soni yumshatilish chuqurligi bo’yicha o’zgarib turishi aniqlandi.

Kalit so’zlar: Tuproq profili, algoflora, tuproqni chuqur yumshatish, meliorativ yumshatish, zax-sizot suvlari, tipik bo’z tuproq, meliorativ, suvo’tlar, algoflora.

Annotation: The amount of algae on the surface of uncultivated lands lasts longer than the surface load of softened soils. However, in areas with deep melioration, deep melioration of the soil where the soil analyses is performed is a fsvorable condition for the development of algae. The number of algae species has been found to vary with the depth of softening.

Key words: Soil profile, algoflora, deep loosening of soil, reclamation loosening, subsurface water, typical gray soil, reclamation, algae, algoflora.

Аннотация: Количество водорослей в поверхностном слое нерыхлых почв выше, чем в поверхностном слое рыхлых почв. Однако анализ почв в глубоких мелиоративных дренированных недрах показывает, что глубокая мелиорасия почв создает благоприятные условия для развития почвенных водорослей. Установлено, что количество видов водорослей зависит от глубины размягчения.

Ключевые слова: Почвенный профил алгофлора, глубокое размягчение почвы, мелиоративное размягчение, саксофон, серозем типичный, мелиорация, водоросли, алгофлора.

Tuproqni chuqur yumshatish uning morfologiyasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Tuproqqa yumshatuvchilarning ta’siri natijasida yumshagan uchastka o’ziga xos profilga ega bo’ladi. Tuproqni chuqur yumshatilishi tuproqdagi suvo’tlarning yanada chuqur qatlamiga turli yo’llar, vositalar orqali kirib borishiga olib keladi.

Yumshatilmagan va yumshatilgan zax-sizot suvi zovurlar orqali qochirilgan tuproqlarda suvo’tlar turlarining taqsimlanishi quyidagi xususiyatlarga ega: agar yumshatilmagan tuproqlarda suvo’tlar turlarining soni profil bo’ylab keskin kamaysa, haydalgan qatlamni 20-24 sm chuqurlikda jami 8-14 tur aniqlandi. Bu tuproqning yumshatilganida shu profilda 25 tur topildi. 2019 yilgi 40-45 sm chuqurlikdan yozda olingan tuproq namunalarda diatom suvo’tlardan *Hantzschia amphioxys, Pinnularia boreaeis, Pinnularia intermedia, Navicula mutica var. mutica, Navicula mutica var. nivalis* aniqlandi.

Tuproqni chuqur yumshatilishi haydovosti gorizontda yumshatilmagan tuproqlarda nisbatan suvo’tlarning xilma xil turlari ortadi. Biz tuproq profili bo’ylab uning turli qatlamlaridagi suvo’tlar turlarining soniga aloqador ma’lumotlarga ega bo’lsak xam profil bo’ylab suvo’tlar hujayralarining soni haqida ma’lumotlarga ega emasmiz. Adabiyotlarda xam tadqiqotchilar ma’lumot keltirmaydilar

.

1-Jadval



Turlar soni (A)

2-Jadval



Turlar soni (B)

Tipik bo’z tuproqli statsionar uchastkada suvo’tlar turlar sonining profil bo’ylab taqsimlanishi.

Yumshatilgan tuproqning 0-5 sm yuza qismida suvo’tlar turlari kam, yumshatilmaganida ko’p. Profil bo’ylab chuqurligi ortgani sari bu nisbat buziladi va yumshatilgan uchastkada turlarning xilma xilligi yumshatilmaganga nisbatan ko’paydi.

Yumshatilmagan tuproqda eng ko’p turlar soni haydovning yuqorisida, yumshatilganida haydovosti gorizontda aniqlandi. Bu gorizontda boshqa tuproqlarda aniqlanmagan *Chlamydomonas proboscigera, Senna parvula* qayd etildi.

Ma’lumotlarga ko’ra chuqur meliorativ yumshatish haydov osti qavatdagi tuproq suvo’tlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Suvo’tlar turlarining soni yumshatilish chuqurligi bo’yicha ortadi.

Tuprog’i yumshatilmagan va zax-sizot suvi zovur orqali qochirilgan va tabiiy suv rejimli tuproqlarda mikroorganizmlarning tuproq profili bo’ylab taqsimlanishida sezilarli farqlar borligiga e’tibor qaratdik. Yumshatilmagan tuproqli uchastkalarda haydovosti va undan chuqur qatlamdagi mikroorganizmlarning soni keskin kamaydi.

O’rganilgan uchastkalarda tuproqni yumshatilishini suvo’tlarning hujayralarini soni va ularning biomassasiga ta’siri o’rganildi. 2019 yilgi ob-xavo birmuncha quruq keldi shunday bo’lsa xam yumshatilgan tuproqlarda suvo’tlar xujayralarini soni ko’p aniqlandi. 0-5sm yuzada vegetatsiya davrida: yumshatilmagan tuproqda 8-7 ming hujayra, 11,3 ming hujayragacha o’zgardi. Tuprog’i yumshatilgan uchastkani 0-5 sm yuza qavatida 6,4 dan 21,5 ming hujayra qayd etildi. Bahorda haydalganidan keyin yumshatilgan va yumshatilmagan tuproqlarda suvo’tlarning soni bir xil 11,3 ming hujayradan iborat. Iyun oyida yumshatilgan tuproqda suvo’tlar hujaylarining soni 21,5 minggacha ortdi. Bu yumshatilgan tuproqlarda suv rejimi bilan bog’liq deb xisoblaymiz. Bundan tashqari, tuproqdagi suvo’tlarning soni namuna olingan paytdagi harorat, yoritilganlik, tuproqning kimyosi, tuproqdagi organizmlarning faoliyati kabilar bilan bog’liq (Shtina, Gollerbax, 1976; Shtina va boshq., 1981 va boshq.). iyul oyida suvo’t hujayralarining yumshatilgan tuproqlardagi soni 8,5 minggacha kamaydi. Bu davrda tuproq qurib ketdi. Algoflora tarkibi o’rganilgan barcha uchastkalarda suvo’tlar hujayralarining maksimum soni sentabr oyida ro’y berdi. Bu davrda tuproq yuzasida biroz “ko’karish” paydo bo’ldi, ular asosan sianobakteriyalardan iborat. Ulardagi suvo’t hujayralarining soni 1 sm^2 yuzada 10,1 mlnni tashkil qildi. Yumshatilmagan tuproqlarda hosil bo’lgan “ko’karib” qolishlardagi suvo’t hujayralarining soni 1 sm^2 yuzada 5,4 mingdan iborat.

3-Jadval



Suvo’tlar hujayralarini sonini tuproq namligiga nisbatan dinamikasi

Demak xulosa qilib aytganda zax-sizot suvi qochirilgan chuqur meliorativ yumshatilgan tuproqlarda suv-havo rejimi yaxshilanadi, shu bilan birga tuproq suvo’tlarining guruxlarini rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Yumshatilgan tuproqlarda dominant turlarning tarkibi o’zgarmaydi, biroq suvo’tlar turlarining biologik xilma-xilligi ortadi. Bu ortish natijasida sariq yashil suvo’tlarning, miksotrof oziqlanishiga o’ta oladigan turlar soni ko’payadi (Shtina, Gollerbax, 1976). Yumshatilgan tuproqlarda ular chuqurroq qatlamga tushib boradi. Zax-sizot suvlari qochirilgan tuproqlarda qishloq xo’jalik ekinlarining hosildorligi ham ortadi

.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gollerbax M.M., Shtina e.A. Pochvennыe vodorosli. – Leningrad: Nauka, 1969. – 228

2. Kabirov R. R. Pokazateli produktivnosti pochvennыx vodorosley v nazemnыx ekosistemax. [Tekst] / R. R. Kabirov, L. A. Gaysina // Pochvovedenie. – 2009. – № 12. – S. 1475–1480.

3. Dotsenko K. A. Pochvennыe vodorosli v agrotsenozax: monografiya. – Krasnodar: KubGAU, 2017. – 109 s.

4. Aksenova N.P. Urbanoflora edafofilnыx vodorosley i sianoprokariot g. Ijevska. Diss. ... kand. biol. nauk. – Ijevsk, 2010. – 222 s.

5. Mamasoliev S.T. Shahar ekosistemalarining tuproq suvo’tlari (Andijon shahri misolida) Biologiya fanlari bo’yicha falsafa (Phd) doktori dissertatsiyasi – Namangan, 2019. – 146 b.

6. Yefremova V.A. Soobщestva pochvenыx vodorosley i sianobakteriy v ekologicheskoy otsenke gorodskix pochv (na primere g. Kirova). Avtoref. dis. ... kand. biol. nauk. – Kirov, 2014. – 21 s.

7. Dubovik I. Ye. O protivoerozionnoy roli Nostoc commune Vauch. v pochvax // Sovremennыe ekologicheskie problemы: Mejvuz. sb. nauch. tr. / Bashkirskiy pedinstitut. – Ufa, 1998. – S. 11 – 14.

8. Musaev K.Yu., Tojiboev SH.J. Nostoc commune Vauch. na pochvax Tashkentskoy oblasti i nekotorыe yego ekologo-bioximicheskie osobennosti // Voprosы ekologii rasteniy i fitotsenologii. TashGU. – Tashkent. Izd-va. 1984. – S. 26-29.

9. Tojiboev SH.J. K rasprostraneniyu i ekologo-bioximicheskoy xarakteristiki sinezelennoy vodorosli Nostoc commune Vauch // Materialы konferensii po sporovыm rasteniyam Sredney Azii i Kazaxstana. – Ashxabad, 1974. 176

10. Shtina e.A. Pochvennыe vodorosli kak ekologicheskie indikatorы // Botanicheskiy jurnal. – 1990. – T. 75. – № 1. – S. 441 – 452.

MEVA VA SABZAVOTLARNING DIELEKTRIK O’TKAZUVCHANLIGINI ANIQLASH

DETERMINATION OF DIELECTRIC CONDUCTIVITY OF FRUITS AND VEGETABLES

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ДИЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ПРОВОДИМОСТИ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ

J.M.Qurbonov –т.f.d., professor,
SH.J.Yusupov- magistr,
Yu.N.Ahmadiyarova- xodim, Samarqand ISI

Annotatsiya: Muammoning kelib chiqishi bugungi kunda ovqatlanish ratsionida tabiiy vitaminlarga ehtiyoj ortib borayotganligi sababli tabiiy komponentlarni maksimal saqlab qolish, sifatli meva va sabzavotlar sharbatini olish texnologiyalarini ishlab chiqish asosiy vaziflardan biridir. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash va ulardan yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari olishda dielektrik o’tkazuvchanligi xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kompleks dielektrik o’tkazuvchanlik va uning tarkibiy qismi ε' va ε''katta darajada tahsir etuvchi maydon chastotasi, temperaatura va boshqa fizik - mexanik xususiyatlarga bog’liqligi aniqlanadi. Olingan natijalar mahsulotlarning elektrofizikaviy xususiyatlarining asosiysiylaridan biri, bu ularning dielektrik o’tkazuvchanligi xisoblanadi. Dielektrik xususiyatlarni o’lchash metodlari aniqlandi.

Kalit so’zlar: dielektriklar, dielektrik xususiyatlari, mikroto’lqinli qizdirish, chastota diapazoni, mikroto’lqinli maydonning kirish chuqurligi, rezonans, to’lqin o’tkazgich, erkin va sekin to’lqinlar usuli.

Аннотация: Происхождение проблемы заключается в том, что сегодня потребность в натуральных витаминах в рационе растет, максимальное сохранение натуральных компонентов, разработка технологий получения качественных фруктовых и овощных соков являеця одной из основных задач. Определение свойств диелектрической проницаемости имеет важное значение при переработке фруктов и овощей, производстве полуфабрикатов и готовых пищевых продуктов. Комплексная диелектрическая проницаемость и ее составляющие ε' и ε" в значительной степени определяюця зависимостью поля от частоты, температуры и других физико-механических свойств. Полученные результаты являюця одним из основных электрофизических свойств изделий, которым являеця их диелектрическая проницаемость.

Ключевые слова: диелектрики, диелектрические свойства, СВЧ-нагрев, диапазон частот, глубина ввода СВЧ-поля, резонанс, волновод, метод свободных и медленных волн.

Annotation: The origin of the problem is that today the need for natural vitamins in the diet is growing, the maximum preservation of natural components, the development of technologies for obtaining quality fruit and vegetable juices is one of the main tasks. Determination of dielectric constant properties is important in the processing of fruits and vegetables and in the ‘roduction of semi-finished and finished food products. The complex dielectric constant and its components e ' and e'' are largely determined by the dependence of the field frequency, tem’erature and other physical and mechanical properties. The obtained results are one of the main electrophysical properties of products, which is their dielectric constant.

Keywords: dielectrics, dielectric properties, microwave heating, frequency range, microwave field in’ut de’th, resonance, waveguide, free and slow wave method.

Bugungi kunda dunyo miqyosida «Meva va sabzavot» yetishtirish jadal surhatlarda o’sib bormoqda. Bunda, Xitoy, Hindiston, AQSH davlatlari yetakchilik qilmoqda. So’nggi 10 yilda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish 10 martaga, eksport qiymat ko’rinishida 12 martaga oshdi» [1]. SHu sababga ko’ra, barcha meva-sabzavotlarni qayta ishlash va ulardan yarimtayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari olish yo’nalishlari bo’yicha ilmiy tadqiqotlar rivojlanmoqda.

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi «qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash» [2] vazifalari belgilab berilgan. Bu borada tabiiy komponentlari yuqori darajada saqlangan vitamin, uglevod, mineral moddalarga boy meva-sabzavotlardan sharbat olish quritish va eksportbop qilib qadoqlashga yo’naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Meva va sabzavotlarni elektr energiyasi tahsirida kayta ishlovida ularning elektrofizikaviy xususiyatlarini bilish muhim hisoblanadi. Chunki, meva sabzavotlarni elektrofizikaviy kayta ishlovida (elektoplazmoliz, elektroflotatsiya, UYuCH va KN elektromagnit maydonda qizdirish va x.k) jarayonlar mexanizmini bilish, elektrjihozlarni loyihalashda, konstruktsiyasini yaratishda, ularning transportli organlarini harakat tezligini aniqlashda, meva sabzavotlarning qayta ishlovidagi rejimlarini hisoblash uchun zarurdir. Mahsulotlarning elektrofizikaviy xususiyatlarining asosiysiylaridan biri, bu

ularning dielektrik o’tkazuvchanligi xisoblanadi.

Tadqiqot metodikasi va qo’llanilgan jihozlar.

Hozirgi vaqtda, meva va sabzavotlarni dielektrik o’tkazuvchanligini o’ta yuqori chastotali (UYuCH) diapazonda, turli metodlar bilan eksperimental aniqlash mumkin. Bu metodlarni tanlanishi mahsulotning tarkibiga, temperaturaga va qaysi chastotali diapazonda o’lchashga bog’liq.

Vazifalarning turli xilliligidan dielektrik xususiyatlar ko’rsatkichlarining universal o’lchash metodikasi yo’q. Dielektrik xususiyatlarni o’lchash metodlari quyidagi asosiy ko’rsatkichlar bilan farq qiladi. Bularga chastota diapazoni, qaysikim unda ular o’lchanadi; dielektrik o’tkazuvchanlikni o’lchash chegarasi va nurni yutish tangens burchagi; bu kattaliklarni o’lchash aniqlgi; qo’llanilayotgan namuna materialining miqdori; tajriba o’tkazish temperatura intervali; mahsulotlarning qattiq, suyuq, gaz holatida ham metodning o’lchash yaroqligi, namuna tayyorlashning murakkabligi, aspobning narxi, tajribaning qulayligi va hisoblashning murakkabligi kiradi. Hozirgi vaktda, O’YuCH diapazonida umumiy qabul qilingan metodlariga: rezonansli, to’lqinli, uzatgichli, ozod to’lqin metodi va sekin to’lqinlarga asoslangan metodlar kiradi.

Zamonaviy ulchagichlar tarkibiga, to’lqin uzatgichli metodlarning modifikatsiyasi ko’p uchraydi. Bunday ko’p xilligini uning turli to’lqin uzatgichlarning ko’ndalang kesimidan kelib chiqib, ular: to’g’ri burchakli yoki to’liq yoki qisman tekshiriladigan mahsulot bilan to’ldirilishi bilan farqlanadi. Bunday metodning alohida modifikatsiyasi bir vaqtda to’lqin o’tkazgichida elektromagnit to’lqinlarning (turgani yoki chopgani) tarqatish xarakteriga bog’liq. SHuningdek, izlanish printsipidan kelib chiqqan holda, dielektrikdan qaytarilgan to’lqinlarga yoki dielektrikdan o’tganiga, boshqa vaqtda to’lqin uzatgich liniyasi va namunaning qaerda joylashtirilganligi: qisqa tutashtirilgan liniyada, (“qisqa tutashuv metodi”) va qo’yib yuborilgan (“xolostoy xod”metodi) yoki ularning tasdiqlangan yuklama bilan birlashtirilshini yoki absolyut yutiladigan; tekshiriladigan mahsulot, to’lqin o’tkazgichdagi cheksiz qatlam hosil qiluvchi qatlam qalinligini variatsiyasi bilan, to’lqin o’tkazgichning ko’ndalang qesimini qisman to’ldirishi bilan bo’ladigan metodlar hisoblanadi.

Mahlumki, mahsulotning o’tkazuvchanligi kompleksi ε^*dielektrik o’tkazuvchanligi bilan tavsiflanadi va dielektrikning (mahsulotlar) dielektrik xususiyatini uning tok o’tkazuvchanligi xarakterlaydi.

Dielektrikda (hamma meva sabzavotlar dielektrik hisoblanadi) bo’ladigan kompleks tekslikda ε^* kompleks dielektrik xususiyati ε' haqiqiy vektor bilan tavsiflanadi va polyarizatsion jarayonlar bilan xarakterlanadi va ular “aralash” toklar va uning “minimum” kismi o’tkazuvchi tok bilan tavsiflanadi [3]. Bundagi elektromagnit maydon (EMM) ning elektrik qismi tahsirida minimal qismi dielektrikning tahsirini anglatadi va $\varepsilon'' = \frac{\sigma}{\vartheta}$ bilan belgilanadi. Ularni tangens burchak bilan ham tavsiflash mumkin: $tg\delta = \frac{\varepsilon''}{\varepsilon'} = \frac{\sigma}{\vartheta} \cdot \frac{1}{\varepsilon'}$. $tg\delta$ burchak qancha katta bo’lsa, energiyaning katta qismi dielektrik tahsiriga (kizdirishga, kletkasini buzishga, sharbatini chiqarishga va x.k) sarflanadi.

(Rasm.1.)



Rasm. 1. Kompleksli dielektrik o’tkazuvchanlik $tg\delta$ burchagini aniklash.

Kompleks dielektrik o’tkazuvchanlik va uning tarkibiy qismi ε' va ε''katta darajada tahsir etuvchi maydon chastotasi, temperaatura va boshqa fizik - mexanik xususiyatlariga bog’liq bo’ladi.

Bizlar “qisqa tutashuv” metodi bilan meva sabzavotlarning dielektrik o’tkazuvchanligini maxsus qurilmada o’lchadik [4,5]. Meva sabzavotlar dielektrik o’tkazuvchanligini aniqlash qurilmasining blok sxemasi rasm.2. keltirilgan.



Rasm 2. Meva sabzavotlar dielektrik o’tkazuvchanligini aniqlash qurilmasining blok sxemasi.

G- UYuCH generator ulchagich; F- ferritli ventil; NO- yunaltirilgan rostlagich; DG- detektorli golovka; O-otsillograf; N- izlanadigan dielektrik tulkin uzatgichi bulagi (yuklama); ATT- uzgaruvchan attenyuator; IL-ulchash chizigi; RP- registratsiyalovchi aspob (mikroampermetr M-95 yoki ulchagich kuchaytirgich U2-4); VI- tulkin uzatgich burulishi.

Dielektrik o’tkazuvchanligini o’lchovchi qurilma quyidagicha ishlaydi. Qurilmada O’YuCH signalini o’lchash manbai bo’lgan G generator mavjud. Generatorning stabil ishlashi uchun yuklamadan elektromagnit to’lqinlarini qaytaruvchi tahsirini bartaraf etish uchun ferritli ventildan foydalaniladi. Yo’naltirilgan ventil NO O’YuCH energyaning bir qismini qaytarib yuborish uchun xizmat qiladi. Undan detektor bosh DT orqali O otsilografga jo’natadi. O otsilograf generatordan beriladigan quvvat darajasini bir tekisda tahminlash indikatori bo’lib xizmat qiladi.

Boshqariladigan attenyuator ATT generator quvvatidan qatiy nazar, quvvatni o’zgartish imkoniyatini beradi. O’lchash liniyasi IL qurilmaning asosiy elementi hisoblanib, to’lqin o’tkazgichdagi to’lqin uzunligi, turg’un to’lqin koeffitsientini R, minimum elektr maydonini D_R siljishi bilan o’lchash uchun qo’llaniladi. Registratsiyalovchi aspob RP turg’un to’lqinlar maydonining bo’llanishini va miqdoriy informatsiya olish uchun maydonning taralishini fiksatsiyalaydi. Kundalang kesimi tugri turburchakli misdan kilingan to’lqin o’tkazuvchining egilish bulagi - VI, qisqa tutashuv to’lqin N vertikal turishi bo’lagini olish uchun suyuq dielektriklarni izlanishida qo’llaniladi.

Xususiyatlari. Meva va sabzavotlarning dielektrik xususiyatlarini (o’tkazuvchanligini) aniklash quyidagi tajriba usuli bo’yicha amalga oshirildi [6,7,8]:

1. Qurilmani ishlashga tayyorlashda (rasm. 2), tajribalarni o’tkazish uchun GZ-10A UYuCH generatori va M95 mikroampermetri va uning oldindan tashqi shtangasi yoqiladi.

2. To’lqin o’tkazgichning egilgan qismiga dielektrik (mahsulot) bilan to’ldirilmagan qisqa-tsirkulyar qismi ulanadi.

3. Generatorni qizdirgandan so’ng, to’lqin o’tkazgich chizig’i detektorining holatini o’zgartirish orqali, o’tkazgich ichidagi turgan to’lqin minimumining ixtiyoriy yo’naltiruvchi tekislikka nisbatan holati (D_R) topiladi.

4. Turgan to’lqinning tutash minimumi orasidagi masofani o’lchab, to’lqin o’tkazgichdagi to’lqin uzunligining (λ_v), olingan masofaning ikki marta qiymatiga teng qilib hisoblanadi.

5. To’lqin o’tkazgichning qisqa tutashuv qismi o’rganilayotgan meva

sabzavot mahsuloti bilan dielektrikning to’lqin o’tkazgich chetlariga bemalol sig’adigan tarzda to’ldirildi. Buning uchun, oldindan mahlum bir to’rtburchaklar shakliga mahsulotni kesib, tartib bilan tulqin utkazgichga joylashtiriladi.

6. Turgan to’lqin minimumining D_1 ga mos yozuvlar tekisligiga nisbatan holati o’lchanadi.

7. Turgan tulqin turish koefitsienti $\rho_1 = (\frac{I_{max}}{I_{min}})^{-\frac{1}{2}}$ o’lchanadi.

Bunda, I_{max} – turgan tulqin maksimumidagi mikroampermetr ko’rsatishi

I_{min} – turgan tulqin minimumi.

8. SHunga o’xshash, o’lchanayotgan mahsulotning boshqa l_2 qalinligining D_2 va ρ_2 aniqlanadi.

9. SHundan so’ng, olinganlar yordamida $\beta = 2\,\pi\,/\lambda_v$ kattaligi hisoblanadi.

10. Aniqlanadigan D_1 i ρ_1 kattaliklarini quyidagi formulalar yordamida hisoblaymiz

$\varphi_1 = 2\,\beta\,(D_1 - D_R - l_1)$ i $|G_1| = \frac{\rho_2 - 1}{\rho_1 - 1}$.

11. Avval. Komplekson quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$C_1 < -\psi_1 = \frac{1}{j\,\rho\,l}\,(\frac{1-|G_1|\,e^{j\,\varphi_1}}{1+|G_1|\,e^{j\,\varphi_1}})$.

12. $C_1 < -\psi = \frac{th\,(T_1 < \tau_1)}{T_1 < \tau_1}$ tenglamani $T_1 va$ τ_1.nisbatan yechimi topiladi.

13. Xuddi shunday, bir nechta kompleks sonlar hisoblanadi:

$y_{1.} = \left(\frac{T}{\beta\,l_1}\right)^2\,[\cos 2\,(\tau_1 - 90^0) + j\sin 2\,(\tau_1 - 90^0)]$

14. Xuddi shunday, l_2 kalinlikdagi dielektrik uchun hisoblanadi:

$\varphi_2 = 2\,\beta\,(D_2 - D_R - l_2)$ i $|G_2| = \frac{\text{撼}_2 - 1}{\rho_2 + 1}$.

15. Ikkinchi kompleks C_2 soni xisoblanadi:

$C_2 < -\psi_2 = = \frac{1}{j\,\beta\,l}\,(\frac{1-|G_2|\,e^{j\,\varphi_2}}{1+|G_2|\,e^{j\,\varphi_2}})$ va kuyidagi tenglamani yechimi topiladi

$C_2 < -\varphi_2 = \frac{th\,(T_2 < \tau_2)}{T_2 < \tau_2}$.

16. SHu tarzda, bir necha kompleks sonlar topiladi:

$y_2 = \left(\frac{T_2}{\beta\,l_2}\right)^2\,[\cos 2\,(\tau_2 - 90^0) + j\sin 2\,(\tau_2 - 90^0)]$.

17. Endi, topilgan y ga mos kuyidagi formulalar yordamida ε' ; ε'' ; $tg\delta$ xisoblanadi;

$y = g + j\,\beta$; $\varepsilon' = \frac{g + \left(\frac{\lambda_v}{2\,a}\right)^2}{1 + \left(\frac{\lambda_v}{2\,a}\right)^2}$; $\varepsilon'' = \frac{B}{1 + \left(\frac{\lambda_v}{2\,a}\right)^2}$; $tg\,\delta = \frac{\varepsilon''}{\varepsilon'}$,

bunda a – tulkin utkazgichning keng devori uzunligi xisoblanadi.

Meva va sabzavotlar dielektrik xususiyati (o’tkazuvchanligi)ni eksperimental tadqiqoti, yuqorida keltirilgan metodika bo’yicha olinib va hisoblanib olingan natijalar jadvalga kiritildi:

Jadval

Meva va zabzavotlarning dielektrik o’tkazuvchanligi.

T/r	Meva - sabzavotlar nomi	SHarbat mikdori ,%	Dielektrik utkazuvchanlik $f = 2300\,mGts\;\; t = 20^0 S$		
			ε'	ε''	$tg\delta$
1.	Olma:				
	-Simirenko	85,8	60,2	16,1	0,26
	-Apport	78,4	59,6	14,9	0,25
2.	Urik:				
	- donagi va pusti bilan diametri 24 mm	80,5	63,7	17,1	0,28
	- donagi va pusti bilan diametri 26 mm	80,5	62,5	17,8	0,28
	-nimtalangan $\delta = 15$mm, donaki bilan	80,5	64,1	18,2	0,29
	-nimtalangan donaksiz	80,5	64,4	18,3	0,29
3.	Olxo’ri:				
	- donagi va pusti bilan diametri 34 mm	80,0	61,4	16,8	0,27
	- donagi va pusti bilan, diametri 30 mm	80,0	61,1	16,7	0,26
	-nimtalangan $\delta = 18$mm, donaki bilan	80,0	62,3	16,9	0, 26
		80,0	61,8	16,7	0,26

	-nimtalangan donaksiz δ =16 mm,				
4.	Sabzi kalamcha kesilgan	75,5	56,7	15,4	0,27
5.	Kartoshka: brusochka kubik- 15 mm kartoshka pusti bilan diametri 40 mm kartoshka pusti bilan diametri 15 mm	 81,0 81,0 81,0	 59,6 59,3 56,7	 15,8 15,6 14,7	 0,26 0,27 0,27
6.	Lavlagi: qalamcha lavlagi diametri 60 mm 80 mm	 84,5 84,5	 57,1 57,9	 14,9 15,2	 0,26 0,25
7.	Bosh piyoz Yarim xalqa	 89,4	 53,8	 14,3	 0,28

Jadvaldan ko’riniyaptiki, meva va sabzavotlarning dielektrik o’tkazuvchanligi, turlicha bo’lar ekan. Ularning, qiymati asosan meva va sabzavotlarning tarkibiy sharbati (suv) miqdoriga bog’liq. SHuningdek, ularning tarkibiy qismlarining xam tahsiri mavjud. Meva sabzavotlarning kattaligining o’zgarishi ularning qiymatiga tahsir etadi, lekin turli shakl berib kesilishi uzgartirmaydi. Umuman olganda, turli xisoblarda meva va sabzavotlar dielektrik utkazuvchanligi sonining o’rtacha qiymatini qullash mumkin.

Xulosa: Meva va sabzavotlar dielektrik o’tkazuvchanligi ularning turlariga, namlik miqdoriga. UYuCH EMM chastotasiga bog’liq ravishda uzgaradi. Meva va sabzavotlarning kattaligining o’zgarishi ularning qiymatiga tahsir etadi, lekin turli shaklda bo’lishi dielektrik o’tkazuvchanligini uzgartirmaydi. Texnikaviy xisoblarda, ularning o’rtacha qiymatini qullash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurbanov J.M., Xodjaeva U.R. Elektrofizicheskie metodq vozdeystviya na produktq pitaniya servisnqx predpriyatiy, monografiya, “Iqtisod-moliya”, Tashkent, 2012, 159 s.
2. Rogov I.A., Gorbatov A.V. Fizicheskie metodq obrabotki pio’evqx produktov. – M., Pio’evaya prmqshlennostg’. 1974. 583 s.
3. Brandt A.A. Issledovanie dielektrikov na sverxvqsokix chastotax. Moskva. 1963 g. Izd. «Energiya». 206 s.
4. Eli F. Dielektricheskie izmereniya. Moskva. 1967 g. Izd. «Atomizdat». 340 s.
5. Rogov I.A., Nekrutman S.V., Lqsov G.G. Texnika sverxvqsotnogo nagreva piopevix produktov. M.: Legkaya promqshlennostg’. 1981.-197 s.
6. Kurbanov J.M., Ostapenkov A.M. Opredelenie dlinq volnovodnoy kamerq v zavisimosti ot vlagosoderjaniya produkta. /Jurn. A.N. MSSR. Elektronnaya obrabotka materialov №6. 1986. s.55-56.

NANOKATALIZATOR OLISH TEXNOLOGIYASIDA “NAVBAXOR” BENTONITINING DERIVATOGRAFIK TAHLILI

ДЕРИВАТОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАВБАХОРСКОГО БЕНТОНИТА В НАНОКАТАЛИЗАТОРНОЙ ТЕХНОЛОГИИ

DERIVATOGRAPHIC ANALYSIS OF NAVBAHOR BENTONITE IN NANOCATALYZER TECHNOLOGY

N.I.Fayzullaev- t.f.d, professor, Samarqand DU
J.M. Kurbonov- t.f.d., professor,
J.J. Kurbonov-mustaqil tadqiqotchi, Samarqand ISI

Annotatsiya. «Zol-gel» texnologiyasi asosida nanokatalizator olishda qo’llaniladigan tutuvchi modda bentonitning derivatografik tahlili keltirilgan. «Navbahor» koni bentonitining kimyoviy tarkibi xalqaro nazariy va amaliy kimyo ittifoqi standartlariga muvofiq metodlarda aniqlandi. Olingan materiallar elementar tarkibi *JEOL - JSM*-6390 skanerlovchi elektron mikroskopidagi *JEOL - JED* -2200 EDS qo’shimchali rentgen spektrli mikroanaliz (RSMA) yordamida aniqlandi. Kislotali xossalari USGA-101 universal sorbtsion gaz analizatorida ammiakning termodasturlangan desorbtsiyasi usuli orqali o’rganildi. Reaktsiya mahsulotlarining sifat va miqdor tarkibi xromatografik usulda kapillyar kolonkali va alanga-ionizatsion detektorli “Kristall 5000” xromatografida tahlil qilindi. Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi bentonit och kulrang kukun, hidsiz, suvda va organik erituvchilarda deyarli erimaydi, suspenziyaning pH qiymati 7,1-8,7. Suspenziyaning kuchsiz ishqoriyligi gil tarkibida gidroksidi tuproq va gidroksidi metallarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Kalit so’zlar: «Zol –gel» texnologiyasi , bentonit, kimyoviy tarkib, katalizator, tekstura, termogravimetriya, kinetik parametrlar.

Аннотация: Дериватографический анализ бентонита, консерванта, используемого в производстве нанокатализаторов на основе золь-гель технологии. Химический состав навбахорского бентонита определяли методами в соответствии со стандартами Международного союза теоретической и прикладной химии. Элементный состав полученных материалов определяли методом дополнительного рентгеноспектрального микроанализа (РСМА) JEOL - JED-2200 EDS на сканирующем электронном микроскопе JEOL - JSM-6390. Кислотные свойства исследовали на универсальном сорбционном газоанализаторе УСГА-101 методом термодинамической десорбции аммиака. Качественный и количественный состав продуктов реакции анализировали хроматографически на хроматографе «Кристалл 5000» с капиллярной колонкой и пламенно-ионизационным детектором. Бентонит в Навбахорском районе Навоийской области представляет собой порошок светло-серого цвета без запаха, практически нерастворимый в воде и органических растворителях, pH взвеси 7,1-8,7. Слабая щелочность взвеси объясняется наличием в глине щелочных почв и щелочных металлов.

Ключевые слова: золь-гель технология, бентонит, химический состав, катализатор, текстура, термогравиметрия, кинетические параметры.

Annotation: Derivatographic analysis of bentonite, a preservative used in the production of nanocatalysts based on Zol-gel technology. The chemical composition of Navbahor bentonite was determined by methods in accordance with the standards of the International Union of Theoretical and Applied Chemistry. The elemental composition of the obtained materials was determined by additional X-ray spectral microanalysis (RSMA) with JEOL - JSM-6390 scanning electron microscope JEOL - JED-2200 EDS. The acidic properties were studied in the USGA-101 universal sorption gas analyzer using the thermodynamically desorbed method of ammonia. The qualitative and quantitative

composition of the reaction products was analyzed chromatographically on a chromatograph "Crystal 5000" with a capillary column and flame-ionization detector. Bentonite in Navbahor district of Navoi region is a light gray powder, odorless, almost insoluble in water and organic solvents, the pH of the suspension is 7.1-8.7. The weak alkalinity of the suspension is explained by the presence of alkaline soils and alkali metals in the clay.

Keywords: Zol-gel technology, bentonite, chemical composition, catalyst, texture, thermogravimetry, kinetic parameters

So’nggi yillarda «Zol –gel» texnologiyasi past xaroratda, noorganik va organo-noorganiq materiallar sintez kilish bo’yicha katta ilmiy - amaliy izlanishlar olib borilmokda. Bu texnologiyada qo’llaniladigan asbob-uskunalarning oddiyligi, energo-ressurslar tejamkorligi, ekologik xavfsizligi, tannarxining arzonligi, texnologiyaning moslashuvchanligi kabi, kator xususiyatlarining afzalliklari bilan boshqa texnologiyalardan fark kiladi [1]. SHuningdek, dastlabki prekursorlarning gidrolitik polikondensatsiya reaktsiyasini yumshoq sharoitda amalga oshirilishi va reaktsion sistemaga funktsional guruhli monomerlar, polimerlar, o’zgaruvchan valentli metallarning oksidlarini kiritish imkoning mavjudligi, barcha reagentlar uchun yagona erituvchining ishlatilishi va oxirgi mahsulot strukturasi hamda o’lchamini boshqarish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi [2]. Zol-gel texnologiyasida qo’llaniladigan dastlabki moddalar ma’lum sharoitlarda polimerlanadigan yoki polisolьvatlanadigan guruhlar hamda mitsella hosil qilish mumkin bo’lgan birikmalardir [3]. Bu birikmalarning gidrolizidan zol hosil bo’ladi. *Zol*-dastlabki prikursorlarni suvli eritmada kislotali yoki ishqoriy sharoitdagi gidrolizidan hosil bo’ladigan o’lchami 1nm dan 100 nm (10^{-9}-10^{-7}m) gacha o’lchamdagi zarrachalarning turg’un suspenziyasidir [4] . Zol-gel jarayonida polikondensatsiya reaktsiyasi natijasida dastlabki zarrachalar oligomer yoki polimerga o’tishi natijasida qovushqoqlik ortadi va gelga aylanadi [5]. *Gel* - birlamchi kolloid zarrachalarning o’zaro birikishidan hosil bo’lgan uch o’lchovli dispers faza. Zolning gelga o’tish vaqtida ishlatiladigan erituvchi tabiatiga (suv yoki spirt) qarab, har xil liogellar olish mumkin [6]. Sababi, nanokatalizatorlar yuqori katalitik faolligi, uzining selektivligi, barkarorligini va boshqalarni namoyon etadi. Olib borilgan adabiyotlar tahliliga [6-7], asoslanib katalizda nanozarrachali katalizator qo’llanilishining istiqboli quyidagi ikki ilmiy jihatga bog’liq. Birinchidan, zarracha o’lchami kichrayishi bilan atomlarning katta ulushi sirtda joylashadi, shuning uchun nanozarrachalardan tashkil topgan katalizator katta sirt-yuzasiga ega bo’ladi, geterogen reaktsiyalarda juda faol bo’ladi. Ikkinchidan, nanozarrachalarning ko’pgina xossalari ularning o’lchamiga bog’liq (o’lcham samarasi). Katalizator zarrachalarning o’lchami kamayganda reaktsiyaning tezligi keskin ortadi. Geterogen katalizatorlar bilan mavjud texnologiyalarga yuqori energetika va xom-ashyo sarflash qayd etilgan jarayonlarni amalga oshirishning yangi usullarini izlashga majbur etmoqda. Bu muammoni yechish yo’llaridan biri, jarayonni nanokatalizatorlarda amalga oshirishdir. SHuning uchun ham, noorganiq oksidli materiallarning sintezida «Zol-gel» jarayonini tutuvchi modda bentonitni boshqa materiallarga ko’ra qo’llash afzalliklarga ega va bunda ulьtradispersli yuqori g’ovvakli noyob tuzilishlar yaratish, yuqori tozaligini ta’minlash, komponentlar taqsimlanishining gomogenligini ta’minlash bilan, hosil bo’layotgan birikmalarning mikro bir jinsliligini kamaytirish, yangi kristal va amorf fazalar olish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot metodikasi va qo’llanilgan jihozlar

«Navbahor» koni bentonitining kimyoviy tarkibi xalqaro nazariy va amaliy kimyo ittifoqi (IUPAC) standartlariga muvofiq metodlarda aniqlandi. Kislotali xossalari USGA-101 universal sorbtsion gaz analizatorida ammiakning termodasturlangan desorbtsiyasi usuli orqali

o’rganildi.Reaktsiya mahsulotlarining sifat va miqdor tarkibi xromatografik usulda kapillyar kolonkali va alanga-ionizatsion detektorli “Kristall 5000” xromatografida tahlil qilindi. Katalizatorlar g’ovakli tuzilishi va solishtirma sirt yuzasini aniqlash Brunauer, Emmet, Teller (BET) usulida TriStar II avtomatik gazliadsorbtsion analizatorida o’tkazildi. Solishtirma sirt yuza 77 K da azotning adsorbtsiya izotermasi bo’yicha hisoblandi. Katalizatorlarning g’ovaklari hajmi va o’lchami BJH (Barett-Joyner-Halend) modeli bo’yicha R/R0=0,99 nisbiy bosimda mos ravishda desorbtsiya va adsorbtsiya izotermalari bo’yicha ma’lumotlardan aniqlandi



1. Qizdirish pechi. 2.Konussimon alund inerert material. 3. Material uchun tigelь.4. Tarozi. 5.Termopara chiqishi.6.Qopqoq 8.Yorug’lik manbai.9. Magnit. 10. Kollektor 11. Galьvanometrlar.12. Fotoregistratsiya barabani.
Rasm-1. Od-103 derivatografining qurilma va harakatlar sxemasi

Derivatogramma-izotermik bo’lmagan kinetik ma’lumotlar Od - 103 derivatografida olindi. 1-rasmda o’lchash, fotosuratga olish qurilmasi, ishchi kamerasi va nazorat, xavfsizlik qurilmalari (2) ning og’irligidan iborat derivatograf qurilmasi va xarakatlar sxemasi ko’rsatilgan. Od-103 derivatografik kurilma avtomatik ravishda ishlaydi va kuzatilgan o’zgarishlarni tavsiflovchi egri chiziqlar fotoregistratsiya barabaniga biriktirilgan fotointensiv qog’ozga yoziladi. Muvozanat kollektoriga o’rnatilgan yoritilgan optik tirqishning yorug’lik signali fotointensiv qog’ozga termogravimetrik egri chiziq ko’rinishidagi shkala bo’yicha kattalashtirilgan linza tizimidagi tirqishning og’ishini qayd qiladi.Izotermik bo’lmagan sharoitlarda termogravimetriya yordamida olingan termoanalitik egri kinetik tahlil qilish uchun differentsial usul ishlatilgan. [8].

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi bentonit och kulrang kukun, hidsiz, suvda va organiq erituvchilarda deyarli erimaydi, suspenziyaning pH qiymati 7,1-8,7. Adsorbtsion xususiyatlarga ko’ra, bu birlashtirilgan mezo-makro-mikrog’ovakli adsorbent bo’lib, uning o’ziga xos yuzasi 54,5 m^2 / g, g’ovak hajmi 0,065 sm^3 / g, o’rtacha g’ovak razmeri 4,8 nm, metilen uchun adsorbtsion faolligi ko’k - 62,0 bentonit / g., bu bir qator adabiyot ma’lumotlari bilan tasdiqlangan [8]. «Navbahor» bentonit loyining texnologik va adsorbtsion standartlashgan tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

«Navbahor» bentonit loyining texnologik va adsorbtsion tavsiflari

№ p/p	Bentonit loyining sifat ko’rsatkichlari	Bentonit loyining xususiyatlari
1	Tavsifi	och kulrang kukun, hidsiz, suvda va organiq erituvchilarda deyarli erimaydi
2	pH suspenziya (5 v 100) suvdagi	7,1-8,7

3	Quritishdagi massaning yo’qotilishi,%	8% dan kup emas
4	Adsorbtsion faolligi, bentonit/g	62,0±0,2
5	Kationli almashinish sig’imi , bentonit×ekv	19,4
6	Мышьяк	yo’q
7	Si^{4+} va Al^{3+} elementlar nisbati	3:1
8	Besh nuqtali VET usuli bo’yicha o’ziga xos sirt maydoni, m^2/g	54,5±2,0
9	R/R_0 = 0,98, sm^3/g bosimdagi g’ovaklar xajmi	0,065±0,005
10	G’ovaklar o’rtacha o’lchami, nm	4,8
11	Bentonit loyining namligi, %	26 -28
12	Kuruk bentonit loyining namligi, %	2-3

Olingan natijalar 2- jadvalga kiritildi.

2-jadval

Navbahor bentonitining qizdirish haroratiga bog’liq holda tekstur tavsiflari

T ^0C	S_{ud} m^2/g	V_S sm^2/g	W_0 sm^2/g	E_0, kDj/moль
70	65	0,062	0,031	12,74
100	64	0,064	0,031	13,38
150	72	0,061	0,034	13,09
400	74	0,072	0,035	12,44
500	66	0,063	0,032	11,72

Xalqaro nazariy va amaliy kimyo ittifoqi standartlariga muvofiq metodlarda «Navbahor» bentonitining kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Material bilan bog’lanish energiyasini miqdoriy tavsiflashni aniqlash uchun material bilan aloqa shakllarini tasniflashda ishlatiladigan yagona mezon P. A. Rebinder izotermik degidratatsiyaning erkin energiyasining qiymati hisoblanadi. Bu yerda biz suvning material bilan bog’liqligi tufayli uning sirtidagi suv bug’ining bosimi kamayadi, shuning uchun erkin energiya mos ravishda kamayadi degan tushunchadan kelib chiqamiz. Bu erkin energiyaning pasayishi-doimiy temperaturada utuvchi bog’lanish yenergiyasi hisoblanib, uning uzilishi uchun, aniqrog’i, materialdan 1 mol suv ajralishi uchun sarflanadigan ish (erg / mol da) : $-\Delta F = L = RTln\frac{P_u}{P_n} = -RTln\varphi$

Buerda: R –gaz doimiysi; R_u – $erkin\ suv\ tuyingan\ bugining\ bosimi.$

P_n – u namlikdagi material usti muvozanat suv bugining partsial bosimi, inert gaz yoki vakuumda $\varphi = \frac{P_u}{P_n}$

Hozirgi vaktda, reaktsiyaning kinetik konstantasini aniqlashning bir qancha mustaqil usullari mavjud. Mavjud hisoblash tenglamalar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, termogravimetriya ma’lumotlari bo’yicha reaktsiya mexanizmini aniqlash uchun tajriba ma’lumotlarini eng yaxshi approksimatsiyalovchi bitta kinetik tenglama tanlanadi. Umumiy analitik shaklda taklif yetilgan ginetik tenglamalar quyidagi shaklga tushiriladi :

$$\frac{d\alpha}{d\tau} = z\exp\left[-\frac{E}{RT}\right]\alpha^m(1-\alpha)^n\left(-\ln(1-\alpha)\right)^P \quad 1)$$

bu yerda: α –uzaro alokadorlik darajasi;

z, E, m, n, p –kinetik model parametrlaridir.

Kinetik parametrlarning dastlabki approksimatsiyalari og’irligi kam kvadratlar usuli bilan baholanadi

$$\sum_{i=1}^{M}\omega_i\left(\alpha_i^э - \alpha_i^p\right)^2 \to \min \quad 2)$$

Buerda: $\alpha^э$va α^p- eksperimental va hisob aloqadorlik darajasi.

Og’irlik koeffitsientlari uchun, odatda, quyidagi shakl ishlatiladi:

$$\omega_i = \alpha_i^\beta \quad 3) \text{ bunda:}$$

$$\beta = -1 \quad 4)$$

Olingan parametrlar quyidagicha tekshiriladi: tanlangan sintetik tenglama Euler usulining o’zgaruvchan kadami bilan birlashtirilib, quyidagi funktsional optimal parametrlarini tanlash sifatida ishlatiladi:

$$f(ƶ, E, m, n, p) = \int_{\tau_n}^{\tau_k} (\alpha^e - \alpha^p) \rightarrow min \quad 5)$$

Optimallashtirish modifikatsiyalangan Nelder-Meade usuli bilan amalga oshiriladi, bu dastlabki yaqinlashishning muvaffaqiyatli joylashuvi bilan yaqinlashuvini ta’minlaydi.

.

Birinchi modeldan foydalanilganda kinetik konstantalar TG egri chiziqlaridan differentsial usul yordamida hisoblanadi. Optimizatsiyalashda modifikatsiyalangan Nelder-Mid metodidan foydalanish xam mumkin. Olingan hisob natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Topokimyoviy Yerofeev tenglamasi modeli asosida kinetik parametrlarini hisoblash natijalaridan ishqoriy bentonit va ishqoriy yer tuproq bentonitlar kinetik kursatkichlari bir biridan kup fark kilmas ekan

4 - jadval

Kinetik parametrlarini hisoblash na tijalari

№	Materal nomi	Kinetik parametrlar		
		Yerofeev tenglamasi uzgarmaslari		
		ƶ	E kkal/mol	n
1	Ishqoriy bentonit tuproq	13,90	18,2	1,210
2	Ishqoriy yer tuproq	12,80	17,4	1,36

Olingan konstantalarni Yerofev tenglamasiga quyilganda amaliy kullash uchun: ishqoriy bentonit tuproq uchun:

$$\frac{d\alpha}{d\tau} = 13{,}90 \exp\left(-\frac{18{,}2}{RT}\right)(1-\alpha)[-\ell n(1-\alpha)]^{\frac{1.21-1}{1,21}}$$

Ishqoriy yer tuproqi uchun:

$$\frac{d\alpha}{d\tau} = 12{,}8 \exp\left(-\frac{17{,}4}{RT}\right)(1-\alpha)[-\ell n(1-\alpha)]^{\frac{1{,}36-1}{1{,}36}}$$

shaklini oladi.

Xulosa: «Navbahor» bentonit loyining texnologik va adsorbtsion standartlashgan tavsiflari tuzildi. “Navbahor” bentoniti namunalarning qizdirish harorati 70 dan 500°C gacha ko’tarilishi bilan ularning o’ziga xos yuzasi va g’ovaklarining hajmi asosan mikrog’ovaklarning issiqlik ta’sirida bentonit loyini issiqlik bilan ishlov berish, natijasida qatlamlararo suvni chiqarish bilan tekstur parametrlarining hosil bo’lishi va turgunlashishi sodir bo’ladi va dastlabki bentonit loyi namunalarida g’ovakli tuzilishi hosil bo’ladi.Ishqoriy bentonit va yer tuprogi hisoblangan bentonit kimyoviy tarkibining qiyosiy tahlili , shuni kursatdiki, ularning kimyoviy tarkibi bir- biridan keskin farq kilmasada, lekin: TiO_2 , Fe_2O_3, MgO, K_2O, P_2O_5 miqdori ishqoriy yer tuprogida bir muncha ko’proq va SiO_2, Na_2O, SO_3 i ishqoriy bentonit tuprog’ida ko’proq ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дедов А.Г., Локев А.С.,Тальпуховская Н.О.,Пархоменко К.В.Моисеев Н.И.Новые катализаторы окислительной конденсации метана мезопорыстые аморфные силикаты редкоземельных элементов // Доклады академии наук. – 2008.-Т.422. -.498-500.
2. Гусев А. И. Наноматериалы, наноструктуры, нанотехнологии. — М.: Физматлит, 2007. — 416 с.
3. Bobomurodova, S.Y., Fayzullaev, N.I., Usmanova, K.A. Catalytic aromatization of oil satellite gases//International Journal of Advanced Science and Technology, 2020, 29(5), стр. 3031–3039.
4. Fayzullaev, N.I., Bobomurodova, S.Y., Avalboev, G.A. Catalytic change of C1-C4-alkanes//International Journal of Control and Automation, 2020, 13(2), стр. 827–835.
5. Mamadoliev, I.I., Fayzullaev, N.I., Khalikov, K.M. Synthesis of high silicon of zeolites and their sorption properties//International Journal of Control and Automation, 2020, 13(2), стр. 703–709.
6. Mamadoliev, I.I., Fayzullaev, N.I.Optimization of the activation conditions of high silicon zeolite//International Journal of Advanced Science and Technology, 2020, 29(3), стр. 6807–6813.

7. Aslanov, S.C., Buxorov, A.Q., Fayzullayev, N.I. Catalytic synthesis of C2-C4-alkenes from dimethyl ether// International Journal of Engineering Trends and Technology, 2021, 69(4), стр. 67–75

8. Temirov F N, Khamroyev J Kh, Fayzullayev N I, Haydarov G Sh and Jalilov M Kh. Hydrothermal synthesis of zeolite HSZ-30 based on kaolin// IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 839 (2021) 042099
IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/839/4/042099.

ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПАСТООБРАЗНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ, ПОЛУЧЕННЫХ НА ОСНОВЕ ОТХОДОВ ПРОИЗВОДСТВА

САНОАТ ЧИҚИНДИЛАРИ АСОСИДА ОЛИНГАН ПАСТАСИМОН ЮВИШ ВОСИТАЛАРИНИНГ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ХОССАЛАРИ

PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES OF PASTE-LIKE DETERGENTS OBTAINED ON THE BASIS OF INDUSTRIAL WASTE

Н.Б.Кадирова – ст.преподователь
А.А.Абдурахимов – д.т.н., доц.,
Д.С.Салиханова - д.т.н., проф.

Аннотация: Ушбу мақолада иккиламчи ресурслар ва ёғ-мой ишлаб чиқариш корхоналари чиқиндилари асосида пастасимон ювиш воситаларини олиш имкониятлари кўрсатилган. Олинган ювиш воситаларининг асосий физик-кимёвий хоссалари ўрганилди. Фосфолипидлар, триацилглицеридлар, сирт фаол моддалар ва эмульсия ҳосил қилувчи хусусиятларга эга поликремний кислоталарини ўз ичига олган гидратация жараёнида ҳосил бўлган оқава сувлардан фойдаланиш, ювиш ва тозалаш қобилиятига ижобий таъсир кўрсатиши аниқланган.

Калит сўзлар: ювиш воситалари, чиқинди сув, сирт, тозалаш хусусиятлари, ифлосланиш, pH, кўпик, кўпик барқарорлиги.

Аннотация: В данной статье показаны возможности получения пастообразных моющих средств на основе вторичных ресурсов и отходов масложирового производства. Изучены основные физико-химические свойства полученных моющих средств. Установлено, что применение сточных вод образующиеся в процессе гидратации содержащих фосфолипидов, триацилглицеридов и поликремневые кислоты, обладающие поверхностно-активными и эмульгирующими свойствами, положительно повлияют на моющие и очищающие способности.

Ключевые слова: моющие средства, сточные воды, поверхность, моющие свойства, загрязнения, pH, пенообразование, устойчивость пены.

Annotation: This article shows the possibilities of obtaining paste-like detergents based on secondary resources and waste of fat-and-oil production. The basic physico-chemical properties of the obtained detergents have been studied. It has been established that the use of wastewater formed during the hydration process containing phospholipids, triacylglycerides and polysilicon acids with surface-active and emulsifying properties will positively affect the washing and cleaning abilities.

Keywords: detergents, wastewater, surface, cleaning properties, pollution, pH, foaming, foam stability.

На сегодняшний день ставятся жесткие требования к щелочным моющим средствам удаляющие загрязнения из поверхностей. При применении таких моющих средств в процессе удаления сложных жировых загрязнений должен хорошо смачивать поверхность, эмульгировать жиры,

растворять, солюбилизировать, диспергировать и стабилизировать загрязнения, по возможности осуществлять гидролиз белковой составляющей. Для полного проведения этих процессов возможно только с помощью многокомпонентных составом, содержащих в составе поверхностно активные вещества (ПАВ) и вспомогательными компонентами [1-3].

Для обеспечение экологической и гигиенической безопасности моющих средств (МС) требует созданию инновационных рецептур. Поэтому во многих Европейских странах, США, Китае интенсивно проводятся исследования по разработке рецептур моющих средств, обладающих гипоаллергенными, биоразлогаемыми поверхностно-активные вещества (ПАВ), а также безопасные функциональные добавки. Также актуальным является поиск альтернативных способов получения моющих средств, на основе отходов различных производств [4,5].

Нами ранее разработана [6,7] рецептура, состоящая из отходов МЖК, т.к. соапсток, ДЖК, отработанная глина. По консистенции относится к пастообразный. В рецептуру вместо воды добавляли сточные воды образующиеся в процессе гидратации светлых масел. В составе данной воды имеется фосфолипиды, триацетилглицерины, воскоподобные вещества и др. Данные сточные воды после жироловушки отправляются в канализацию. Хотя в его составе имеются эти ценные компоненты, которые являются хорошими поверхностно активными веществами. Полученные результаты приведены в табл. 1.

Таблица 1

Рецептура пастообразного моющего средства

Наименование компонентов пастообразного моющего средства	**Содержание компонентов, масс.%**
	Рецептура пастообразного моющего средства
Соапсток (светлых растительных масел)	**15**
Отработанное глина	**10**
ДЖК (дистилляции жирных кислот хлопковые растительных масел)	**10**
Na_2CO_3	**2**
Na_2SiO_3	**2**
NaOH	**8**
KOH	**12**
H_2O_2	**1**
TiO	**1**
Вода (ФССВ)	**39**

В данной табл. 1 приведены оптимальный состав разработанной рецептуре, где отработанная глина (ОГ) составляет 10%. А дальнейшие повышение его количества отрицательно повлияло на моющие и товарные свойства.

При изучении состава ФССВ определено, что существуют определенное количества фосфолипидов, насыщенных и

ненасыщенных жирных кислот и поликремниевые кислоты, обладающие поверхностно-активными и эмульгирующими свойствами, обеспечат образованию на межфазной поверхности контакта с щелочью сложного адсорбционного слоя, стабилизированного указанными ПАВ. Также в данном образовании участвуют триацилглицерины, воски и воскоподобные вещества. Это объясняется, что ассоциация происходит по кислотным полярным группам у ассоциатов, находящихся на межфазной поверхности, в их суммарном гидрофильно-липофильном балансе преобладают гидрофобные свойства. Это приводит к существенному повышению как солюбилизации нейтрального жира, так и его сопряженной растворимости. Это можно объяснит тем, что липофильные молекулы (триацилглицеринов, восков и воскоподобных веществ) включены между гидрофобными частями молекул, образующих мыльные мицелл [7,8].

Пенообразующая способность в моющих средств является один из основных характеристик, которое повышает моющую способность, однако обильное его образование затрудняет даже некоторые автоматические системы. По требованиям «Методическим рекомендациям…» допустимое пенообразование моющих средств должно составлять не более 50% объём раствора, устойчивость пены – не более 0,3 единиц [9].

Для определение пенообразующей способности (ПС) – это разность высоты столба пены к высоте столба раствора моющих средств, а устойчивость пены (УС) – это разность столба пены через 10 мин к начальной, проводилось при температуре раствора 20, 45 и 55 ºС с трехкратной повторности при концентрациях растворов 1,0; 3,0 и 5,0 %. Результаты представлены в рис.1.



Рис 1. – Объём первоначальной пенообразования пастообразного моющего средства, концентрацией: 1 - 1%; 2- 3 %; 3 - 5%.

Из рис.1 видно с повышением концентрации моющего средства повышается первоначальный объём пени, также этот показатель увеличивается с повышением температуры с 25 до 55 ^{0}C. С повышением температуры с 25 до 55 ^{0}C увеличивается первоначальная

пенообразование с 40 до 75 см ^{3}, это почти в 2 раза.

Далее изучено устойчивость пенообразования. Полученные результаты приведены в рис 2. При изучении устойчивости пенообразования во времени показал, что устойчивость не теряет первоначальную высоту.



Рисунок 2. – Объём пенообразования пастообразного моющего средства во времени, с концентрацией: 1-1 %; 2 -3%; 3 - 5%

Очищающее способность пастообразных растворов моющих средств является одним из основных факторов о его качественных характеристик [10,11]. Основными управляемыми технологическими факторами очистки загрязненной поверхности являются: концентрация моющего средства в растворе (с, г/л), температура раствора (Т, ºС) и время воздействия на загрязнения (t, мин). Очищающую способность растворов моющего средства определяли по величине коэффициента очистки (k_o). Далее, исходя из опытных данных взаимосвязи между коэффициентом очистки и загрязненностью поверхности образца, методом оценки очистки по следующей шкале загрязненности [12].

Эксперименты проводили трехкратно и полученные результаты приведены в рис 3.

Рисунок 3 - Моющие свойства пастообразного моющего средства: 1-1 %; 2 -3%; 3 - 5%

Из рис. 3 видно, что с повышением концентрации и температуры пастообразного моющего средства моющая способность повышается почти в 2 раза, с 30 до 60% при концентрации 1%, а в 5%-ном с 45 до 99%. Дальнейшее повышение температуры не целесообразно, т.к. достигнута максимальная моющая способность.

По классификации качества очистки оборудования в зависимости от коэффициента очистки и загрязненности поверхности определяли по [13]. (таблица 2)

Таблица 2.

Классификация степени очистки загрязненных поверхностей

Качество очистки	Значение коэффициента очистки (k_o), %	Загрязненность поверхности, г/м2	Прогнозируемая сортность получаемого молока
Отличное	> 90,0	< 0,5	Высший
Удовлетворительное	80,0–90,0	0,5–1,0	Первый, второй
Неудовлетворительное	< 80 ,0	> 1,0	Несортовое

Как видно из табл. 2. наилучшему степени очистки достигается при 40^0 С, где значение коэффициента очистки (k_o), выше 90%. А при низких температурах степень очистки показывает низкие значения коэффициента очистки (k_o).

Жировые загрязнения и отложения в основном эффективно гидролизуются (омыляются) именно в щелочном среде, поэтому pH моющих средств являются немаловажным фактором. Известно, что чем выше pH моющих средств, тем выше его моющая способность, однако с повышением pH также повышается его коррозионная способность и агрессивное воздействие на кожу.

Водородный показатель (pH) среды моющих средств определяли трёхкратно при концентрациях 1,3 5 и 7,5%. Полученные результаты по водородный показатель pH растворов моющих средств приведены в табл 3.

Таблица 3.

Изменение показатели водородный показатель (pH) от концентрации моющих средств

Название моющего средства	водородный показатель (pH)			
	с = 1,0 г/л	с = 3,0 г/л	с = 5 г/л	с = 7,5 г/л
ММС- мазеобразное моющие средства [1]	9,05±0,007	9,07±0,006	9,15 ±0,000	9,20±0,010
ПМС – пастообразное моющие средства	9,12±0,015	9,52±0,006	9,60±0,010	10,65±0,006
«Мультилюкс» [2](контроль)	11,5±0,006	11,35±0,010	12,70±0,016	13,90±0,011

1. ранее полученный мазеобразное моющие средства [12].

2. Мультилюкс® 22 Пастообразное натуральное низко щелочное абразивное моющее средство

Из табл.3, что с повышением концентрации раствора моющего средства повышается водородный показатель pH, соответственно у ММС – с 9,05 до 9,20, но у ПМС с 9,12 до 10,65. Если сравнит его с контрольным образцом, то явно видно, что водородный показатель (pH) у ПМС намного ниже. Это доказывает о его гигиенической безвредности.

Таким образом, на основе местных продуктов и отходов производства разработана рецептура пастообразного моющего средства, где вместо воды использовано сточные воды, образующие после гидратации растительных масел.

Установлено, что с повышением температуры до 40-50^0 С пенообразующая и очищающая способность моющего средства повышается почти в 2 раза. Доказано его гигиеническая безвредность по сравнении с контрольным образцом.

Использованная литература:

1. Угаров Б.Н. Синтетические моющие средства технического назначения.М.: «НИИТЭХИМ», 1975. 33 с.
2. Волков В.А. Поверхностно-активные вещества. Синтез и свойства. Электронная книга. М., 1989. URL: http://chemistrychemists.com/chemister/Parfumeria/pav-volkov1.zip.
3. Фролов Ю.Г. Курс коллоидной химии: поверхностные явления и дисперсные системы. М.: «Альянс», 2004. 462 с.
4. Алагезян, Р.Г. Научные основы санитарной обработки технологического оборудования на предприятиях молочной промышленности: автореф. дис. … д-ра биолог. наук: 03.00.07 / Алагезян Рафик Григорьевич. – Ереван, 1974. – 44 с.
5. Волков, В.А. Поверхностно-активные вещества в моющих средствах и усилителях химической чистки / В.А. Волков. – М.: Легпромбытиздат, 1985. – 200 с.
6. Кодирова Н.Б.,Абдурахимов А.А., Салиханова Д.С. Получения моющих средств на основе отходов масложировых предприятий // Спец выпуск.Научно-технический журнал ФерПИ. - Фергана, 2022. - том 25, №1. – С. 242-246.
7. Kadirova N. B., Abdurahimov A.A, Salixanova D.S., Saydazimov M.S., Karabayeva M.I. Colloid-chemical properties of the produced detergents // **Harvard Educational and Scientific Review,** Har. Edu.a.sci.rev. 0362-8027 62, Vol.2. Issue 1 Pages 62-68.
8. Ланге К.Р. Поверхностно-активные вещества. Синтез, свойства, анализ, применение/Перевод с англ. Surfactants. A Practical Handbook/ Под редакцией, к.х.н. Л. П. Зайченко. СПБ.: «Профессия», 2005. 240 с.
9. Методические рекомендации по оценке качества моющих и дезинфицирующих средств для санитарной обработки молочного оборудования на животноводческих фермах и комплексах: ВАСХНИЛ, Отдел ветеринарии. Совет по координации научно-исследовательских работ в области повышения качества продуктов животноводства / отв. ред. Яблочкин В.Д. – М.: Изд-во ВАСХНИЛ, 1982. – 66 с.

10.Дегтерев, Г.П. Классификация основных факторов. Определяющее моющее действие растворов синтетических моющих средств при очистке сельскохозяйственных машин / Г.П. Дегтерев // Известия ТСХА. – 1977. – Вып. 1. – С. 172–180.

11.Дегтерев, Г.П. Моющее-дезинфицирующие средства и качество продукции / Г.П. Дегтерев // Молочная промышленность. – 1996. – № 6. – С. 12–13.

12.Дегтерев, Г.П. Применение моющих средств/ Г.П. Дегтерев. – М.: Колос, 1981. – 239 с.

БЕНЗОЛ БУҒЛАРИНИ ТРИМЕТИЛАММОНИЙЛИ АДСОРБЕНТГА АДСОРБЦИЯЛАНИШИ

АДСОРБЦИЯ ПАРОВ БЕНЗОЛА НА ТРИМЕТИЛАММОНИЕВОМ АДСОРБЕНТЕ

ADSORPTION OF BENZENE VAPORS INTO TRIMETHYLAMMONIUM ADSORBENT

Д.К.Хандамова, Ш.П.Нуруллаев- Тошкент КТИ,
Ғ.М.Очилов-Қўқон ДПИ

Аннотация: Мақолада, триметиламмонийли адсорбентга бензол буғларини адсорбцияланиши ўрганилди. Бунда бензол буғларининг адсорбцияланиш изотермаси S- шаклига эга эканлиги аниқланди. Бундай ҳолда ,ғовакликларда капилляр конденсация содир бўлди. Микроғоваклик ҳажми W_0 = 74,5•10^{-3} $м^3$/кг ни, мезоғоваклар W_{me}=23,2 $м^3$/кг ни ташкил қилди. . Адсорбент ғовакларининг асосий максимал радиуси 9,56 нм га минимал радиуси 0,78 нм га тенг эканлиги аниқланди.

Калит сўзлар: Адсорбция, Ленгмюр, адсорбция изотермаси, адсорбция потинциали, адсорбент ғоваклиги, бензол буғи, модификация.

Аннотация: В статье исследована адсорбция паров бензола на адсорбенте содержащие триметиламмония. Установлено, что процесса изотерма адсорбции паров бензола имеет S-образную форму. При этом в порах происходит капиллярная конденсация. Экспериментально определен, что объем микропористости равен W_o= 74,5•10^{-3} $м^3$/кг, мезопористости W_{me} = 23,2•10^{-3} $м^3$/кг. Было установлено, что основной максимальный радиус пор адсорбента составлял 9,56 нм, а минимальный - 0,78 нм.

Ключевые слова: Адсорбция, Ленгмюр, изотерма адсорбции, потенциал адсорбции, пористость адсорбента, пары бензола, модификация.

Annotation: The article investigates the adsorption of benzene vapor on an adsorbent containing trimethylammonium. It was found that the benzene vapor adsorption isotherm of the process is S-shaped. In this case, capillary condensation occurs in the pores. It was experimentally determined that the volume of microporosity is W_o = 74.5 • 10^{-3} m^3 / kg, mesoporosity W_{me} = 23.2 • 10^{-3} m^3 / kg. It was found that the main maximum radius of the pores of the adsorbent was 9.56 nm, and the minimum - 0.78 nm.

Key words: Adsorption, Lengmyur, adsorption isotherm, adsorption potential, adsorbent porosity, benzene vapor, modification.

Кириш. Республикамиз кимё саноатининг жадал ривожланиши билан моддаларни саралаш ва тозалаш жараёнида самарадор, селектив ва органофил таркибли адсорбентларга бўлган эҳтиёжини бугунги кунда тобора ошиб бори-ши кузатилмоқда. Бу борада, маҳаллий хом ашёлардан фойдаланиб адсор-бентлар тайёрлаш ва уларнинг коллоид-кимёвий, адсорбцион хоссаларини ўрганиш муҳим назарий ва амалий аҳамиятга эгадир. Хорижий тадқиқотчилар томонидан бентонитларни турли услублар, жумладан, полигексаметилен гуанидин гидрохлорид иштирокида модификацияланган

адсорбентларини оқава сувлар таркибидаги нефт махсулотларини тозалашда [1], органо-бентонитларни Cu^{2+} ионларини [2], цезий ва стронцийни тутиб қолишида [3] адсорбентлар сифатида кенг қўлланилган. Шунингдек, охирги йилларда, кичик ўлчамли катионли сирт фаол модда билан модификацияланган бентонитлар ифлосланган сувлардан фенол ва унинг бирикмаларини сорбциялашда [4], радиоактив чиқиндиларни утилизация қилишда [5], полимерлар термик барқарорлиги ва механик хоссаларни янада оширувчи қўшимчалар сифатида ҳам фойдаланилмоқда [6].

Мана шу мақсадда органофил таркибли адсорбентлар олишда натрий монтмориллонитига бой бўлган Навбаҳор ишқорий бентонитидан (ПБГ) фойдаланилди. Тозаланган Навбаҳор бентонитининг 5% ли суспензиясига концентрацияси 0,02 н бўлган триметиламмоний гидрохлорид эритмаси таъсир эттирилиб махсус усуллар билан триметиламмонийли янги адсорбент олинди. Адсорбентнинг тузилиши замонавий физик-кимёвий, дифференциал термик анализ (ДТА) [7] ва ИК-спектроскопик усуллар билан олинган натижалар ёрдамида аниқланди [8].

Адсорбентнинг *сорбцион–структура* кўрсаткичларини тадқиқ қилишда адсорбат сифатида бензолдан фойдаланилди. Бунда бензол фойдаланишдан олдин вакуум шароитида тозаланди ва қуритилди. Унинг буғ босими тоза бензол учун маълумотлар баъзасида келтирилган буғ босими маълумотлари билан бир хил бўлгунча таркибидаги эриган газлар чиқариб юборилди [9].

Тадқиқотнинг натижалари ва муҳокамаси. Триметиламмонийли адсорбентга бензол буғини адсорбцияланиш изотермаси С.Брунауэр [10] томонидан таърифланган классификациясига мувофиқ II-тур адсорбция изотермаларига, яъни *S – шаклидаги* адсорбция изотермалар гуруҳига мос келиши аниқланди. Бундай турдаги адсорбция изотермалари, адсорбентларда адсорбцияланиш жараёнини полимолекуяр механизм билан борганлигидан далолат беради. Триметиламмонийли адсорбентга бензол буғини адсорбцияла-ниш изотермаси 1-расмда келтирилган. Ушбу натижалардан кўриш мумкинки нисбатан паст даражадаги босимларда, яъни P/Ps = 0,2 моль/кг га қадар адсорбция изотермасида тик кўтарилиш, P/Ps = 0,2-0,44 моль/кг босим оралиғида эса адсорбция жуда кам ва P/Ps = 0,44-1,0 моль/кг босим оралиғида адсорбцияланиш изотермасида яна секин кўтарилишлар содир бўлиши куза-тилди.



1- Расм.Триметиламмонийли адсорбентга бензол буғини адсорбцияланиш ва десорбцияланиш изотермаси.

Триметиламмоний таркибли адсорбентга бензол буғларини адсорбцияла-ниш изотермаси асосида адсорбентнинг муҳим кўрсаткичларидан ҳисобланган моноқават сиғими ($\alpha_м$), тўйиниш ҳажми V_s (ёки адсорбцияси α_s) ва солиштирма юзалари S лари ҳисоблаб топилди (1-жадвал).

1-жадвал

Бензол буғларини адсорбцияланиши бўйича триметиламмонийли Навбахор бентонитининг *структура - сорбцион* кўрсаткичлари

Адсорбент	**Вакуум-лаш ҳарорати, К**	**Моноқа-ват сиғими, a_m, моль/кг**	**Солиш-тирма юзаси, $S•10^{-3}$, $м^2$/кг**	**Тўйиниш адсорбцияси α_s, моль/кг**	**Тўйиниш адсорбция ҳажми, $V_s•10^3$, $м^3$/кг**
Триметиламмонийли навбахор бентонити	295,15	0,47	138	1,111	97,7

1-Жадвалдан кўриш мумкинки, адсорбентнинг моноқават сиғими a_m = 0,47 моль/кг ни ташкил этди. Адсорбентнинг солиштирма юзаси БЭТ тенгла-маси ёрдамида ҳисобланганда $138·10^{-3}$ $м^2$/ тенг эканлиги топилди. Дубинин-Радишкович тенгламаси билан аниқланган микроғоваклик ҳажми W_0 = $74,5•10^{-3}$ $м^3$/кг ни, мезоғоваклар W_{me}=23,2 $м^3$/кг ни, юқори адсорбция ҳажми эса V_S = 97,7 $•10^{-3}$ $м^3$/кг ни ташкил қилди. Микроғоваклар адсорбентдаги умумий ғовакликнинг 76,2% га тенг, демак, модификациялаш натижасида адсорбентдаги қаватлараро масофаларнинг очилиши ҳисобига микроғоваклар ҳосил бўлганлиги билан боғлиқдир.

Бензол буғларининг адсорбцияси миқдорларига мос ҳолда адсорбент-нинг адсорбция потенциалини (ε) ўзгариши тадқиқ қилинди. Адсорбентнинг адсорбцияланиш потенциалининг ўзгариши эгриси қуйидаги тенглама ёрдамида аниқланди [11] (2-Расм):

$$\varepsilon = dG = \int_{p}^{p_S} V \cdot dp = \int_{p}^{p_S} \frac{RT}{p} dp = RT \int_{p}^{p_S} \frac{dp}{p} = RT \ln \frac{p_S}{p};$$



2-Расм. Триметиламмонийли навбахор адсорбентига бензол буғи адсорбция ҳажмига кўра адсорбцион потенциалнинг ўзгариши

Таркибида Триметиламмоний сақловчи Навбахор адсорбентига бензол буғининг адсорбцияси миқдорларига адсорбцион потенциални боғлиқлигини ε = f(Vадс) функциясида адсорбциянинг бошланғич қисмида Vадс= 0,0078 см3/г да адсорбция потенциали ε = 7856,8 Ж/мольга тенг бўлиб, адсорбент юзаси тўйиниб бориши билан Vадс= 0,0298 см3/г да адсорбция потенциали ε = 865,9 Ж/моль гача кескин пасайиб бориши кузатилди. Шундан сўнг адсорбентнинг тўйиниш даражаларида ε = f(Vадс) функция бўйича олинган чизиғида адсорбция потенциали ноль қийматга яқинлашиб бориши аниқланди.

Триметиламмонийли Навбаҳор адсорбентига сорбцияланган бензол буғини десорбцияланиш изотермаси натижаларидан фойдаланилган ҳолда адсор-бент ғовакликлигини дифференциал тақсимланиш графиги чизилди ва унга мувофиқ монтмориллонитнинг кичик (минимал) ғоваклик радиуси 0,78 нм га, катта (максмиал) ғовакликлар радиуси 9,56 нм га тенг эканлиги топилди (3-расм).

Ғовакликлар радиуси бўйича адсорбентнинг асосий ғоваклиги 1,7 нм га ёки ғовакликлар кенглиги бўйича 4,4 нм тенг бўлган тирқишсимон ғоваклар-дан ташкил топганлиги юқоридаги ΔV/Δr, = f ($r_{нм}$) [11] функциясида яққол ифодаланган.

ХУЛОСА. Демак олинган натижалар асосида шуни хулоса қилиб айтиш мумкинки, адсорбция гистерезис ҳалқалари таснифига кўра адсорбциянинг ўрта тўйиниш даражаларидан бошлаб тирқишсимон ғовакларда капилляр конденсатланиш орқали адсорбцияланиш жараёни содир бўлади. Адсорбент ғовакларининг асосий максимал даражадаги радиуси 9,56 нм га тенг эканлиги билан характерланди. Дубининнинг (ИЮПАК) ғовакликлар ўлчами бўйича берган таснифига кўра монтмориллонит микроғовакли адсорбентдир, чунки триметиламмоний таркибли Навбаҳор адсорбентида микроғоваклар адсор-бентдаги ғовакликнинг 76,2 % га тенг.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. К.В. Меркушина, А.И Родионов. Применение модифицированной бентонитовой глины для удаление нефтепродуктов из сточной воды // Успехи химия и химический технологии. Том. 23. 2009. №10. С. 88-91.
2. Е.Е.Ергожин, А.М.Акимбоева, А.Д.Товосоров. оргономинераль-ный катионит на основе природного бентонита // Современные наукоемкие технологии.//№10.2005 год.С.81-82
3. М.Л.Кулешова, Н.Н.Данченко Исследование вляния состава бентонитов на их способность удерживать цезий и стронций // Между-народный научно исследовательский журнал// Екатеринбург), № 8(50), с. 45-48
4. Yun –Hvvei Shen. Removal of fhenol from water by adsorption flocculation using organobentonite.// Water Pesearch// ст -1109-1114.
5. В.Виктория, Н.Курупская. Применение глин и глиныстих матери-алов для обеспечения безопастности пунктов захаронений радиоактивних отходов.
6. Бахов Ф.Н. Получение оргономодифицированного монтморилло-нита с повышенной термической стабильностью.// Интернет журнал ,,Науковедение “ №3 2013.Ст 1-8.
7. Д.К.Хандамова, Ш.П.Нуруллаев, Л.Б. Абдуллаев, Д.А.Хандамов. Триметил- ва триэтиламмонийли адсорбентларни дериватограммаси тахлили /Международная научно-техническая конференция **“**Актуальные проблемы инновационных технологий химической, нефте-газовой и пищевой промышленности”, Ташкент-2021. С.183-184.
8. D.K.Xandamova, Sh.P.Nurullaev A.Jo’raev. Navbahor (PBG) bentonitidan trimetilammoniyli-, va trietilammoniyli adsorbentlarolishning sxemasi va ular tuzilishining IK-spektroskopik taxlili / Ёш олимлар, магистратура ва бакалавриат талабаларининг анъанавий XXX «Умидли кимёгарлар-2021»илмий-техникавий анжумани Тошкент-2021. 51-52 б.
9. Волков А. И., Жарский И. М. Большой химический справочник. — М: Советская школа, 2005. — 608 с.
10. Теоретические основы адсорбции: учебное пособие / Н.А. Макаревич, Н.И. Богданович; Сев. (Арктич.) федер. ун-т им. М.В. Ломоносова. - Архангельск: САФУ, 2015. - 362 с .
11. Анализ пористой структуры на основе адсорбционных данных: учеб. пособие/Н. Н. Гаврилова, В. В. Назаров. – М.: РХТУ им. Д.И. Менделеева, 2015. – 132 с.

KIMYO FANIGA OID AYRIM YANGI ATAMALAR

НЕКОТОРЫЕ НОВЫЕ ТЕРМИНЫ В ХИМИИ

SOME NEW TERMS IN CHEMISTRY

A.I. Sanoyev-O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti
M.O. Fozilova , N.A.Mirzayeva, N.V.Valiyev- Qo‘qon Davlat pedagogika instituti

,

Annotatsiya. Maqolada kimyo fani bo‘yicha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning ayrim jihatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy tarjima, stilistika, kimyo, flyuid gaz, suyuqlik, erituvchi, hamroh erituvchi, kritik sharoit.

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые аспекты перевода текстов на узбекский язык по химии.

Ключевые слова: научный перевод, стилистика, химия, флюидный газ, жидкость, растворитель, соизвлекатель, критические условия.

Abstract. This article discusses some aspects of translation texts on chemistry, into uzbek.

Key words: Scientific translation, stylistics, chemistry, fluid gas, liquid, solvent, accompanying, critical conditions.

Ilmiy tarjima sohasi ilm-fan va tadqiqotlar taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib boradi. Tarjima asosan badiiy va ilmiy turlarga ajratiladi. Ularning har biri o’z navbatida, original matnni boshqa tilda ifodalash tarziga ko’ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko’rinishlarga ega bo’ladi [1]. Ilmiy tarjima tarjimondan matnda so’z yuritilayotgan kimyoviy jarayonning mohiyatini tushunishni talab etadi. Kimyo fanidan muvaffaqiyatli tarjima matniga ega bo’lish uchun tarjimondan til bilishdan tashqari kimyoviy jarayonlar va umuman fan sohasi bo’yicha chuqur bilim, tarjima malakasi hamda ko’nikma talab etiladi. Bunga erishish uchun ham rus tilida ham o’zbek tilida kimyo faniga oid ko’plab adabiyotlarni o’rganib chiqish lozim bo’ladi.

Ilmiy tarjimalarda, odatda ilmiy terminlar matnning 15-25% qismini tashkil etadi [2]. Ilmiy-texnik hujjatlar ham o’z navbatida bir necha turlarga bo’linadi: dissertatsiya avtoreferati, darslik, o’quv-uslubiy qo’llanma, uslubiy ishlanma, ilmiy maqola, ixtiro patenti, sanoat reglamenti, texnologik yo’riqnoma va h.k. Sanab o’tilgan hujjatlarning har biri o’z yozilish uslubiga ega. Ularni tarjima qilishda ham original uslub saqlanishi lozim.

Tarjimonlik va tarjimashunoslikning o’ziga xos va eng qiyin jihati shundaki, tarjimonning ijod mahsulini baholashning standartlangan uskunaviy tizimi mavjud emas. Tarjima matnini baholashda asosan yuqori malakali mutaxassislar, badiiy kengash, adabiy tanqid, kitobxon fikri va boshqalar mezon bo’lib xizmat qiladi. Hatto tilshunoslikning barcha yutuqlaridan foydalangan holda, mantiq, sun’iy ong va algoritmlarga asoslanib yaratilgan elektron tarjima dasturlari yordamida olingan tarjima matni ham inson tomonidan tahrir qilinishi talab etiladi. Ayniqsa, boshqa-boshqa oilalarga mansub bo’lgan tillar o’rtasidagi tarjima matnlarida mazmun-mohiyatning o’zgarishi juda kuchli bo’ladi [3].

Ilmiy tadqiqotlar sohasida kashfiyot va ixtirolarning sodir etilishi tilda ham yangiliklar kiritilishiga turtki beradi, tilni boyitishga xizmat qiladi. Biroq, ilmiy tarjimada terminlarni tarjima qilishga me’yoridan ortiq urg‘u berib, ko’p urinish yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Ilmiy matnlarni tarjima qilishda ba’zi ilmiy terminlarni tarjima qilishga urinmasdan, ularni shundayligicha qabul qilish maqsadga muvofiq keladi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonga kimyo faniga oid, aniqrog‘i, kimyo-farmatsevtika sohasi uchun yangi ilmiy uskunalar kirib kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasida dorivor o’simlik xomashyosi tarkibidan biologik faol moddalarni flyuid gazlar yordamida ajratib olishga mo’ljallangan qurilma ishga tushirilib va shu sohada tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda [4]. Flyuid gazlar yordamida xomashyoni qayta ishlash sohasi o’ziga xos qator terminlar va jumlalarga ega. Bu sohada avval O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar o’tkazilmagan bo’lib, uning ishlash jarayoni, unda olingan natijalar va umuman bunday qurilmaning faoliyati bilan bog‘liq terminlar o’zbek tilida avval qo’llanilmagan. Qurilma ishga tushirilib, ilmiy natijalar olina boshlangach, uning faoliyati bilan bog‘liq ilmiy hisobotlarni o’zbek tilida ifodalash uchun ilmiy tarjimaga murojaat qilishga to’g‘ri keladi. Qurilmaning rus tilidagi nomi “Установка по выделению биологически активных веществ из растительного сырья сжиженными газами и сверхкритическими флюидами”, jarayonning umumiy nomi esa “флюидная экстракция” deb ataladi [5, 6].

Tarjima qilish jarayonnida, undagi terminlarning o’zbek tilidagi muqobili topilmagani bois, uni “flyuid ekstraksiyalash jarayoni” jumlasi qoldirildi. Kritik sharoitlar ham o’z holicha qoldirildi. “Критический” so’zining o’zbek tilidagi eng yaqin muqobili – “qaltis” so’zi mavjud. Biroq, “qaltis” so’zini “критические условия протекания процесса”ga nisbatan qo’llash maqbul emas. Shuning uchun “докритическая” – “kritik sharoitga qadar”, “критическая” – “kritik”, “сверхкритическая” – “yuqori kritik” deb tarjima qilish to’g‘ri bo’ladi.

O‘simlik xomayosi tarkibidagi biologik faol kimyoviy moddalarni siqilgan yoki suyultirilgan gazlar yordamida kritik sharoitlarda ekstraksiya qilishda ba’zi bir holatlarda siqilgan yoki suyultirilgan gazning o’zi yetarlicha bo’lmaydi. Bunday sharoitda

erish jarayonini yaxshilash uchun tizimga “соизвлекатель” kiritiladi. Bu so’zni shundayligicha, tarjima qilmasdan qoldirish mumkin emas, uning o’rniga “hamroh erituvchi” tushunchasini kiritish to’g‘ri bo’ladi. Chunki tizimga kiritilgan “соизвлекатель”ning asosiy vazifasi xomashyo tarkibidagi biologik faol kimyoviy moddani eritishda flyuid gazga hamrohlik qilishdir. Bunda “соизвлекатель”ning tarjimasi to’g‘ridan-to’g‘ri “извлекать” fe’lidan kelib chiqib emas, balki uning bajaradigan vazifasidan kelib chiqqan holda tavsiya etildi. Qattiq moddani gaz-suyuqlik tizimida eritishda gaz asosiy erituvchi vosita bo’lsa, suyuqlik esa yordamchi vosita sanaladi. Biroq jarayonga “hamroh erituvchi”, ya’ni suyuqlik kiritilmasa, erish jarayoni juda sust kechadi yoki umuman sodir bo’lmaydi. Qattiq moddani suyuqlik-suyuqlik tizimida eritishda ikkita suyuqlikdan biri uchun, yoki bir necha suyuqliklardan biri uchun “hamroh erituvchi” jumlasi qo’llanilmaydi. Chunki, suyuqlik-suyuqlik tizimlari uchun fanda “система растворителей”, ya’ni “erituvchilar sistemasi” jumlasi qabul qilingan. Bundan tashqari, suyuqlik-suyuqlik tizimlarida “соизвлекатель” qo’llanilmaydi. Gaz-suyuqlik tizimi uchun ham “erituvchilar sistemasi” jumlasini qo’llash mumkin, lekin unda ishtirok etayotgan erituvchilarning (gaz ham erituvchi) agregat holatlari turlicha bo’lganligi uchun hamda bunday jarayonda gaz asosiy erituvchi bo’lganligi sababli, bu jarayonda qo’llaniluvchi suyuqlikni hamroh erituvchi deb atash o’rinli bo’ladi. Jarayonga oid atamalar bo’yicha yana ko’plab misollar keltirish mumkin.

Xulosa. Kimyo faniga oid ilmiy matnlarni va yangi kiritilayotgan atamalarni o’zbek tiliga tarjima qilishda jarayonning asl mazmun-mohiyatiga zarar keltirmagan holda, imkon qadar o’zbekcha muqobilini qo’llash, uning to’g‘ridan-to’g‘ri tarjimasi topilmagan taqdirda, ilmiy atamani kimyoviy jarayondagi vazifasidan kelib chiqqan holda tarjima qilish, shuningdek muqobili topilmagan yoki jarayon mazmunini aslidan o’zgartirib yuborishi mumkin bo’lgan terminlarni tarjima qilmasdan qabul qilish tavsiya etiladi.

Boshqa tillardan tarjima qilingan yangi atamalarni o’zbek tilidagi muqobilini oliy ta’limda o’quv jarayoniga kiritish bo’lajak kimyogar mutaxassislarning ilmiy dunyoqarashini boyitib, ularning kasbiy kompetensiyasini ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедиясининг “Таржима” мақоласидан.
2. Котюрова М.П. Стилистика научной речи. –М.:Академ., 2010. –240 с.
3. Николаев И.С., Митренина О.В., Ландо Т.М. Прикладная и компьютерная лингвистика. –М.: Издательская группа URSS, 2017.
4. Саноев А.И. Glycyrrhiza glabra, Amaranthus hypochondriacus ва Vitis vinifera ўсимликларини қайта ишлашнинг иккиламчи маҳсулотларидан биологик фаол моддаларни флюид экстракция қилиш технологиялари // Техника фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021 йил, 40 б.
5. Зилфикаров И.Н., Челомбитько В.А., Алиев А.М. Обработка лекарственного растительного сырья сжиженными газами и сверхкритическими флюидами. – Пятигорск, 2017. – 244 с. 7
6. Валиев Н.В. Табиий-илмий фанларга оид матнларни ўзбек тилига таржима қилишнинг айрим масалалари (кимё фанлари мисолида) // “Замонавий офицерларни тайёрлашда хорижий тилларни ўргатишнинг аҳамияти” мавзусидаги халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари тўплами, Тошкент, 2021 й, 29 апрел, 72-76 б.

KO‘CHMA QUM DISPERSLARINI MUSTAHKAMLASHDA YANGI POLIMERLAR–STRUKTURANTLAR SINTEZI VA ULARNING KOLLOID-KIMYOVIY XOSSALARI

СИНТЕЗ НОВЫХ ПОЛИМЕР-СТРУКТУР И ИХ КОЛЛОИДНО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ПРИ УКРЕПЛЕНИИ ПОДВИЖНЫХ ПЕСОЧНЫХ ДИСПЕРСОВ

SYNTHESIS OF NEW POLYMER-STRUCTURE AND THEIR COLLOID-CHEMICAL PROPERTIES IN STRENGTHENING MOBILE SAND DISPERS

O‘zFA Umumiy va noorganik kimyo instituti,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
Sh.A. Kuldasheva, I.L. Axmadjonov,
D.X. Abdurahimov, A.B. Abdikamalova,
I.D.Ehsmetov

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘chma qumlarda struktura hosil qiluvchi, suvda eruvchan polimerlarni sintez qilingan va ularning kolloid-kimyoviy xususiyatlari o‘rganilgan. Bunda OPAN va MKAA gidrolizlanish jarayoniga turli omillarning ta’sirida, yuqori struktura hosil qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan biriktiruvchi qo‘shimchalarni olish uchun maqbul sharoitlari: gidroliz tizimining pH darajasi 12-13,5; birinchi bosqich (1 soat) harorati 65-70 ^{o}C, so‘nggi bosqichda (1-1,5 soat) 90-95 ^{o}C aniqlangan, shuningdek, qumlarga NaSi-MKAA (KSi-), Ca-MKAA, NaSi-OPAN, Ca-OPAN namunalarini singdirish mustahkamlikni oshishi isbotlangan.

Аннотация. В данном статье приводятся результаты исследования синтеза и изучения свойств полиэлектролитов, полученных гидролизом отхода ПАН и новых в отрасли закрепления подвижных грунтов сополимера акриламида и малеиновой кислоты. Установлена степень влияния различных факторов на степень гидролиза ОПАН и МКАА. Оптимальными условиями для получения закрепляющих добавок с высокими структурообразующими характеристиками считаются значения: pH системы гидролиза 12-13,5; температура 1-стадии (1 ч) 65-70^{o}C, второй стадии (1-1,5 ч) 90-95^{o}C;

Annotation. In this paper, structural, water-soluble polymers are synthesized in mobile sands and their colloidal chemical properties are studied. In this case, OPAN and MKAA under the influence of various factors in the hydrolysis process, the optimal conditions for obtaining binders with high structural properties: pH of the hydrolysis system 12-13.5; The temperature of the first stage (1 hour) was 65-70 ^{o}C, the last stage (1-1.5 hours) was 90-95 ^{o}C. absorption of samples has been proven to increase durability.

Kalit so‘zlar: Strukturant, akrilamid, malein kislota, adsorbsiya, qum-tuproq.

Ключивые слова: Структурант, акриламид, малеиновая кислота, адсорбция, почвогрунт.

Keywords: Structurant, acrylamide, maleic acid, adsorption, sand-Soil.

Butun dunyoda ko‘chma qumlarni shamol eroziyasidan mustahkamlash va struktura shakllanishi tufayli yetarlicha mustahkam sirt qobig‘ini yaratish orqali ularning atmosferaga ko‘tarilishini oldini olish muammosi dolzarb hisoblanadi. Bu sohadagi muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biri qo‘chma tuproq va qum disperslarida arzon, topilishi oson sanoat chiqindilari asosida olingan mustahkam struktura hosil qiluvchi yangi mustahkamlovchi qo‘shimchalar olish hisoblanadi. Ko‘chma qumlarda va tuproq disperslarida struktura hosil qilishda mustahkamlovchi polimer reagentlarni tanlash va ularning struktura hosil qilish jihatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, katta maydondagi ko‘chma qum disperslarini sanoat

chiqindilari asosida olingan biriktiruvchilar bilan mustahkamlash va mustahkam strukturaning fizik-mexanik va kimyoviy melioratsiya usullarini aniqlash muhim ahamiyatga ega [1].

Dunyoda suvda eruvchan polimerlar, polielektrolitlar yordamida ko‘chma qumlar va tuproqlarning strukturaviy shakllanishi kolloid kimyo sohasida Hashimoto H., Matsumoto Osamu, Surui Masai, D.Yercolani, F.Grinzi, K.I. Nagata, N. Yano, S. Nagamori, P.A. Ribinder, S.S. Morozov, B.N. Michurin, A. G. Levandyuk, M.A. Lykov, Sh.B. Batalyova, K.B. Musabekov va boshqalar ilmiy maktablarida faol izlanishlar olib borilgan.

O‘zbekistonda K.S. Axmedov rahbarligida maktab tashkil etilgan bo‘lib, uning vakillari: E.A. Aripov [2], F.L. Glekel, S.S. Xamrayev, S.N. Aminov, A.A. Agzamxodjayev, U.K. Axmedov, S.A. Abduraximov, S.Z. Muminov, G.U. Raxmatkariyev, B.N. Xamidov, G.R. Narmetova, V.P. Guro, I.K. Satayev., Sh.A.Kuldasheva [3], I.D. Eshmetov, O.K. Beisenbayev, B.N. Nuriyev va boshqalar uning rivojiga salmoqli hissa qo‘shdilar.

Ta’kidlash kerakki, sanoat chiqindilaridan polielektrolitlar asosida samarali mustahkamlovchilarning yangi turlarini ishlab chiqarish va qo‘llash texnologiyasini yaratish hali amalga oshirilmagan. Ularning ishlarida asosan, yuqori dispersli zarralar (loy, qum va boshqalar) uchun kimyoviy mustahkamlovchilarni (suvda eruvchan elektrolitlar, SFM, polimerlar) ishlab chiqish va kimyoviy mustahkamlash usullari taklif qilingan.

Tadqiqotning maqsadi ko‘chma qum va tuproqlarda struktura hosil qiluvchi, suvda eruvchan polimerlarni sintez qilish va ularning kolloid-kimyoviy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti. Ushbu mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish asosan ko‘chma qum va tuproqlarda mustahkam struktura hosil bo‘lishida mahalliy xom ashyo va sanoat chiqindilari jumladan, distiller suyuqligi (DS), poliakrilonitril tolasi (OPAN) va boshqalardan foydalanib yangi polimer-mustahkamlovchilarni sintez qilish imkoniyatini bergan. Shu bilan bir qatorda, ko‘chma qumlarni mustahkamlash uchun tanlangan kimyoviy reagentlar, PE va materiallarning xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan, shuningdek asosiy tadqiqot usullari bayon etilgan.

Ko‘chma qumlarni mustahkamlovchi qo‘shimchalarga birinchi tadqiqot obyekti sifatida distiller suyuqligi (DS) tanlangan. Shuningdek, ushbu bobda distiller suyuqligining GOST 23981.1 “Kimyoviy tahlil usullari” ga muvofiq o‘tkazilgan tahlil natijalari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Strukturaviy qobiq yaratish uchun ikkinchi tadqiqot obyekti sifatida PAN (OPAN) “Navoiy AJ” chiqindisi tanlangan. Bu chiqindi sarg‘ish-jigarrang ko‘pincha turli xil rangda bo‘lib, ip yoki tola ko‘rinishiga ega. Og‘irligi 30000-50000 dan yuqori bo‘lgan zichligi 1,14-1,15 g/sm3 (20°C), deyarli 220°C gacha yumshamaydigan chiziqli polimerdir. U quyidagi texnologik xususiyatlarga ega: uning mustahkamlik ko‘rsatkichlari kapron bilan taqqoslanadi; nisbiy cho‘zilish 10-15% PAN texnik xususiyatlaridan ko‘ra deyarli 2 baravar kam; namlikni assimilyatsiya qilishi 20°C da 0,9-1,0%. OPAN oddiy erituvchilar, yog‘lar ta’siriga kimyoviy jihatdan chidamli; atmosfera sharoitlari va quyosh nurlari ta’sirida o‘zgarmaydi; dimetilformamid, dimetilasetamid, etilen karbonatlarda, LiBr, NaCNS, $ZnCl_2$+$CaCl_2$ tuzlarining konsentrlangan suvli eritmalarida, konsentrlangan HNO_3, H_2SO_4 da eriydi.

Mo‘ynoq tumani qum va tuproqlarining o‘rganilgan namunalari asosan asosiy ionlarning tarkibi bilan farq qiladi, shu tufayli umumiy tuz miqdori har xil qiymatga ega. Shu bilan birga fizik gilning tarkibi (0,01 mm dan kichik zarralar) qumlar uchun 23,9 va tuproqlar uchun 8,6 ni tashkil etadi. Fizik gilning yuqori qiymatlari katta miqdordagi SiO_2 zarrachalarining mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda agregatlanish yo‘qligi tufayli ular orasida bog‘lanishlar hosil bo‘lmaganligi bilan bog‘liq [4].

Shu maqsadda, ko‘chma qumlarda struktura hosil bo‘lishida PAN chiqindilarini gidrolizlash orqali olingan polielektrolitlar xususiyatlarini sintez qilish va o‘rganish natijalari hamda akrilamid va malein kislotasi

sopolimerining ko‘chma qum va tuproqlarda aniqlangan natijalari keltirilgan.

Poliakrilonitril xom ashyosidan olingan (PAN) chiqindisini PANning ma’lum miqdori quyidagi eritmalar bilan aralashtiriladi a) NaON; b) Spectr Stroy Invest tomonidan ishlab chiqarilgan Na_2SiO_3 (pH = 13,3 bo‘lgan 43,3% eritmasi ishlatilgan); c) Na_2CO_3; d) NaOH+DS.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ushbu tadqiqot ishida dastlabki gidrolizlovchi eritmalarining pH qiymatlari 12-13,5 bo‘lishi kerak bo‘lgan jarayonning borishi uchun optimal sharoitlar yaratildi. Bunday pH qiymatlarga erishish uchun gidrolizlovchi moddalarning alohida eritmalariga hisoblangan miqdorda natriy yoki kaliy gidroksidi qo‘shildi. Taxminan jarayon 1 soat 65-70°C haroratda aralashtirish orqali amalga oshiriladi, so‘ngra reaksiya tugaguncha (1,5 soatdan ko‘p bo‘lmagan) aralashma 90-95°C haroratda, aralashmalar tarkibiy qismlari quyidagi nisbatda, og‘irlik bo‘yicha (%). (polimer:gidroliz agenti:suv) saqlanadi: a) 10:10:85; b) 10:48:47; c) 10:15:80; d) 10:20:70 + 5 g NaOH.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, gidroksil ionlarining konsentratsiyasi ko‘rsatkichi pH 12 dan past bo‘lsa, to‘liq gidrolizga erishish imkoni bo‘lmaydi, shu paytda pH qiymati 13,5 dan yuqori bo‘lsa, ishqor - NaOH ning ortiqcha sarf bo‘lishiga olib keladi.

Poliakrilonitril xom ashyosini gidrolizlash jarayonining mohiyati nitril guruhlari -CN, avval amid - $CONH_2$ ga, keyin esa - COONa ga aylanishidir. DS bilan G-usuli bo‘yicha gidrolizlanganda asosiy zanjirda kalsiy funksional guruhlari -COOCa-, shuningdek Ca-PAN, Ca-MKAA. hosil bo‘lishi kuzatiladi. Uzun akril polimer molekulasida qancha ko‘p –COO - guruhlari hosil bo‘lsa, -COO- zaryadlangan guruhlarning bir-biridan elektrostatik itarilishi tufayli u shunchalik ko‘p chiziqli ravishda ochiladi, reagent shunchalik faol bo‘ladi.

Shuningdek, ma’lumki, -COO- va $CONH_2$ guruhlarining chiziqli polimer molekulasidan ajralishiga termik barqarorligi -CN nitril guruhlariga qaraganda yuqori. Shuning uchun dastlab reaksiya harorati 1-1,5 soat ichida 80°C dan past haroratda saqlanishi kerak, shunda -CN guruhlarining ko‘proq miqdori oraliq gruhlar bo‘lgan, katta termik barqarorlikka ega –$CONH_2$ gruhiga va katta ehtimollikda reaksion gruhga aylanuvchi - COO-guruhlarga aylanib ulguradi. Yuqorida qayd etilgan guruhlarning mazmunini aniqlash uchun IQ-spektral analizlar va analitik kimyo analizlari o‘tkazildi.

Gidroliz jarayonida nitril guruhlari miqdori eksponent ravishda kamayadi va G usuli bo‘yicha gidroliz paytida eng past qiymatga 27% ga yetadi va boshqa usullar uchun: a); b) va v) mos ravishda, 37; 33 va 40% ni tashkil etadi. Shunday qilib, gidroliz agentlarining samaradorligi quyidagi tartibda kamayadi: NaOH + DS > Na_2SiO_3 > NaOH > Na_2CO_3. Gidrolizlangan MKAA polimerida karboksil guruhlari tarkibining ko‘payishi ushbu qatorga mos keladi.

Gidrolizlangan OPAN tarkibidagi karboksil guruhlari gidroliz jarayonining davomiyligi oshishi bilan ortadi. 80°C dan yuqori haroratda 1 soatlik gidrolizdan so‘ng, karboksil guruhining tarkibi umumiy funksional guruhlarga nisbatan 33-35% ga yetadi. Gidrolizning ikkinchi bosqichida haroratning 95°C gacha ko‘tarilishi karboksil guruhining 37-40% miqdoriga erishishga olib keladi. Ma’lum bo‘lishicha, ≈70°C dan past haroratlarda jarayonning birinchi bosqichi nitril guruhining amid guruhiga aylanishi tufayli karboksil guruhlari tarkibining ko‘payishiga yordam beradi. OPAN suyuq shisha bilan gidroliz jarayonida va xar bir bosqichning davomiyligi 1,5 soat bo‘lganda nitril guruhi uchun xos yutilish chiziqlari umuman ko‘rimaydi.

Dastlabki OPAN suvda erimaydi. Jarayonning davomiyligiga qarab gidrolizlangan shakllar suvda sezilarli darajada eriydi, bu ham ular eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlarini o‘zgarishiga olib keladi. Dastlabki MKAA suvda oson eriydi. Suyultirilgan eritmalarda sopolimer butunlay ionlanadi, chunki ushbu sopolimerdagi karboksil guruhlari soni nisbatan ko‘proq (malein kislotasi va akrilamid nisbati 1:8). Shunday qilib, aralashma tarkibida MKAA ko‘payishi

eritmaning pH qiymatini pasayishiga olib keladi.

Solishtirma qovushqoqlikning gidrolizlangan polimerlar eritmasi konsentratsiyasiga bog‘liqligining o‘zgarishini namoyon bo‘lishi ham xuddi shunday tavsifga ega. Shuningdek, yuqori konsentratsiyali sohada Ca-OPAN eritmasida sezilarli strukturaning shakllanishi molekulyar og‘irlikning turli qiymatlari, ya’ni, karboksil guruhiga bog‘langan Ca^{2+} ionlarining tuzilish xossalari bilan bog‘liq. Eritmalarning solishtirma qovushqoqligi va pH ning PE konsentratsiyasiga bog‘liqligi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval.

Eritmalar xarakteristikasining konsetratsiyaga bog‘liqligi

Namuna	Konsetratsiya							
	0,01		0,05		0,1		0,5	
	$\eta_{уд}$	pH	$\eta_{уд}$	pH	$\eta_{уд}$	pH	$\eta_{уд}$	pH
Na-ОПАН	0,29	9,7	0,77	10,3	0,98	10,7	3,32	11,4
NaSi-ОПАН	0,16	7,6	0,71	8,8	0,87	9,02	3,03	10,01
NaC-ОПАН	0,12	9,4	0,61	10,2	0,83	10,6	2,92	11,07
Ca-ОПАН	0,20	7,8	0,73	8,9	0,90	9,3	3,14	10,09
Na-МКАА	1,14	11,03	1,77	11,45	2,81	11,75	7,97	12,09
NaSi-МКАА	0,94	6,97	1,29	7,4	1,85	7,5	4,26	7,90
NaC- МКАА	0,81	6,8	1,13	7,12	1,81	7,23	4,05	7,79
Ca-МКАА	1,06	9,93	1,43	10,18	2,52	10,67	6,59	11,08

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, konsentratsiyaning oshishi barcha o‘rganilgan namunalar uchun qovushqoqlik qiymatlarining bir soniyada o‘sishiga olib keladi, bu ayniqsa NaOH va Na_2SiO_3 gidrolizi natijasida olingan namunalarning suvli eritmalarida seziladi. Ca-OPAN uchun qovushqoqlik anomaliyasi mavjudligi kamroq aniqlanadi, ammo Ca-MKAA namunasida bu anomaliya pastroq konsentratsiyalarga to‘g‘ri keladi, bu yuqori molekulyar og‘irlik va ko‘p miqdordagi karboksil guruhlari bilan bog‘liq.

Haroratning gidrolizlangan OPAN va MKAA eritmalarining qovushqoqligiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, haroratning 40-45°C gacha ko‘tarilishi, dastlabki polimerning tabiatidan qatiy nazar, Ca- va NaSi- asosidagi eritmalarning qovushqoqligining biroz oshishiga olib keladi. Haroratning yanada oshishi qovushqoqlik xususiyatlari qiymatining keskin pasayishiga olib keladi.



A B

1-rasm. Eritmalarning solishtirma qovushqoqligi bo‘yicha: 1) Na-ОПАН; 2) NaSi-ОПАН; 3) NaC-ОПАН; 4) Ca-ОПАН. a) pH, b) haroratning o‘zgarishi

Boshqa o‘rganilayotgan obyektlar uchun shunga o‘xshash bog‘liqlik kuzatilmaydi, faqat haroratning oshishi eritmalarning qovushqoqligi qiymatini pasaytiradi. Eritmalarning qovushqoqligi bo‘yicha harorat va pH ning o‘zgarishini o‘rganish natijalari 1-rasmda ko‘rsatilgan.

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, ma’lumki, muhitning turli pH qiymatlarida suvda eriydigan polimerlarning makromolekulalari turli xil tuzilishga ega. Taqdim etilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, polimer preparatlari eritmalari muhitning turli pH qiymatlarida qovushqoqligi ma’lum polimerlarning (gipan) qovushqoqligi bilan bir xil o‘zgaradi. Shunday qilib, pH>8 da, karboksil guruhlari mavjudligi va tuz guruhlarining dissotsiatsiyasi tufayli makromolekulaning tekislanishi sodir bo‘ladi, buning natijasida qovushqoqlik keskin oshadi. Rasmdagi egri chiziqlar va ularning tabiatidan ko‘rinib turibdiki, yuqori ishqoriy muhitda bu PE larning qovushqoqlik ko‘rsatkichlari bir-biridan farq qilmaydi. Kuchli kislotali sharoitda bu PElar bir-biridan biroz farq qiladi.

Haroratning 30°C gacha ko‘tarilishi bilan muhit yopishqoqligining oshishi kuzatiladi va haroratning yanada oshishi barcha polielektrolitlarning pasayishiga yordam beradi. Binobarin, barcha PE eritmalar qovushqoqligining o‘zgarishi umumiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Shunday qilib, ushbu polimerlarning makromolekulalari 3-4,5 pH qiymatlarida bir shakldan ikkinchisiga o‘tadi. Alohida polimerlar uchun maksimal strukturaning shakllanishi 6,5-9 oralig‘ida bo‘ladi



2-rasm. Tuproqda hosil bo‘lgan SChA miqdorining gidrolizlangan PE konsentratsiyasiga bog‘liqligi

Olingan gidrolizlangan PE namunalarining struktura hosil qiluvchi ta’sirini aniqlash uchun dastlabki tajribalar o‘tkazildi. Tuproqda hosil bo‘lgan SCHA miqdorining gidrolizlangan PE konsentratsiyasiga bog‘liqligi (suvga chidamli agregatlar miqdori) 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Suvga chidamli agregatlar soni (50 g tuproq uchun 6 ml) gidrolizlangan polimerlar eritmalari konsentratsiyasining ortishi bilan ortadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, polimerlarning NaSi- va Sa-shakllari qo‘shilgan tuproqlarda suvga chidamli agregatlar miqdori Na-shakllarga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Ushbu tavsifning eng past qiymatlari, dastlabki polimer materialining tabiatidan qat’i nazar, NaC-formasi bilan ishlov berilgan tuproq namunalarida ko‘rsatilgan.

Na-OPAN va Na-MKAA eritmalarining konsentratsiyasi 1,5% dan ko‘tarilganda boshqacha holat kuzatiladi, chunki konsentratsiyaning oshishi SCHA miqdorining ko‘payishiga emas, balki pasayishiga yordam beradi. Ehtimol, bu holda adsorbsiyalangan polimer zarralari ta’sirida zarrachalar yuzasi polimer tomonidan to‘liq ekranlanadi va uning suvli muhit bilan o‘zaro ta’siri termodinamik jihatdan foydali bo‘ladi, buning natijasida hosil bo‘lgan agregatlarning peptizatsiyasi sodir bo‘ladi. Biroq, SCHA miqdorining pasayishi K-OPAN va K-MKAA ta’sirida kamroq seziladi. Barcha o‘zgarishlarga qaramay, MKAA asosidagi polimerlar OPAN asosidagi mos keladigan namunalarning

nisbatan yuqori strukturaviy xususiyatlarini ko‘rsatadi, bu birinchi navbatda funksional guruhlarning katta nisbati va ularning molekulyar og‘irligining yuqori qiymatlari bilan bog‘liq.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishidan quyidagilarga erishildi, PAN chiqindisini gidrolizlash jarayonlarini tahlil qilish ularning maqbul sharoitlarini: gidroliz tizimining pH darajasi 12-13,5; birinchi bosqich (1 soat) harorati 65-70^{o}C, so‘nggi bosqichda (1-1,5 soat) 90-95 ^{o}C ekanligi aniqlandi, gidroliz jarayonida nitril guruhining tuzilishi eksponensial ravishda kamayadi va DS+NaOH aralashmasi bilan gidrolizlanganda maksimal past qiymat 27% tushadi va gidrolizlovchi moddalarning samaradorligi quyidagi tartibda kamayadi: NaOH+DS> Na_2SiO_3>NaOH>Na_2CO_3, shuningdek, Na-OPAN; NaSi-OPAN; NaC-OPAN va Ca-OPAN reagentlari bilan ishlov berishda qum tizimidagi suvga chidamli agregatlar soni, mos ravishda, 9 dan 38 52; 23 va 54% gacha oshganligi aniqlandi. Shunday qilib, sintez qilingan moddallar qum dispersiga nisbatan yuqori barqarorlashtiruvchi xususiyatlar bilan ajralib turadi, bu ularning qum va tuproqlarda yuqori mustahkamlash xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.I. Sharipova., I.L. Akhmadjonov., A.B. Abdikamalova., Kh.I. Akbarov., Sh.A. Kuldasheva Synthesis of New Fixings of Mobile Sands (2021). Alinteri Journal of Agriculture Sciences 36(1): 356-361

2. Арипов Э.А., Нуриев Б.Н. Классификация химических мелиорантов, применяемых для закрепления подвижных песков // Проблемы освоения пустынь. – 1982. - № 6. – 65-66 с.

3. Кулдашева Ш.А., Эшметов И.Д., Салиханова Д.С., Агзамходжаев А.А. Разработка многофункциональных структурантов на основе водорастворимых ПАВ для закрепления подвижных засоленных песков //Монография, -Ташкент, «ЎзР ФА Асосий кутубхонаси», 2018. – 210 с.

4.Ш.А.Кулдашева, И.Д.Эшметов, Н.З.Адизова И.Л.Аҳмаджонов Изучение влияния ветрового потока воздуха на эрозию закрепленных почвогрунтов и песков арала //Узбекский химический журнал. -2019, -№ 2. 29-35 с.

O‘ZBEKISTONDA ARXEOLOGIK YODGORLIKLARNI KONSERVATSIYA QILISH, TA’MIRLASH VA SAQLASH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ КОНСЕРВАЦИЯ, РЕСТАВРАЦИЯ И ХРАНЕНИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

PROBLEMS OF CONSERVATION, RESTORATION AND STORAGE OF ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS IN UZBEKISTAN

J.Z.Axmedov- tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotasiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish masalalari ilmiy asoslarda yoritilgan. Xususan, so‘nggi yillarda noyob yodgorliklarni o‘rganish, tasniflash, restavratsiya va konservatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birgalikda Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirishda mavjud turli yondoshuvlar va mezonlar, ya’ni, yodgorlikning tarixiy ahamiyati, saqlanish darajasi va badiiy qiymati kabilarga aloxida to‘xtalib o‘tilgan. Tadqiqotlar natijasida arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish, konservatsiya va restavratsiya qilish, saqlab qolish va hujjatlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlarga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Arxeologiya, muzeylashtirish, qoyatosh, restavratsiya, konservatsiya, majmua, meros, laboratoriya, tajriba, tadqiqot.

Аннотация: В данной статье освещена вопросы музеефикации археологических памятников в Узбекистане на научной основе. В частности, нашли

отражение исследования по изучению, классификации, реставрации и консервации уникальных памятников в последние годы. При этом отдельно обсуждаются различные подходы и критерии музеефикации археологических памятников, такие как историческое значение памятника, степень сохранности и художественная ценность. В результате исследования была отмечена проделанная работа по музеефикации, консервации и реставрации, сохранению и документированию археологических памятников

Ключевые слова: Археология, музеефикация, наскальные рисунки, реставрация, консервация, комплекс, наследие, лаборатория, эксперимент, исследование.

Annotation: This article highlights the issues of museumification of archaeological objects in Uzbekistan on a scientific basis. In particular, research on the study, classification, restoration and conservation of unique monuments in last years has been reflected. At the same time, various approaches and criteria for the museumification of archaeological monuments are discussed separately, such as the historical significance of the monument, the degree of preservation and artistic value. As a result of the study, the work done on museumification, conservation and restoration, preservation and documentation of archaeological objects was noted.

Key words: Archeology, museumification, cave drawings, restoration, conservation, complex, heritage, laboratory, experiment, research.

O‘zbekiston hududida har yili ko‘plab yodgorliklarda arxeologik qazishma ishlari olib boriladi. Asosiy tadqiqot ishlari Samarqand viloyatidagi Afrosiyob, Ko‘ktepa, Kofirqal’a, Dabussiya; Qashqadaryo viloyatidagi Sangirtepa; Buxoro viloyatidagi Poykend va Uchquloq; Namangan viloyatidagi Axsiket; Andijon viloyatidagi Mingtepa; Surxondaryo viloyatidagi Eski Termiz va Kampirtepa kabi ob’yektlarda olib borilmoqda.

Arxeologik qazilmalar jarayonida yaxlit majmualar, mudofaa inshootlari, hunarmandchilik ustaxonalari va yashash joylari ochib o‘rganiladi. Bino xonalari inter’yerini bezashda gil va ganch materiallari ko‘proq ishlatilgan. Arxeologik qazilmalardan so‘ng suvga chidamli bo‘lmagan va mo‘rt materiallardan qurilgan qadimiy binolarning qoldiqlari ochiq yerda ob-havo va iqlim omillari ta’siri sababli jadal buzila boshlaydi. Bundan tashqari, yuzaga yaqin joylashgan yer osti suvlari va ularda erigan mineral tuzlar havo ta’sirida xom g‘ishtning tuzilmasini o‘zgartiradi.

O‘zbekistonda arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish muammolari E.V.Rtveladze, A.A.Asqarov, A.A.Anorboyev, B.X.Matboboyev, R.V.Al’meyev, SH.R.Pidayev, D.T.Kuryazova, M.S.Muxamedova, J.Z.Axmedovlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish muammolari xorijiy tadqiqotlarda ham o‘rganilgan bo‘lib, izlanish jarayonida muammoni keng qamrovda tadqiq etish va qiyosiy tahlil etish maqsadida F.I.SHmidt, A.N.Medved’, M.E. Kaulen, I.M.Mineyevalarning tadqiqotlariga ham murojaat etildi.

Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish nafaqat ularni saqlab qolish muammolarini xal qiladi, shu bilan birga yodgorlikni turizm ob’yektiga aylantiradi hamda muzey tarmog‘iga kiritib keng ommaga milliy madaniy merosni havola qiladi[1]. Arxeologik ob’yektlarni muzeylashtirish, aniqlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ob’yektni tiklash, ekspozitsion namoyish etish tartibida amalga oshiriladi.

Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirishda turli yondoshuvlar mavjud bo‘lib, bunda asosan yodgorlikning tarixiy ahamiyati, saqlanish darajasi va badiiy qimmati kabi mezonlarga asoslanadi[2].

Muzeylashtirish – arxeologik ob’yektlarni yaxlit majmua sifatida ko‘rsatish, uning alohida belgilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni namoyish etish, shuningdek, arxeologik yodgorliklarni arxeologik park yoki muzeyga qaytadan o‘zgartirish orqali

saqlab qolishning ajoyib usulidir[3]. «Muzeylashtirish» tushunchasi ilk bor 1920 yillarda F.I.Shmit asarlarida paydo bo‘lgan[4].

O‘zbekistonda o‘tgan asrning 60 yillarida boshlangan arxeologik tadqiqotlar davrida qadimgi ko‘hna shaharlar Afrosiyob, Kofirqal’a, Yerqo‘rg‘on, Kanka, Shohruxiya, Tuproqqal’a, Eski Termizning antik budda madaniy majmualari va ko‘pgina boshqalarda qazish ishlari boshlangan vaqtda ochilgan eng noyob ob’yektlarni konservatsiya qilish masalasi tug‘ildi. O‘sha paytlarda xom g‘isht inshootlarni konservatsiya qilishning samarali metodlari mavjud bo‘lmagan va shu sababli ularning aksariyati tuproq bilan qayta ko‘mib qo‘yilgan edi. Masalan, Afrosiyobdagi podsho Varxumanning saroy majmuasi ana shunday yodgorliklardan biridir. Uning tantanalar zalida VII asrga oid noyob naqshlar topilgan. Qazib olingan va o‘rganilgan yodgorliklarni ko‘mib qo‘yish amaliyoti hozir ham ko‘p sonli yodgorliklarda qo‘llanilmoqda.

O‘tgan asrning 80-90 yillarida o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosiga qiziquvchi xorijiy sayyohlar oqimining ortishi natijasida arxeologik yodgorliklarni konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari yo‘lga qo‘yila boshladi. Arxeologiya instituti restavratorlari loy va xom g‘ishtdan qurilgan arxeologik ob’yektlarni konservatsiya qilish hamda kimyoviy metodlar ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishdi. Konservatsiya qilish metodikasi bronza davriga mansub Sopollitepa va Jarqo‘ton (Surxondaryo), antik va o‘rta asr (Samarqanddagi Afrosiyob, Toshkentdagi Kanka, Oqtepa va Shoshtepa) yodgorliklarida sinovdan o‘tkazildi va ijobiy natijalar olindi.

Afrosiyob ko‘hna shahrida miloddan avvalgi VI-V asr mudofaa devorida qisman restavratsiyasi va kimyoviy konservatsiya qilish ishlari bajarilgan edi. Ushbu uchastkaning bir necha yil davomida o‘tkazilgan monitoringi devorning qoniqarli holatini ko‘rsatdi. Yanada murakkab vaziyat bronza davriga mansub Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarining eksperimental uchastkalarida paydo bo‘ldi. Bu yerdagi ayrim xonalarda devorlarning alohida qismlarini qayta tiklash bo‘yicha restavratsiya ishlari bajarilgan edi. Ushbu yodgorliklar sun’iy sug‘oriladigan paxta maydonlari orasida joylashgan. Himoya hududi mavjud bo‘lmay, yodgorlik atrofidagi qishloq xo‘jalik maydonlarida olib borilgan irrigatsiya ishlari yer osti suvlarning sathi ko‘tarilishiga olib keldi. Bu joydagi tuproq sho‘rlangan bo‘lib, tuzlarning yodgorlik devorlari yuzasiga ta’sirini kuchayishiga olib keldi, buning natijasida ham eksperimental, ham ishlov berilmagan uchastkalar buzila boshladi.

Arxeologik yodgorliklarni kimyoviy konservatsiya qilish bo‘yicha to‘plangan tajriba shundan darak beradiki, xom g‘ishtdan qurilgan yodgorliklarni mustahkamlash bo‘yicha har qanday muvaffaqiyatli texnologiya ob’yektni to‘liq muzeylashtirishsiz omadsizlikka olib keladi. Tashrif buyuruvchilarning vandalizmidan, atmosfera yog‘inlaridan, harorat va namlikning keskin o‘zgarishlaridan himoya qilinmagan yodgorlik konstruksiyalari yemirilib boradi, bu esa doimiy ta’mirlash va restavratsiya qilish zaruriyatiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda Arxeologiya instituti restavratorlari tomonidan ochilgan arxeologik majmualarni kimyoviy konservatsiya qilish metodi bilan ularni muzeylashtirish metodini uyg‘unlashtirish amaliyotga tatbiq qilib kelinmoqda. Endilikda qazib olingan inshootlar ustidan yopilmalar qurilmoqda. Tashrif buyuruvchilar yaratilgan bunday qulayliklar tufayli yodgorlik bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo‘lmoqdalar. Masalan, shunday ishlar Mingo‘rik, Axsikent, Qoratepa, Uchtepabuloq, Shodmalik ota yodgorliklarida amalga oshirildi. Bunday loyihalar anchagina moliyaviy harajatlarni talab qiladi. Shu sababli bugun konservatsiya qilish uchun eng noyob yodgorliklar tanlanmoqda.

Qoratepada yodgorligining eng ahamiyatli inshootlardan biri bu shimoliy tepalik hududidagi yer usti ibodatxona majmuasida joylashgan katta stupa hisoblanadi. Qazilmalar va tarixiy tahlillar ko‘rsatganidek, bu Markaziy Osiyo hududida mavjud bo‘lgan eng katta budda

stupalaridan biridir.

2000 yilda stupa va u joylashgan hovlining bir qismi 5 metr balandlikdagi tepasi yopilgan va atmosfera yog‘ingarchiliklarini chiqarish muammolari hal etilgan edi. Har yili o‘tkaziladigan monitoring hozirgi paytgacha qadimgi konstruksiyalarning hech qanday buzilishini ko‘rsatmadi.

Konservatsiya qilish ishlari Eski Termiz ko‘hna shaharning o‘zida ham amalga oshirilmoqda, u yerda XII-asrga mansub pishgan g‘ishtdan qilingan mudofaa devorining janubiy-sharqiy uchastkasida restavratsiya ishlari olib borilmoqda. Devorni restavratsiya qilish uchun ko‘hna shahar yuzasida topilgan qadimgi g‘ishtlar ishlatilmoqda. Qurilish qorishmasi sifatida qum, ohak va qamish kulidan iborat “kirli” tarkib ishlatiladi. Bunday qorishmadan qadimgi Sharqda o‘rta asr quruvchilari foydalangan. Qorishma juda qattiq bo‘ladi. Muhimi, bunday qorishma zamonaviysidan arzonroq tushadi.

Akademik E.V. Rtveladze rahbarligida Kampirtepa yodgorligida konservatsiya va restavratsiya amalga oshirildi. Ayniqsa, ko‘hna shaharning mudofaa devorlari va minoralarida bajarilgan ishlar e’tiborga sazovor. Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa, Qoratepa, Fayoztepa, Kuyovqo‘rg‘on, Tavki va boshqa ko‘p sonli yodgorliklarda mahobatli rang tasvir, mineral bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan gil va ganch haykaltaroshlik, ganch va gil o‘ymakorligi kabi qadimiy va noyob san’at durdonalari uchraydi. Ular mo‘rt va ko‘p hollarda fragment holatida bo‘ladi. Kimyoviy konservatsiya qilishning maxsus metodlaridan foydalanmasdan ularni saqlab qolish mumkin emas.

Afrosiyob devoriy suratlarining noyob namunalarini o‘rganish va restavratsiya qilish bo‘yicha namunali ishlar amalga oshirildi. Ilmiy izlanishlarda aniqlanishicha, naqshlarning holati va ularni yasash texnikasini hisobga olgan holda, fragmentlarga ishlov berish uchun sun’iy suvoqlarning yangi tarkiblari, ikkilamchi bo‘yoq qatlamlarni ajratish metodlari ishlab chiqilgan. Shu bilan bir vaqtda qadimgi ustalar tomonidan ishlatilgan materiallar (suvoq va ganch qatlamlari)ning kimyoviy tarkibini o‘rganish ishlari olib borilgan. Fragmentlarni konservatsiya-restavratsiya qilishning eng maqbul usuli materiallarni to‘g‘ri tanlay olishdir. Bu yodgorlikni bizgacha yetib kelgan holatida saqlab qolish garovi hisoblanadi va unga yo’qolgan mustahkamlikni baxsh etish imkonini beradi[5].

Mustaqillik yillarida qoyatoshlarini saqlab qolish va hujjatlashtirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Sarmishsoyda buzilish holatidagi qoyatoshlarni aniqlash, ularni saqlash va monitoring qilish, shuningdek qoyaga o‘yilgan noyob rasmlarni saqlab qolishga qaratilgan ishlar buning yorqin misolidir. Hujjatlashtirish YUNESKO hamkorligida tashkil etilgan Tamgali (Qozog‘iston) qoyatosh rasmlar galereyasida 2003 yilda o‘tkazilgan Mintaqaviy o‘quv seminarda ishlab chiqilgan va qabul qilingan standartga muvofiq olib borildi. Olingan materiallar “Markaziy Osiyo petrogliflari” ma’lumotlar bazasini yaratish uchun tayyorlandi[6].

Qoyatosh suratlari bilan bog‘liq eng muhim masalalarga ularni ilmiy tadqiq etishdan tashqari suratlarni saqlash va kelgusi avlodga yetkazish vazifasi ham kiradi. Qoyatosh suratlariga zarar yetkazish omillari sifatida avvalo yer qimirlashi, suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlarni keltirish mumkin. Lekin, eng katta zarar yodgorlikka tashrif buyuruvchilar tomonidan bo‘lib, ular qoyatosh suratlar aks etgan toshlarga go‘yoki esdalik uchun o‘zlarining “ijod mahsuli”ni qoldiradi. Bu kabi nomaqbul ishlarni ular toshlarga loy chaplash, o‘tkir tig‘li asbob bilan o‘yish yoki turli rangdagi bo‘yoq ballonlari orqali amalga oshiradi. Natijada qoyatosh suratlariga turli darajada talofat yetkaziladi. Achinarlisi, o‘yish orqali qoldirilgan “esdaliklar” asl suratlarga tuzatib bo‘lmas darajada zarar yetkazadi. Tashrif buyuruvchilar qoldirgan turli yozuvlar yoki belgilarni o‘chirishda asosan atsetondan foydalaniladi. Lekin atseton, tosh yuzasidagi zamburug‘lardan qolgan ko‘k ranglarni o‘chirolmaydi. Tajribada, bunday ranglarni o‘chirishda issiq bug‘dan foydalanish yaxshi samara bergan. Bu borada xorijda toshlardagi bo‘yoqli graffitlarni tozalashda yuqori bosimli tozalash muqobil qurilmalari

(mas. Tornado ACS) qo‘llanilmoqda. Bu kabi muqobil yuqori bosimli tozalash vositalari suv yoki kimyoviy moddalarsiz ham tosh yuzalaridagi suvo‘tlar, moxlar, chiqindi gazlar, tuz qatlamlari, chang va graffitlarni yaxshi tozalaydi. Asosiysi, atrof-muhitni ifloslantirmaydi[7].

Restavratorlar qoyatosh suratlarni nafaqat tozalash, balki ularni umrini uzaytirish maqsadida konservatsiya ishlarini ham amalga oshiradi. Misol tariqasida Sarmishsoyda olimlar va restavratorlar tomonidan 2000 yilning o‘rtalarida olib borilgan kimyoviy tozalash, konservatsiya va muzeylashtirish ishlarini keltirish mumkin. Bu yerda ular tomonidan suratlar chizilgan qoyatoshlarning usti tosh soyabon bilan yopilgan. Natijada, bir necha yillardan so‘ng o‘tkazilgan monitoringga ko‘ra suratli toshlarning holati o‘zgarmagan, ya’ni, barqaror holatda saqlangan. Ularning yuzasida yangi yoriqlar paydo bo‘lmagan va eskilari kattalashmagan. Toshlardan qatlam ko‘chish, sinish va mikroyoriqlarning paydo bo‘lish holatlari kuzatilmagan[8].

Qoyatosh suratlarini konservatsiyasi amaliyotida yangi moddalar ham qo‘llanilmoqda. Masalan, yuqorida keltirilgan Sarmishsoydagi bitikli qoyatoshlarni ko‘chgan bo‘laklarini o‘z joyiga yelimlash va yoriqlarni to‘ldirishda Movilith DM 123 S markali sopolimer va MSN-7 eritmalari (Movilith DM 123 S – plastifikatsiyalanmagan suvli sopolimer dispersiya bo‘lib, asosi vinilatsetat va ko‘p qirrali kislotaning vinil efiri; MSN-7 (MSN-7-80) – polimetilsilazanning toluoldagi eritmasi.) ishlatilgan. Keyingi yillardagi kuzatuvlar bu moddalar ishlatilib, kimyoviy yo‘l bilan qotirilgan qoyatoshlar yaxshi saqlangan, ya’ni yopishtirilgan bo‘laklar ko‘chib tushmagan, yoriqlardagi to‘ldirma (mastika)lar o‘z joyida, qimirlash va yorilish holatlari kuzatilmagan[9].

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda konservatsiya va restavratsiya qilish sohasida e’tiborga sazovor bo‘lgan boy tajriba mavjud. Lekin konservatsiya qilish va kimyoviy-texnologik o‘rganishda ma’lum muammolar bor. Hozirgi vaqtda laboratoriyalarda badiiy madaniyat predmetlarini ilmiy restavratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ayrim tahlil turlarini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud emas. Ushbu muammolarni hal etishda xorijiy tashkilotlar va mutaxassislar yordam berib kelmoqda. O‘zbekiston arxeologlari tabiiy fanlar yutuqlarini arxeologiyada qo‘llashda har doim birinchilardan bo‘lgan. Masalan, Barselona Universitetining kimyoviy-texnologik laboratoriyasi bilan arxiometriya va geofizika dasturi bo‘yicha olib borilgan ishlarni aytish mumkin. Ayniqsa, eski Termizda amalga oshirilgan geofizikaviy tadqiqotlari qiziqarlidir. Mazkur yodgorlikdan arxeologik qazilmalarni bajarmasdan antik dunyo davriga mansub alohida qurilmalarning tuzilishi haqida qiziqarli ma’lumotlar olingan. Fikrimizcha, bunday texnologiyalarni rivojlantirish kelgusida ijobiy natijalarga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda yodgorliklarda aniq fanlar usullariga asoslangan zamonaviy uskunalar yordamida ajoyib kashfiyotlar qo‘lga kiritilmoqda. Bunga misol qilib, davrlashtirish, tarkiblarni aniqlash, tasvirlarni 3D formatida rasmga olish sohalaridagi usullarni keltirishimiz mumkin. Bu bilim va vositalar o‘tmishdagi mehnat qurollari yasash texnologiyalari va hunarmandchilik tarixini to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi.

Muxtasar qilib aytganda, tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirilgan, qisman muzeylashtirilgan va muzeylashtirish zarur bo‘lgan ob’yektlarga ajratish, arxeologik yodgorliklar tasniflash hamda muzeylashtirish uslublari ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Tarixiy madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish, saqlash va ta’mirlash usullari xilma-xildir. Yangi texnologiyalarning jadallik bilan har bir sohaga, shu jumladan madaniy meros ob’yektlarini saqlash va konservatsiya qilishda foydalanish ijobiy samara berishi tasdiqlanmoqda. Eng muhimi tarixiy ob’yektlarning asl holatini iloji boricha uzoq muddatga saqlash va namoyish etishdir. Bunday amaliyotlar madaniy merosini asrab-avaylashda juda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шмит Ф.И. Музейное дело: вопросы экспозиции. – Л.: Academia, 1929. С. 134.
2. Минеева И.М. Музеефикация археологического наследия на территории музея-заповедника «Ирендык» в Башкортостане: вопросы методологии// Наследие и современность. Информационный сборник. Вып.13. – М.: Институт Наследия, 2006. – С.132-146.
3. Минеева И.М. Музеефикация как фактор интеграции и социокультурной адаптации археологического наследия // Известия Алтайского Государственного Университета. №4-5. 2008.
4. Медведь А.Н. Музеефикация памятников археологии в России (прошлое и настоящее). – М.: Издательство ГНОМ и Д, 2004. С. 46.
5. Akhmedov J., Mirzanazarova E. The importance of wall pictures of Afrosiyab in studying the cultural heritage of Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. Philadelphia, 2020. №8. P. 54-57.
6. Пидаев Ш. Опыт консервации, реставрации археологических, памятников и предметов культурного наследия Узбекистана // Совещание Региональных специалистов Культурное наследие Центральной Азии и вклад Японии. Ташкент, 2010. С. 119-127.
7. https://www.sys-teco.com
8. Хужаназаров М., Реутова М., Болиев Б. Исследования и консервационные работы на памятнике Сармишсай // Археологические *исследования* в Узбекистане 2004-2005 годы. – 2006. – Вып. 5. – С. 232-244.
9. Ulmasov A. Foreign experience on Conservation of Museum objects // The Eights Regular Report. ACCU Nara, 2011. – P. 50-53.

1917-80 YILLARDA O‘ZBEKISTON MUZEYLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA FAOLIYATI
ИСТОРИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА В 1917-80 ГОДАХ
HISTORY AND ACTIVITY OF MUSEUMS OF UZBEKISTAN IN 1917-80

D.T.Kuryazova- t.f.n., dotsent,
Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada 1917-80 yillarda muzeylarning tiklanishi, ularning faoliyati, eksponat va ekspozitsiyalarning tasnifi o‘rganilgan, ijobiy va salbiy jihatlari ko‘rsatib berilgan.

SHuningdek, turli yo‘nalishlarda tashkil etilgan ekspozitsiya, ko‘rgazmalarning ahamiyati, sovet davrida muzey eksponatlari orqali sotsialistik g‘oyani namoyish etishga intilishlar, Turkkomstarisning tuzilishi va O‘zbekiston madaniy merosini saqlashda uning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Xukumatning O‘zbekiston madaniy merosini saqlashga nisbatan salbiy va ijobiy munosabati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: muzey, kolleksiya, kolleksioner, eksponat, ekspozitsiya, tadqiqot, faoliyat, yodgorlik, madaniy meros.

Аннотация:В данной статье изучен процесс становления музеев в Узбекистане 1917-80 годы, обзор экспонатов, экспозиций, их деятельность, а также показаны положительные и отрицательные стороны.

А также, рассматривается значение экспозиций, выставок, организованных в различных направлениях, стремление в советский период показывать социалистическую идею через музейных экспонатов. Создание Туркомстариса и его деятельность в сохранении культурного наследия Узбекистана. Раскрыты положительные и отрицательные отношения правительства к сохранению культурного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: музей, коллекция, коллекционер, экспонат, экспозиция, исследование, деятельность, памятник, культурное наследие, история.

Annotation: The formation of the museums in Uzbekistan 1917-80, the review of exhibits, expositions, their activity and also the positive and negative sides are studied in this article.

And also examines the importance of exhibitions organized in different directions, the desire in the Soviet period to show the socialist idea through the Museum exhibits. The creation of Turkomstaris and its activities in preserving the cultural heritage of Uzbekistan. It is studied the positive and negative attitude of the government to preserve the cultural heritage of Uzbekistan.

Keywords: museum, collection, collector, exhibit, exhibition, research, activity, monument, cultural heritage, history.

Muzeyshunoslik fani muammolarini chuqur anglash, bugungi kun muzeylariga baho borish ularning tarixi, faoliyati bilan yaqindan tanishishni taqozo etadi. Mazkur davrdagi muzey ishining tarixiga muqaddima esa, tanlangan mavzuning xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlarini yanada mukammal tushunish imkonini beradi. SHuning uchun O‘zbekiston muzeylarining tarixi va faoliyatini o‘rganish ustuvor va dolzarb masala deb topildi.

Tarixiy-qiyosiy hamda umumlashtirma tahlillar asosida xulosalar berish, xolislik, ilmiylik, tarixiy yondashuv, tizimlashtirish, sivilizatsion yondashuv tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mustaqillik g‘oyasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

XX asrning 20-yillarida muzeylar faoliyati haqidagi asar va tadqiqotlar son jihatidan ko‘p emas. Ular qatoriga 1926–1928 yillarda V.V.Bartold muharrirligida nashr etilgan «Izvestiya Sredneaziatskogo komiteta po delam muzeev i oxranы pamyatnikov starinы, iskusstva i prirodы» nomli majmuasini ko‘rsatish mumkin [1]. Undagi maqolalardan eng ahamiyatlisi A.M.Mironov qalamiga mansub bo‘lib, Sredazkomstarisning besh yillik tashkiliy, ilmiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan[2]. Sovetlar hukmronligi davridagi O‘zbekiston muzeylarining tashkil etilishi va faoliyati bo‘yicha mavjud adabiyotlar kommunistik mafkura asosida, aksariyat hollarda ma’lum yubiley sanalariga bag‘ishlab yozilgani ma’lum. Asarda muzeyshunoslikka oid masalalar: muzey tizimi, fondlari, ekspeditsiyalar, ilmiy tadqiqotlar juda qisqa bayon etilgan. Mualliflar guruhi: X.Sodiqov, YU.Glass, E.Soylar tayyorlagan yo‘l ko‘rsatkich ham o‘z hajmi va maqsadiga muvofiq muzeylarga kelayotganlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda O‘zbekiston muzeylari ekspozitsiyalari qisman tahlil etilgan [3]. Respublikadagi muzeylar va muzeyshunoslikka oid tadqiqotlar orasida N.Sodiqovaning asarlari alohida ajralib turadi[4]. Ulardagi davr talabiga ko‘ra kiritilgan mafkuraviy jihatlarni hisobga olmaganda, O‘zbekistonda muzey ishining deyarli bir asr davomidagi taraqqiyoti, yutuqlari va muammolari atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbekistonda 1917-80 yillar mobaynida madaniy meros yodgorliklari hamda muzeylarda saqlanayotgan san’at asarlari va qadimgi davrga oid osori-atiqalar xalqning qadriyatlari ekanligi, ularni asrash va muhofaza etish bilan hukumat darajasida shug‘ullanish lozimligi anglanadi. Lekin, yangi hokimiyat muzeylarni moliyaviy ta’minlash o‘rniga asosiy e’tiborni muzeyga kiruvchilarga hukmron kommunistik g‘oyani targ‘ib etishga yo‘naltirdi. 1917 yilgi davlat to‘ntarilishidan so‘ng xonlarning saroy kolleksiyasi va madaniy meros yodgorliklari, muzeylar milliylashtirildi hamda davlat mulki deb e’lon qilindi. Badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ashyo-buyumlarni aniqlash, ularni ro‘yxatga olish, muhofaza qilish uchun badiiy-tarixiy komissiyalar tuzilib, mutaxassislarning fikricha, bu tashkilot madaniy merosni saqlab qolishda muhim rol o‘ynadi.

Muzey ishi va madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish davlat boshqaruvi tizimi 1918–1920 yillarda yaratildi. Muzeylarni boshqarish yagona tashkilotining tuzilishi muzeyshunos arboblarning istak va fikrlarining amalga oshishi bo‘ldi. Bu tashkilot sobiq sovet ittifoqi Maorif xalq komissarligi qoshida tuzilib, uning ishida madaniyat arboblari, muzey xodimlari, san’atshunoslar, rassomlar faol ishtirok etdi. Maorif xalq komissarligi rahbarligida mahalliy sovetlar xalq maorifi bo‘limlari qoshida muzey ishini boshqarish

tashkilotlari tuzildi. Muzeylarni boshqarishning bu tizimi uning markazlashuvini ta’minladi.

Bu davrda muzey ishi va madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish bo‘yicha qonun yaratilib, u osori-atiqalarni milliylashtirish asoslarini, madaniy boyliklarni asrash, davlat uchun ma’lum yodgorlik yoki kolleksiyaning muhim ahamiyat kasb etganligini tasdiqladi. YAngi hukumat diniy qadriyatlar orqali ham katta mablag‘ va vositalarga ega bo‘ldi. Tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo‘lgan ashyo-buyumlarni chet elga sotish 1918 yilning sentyabr–dekabr oylarida e’lon qilingan dekretlar bilan taqiqlandi [5].

Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1918 yili 19 apreldagi dekreti bilan knyaz Nikolay Romanovning Toshkentdagi hovlilarini davlat mulki deb e’lon qilindi. Uyi esa xalq muzeyiga aylandi [6]. Unda tasviriy san’at, grafika, haykallar, badiiy san’at ashyolari, mebel, chinni, tunj va amaliy san’atning boshqa buyumlari qo‘yilgan edi. Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1920 yil 31 iyuldagi «Turkiston Respublikasidagi ayrim shaxslar va jamiyatlar ixtiyorida bo‘lgan san’at asarlari, qadimgi yodgorliklarni ro‘yxatdan o‘tkazish, hisobga olish hamda qo‘riqlash haqida»gi maxsus Qarori muzey jamoalari zimmasiga mas’uliyatli vazifa yukladi [7]. Turkkomstarisning maxsus yo‘riqnomasi bilan muzey ashyolarini rasmiylashtirish va ro‘yxatga olish joriy etildi. Qarorda ayrim shaxslar ixtiyoridagi yodgorliklarni ro‘yxatga olishga katta e’tibor berilgan. Bunday shaxslarga har tomonlama yordam ko‘rsatilib, maxsus muhofaza yorliqlari berilar edi [8]. Turkkomstarisga qimmatbaho ashyolar bilan savdo qilishda maxsus ekspert komissiyasi belgilagan baho bo‘yicha sotib olish huquqi berildi. Ushbu maqsadda maxsus mablag‘ fondi tuzilib, knyaginya Iskanderga tegishli qadimiy qurollar kolleksiyasi 200 ming rublga sotib olindi. Unda SHarq xalqlari Rossiya va Angliyada ishlangan nodir va qimmatbaho qurollar bor edi [9]. Bundan tashqari, Turkkomstarisga ko‘rgazma va nashrlar uchun xususiy kolleksiyalardan foydalanish huquqi ham berildi. Muzey uchun qadrli narsalarni aniqlash uchun ilmiy-badiiy ekspert komissiyasi tuzildi. Uning raisi etib Turkkomstaris muzey seksiyasining mudiri A.M.Mironov tayinlandi. Komissiyaning faol harakatlari bilan Turkkomtstaris muzey fondi qisqa davr ichida badiiy tarixiy qiymatga ega ko‘plab madaniy meros yodgorliklari bilan boyitildi.

Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1923 yil 3 noyabr qaroriga binoan Turkiston o‘lkasining turli viloyatlarida joylashgan 20 ta qadimgi madaniy meros yodgorliklari Turkkomstaris ixtiyoriga o‘tkazildi. Tarixiy-arxeologik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan 52 ta yodgorlik hisobga olindi. Turkiston ASSRning ettita muzeyida (Buxoro va Xivani qo‘shganda) osori-atiqalar soni 114075 taga etadi [10]. Muzey ishlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun yagona markaziy apparat – Turkkomstarisning tuzilganligi O‘rta Osiyo xalqlari tarixiy o‘tmishini, madaniy merosini o‘rganishga sharoit yaratdi. Bu davrda O‘zbekiston muzeylari kuchli g‘oyaviy tazyiqqa uchradi. Muzeylardan yigirmanchi yillarning oxiridanoq faqat utilitar xo‘jalik, siyosiy-ma’rifiy maqsadlarda foydalanishga harakat boshlanadi. Oqibatda mahalliy muzeylarning ko‘pchiligi XX asrning o‘ttizinchi yillariga kelib, madaniyat sohasining ikkinchi darajali tarmog‘iga aylanib qoldi. Zero, bu ko‘rinishda ham muzeylar ilmiy bilimlarni ommalashtiruvchi, o‘z o‘lkasiga qiziqish uyg‘otuvchi, savodsizlikni tugatishdagi muhim omil bo‘lib qoladi.

1923 yili barcha muzeylarning fondi, madaniy meros yodgorliklari davlat mulki deb e’lon qilindi. Maxsus qarorlarga binoan 1922–1926 yillari muzeylarga tarixiy-badiiy qiymatga ega bo‘lmagan buyum va ashyolarni, eskirgan narsa, takrorlanadigan fondlarni sotishga ruxsat berildi. Ushbu yangi iqtisodiy siyosat davrining majburiy chorasi hamda 1929 yili davlat muzey fondlari omborxonalarining tugatilishi haqidagi qaror antikvariat bozorini shakllantiribgina qolmasdan, muzey kolleksiyalarining sotilishiga va tiklab bo‘lmas yo‘qotishlarga olib keldi.

I Butunrossiya muzeylari qurultoyi 1930 yil dekabr oyida Moskvada bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda qabul qilingan qarorlar o‘z davri

va g‘oyaviy muhitiga monand edi. Muzeylarni sotsialistik qurilish xizmatiga jalb etib, «madaniy inqilob» quroliga aylantirish vazifasi istiqbol rejaga qo‘yildi. Muzeylarda tez orada reekspozitsiya (ko‘rgazmalarni qayta tuzish) qilish tavsiya etildi. Ommani inqilob an’analari ruhida tarbiyalovchi tarixiy-inqilobiy va memorial muzeylarni tashkil etishga e’tibor qaratildi. Muzey ishida 30-yillardagi o‘zgarishlar dinga qarshi, ateistik muzeylarni tashkil etishda ham o‘zining ifodasini topdi. Muzeylarga sotsialistik qurilish va hayot tarzidagi ustunliklarni namoyish etish tavsiya qilindi.

SHunga qaramasdan, muzey ishi ko‘nikmalari avloddan-avlodga o‘tgan madaniy faoliyatining ma’lum an’analarini saqlashga erishildi. Sredazkomstaris 1938 yil 7 aprelda tugatilib, uning muassasalari – O‘rta Osiyo bosh muzeyi, Markaziy badiiy muzey, Hayvonot bog‘i va inqilob muzeyi, O‘zbekiston maorif xalq komissarligi fan bo‘limi ixtiyoriga o‘tkazildi. Natijada muzeylarning ilmiy-yig‘uv va ilmiy-ekspozitsion faoliyati maydoni torayib, O‘zbekiston hududi bilan cheklanib qoldi.

XX asrning 30-yillarida davom etayotgan siyosiy qatag‘onlar kampaniyasi ham O‘zbekiston muzey ishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Bir necha muzeylarning faoliyati to‘xtatildi.

Urush yillarida ilmiy tadqiqot muassasalari, shu jumladan, muzeylarning faoliyati ham tubdan o‘zgardi. Ko‘pgina muzeylar o‘z binolarini evakuatsiya qilingan muassasalar uchun bo‘shatib berdi. Respublikada muzeylar tarmog‘i qisqardi. Birgina O‘zbekiston tarixi, madaniyat va san’at muzeyi nomi ostida San’at, Adabiyot va O‘zbekiston tarixi; tabiat muzeyi bilan birga Politexnika muzeyi birlashtirildi. Respublikaning ko‘pgina muzeylari ekspozitsiyalari yig‘ishtirilib, ilmiy tadqiqot faoliyati hamda shtatlar qisqartirildi [11].

Urushdan keyingi yillarda muzeylar oldida turgan asosiy vazifalar: madaniy meros yodgorliklarini ta’mirlash, tiklash va saqlashga qaratildi. Muzeylarning namunaviy mavzulari tizimi 1946 yili yaratilib, bu hujjat bir tomondan muzeylar faoliyatini qattiq reglamentga solish orqali muzey xodimlarining faolligini cheklab qo‘ygani bo‘lsa, ikkinchi tomondan malakasiz mutaxassislarga yangi ko‘rgazmalar tashkil etishda qo‘l keldi. Muzeylarining namunaviy tizimini ishlab chiqishda yirik tarixchi olimlarning ishtiroki bu hujjatlarning o‘sha davr tarix fani darajasiga mos bo‘lishini qisman ta’minladi. 1945 yili muzeylar O‘zbekistonda ham maorif tizimidan madaniy-ma’rifiy muassasalar qo‘mitasiga o‘tkazildi. SHu tariqa muzeylarning madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimiga o‘tishi uzil-kesil hal etildi. 1953 yil Madaniyat vazirligi tuzilsa-da, uning muzeylarni boshqarishning ilmiy asoslangan dasturga ega emasligi, boshqaruvning barcha pog‘onalaridagi kadrlar saviyasining pastligi kuzatilar edi [12]. Muzeylarni boshqarishdagi bu vaziyat O‘zbekistonda 1950 yillarning oxiridan 80-yillarning oxiriga qadar davom etdi.

Partiya Markaziy Qo‘mitasining 1964 yil 12 maydagi «Mehnatkashlarning kommunistik tarbiyasida muzeylarning rolini oshirish to‘g‘risida»gi va 1982 yil avgustdagi «Muzeylarning g‘oyaviy-tarbiyaviy rolini oshirish to‘g‘risida»gi ikki Qarori O‘zbekiston muzeylarini ham «g‘oyaviy targ‘ibotchi muassasalar» tizimiga uzil-kesil biriktirib qo‘ydi. Bu esa muzeylar rivojiga, madaniy meros yodgorliklarini saqlab qolinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. CHunki, muzeylarning asosiy funksiyalaridan biri «g‘oyaviy targ‘ibotchi» emas, balki avloddan - avlodga o‘tib kelayotgan O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etib to‘plash, saqlash va namoyish etishdan iborat. Siyosiy nazoratlar (senzura) va talablar natijasida o‘zligimizni anglashga, milliy iftixor hamda g‘ururimizni tiklanishiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy meros namunalarining ba’zilari yuqorida ta’kidlanganidek, chetga sotib yuborildi, qolganlari muzeylarning zaxiraxonalaridan joy oldi.

Muzeylar boshqarmasi 1947 yili ishlab chiqqan «Muzey fondlarini hisobga olish bo‘yicha ko‘rsatmalar», 1968 yili yangi «Asosiy fondlar tarkibi haqida» hujjat chiqqunga qadar O‘zbekistonda amal qildi. Davlatning asosan muzey muassasalaridan g‘oyaviy targ‘ibotchi imkoniyatlaridan foydalanishga intilishi sovet davrining deyarli

boshqa bosqichlarida muzeylarning ilmiy salohiyatli mutaxassislarning qarshiligiga duch keldi.

1950 yillarning ikkinchi yarmi – 1960 yillarning boshigacha bo‘lgan qisqa davr sobiq Ittifoq va respublikalar madaniyati tarixida «iliqlik» davri deb nomlanadi. Unda ijtimoiy hayot va madaniy jarayonlar ustidan qattiq nazorat bir muncha susaydi. Hozir ma’lum bo‘lishicha, mamlakat siyosiy rahbariyatining madaniy jarayonlar taraqqiyotida qisman erkinliklar berishi, sotsializmni mustahkamlashga ko‘maklashishni ijodiy kuchlarni faollashtirish maqsadini ko‘zlagani ma’lum bo‘ldi. Ushbu qisqa imkoniyat, erkin nafas olish madaniy hayotni sezilarli jonlantirdi. Jumladan, muzey ishida tabiat va madaniy merosni asrash muammolariga e’tibor kuchaydi. Ushbu yillarda jamoa muzeylarining umumiy soni o‘sib, dastlabki muzey qo‘riqxonalar yaratildi. Badiiy muzeylar tizimini yaratishga faol kirishildi. «Iliqlik» ta’sirini qatag‘on qilingan siyosiy va madaniy arboblar haqidagi ko‘rgazmalar, ma’lumotlarda hamda qamoqlarda, surgunlarda omon qolgan xodimlarning muzey ishiga qaytishida ko‘rish mumkin.

Ayni shu yillarda O‘zbekistonda yangi muzeylar jamoatchilik tashabbusi bilan tashkil etilib, ularning mablag‘lari hisobiga faoliyat ko‘rsatgan. Dastlabki jamoat muzeylari XX asrning 20–30-yillarida tashkil qilingan bo‘lsa, 1970 yilda O‘zbekistonda 60 ta bu turdagi muzeylar bo‘lib, ularning faoliyati davomida 4 mingta ekskursiya o‘tkazilib, 200 ming kishi ko‘rgazmalarni tomosha qilgan. Jamoatchilik muzeylari davlat, boshqarma, muassasa, tashkilot, oliy ta’lim, maktab muzeylari vazifasini o‘tab, muzey tizimining ajralmas qismi, davlat muzey fondini to‘ldirish vositasi bo‘lib qoldi. O‘z faoliyatida tashkiliy, g‘oyaviy-siyosiy, ilmiy-ma’naviy, targ‘ibiy, madaniy-tarbiyaviy darajaga erishgan muzeylarga «Xalq muzeyi» unvoni berildi. Jamoatchilik muzeylarining keskin ko‘payishi mamlakatda aholining tabiiy-madaniy merosga ommaviy qiziqishining natijasi edi. Ular professional mahorati jihatidan davlat muzeylaridan past bo‘lsa-da, ommaning jonli ijodi faolligi namunasi sifatida davlat muzeylarining g‘oyaviy cheklanganligi, formalizmiga qarshi «namoyishi» desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jamoa muzeylari mahalliy madaniy va ijtimoiy madaniyatdagi o‘rni, aholini muzeylar tashkil etishga bevosita jalb qilishi o‘z qishlog‘i, shahri, korxonasining tarixini o‘rganish, madaniy meros yodgorliklarini asrashda qo‘l keldi.

1960–1980 yillarda muzey ishi jamoachilik diqqat markazida turdi. Muzeylar, ular faoliyati, madaniy meros yodgorliklarini asrash muammolari haqidagi munozaralar nafaqat maxsus, balki matbuot, gazeta va jurnallarda keng muhokama etildi. Jamiyatda muzeylarga qiziqishning oshishi muzey faoliyatiga davlat tomonidan e’tiborning kuchayishiga olib keldi.

1966 yilda O‘zbekiston Respublikasi tarixiy va madaniy meros yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzilib, unga alohida shaxs, ayrim jamoalar a’zo bo‘la boshladilar. Natijada yirik zavod, korxonalar jamiyatga a’zolik badali tarzida nasbatan salmoqli mablag‘larni o‘tkazish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu vaziyat jamiyatga darhol yuqori status berib, u eng avvalo davlat manfaatlarining himoyasi, ayniqsa sobiq hukmron g‘oyaga zid bo‘lmagan tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilishda qo‘l keldi. Ammo masjid, madrasa, xonaqohlarni buzish, ularni tahqirlab omborxonalarga aylantirish siyosati davom etdi. Ular muhofazadagi binolar ro‘yxatidan chiqarilganligi tufayli sanoat korxonalari, vaqtixushlik muassasalariga aylantirish hollari ham uchrab turardi. Bu salbiy holatga 1960–1970 yillarda keng yoyilgan yoshlar, ziyolilarning madaniy meros yodgorliklarini asrash vatanparvarlik harakati qarshi turdi.

YUNESKO ma’lumotlariga qaraganda, dunyo muzeylarining 80 foizi dastlab qal’a, saroy, ibodatxona, monastir, xususiy uylarda faoliyat ko‘rsatgan. O‘zbekistonda ham ushbu manzara kuzatiladi. YAna shuni ta’kidlash lozimki, muzey binolarining ko‘pgina qismi ancha paytdan buyon ta’mirlanmagan, avariya holatidagilari ham bo‘lgan.

YUqorida ta’kidlanganidek, jamiyatda madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilishga hamda ulardan foydalanishga munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishi

yangi muzey muassasalari, muzey-qo‘riqxonalarning vujudga kelishiga ko‘maklashdi. Ularning o‘ziga xosligi ma’lum ko‘chmas yodgorlik asosida yaratilishi, uning atrofidagi tarixiy-madaniy va tabiiy muhitni muhofaza qilish yoki tiklanishi bilan bog‘liqligi edi. Muhim tarixiy-madaniy va tabiiy-madaniy qadriyatga ega bo‘lgan bu xildagi muzeylarning dastlabki kundanoq yuqori mavqeni olishi ularning tarixiy-madaniy osori-atiqalar yirik majmuasi tarzida muhofaza qilinishiga imkoniyat yaratar edi. Bunga 1960 yillarda «Ichon-qal’a» davlat muzey-qo‘riqxonasi Xiva shahrida barpo etilganligini misol keltirish mumkin [11].

Muzeylar mamlakat tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, muzey ishi o‘zining ichki mantiqiy taraqqiyotiga ega edi. Muzeylar soni va turi o‘sib bordi, ularning o‘rni va ahamiyati targ‘ibot va tashviqot markazi sifatida mamlakatning ijtimoiy hayoti, madaniyatidagi roli esa kundan-kunga sezila borgani kuzatiladi.

O‘zbekistonda sovet davri muzeylari va va madaniy merosga bo‘lgan munosabatni tadqiq etish quyidagi xulosalarni berishga asos bo‘ladi:

Rossiya imperiyasi davridagi Turkistondagi muzeylar o‘lkaning madaniy merosini, er osti va ustki boyliklarini chuqur o‘rganib, Rossiya manfaati yo‘lida foydalanish uchun tashkil etilgan bo‘lsa, sobiq sovet mustamlakachiligi davrida xalqning moddiy va madaniy boyliklarini talon-toroj qilish siyosati davom ettirildi.

Ommaviy-g‘oyaviy ishlar kuchaytirildi. G‘oyaga mos kelmaydigan madaniy meros yodgorliklarining ahamiyati pasaydi. Muzey ekspozitsiyalarida yodgorliklardan foydalanish masalasi noto‘g‘ri hal qilindi va bu sobiq sovet davridagi muzeylar rivojida salbiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi.

Asosiy o‘rinni tarixiy-inqilobiy va memorial muzeylar egalladi. Mavjud muzeylarning barchasida yangi tuzum yutuqlarini namoyish etib, uning g‘oyalarini keng ommaga singdiruvchi ekspozitsiyalar paydo bo‘ldi. Lekin ularda sovet tarixi bo‘yicha to‘laqonli kolleksiyalar yo‘q bo‘lganligi sababli muzey predmeti o‘rnini matn, sxema, shiorlar egalladi. XX asrning 60–70-yillaridan boshlab, O‘zbekistonda memorial muzeylarining ochilishi rivojlandi.

Me’moriy yodgorliklardan masjid va madrasalar - ombor, yotoqxona va boshqa narsalarga aylantirildi, muzeylarning moddiy-texnikaviy bazasi zaiflashdi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida ba’zi muzeylarning nodir fondi, zargarlik mahsulotlari, numizmatik kolleksiyalari Mudofaa fondiga olindi. Va nihoyat, bunday qarama-qarshilik va nosog‘lom raqobatda milliy qadriyatlar, an’anaviy madaniyat mag‘lub bo‘lmay, barcha qiyinchiliklarga bardosh berdi. Mustaqillik davrida u umuminsoniy qadriyatlar qatoridan joy oldi.

Tadqiqot jarayonida bu davrdagi muzeylar hamda madaniy merosni saqlanishiga doir ijobiy ishlar ham aniqlandi. Muzey tarmoqlari kengaydi, fondlari komplektlashtirilib, eksponatlar tartibga keltirildi. «Badiiy va tarixiy noyob buyumlarni chet davlatlarga olib ketishni taqiqlash», «Xususiy shaxslarda, muassasa va jamiyatlardagi san’at asarlari hamda qadimiy buyumlarni saqlash, ro‘yxatga olish», «San’at va qadimiy yodgorliklarni hisobga olish hamda qayd etish» bo‘yicha qonunlar qabul qilindi. Madaniy meros yodgorliklari, muzey fondlaridagi kolleksiya, to‘plamlar olim va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib, ilmiy maqolalar to‘plamlari, monografiyalar chop etildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda muzey ilmiy xodimlari tomonidan qator ekspeditsiyalar tashkil etilib, arxeologik ob’ektlar o‘rganildi, muzey fondlarini kengaytirish maqsadida eksponatlar to‘plangani qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Известия среднеазиатского Комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы. Вып. 1–3. – Ташкент: 1928.

2. Миронов А.М. Художественный музей в Ташкенте // Известия Средазкомстарис. Вып.1.1926 . – С. 295-331.

3. Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Ташкент: Фан, 1978. – 118 с.
4. Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975. – 290 с.;
5.Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А.. – Москва: Издательство «ВК», 2003. – С. 132.
6. Культурное строительство в Туркестанской АССР (1917–1924) .Том 1. – Ташкент, 1979. – С. 417.
7. MA, R–394-fond, 1-ro‘yxat, 5-ish, 7-varaq.
8. MA, R–394-fond, 1-ro‘yxat, 13-ish, 18-varaq.
9. MA, R–396-fond, 1-ro‘yxat, 5-ish, 7-varaq.
10. O‘zR MDA, R–394-fond, 1-ro‘yxat, 103-ish, 85–86-varaqlar.
11. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 180, 221.
12. Златоустава В.И. Государственная политика в области музейного дела. (1945–1965гг.) // Музей и власть. Ч. I. Москва, 1991. – С. 226-298.

НАЛОГОВЫЕ ЛЬГОТЫ ПРИ ПОДДЕРЖКЕ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ОТРАСЛИ (НА ПРИМЕРЕ ОБЛАСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ, 1991-2021 ГГ.)

TAX BENEFITS WHEN SUPPORTING YOUTH ENTREPRENEURSHIP AND THEIR IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF THE INDUSTRY (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY REGIONS, 1991-2021)

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDAGI SOLIQ ENZIYATLARI VA ULARNING SANOATNI RIVOJLANISHGA TA’SIRI (FARG‘ONA vodiysi VILOYATLARI MISABIDA, 1991-2021-yillar)

С.Ж.Мирзахалов- базовый докторант,
Наманган ГУ

Аннотация: Данной статье проанализировано ход налоговых реформ в Республике Узбекистан по отношении предпринимательской деятельности. Хронологическом порядке исследован ряд документов, представляющие налоговые льготы молодым предпринимателям. Разработаны рекомендации предоставлении налоговых льгот молодым предпринимателям для создании благоприятных условии развитии малого и среднего бизнеса.

Ключевые слова: налогоплательщик**,** налоговая нагрузка, патента, внетренный валовый продукт, самозанятость, бюджет, даход.

Annotation: This article analyzes the course of tax reforms in the Republic of Uzbekistan in relation to entrepreneurial activity. In chronological order, a number of documents representing tax incentives for young entrepreneurs were examined. Recommendations have been developed to provide tax benefits to young entrepreneurs in order to create favorable conditions for the development of small and medium-sized businesses.

Key words: taxpayer, tax burden, patents, gross domestic product, self-employment, budget, income.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq holda soliq islohotlarining borishi tahlil qilinadi. Xronologik tartibda yosh tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini ifodalovchi bir qator hujjatlar ko‘rib chiqildi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida yosh tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: soliq to'lovchi, soliq yuki, patentlar, yalpi ichki mahsulot, yakka tartibdagi tadbirkorlik, byudjet, daromad.

В процессе реализации рыночных реформ крайне важно учитывать демографический облик регионов, удельный вес в них молодежи и социально-экономические проблемы. Трудоустройство молодежи, получении стабильного дохода и создание того или иного вида предпринимательства, безусловно, зависит от налоговой политики страны. Именно поэтому с первых дней независимости и по сегодняшний день в этой сфере реализован ряд реформ, снижающих налоговую нагрузку на предпринимателей. Здесь основной упор был сделан на увеличение числа налогоплательщиков за счет снижения налоговой нагрузки.

С первых дней независимости был проведен ряд реформ в сфере налогообложения. В частности, 6-процентные ресурсные платежи, составлявшие в 1993 году 36 млрд. сумов, были отменены в 1994 году. Подоходный налог, уплачиваемый работниками, снижен с 50 до 40 процентов. Налог на добавленную стоимость составлял 25 процентов. Это были, конечно, первые шаги к незначительному снижению налогов, но они не оказали существенного влияния на рост доходов населения и предпринимателей. На практике налоговая нагрузка оставалась высокой. В результате имели место случаи сокрытия доходов[1].

В 1993 году из 1311 предпринимателей Ферганской области 733 нарушили налоговое законодательство и укрыли налогов на сумму 32 млн. сумов. Данная проблема была вызвана рядом факторов, во-первых, высокими налоговыми ставками, во-вторых, незнанием налогоплательщиками законодательства отрасли, в-третьих, непонятия предпринимателями условии предоставлении отчетности в налоговые органы[1].

Для устранения этой проблемы в 1994 году Государственная налоговая инспекция Ферганской области открыла сервисный центр топографии при Ферганском политехническом институте. Целью этого было обучение налогоплательщиков и ознакомление их с новейшим законодательством в сфере налогообложения[1].

Помимо налогов, обязательным было получение патента на определенное количество товаров, производимых для продажи на основе домашнего труда, что создавало ряд финансовых проблем для молодежи, еще не вошедшей в отрасль. Например, по состоянию на январь 1994 года хакимятом Андижанской области утверждено постановлением № 243 ф. перечень из 64 видов хозяйственной деятельности обязательных для получения патента и сумма патентов[2]. Ежемесячно уплачивается патентная пошлина в размере от 2 000 до 30 000 сумов в зависимости от вида деятельности. В приложении, утвержденном постановлением № 99 хакима Ферганской области от 30 марта 1994 года, указаны суммы для получения патентов по 18 видам предпринимательской деятельности с ценами от 50 000 до 600 000 сумов [3]. В результате предприниматель пытался уйти от налогового бремени и патентных сборов или прекратил свою деятельность.

Еще одной причиной отсутствия бурного развития предпринимательской деятельности в этот период стало чрезмерное количество незаконных проверок со стороны налоговых органов. Управлением юстиции Ферганской области выявлены нарушения законных интересов субъектов малого и среднего предпринимательства в Багдадском и Бувайдинском районах, в которых Государственная налоговая инспекция в Багдадском и Бувайдинском районах проводила незаконные проверки субъектов малого и среднего предпринимательства без разрешения региональной комиссии. А также выявлены серьезные нарушении в применении штрафов[4].

С принятием Постановлении Президента Республики Узбекистан от 9 апреля 1998 года ПФ-1987 «О мерах по дальнейшему стимулированию развития частного предпринимательства, малого бизнеса» и Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 мая 1998 года № 232 « О совершенствовании механизма стимулирования развития малого предпринимательства» установлено множество налоговых льгот для субъектов предпринимательства. В частности, освобождены от подоходного налога частные субъекты в которых семьдесят пять процентов от общего числа работающих составляют учащиеся общеобразовательных школ и профессионально-технических училищ[5].

По следующие году были продолжены реформы в налоговой системе, чтобы создать для предпренимателей комфортную среду в стране. В целях снижения налоговой нагрузки и создания более простой системы для налогоплательщиков Кабинет Министров принял Постановление № 159 от 15 апреля 1998 года «О порядке налогообложения субъектов малого предпринимательства, перешедших на упрощенную систему налогообложения». Согласно решению, налогоплательщикам упрощено представление отчетности. В частности, налогоплательщики будут обязаны подавать отчет один раз в год и ежеквартально по упрощенной системе. Это позволило молодым людям, работающим в малом бизнесе и предпринимательстве, сэкономить время и направить его на дальнейшее развитие своего предпринимательства[6].

Еще одним важным аспектом упрощенной системы является то, что с переходом средних предприятий на такую систему уплаты налогов, число плательщиков единого налога увеличилось еще на 5 процентов. К 2004 г. малый и средний бизнес составлял 93процент всех зарегистрированных предприятий. Это на 1,5 процента больше, чем в 2002 году. В результате анализа выявлено, что рост доли малого и среднего бизнеса пришелся в основном на ведущие отрасли экономики, такие как промышленность, сельское хозяйство и строительство[7].

Несмотря на то, что работа по развитию предпринимательства дала определенные результаты, проблемы, сдерживающие развитие отрасли, остались. В целях изучения этих проблем и их устранения областными хакимятами предприняты ряд меры. В частности, принято распоряжение хакима Ферганской области от 18 июня 2001 года № 144-Ф «Об исследовании причин недеятельности зарегистрированных субъектов малого и среднего предпринимательства». В результате обследования по состоянию на 1 октября 2001 года всего 2930 субъектов малого и среднего предпринимательства в Ферганской области признаны недействующими по разным причинам. В результате исследования стало ясно, что наряды с разными проблемами, бремя налогового является одной из основных проблем в стремительном развитии предпринимательской деятельности[8]

В налоговой системе продолжены реформы по расширению льгот для предпринимателей и снижению налоговой нагрузки. В соответствии с Постановлением Кабинета Министров от 25 декабря 2003 года № 567 «О параметрах бюджета Республики Узбекистан на 2004 год» внесен ряд изменений в порядок налогообложения юридических и физических лиц. В соответствии с решением ставка налога на прибыль предприятий с 2003 года снижена с 20 до 18 процентов[9]. Следует отметить, что к 2004 году доля малых и частных предприятий в ВВП Ферганской области составила 42,1 процент, увеличившись по сравнению с 2001 годом на 6,2 процент. Наибольший ВВП в 2003 г. область имеет в сельском хозяйстве (79,8 процент) и платных услугах (57,7 процент)[10]. В результате роста числа рабочих мест, создаваемых в этой сфере, население, особенно молодежь,

обеспечены рабочими местами и стабильным источником дохода. Если проанализировать показатели Ферганской области, то в 2001 г. было создано 39 600 новых рабочих мест, в 2002 г. – 42 606 новых рабочих мест, а в 2003 г. за счет реорганизации субъектов малого предпринимательства – 42 637 новых рабочих мест, а трудящихся в этой отрасли составило 654 тыс. Человек[10].

В послующие годы продолжались меры по поддержке предпринимательства и снижению налоговой нагрузки. Наблюдалось, что в процессе экономических реформ за прошедший период уровень налогового бремени в Узбекистане из года в год снизился. Если 2 июля 1995 г. подоходный налог был установлен в размере 38 процент, в 1999 г. – 33 процент, в 2002 г. – 20 процент и в 2004 г. – 18 процент[9]. К 2009 году единый налог, уплачиваемый предпринимателями, снижен до 7 процент. Подоходный налог взимаемый от юридических лиц был снижен до 9 процентов[11]. В результате значительно увеличилась доля малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП (внетренный валовый продукт) страны. Например, в 1991 г. доля частного сектора в ВВП составляла около 1 процент, к 2010 г. этот показатель превысил 52 процент, а уровень занятости в этом секторе увеличился с 49,7 процента до 74,5 процентов от всего населения, занятого в экономический сектор. Более 47 процент доходов населения приходилось на доходы от предпринимательской деятельности[12].

В целях дальнейшего развития малого бизнеса и частного предпринимательства по основным направлениям налоговой политики в 2011 году ставка единого налога для них снижена с 7процент до 6 процент. Снижение базовой ставки позволило сэкономить более 2,5 млрд сумов для данной категории налогоплательщиков Андижанской области[13]. В результате налоговых реформ значительно увеличилась законная регистрация и деятельность малого бизнеса и частного предпринимательства. В первом полугодии 2012 года количество зарегистрированных предпринимательских субъектов составило 38 725 единиц. За этот период за счет развития данного направления создано 28 900 новых рабочих мест[14]. Несмотря на снижение единого налогового платежа с 15 процентов до 6 процент за последние 6 лет, объем поступлений в местный бюджет Андижанской области по данному виду налога неуклонно увеличился. Основной причиной этого стал рост доли малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП[15].

18 июля 2012 года опубликован Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному сокращению статистической, налоговой, финансовой отчетности, лицензируемых видов деятельности и разрешительных процедур». Цель указа – устранить излишнюю бюрократическую бареру, сократить количество устаревших лицензионно-разрешительных процедур, форм статистической, финансовой и налоговой отчетности, усовершенствовать механизм их подачи, создать благоприятную бизнес-среду в стране, упростить организацию субъектов хозяйствования и реализации последовательных и целенаправленных мер по обеспечению более свободной деятельности таких субъектов[16].

В результате было отменен 80 разрешительных процедур и 15 лицензий на деятельность. На этом основании размер платы за получение таких документов на лицензионную деятельность снижен не менее чем в 2 раза[17]. Также было принято решение о создании единого сайта в сети Интернет с целью создания благоприятных условий для предпринимателей на практике. На сайте создается следующая база данных: перечень лицензируемых видов деятельности и разрешительных процедур, информация о документах, необходимых для получения лицензий и разрешений, размещение постоянно

обновляемой информации о предприятиях, получивших лицензии и разрешения на соответствующие виды деятельности. Это послужило повышению уровня информированности и использования предпринимателями нормативно-правовых документов[17].

Проведенная Государственной налоговой службой работа по дальнейшему совершенствованию интерактивных услуг, предоставляемых налогоплательщикам через Интернет, привела к увеличению числа налогоплательщиков, пользующихся такими услугами. В результате только в 2012 году более 78 процент предприятий перешли на подачу налоговой отчетности в электронном виде[18].

С 1 июля 2015 года установлено проводить плановые проверки субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства только один раз в четыре года. Кроме того, был принят порядок, если хозяйствующий субъект не уплачивает вовремя налоги, его действия осуществляются впервые, а причиненный ущерб государству полностью возмещается в течение 30 дней, он не будет привлекаться к ответственности по статье 184 уголовного кодекса[19].

8 июня 2020 года Президент Республики Узбекистан принял постановление «О мерах по упрощению государственного регулирования предпринимательской деятельности и самозанятости». Согласно постановлению, быть самозятным через предпренимательской деятельностью достаточно было уведомить налоговую инспекцию. На данный вид деятельности включено 69 видов предпринимательской деятельности и освобождены всеми видами налогов. Согласно указу, индивидуальный предприниматель, зарегистрированный в качестве самозанятого, будет освобожден от уплаты всех налогов, добровольно уплачивает равно одному базового расчета за год, при этом сумма уплаченного предпринимателем налога направляется на Пенсионный бюджет, с этим предприниматель в далнейший обеспечивается пенсией[20].

По состоянию на июль 2021 года численность самозанятых в республике составила 852 372 человека, из них доля лиц моложе 30 лет – 310 148 человек. По регионам самозанятая молодежь в Самаркандской, Андижанской и Ферганской областях превышает численность других регионов [21].

Молодежь интересует предпринимательство в следующих сферах:

- бытовые услуги (парикмахерские, маникюр, косметология, педикюр, стирка и глажка на дому, изготовление ключей, пошив обуви, ремонт, покраска и др.) - 106 482 чел.;

- услуги в области сельского хозяйства (выпас скота, уход за скотом, помощь землевладельцам в посадке и уходе за сельскохозяйственными культурами) - 71 694 чел.;

- услуги в сфере промышленности (деревянное зодчество, сантехника, электромонтаж, переработка макулатуры, пластиковая тара, металлолом и дополнительное сырье) 51 575 чел.;

- социальные услуги (воспитательные работы на дому, присмотр и уход за детьми, ведение домашнего хозяйства, уборка помещений, народная медицина) - 44 273 чел.;

- производство товаров народного потребления и услуг (хлеб, попкорн в домашних условиях, мороженое, салаты, безалкогольные напитки, торговля сельхозпродукции на фермерских рынках) - 26 639 человек;

- сфере ИКТ (социальные сети, программное обеспечение, мобильные приложения и веб-сайты, создание и обработка текстов) 9 485 молодых людей[22].

Регистрация в налоговых органах в качестве индивидуального предпринимателя абсолютно бесплатна. Этот процесс можно осуществить в мобильном приложении «Soliq» (Налог) на разделе «Самозанятость» или на

сайте my.soliq.uz.. Регистрация подтверждается сертификатом с QR-кодом[23]. Все сведения о физическом лице вносятся в единый реестр налогоплательщиков.

В заключение можно отметить того, что после обретения независимости в Республике Узбекистан открылся широкий спектр предпринимательской деятельности. При этом государство оказало всестороннюю поддержку предпринимателям, а также предоставил налоговые льготы. В частности, были предоставлены льготы субъектам малого и частного предпринимательство счет регулярных реформ действующего налогового режима. В результате, за годы независимости составляющиеся доля предпринимательства в ВВП страны повысилась от 1 до 50 процентов. Кроме того, в отношении молодых людей, составляющих более половины населения страны, в их предпринимательской деятельности применяются налоговые льготы. Особенно в последние 2017-2021 годы в государственной политике в этой сфере была внедрена совершенно новая система. Одним из примеров тому является введение в 2021 году порядка полного возврата из бюджета суммы социального налога, исчисленной за работников в возрасте до 25 лет. В результате 170 миллиардов сумов во второй полугодии 2021 года остались в распоряжении предпринимателей. За счет этого, трудоустроено 240 тысяч молодых людей. Кроме того, количество предпринимателей в возрасте до 30 лет увеличилось за последние 4 года в 5 раз и превысило 500 000 человек[24].

Использованная литература:

1. ГАФО 1220 фонд, 3-опись, 31-дело, 32-страница
2. Государственный архив Андижанской области (ГААО) 734-М фонд, 1-опись, 227-дело, 6-10-страницы
3. ГАФО 1220 фонд, 2-опись, 14-дело, 158-страница
4. ГАФО 1220 фонд, 5-опись, 1-дело, 144-страница
5. ГАФО, 1220 фонд, 4-опись, 33-дело, 18-26-страницы
6. ГАФО, 1220 фонд, 4-опись, 33-дело, 20-26-страницы
7. Болтабоева М. М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиришдаги иштироки (1991-2019 йй.). тарих.фан.номз.дисс.; – Андижон, 2019. – Б. 102.
8. ГАФО 1220 фонд, 5-опись, 43-дело, 36-38-страницы
9. Янгиликлардан хабарингиз борми?// XXI аср, 2004 йил, № 4 Б. 4
10. Ёрматова И. Кичик ва ўрта бизнес-иқтисодий тараққиёт асоси// Фарғона ҳақиқати, 2004 йил, № 51 Б.3
11. Солиқдаги ўзгаришлар // Андижоннома, 2010 йил, № 5 Б. 2
12. Эгамназаров И. Банклар – тадбиркорларнинг ишончли ҳамкори// Андижоннома, 2011 йил, № 90 Б. 2
13. 2011 йил: солиқдаги янгиликлар // Андижоннома, 2011 йил, № 5 Б. 2
14. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожланаяпти // Андижоннома, 2012 йил, № 76 Б. 1
15. Маҳаллий бюджет ва солиқ сиёсатининг инсонпарварлик тамойили // Андижоннома, 2010 йил, № 90 Б. 2
16. Указ Президента Республики Узбекистан, от 16.07.2012 г. № УП-4453 «О мерах по кардинальному сокращению статистической, налоговой, финансовой отчетности, лицензируемых видов деятельности и разрешительных процедур» https://lex.uz/docs/2033430
17. Нуриддинов О. Имтиёзлар кўлами кенгаймоқда // Андижоннома, 2013 йил, № 73 Б. 2
18. Указ Президента Республики Узбекистан, от 16.07.2012 г. № УП-4453«О мерах по кардинальному сокращению статистической, налоговой, финансовой отчетности, лицензируемых видов деятельности и разрешительных процедур» https://lex.uz/docs/2033430
19. Ҳабибидинов Х. Солиқ имтиёзлари ва преференциялари кичик бизнес ҳамда хусусий тадбиркорлик субъектлари ривожида рағбатлантирувчи омил бўлмоқда//Халқ сўзи 2016 №142(6577)., Б.3
20. “Тадбиркорлик фаолияти ва ўзини-ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чора-тадбирклари тўғрисида” Президент қарори//Халқ сўзи, 2020 йил №121(7623) Б.1
21. Ёшлар ўзини-ўзи банд қилишнии танламоқда. Давлат солиқ қўмитасининг 2021 йил архив материаллари. Кириш режими: soliq.uz
22. “Тадбиркорлик фаолияти ва ўзини-ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чора-тадбирклари тўғрисида” Президент қарори//Халқ сўзи, 2020 йил №121(7623) Б.1

23. QR-код (англ. *Quick Response code* — код быстрого отклика; сокр. *QR code*) — тип матричных штриховых кодов (или двухмерных штриховых кодов), изначально разработанных для автомобильной промышленности Японии. Для дополнительной инфонрмации смотрите: https://ru.wikipedia.org/wiki/QR
24. Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда янги Ўзбекистонни албатта бунёд этамиз. (Электрон ресурс) мурожаат қилинган сана: 9.07.2021 кириш режими: president.uz

V.V. KRESTOVSKIY VA D.N.LOGOFETLARNING KITOBLARIDA BUXORODAGI MUSIQA VA RAQS SAN’ATI HAQIDA MA’LUMOTLAR

INFORMATION ABOUT MUSIC AND DANCE IN BUKHARA IN THE BOOKS OF V. V. KRESTOVSKY AND D. N. LOGOFET

СВЕДЕНИЯ О МУЗЫКАЛЬНОМ И ТАНЦЕВАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ БУХАРЫ В КНИГАХ В.В.КРЕСТОВСКОГО И Д.Н.ЛОГОФЕТА

N.M.Radjabova- mustaqil tadqiqotchi, Buxoro DU

Annotation: The article analyzes information about the musical and dance art of Bukhara in the works of Russian authors V. V. Krestovsky and D. N. Logofet, who visited the Emirate after the colonization of the Emirate of Bukhara by the Russian Empire. Masters of musical instruments and instruments in various bazaars of the Bukhara Emirate and special theaters, as well as the attitude of spectators to art will be considered .Based on a critical and comparative analysis, the article reveals the views of Russian authors on this problem.

Key words: Emirate of Bukhara, art, dance, dancer, musician, local official, clothes, rust, shard, circle, dutar, tanbur, chair, bazaar, porch.

Аннотация: В данной статье анализируются сведения о музыкальном и танцевальном искусстве Бухары, собранные в трудах российских авторов В.В.Крестовского и Д.Н.Логофета, побывавших на территории эмирата после колонизации Бухарского эмирата Российской империей. Также рассмотрены вопросы отношения к искусству мастеров музыкальных инструментов и мастеров по видам инструментов в базарах и специальных тюрьмах в различных бекствах Бухарского эмирата. В статье на основе критического и сравнительного анализа были раскрыты мнения российских авторов по данному вопросу.

Ключевые слова: Бухарский эмират, искусство, танец, танцор, музыкант, местный чиновник, одежда, занг, брусок, бубен, дутар, танбур, кресло, базар, терасса.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi mustamlaka qilinganidan so’ng amirlik hududiga tashrif buyurgan rus mualliflaridan V.V.Krestovskiy hamda D.N.Logofetlarning asarlarida Buxorodagi musiqa va raqs san’ati haqida keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Buxoro amirligining turli bekliklarida bozor va maxsus tomoshagohlarda musiqa asboblari va cholg’ularning ustalari, cholg’u turlari tomoshobinlarning san’atga munosabati masalalari ham ko’rib chiqiladi. Maqolada rus mualliflarining bu boradagi fikr-mulohazalari tanqidiy va qiyosiy tahlil asosida ochib berildi.

Kalit so’zlar: Buxoro amiriligi, san’at, raqs, raqqos, musiqachi, mahalliy amaldor, kiyim-kechak, zang, qayroq, doira, dutor, tanbur, kreslo, bozor, peshayvon.

XIX asrning 70-yillarida Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi mustamlakasi ostiga tushganidan keyin, markaziy viloyat va shaharlardan Buxoro amirligi hududiga turli maqsadlarda rus ziyolilari sayyohlari va harbiylari tashrif buyurdilar. Ular orasida XIX asr 80-yillarida amirlikda mehmondorchilikda bo’lgan V.V.Krestovskiy

hamda D.N.Logofetlar asarlari asosida Buxorodagi musiqa va raqs san’ati talqini masalalarini mazkur maqolada imkon qadar tadqiq qilamiz.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Men mazkur maqolani yozishda V.V.Krestovskiyning “В гостях у эмира Бухарского”, D.N.Logofet muallifligidagi “На границах средней Азии”(Путевые очерки в 3-х книгах) asaridan, K,Olimboyeva, M.Ahmedov, “O’zbekiston xalq sozandalari” , Abdurauf Fitratning “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi”, O.Safarov, O.Atoyev, F. To’reyevning “Buxorocha” va “Mavrigi” taronalari ,F.To’rayevning “Mutribot qalbidan uchgan navolar”, Sh.O’roqov, T.Temirov “Shifobaxsh maqomlar”, O.Matyoqubovning “Og’zaki an’anadagi professional muzika asoslariga kirish”, R.Yu. Yunusovning “O’zbek xalq musiqa ijodi”, kabi adabiyotlardan unumli foydalandim

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy izlanishlar olib borishning tarixiy-xronologik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez hamda sivilizatsion yondashuv metodlaridan foydalandik.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi (protektorat) ga aylanganidan so’ng, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amirlikka ko’p sonli rus hukumati elchilari, sayyohlari, tadbirkor va sanoatchilari, harbiylar tashrif buyurdilar. Ular so’nggi mang’it amirlari hisoblangan Amir Muzaffarxon (1860-1885), Amir Abdulahadxon (1885-1910), Amir Said Olimxon (1910-1920)lar huzurida bo’lib, hatto, shaxsiy muloqotlarda ham bo’lishgan. Rossiya ma’muriy idora vakillaridan biri V.V.Krestovskiy Buxoro amirligi bo’ylab qilgan sayohat xotiralari asosidagi kitobini Rossiya imperiyasi poytaxti Sankt-Peterburgda chop ettirgan .

V.V.Krestovskiy Buxoro amirligi hududiga Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyati orqali o’tib, avval Karman bekligiga, so’ngra esa Karmanadan 7 tosh (49-50 km, 1 tosh- 7,7.5 km, 1 farsah ham deb ataladi) uzoq masofada joylashgan Bo’ston (hozirgi Qiziltepa) ga yetib keladi. V.V. Krestovskiy kitobining 10 ga yaqin sahifasi Bo’stonda rus vakillari va mahalliy amaldorlar o’rtasida uyushtirilgan bazm (bazmi jamshid) hamda unda musiqachi raqqos va qo’shiqchilar ishtiroki haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Muallif sharqliklarda bazm(ziyofat) so’zi umumiy bayramona zavq, o’yin-kulgi, do’stona ishratda kechki yig’ilish, muomala, bayram va raqs so’zlari bilan birga keladi. Bazmni “sud ijrochisi” (qozi bo’lsa kerak) tashkil etdi, deb qayd qilgan. Bazm bozorga yaqin joyda peshayvonli katta chodirda tashkil etilgan. Chodir osti va ichkarisi shamchiroqlar bilan yoritilgan. Mehmonlar, oqsoqollar va amaldorlar chodir ichida qo’yilgan stol va kreslolarda o’tirishgan. Mehmondorchilikdagi to’kin-sochin dasturxonni ta’riflar ekan : “Choy va turli shirinliklar mo’l edi: tuxum oqi shakar bilan ko’pirtirilgan, kujutli holva, unli mo’rt shakarli uzukchalar (parvarda), marmelad, pista va bo’g’irsoqlar mo’l edi” deb yozgandi, V.V.Krestovskiy [1].

Kitobda keltirilishicha, qo’shiq va raqslar boshlanishidan oldin to’rt doira (dang’ara) chi o’z doiralarini lagandagi ko’mir cho’g’ida obdon qizitib, chalishga sozlashgan. So’ngra doiradastlar ijroda toq raqamlar qatorini hosil qilib, uch, besh, yettitagacha bo’lishgan, umumiy va yagona qoida asosida doiralar chalinib, o’rtada yakka raqqos o’ynagan. V.V.Krestovskiy raqqos ustidagi kiyimlarini ham tasvirlar ekan, uning egnida oddiy kastyum, qizil rangli yaktak va qalin qizil kamar, kumush rangli do’ppi, jamalak kabilar bo’lgan, kastyum erkaklarniki ekanligiga e’tiborini qaratadi. Raqossning chaqqon va yengil harakati, oyoq, qo’l harakatida bir chiziq bo’ylab qoidali o’ynab, shu jaroyonda doirachilar xor, yakkaxon , duet shaklida ashula kuylab turishgan. Kuylangan ashulalar asosan muhabbat va sevgiga qaratilgan bo’lib, yorning ko’zu-qoshi, labi, tabassumi, durdek tishlari haqida obrazli laparlar kuylangan “Sen qalam bo’lsang, men qalamdoning bo’lay”, “Olma kabi qirmizi yuzing maftuniman”, “Sen kitob bo’lsang, men Rohila bo’lay ”,“Bulbul bo’lmaganida gul

qurimasdi”, “Muhabbat bo’lmaganida odam o’lmasdi” kabi aforizmlarga to’la qo’shiqlar, aytishmalar aytilgan qo’shiqchi-dang’orachi o’zining sitor yoki nog’orasida mahzun kuylaganligi, o’z his-tuyg’ularini bayon qilganligi muallif tomonidan diqqat bilan kuzatilgan. Qo’shiq va ashulalardagi o’nlab misralarni tarjimon orqali V.V.Krestovskiy o’zining yon daftariga yozib olgan.

V.V.Krestovskiy Buxoro Mavrigixonligi haqida ham o’z kitobida fikr bildirib, unda juda nozik, yengil raqs ham qo’shilishi, 5 kishi domino donalaridek saf tortib, qo’llarida ikkitadan tayoq bo’lganligini qayd etadi. Ular aylanma (doira) hosil qilib o’ynaganligi, qo’llarida zang taqib harakatlanganligini bayon etgan. Uning yozishicha haqiqiy “Mavrigi” turkmanlarda bo’lgan , ular ikki qo’llarida tayoq emas, balki ikkita yalang’och qilichlar bilan sahnaga chiqishgan. Buxoroliklar esa bu holatni xavfli deb hisoblashgan, raqqoslar qo’lidagi qayroq va zango’lalar qo’ng’iroq ovozidek jarang ohanglarini taratgan [1].

Buxoroliklar qo’shiq va raqslarida inson ruhiyatidagi azob va ulug’vorlik, ehtiros va intizorlik, mahzulik va ko’tarinkilik, tabbasum va xafaqonlik, osoyishtalik va bezovtalik kabi tuyg’ular mujassamligi muallif tomonidan jiddiy kuzatuv asosida aniqlangan.

Biroq, V.V.Krestovskiyning sayohatnoma harakteridagi kitobida Buxoro san’ati va buxoroliklar hayoti bilan bog’liq ayrim noaniqliklar, haqiqatdan yiroq fikrlar ham uchraydi.

Jumladan, mahalliy ammaldor “avval bizga qo’lini cho’zdi, so’ng ta’zim bilan hurmat belgisi sifatida ikkala kaftini yonoqlari va soqollari ustidan o’tkazdi” –deb yozadi, muallif. Aslida esa musulmonlarda qo’lini duoga ochib, duo qilinishini V.V.Krestovskiy hurmat belgisi deydi. Holbuki qo’lini ko’ksiga qo’yib ta’zim bajo keltirish hurmat belgisi hisoblanadi. Kitobda “Mavrigixonlik” Marv (turkmanlari)dan kelib chiqqan deb hisoblash ham isbotini topmagan. Biroq “Mavrigi” migratsion qo’shiqlar va raqslardan tarkib topgan turkum sifatida buxoroliklar ijrochiligida faqat doira jo’rligidagi qat’iy an’ana asosida ijro qilinganligi bor haqiqatdir [2].

O’tmishda “mavrigi” ashulalarini to’rt nafar doiradast hofiz va bir raqqos ijro etgan. Bu san’atkorlar, asosan, xalq marosimlarida xizmat qilib oqshomdan tonggacha ba’zida “Chorzonu” (oyoqlarni bukib), ba’zida “Duzonu” (ikki tizzada turib) to’rtta doirada rez va turli sho’x usullar berib qo’shiq aytar, raqqos esa ayollar kiyimida o’yinga tushar edi. [3]

Yuqoridagi holatlarga qaramay V.V.Krestovskiy kitobi Buxoro amirligi davri musiqa san’atini o’rganishda muhim manba bo’la oladi.

Yana shunday asarlar yozgan, general sayyohatchi etnograf, yozuvchi D.N. Logofet edi. D.N. Logofet nafaqat harbiy qo’mondon, balki sharqshunos-olim sifatida ham tanilgan. D.N. Logofet Markaziy Osiyo xalqlari, tarixi, madaniyati va turmush tarzi bo’yicha mutaxassis bo’lib, o’zining sayohat kundaliklari asosida Markaziy Osiyo haqida bir qator kitoblar yozgan. Uning asarlarida tarixiy, geografik va etnografik materiallar boyligi, afsonalar, ertaklar bayon etilgan; O’rta Osiyo xalqlarining madaniyati va turmush tarzi tasvirlangan D.N. Logofetning asarlari XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Markaziy Osiyo tarixiga oid eng qimmatli manbalardan biri bo’lib, ular orasida : “Kaspiy dengizi va fors chegarasi bo’ylab. O’rta Osiyo haqida sayohat ocherklari” (Sankt-Peterburg, 1903), “O’rta Osiyo chegaralarida: 3 kitobdagi sayohat ocherklari” (Sankt-Peterburg, 1909), “Qonunsizlik o’lkasi. Buxoro xonligi va uning hozirgi holati” (Sankt-Peterburg, 1909), “Buxoro xonligi Rossiya protektorati ostida: 2 kitobda” (Sankt-Peterburg, 1909) va boshqalar.

Jumladan, D.N.Logofet muallifligidagi “На границах средней Азии”(Путевые очерки в 3-х книгах) kitobining 3-sida Бухарско - Афганское граница asarida musiqaga oid ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Ko’lob bekligida bo’lgan D.N.Logofet kechqurun bozordagi ahvolni tasvirlar ekan, olov va lampalar orqali yoritilgan bozor choyxonasida musiqa va raqs bazmi bo’lishi, turli cholg’ular bilan tamoshaga kuni bo’yi yopiq do’konlarda savdo qilgan savdogarlar, atrof aholisi tantanaga chorlangan [4].

Choyxona o’rtasida katta gilam to’shalib, 10-12 yoshar ayol kiyimidagi (xalat, sochini ayollardek o’stirgan, do’ppi kiygan) yosh bolalar raqsga tushish uchun kelishgan. Ular raqqoslardek ko’rinish hosil qilgan. Bu bolalar ayollardek raqsga tushgan. Mahalliy musiqa asbobi kuyi chalinish ritmiga qarab ular raqsga tushgan, tomoshabinlar qichqirib, qarsak chalib qo’llab turishgan. Musiqa tezlashsa, ular o’ta chaqqonlik bilan birga gavda, tana qismlarini harakatga keltirgan . D.N.Logofet san’aining bu turini yosh bolalarni xo’rlash sifatida qarab, bunday bolalarga bir qaragan odam ikkinchi bor qarashga botinmasligi kerak deb hisoblagan. Ushbu kabi jihatlar Buxoro amirligida asrlar davomida ayollarga nisbatan huquqiy tengsizlik asosida qarab kelinganidan deb hisoblagan [5].

D.N.Logofetning “O’rta Osiyo chegaralarida: 3 kitobdagi sayohat ocherklari”ning ikkinchisi “Rus-afg’on chegaralari”da qayd etilishicha, darveshlar “Qur’on” suralarini qo’shiqdek qiroat qilgan, odamlar ular yelkasiga osgan xaltasiga tanga tashlashgan. Ular o’zidagi katta bo’lmagan gilamini yerga to’shab, akrobat o’z san’atini namoyon qilardi, barabanchi, barabanini chalib turgan, odamlar to’planib tomosha qilib, o’rtakash do’ppisi yoxud xaltasiga kumush, mis tangalar chervones rupiy tashlashgan. Do’konlar devoriga beli bilan suyanib olgan bir necha musiqachilar milliy musiqa, asboblarini ushlab turishgan. Ularni qo’lida rubob, do’mbira, yirik ikki arshin (bir arshin -71 sm) grifon (uch qatorli simi bor, tanbur bo’lsa kerak) g’ijjak, nay, Kavkazdan keltirilgan musiqa asboblari, yirik ichi bo’shagan qovoq va boshqa asboblar bo’lgan.

D.N.Logofetning yozishicha, keksa mahalliy aholi orasidan chiqqan qo’shiqchi qo’liga g’ijjagini olib , sart (o’zbek) va fors tilida ko’zini yumib, kamida dam olmay bir soat qo’shiq aytadi. Baraban, rubob, do’mbira unga jo’r bo’ladi. Musiqachilar atrofini o’rab olgan tinglovchilar to’dasi ular oldidagi sholchalarga pul tashlashadi.

Buxoro amirlarining saroyida ham ashulachi ayollar, raqqos va raqqosalar o’z cholg’ilariga ega bo’lgan qo’g’irchoqbozlar gruppasi ham bo’lgan. Ammo xonlar ularni katta bayramlarda- Navro’z sayli, guli surx kunlaridagina katta bozor maydonida xalq oldida chiqishga, san’atini namoyon etishiga ruxsat berardi [6].

- Xulosa va takliflar (Conclusion / Recommendations)

Xullas, Buxoro amirligiga V.V.Krestovskiy va D.N.Logofetga o’xshagan o’nlab rus vakillari tashrif buyurgan. Ular Buxoro amirligidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarini, mahalliy hayotning etnografiyasini imkon qadar o’rganishgan. Bunday shaxslarning Buxoro musiqa va raqs san’ati tarixiga oid yozib qoldirgan fikr-mulohazalarini istiqbolda mukamal o’rganish tadqiqotchilar zimmasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского (с тремя портретами). Санкт – Петербург, Издание А.С. Суворина, 1887. – 449 с.
2. Safarov O., Atoyev O., To’reyev F. “Buxorocha” va “Mavrigi” taronalari. Toshkent: “Fan”, 2005. 16-17 bet.
3. To’rayev F. Mutribot qalbidan uchgan navolar. Toshkent: “Navro’z”, 2018. -89 bet.
4. Логофет Д.Н. “На границах средней Азии” (Путевые очерки в 3-х книгах). Книга III. Бухарско - Афганская граница .Санкт- Петербург, 1909. – 103-104 с.
5. Логофет Д.Н. . “На границах средней Азии” (Путевые очерки в 3-х книгах) Книга II. Русско - Афганская граница. Санкт – Петербург, 1909. -119-120 с.
6. Olimboyeva K., Ahmedov M. O’zbekiston xalq sozandalari. Toshkent. 1959. -9 bet.
7. Matyoqubov O. Og’zaki an’anadagi professional muzika asoslariga kirish. Toshkent: “O’qituvchi” , 1983.-188 bet.

BOZORLARNING O`RNI XUSUSIDA (1991-2020 YILLARDA TOSHKENT SHAHRI BOZORLARI MISOLIDA)

О РОЛИ РЫНКОВ (НА ПРИМЕРЕ РЫНКОВ ТАШКЕНТА В 1991-2020 ГГ.)

ABOUT THE ROLE OF MARKETS (ON THE EXAMPLE OF TASHKENT MARKETS IN 1991-2020)

Sh.Oxunjonova- o‘qituvchi, FarDU

Annotatsiya: Maqolada savdoning xalq hayotidagi o`rni va ahamiyati haqida so`z boradi. Bozorlardagi savdo-sotiq jarayoniga ta`sir etuvchi omillar va ulardagi o`zgarishlar, ulgurji va chakana savdo olib borish uchun sharoitlar, online savdoga munosabat haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Savdo, bozorlar, sotuvchi, xaridorlar, dehqon bozorlari, daromad.

Аннотатция: В статье рассматривается роль и значение торговли в жизни людей. Информатsiя о факторах, влияющих на процесс торговли на рынках и изменениях на них, условиях оптовой и розничной торговли, отношении к интернет-торговле.

Ключевые слова: Торговля, рынки, продавцы, покупатели, фермерские рынки, доход.

Annotation: The article discusses the role and importance of trade in people's lives. Information on the factors influencing the process of trading in the markets and changes in them, the conditions for wholesale and retail trade, the attitude to online trading.

Keywords: Trade, markets, sellers, buyers, farmers markets, income.

Savdo aholi hayotini ta’minlaydigan alohida xizmat sohasi bo‘lib hisoblanadi. Uning ishtirokida ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste’molchilar tomonidan tan olinadi, taklif bilan iste’molchilar talabi kelishtiriladi. Bu orqali savdo ishlab chikarishga faol ta’sir qiladi, u esa ishlab chiqarish hajmini va tarkibini (assortimentini) belgilashga ta’sir ko‘rsatadi. Savdoning ishlab chiqarish bilan aloqasi - ularning xo‘jalik aloqalari tijorat ishlari orqali amalga oshadi. Jamiyatda savdo korxonasisiz ishlab chiqarilgan iste’mol mahsulotlari iste’molchilarga yetib bormaydi.

Bozorlarning xalq xayotidagi ahamiyatini inobatga olgan holda keyingi yillarda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan dehqon bozorlari, savdo majmualari hududlarida bir qator qurilish va qaytadan qurish ishlari amalga oshirilishi tufayli sotuvchi va xaridorlar uchun qulay sharoitlar yaratilib, sanitariya holatini yaxshilash, jamoat tartibini saqlash shuningdek, yong‘in xavfsizligini ta’minlash borasida ijobiy natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, joriy vaziyatning tahlili olib borilgan ishlarga qaramasdan, aksariyat dehqon bozorlarida xavfsizlik choralari, xususan, bino va inshootlarda yong‘in xavfsizligi talablari, sanitariya qoidalari va me’yorlari, gigiena talablari to‘liq inobatga olinmaganligi, shuningdek, bozor hududlariga yaqin masofalarda joylashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari yetishmasligi kabi holatlar sotuvchi va xaridorlar uchun muayyan noqulayliklar tug‘dirayotganligini ko‘rsatdi.

1990 yillarning boshlarida bozorlarni to‘ldirish va aholining ehtiyojini qondirish zarurat bo‘lgan. Mahsulot taqchilligi tufayli talab to‘liq qondirilmayotgan 1990 yillarda mahsulotni topish kifoya bo‘lib, sotish ancha oson bo‘lgan. Lekin, bozor molga to‘lib taklif talab darajasiga yetgandan keyin tijorat ishlarini asosan molni sotishga qaratishga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z o‘zidan mol sifatini yaxshilash bilan birga savdo xizmati sifatini oshirishni ham talab qiladi. Masalan, Shahar aholisini talabani inobatga olgan holda xalqni iste’mol talabini qondirish va quyib sotiladigan sut va ma’danli suv bilan savdo qilishni tartibga solish maqsadida

1994 yil 5 iyuldan boshlab quyib sotiladigan sutni bir xaridorga 5 litrgacha va ma’danli suvni bir xaridorga 20 butilkagacha sotishning muvaqqat tartibini joriy qilingan[5] davr ham bo`ldi.

Aynan 1994 yil 12 iyulda Toshkent shahrida o‘tkazilayotgan meva sabzavot yarmarkasining muddati 1994 yil 20 avgustgacha uzaytirilishi haqida Toshkent shahar hokimining qarori[6] chiqqanligidan ma’lumki, aholining kartoshka, sut va sut mahsulotlari, go‘sht mahsulotlari va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun uzluksiz texnika bilan ta’minlab turish uchun «Toshkentneftmahsulot» ishlab chiqarish birlashmasi yarmarkada qatnashayotgan avtomashinalarni yoqilg‘i bilan ta’minlash vazifasi yuklatilganligining misolida ham aholi ta’minoti muhim masala bo‘lib qolganligini bilish mumkin.

1996-2006 yillar davomida eng yirik ulgurji bozor bo‘lgan «Ippodrom» bozori orqali ko‘p miqdorda mahsulotlar o‘tadi va katta miqdordagi bitimlar tuzilgan (respondentlardan biri aytganidek, 10000 AQSh dollaridan 100 000 dollargacha). Toshkent aholisi orasida bu bozor jinoyatchilik o‘chog‘i va mafiya reketchilar lageri deb keng tarqalgan, ammo shunga qaramay, o‘rtacha va kam daromadli aholining aksariyati ushbu bozorni shahar do‘konlariga qaraganda arzonroq sotib olish uchun kelishgan. Xuddi shu mahsulotlarni turli xil kiosklarda, shuningdek ushbu mahsulotlarni sotish uchun maxsus moslashtirilmagan shahar bozorlarida sotib olish mumkin bo‘lgan[2].

Toshkent shahri aholisi o‘rtasida o‘tkazilgan suhbatlar natijalariga ko‘ra, dehqon bozorlariga asosan shanba va yakshanba kunlari vaqt ajratishganliklari, hafta davomida esa zaruratga qarab, ish vaqti tugaganidan so‘ng borishlarini 75 % suhbatdoshlar ta’kidlagan.

Tijorat maqsadida Toshkent bozorlariga kelib ketuvchi viloyatlik xaridorlar o‘tkazilgan suhbatlarga ko‘ra, ular asosan ulgurji olganliklari bois kun chiqmasdan bozorga borib, erta tonggacha zarur mahsulotlarni sotib olishlarini aytishgan. Deqon bozorlariga viloyatlardan mahsulot olib keluvchi dehqon-savdogarlar esa tunda soat 1:30 larda ulgurji bozorlarga yetib kelishini va tonggacha mahsulotlarini sotib tugatishlarini ta’kidlashgan.

Toshkent shahridagi bozorlar kunning har qaysi vaqti va hamma faslda savdo qilish uchun qulay qilib qurilgan bo‘lsa-da, rastadan tashqari, yo‘laklarda savdo qiluvchilar ko‘pligi bois savdo uchun noqulayliklarni keltirib chiqargan. Lekin, bunday holat horijiy bozorlarda ham uchrashini ta’kidlab o‘tish joiz. Masalan, Qirg‘izistonning yirik bozori Dordoy bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, yomon ob-havo «Dordoy» bozori uchun muammo tug‘dirmasligi ta’kidlangan, chunki uning barcha bozorlari usti yopilgan[9].

Toshkent shahri aholisi va savdogarlari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, bozorlarga aholi kunning birinchi yarmida haftaning oxirgi kunlari ko‘proq kelgan. Hafta kunlarining orasida ayollar ko‘proq bozorga borsa, erkaklar dam olish kunlari borgan. Bu tafovut erkaklarning hafta davomida ish bilan bandligi va dam olish kunlari bozorga vaqt ajratishlari bilan izohlangan. Shuningdek, savdogarlar tomonidan ham shanba va yakshanba kunlari savdo yaxshi bo‘lishi ta’kidlangan.

Fasllar almashinuvi ham savdo-sotiq jarayonida katta ta’sirga ega bo‘lib, kiyim-kechak sotuvchi savdogarlar bu borada «jiddiy tadqiqot» olib borishlariga va savdogarlik tajribalarini yaxshi o‘zlashtirishlariga to‘g‘ri kelgan. Sababi urf va mavsum almashinuvi natijasida ma’lum mahsulot turi sotilmay qolishi natijasida katta miqdordagi pulning aylanmay qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan. O‘tkazilgan suhbatlarda yirik savdogarlar mavsum boshida katta miqdorda olib kelib, shu mahsulotlarni mavsum davomida sotishga harakat qilganlar. Yana talab bo‘lgan taqdirda oz miqdorda buyurtma qilishgan yeki borib olib kelishgan[3].

Aholining narx borasidagi tushunchalari barcha bozorlar bo‘yicha turlicha bo‘lib kelgan. Og‘zaki so‘rov natijalariga ko‘ra Oloy bozori yuqori sifatni xush ko‘ruvchi va narxiga unchalik e’tibor

bermaydigan aholining boy qatlami xarid qiladigan bozordir[3].

1990 yillarda gippermarketlar asosan oziq-ovqat do‘konlari hisoblanar edi. Keyinchalik ular «ixtisoslashgan» do‘konlarga aylandilar. Bu vaqtda umumiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan mahsulotlar assortimenti kengaydi va savdo aylanmasining 55 foizini tashkil etgan[4; 34-35.]. Bozorlar aholi kundalik hayotida muhim o‘rin tutib, xarid qilish va daromad topishning manbai sifatida qaralgan. 1990-yillarning ikkinchi yarmida bozor savdosi keng tarqaldi. Aholi daromadlarining o‘sishi va ixtisoslashtirilgan do‘konlar, savdo markazlari, supermarketlar tarmog‘ining kengayishiga qaramay, aholining ko‘p qismi hanuzgacha bozorlar va chakana savdo bilan shug‘ullanadigan ulgurji savdo markazlarida xarid qilishni afzal ko‘rmoqda (turli manbalarga ko‘ra, bu raqam 40% gacha). Yuqoridagilar oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga ham tegishli. Ushbu holat doimiy ravishda ishlash uchun chakana va ulgurji savdoga yangi inson resurslarini jalb qildi[8].

Toshkent shahri aholisi orasida an’anaviy bozorlar bilan birgalikda, savdo markazlari ham ommalashdi. Toshkent shahrida ushbu savdo markazlarining faoliyati an’anaviy bozorlarning iqtisodiy holatiga ta’sir qildimi degan savol tug‘iladi. Pandemiya sharoitida Toshkent aholisining supermarket va do‘konlardan xarid qilish darajasi ortgan[1].

Shuningdek, internet va telefon orqali xarid qilishning qulayligi vaqt va yo‘l haqini tejab qolishi bo‘lib, noqulay tomoni mahsulotni ko‘rmasdan, qo‘lga ushlamay turib, oldindan xarid qilinishidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Qabulxonasiga qilingan fuqaro murojaatida OLX sayti orqali telefonini sotganligini pulini keyinroq olishga kelishganligini biroq pulini haligacha ololmayotganligidan norozi bo‘lib amaliy yordam so‘ragan[7].

Xulosa qilib aytsak, mustaqillik yillarida savdo-sotiqqa nisbatan munosabat o‘zgardi. Bozorlarga aholining zarur mahsulotlar bilan ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Huquq-nazorat, moliya, soliq idoralari qonunlar bilan o‘z vaqtida qurollanmagani uchun kim chayqovchi, kim savdogar, kim ish bilarmon, kim tadbirkor ekanini ba’zan ajratolmay qolingan. Chayqovchilikning faqat iqtisodiy yo‘l, ya’ni bozorni to‘ldirish bilan yo‘qotish mumkin edi. Internet va telefon orqali xarid qilishning paydo bo‘lishi esa bozorlarga bo‘lgan talabga ta’sir etmadi. Chunki, onlayn xaridlarning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud bo‘lib, qulayligi sifatida vaqt va yo‘l haqini tejab qolinishi bo‘lsa, noqulay tomoni mahsulotni ko‘rmasdan, qo‘lga ushlamay turib, oldindan xarid qilinishidir

.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История Korzinka.uz и секреты розничной торговли. Большая беседа с Зафаром Хашимовым // https://kun.uz/ru/news/2020/06/11
2. Кайзер М. Неформальный сектор торговли в Узбекистане // Журнал социологии и социальной антропологии. 2000. Том III. № 2. – С. 115.
3. Og‘zaki suhbat natijalari: Sayidumarova Feruza. 1965 yilda Toshkent shahri Shayhontohur tumanida tug‘ilgan.
4. Сафаров Б. Гиппермаркет – савдо соҳасидаги янги тамойил // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. 2000 йил. № 4. 34-35-бетлар.
5. Toshent shahar markaziy davlat arxivi, 582-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 162-ish, 20-varaq.
6. Toshent shahar markaziy davlat arxivi, 582-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 162-ish, 94-varaq.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Qabulxonasi joriy arxiv ma’lumotlari. 23175-xq/19 – murojaat.
8. Фаузер В.В. Кто и почему работает на городском рынке // ЭКО. 2006. № 8. С. 151–166.
9. Пардаев М., Чориев Д. Савдо ва бозор. Унинг ижтимоий-иқтисодий моҳияти // Иқтисод ва ҳисобот. 1995 №8-9.
10. https://www.open.kg/tourist/types-of-tourism/shopping-tours/2453-rynok-dordoy.html

ALISHER NAVOIYNING “BADOYE’ UL-VASAT” DEVONIDAGI G‘AZALLARDA SHE’RIY SAN’ATLAR TAHLILI

ANALYSIS OF THE POETIC ART OF GAZELLES IN “BADOY UL-VASAT” BY ALISHER NAVOI

АНАЛИЗ ПОЭТИЧЕСКОГО ИССКУСТВА ГАЗЕЛЕЙ В “БАДОЕ УЛ-ВАСАТ” АЛИШЕРА НАВОИ

N.S.G‘ulomova- mustaqil tadqiqotchi,
Alisher Navoiy nomidagi TDTAU

Annotatsiya: She’riy san’atlar sharq lirikasinining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, nutqqa bezak beruvchi, ularning o‘ziga xos jihatlarini yorituvchi, fikrni go‘zal va mazmunli ifodalash uchun xizmat qiluvchi vositadir. She’riy san’atlar, asosan mumtoz she’riyatda, ba’zan nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo‘llanilaniladi. Navoiy o‘z ijodada mavjud she’riy san’atlarning barchasida unumli foydalanib, so‘z tanlash borasida ham yuksak mahorat sohibi ekanligini isbotlagan. Alisher Navoiy ijodidan axborot texnologiyalari yordamida foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida yaratilayotgan mualliflik korpisida g‘azallar tarkibidagi she’riy san’atlarnining tahlili ham muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, she’riy san’at, talmeh, tazod, tashbih, korpus, semantik teg, bayt.

Annotation: Poetic arts are one of the components of oriental lyricism. They are means for decorating speech, revealing their features and beautiful and meaningful expression of thought. Poetic arts, mainly in classical poetry, were sometimes widely used in prose and still used in modern literature. Navoi proved to be a master of phrases, effectively using all available poetic techniques in his work. The analysis of poetic works in ghazals is also important in the author’s corpus, which was created to expand the use of Alisher Navoi’s works with the help of information technology.

Key words: classic literature, poetic art, talmeh, tazod, tashbih, corpus, semantic tag, bayt.

Аннотация: Поэтическое искусство является одним из компонентов восточной лирики и является средством украшения речи, выделения ее особенностей, красивого и содержательного выражения мысли. Искусство поэзии широко используется в классической поэзии, иногда в прозе и до сих пор используется в современной литературе. Навои проявил себя мастером словосочетания, используя в своем творчестве все поэтические приемы. Также важно проанализировать поэтическое искусство газелей в авторском корпусе, созданном с помощью информационных технологий для широкого использования творчества Алишера Навои.

Ключевые слова: классическая литература, поэзия, талме, тазод, ташбих, корпус, семантическая метка, байт.

Alisher Navoiy badiiy san’atlarga doir maxsus asar yaratmagan bo‘lsa-da, ko‘plab asarlarida ilmi badi’ning ba’zi nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tadi. Alisher Navoiy mualliflik korpusida ijodining bebaho xazinasi bo‘lgan g‘azallari semantik teglanar ekan, ijodkor ifodalayotgan ma’rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masallar mazmuni va ahamiyati, janrda keltirilgan badiiy timsollar jilosi bilan birga foydalanilgan she’riy san’atlarning rang-barangligi, badiiy tasviri, mantiqiy asoslanishi, g‘azallar mazmunini yoritishdagi ahamiyati benihoyadir. Shu ma’noda mulliflik korpusiga “Badoye’ ul vasat” devoni g‘azallarida shoir qo‘llagan tanosib, talmeh, tazod, tashbih, kabi she’riy san’atlar ilmiy va badiiy tahlil qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Alisher Navoiyning “Badoye’ ul- vasat”

devoniga 650 ta g‘azal kiritilgan bo‘lib, 5001 bayt, 10002 misrani tashlil etadi. Navoiy g‘azallarning o‘ziga xoslik jihatlaridan biri, deyarli barcha baytlarda qaysidir she’riy san’atlarning qo‘llanilishida. Masalan, g‘azallarda mingga yaqin o‘rinda *tanosub* she’riy san’ati 2 xil holatda qo‘llagan:

1) Bayt tarkibida bir guruhga mansub va ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bir necha so‘zlarni keltirish orqali tanosub san’atini qo‘llash. Quyidagi baytda *xurshid* (quyosh), *axtar*, (yulduz), *sayyora* (planeta) so‘zlari tanosib bo‘lib kelmoqda:

Bordi ul xurshid-u ashkim oqti, vah, tole’ ko‘rung
Kim, ne yanglig‘ axtari sayyoraye bordur manga?! (“Badoye’ ul-vasat” 13-g‘azal, 5-bayt)

2) Bayt tarkibida ikki ma’no guruhiga oid so‘zlarni keltirib, har ikki guruh orasidagi so‘zlarni bir-biriga qiyoslash yoki qarshi qo‘yish orqali tanosub san’atini qo‘llash:

Otinga yog‘ini o‘pmakka na’lu mix ermas,
Sipehr raxshidin inmish hilol-u axtarlar. (“Badoye’ ul-vasat” 180-g‘azal, 2-bayt)

Baytda *na’l, mix* hamda *sipehr, hilol, axtar so‘zlari o‘zaro* mutanosiblikda tanosib sa’natini hosil qilmoqda. Yoki:

Tushumga kirdi jannat ichra hur-u to‘biy-u kavsar,
Magar ko‘yida topqum orazu, qadd-u labidin bar. (“Badoye’ ul-vasat” 161-g‘azal, 1-bayt)

Ushbu baytda esa jannat, to‘bi (jannatdagi daraxt nomi), kavsar (jannatdagi hovuz nomi) va *oraz, qad, lab* so‘zlari o‘zaro matanosiblikda tanosib san’atining betakror namunasini paydo etmoqda.

Mumtoz adabiyotda shunday poetik usul va obrazlar borki, ular badiiy ijodning muhim tarkibiy qismiga aylanib ketgan, aynan g‘azal janrini ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi va shoir lirikasida so‘z qo‘llash mahorati tashbihda yanada oydinlashadi. Tashbih san’ati sharq adabiyoti badiiy tafakkurining eng qadimiy elementlaridan sanaladi[1]. Devonidagi birinchi g‘azal ham mutlaq muhabbat mazharining “navbahori oraz”i tavsifi bilan boshlanib, unda shoir olamning go‘zalligi, tabiatdagi yaralish va ijod jarayonining asl ijodkoriga sano yo‘llashda eng nozik iboralar, eng chiroyli tashbihlarni qo‘llaydi[2].

Ey navbahori orazing subhiga jonparvar havo,
Andin gul-u bulbul topib yuz barg birla ming navo[3].

Tashbihning bir she’r doirasida qo‘llanishi masalasida Navoiyning novatorligi yana ham diqqatga sazovor. U butun boshli g‘azallarda tasvirni g‘azallarning bir she’riy san’at asosiga qurilishi) shoiri jodining ilk davrida shakllangan bo‘lib, keyingi bosqichlarda ham rivoj topgan. Shoir ba’zi g‘azallari baytlarining birinchi misrasida aytilgan fikr keyingi baytdagi misraga tashbih orqali faqatgina o‘xshatilmasdan, birinchi fikrni keyingisiga taqqoslanadi[4].

Navoiy lirikasida tazodning tub mohiyatini belgilaydigan va shoirning bu boradagi mahoratini ko‘rsatadigan muhim jihatlardan biri bu usulni ishqiy tematikadan boshqa ijtimoiy mazmundagi g‘azallarda ham keng va izchil qo‘llanilgan. Devonda tazod she’riy sa’natining imkoniyatlaridan ham keng foydalanilgan. To‘xta Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” qo‘llanmasida: Tazod yuzakiroq qaraganda antiteza usuliga ham o‘xshaydi - ularning har ikkalasida ham bir-biriga zid tushunchalar yuzlashtiriladi, ayni choqda, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham bor. Antitezada to‘qnashuvchi bir-biriga zid narsalar ikki mustaqil manbadan kelib chiqsa, tazoddagi to‘qnashuvchi bir-biriga zid narsalarning kelib chiqish manbayi yagona: bir narsa ham yaxshilikning, ham yomonlikning kelib chiqishini o‘z ichiga qamrab oladi[5] deydi:

Ishq ko‘yining gadoyi menkim, anda tengdurur
Shoh esa zarbaftlig‘ yosoyil o‘lsa jandalig‘.

Devondagi 298-g‘azal 6-baytida “*gadoy*” (soyil) >≠<“*shoh*”, “*zarbaftlig‘*” >≠<“*jandalig‘*” (darveshlar to‘ni) so‘zlari bir-biriga zid tushunchalarni ifodalaydi va ayni chog‘da birgina baytda benihoya murakkab, mashaqqatli hayot manzarasini chizgan:

Vasl aro hijron yoshurdi ishq ko‘nglum qatlig‘a,
Mezbon zahr ezdi sug‘a, topmayin mehmon vuquf.

305-g‘azalning 3-baytda “*vasl*” >≠< “*hijron*”, “*mezbon*”>≠<“*mehmon*” so‘zlari o‘zaro zid ma’nolarni anglatib, tazod san’atini vujudga keltirmoqda. Guvoh bo‘lganimizdek, tazod san’atida zid ma’noli so‘zlardan foydalaniladi. Zid ma’noli so‘zlar badiiy matn tilida muhim vazifani bajarib, tasvirlanayotgan voqea-hodisani yorqin ifodalashga, obrazlilik va estetik ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu o‘quvchida uning tasavvurini kengaytirish, muammoli va ziyatlarni mulohaza qilish, ruhiy tushkun holatlardan mustaqil chiqa olish ko‘nikamasini shakllantiradi.

G‘azallarda zid ma’noli so‘zlar qo‘llanishiga ko‘ra quyidagi 3 turlar bo‘ladi:

a) leksik zid ma’noli so‘zlar–o‘zaro qarama – qarshi, zid ma’nolardan tarkib topadi: avval-oxir, fano-baqo, xazon-bo‘ston, vafo-jafo, gado-podsho, obod-barbod, pinhon-oshkor;

Zulmunga bo‘lsam zabun yuz vajx ila, ne aybkim,
Sen g‘anisen – men gado, sen shah – men ahli ehtiyoj.

b) leksik-frazeologik zid ma’noli so‘zlar – qarama-qarshi ma’noli so‘z va iboralardan tarkib topadi: *quvondi* >≠< *diliog‘ridi*, *yashnad*i >≠< *xazon bo‘ldi*;

Qachon bo‘ldung demang begona aql-u, xush-utaqvodin,
Muni surmog‘ ne hojat, ul pariga oshno bo‘lgach,

v) frazeologik zid ma’noli birliklar–qarama-qarshi ma’noli iboralardan tuziladi: *ko‘ngli ko‘tarildi* >≠< *dili siyoh bo‘ldi*, *ko‘zi porladi* >≠< *ko‘zi qonga to‘ldi*:

Lablari xandon bo‘lur, ko‘rgach ko‘zumda yig‘lamoq
Ko‘zlari myig‘lar, labi jonbaxshida kulgu ko‘rub.

baytda “*lablari xandon*” >≠< “*ko‘zumda yig‘lamoq*” va “*ko‘zlarim yig‘lar*” >≠< “*labi jonbaxsh*” qarama qarshi ma’noli turg‘un birikamalar hisoblanadi. *lab-ko‘z, xandon-yig‘lamoq* keyingi misrada *ko‘z-lab va yig‘i-kulgu* timsollari orqali oshiq holatini tasvirlangan bo‘lib, bunda *tanosib* san’ati tazod she’riy san’atining rivoji uchun ko‘maklashmoqda.

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda Navoiy *talmeh* sa’natidan ham samarali foydalanilgan va ikki yuzga yaqin mashhur tarixiy, adabiy va mifik shaxslar, geografik, etnik joy nomlari, tarixiy voqealar, afsonalar haqida ma’lumotlar bergan. G‘azallarda lirik qahraman siymosini gavdalantirishda uni o‘tmishdagi mashhur adabiy, diniy yoki tarixiy qahramonlar bilan qiyoslaydi, o‘xshatadi; goho o‘sha o‘tmish qahramonlari ismi-shariflari aytilmay, ular bilan bog‘liq voqealar esga olinishi ham mumkin. Har ikki holda ham talmeh san’ati sodir bo‘ladi[6]. Manbalarda keltirilgan ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Navoiy talmeh san’atining har ikkala unsuridan ham samarali foydalangan. Masalan, quyidagi baytda Iso payg‘ambarga (islomiyatdan oldin o‘tgan Payg‘ambarlardan biri, Nasroniylik dininig asoschisi) ishora qiladi, talmeh san’atining bu turi juda kam uchraydi:

Etmasa gardi rahing ko‘hli bo‘lub ***Ruhulloh***[7].

Ojiz aylar chog‘i xuffosh amosig‘a davo. (3-g‘azal, 4-bayt)

Aksariyat holatda talmeh san’ati qo‘llanilgan baytlarda tarixiy shaxslarning ismlari aniq keltiriladi:

Itlaring singon safolidin Navoiy ichsa durd,
Uldurur ***Jamshidu*** ilginda jahonbin jomi bor. (148-g‘azal 9-bayt)

Jamshid peshdodiylar sulolasiga mansub uchinchi podshophning nomi bo‘lib, Navoiy asarlarida qisqartirilgan holatda “Jam” deb ham yuritiladi: “Kishi Jamshid jomin sotqin olmaydur, baho aylab”, “O‘ldurur Jamshidu ilginda jahonbin jomi bor”, “Yo rab, ul Jamshid yo

mayxona qalloshimudur”, “Tutay jahonda Sulaymon seni va yo Jamshid”, “Ulki Jamshid degay o‘zini xurshid kebi” misralar bilan talmeh san’atini yaratadi:



Alisher Navoiy asarlarida jahonga mashhur Iskandar Zulqarnaynning mag‘ulubiyat bilmas zafarli yurishlari haqida “Saddi Iskandariy”[8]. dostonida: “Borin tab’ bir jonib aylandurub, burung‘i borin tab’ ila yondurub” tavsiflar bitgan. “Badoye’ ul-vasat” devonida: *“Skandar chashmai hayvong‘a muhtoj”, “Skandar ohi o‘tidin yig‘ilg‘on dudi hirmondur”, “Xizr umri-yu Skandar hashmatidin ori bor”, “Labingdur jomi Jamshidu yuzung mir’oti Iskandar”, “Bir dam etgil meni Iskandaru Jam”, “Ki, na Jam qoldi-yu ne Iskandar”, “Yuz Skandarni sug‘a eltib, susiz kelturgasen”, “Gar Skandar mulki birla Xizr umri bersalar”, “Skandar obi hayvondin tamanno imuhol ichra”* kabi misralarda talmeh san’atini qo‘llab, ulardagi talqin bo‘yicha hikmat, valiylik, payg‘ambarlikni o‘zida mujassam etgan.

Navoiyning lirik va epik asarlarida Xizr (a.) haqida ma’lumotlar ko‘p uchraydi. *Yo‘q mening, balki Xizr birla Masiho joni, Xizr soldi soya go‘yo chashmai hayvon uza, Ey Xizr, hayvon suyi ichmakka bedor aylama, Kim, zuloli xizr yetsa, zahr o‘lur qursog‘ima, Labing obi hayotin Xizri xatting no‘sh etar soat, Men solay ohim bila olamg‘a zulmat, ey Xizr, Ko‘rmagan Xizr suyining borishin, Revu rang ahli muridi bo‘lmag‘ilkim, Xizr emas* kabi misralar ko‘p uchraydi. Xizr-diniy manbalarga ko‘ra, doimiy tirik payg‘ambar. Xizr so‘zi Qur’oni Karimda uchramaydi, ammo ko‘p tafsirlarda “Baqara” surasining 65-oyatining mazmunini Xizr (a.) hayotiga dahldor deb hisoblaydilar. Alisher Navoiyning “Tarixi mulku ajam”[9]. (“Arab bo‘lmagan shohlar tarixi”) asarida: “Hazqil va Xizr alayhimussalom va Ilyos va Alyasa’niham debdurlar va Yunus alayhis-salom debdurlar” deya Xizr a. haqida ma’lumot keltirsa, “Tarixi anbiya va hukamo asarida: “Xizra. s. Maqdami barakotidin ul bolig‘ tirilib, talpinib o‘zin suvg‘a soldi. Musoa. s. Yuvsha’d inju’ daf’ig‘a nima tiladi ersa, Yuvsha’z. s. aytti, zodni falon tosh ustida unutibmen”[10] mazmundagi ma’lumotni keltiradi. Rabg‘uziyda keltirishicha, Xizr (a.) ning asl ismi *al-Yasa’*[11]. bo‘lib, bo‘lgan izidan maysa ko‘karib chiqqani uchun uni Xizr (yashil) deb atashgan ekan. Navoiy she’riyatida Xizr obrazi mangulik ramzi, hayot va ishq timsoli, rahnamo-pir, darveshlik namunasi sifatida eng ko‘p qo‘laniladigan obrazlardan hisoblanadi.

Alisher Navoiy mualliflik korpusiga kiritilgan talmeh she’riy san’ati orqali keltirilgan tarixiy shaxslar, aziz avliyolar va tarixiy joylar, mashhur maskan nomlarining semantik teglanishi natijasida o‘quvchilarda moziydagi mashhur shaxslar, ilohiy kitoblarda keltirilgan payg‘ambarlar, to‘qima obrazlar, muqaddas qadamjolar, asar nomlari borasidagi bilimlari shakllantiradi va rivojlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy ijodidagi badiiy san’atlar har tomonlama mukammal, o‘zining badiiy nafosati bilan, xilma-xil ifoda usullari bilan berilgani o‘zbek tilimizning g‘oyatda boyligi va go‘zalligini, shuningdek nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ifodalashini ko‘rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov N. She’r san’atlari. Sharq. O‘quv qo‘llanma. 2017. – 6.

2.Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob. – Toshkent. Tamaddun 2018. – 45 b.
3. Navoiy A. Badoye’ ul-vasat. – Toshkent. Tamaddun. 2011. – 4 b.
4. Isoqov Yo. Navoiy poyetikasi. – Toshkent. Fan nashriyoti. 1983. – 151 b.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.– Toshkent:O’zbekiston, 2002–38 b.
6.Assallayev A., Rahmonov V. Badiiy san’atlar. Lug‘at ma’limotnoma – Toshkent: Tafakkur, 2015. – 36 b.
7.Navoiy A. Lison ut-tayr –Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti,1991.–63 b.
8. Navoiy A. Xamsaning beshinchi dostoni. Saddi. Iskandariy. www. ziyouz. com kutubxonasi. –2 b.
9. Navoiy A.Tarixi mulki ajam. (http://www. ziyouz.com/). 2016. – 6 b.
10. Navoiy A.Tarixi anbiyo va hukamo. (http://www.ziyouz.com/). – 23 b.
11.Rabg‘uziy B. Qissasi Rabg‘uziy. www.ziyouz.com kutubxonasi (http://www. ziyouz.com/). – Toshkent: Yozuvchi. 1991. – 68 b.

BIR MANBANING IKKI NUSXASI

ДВЕ КОПИИ ИСТОЧНИКА

TWO COPIES OF THE SOURCE

O.I.Abduraxmonova – filoloiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Qo‘qon DPI

Аннотация: В статье приводится научная классификация двух рукописей «Дебатов о птицах» Мухаммада Нияза Нишати. В процессе классификации была предоставлена информация о статусе рукописей и идентифицирован оригинал.

Ключевые слова: Мухаммада Нияз Нишати, рукопись, источник, классификация, маснавии, баёз, колонка, лист

Annotation: The article scientifically classifies two manuscripts of Mukhammad Niyaz Nishati's "Birds' Debate". In the classification, the status of the manuscripts was considered and the base copy was identified.

Keywords: Mukhammad Niyaz Nishati, manuscript, source, classification, masnavi, bayoz, column, sheet

Annotatsiya: Maqolada Muhammad Niyoz Nishotiyning “Qushlar munozarasi” o‘rin olgan ikki qo‘lyozma manbaning monografik tasnifi amalga oshirilgan. Tasnifda qo‘lyozma nusxalarning holati haqida fikr yuritilgan va tayanch nusxa aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Niyoz Nishotiy, qo‘lyozma, manba, tasnif, masnaviy, bayoz, ustun, varaq

Adabiy yodgorliklarni nashr qilish ishi boy tarixga ega. Sharqshunos olimlar sharofati bilan fanning manbashunoslik, matnshunoslik sohalari izchil ilmiy tizimga tushdi va taraqqiyot yo‘liga kirdi. Shunga qaramay, mafkuraviy to‘siqlar, noilmiy qarashlar bu sohaga o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Bu esa “manbalar va muammoning tarixi bilan puxta tanishish adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar yo‘lidagi ko‘p uchraydigan va yoqimsiz (to‘liq tanishib chiqmaslik, mavzudagi takroriylik v.b.) to‘siqlardan muvaffaqiyatli o‘tish imkonini beradi” [1].

Endilikda, ayniqsa, mustaqillikdan keyin bu jabhada ham keng imkoniyatlar ochildi. Muhammad Niyoz Nishotiy merosi haqida ham shunday deyish mumkin. Shoirning “Qushlar munozarasi” masnaviysi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 1198 raqamli hamda O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi Porso Shamsiyev arxivida saqlanayotgan 778/2 raqamli qo‘lyozma manbalar orqali yetib kelgan.

Quyida 1198, 778/2 qo‘lyozma nusxalarning monografik tavsifi haqida ma’lumot beriladi.

778 raqamli 2-hujjat. Nishotiyning O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi Porso Shamsiyev arxivida hujjat nomi ostidagi 3ta 777/1, 778/2

va 779/3 raqamlarda “**مناظره مرغان**” (Qushlar munozarasi) masnaviysi saqlanadi. Ulardan 777 raqamli 1-hujjatda Porso Shamsiyevning dastxati bilan binafsharang siyohda ko‘chirilgan “Zaboni murg‘on” (Qushlar tili) masnaviysining arab grafikasi hamda kirill yozuvidagi transliteratsiyasi katta o‘lchamdagi kanselyariya daftarida saqlanadi. Daftar muqovasining birinchi varag‘ida “Nishotiy. Munozarai murg‘on. Doston. Ko‘chirgan, nashrga tayyorlagan Porso Shamsiy. 1959, noyabr’” – deb kirill yozuvida yozilgan. Bundan tashqari, ushbu raqam ostidagi hujjatda Porso Shamsiyevning matn tadqiqiga bag‘ishlangan Nishotiyning “Qushlar munozarasi” masnaviysi yoritilgan “Nishotiy. “Zaboni murg‘on” asari haqida” nomli maqolasining arab imlosida yozilgan dastxat nusxasi ham o‘rin olgan. 778 raqamli 2-hujjatda esa Nishotiyning “Munozarai murg‘on” doston qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Qo‘lyozma nusxa kitob holida emas. Bir tomonlama 15 varag‘idan iborat. Doston go‘yo havaskor xattot tomonidan ko‘chirilgan. Dasxati ravon emas. Doston ko‘chirilgan varaq o‘lchami 14 x 19.5 sm. 15 varag‘idan iborat. Matn ikki ustunda 10, 11 qatordan joylashtirilgan. Varaqlari ostida poygir qo‘yilgan.

Munozara “بسم الله الرحمنِ الرحيم” sarlavhasi ostida debocha berilgan. Ushbu so‘zdan oldin dostonning forsiy nomi “**مناظره مرغان**” keltirilgan. Debochaning dastlabki bayti

تنگری آتی بیله قیلای آغاز
چون کیم اولدور کریم بنده نواز

deb boshlanadi. Undan keyin Allohga hamd, Muhammad Mustafo (s.a.v.)ga na’t, choryorlarga alqov, asosiy qism, xotimadan iborat. Xulosa davomida Buxoro xonligining uchinchi xoni Imomqulixon ibn Dinmuhammadxon madhi keltirilgan. Qo‘lyozmaning ayrim o‘rinlarida noqisliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, sakkizinchi varaq 77-baytning ikkinchi misrasi “**Olki yozdi qudrat**” shaklida xato ko‘chirilgan. “…**muni yadi**” birikmasi tushirib qoldirilgan.

* [3].

Yana boshqa o‘rinda bir misrani ikki marta yozib, buni tushungan holda ustidan belgilab, hoshiyaga to‘g‘ri varianti ko‘chrilgan holati ham uchraydi. Bir necha baytlarning yo‘qligi ham dostonning mazmuniga ta’sir qiladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ushbu qo‘lyozma yuqoridagi 1198 raqamli qo‘lyozma manbaga qaraganda nisbatan to‘liq holda yetib kelgan. Doston kolofonida hijriy 1247 yilda yozilgani ko‘rsatilgan. Uni milodiyga o‘girilsa, doston 1830 yillar oralig‘ida ko‘chirilgani ma’lum bo‘ladi. 779 raqamli 3-hujjatda bo‘lsa, yuqoridagi 778/2 qo‘lyozmasining foto nusxasi saqlanadi. Uning o‘lchami 11.8 x 18 sm.

1198 raqamli qo‘lyozma bayoz. “Bayozi majmuai ash’or” nomi bilan saqlanayotgan O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, asosiy fondda saqlanayotgan ushbu bayozga Fuzuliy, Kiromiy, Ravnaq, Lutfiy, Alisher Navoiy, Andalib, Vali, Roqim, Hofiz, Haqqoniy, Bedil, Hoqoniy, Rog‘ib, Chokar, Komiy, Sayyid, Oraziy, Husayniy, Nishotiy kabi 19 ta shoirning turkiy hamda forsiy g‘azallar, muxammaslar, soqiynoma, “Hikoyati Boyazid Bistomiy”, munozara, musaddas va ruboiylar kiritilgan.

O‘lchami 22.5 x 9. Bayoz 109 varag‘idan iborat. Varaqlarda keyingi matn davomini ko‘rsatadigan poygir aks etmagan. Manba to‘q jigarrang teri bilan muqovalangan. Bayoz tarkibiga kirgan she’rlar qalin sarg‘ish shildiroq fabrika qog‘oziga, qora siyohda, nastaliq xatida, qiya qilib, uch asosiy va uch kichik ustun shaklda ko‘chirilgan. Matn ramka ichiga olingan. Asosiy ustunlardagi matn janrlar tarkibiga qarab turlicha ko‘chirilgan bo‘lsa, kichik ustunlarda bir yoki ikki misrali matn joylashtirilgan, ba’zi ramkalarda matn uchramaydi.

Ushbu bayoz kolofonida asar ko‘chirilgan yili hamda kotibi haqida ma’lumotlar uchramaydi.

Bayozga Nishotiyning jami to‘rtta muxammas hamda “Qushlar munozarasi” masnaviysi kiritilgan. 40[a]-dan 43[b]-gacha bo‘lgan varaqlariga uning muxammaslari, 99[a]-dan 102[b]-gacha bo‘lgan varaqlarga esa “Qushlar munozarasi” masnaviysidan parcha (1-baytdan 24-baytgacha bo‘lgan qismi ko‘chirilmagan) ko‘chirilgan. Bundan tashqari yuqoridagi shoirlarning she’rlari ketma-ket tartibda emas, aralash holatda ko‘chirilgan. She’rlari raqamlangan va sarlavhalangan. Qo‘lyozma bayozning 2[b] dan 3[b] gacha, 5[a]-7[b], 59[a], 61a-62a, 63[a]-67[a], 72[a]-76[a] gacha bo‘lgan varoqlar bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayozning ba’zi varaqlari bizgacha yetib kelguniga qadar uniqib, ayrim joylarini kuya yegan, ayrimlarida kuygandan qolgan teshiklar va dog‘lar mavjud. Bayozning xotima qismi berilmagan, kim tomonidan ko‘chirilgani hamda kotibi haqida ma’lumot uchramaydi. Ehtimol, kotib oxirigacha ko‘chirib ulgurmagandir.

Manbalarni o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, 778/2 raqamli qo‘lyozma nusxa 1998 raqamli nusxaga qaraganda qadimiy va uslub jihatdan tekis. “Qushlar munozarasi”ning boshqa qo‘lyozma manbalari aniqlanmagani bois, tayanch manba qilib Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi Porso Shamsiyev arxivida saqlanayotgan 778/2 raqamli qo‘lyozma manba belgilash maqsadga muvofiq.

Bu manbalar shoir adabiy merosining ilmiy-tanqidiy hamda yig‘ma-chog‘ishtirma matnini tuzishda asos vazifasini o‘taydi. Shuni alohida aytish lozimki, shoir Nishotiy asarlari ko‘chirilgan qo‘lyozmalar faqat tavsiflari keltirilgan manbalardangina iborat emas. Kelgusi izlanishlar davomida Nishotiyning qo‘lyozma va toshbosma manbalarga ko‘chirilgan lirik asarlarini barcha fondlardan aniqlash va shoir she’rlarini ilmiy istifodaga olib kirish galdagi muhim vazifalardan biridir.

Фойдаланиган адабиётлар:

1. Тухарели Д.А. О литературном источниковедении. – // Классическое наследие и современность – Ленинград, Наука, 1981. – С. 85. (85-91.)
2. بیاضی مجمهی عشار. (“Баёзи мажмуаи ашъор”) ЎзР ФА Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий қўлёзмалар фонди № 1198 инв.
3. مناظره مرغان. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи. Порсо Шамсиев архиви № 156 рақамда сақланувчи асосий қўлёзмалар фонди.

PRAGMATIK MAZMUN VA UNI BADIIY TARJIMA MATNLARIDA AKS ETTIRISH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ ПРАГМАТИЧЕСКОГО СОДЕРЖАНИЯ И ЕГО ОТРАЖЕНИЯ В ТЕКСТАХ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

THE PROBLEMS OF PRAGMATIC CONTENT AND ITS REFLECTION IN ITS LITERARY TRANSLATION TEXTS

F.Sharipova- Termiz DU

Annotatsiya: Turfa millatlar madaniyatidagi xilma-xillikni anglanishida va faqatgina o’sha millatga xos axborot almashinuvida tarjimon muhim rol o’ynaydi. Ya’ni madaniyatlararo integratsiyalashuv jarayoniga badiiy tarjima katta yordam beradi. Turli millatlar va tillardagi adabiyotlarga tobora qiziqish ortar ekan, badiiy tarjima sohasi dagi muammolariga bag’ishlangan tadqiqotlar talabi ham kuchaymoqda. Tarjimonlar nafaqat lingvistik va madaniy belgilar tarkib topgan, balki pragmatik belgilarni ham o’zida aks ettirgan matnlar bilan ishlaydi. Aksariyat hollarda tarjima matnlarida pragmatik jihatlarga qaraganda madaniy va lingvistik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Badiiy matndagi pragmatik mazmun va xususiyatlar hisobga olmaslik natijasida tarjima qilinayotgan matnda pragmatik muammolar yuzaga keladi.

Kalit so’zlar: pragmatik mazmun, badiiy tarjima matni, propozitsiya, inferensiya, referensiya, relevantlik.

Аннотация: Переводчик играет важную роль в понимании разнообразия культур разных народов и в обмене информацией, уникальной для этого народа. Иными словами, художественный перевод является большим подспорьем в процессе межкультурной интеграции. По мере роста интереса к литературе разных национальностей и языков растет и спрос на исследования проблем в области художественного перевода. Переводчики работают с текстами, содержащими не только языковые и культурные символы, но и прагматические символы. В большинстве случаев переведенные тексты сосредоточены на культурных и языковых аспектах, а не на прагматических. В результате игнорирования прагматического содержания и особенностей художественного текста в переводном тексте возникают прагматические проблемы.

Ключевые слова: прагматическое содержание, художественный переводной текст, пропозиция, флексия, референция, релевантность.

Annotation: An interpreter plays an important role in understanding the diversity of cultures of different nations and in exchanging information that is unique to that nation. In other words, literary translation is a great help in the process of intercultural integration. As the interest in literature of different nationalities and languages grows, so does the demand for research on the problems in the field of literary translation. Translators work with texts that contain not only linguistic and cultural symbols, but also pragmatic symbols. In most cases, translated texts focus on cultural and linguistic aspects rather than pragmatic ones. As a result of ignoring the pragmatic content and features of the literary text, pragmatic problems arise in the translated text.

Keywords: pragmatic content, literary translation text, proposition, inflection, reference, relevance.

Kirish. V.N. Komissarovning ta’kidlashicha, har qanday til belgisi odatda uch xil munosabatni o’zida mujassam etadi. Ular semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlar bo’lib, birinchisi – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog’lab turadigan va uchinchisi – til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o’rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosobatlardir. Demak, til belgisi semantik, sintaktik va pragmatik ma’nolariga ko’ra farqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. L.S. Barxudarov til belgisi deganda so’zni nazarda tutadi. Biror bir so’zning pragmatik ma’nosini undagi uslubiy xususiyatlar – his-hayajonni ifodalovchi ko’rsatkichlar – konnotativ mazmun tashkil etadi. Demak, badiiy matndagi pragmatik mazmunga matnning uslubiy xususiyatlari, matndagi nutqning maqsadi, uning emotivligi va undagi konnotativ ma’nolar kiradi.

Muloqotning samarali kechishida lisoniy (tilning sistemaviy tuzilishini bildiruvchi), qomusiy (voqelik xususidagi) va interaktiv (o’zaro munosabatni anglatuvchi) bilimlarning ahamiyati kattadir. Muloqot ishtirokchilarining bir-birlarini tushunishi muloqot samaradorligining asosiy talabidir. Umuman olganda, badiiy matnning pragmatik mazmuni deganda badiiy matnda aks etgan muloqot jarayonida axborot almashinuv vositalarining uyg’unligi nazarda tutiladi. Axborot almashinuvi va muloqot qilish singari vazifalar matn mazmunida uyg’unlashadi.

Mazmuniy jihatdan matn denotativ va signifikativ qatlamlarga ajraladi. Matnning denotativ xususiyatlari badiiy matnda aks ettirilgan voqea va hodisalarning o’zaro munosabatlarida namoyon bo’ladi. S. Boymirzayevaning ta’kidlashicha, matn denotati tasvirlanayotgan voqelikdir, shuning uchun ham uning mazmuni ko’p jihatdan bayon qilinayotgan voqealar, hodisalar o’rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi.

Matn mazmunnidagi signifikativ qatlami shakllanishida nutqiy tafakkur ahamiyatli hisoblanadi. Nutqiy tafakkur faoliyatining amalga oshishida qator

faktorlar, xususan, muloqot maqsadi va muloqot ishtirokchilarining bilim darajasi kabilar muhim rol o’ynaydi.

Makarov matn mazmunining denotativ va signifikativ qatlamlari bilan bir qatorda propozitsiya, referensiya, relevantlik va inferensiya kabilarni ham sanab o’tadi.

Propozitsiya va referensiya matn mazmunining denotative qismida tarkib topadi. Axborot yetkazish xususiyatini o’zida mujassam etgan propozitsiya hodisasi muloqot matnida faollashib kommunikativ belgilarni namoyon qiladi va pragmatik mazmunni hosil qiladi. Shuningdek, modallik va zamon-aspekt indekatorlari matn mazmunidagi kommunikativ maqsadni yanada aniqlashtiradi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, propozotsiya singari referensiya hodisasi ham denotativ semantikaga oid hodisa bo’lib, til birliklarining borliqdagi obyektlar bilan munosabati va bog’liqligini bildiradi. Shu o’rinda ta’kkidlash kerakki, “lisoniy nomni voqelik bilan bog’lashda so’zlovchining (yoki lisondan foydalanuvchi shaxsning) maqsadi lisoniy faoliyat niyati muhim o’rin egallaydi”.

Relevantlik hodisasi esa kommunikativ muloqot matnining kognitiv xususiyatlarini namoyon etadi. Bu hodisa nutqiy harakat mazmunining matndan avval sodir bo’lgan harakatlar mazmuniga mutanosibligini talab etadi. Chunki adresantga yetkazilayotgan axborot kommunikativ muloqot muhiti va matn mazmuniga mos kelsagina, u oson va yengil tushuniladi.

Mantiqiy yoki semantik jihatlar asosida muloqot matnidan olinadigan ehtimoliy yoki anglangan xulosalarga erishish inferensiya hodisasi deyiladi. Inferensiya deduktiv va induktiv singari ikki turga ajratiladi.

Deduktiv inferensiya (erishilgan xulosa)	Induktiv inferensiya (ehtimoliy xulosa)
Darvozani ko’p taqillatdim, hech kim chiqmadi (Darvozani hech kim ochmadi, uyda hech kim yo’q.)	Olim bankka ketdi (olim bankda ishlaydi.)

Muhokama va takliflar. Matnning pragmatik mazmuni shakllanishida mazkur hodisalarning ahamiyati turlicha, ammo, umuman olganda, ularning barchasi nutqiy muloqotning samaradorligini ta’minlaydi. Shu narsani unutmaslik kerakki, Matndagi pragmatic mohiyatni shakllantiruvchi vosita va hodisalar soni anchayin salmoqli bo’lib, tadqiqotimiz davomida ularga batafsil to’xtalib o’tamiz. Quyida esa badiiy tarjima matnlarida pragmagmatik mazmunni aks ettirish xususida so’z yuritamiz.

Asliyat matnidagi aniqlik darajasini tarjima tilida aks ettira olish badiiy tarjimaga qo’yilgan pragmatik talabning asosi hisoblanadi. Badiiy tarjimadagi pragmatic talab ikki tildagi uslubiy birliklarning ekvivalentini mohirona tanlash orqali qondiriladi.

So’nggi yillarda ko’plab tadqiqotchilarning e’tiborini o’ziga qaratayotgan lisoniy muloqotning pragmatik jihatlari nutq subyektlarining olam haqidagi qo’shimcha bilimlari bilan o’zaro bog’liqdir. Aksariyat hollarda asliyat matnida aks etgan ekstralingvistik omillarning tarjima tilida ifodalashda tafovutlar yuzaga keladi. Bunday vaziyatda tarjimon faqat lingvistik bilim bilan cheklanib qolmasdan, tarjima qilinayotgan asar tiliga oid madaniyat va urf-odatlaridan ham xabardor bo’lishi kerak.

“Tarjima, avvalo, mazmun undan keyin uslub jihatidan asliyat tilidagi axborotning tarjima tilidagi eng yaqin tabiiy ekvivalentini qayta yaratishdan iborat jarayondir ”, deb ta’kidlaydi E.nayda va S. Taber.

Tarjimadagi ekvivalentlikning asosiy tarkibiy unsurlaridan biri pragmatik omillardir. Ularning tarjimada qayta aks ettirilishi bilan tarjimaning asliyatga nisbatan kommunikativ jihatdan to’liq mosligiga erishiladi. Buning natijasida badiiy tarjimada muqobil ulubiy xususiyat namoyon bo’ladi va bunday tarjima asarni o’qigan kitobxon asar

mutolaasidan xuddi asliyat matnini o’qigandek taassurot oladi.

Xullas, tarjimada pragmatik salohiyatning qanchalik to‘g‘ri aks ettirilganligi badiiy asarning kitobxonga ta’sir kuchi, uning badiiy qimmati, o‘ziga ko‘plab kitobxonlarni jalb qila olishi bilan belgilanadi, ya’ni asarning badiiy tarjimasidagi pragmatic salohiyat va adekvatlik asar o’quvchilarining asliyatdagidek axborotni qabul qilishi bilan ifodalanadi.

Sh.Safarovning fikricha, pragmatika keng miqyosda anglanmog’i kerak. Olim shuni ta’kidlaydiki, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan “hamkor”ga ta’sir o’tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo’ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bilamizki, maktublar yozma nutq ko’rinishidagi muloqot bo’lib, ularda aks etgan mazmunni tarjima matnida ifodalash tarjima matnlaridagi pragmatik salohiyatni belgilaydi.

Badiiy tarjimaning pragmatik xususiyatlari to’g’risida so’z yuritar ekanmiz, bunda badiiy tarjima matnlarida quyidagi pragmalingvistikaning xususiy masalalari hal qilinishi lozim bo’ladi:

Asliyat matnida aks etgan nutq subyektlarining kommunikativ niyati va uning yashirin yoki oshkora shakllari tarjima matnida qayta ifodalanishi kerak. Chunki nutqning yashirin yoki oshkora ifoda shakllari o’z-o’zidan kommunikativ strategiya shakllanishida muhim rol o’ynaydi;

Pragmalingvistikaning asosiy masalalaridan biri bo’lmish kommunikativ maqsadni ifodalash strategiyasi nutq egasining ichki maqsadini turli yo’llar bilan bayon qilish usulidir. Badiiy tarjimada ushbu strategiyani aniq ko’rsata olish tarjima matnaridagi pragmatik mazmunni ifodalash uchun qo’yilgan katta qadam bo’ladi;

Pragmalingvistikaga oid xususiy masalalardan yana biri – tagma’no tushunchasi hisoblanadi. Badiiy tarjimada mazkur tushunchaning implikatura yohud presuppozitsiya hodisalaridan farqli, o’z xususiyatlariga ko’ra qayta ifodalash tarjimada pragmatik mahoratni aks ettirishning dolzarb masalalaridan biridir;

Nutq subyektlarining obyektiv olamni his qilishi, u haqidagi bilimlari ma’lumotni yetkazish va qabul qilishda ahamiyatli hisoblanadi;

Kontekstda namoyon bo’lgan pragmatik hodisa va vaziyatlar, nutq ishtirokchilarining ataylab muloqot qoidalarini chetlab o’tishi, shuningdek, perlokutiv aktning tinglovchiga ta’sir o’tkazishi kabi unsurlarning tarjima matniga o’tkazilishi;

Dialog, suhbat, bahs, munozara kabi muloqotdagi nutqiy aralashuv shakllari, ulardagi ijtimoiy-etiket vositalari, kommunikantlarning bir-biriga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi nutqiy akt ko’rinishlarini asliyatga monand tarjima tiliga o’tkazilishi;

Muloqot jarayoni bilan bog’liq holda deyktik vositalarni badiiy tajimada aks ettirish kabilar badiiy tarjima matnlarida ifodalanishi lozim bo’lgan masalalar hisoblanadi.

Pragmatikaning tarjimaga bog‘liqligi to‘laqonli va mukammal tarjima yaratishga harakat qilishda o’z aksini topadi. Ba’zan ikki tildagi ekstralinglistik vositalarga yuklangan axborotbir-biriga zid kelishi mumkin, chunki tarjima ko’rinishidagi asarni mutolaa qilayotgan kitobxon va asliyat tilidagi so‘zlashuvchilarning “bilim jihatidan kelib chiqishi” (background knowledge)ning o’zaro farqlanishi tabiiy holat bo’lishi mumkin. “Natijada esa asliyat tilida so‘zlashuvchi kishilarga tushunarli bo‘lgan tushuncha tarjima tilida so‘zlashuvchi kishilarga tushunarsizroq yoki aksincha umuman tushunarsiz bo‘lishi mumkin.” Garchi badiiy tarjima matni asliyat matniga monand bo‘lsa-da, tarjima - asarni o’qiyotgan o’quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lsa, bunday tarjima ko’zlangan maqsadga yeta olmaydi. Shu sababli ham pragmatik omilni inobatga olgan holda ish yuritish asliymonand tarjima ishiga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shuni e’tibordan qochirmaslik kerakki, tarjima jarayonida hamma materiallar ham ayni darajadagi pragmatik xususiyatlarni hisobga olishni talab qilmaydi.

Tarjima asarning badiiy kuchi, qiymati, uning kitobxonga ta’siri, o’ziga katta sonli kitobxonlarni jalb qila olishi bilan pragmatik salohiyatning naqadar mahorat bilan aks ettrilganligi baholanadi. Tarjima jarayonida badiiy tarjima matnni o’qiyotgan o‘quvchi undagi badiiy-estetik zavqni asliyat tilidagidek his qilishi lozim. Bu kabi badiiy matn tarjimasiga oid pragmatik vazifa badiiy tarjima tilida o’quvchida xuddi muallif tasvirlaganidek badiiy-estetik ta’sir uyg‘ota olishdan iboratdir. Tarjimadagi konnotatsiya muammolarining hal qilinishi tarjimada pragmatik aspektlarga e’tibor qaratishni taqozo qiladi.

Umuman olganda, tarjimada pragmatik salohiyatning aks ettirilishi eng muhim jihatlardan biridir. Eng avvalo, tarjimon kerakli o‘rinlarda tegishli leksik-sintaktik birliklarni qo‘llay olishi lozim. Tarjima jarayoni boshlanar ekan, tarjimon asliyat matnining dastlabki retseptori (qabul qiluvchi) vazifasini bajaradi. Albatta, tarjimon asarning o’zga tildagi taqdiri va muvaffaqiyati unga bog’liq ekanligini his qilishi va matnda tasbirlangan ma’lumotlarni batafsil anglashga harakat qilishi kerak. Avvalo, asliyat tiliga tegishli bo’lgan madaniyat, hayot tarsi, urf-odatlar va o’sha xalqning tarixi tarjimon tomonidan iloji boricha to’liqroq o’rganilishi kerak.

Badiiy tarjima matnda aks etgan pragmatic va kommunikativ ta’sir kitobxonlarning saviyasiga ko’ra har xil ta’sir qilishi bilan baholanadi. Tarjima orqali yetkazilayotgan axborotga nisbatan o’quvchining pragmatik munosabati faqatgina matn bilan bog’liq bo’lib qolmay, balki kitobxonning shaxsiyatiga, o’tmishiga, ruhiy holatiga, borliq haqidagi bilimlariga va albatta, hayotiy tajribalariga bog‘liq bo’ladi. Demak, asliyat va tarjima matnlarining o’zaro bir-biriga mutanosib pragmatik munosabatni o‘rnata olish tarjimonning qaysi o’rinda qanaqa til vositalaridan foydalanishiga bog‘liq.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjimada pragmatik uyg‘unlikka erishish uchun tarjimondan asliyat matnida ifodalangan har bir holat va narsani yaxshi bilishni, ya’ni chuqur ekstralingvistik bilimga ega bo‘lish talab qilinadi, zero, ekstralingvistik faktorlarni hisobga olish asliymonand tarjimaga erishish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. М., «Международные отношения».1980.стр.101.
2. Bassnett S. Translation studies3rd edition. – London and New York. Taylor & Francis e-Library, 2005. – 176 p.
3. Boymirzayeva S. O’zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. Filol. fan....dok(DSc) diss.avtoref. – Toshkent: 2010. – 12-bet
4. Bozorov Z. M. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo’yoqdorlikni saqlash muammolari. Filol.fan.nomz. …diss. – Samarqand. 2020. – 86-93 b.
5. Макаров М. Л. Основы теории дискурсаю М: Гнозис, 2003. – С. 119-137.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. – Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation.United Bible Society. 1969. –23p.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 58, 119 b.
9. Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. – Amsterdam/ Philadeliphia: John Benjamins Publishing Company, 1988/1995. – 206 p.

САРЛАВҲАЛАРНИНГ СЕМАНТИК-УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЗАГЛАВИЙ

SEMANTIC AND STYLISTIC PROPERTIES OF TITLES

Ш.Искандарова-ф.ф.д., профессор, Фарғона ДУ,
У.Ёқуббоева- таянч докторант, Наманган ДУ

Аннотация. Ушбу мақолада сарлавҳа, унинг ўрганилиши, грамматик ва семантик структураси таҳлили, пешлавҳанинг сарлавҳадан фарқли томонлари, хабар жанрида сарлавҳа қўллаш усулларининг ўзига хос хусусиятлари борасида фикр юритилган.

Калит сўзлар. Сарлавҳа, таг сарлавҳа, информативлик, пешлавҳа, лексема, морфология, семантика, услубият, номинатив бирлик, дубликат, прагматика, редукция.

Аннотация. В данной статье рассматривается заглавие, его исследование, анализ грамматической и семантической структуры, отличительные стороны заголовка от вывески, характерные особенности использования заглавия в повествовательном жанре.

Ключевые слова. Заглавие, подзаголовок, информативность, вывеска, лексема, морфология, семантика, стилистика, номинативная единица, дубликат, прагматика, редукция.

Annotation: This article discusses the title, its study, analysis of grammatical and semantic structure, the differences between the title and the title, the peculiarities of the methods of using the title in the news genre.

Key words: Title, tag title, informative, preposition, lexeme, morphology, semantics, methodology, nominative unit, duplicate, pragmatics, reduction.

Ҳар қандай публицистик матннинг аҳамиятлилик даражасини белгилаб берувчи асосий унсурлардан бири сарлавҳадир. Бу сўзни *ном* лексемасига таққосласа ҳам бўлади, Бироқ сарлавҳа шунчаки ном эмас, балки матннинг асосий ғоясини ўзига сингдира олган ифода, ўқувчи ва томошабин эътиборини ахборотга жалб этувчи реклама воситадир. Сарлавҳа изоҳи борасида турли хил фикрлар мавжуд. Хусусан, “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да форсий ва арабий морфологик бирликларнинг уйғунлигига эга бу сўзга қуйидагича таъриф берилган: лавҳа, безак; титул варағи, эпиграф; китоб, асар, мақола ва ш.к нинг айрим қисмлари номини ифодаловчи сўз ёки жумла[9.451].

А.Абдураҳманов бу сўзни мақола ва материалнинг ички мазмунидан келиб чиқиб, унга қўйиладиган ном дея изоҳлаган[5.30]. А.Абдусаидовнинг “Газета жанрларининг тил хусусиятлари” номли докторлик диссертациясида газета жанрларининг хусусиятларини ёритиш билан бирга, рукн ва сарлавҳаларнинг ўзига хос томонлари ҳақида ҳам фикр юритилган. Х.Дўстмуҳаммад эса сарлавҳани қуйидагича таърифлаган: “Сарлавҳа мақоланинг ярим мазмун-моҳиятини ўтайди”[4]. Шунингдек, И.Тошалиев, Н.Жуманазаров, Н.Абдусаматов, М.Парпихўжаев, А.Бобоева, А.Шомақсудов, П.Рустамов, Б.Йўлдошев, Б.Мирзаев каби тилшунос олимларнинг ишларида ҳам сарлавҳалар борасида айрим фикрлар берилади.

И.В.Арнольд сарлавҳаларни изоҳлаш асносида уларни беш гуруҳга бўлган: 1. Информатив сарлавҳалар. Бу каби сарлавҳалар мақола мазмунини қисқача акс эттиради. Уларга хос бўлган хусусият ҳам қисқаликдир. 2. Ўқувчига маълум бўлган воқеа ҳодисага асосланган сарлавҳалар. 3. Қофияланган сарлавҳалар. Бу каби сарлавҳалар

одатда ташвиқотчиликка оид мақолаларга берилиб, улар ўзининг аниқ қофиясига эга бўлиб, осон ва тез эсда қолади. 4. Эмоционал баҳоловчи сарлавҳалар. Бундай сарлавҳалар мавзуни ёритмайди, балки ўқувчини маълум бир йўналишга бошлайди, ёритилаётган воқеага нисбатан конкрет муносабатни шакллантиришга хизмат қилади. 5. Шов-шувли сарлавҳа. Бу турдаги сарлавҳаларнинг қурилиш структураси қисқа ва лўнда бўлади. Услубий хусусияти юқори бўлган бундай сарлавҳалар ўқувчи, тингловчи ва томошабин аудиторияси эътиборини тезда хабар матнига жалб эта олади.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да бир ўринда сарлавҳа ҳамда пешлавҳа сўзлари изоҳлаб кетилган. Сарлавҳа борасидаги тадқиқотларда у билан бир синонимик қаторда ётувчи пешлавҳа атамасига қиёслаб ўтилган ўринларни учратмадик. Сарлавҳа ва пешлавҳа сўзлари дубликат бирликлар бўлиб, бир-биридан семантик даражаланишга кўра кескин бўлмаган фарққа эга. Чунки информатив публицистика доирасида ҳеч қандай прагматик хусусиятга эга бўлмаган, тўлиқ, содда ва кенгайган содда гаплардан фойдаланилмоқда.

Пешлавҳа ОАВнинг бир бўлаги бўлиб, асосан иншоотлар, яъни маълум бир объект ёки муассаса учун танланадиган номдир. Сарлавҳа ёзма нашрлар учун хос восита эканлиги билан ҳам пешлавҳадан ажралиб туради. Ўқувчи сарлавҳа билан танишган ондаёқ матннинг мазмуни ҳақида дастлабки хулосага эга бўлади, пешлавҳада эса бундай имконият камроқ. Пешлавҳа ўзи тегишли бўлган муассаса ҳақида сарлавҳа каби мукаммал фикр бермайди. Пешлавҳа матнлари жуда қисқа тузилиб, сўроқ гап, халқ мақоллари ва фразеологизмлардан фойдаланилмайди. Асосан объект фаолияти ҳақида бирламчи тушунчагина уйғотувчи сўз бирикмаларидан фойдаланилади: *“Гўзаллик салони”, “Миллий таомлар”, “Эркаклар сартарошхонаси”, “Зиё китоблари”, “Лола тортлари”* каби. Бироқ ўз хусусиятидан буткул йироқлашган айрим пешлавҳалар ҳам жамиятимиз ҳаётида етарлича учрамоқда. Масалан, овқатланиш шаҳобчаларига танланган пешлавҳаларга *“Ҳайкал”, “Замин”* кабиларни мисол қилиш мумкин. Айрим ҳолларда фақатгина атоқли отнинг ўзигина пешлавҳа учун танланади. Атоқли от йирик ҳарфларда берилиб, худди таг сарлавҳаларнинг структураси каби от остидаги изоҳ шаклида жумлалар келтирилади ва улар сўз бирикмаси шаклида бўлади: *“ЛАЙЛО аёллар кийимлари”, “ОЙДИН гўзаллик салони”* каби. Матбуот саҳифаларида ахборий жанрлар доирасида сарлавҳа учун фақат атоқли отларнинг ўзидан фойдаланиш ўринлари учрамайди. Чунки атоқли отни сарлавҳа сифатида қўллаш маълум бир экспрессив-услубий маънони назарда тутади. Машҳур кишиларнинг номидан фойдаланиш эса кўзланган мақсадга янада яқинлаштиради. Айрим ҳолларда атоқли отларни қўллашда шахс шаънига нисбатан сезмаган ҳолда тескари маъно чиқариб қолиши ҳам мумкин[3.16].

Информатив жанрларнинг баённчилик услуби таҳлилий ва бадиий публицистик услубларга нисбатан содда “қуруқ” бўлганлиги сабабли, уларга танланган сарлавҳалар ҳам бу хусусиятдан йироқлашолмайди. Сарлавҳаларнинг синтактик тузилиши ва семантик хусусиятидан келиб чиқиб, уларни турли хил таснифлаш мумкин. Хусусан, А.Абдусаидов сарлавҳаларни чақирувчанлик, ташкилотчилик, сафарбарлик, мурожаат этиш каби турларга бўлган [3.7].

Юқоридаги таснифларни давом эттирган ҳолда, биз ҳам сарлавҳаларни *хабар берувчи, ишонтирувчи, даъват этувчи, изоҳ берувчи, мурожаат қилувчи, реклама қилувчи* каби турларга бўлдик. Буларнинг ҳар бири семантик-услубий ва грамматик жиҳатдан бир-биридан фарқланади. Биз фикр юритмоқчи бўлган ахборий жанрлар доирасида эса асосан информатив сарлавҳа(ном)лар жуда кўп қўлланади.

Бугунги замон шароитида айрим расмий интернет сайтлари, телеграмм

каналларида прагматик ва услубий хусусиятга эга, сарлавҳа контекстига қўшимча ахборот юклаган синтактик бирликлар ҳам учрамоқда. Чунки бундай усул одатда зерикарли туюладиган ахборот матнларини ўқиш эҳтиёжини уйғотади. Масалан, **Кун.уз** расмий телеграмм каналидаги хабар сарлавҳаларини қуйидаги шаклда учратиш мумкин: *“Киев остонасида турган рицар ва олов ичидаги ўт ўчирувчилар”, “Тошкент шаҳрида март ойидаги ёғингарчилик тарихий рекордни янгилаши мумкин”* ва ҳ.к. Ушбу сарлавҳалар тўлиқ содда гап (барча бўлаклари сақланган), предикат тушириб қолдирилган шаклда (1-сарлавҳа) қўлланган бўлиб, кесимлик белгиси мавжуд бўлмаган гапда аниқ ифода бўлмайди. Натижада ўқувчида турли хилдаги қўшимча фикрлар шаклланади. Аниқ маълумотни билишга интилган газетхон ёки интернет фойдаланувчиси матн билан танишиш эҳтиёжига эга бўлади.

Сарлавҳаларда тўғри танланган тил бирликлари дастлабки маълумотни бериш билан бирга, қўшимча экспрессивлик кучига ҳам эга бўлади. Масалан, *рекорд* сўзи энг юқори натижа, энг катта муваффақият деган маънони англатади[13]. Бу сўз ўқувчига эмоция бера олади ва қизиқиш уйғотади. Шу билан бир қаторда, интернет сайтлари (телеграммнинг турли каналлари) даги хабар, интервью ва репортаж сарлавҳаларида нолисоний воситалардан фойдаланиш ҳолатлари ҳам мавжуд. Улар турли хил белгилар, матн мазмунига доир расмлар шаклида бўлиб, матн мазмунидан келиб чиқиб қўйилади.

Сарлавҳалар қандай матнга ва нима мақсадда қўйилишидан қатъи назар, ҳажман ихчам, маълум бир фикрни бера оладиган бўлиши лозим деган фикрлар ҳозирда тўлиқ ўзини оқламаётгандек. Чунки “Янги Ўзбекистон” ва “Халқ сўзи” газеталарида синтактик жиҳатдан иерархик табиатга эга ёйиқ ва мураккаблашган гаплардан сарлавҳа вазифасида фойдаланилмоқда. Масалан, *“Венгрия бош вазирининг Ўзбекистонга ташрифи ўзаро муносабатларнинг янги босқичидан далолат беради”, “Ўзбекистоннинг туркий кенгашдаги фаолияти минтақадаги ва минтақалараро ҳамкорликни мустаҳкамлашга қаратилган”* Биринчи сарлавҳада гапнинг бўлаклари (босқичидан – тўлдирувчи; далолат беради – предикат; Ўзбекистонга ташрифи – эга; янги, ўзаро, муносабатларнинг, Венгрия бош вазирининг – бўлакнинг бўлаги [10.35,38]) тўлиқ қўлланганлиги учун ёйиқ содда гапдир. Иккинчи сарлавҳа таркибида уюшиқ бўлаклар(минтақадаги ва миллатлараро) мавжудлиги учун ушбу сарлавҳа ички синтактик тузилишига кўра мураккаблашган содда гап саналади.

Мавҳум отларнинг туб ва ясама вариантлари публицистиканинг турли жанрларида кенг қўлланиб келинмоқда. Эмоционаллик ва структуравий жиҳатдан ихчамликка эга бўлган бундай сўзларни якка ёки уюшиқ ҳолда қўлланиши ўқувчи эътиборини тортувчи муҳим восита вазифасини бажаради. Хабар намуналарида эса айрим ўринлардагина кўтаринки руҳ бериш мақсадида мавҳум отлардан фойдаланилган ҳолатларни учратиш мумкин: *“Инсонпарварликнинг юксак намунаси”, “Дўстлик ва ҳамкорлик ришталари янада мустаҳкамланмоқда”*. Ушбу сарлавҳа остидаги расмий хабар Ўзбекистон ва Тожикистон алоқаларига бағишланган бўлиб, ЎзА махсус мухбири томонидан берилган.

Сарлавҳанинг асосий вазифаларидан бири номинатив фукнцияга эгалигидир. Чунки ҳар қандай сарлавҳа аввало матнни номлайди. Бугунги ахборот матнларида қўлланаётган сарлавҳаларнинг ҳар бири интегратив фукнцияга ҳам эга. Бу вазифа сарлавҳада ифодаланган фикрни матн таркибида давомийлигини таъминланишидир. Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, хабар жанрига доир манбаларда бутун матнда бериладиган маълумотнинг туб мағзини ифодалаган жумла сарлавҳа мақомига кўтарилади: *“Экологик тоза маҳсулот тайёрланади”,*

“Пойафзал корхонаси ишга тушди”, “Қўшма факультет ташкил этилди”, “Ўзбекистон Республикаси Президенти АҚШ делегациясини қабул қилди”, “Темир йўллар раҳбарлари Тошкентда учрашди” каби. Айрим хабарларда мурожаат шаклидаги сарлавҳалар қўлланиб, улар “Долзарб” рукни остида берилганлиги сабабли танланган сарлавҳа ҳам шунга мос бўлишни тақозо этади. Масалан, *“Нарх-наво барқарорлигига қандай эришилади?”, “Ватанимиз равнақи йўлида барчамиз бирдек масъулмиз”, “Депутатлар вазирнинг жавобини қандай баҳолашди?”* каби. Бундай хабарларга танланган сарлавҳаларнинг айримлари сўроқ гап шаклида берилиб, матннинг ифода плани сарлавҳани мантиқий давом эттиргандек бўлади.

Айрим сарлавҳаларда асосий фикр катта ҳарфларда берилиб, изоҳ тарзида сарлавҳа давоми сифатида қўшимча жумлалар ҳам берилади. Масалан, *“СЕНАТ ТАШАББУСИГА КЎРА ЎТКАЗИЛГАН КЎРИК ТАНЛОВЛАР гендер тенглик, хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг истеъдодини тўла рўёбга чиқариш борасидаги саъй-ҳаракатларимизни янги босқичга кўтаришга хизмат қилади”, “ҚАШҚАДАРЁДА ГЛОБАЛ МИҚЁСДАГИ НОЁБ ЗАВОД ИШГА ТУШИРИЛДИ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 25 декабр куни Қашқадарё вилоятидаги “Ўзбекистон ГТЛ” заводига ташриф буюрди”*. Таг сарлавҳалар билан берилган асосий сарлавҳалар структураси семантик жиҳатдан турли хил шаклга эга: Бўлаклари тўлиқ қўлланган содда гапнинг ҳар қандай тури: *“ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОЗОҒИСТОН ПРЕЗИДЕНТЛАРИНИНГ ТЕЛЕФОН ОРҚАЛИ МУЛОҚОТИ БЎЛИБ ЎТДИ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 16-март куни Қозоғистон Республикаси Президенти Қосим-Жомарт Тоқайев билан телефон орқали мулоқот қилди”*. Хабар майлининг ўтган замон шаклида тузилган бош сарлавҳаларда, одатда, услубий бўёқ мавжуд бўлмайди. Айрим ўринларда бош сарлавҳаларда ҳеч қандай услубий-еэспрессив воситалар қўлланмаса-да, хабарнинг келаси замон шаклида беришилиши хабар матнига тантанавор руҳ беради: *“ТОШКЕНТ ХАЛҚАРО ИНВЕСТИЦИЯ ФОРУМИ ИСТИҚБОЛЛИ ЛОЙИҲАЛАРНИНГ ТАҚДИМОТ МАЙДОНИ БЎЛАДИ”*. Бўлиб ўтган воқеани келаси замонда ифодалаш келажакка ишонч маъносини юклаш билан бирга, оддий баён шаклида бериладиган хабарга қизиқишни уйғотади. Таг сарлавҳада юқоридаги ифода оддий хабар майлига ўзгариб, ифода жўнлашади ва фикр янада ойдинлашади: *“Президент Шавкат Мирзиёев 10 март куни Тошкент халқаро инвестиция форумига тайёргарлик масалалари юзасидан йиғилиш ўтказди”*. Бугунги кунда таг сарлавҳаларни ҳар бир газета нашрида учратишингиз мумкин. Таг сарлавҳа матнлари тематик хусусиятга эга бўлиб, бош сарлавҳага нисбатан семантик жиҳатдан тўлиқ шаклда бўлади ва матн мазмуни ҳақида аниқ маълумот бера олади.

Сарлавҳалар қурилиш структурасига кўра сўз ва гап сарлавҳаларга ажратилади. Хабар жанрига мансуб матнларда одатда содда гап ва кенгайган содда гап шаклидаги синтактик бирликлар қўлланади. Улар бир-биридан грамматик, семантик-услубий жиҳатдан фарқланса-да, бетакрор ифода имкониятлари ва газета фукнциясини ўзида акс эттира олиши уларнинг сарлавҳа сифатида қўлланишига сабаб бўлади[6.120]. “Янги Ўзбекистон”, “Халқ сўзи”, “Ишонч” каби газеталарда ва интернет сайтларидаги информатив жанр намуналарида сўз сарлавҳаларни учратмадик. Чунки от(атоқли ва турдош от), сифат сўз туркумлари ва сўз бирикмаси билан ифодаланган сарлавҳаларни хабар жанрида учратмаймиз. Сўз сарлавҳалар экспрессивликка эга бўлиб, дастлабки хулосани бера олмайди.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар қандай матн, хусусан, хабар матнлари учун танланган сарлавҳалар катта аҳамият касб этиб, матннинг қизиқарлилигини

белгилаб бериш имконига эга. Тўғри танланган ва синтактик жиҳатдан матн мазмунига мос шакллантирилган сарлавҳалар нафақат муаллиф маҳорати, балки тилнинг ички имкониятларини ҳам кўрсатиб беради. Ихчам ва аниқ баён этилган сарлавҳалар матнда берилаётган маълумотни тез англаб олишга имкон беради. Сарлавҳалардаги номинативлик оттенкаси эса сарлавҳа услубининг асосий унсурларидин хисобланади. Демак, муаллиф тил бирликларидан ўринли фойдаланган ҳолда сарлавҳа қўйиш маҳоратига эга бўлиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев М.М. Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатасига мурожаат. Тошкент, 2017 йил, 22 декабрь

2. Мирзиёев М.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017.

3. Дўстмуҳаммад Х. Журналист бўлмоқчимисиз? – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.

5. Абдураҳмонов А. Газета журналистикаси терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

6. Абдусаидов А. Газета сарлавҳаси (Газета сарлавҳаларининг структур-грамматик ва лексик-услубий хусусиятлари). – Самарқанд: СамДУ нашри, 1995.

7. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Дис. автореф. – Самарқанд, 2005.

8. Абдусаидов А. Туркий изофали конструкцияли газета сарлавҳалари. // Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1984.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти , 2008.

10. Нурмонов А. Гап ва унинг бўлаклари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 2. – Б. 35-38.

11. Iskandarova S. M. Gnoseology and the Linguistic Landscape of the World //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 8. – С. 19-22.

12. Ganieva S. A. Syntagmatics of Phraseologisms and their Time Valency //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 8. – С. 232-236.

ЎЗБЕК ҲИКМАТЛАРИНИНГ ЛИСОНИЙ ТАҲЛИЛИГА ДОИР

О ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ УЗБЕКСКИХ АФОРИЗМОВ

ON LINGUISTIC ANALYSIS OF UZBEK APHORISMS

Ш.А.Ганиева – доцент, Фарғона ДУ

Аннотация: Мақолада ўзбек ҳикматлари, уларнинг эркин ва турғун бирикмаларга муносабати ҳақида сўз юритилади ҳамда а.навоий ҳикматлари таҳлил этилади.

Калит сўзлар: синтактик қурилма, сўз бирикмаси, эркин бирикма, турғун бирикма, парема, мақол, матал, афоризм, ҳикматлар.

Аннотация: В статье рассматриваются узбекские афоризмы, их отношения к свободным и устойчивым выражениям, а также анализируются афоризмы а.навои.

Ключевые слова: синтаксическая конструкция, словосочетание, свободное выражение, устойчивое выражение, парема, пословица, поговорка, афоризм.

Annotation: the article discusses uzbek aphorisms, their relationship with free and set expressions, and also analyzes the aphorisms of a. navoi.

Key words: syntactic construction, phrase, free expression, set expression, paremia, proverb, saying, aphorism.

Икки ёки ундан ортиқ мустақил сўзларнинг тобе грамматик муносабатидан ҳосил бўлган синтактик қурилма сўз бирикмаси ҳисобланиши деярли барча синтаксисга доир адабиётларда таъкидланади. Сўз бирикмалари ҳоким сўзнинг воқеланишини тўлдириш асосида нутқий жараёнда ҳосил қилинади. Лекин айрим бирикмалар борки, улар барқарорлашиб, таркибий қисмлари яхлитланиб қолади ва бу яхлитланган бирлик нутққа тайёр ҳолда олиб кирилади. Шунга кўра, бирикмалар эркин ва турғун бирикмаларга бўлинади.

Таркибидаги мустақил сўзлар ўз лексик маъносини ва синтактик алоқасини сақлаган ва ҳар бир сўзловчи томонидан нутқ жараёнида муайян бир тилнинг синтактик қолиплари асосида янгитдан яратилган бирликлар эркин бирикма, таркибидаги сўзларнинг боғланиши яхлитланган ва нутққа сўзловчи томонидан тайёр ҳолда олиб кирилувчи бирикмалар турғун бирикмалар ҳисобланади.

Турғун бирикмалар шу кунга қадар турли муаллифлар томонидан турлича номланиб келинмоқда. Жумладан, “Лингвистик энциклопедик луғат”да бундай бирикмаларнинг барчаси “фразеологизм” атамаси остида ифодалангани ҳолда, идиомалар, мақол ва маталлар; қанотли сўзлар, афоризмлар; Ишлар қандай? Кайфиятлар яхшими? сингари штамплар унинг таркибига киритилади. Фразеологизмнинг муҳим ва универсал белгиси сифатида “мазмуний транспозиция”, “турғунлик” ва “тайёрлик” белгилари эътироф этилади[2,559].

Фразеологизмларни бундай тушуниш тарафдорлари барча турғун бирикмалар учун парема атамасини ҳам тавсия этадилар. Бундай вақтда парема барча турғун бирикмаларни ўз ичига олади. Фразеологизм паремаларнинг бир тури сифатида талқин қилинади. Хусусан, Ҳ.Бердиёров ва Р.Расуловлар паремаларни ўрганувчи паремиология ва фразеологизмларни ўрганувчи фразеологияни бир-биридан фарқлаган ҳолда, паремиология фразеология билан узвий боғлиқ эканини, “паремиология тилда турли характердаги барча фразеологизмларни ўрганса, фразеология унинг бир қисми сифатида фақат кўчма маъноли турғун бирикмаларни ўрганиши”ни таъкидлайдилар[1,10].

Айрим муаллифлар эса мақол, матал ва афоризмлар бир ҳодисанинг турли номлари эканлигини таъкидлаган ҳолда, уларнинг алоҳида бирликлар эканлигини инкор қиладилар. Масалан, академик Ш.Шоабдураҳмоновнинг “Ўзбек халқ мақоллари” китобига ёзган сўзбошисида қуйидагиларни ўқиймиз: “Мақоллар матал, масал, ҳикмат, ҳикматли сўз, оталар сўзи, зарбулмасал каби бир қанча шаклларда учраса ҳам, ҳозирги ўзбек тилида мақол шаклида мустаҳкамланган”[4,5].

Тил халқларнинг хазинаси экан, шу тил таркибидаги турғун бирикмалар; мақол, матал, ибора ва топишмоқларни [8;9] ана шу хазинадаги узоқ сайқалланган, жило берилган дуру гавҳар дейиш мумкин.

Турғун бирикмалар (паремалар) парадигмасида афоризмлар алоҳида ўрин тутади. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да афоризмларга “Ихчам шаклли, чуқур мазмунли, муаллифи аниқ гап; ҳикматли сўзлар”[5,118] деган таъриф берилади. Ўзбек филологиясига оид қатор адабиётларда ҳам афоризмларнинг муаллифи маълум эканлиги бошқа паремалардан асосий фарқи эканлиги таъкидланса[6,41], бошқаларида эса муаллифга эга ёки эга эмаслик муҳим масала эмаслиги қайд этилади[1,12].

Дарҳақиқат, афоризмлар муаллифи маълумлиги билан мақоллардан фарқ қилади. Даврлар ўтиши билан умумхалқ мулкига айланиши натижасида афоризмлар мақолга айланиши мумкин.

Афоризмларнинг энг муҳим хусусиятларидан бири – тарбия воситаси эканлиги билан белгиланади. Халқимиз томонидан яратилган ривоятлар, маталлар, ҳикматли сўзлар, масалан, Амир Темур, Алишер Навоий сингари

буюк боболаримизнинг эзгу ишлари ҳақидаги ривоятлар, тарихий қўшиқлар, тарихий достонлар, мақол ва ҳикматли сўзлар орқали ёш авлод дунёқараши шаклланади, тарихий қадриятларни эъзозлаш анъанаси камол топади, маънавий маданият юксакликка кўтарилади. Чунки бу асотирларда ўзига хос ғоя, мафкура яширинган.

Ҳикматлар – халқнинг бугунги куни ҳақида сўзлагани ва эскирмаганлиги учун у инсоннинг тафаккурида, руҳиятида яшайди. Бу руҳият мудроқ бўлиши мумкин, уни уйғотиш учун эса Алишер Навоий хазратларининг қуйидаги мисраларини;

Агар ҳикматга бўлса илтифотинг –
Ки, бўлсун Нуҳ умрича ҳаётинг [7],

дея қилинган мурожаатини эслатмоқ кифоядир.

Ўзбек тилидаги афоризм, ҳикматли сўзлар мазмуний жиҳатдан жуда бой бўлиб, асосан, ўқувчини эзгуликка, илм олишга, шарқона одобга чорлаши билан бирга, диний эътиқодлар билан боғлиқ афоризмлар ҳам талайгина.

Ўзбек тилидаги диний афоризмларни диний тушунчаларнинг ҳикматлар умумий мазмунига таъсир даражасига кўра шартли равишда уч гуруҳга бўлиб ўрганиш мумкин.

1. Соф диний мазмунга эга бўлган ҳикматлар. Афоризмларнинг бу тури узоқ йиллардан буён ўзбек халқида мавжуд бўлиб, энг ёрқин намунаси сифатида Аҳмад Яссавий ҳикматларини кўрсатиш мумкин.

Раббим ёди улуғ ёддур айтур бўлсам,
Асал янглиғ сучук бўлур тилим менинг.
Ўзим фақир, қилдим муқир, бўлдим ҳақир,
Қанот қоқар учар қушдек кўнглим менинг[13].

Юқоридаги ҳикматда Раб лексемаси қўлланилган бўлиб, бутун матн шу лексема билан боғланиб келади. “Муқир” арабча сўз бўлиб “иқрор бўлмоқ, бўйнига олмоқ” маъноларини англатади. Шоир фақатгина фақир-у ҳақирлигини эмас, балки Яратгувчига банда эканига иқрор бўлади. Адиб ҳикматнинг ҳар бандида ички қофияларни қўллаб, ўз ички кайфияти, ҳолини ўйноқи бир услубда баён қилар экан, шу мамуният сабабларини ҳам “нафсим қочди” деб ўз нафсини енгганига олиб бориб боғлайди; ўзини тупроққа тенглаштиради[13].

Шунингдек, бундай мазмундаги афоризмлар Алишер Навоий ижодида ҳам кўплаб учрайди.

Кишики қилди амал Тенгрининг ризоси била,
Ҳақ этти охиратин кому муддаоси била.

Юқоридаги ҳикмат диний одоб ҳақида бўлиб, барча воқеалар яратганнинг амри билан бўлишини қабул қилишга чорлайди ва шунга яраша мукофот олиши таъкидланади. Тенгри, ризо, Ҳақ, охират лексемалари муаллифнинг мақсадини ифодалашда ёрдам бермоқда.

Югурма ризқ учун, не етса Ҳақдин,
англаким, комил
Не кетургил демиш, не ғайбдин келганни қайтармиш.

Берилган ҳикматда ислом динига хос сабрлилик ва шукр қилиш масалалари илгари сурилмоқда. Бу мазмунни юзага чиқариш учун ризқ, Ҳақ, комил, ғайб лексемалари муҳим ўрин эгаллаган.

Бу гуруҳга замонавий адабиётга хос бўлган бир қатор ҳикматларни ҳам киритиш мумкин.

Энг олий сирдон Яратганнинг ўзи[10].

Юқорида келтирилган Неъмат Аминов қаламига мансуб ҳикмат худонинг ҳамма нарсани билгувчи, сирлар эгаси эканлигига ишора қилади. ҳикматда Яратган лексемаси қўлланилган бўлиб, бу лексема ҳикматнинг диний мазмунга эга бўлишини таъминлайди. Ўзбек тилидаги ҳикматларда муаллифлар ўз бадиий мақсадидан келиб чиқиб, лексеманинг Ҳақ, Тангри (Тенгри), Раб, Аллоҳ, Худо сингари бир неча вариантларини қўллашини кузатишимиз мумкин. Ҳатто, баъзи ҳикматларда учинчи шахс бирликдаги кишилик олмошидан фойдаланилганининг гувоҳи бўлишимиз мумкин.

Аҳбоб, денгизки, хону мондан тамаъ уз,

Не хону мон, кавну макондан тамаъ уз.

Не кавну макон, жону жаҳондан тамаъ уз,

Лекин демангиз, меники, Ондин тамаъ уз.

2. Ўзбек тилидаги диний тушунчалар қўлланган маиший мазмундаги ҳикматлар. Дин инсоният тараққиётининг ажралмас қисми экан, у инсонлар онги, туриш-турмуши, урф-одатларига сингиб кетган. Ўзбек халқи тарихида ислом дини ана шундай ўрин эгаллаганки, бу, албатта, ўзбек тили ва адабиётига ҳам ўз таъсирини ўтказмай қолмаган. Шунинг учун диний масалалар ва диний одоб мазмунига эга бўлмаган ҳикматларда ҳам турли хил диний атамалар ва атоқли отларни учратиш мумкин:

Айб истагучики, сўзидур барча хилоф,
Ферузани хармуҳра дебон сурса газоф,
Чун жавҳарини зоҳир этар, айла маоф,
Мундоқ жавҳарийға Тенгри бергай инсоф.

Юқорида феъл-атвор мазмунини ифодаловчи ҳикматда Тенгри лексемаси берилган бўлса ҳам, бу диний мазмун ифодалаш учун хизмат қилмайди, балки бу лексема ўзидан кейинги лексемалар билан биргаликда “истак”, “тилак ” семасини ифодалаб келмоқда.

Умр чун фоний эмиш, гар киши олам шаҳидур,
Чун ўлар, невчун этар мунча таазум, ё Раб?!

Кибрни қоралаш мазмунидаги юқоридаги ҳикматда муаллиф ё Раб, дея мурожаат қилмоқда. Бу бирликнинг ҳикмат таркибидаги тарбиявий мазмунга эга бўлган “афсус”, “надомат” семаларини ифодалаб келмоқда.

Ҳақиқат — Худодир: уни ҳамма билади-ю, ўзини ҳеч ким кўрмаган[11].

Юқорида келтирилган Асқад Мухтор қаламига мансуб ҳикматда ҳам Худо лексемаси қўлланилган бўлса ҳам, бу ҳикматни тўлиқ диний мазмунга эга бўлган афоризм дея олмаймиз, чунки мақсад бу ерда ҳақиқатни таърифлаш, худо лексемаси эса ўхшатиш воситаси бўлиб келмоқда.

3. Мажозий диний ҳикматлар. Таъкидланганидек, ислом дини ўзбек халқи, маданияти, адабиётининг ажралмас қисмидир. Шу сабабли диний атамалар баъзан мажозий маънода қўлланилади.

Молдин умрунгға осойиш агар не суд
Нуҳ умрин ҳосил этсанг, ганzи Қорун қозғаниб.

Юқорида қайд этилган очкўзлик, қизғанчиқликни қоралаш мазмунидаги Навоий ҳикматида Нуҳ, Қорун сингари диний атамалар берилган бўлиб, Нуҳ атамаси “узоқ умр”, Қорун (Хорун) “очкўзлик” семалари билан намоён бўлмоқда. Шунингдек, тасаввуфий ҳикматларни ҳам диний мазмундаги ҳикматлар сирасига киритиш мумкин.

Маҳбуб ишқида бошдин кеч, эй кўнгул, йўқ эса,
Бу йўлга қўйма оёқ сенга бош керак бўлса[7].

Замонавий адабиётда ҳам диний тушунчалар иштирок этмаган, бир қарашда, диний мазмунга эга бўлмаган, лекин умумий мазмуни диний масалаларга қаратилган афоризмлар учрайди. Бундай ҳикматларни ҳам учинчи кичик гуруҳ афоризмларига киритишимиз мумкин.

Кексайиб қолган отамдан ҳол-аҳвол сўрасам, шундай дерди: “Уйдан ўз оёғим билан чиқиб кетяпман, уйга ўз оёғим - билан қайтиб келяпан”[12].

Муҳаммад Тошболтаев қаламига мансуб юқоридаги афоризмда диний атама иштирок этмаган бўлса ҳам, афористик бирлик умумий ҳолатда, ислом тамалларидан бўлган “шукр қилиш”, “шукроналик” семаларини ифодалаб келмоқда.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ислом дини ўзбек халқи тарихи, маданиятининг ажралмас қисми бўлибгина қолмай, у тил ва адабиётда ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Бу таъсир, айниқса, тилдаги паремаларда янада яққол ўзини намоён этади. Диний афоризмларни юқоридаги гуруҳлар асосида таҳлил қилиш орқали атрофлича ўрганиш мумкин

.

Фойдаланилган адабиётлар:
1. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. Тошкент: Фан, 1982.
2. Лингвистический энциклопедический словарь, М.: СЭ, 1990.
3. Навоий А. Ҳикматлар.Тошкент: O‘zbekiston, 2011.
4. Шоабдураҳмонов Ш. Халқ донолиги// Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент: Фан, 1984.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.
6. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, 2010.
7. Ҳикматлар хазинаси. Тошкент, 1977.
8. Ganieva S. A. Hypo-Hyperonymic Relationship Between Parema and Its Units //Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). – 2021. – Т. 2. – №. 06. – С. 84-87
9. Iskandarova S. M., Kholdarova I. V. Generonyms in the Uzbek Language Andriddles //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 7. – С. 225-231.
10. https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/ne-mat-aminov-temirchining-tillolari/
11. https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/asqad-muxtor-kongil-kozi-bilan/
12. https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/muhammad-toshboltaev-nafsini-ti-gan-kishi/
13. https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/yassaviy-hikmatlari-haqida/

LINGVISTIK TIPOLOGIYA
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ
LINGUISTIC TYPOLOGY

D.Xodjayeva-f.f.n., dotsent
O.To‘xtasinova-f.f.n., dotsent, Qo‘qon DPI

Annatatsiya. Ushbu maqolada lingvistik tipologiya – umuman til qurilishining muhim belgilarini alohida, ayrim olingan tillar qurilishini o‘rgatish va ularni har tomonlama taqqoslash asosida aniqlovchi va umumlashtiruvchi tilshunoslik bo‘limi va diaxroniya, sinxroniya, struktural tipologiya haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: tipologiya, lingvistik tipologiya, diaxroniya tipologiya, sinxroniya tipologiya, struktural tipologiya, strukturaviy tilshunoslik, invariant, strukturaviy (formal) grammatika, fonologik.

Аннотация. В данной статье приведены сведения о лингвистической типологии - разделе языкознания, выявляющем и обобщающем важные черты языкового построения в целом, изучающем строение отдельных языков и детально сравнивающем их, а также диахронии, синхронии, структурной типологии.

Ключевые слова: типология, лингвистическая типология, диахроническая типология, синхронная типология, структурная типология, структурная лингвистика, инвариант, структурная (формальная) грамматика, фонологическая.

Annotation. This article provides information on linguistic typology - a branch of linguistics that identifies and generalizes important features of language construction in general, teaching the structure of individual languages, and comparing them in detail, and diachrony, synchrony, structural typology.

Keywords: typology, linguistic typology, diachronic typology, synchronous typology, structural typology, structural linguistics, invariant, structural (formal) grammar, phonology.

Lingvistik tipologiya (yunoncha typos – nusxa, andaza, shakl, iz va logos – so‘z, ta’limot) – tillar o‘rtasida genetik munosabatlardan qat’iy nazar, ularning tuzilmaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi. Ilmiy jihatdan lingvistik tipologiya tillardagi farqli va o‘xshash alomatlarni guruhlarga, andozalarga va tiplarga ajratish yo‘li bilan tatbiq etish metodi hisoblanadi. Vazifasiga ko‘ra funksional (ijtimoiy tilshunoslik) va struktural (tilning ichki qurilishi va tarkibi) tipologiya farqlanadi. Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi amorf (affikslari

bo‘lmagan), agglyutinativ, flektiv, polisintetik tillarni ularning grammatik shakli (tipi) asosida farqlaydi. Lingvistik tipologiya esa bu tillar guruhlaridagi alomatlarni kategoriyalar yoki turli tuzilmaviy belgilarning leksik-semantik, fonologik, grammatik va stilistik sathlardagi ifodalanishi sifatida tadqiq etadi va, binobarin, tilning har bir sathiga xos tipologiya farqlanadi. Til tiplarining rivojlanishi va qadimgi tillarni rekonstruksiya qilish tarixiy tipologiyaning vazifasidir. Bu tipologiyaning ichida (ba’zan unga ma’nodosh qo‘llanuvchi) diaxronik tipologiya tillardagi tuzilmaviy o‘zgarishlarni o‘rganadi. Tillarning hozirgi holatini qiyoslash sinxronik tipologiyaga tegishlidir. Lingvistik tipologiya keng miqyosda tillar universaliyalari bilan bog‘lanadi.

Lingvistik tipologiya tillardagi xususiyatlarning struktural qonuniyatlarini topishga intilsa, til universaliyalari bu alomatlar jahondagi qaysi tillarda qanday tarqalishini o‘rganadi.

Alisher Navoiyning ‘‘Muhokamat ul-lug‘atayn” asari lingvistik tipologiyaga tegishli bo‘lib, unda genetik jihatdan bir-biridan farqlanuvchi tillardagi semantika, qisman fonetika qiyoslangan. Hozirgi davrda ikki yoki undan ortiq tillarni o‘rganuvchi qiyosiy yoki chog‘ishtirma tilshunoslik ham lingvistik tipologiyaga asoslangan [1.279.].

Lingvistik tipologiya – umuman til qurilishining muhim belgilarini alohida, ayrim olingan tillar qurilishini o‘rgatish va ularni har tomonlama taqqoslash asosida aniqlovchi va umumlashtiruvchi tilshunoslik bo‘limi. Tipologik metodlar turli-tuman tillarning fonologiyasi, morfologiyasi, sintaksis va leksikasidagi o‘xshashliklar va tafovutlarni aniqlashga, lingvistik universaliyalarni, shuningdek, tillarning tiplarini – til qurilishi tabiati haqida umumlashgan, mukammal holdagi tushunchalarni belgilashga qaratilgan. Tillarning tiplari grammatikada tushunchalarni anglatish usuliga, munosabatlarni ifodalash texnikasiga va birikish, bog‘lanish darajasiga qarab aniqlanadi.

Tipologik tadqiqotlar til tizimining alohida, ayrim kichik tizimlari asosida ham olib boriladi, shu tufayli fonologik, morfologik, sintaktik va semantik tipologiyalar farqlanadi. Ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan har xil tizimdagi tillarning ayrim xususiyatlarini qiyosiy tipologiya o‘rganadi. Aniqlanadigan tipologik belgilar ma’lum bir kichik tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, lekin til qurilishida ular turli nisbatlarda birikadi. Shuning uchun mazkur belgilardan biri asosiy, yetakchi hisoblanadi. So‘zning tarkibiy tuzilishi asosida tillarning morfologik (tipologik) tasnifi yaratiladi, biroq tadrijiy taraqqiyot natijasida tilning tipi o‘zgarishi mumkinligi sababli tillarning tiplari sof holda uchrashi isbotlanmagan.

Tilshunoslik sohasidagi tipologik tadqiqotlar nemis olimi F.Shlegel asarlaridan boshlangan. Keyinchalik tillar tipologiyasi bo‘yicha nemis olimlari A.V.Shlegel, V.Gumboldt, X.Shteyntal, A.Shleyxer, amerikalik E.Sepir, chex V.Skalichka, fransuz A.Martine, ruslardan F.F.Fortunatov, I.I.Meshchaninov, B.Uspenskiy, Y.V.Rojdestvenskiy, V.N.Yarseva, N.A.Baskakov, A.M.Shcherbak va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

O‘zbekistonda ham A.Abduazizov, J.Bo‘ronov, Q.Toymetov, M.I.Rasulova, Sh.Rahmatullayev, O.Azizov va boshqalar tipologiya masalalari bilan shug‘ullanganlar.

Ma’lum bo‘ldiki, tipologiya, bir tomondan, tillarni tasnif qilishning umumiy nazariyalari, qonun-qoidalari va usullarini o‘z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, u til sistemasi birliklarini umumiy belgisi, xususiyati asosida tansif qilish bilan shug‘ullanadi.

XIX asrda tezlik bilan rivojlanish bosqichiga o‘tgan tipologiyaning muhim xususiyati shundaki, u turli tillar – qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar doirasida ish ko‘radi. Ushbu tillarni o‘zaro qiyosiy o‘rganadi. Shu jarayonda tipologiya qiyoslanayotgan tillarning tuzilishidagi o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi, izohlaydi.

Qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarning mavjudligi, ushbu tomonlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganishga va tushunishga bo‘lgan intilish tilshunoslikda alohida soha, yo‘nalish bo‘lgan lingvistik tipologiya (tipologik

lingvistika)ning maydonga kelishiga sabab bo‘ldi.

Lingvistik tipologiya tillarning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat’iy nazar, ularning tuzilishi jihatidan yaqinlik, bog‘liqlik darajasini tekshiradi, mavjud materiallar asosida muayyan hodisaning mohiyatini, tabiatini aniqlaydi.

Lingvistik tipologiya tillarni o‘zaro qiyosiy tadqiq etish jarayonida tillar uchun umumiy bo‘lgan hodisalarga alohida e’tibor beradi, ushbu umumiyliklarni aniqlaydi.

Dunyo tillarining deyarli barchasida uchraydigan, barchasi uchun xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar universaliya deb yuritiladi. Demak, universaliyalar qiyos qilinayotgan qator tillar tuzilishiga xos lisoniy hodisalar, birliklar bilan belgilanadi. Masalan, so‘zlarning bir va ko‘p ma’noliligi, zamon kategoriyasi, omonimlar, so‘z turkumlari, unli va undosh tovushlar, terminlar, sinonimlar, urg‘u, harakat va holat fe’llari, gap bo‘laklari kabilar. Qayd etilgan ushbu lisoniy hodisalar universaliyalar sifatida o‘nlab, yuzlab tillarga tegishli ekanligi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtda qiyos ob’ekti bo‘lgan tillarning faqat o‘zigagina xos shaxsiy jihatlari – hodisalari borki, bular ham tillarni tipologik tadqiq etish jarayonida – lingvistik tipologiyada aniqlanadi. Masalan, o‘zbek tiliga xos **o‘, q, g‘, h** kabi unli va undosh tovushlar, urg‘uning tilimizda, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushishi (istiqlól, tadbirkór, ma’naviyat), rus tilida esa urg‘uning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ham kelishi bilan qiyoslanadi. Shuningdek, rus tilida urg‘uning so‘z yasash vazifasiga ham egaligi, ya’ni urg‘u pozitsiyasining o‘zgarishi bilan so‘z ma’nosining ham o‘zgarishi yuz beradi. Masalan, muka (un) – muka (azob), zamok (qulf) – zamok (qal’a, qo‘rg‘on).

Rus tiliga xos **ы, щ, s** kabi undoshlar, shuningdek, o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan, ammo rus tiliga xos **rod** va **vid** kategoriyalari kabilar ham qiyosiy tahlil etiladi.

Demak, lingvistik tipologiya tillar o‘rtasidagi umumiy jihatlargagina emas, balki farqli, o‘ziga xos tomonlarga ham alohida e’tibor beradi.

Lingvistik tipologiya qiyoslanayotgan tillar tahlili va tadqiqida o‘z vazifasini, faoliyatini dialektik falsafaning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiluvchi muhim kategoriyalardan biri – umumiylik va xususiylik kategoriyasiga ko‘ra ish olib boradi. Shu jarayonda tillarning sistem-struktur tabiatiga ham yalpi jihatlar, alohidaliklar (maxsusliklar) aniqlanadi, tavsiflanadi.

Xullas, umumiy tilshunoslikning muhim bir sohasi bo‘lgan lingvistik tipologiya turlicha tuzilishga ega bo‘lgan, turlicha til oilalariga mansub tillarning tipologik xususiyatlarini hamda mazkur tillarning paydo bo‘lishini, ularning taraqqiyotini aniqlashga, belgilashga xizmat qiladi, ular haqida qator asosli, ishonchli, haqqoniy ma’lumotlar beradi.

Diaxronik tipologiya – diaxroniya – (dia..va yunoncha chronos – vaqt, zamon)— til tuzilishining lingvistik tadqiqot manbai sifatidagi tarixiy taraqqiyoti, til taraqqiyotini vaqt nuqtai nazaridan o‘rganish.

Tilshunoslikda diaxroniya tushunchasi sinxroniyaga qarama-qarshi qo‘yiladi. Diaxronik lingvistika ba’zan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, 20 asrdan boshlab tarixiy fonetika bilan aynan bir narsa deb qaraldi. Keyinchalik uning tadqiqot ob’ekti sifatida tildagi o‘zgarishlarni, bu o‘zgarishlarning sabablarini, paydo bo‘lish davrini o‘rganish nazarda tutildi. 20 asrning 2-yarmida diaxronik yondashishni, til tarixini davrlarga bo‘lib o‘rganish bilan bog‘liq sof

tarixiy yo‘nalishdan farqli o‘laroq, til tizimida sodir bo‘ladigan diaxronik o‘zgarishlarni, tilning tizim sifatidagi taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganishga qaratildi. Diaxroniya til faoliyati xususiyatlarini zamonda, jumladan, sinxroniyada bilishga imkon beruvchi vosita bo‘lib, umuman til nazariyasining muhim qismidir [2.288-289].

Sinxronik tipologiya – sinxroniya (yunoncha synchronos—bir vaqtli, bir davrli) – 1) bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq va aloqador unsurlar tizimi bo‘lgan tilning (yoki boshqa biror ijtimoiy-gumanitar fanning) muayyan rivojlanish davridagi holati; til rivojlanishi jarayonida muayyan o‘zgarishlarning mavjudligi yoki

ularning ahamiyatsiz ekanligi belgisi asosida ajratilgan davr; 2) tilni ko‘rsatilgan holatda, ya’ni davr, vaqt omili va lisoniy o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lmagan holda tekshiriladigan aniq munosabatlar tizimi sifatida o‘rganish. Sinxroniya yordamida tilning nafaqat hozirgi davri, balki o‘tmishdagi davrlari ham alohida o‘rganilishi mumkin. Masalan, o‘zbek adabiy tilidagi unlilar tizimini 15 asrning yoki 20 asrning o‘zidagi ahvolini alohida, bir-biriga qiyoslamay tadqiq etish sinxroniyadir.

Sinxroniya tushunchasi diaxroniya tushunchasi bilan birga, unga qarama-qarshi qo‘yilgan holda fransuz tilshunosi F.de Sossyur tomonidan fanga kiritilgan. Bu tushunchalarning Sossyur bo‘yicha o‘zaro farqlanishi, bir-biridan ajratilishi statika Bilan dinamikaning, til bilan nutqning, sistemalilik bilan sistemasizlikning, fonetika bilan grammatikaning qarama-qarshi qo‘yilishiga muvofiq bo‘ladi. Lekin modomiki til o‘z tabiatiga ko‘ra, doimiy harakatdagi, o‘zgarishdagi ob’ekt sifatida tavsiflanar ekan, dinamika tilning har qanday mavjudlik davrida, jumladan, sinxroniyada tilning ajralmas qismi bo‘lib qoladi, binobarin, sinxroniyada diaxroniya unsurlari ham uchrashi mumkin [3.636]. (Manba: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-tom. T., 2004, 636-bet).

Struktural tipologiya – strukturaviy tilshunoslik – tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri, tilga nisbatan ilmiy qarashlar va uni tadqiq etish usullari majmui. Tilni aniq ajralib turadigan struktur (tarkibiy) elementlar (lisoniy birliklar, ularning turkumlari va b.)ga ega bo‘lgan belgilar tizimi tarzida tushunish va tilni qat’iy (aniq fanlarga o‘xshatib) formal tavsiflashga intilish mazkur qarashlar va usullar asosini tashkil etadi. Strukturaviy tilshunoslik o‘z nomini til strukturasiga bo‘lgan alohida e’tibori tufayli olgan. Til strukturasi (tuzilishi) esa, odatda, lisoniy tizimning muayyan sathlar doirasida ierarxik (pog‘onaviy) bog‘lanishda joylashgan va tartibga solingan elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Tilni struktur jihatdan tavsiflash aniq bir matndan umumlashgan invariant (o‘zgarmas) birliklar (gap qoliplari, morfemalar, fonemalar)ni ajratish va ularni aniq nutqiy bo‘laklar bilan munosabatini qat’iy qo‘llanish qoidalari asosida aniqlashga imkon beruvchi tahlilni talab qiladi.

Strukturaviy tilshunoslik g‘oyalari asosida strukturaviy (formal) grammatika yuzaga keldi, mashina tarjimasi bilan bog‘liq masalalar kun tartibiga olib chiqildi va ma’lum darajada o‘z yechimini topdi, tilshunoslikda matematik tadqiqot usullarining keng qo‘llanishiga imkon tug‘ildi. Strukturaviy tilshunoslik garchi 20 asrning 20-30-yillarida alohida yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lsa-da, uning dastlabki kurtaklari qadimgi hind tilshunosi Panini asarlarida, o‘rta asrlardagi universal grammatikalarda, R.Dekart va G.V. Leybnisning falsafiy-lingvistik grammatikalarida uchraydi. Strukturaviy tilshunoslikning paydo bo‘lishida I.A.Boduen de Kurtene, F.F.Fortunatov, E.Sepir, L.Blumfild, ayniqsa, F.de Sossyurning ilmiy izlanishlari va amaliy faoliyati muhim rol o‘ynagan. Strukturaviy tilshunoslikning konsepsiya va metodlari uning ayrim maktablari (Praga lingvistik to‘garagi – funksional tilshunoslik; Kopengagen maktabi – glossematika; Amerika maktabi – deskriptiv tilshunoslik) hamda bu maktablarga mansub bo‘lmagan E.Benvenist, A.Martine, L.Kurilovich, Ye.D.Polivanov va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Strukturaviy tilshunoslikning 20 asrning 50-yillarigacha bo‘lgan rivojlanish bosqichida tilni formal tavsiflash, uning mazmun jihatini inkor qilish, til tizimini matematik tizim sifatida tushunish ustunlik qilganligi sababli strukturaviy tilshunoslik qattiq tanqidga uchragan. 50-yillardan keyin esa lisoniy ma’noni o‘rganish kuchayadi, ma’no-mazmunni tavsiflashning struktur usullari ishlab chiqiladi. Bu davrda fonologik tahlil usullari grammatika va semantikaga ko‘chiriladi. Strukturaviy tilshunoslikning o‘zi esa yangi yo‘nalishlarga qo‘shilib ketib, 70-yillarda alohida yo‘nalish sifatida barham topadi. Strukturaviy tilshunoslik ishlab chiqqan usullar adabiyotshunoslik, etnologiya, psixologiya, antropologiya, san’atshunoslik kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarda boshqa usullar bilan yonma-yon qo‘llanmoqda [4.78] [5].

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. Abduazizov A. Lingvistik tipologiya – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.5-tom.T., 2003, 279-bet).
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-tom. T., 2002, 288-289-betlar
3.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-tom. T., 2002, 288-289-betlar
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-tom.T., 2004, 78-bet
5. Osnovnыe napravleniya strukturalizma. M., 1964; Zasorina L.N. Vvedenie v strukturnuyu lingvistiku.M.,1974; Rezvin I.I. Sovremennaya strukturnaya lingvistika. M., 1977.

SO‘ZNING GRAMMATIK MA’NOSI, KONSEPT, KOGNITIV TUZILMA VA REFERENT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING FUNKSIONAL – SEMANTIK TAHLILI

ГРАММАТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА, ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЙ ПОНЯТИЯ, КОНГНИТИВНОЙ СТРУКТУРЫ И ОБОЗНАЧЕНИЯ

GRAMMAR MEANING OF THE WORD, FUNCTIONAL - SEMANTICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN CONCEPT, CONGNITIVE STRUCTURE AND REFERENCE

U.Maxsudova - erkin tadqiqotchi, Qo‘qon DPI

Аннотация:Мақолада сўзнинг грамматик маъноси, концепт, когнитив тузилма ва референт ўртасидаги муносабатларнинг функционал – семантик таҳлили масалалари атрофлича ўрганилган. Воқеликнинг когнитив ва лисоний идроки жараёнида грамматик тизим бирликларининг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Мавҳумлаштириш – умумлаштириш хусусиятига эга бўлган грамматик бирликлар фикрни шакллантириш ва уни ахборот ташувчи ҳолатига келтирилган нутқий тузилма сифатида адресатга етказишнинг муҳим воситасидир. Аммо бу бирликларнинг мазмун доирасини шакллантирувчи омиллар ҳамда ушбу мазмуннинг референт, яъни ифодаланаётган воқеликка муносабати масаласи анчагина мунозаралидир. Грамматик белгининг моҳиятини когнитив жараёнларда ифодаланади, бу жараёнларнинг онгдаги акси (концепт) ва грамматик бирликнинг моддий шакли (ифодаловчи) ўртасидаги ўзаро муносабатлар сифатида тасаввур этишнинг назарий ва амалий аҳамиятини алоҳида қайд этилади.

Калит сўзлар: концепт, когнитив тузилма, референт,белги,грамматик маъно,грамматик шакл,нутқ фаолияти.

Annotation: The article deals with the issues of functional-semantic analysis of the grammatical meaning of the word, the concept, the cognitive structure and the relationship between the referent. The role of grammatical system units in the process of cognitive and linguistic perception of reality is of particular importance. Abstraction - Grammatical units with the property of generalization are an important means of forming an idea and conveying it to the addressee as a speech structure brought to the state of information carrier. However, the factors that shape the content of these units and the relation of this content to the referent, that is, to the expressed reality, are quite controversial. The essence of the grammatical sign is expressed in cognitive processes, emphasizing the theoretical and practical importance of imagining these processes as the relationship between the reflection in the mind (concept) and the material form (representation) of the grammatical unit.

Key words: concept, cognitive structure, referent, character, grammatical meaning, grammatical form, speech activity.

Аннотация: В статье подробно рассматриваются вопросы функционально-семантического анализа грамматического значения слова, концепта, когнитивной структуры и отношения между референтом. Особое значение имеет роль единиц грамматической системы в процессе познавательного и языкового восприятия действительности. Абстракция - Грамматические единицы, обладающие свойством обобщения, являются важным средством формирования идеи и донесения ее до адресата как речевая структура, доведенная до состояния носителя информации. Однако факторы, формирующие содержание этих единиц и отношение этого содержания к референту, то есть к выражаемой действительности, весьма противоречивы. Сущность грамматического знака выражается в познавательных процессах, подчеркивая теоретическое и практическое значение представления этих процессов как отношения между отражением в уме (понятием) и материальной формой (представлением) грамматической единицы.

Ключевые слова: концепт, когнитивная структура, референт, персонаж, грамматическое значение, грамматическая форма, речевая деятельность.

So‘zsiz, insonning bilish qobiliyati qudratli kuch, inson idrok eta olmaydigan ob’ektning o‘zi bo‘lmasa kerak. Lekin bilish hech qachon absolyutlikka intilmayli, voqelik rang-barang, uning zahirasi tinmasdan boyib boradi va inson ushbu boylikni o‘z tajribasida o‘zlashtirishga, bilishga tinimsiz intiladi. Shuning bilan birgalikda voqelik inson ongining «gumashtasi» emas, va inson faoliyati natijasida taraqqiy etadi, rivoj topadi. Bu borada borliqning yosh bolalar tomonidan kognitiv va lisoniy o‘zlashtirilishini olib ko‘raylik. Yosh go‘dak voqelikni asta-sekii, bosqichma-bosqich tajribadan o‘tkazadi, idrok etadi. Voqelikning ma’lum qismi uning idrokiy va lisoniy imkoniyatidan chetda qolishi tabiiy, lekin bu bilan voqelik mavjudligini yo‘qotmaydi. Voqelikning mavjudligini faqat ong bilan bog‘lab qo‘yish sub’ektiv idealizm xavfini tug‘dirish ehtimolidan xoli emas.

Voqelikning kognitiv va lisoniy idroki jarayonida grammatik tizim birliklarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mavhumlashtirish – umumlashtirish xususiyatiga ega bo‘lgan grammatik birliklar fikrni shakllantirish va uni axborot tashuvchi holatiga keltirilgan nutqiy tuzilma sifatida adresatga yetkazishning muhim vositasidir. Ammo bu birliklarning mazmun doirasini shakllantiruvchi omillar hamda ushbu mazmunning referent, ya’ni ifodalanayotgan voqelikka munosabati masalasi anchagina munozaralidir.

Odatda, til birligi ma’nosi lisoniy belgi, kognitiv tuzilma va referent o‘rtasidagi uch taraflama munosabat uzviyligida tahlil qilinadi. Barchamizga «Tilshunoslikka kirish» kursidan ma’lum bo‘lgan Ogden-Richarde uchburchagini eslaylik:



Shaklning yuqori qismiga joylashgan lisoniy belgi referent (voqelik) bilan kognitiv jarayon mahsuli tushuncha yoki konsept orqali bog‘lanadi. Tilshunoslar ko‘pincha referentning mantiqiy ramzi bo‘lgan tushunchani grammatik ma’noning negizi deb biladilar. Grammatik ma’noning bunday tasavvur qilinishi ushbu ma’noni prototipida (ibtidosida) grammatik shakl turgan denotativ xususiyatlar umumlashmasidan

iborat, degan qarashdan boshqa hech narsa emas. Masalan, son kategoriyasi voqelikdagi ob’ektiv mikdorni («bir» va «birdan ko‘p») ko‘rsatishi haqidagi fikr an’anaviy ravishda bir qo‘llanmadan ikkinchisiga ko‘chib kelmokda. Huddi shuningdek, zamon kategoriyasi talqinida umumiy (aniqrog‘i, fizik) tushuncha «vaqt»ga nisbat beriladi hamda bunda oddiygina hozirgi va o‘tgan davr qarama-qarshiligi inobatga olinadi (Qiyoslang: Ahmad Samarqandda yashaydi / yashadi).

Bunday fikr va yondashuvlarning haqiqatga qay darajada mos kelishini aniqlashga urinib ko‘raylik. Bu maqsadda ingliz tili tizimining semantik tahlilini yaratishga harakat qilgan mualliflardan biri Jeffri Lich risolasidagi misollarga murojaat qilaylik. Quyidagi misollarni solishtiraylik:

1. a) I like roses «Men atirgullarni yoqtiraman»;
   b) She is tall «U baland bo‘yli»;
2. a) He scores a goal «U to‘p urayapti»;
   b) I write a letter «Men xat yozaman (yozayapman)»;
3. a) Ne digs his own garden «U bog‘da yer ag‘darayapti»;
   b) All water containes hydrogen «Har qanday suvda vodorod bor».

Ushbu gaplarning barchasi formal jihatdan bir xil shaklga ega - fe’l bo‘laklari hozirgi noaniq zamon (Present Indefinite Tense) ko‘rsatkichlarini olgan, ular vaqt kategoriyasi ifodasi jihatidai bir xil mazmundadirlar. Ammo bunday denotativ belgilar uchala qatordagi tuzilmalarni mazmun jihatidan izohlash uchun yetarlimikan? Shu xildagi savolga javob izlagan J.Lich hozirgi zamon grammatik shakli uch xildagi ma’no xususiyatga ega bo‘lishiga ishora qiladi. Uning qayd etishicha, birinchi qatordagi gaplarda «Unrestrictive Present - chegaralanmagan hozirgi zamon» ifoda topmokda, chunki bu yerda «hozirgi holat» (state-now) mavjud va holatning chegarasi yo‘q, qachon tugashi noma’lum.

Keyingi qatordagi gaplar tashqi ko‘rinishi jihatidan birinchi qatordagilarga mos kelishsa ham, ammo mazmun doirasida farq qiladilar, bu yerda «voqea predikativligi» (event predication) yuzaga keladi va tasvirlanayotgan voqea bir lahzada, aynan so‘zlovchi gapiradigan joyida sodir bo‘layotganligiga ishora mavjud. Shu sababli J.Lich «Instantaneous Present - lahza hozirgi zamoni» atamasini qo‘llashni ma’qul ko‘radi. Nihoyat, uchinchi qatordagi gaplarda takroriylik, davomiylik (habitual or iterative) mazmuni ifoda topgan. Chunki bildirilayotgan axborot hozirda umuman mavjud bo‘lgan va kelajakda davom etadigan voqeadan xabar beradi (ya’ni suv tarkibida vodorod doimo bo‘ladi, futbolchining to‘p urishi takrorlanib turadi).

Berilgan izohlardan grammatik birlikning mazmun doirasini ifoda muqobili - denotat xususiyatlari bilan bog‘lab ko‘yish unchalik ma’qul emasligi ma’lum bo‘ladi. Buning isbotini yagona bir grammatik birlikning alohida bir sintagmatik qatorda denotativ mazmunning turli qismlarga mos kelishida ko‘rish mumkin. Masalan, ingliz tilida yagona bir predlog bir sintagma tarkibida «makon» va «zamon» ma’nolarining ifodalovchisi bo‘lishi mumkin: *He'll be back **in** his office **in** no time «U idorasi**ga** tez**da** (ko‘p vaqt o‘tmasdan) qaytadi»*. Huddi shuningdek, yagona bir olmosh bir gap tarkibida referentli va referentsiz qo‘llanishi mumkin: ***It** is necessary to do **it** «Buni bajarish kerak».*

Bundan tashqari, til tizimida yagona bir denotatni turli lisoniy belgilar bilan ifodalash mumkinligini ham unutmaslik lozim. Bu hodisa yagona bir grammatik kategoriya doirasida yuzaga keladi (“Kelsinlar”; “Keling endi”; “Kelmaysizmi”; “Kelavering” va xokazo). Ammo bunday vazifaviy muqobillik bu shakllar vositasida ifodalanayotgan mantiqiy, kognitiv mazmunning bir xilligidan hech qanday darak bermaydi.

Shu o‘rinda yagona bir sintaktik tuzilmaning turli mazmun ifodalash imkoniyati haqida ham to‘xtalmoqchimiz. Masalan, *«Professor Hamid Ne’matov*

universitetda ishlaydi» gapining mazmunini ikki xil izohlash mumkin. Birinchisida bu gap mazmunida voqealar ketma-ketligiga ishora bor («Professor H.Ne’matov har qachon ishda bo‘lsa, u universitetda ishlaydi»), ikkinchidan esa, bu gapda ma’lum shaxsning doimiy ish joyi borligi hakida ma’lumot berilmoqda («H. Ne’matov universitet professori - xodim»).

Bu mazmuniy farqlar (Eslatamiz: holat va voqea predikativligining ifodalanishidagi farq) aslida H.Ne’matovning qanday faoliyat bilan mashg‘ulligi bilan bog‘liq emas. Hamma gap so‘zlovchining H.Ne’matovning kasbiy bandligi (mashg‘uloti)ni qanday idrok etayotganligi haqida: bu ish vaqtinchalik faoliyatmi yoki doimiymi?

Grammatik mazmunning denotat xususiyatlaridan ajralgan holda shakl topishini isbotlash qiyin masala. Ammo grammatik birliklarning mavhum-umumlashtiruvchi ma’nosi hosil bo‘lishini denotat xususiyatiga tayangan holda izohlash unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Ma’lumki, barcha tillarda umumlashgan ma’noni ifodalovchi lug‘atiy birliklar mavjud («vaqt», «jarayon», «makon» kabilar). Agar denotativ ma’noni bu turda ifodalash mumkin ekan, unda turli sathlarga oid birliklarning farqi nimadan iborat?

Bunday savollarning tug‘ilishi, tabiiyki, denotatning tashqi mohiyati grammatik birliklar vositasida ifodalanadigan konseptning mazmuniy asosini tashkil etishiga nisbatan bo‘lgan gumonimizni yanada kuchaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu mazmuniy asosni topishga, uning shakllantiruvchi omillarni izlashga undaydi. Bizningcha, qo‘yilgan muammoning yechimini kognitiv jarayonning kechishidan, uning strukturasini tashkil qiluvchi qismlarning o‘zaro munosabatlaridan izlagan ma’qulroq.

Konsept mazmun jihatidan bir tomondan voqelik bilan munosabatda bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa lisoniy belgisisiz bevosita munosabatga kirishadi. Bu munosabatlar lisoniy-tafakkur faoliyati sinergetikasining natijasidir. Kognitiv jarayonlar va lisoniy belgilarning mazmuniy munosabatlari ma’lum turdagi energiya bilan bog‘lik. Bunday energiyaning manbai esa insonning muhit bilan o‘zaro munosabatidir. Energiyaning saqlanish qonuni doirasida kognitiv jarayon va lisoniy birlik energiyasi o‘zaro bir-biriga o‘tadi (ko‘chadi) va shu asnoda lisoniy belgining mazmun sinergetikasi harakatga tushadi.

Demak, sinergitika qonuniyatlariga tayangan holda konseptning mazmunan shakllanish jarayonini tahlil qilish imkoni bor. Yuqorida aytilganidek, har qanday mazmunning shakllanishi insonning voqelikni bilish jarayonida, boshqacha aytganda, inson va voqelik munosabatida yuzaga keladigan mental tasavvur bilan bog‘likdir.

Zamonaviy kognitiv psixologiya namoyandalari U. Maturana va F. Varelalarning fikricha, bilimning inson tafakkurida namoyon bo‘lishining ikki asosiy usuli mavjud: 1) Kognitiv holat yoki jarayonlarning (bu jarayon hissiy idrokdan boshlanadi) aks etishi; 2) ma’lum tashqi hodisa, voqealarning tavsiflash usulidan iborat bo‘ladi . Kognitiv takdim va tavsif munosabati til tizimida yuzaga keladigan grammatik:) va lug‘atining o‘zaro munosabatining talqiniga mos tushadi. Ushbu talqinga binoan nutqiy tuzilmalar tarkibidagi grammatik elementlar lug‘at birliklari vositasida ifodalanyotgan konseptual mazmun (fikr, g‘oya, tushuncha va hokazo) uchun konseptual tayanchdir. Ushbu tayanchsiz nutqiy tuzilma grammatik (grammatika qoidalariga mos kelmaydigan), mazmunsiz tuzilmaga aylanadi. Lug‘at va grammatika tizimlarining munosabati inson tomonidan voqelikning qanday idrok etilishi va idrok ob’ekti nima bo‘lishidagi farq bilan bog‘liqdir.

Voqelikning lisoniy bilish nazariyasiga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, grammatik birliklarning mazmuniy asosi qandaydir tashqi hodisalar, xususiyatlardan tashkil topmasdan, balki insonning tashqi Dune bilan munosabati zaminida yuzaga keladigan kognitiv jarayon, holatlarning aks topishidan iboratdir.

Grammatik belgining mohiyatini kognitiv jarayonlar ifodalanmish), bu jarayonlarning ongdagi aksi (konsept) va grammatik birlikning moddiy shakli

(ifodalovchi) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sifatida tasavvur etishning nazariy va amaliy ahamiyatini alohida qayd etish zarur. Birinchidan, bu yondashuv grammatik shaklni inson bilish faoliyati ma’lum bosqichlarining mahsuli sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, nutqiy faoliyatda grammatik shakllarning o‘zaro o‘rin almashishi hodisasini variativlik) denotativ xususiyatning faollashuvi sifatida emas, balki kognitiv jarayonning u yoki bu mazmun bo‘lagiga taqsimoti, «ixtisoslashuvi» sifatida talqin qilishni talab qiladi. Uchinchidan, grammatikalashuv hodisasini (lug‘at birliklarining grammatik ma’no ifodalashga ixtisoslashuvi) ob’ekt haqidagi bilim (lug‘aviy ma’no) takdimotidan sub’ekt haqidagi bilim (grammatik ma’no) takdimotiga ko‘chish jarayoni sifatida tasavvur qilish imkonini yaratadi.

Xullas, lisoniy belgilarning grammatik mohiyatini tadqiq qilishning bu yo‘sindagi kognitiv namunasi grammatika tizimini voqelikning mavhum tasviri - sxemasi haqidagi an’anaviy fikrdan yiroqlashishga undaydi. Bu tizim insonning bilish faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan mazmuniy tuzilmadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geoffrey N. Leech. Principles of pragmatics. ISBN 9780582551107 Published July 4, Routledge 1983. -264 p.
2. Alefirenko N. Spornые problemы semantiki M «Gnozios», 2005 -326 s
3. Maturana, H. R. & Varela, F. J. The tree of knowledge. Boston: Shambhala 1987.
4. Kravchenko A.V. Kognitivnaya grammatika na uroke angliyskogo, ili kak oblegchit jizn russkim studentam. vestnik mgimo-universiteta. 2013;(6(33)):83-89.

PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ANTHROPONYMIC COMPONENTS IN UZBEK LANGUAGE, AND THEIR CLASSIFICATION

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ С АНТРОМОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

O’ZBEK TILIDA ANTROPONIMIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING TASNIFI

Н.Валиева - студентка
З.Н.Абдусамадов- декан факультета английского языка, УЗГУМЯ

Abstract: This article deals with phraseological units of the Uzbek language with anthroponymic components based on the works of linguists and lexicographers. Also, based on the anthroponymic components of phraseological units, their classification was carried out. The author's judgments are analyzed by means of examples and conclusions are given at the end of the article.

Key words: phraseology, phraseological unit, onomastics, anthroponym, anthroponymic components, theonym, ageonym.

Аннотация: В данной статье изучены фразеологические единицы узбекского языка с антропонимическими компонентами на основе работ отечественных языковедов и лексикографов. Также, исходя из антропонимических компонентов фразеологических единиц была осуществлена их классификация. Суждения автора проанализированы посредством примеров и в конце статьи приведены заключения.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая единица, фразеологизм, ономастика, антропоним, антропонимические компоненты, теоним, агеоним.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslar va leksikograflar ishi asosida antroponimik komponentlarga ega bo'lgan o'zbek tilining frazeologik birliklari o'rganildi.

Bundan tashqari, frazeologik birliklarning antroponimik tarkibiy qismlari asosida ularning tasnifi amalga oshirildi. Muallifning fikrlari misollar yordamida tahlil qilinadi va maqolaning oxirida xulosalar beriladi.

Kalit so’zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, onomastika, antroponim, antropomik komponentlar, teonim, ageonim.

Сегодня со стороны ученых-лингвистов особое внимание уделяется вопросам значения и формы в языковых единицах, изменениям в них, отражению в них различных культурных кодов. Как отмечает Б. И. Болтаева, "В традиционном языкознании языковые единицы, в том числе и фразеологические, изучались преимущественно на основе языковых особенностей. Трансформация фразеологических единиц, особенности их обновления служат не только источником определенной методологической продуктивности, но и фактором формирования новых фразеологических единиц, в этом смысле трансформационное, семантико-прагматическое, лингво-культурное исследование фразеологических единиц и вывод научных выводов имеют важное значение для современного языкознания" [**Ошибка! Источник ссылки не найден.Ошибка! Источник ссылки не найден.Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Фразеология является разделом языкознания, изучающий фразеологический состав языка в его современном состоянии и историческом развитии, предметом которого является исследование природы фразеологизмов и их категориальных признаков [10].

Большой энциклопедический словарь определяет «фразеологизм» как “общее название семантически связанных сочетаний слов и предложений, которые в отличие от сходных с ними по форме синтаксических структур, не производятся в соответствии с общими закономерностями выбора и комбинации слов при организации высказывания, а воспроизводятся в речи в фиксированном соотношении семантической структуры и определенного лексико-грамматического состава” [10].

В толковом словаре узбекского языка «фразеологизм» (от греч. «phrasis» «выражение» и «logos» «понятие») по структуре является эквивалентом словосочетания, предложения. Семантически является единым целым. Языковая единица, обозначающая обобщенный смысл и вводимая в речь в готовом виде [4].

Ономастика, которая является одним из лексикологических направлений лингвистики привлекает особенное внимание лингвистов различными аспектами изучения. Основным объектом ономастической области считаются антропонимы.

Антропоним – это заимствованное слово из греческого языка, означающее собственное имя существительное. К антропонимам относятся различные формы имен лиц (формальные, сокращенные, в ласкательной форме и др.).к.) входят отчества, фамилии, прозвища, дополнительные имена. Независимо от того, что называют антропонимы, их функция и цель состоят в том, чтобы назвать человека и использовать при обращении к нему [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

В данной работе изучены и представлены фразеологические единицы с антропонимическими компонентами, которые встречаются узбекском языке их значения и классификация с точки зрения компонентов. Приведенные ниже примеры были взяты из национальной энциклопедии «Ma’nolar maxzani» [8] и толкового словаря узбеских пословиц “Nega shunday deymiz?” [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] Ш. Шомаксудова и Ш. Шорахмедова, «Толкового словаря фразеологизмов узбекского языка» [6] и

«Фразеологического словаря узбекского языка» [5] Ш. Рахматуллаева, «Краткого русско-узбекского словаря пословиц и поговорок» М. Содиковой [9], диссертации **доктора философии (PhD) по филологическим наукам** «Ingliz va o’zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari» З. Абдусамадова [2], « Узбекско-русского словаря афоризмов» М. Абдурахимова [1].

Фразеологические единицы с антропонимическими компонентами подразделяются на:

1. **ФЕ с традиционными узбекскими именами:**
   ***Ali** jinni, **Ali** jinnining bari jinni*
   *Begimdan **Begoyim** zo’r*
   *Zamona oxir bo’lsa uloqning otini **“Abdukarim”** qo’yadilar*
   ***Iskanda**r xo’ja, bulturgi jo’ja, bola ochadi, tashlab qochadi*
   *Kirma **Sanam**ning uyiga, **Sanam** solar o’z ko’yiga*
   ***Rajab** “tulki” qorovul bo’ldi, xotini erovul bo’ldi*
   *“**Ali**” desa, “**Bali**” demoq*
   Alixo’ja** – **Xo’jaali
   ***Xo’ja** ko’rsinga*
   *Har kim o’z aybini bilsa, **Vali** bo’ladi*
   *Ishni **Eshmat** qiladi, **Toshma**t lof uradi*
   *Aybni **Ali** qiladi, kaltakni **Vali** yeydi*
   ***Eshmat** o’chini, **Toshmatdan** olish*
   *Boyag’i-boyag’I, **Hasan** buvaning tayog’i*
   *Boyagi-boyagi, **Boyxo’ja**ning tayog’i*
   *Aql – **Hasan**, odob – **Husan***
   ***Hasan** aka quysin, **Qo’chqo**r aka ichsin*
   *Hazil-hazil, hazilni tushunmagan kal **Fozil***
   *Mulla **Mirashir**, topganin bizga tashir*
   *Uyida bir osh uni yo’q, utining oti – **Marjongul***
   ***Hulkar** bilan tarozi, bir-biridan norozi*
   *Hayronman **Shoniyoz**ni ishiga, Etik sotib, paytava olib yurishiga*
2. **ФЕ с мифологическими образами (с мифонимами):**
   ***Ayoz** ko’rgan kuning unutma*
   ***Ayamajuz** – olti kun, qahr aylansa qattiq kun*
   ***Aziz momo** olti kun, qaltirasa yeti kun, sakransa sakkiz kun, to’qransa to’qqiz kun, o’qransa yuz kun*
3. **ФЕ с именами исторических личностей:**
   *Bo’ji keldi, Bo’ji keldi, **Chingiz** bilan **Jo’ji** keldi*
   ***Mirzai** azimda ming **Xorun**ning xazinasi-yu, Tuman **Jamshid**ning davlati bor*
   *Qimorboz boy berganda **Jamshid**ni yodlar, Boy bo’lganda – qochishni*
   ***Asfandiyor** xon bo’ldi, og’zi-burnim qon bo’ldi*
   ***Sulaymon** o’ldi devlar qutildi*
   ***Almiqso**dan beri (qolgan)*
   ***Daqyonus**dan beri (qolgan)*
   *Suv tilasang, **Sulaymon**dan tila*
4. **ФЕ с именами Аллаха (с теонимами), пророков и святых (с агионимами):**
   ***Iso** ham o’z yo’liga, **Muso** ham o’z yo’liga*
   ***Muso**ni alamini, **Iso**dan olmoq*
   ***Odam Ato**dan qolgan*
   *Da’vogaring podshoh bo’lsa, arzingni **Alloh** eshitsin*

*Suvdan o’tguncha yo **Bahovuddin**, Suvdan o’tgach, qoch **Bahovuddin***
***Xizr** nazar qilgan*
*Qizil, **Xizrni** aynatur*
***Xizr**ni yo’qlasam bo’lar ekan*
*Cho’pni ko’rsang, **Xizr** bil*
*Yettining biri **Xizr***
*Uch kishi bir bo’lsa – biri **Xizir***
*Qizil qo’rqsa, **Xizir** yo’ldan chiqar*
***Azroil**ning biri turqi – bo’rida*
*Yaxshilik qil, daryoga sol, baliq bilar, baliq bilmasa **Xoliq** bilar*
*Jonini **Jabbor**ga berib ishlamoq*

5. ФЕ, связанные с национальным фольклором, антропонимическим компонентом встречающиеся в художественной литературе:
***Layli**ni ko’rish uchun **Majnun**ning ko’zi kerak*
*Ishqda **Tohir** bo’l, Ishda mohir bo’l*
*Oti bor – **Alpomish***
*Tata-tat, usta **Nadirmat***
***Oppoqxo’jam** ursin*
***Afandi** hovli olmay turib eshikni qayerga qursan ekan, deb mo’ljallagan ekan*
*O’laman **Sattor***

Установлено, что при образовании антропонимических компонентных фразеологизмов в узбекском языке широко используются следующие антропонимы: *Ali, Begoyim, Abdukarim, Iskandar, Sanam, Rajab, Alixo’ja, Xo’ja, Vali, Eshmat, Toshmat, Hasan, Husan, Boyxo’ja, Qo’chqor, Fozil, Mirashir, Marjongul, Hulkar, Shoniyoz, Ayoz, Ayamajuz, Aziz momo, Chingiz, Jo'ji, Mirzai, Jamshid, Asfandiyor, Sulaymon, Almiqso, Daqyonus, Iso, Muso, Odam ato, Bahovuddin, Xizr, Azroil, Xoliq, Jabbor, Layli, Majnun, Tohir, Alpomish, Nodirmat, Oppoqxo'ja, Afandi, Sattor.*

Так же можно отметить, что фразеология узбекского языка является одной из богатейших и фразеологические единицы стали неотъемлемой частью народного достояния. Большинство фразеологических единиц с антропонимическими компонентами состоят из традиционных узбекских имен, имен пророков, святых и исторических личностей, что свидетельствует о том, что имена людей занимают особое место в истории народа, образа жизни и устного народного творчества.

Использованная литература:

1. Abduraximov M. O’zbekcha-ruscha aforizmlar lug’ati. (1976). O’qituvchi. Ташкент.
2. Abdusamadov Z. (2021). Ingliz va o’zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. Диссертация доктора философии (PhD) по филологическим наукам. Ташкент.
3. Boltayeva B. (2019) O’zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantic-pragmatik tahlil). Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам, Самарканд.
4. E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Maxkamov, T. Mirzayev, N. Tuxliyev, E. Umarov, D. Xudoyberganova, A. Xodjiyev. O’zbek tilining izohli lug’ati. (2008). O’zbekiston milliy entsiklopediyasi. Ташкент.
5. Raxmatullayev Sh. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. (1992). Qomuslar Bosh tahririyati**.** Ташкент**.**
6. Sh. Raxmatullayev. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati (1978). O’qituvchi. Ташкент.
7. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz. (1987) G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at. Ташкент**.**
8. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. (2001). O’zbekiston milliy entsiklopediyasi. Ташкент.
9. Sodiqova M. Qisqacha o’zbekcha-ruscha maqol-matallar. (1993). O’qituvchi. Ташкент.
10. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. (1998). Большая Российская энциклопедия, Москва.

TERMIN VA TERMINOLOGIYA MASALALARI XUSUSIDA

ABOUT ISSUES OF TERMIN AND TERMINOLOGY

ПО ТЕРМИНАМ И ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИМ ВОПРОСАМ

M.R.Ergashev- filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), Qo'qonDPI

Annotatsiya: Ushbu maqola terminologiya fanining asosiy elementi hisoblangan terminning shakllanishi, o’rganilishi hamda uning tilshunoslikda tutgan o’rniga bag’ishlangan.

Tayanch so’z va iboralar: terminologiya, nominativ vosita, lingvistik xususiyat, kommunikativ ehtiyoj, so'z birikmasi.

Аннотация: Данная статья посвящена становлению, изучению термина, являющегося ключевым элементом науки о терминологии, и его роли в языкознании.

Ключевые слова: терминология, номинативные средства, языковая особенность, коммуникативная потребность, словосочетание.

Annotation: This article is devoted to the formation, study of the term, which is a key element of the science of terminology, and its role in linguistics.

Key words and expressions: terminology, nominative means, linguistic feature, communicative need, word combination.

Terminologiya tizimining asosiy elementi sifatida, termin ma'lum bir bilim yoki faoliyat sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u ushbu sohadagi boshqa birliklar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Shu bilan birga, terminlar boshqa nominativ vositalardan ma'lum darajada ilmiy g'oyalarni rivojlantirish natijalarini o'z ichiga olganligi bilan farq qiladi: termin nafaqat ilmiy faktlarni, balki ularning nazariy tushunchalarini ham aks ettiradi [1]. Natijada, terminni shakllantirish jarayoniga asosan u xizmat qiladigan maydon ta'sir qiladi. "Termin" tushunchasi terminologiya sohasi rivojining dastlabki yillarida asosan faylasuflar, mantiqchilar va tilshunoslar tomonidan faol o'rganildi. Lekin, termin va terminologiyaga bag'ishlangan bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo’lsada, ushbu kontseptsiyaning ta'rifi ko'plab tadqiqotchilar uchun muammo hisoblanadi, chunki har bir fan "termin" so'zini tadqiqot predmetiga qarab ma'lum bir pozitsiyaga ko’ra xarakterlaydi. Shu sababli tilshunoslikda terminning asosiy tizimini aks ettiruvchi, bir-birini to'ldiruvchi ta'riflari juda ko'p. Demak, tilshunoslik terminni lingvistik xususiyatlar nuqtai nazaridan belgilaydi, mantiq terminning kontseptual jihatlarini o'rgansa falsafa esa uning belgi tomonini o'rganadi. "Termin" tushunchasiga sohalarga qarab turli xil ta'riflar beriladi. Masalan, B.N.Golovin ushbu kontseptsiyaning 7 ta ta'rifini taklif qiladi [2], V.P.Danilenko 18 dan ortiq ta'riflardan foydalanadi, hamda ularni birlashtirish mumkinligini ta'kidlaydi [3]. Ushbu ta'riflar universal emas, chunki ular terminning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi. Biroq, ular ushbu leksik birlikni ma'lum bir bilim yoki faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan alohida bir tushunchani ifodalashini aytadi. Terminning bu talqini V.M.Leychikning asarlarida aks etgan. V.M.Leychik ushbu kontseptsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "termin - bu ma'lum bir maxsus bilim sohasi yoki faoliyatining nazariy bilimlari yig’indisi hamda umumiy - konkret yoki mavhum - tushunchani ifodalovchi, maxsus maqsadlar uchun mo’ljallangan til birligidir" [4]. Shunisi e'tiborga molikki, terminning ma'lum bir hududga tegishli ekanligi "Rus tilining izohli lug'ati" da ham berilgan.

D.N.Ushakova: "terminni (lotin tilidan olingan bo’lib terminus "miqdor, chegara") - aniq bir tushunchaning nomi \\ ma'lum bir muhitda, kasbda biror narsani belgilash uchun qabul qilingan maxsus so'z yoki ibora" – degan ta’rifini beradi [5]. Shu munosabat

bilan I.V.Arnold tomonidan taklif qilingan “termin” so’ziga berilgan ta’rifni ko'rib chiqish o'rinlidir. I.V.Arnold, bu tushunchani "bilim, ishlab chiqarish yoki madaniyatning ba'zi bir sohalariga xos bo'lgan tushunchani aniq ifodalashga, inson faoliyati bilan bog’liq bo’lgan turli xil kommunikativ ehtiyojlarga xizmat qiladigan so'z yoki ibora" sifatida ta'riflaydi [6]. Shundan kelib chiqadiki, “terminologiya” tushunchasi ma'lum bir sohaga xizmat qiluvchi va unda mavjud ma'no va mazmunning to'liqligini ochib beradigan birliklar to'plamidir. Terminologiyada terminning mohiyatini tushunishda ikkita yondashuv mavjud: normativ va tavsiflovchi. Birinchi yondashuv tarafdorlari bu atamani terminologik ma'noga ega va keng tarqalgan so'zlardan ma'lum grammatik tuzilish mavjudligi bilan farq qiluvchi leksik birlik deb hisoblashadi. Ushbu yondashuv doirasida D.S.Lotte mazkur til birligi uchun quyidagi talablarni ishlab chiqdi:

- bir ma’nolilik,
- aniqlik,
- izchillik,
- sistemaviylik,
- soddalik,
- motivlashgan,
- sinonimlar va omonimlarning yetishmasligi,
- muayyan terminologiya tizimida terminlarni shakllantirishda ishtirok etadigan boshqa atamalar bilan muvofiqlashtirish.

Shu bilan birga, D.S.Lotte boshqa tillardan o’zlashgan birliklarga nisbatan rus tilidagi atamalarga ustunlik berish muhimligini va unga terminologik maqom berilishi kerakligini ta'kidlaydi, [7]. Biroq, bir ma’nolilik va sistemaviylik kabi ba'zi qoidalarning tabiati umumiy xarakterga xos emas. Bir qator tilshunos olimlar “termin” - bir necha ma'noga ega bo'ladi degan farazni ilgari suradilar, va uning funksional ma'nosi bilan belgilanadigan so’zning tizimli mohiyatini tushunish ma'lum bir tilshunosning o'rganish sohasiga bog'liq ekanligini ta’kidlaydilar. Masalan, V.P.Danilenko uni tasniflash xususiyati deb biladi, A.A.Reformatskiy so'z birikmasi nuqtai nazaridan izchillikni tavsiflaydi. Shunday qilib, D.S.Lotte, tomonidan ilgari surilgan talablar umumiy qabul qilingan me'yor deb hisoblanmasligi kerak, ammo ular muhim, namunaviy mezonlardir. S.V.Grinev "termin" tushunchasiga nisbatan grammatik shakli, leksik ma'nosi va foydalanish ko'lami bilan belgilanadigan ko'proq universal talablarni taklif etadi:

- qarama-qarshi ma'no anglatmaydigan,
- bir ma’nolilik,
- to’liq ma’nolilik (kontseptsiyani belgilash uchun zarur bo'lgan minimal xususiyatlar atamasi ma'nosida aks etish),
- sinonimlarning yetishmasligi

Ta'riflovchi yondashuv doirasida G.O.Vinokur, B.N.Golovin, V.P.Danilenko, R.Yu.Kobrin va boshqalar terminologiyaga ma’lum bir sohaning elementi sifatida qaraydilar va uni og’zaki nutqda mavjud deb hisoblaydilar. Ushbu kontseptsiyaga ko'ra, maxsus so'zlar umumiy holda qo’llanilishi, va shu bilan birga ular o'z ma’nosini to'liq yoki qisman saqlab, yangi funksiyalarga ega bo’lib, maxsus lug'at tarkibiga kiritilishi mumkin. Oddiy so'zlar singari, ko'plab terminlar sinonimiya, antonimiya va ko’p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, lug’at qatlami orasidagi asosiy farq sifatida termin maxsus voqelikning elementi bo'lib, ma'lum bir kontekst doirasida amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida aksariyat tadqiqotchilar tavsiflovchi yondashuvni terminning xususiyatini eng yaxshi aks ettiradigan yondashuv deb hisoblashadi. Bugungi kunda tilshunoslikda terminni qaysi so’z turkumiga kirishi to'g'risida umumiy qabul qilingan fikr mavjud emas. Ushbu muammoni tahlil qilib, M.V.Orlovaning aytishicha, ba'zi olimlarning (xususan, G.O.Vinokur) asarlarida terminning nominativ xususiyati to'g'risida fikrlar berilgan ya’ni fe'l so’z turkumiga oid terminlarni ot so’z turkumiga oid terminlar bilan o’zgartirish imkoniyati bilan izohlab o’tilgan. Sifatlar ham terminlarni shakllantirishda ishtirok etadi, ammo ular ko'pkomponentli terminlarning bir qismi sifatida ishlatiladi va mustaqil birlik hisoblanmaydi. Ayni paytda boshqa olimlar (V.V.Vinogradov, L.AKapanadze va boshqalar) terminning asosiy roli bu ma’no

anglatadigan tushunchaga aniq ta’rif berish deb hisoblashadi. Yuqorida ilgari surilgan qarashlarga istisno tarzida nominativ-aniqlovchi vazifasiyani to'liq bajaradigan va tushunchaning mohiyatini o'zgarishlarsiz yetkazib beradigan ot so’z turkumiga oid terminlar ko'rib chiqilishi kerak. Demak, termin terminologik tizimning asosiy elementi bo'lib, bilim yoki faoliyat sohasi tushunchasini bildiruvchi ma'lum bir tilning leksik birligi hisoblanadi. Termin yaxlit ma’nolilik, aniqlik, izchillik, sistemaviylik shuningdek, sinonimiya va omonimiyaning yetishmasligi bilan xarakterlanadi. Terminlar muhitida so’z turkumlari turlicha bo'lishiga qaramay, ushbu birliklarning asosiy vazifasi terminni ma'lum bir terminologik tizimning boshqa birliklari bilan qo’llanishi jarayonida amalga oshiriladigan funktsiya bu nominativlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Superanskaya A.V. Obshaya terminologiya. Voprosi teorii / A.V. Superanskaya, N.V. Podolskaya, N.V. Vasileva. – M.: «Nauka», 1989. – 246 s.
2. Golovin B.N. O nekotorix problemax izucheniya terminov / B.N. Golovin // V.A.Tatarinov. Istoriya otechestvennogo terminovedeniya:

V 3 t. – T.2. – M.: Mosk. Litsey, 1995. – S.188–199.

3. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya: Opыt lingvisticheskogo opisaniya / V.P. Danilenko. – M.: Nauka, 1977. – 246 s.
4. Leychik V.M., Terminovedenie: predmet, metodы, struktura. Izd. 3-e. – M.: Izdatelstvo LKI, 2007. – 256 s.
5. Tolkoviy slovar russkogo yazika: V 4 t. / Pod red. D. N. Ushakova. – T.4. – Reprintnoe izdanie: M., 2000. – S. 689.
6. Arnold I.V. Osnovi nauchnix issledovaniy v lingvistike. – M.: Vissh. shk., 1991. – 140 s.
7. Lotte D.S. Osnovi postroeniya nauchno-texnicheskoy terminologii. –M.: Izd. AN SSSR, 1961. – 157 s.

FRANSUZ TILINING DUNYO TILLARIGA TA'SIRI

FRENCH HAS WIDESPREAD INFLUENCE

ВЛИЯНИЕ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА НА МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

Sh.Isakova- dotsent,
Sh.Xotamqulova-katta o`qituvchi, Qo ‘qon DPI

Annotasiya: maqola Frantsiya mashhur sayyohlik va madaniyat markazi ekanligi, frantsuz tili boy tarixga egaligi, frankofoniya davlatlari, fransuz tilining dunyo tillariga ta`siri, fransuz tiliga gaplashuvchi davlatlar, fransuz tili AQShda ham keng tarqalganligi va ingliz tili bilan yonma-yon ishlatilinishi, kundalik ingliz tilida ishlatiladigan fransuzcha so‘z va iboralar, ingliz tili lugat tarkibiga kirgan frantsuzcha so`zlar, frantsuz pazandachilik olami, purviqor va ko`tarinkilik ifodalovchi frantsuzcha so‘z va iboralar haqida.

Kalit so'zlar: madaniy manzil, frankofoniya davlatlari, butun dunyo, ingliz tili lugat tarkibiga kirgan frantsuzcha so`zlar, pazandalik dunyosi, purviqor va ko`tarinkilik, so'z, ibora.

Annotation: In the article it is learned that France is a hugely popular tourist and cultural destination, French is spoken across the entire globe, French has a rich history, French has widespread influence, French is used widely in the United States as well, French and ballet go hand in hand, French and the culinary world, Familiar French words and phrases used in everyday English tend to be fashion word, Inspirational and Cute French Words.

Key words: Cultural destination, entire globe, widespread influence, culinary world, French words and phrases, fashion

Аннотация: статье отмечается, что Франция является популярным туристическим и культурным центром, французский язык имеет богатую историю, страны франкофонии, влияние французского языка на мировые языки, франкоязычные страны, широкое распространение в США и употребляемое бок о бок с английским языком, французский слово, используемое в повседневном английском языке, и фразы, французские слова, включенные в словарь английского языка, мир французской кухни, а также красивые и приятные французские слова.

Ключевые слова: культурный адрес, франкоязычные страны, весь мир, включенные в английский словарь, французские мир кулинарии, французские слова и выражения

Roman tili oilasidan bo'lgan frantsuz tili dunyodagi eng go'zal tillardan biri hisoblanadi. Roman tili tarixan qadimgi rimliklar gaplashgan, lotin tilining ildizi sifatida foydalangan. Frantsuz tili romantizm tavsifini italyan va ispan kabi tillar bilan baham ko'rsa-da, bu, shubhasiz, eng go`zal romantik tillardan biridir.

Fransuz tili haqida qiziqarli faktlar:

1) Fransuz tilida butun dunyo bo'ylab gapiriladi.

Rasmiy maqomga ega bo‘lgan davlatlar soni bo‘yicha frantsuz tili ingliz tilidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Bu, shuningdek, ingliz tili bilan bir qatorda, dunyoning barcha mamlakatlarida o'qitiladigan tildir.

U 100 milliondan ortiq talaba va 2 milliondan ortiq o'qituvchisiga ega. Darhaqiqat, 1945 yildan beri frantsuz tilida so'zlashuvchilar soni sezilarli darajada oshdi.

Fransuz tili hali ham BMT va Yevropa Ittifoqi, shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro Amnistiya, Chegara bilmas shifokorlar va Qizil Xoch kabi ko‘plab xalqaro tashkilotlarning ishchi tili sanaladi.

2) Frantsiya juda mashhur sayyohlik va madaniyat markazi.

Dunyo mamlakatlari ichida Frantsiya eng ko'p sayyohatchilar tashrif buyuradigan mamlakat bo'lib, har yili 75 milliondan ortiq sayohatchilar tashrif buyurishadi. Fransuzlarning madaniyati juda keng: frantsuz filmlari dunyoda yuqori sifatli filmlar sanaladi va Kvebek filmlari ko'pincha kassada Gollivud blokbasterlaridan o`tib ketadi.

Agence Universitaire de la Francophonie tizimida 630 ta frantsuz tili universitetlari mavjud bo'lib, ular butun dunyo bo'ylab 350 dan ortiq muassasalarga jami 120 000 o'qituvchi va tadqiqotchilar tayyorlab beradi.

Fransuz tilida so'zlashuvchi olimlar va texnik mutahassislar dunyo tan olgan ylkan texnologik yutuqlar muallifidir. Ular havo shari, kinoteatr, Velcro va smart-kartalar kabi ixtirolar yaratishgan. Bundan tashqari, shtab-kvartirasi Parijda joylashgan Areva dunyodagi eng yirik fuqarolik atom energiyasi kompaniyasi hisoblanadi.

3) Fransuz tili boy tarixga ega.

Fransuz inqilobi davrida fuqarolarining 75 foizi frantsuz tilini ona tili sifatida bilmas edi.

1800-yillargacha frantsuz tili Gollandiya va Germaniyada Frantsiyaning ba'zi qismlariga qaraganda ko'proq tarqalgan.

1635 yilda Frantsiya akademiyasi tashkil etilib, u tilni boshqaradigan birinchi tashkilot hisoblanadi. Yaratilganidan beri dunyodagi asosiy tillarning aksariyati shunday boshqaruv organlarini tashkil etgan.

4) Fransuz tili keng ta'sirga ega.

Ingliz tilidagi asosiy so'zlarning taxminan uchdan bir qismi frantsuz tilidan kirgan. Va frantsuz tilida milliondan ortiq so'z bor, har yili 20 000 dan ortiq yangi so'zlar bilan boyiydi. Ingliz tili frantsuz tilidan so'zlarni olishda va ularni kundalik leksikoniga moslashtirishda davom etmoqda. Masalan, deja vu, kul-de-sac kabi so'zlar va femme fatale yoki film noir kabi mashhur iboralar shular jumlasidan.

5) Fransuz tili Qo'shma Shtatlarda ham keng qo'llaniladi.

Qo'shma Shtatlarda frantsuz tili butun mamlakat bo'ylab to'rtinchi eng ko'p

ishlatiladigan va ispan tilidan keyin eng ko'p o'qitiladigan ikkinchi o'rinda turadigan tildir.

Nyu-York, Florida va Kaliforniya qatoriga AQShdagi frantsuz tilining asosiy markazlari sifatida Luiziana va Nyu-England qo'shildi.

AQShda tomosha qilingan xorijiy filmlarning aksariyati frantsuz tilidagi filmlar bo'lib, chet el kitoblarining 30 foizi frantsuz tilida o'qiladi.

1,5 milliondan ortiq amerikaliklar frantsuz tilida so'zlashuvchilar bo`lib, yana 6 milliondan 11 milliongacha aholi frantsuz tilida ikkinchi til sifatida ravon gaplashadi.

6) Fransuzlar va balet yonma-yon yuradi.

Balet Frantsiyada rasmiylashtirilganligi sababli, balet terminologiyasining muhim qismi frantsuz tilidir: Rond de jambe, plié va enjambé kabi turli xil rasmiy balet pozalarini tasvirlaydigan frantsuzcha so'zlar.

7) Fransuzlar va pazandachilik dunyosi ham shunday.

Frantsiya o'zining ajoyib taomlari, shuningdek, vino eksporti bilan mashhur va shuning uchun frantsuzcha so'zlarning barchasiga mos kelishi ajablanarli emas: foie gras, brie va sauvignon blanc kabi so'zlar juda keng qo'llaniladi.

Frantsuz tilining ta'siri restorandan tashqariga chiqib, oshxonaga ham o`tadi. Oshpazlar nafaqat so`zlat, balki frantsuz pazandachilik san'atini ham o`zlashtirishgan, jumladan, julienne, consomme va hatto, mayonezga oid so`zlarni o'zlashtirishgan.

Fransuz tilining qamrovi kengligi va mashhurligi shubhasizdir. Bu til shoirlar va yozuvchilar tili, sevgi tili, sharob va taomlarni hushlovchilar tilidir. Bu butun dunyo bo'ylab olimlar, o'qituvchilar va talabalar tomonidan qabul qilinadigan til bo'lib, u biznes, siyosat va ijtimoiy adolatda jahon yetakchilari o'rtasida so'zlashilinadi. Va bundan tashqari dunyodagi eng go'zal, musiqali tildir.

8) Fransuz tarjimasi.

Hujjatni fransuz tilidan ingliz tiliga tarjima qilmoqchi bo`lsngiz, yoki ingliz tilidan frantsuz tiliga tarjima qidirayotgan bo‘lsangiz tarjima tilida so‘zlashuvchi malakali tarjimon bilan ishlash muhim. Tarjimada jinsni belgilash, urg'u va qisqartmalardan foydalanish muammolarga uchrashingiz tabiiy. Nihoyat, Fransiya, Kanada yoki boshqa frantsuz tilida so‘zlashuvchi hududni inobatga olish juda muhim, chunki turli dialektlarda turli idioma va iboralar qo‘llaniladi.

9) Frantsuz tili go'zallik ma'nosini ifodalovchi ajoyib til.

Xuddi ingliz tilida bo'lgani kabi, frantsuz tilida ham "chiroyli" deyishning ko'plab usullari mavjud: attrayant (erkak sifatlari) - jozibali, belle (ayol sifatlari) - chiroyli, charmante (ayol sifatlari) - maftunkor yoki yoqimli, éblouissante (ayol sifatlari) – ko‘zni qamashtiruvchi, étonnante (erkak sifatlari) – hayratlanarli, étourdissante (ayol sifatlari) – hayratlanarli, joli (ayol sifatlari) – go‘zal, ulug‘vor (ayol sifatlari) – ajoyib, mignon (erkak sifatdoshi) - kesilgan.

Sevgini aglatadigan romantik atamalar, ishqiy hissiyotlarni izhor etuvchi til sifatida ham frantsuzcha so'zlar, go'zal tovushlar va ma'nolar talaygina. Bu sevgi so'zlari sevilgan hayotingizga biroz romantiklini olib kelishi mumkin: amour (ot) - sevgi, amoureuse (ot) - qiz do'sti, amoureux (ot) - yigit, bisous (f`el) - o'pish, des tourtereaux (ko'plik ot) - lovebirds , embrasser (fe'l) - quchaqlamoq, fleur (ot) - gul, chérie (ot) - sevgilim, tendresse (sifat) - mehr yoki noziklik, trésor (ot) - xazina.

Turli manbalarga ko'ra, zamonaviy ingliz tili lug'at tarkibining kamida 30 foizi to'g'ridan-to'g'ri frantsuz tilidan olingan. "Shahzoda", "quvonchli" va "mol go'shti" kabi so'zlar frantsuz tilidan, shuningdek, aksariyat harbiy, huquqiy, texnologik va siyosiy sohalardagi umumiy atamalarga to`gri keladi.

Kundalik ingliz tilida ishlatiladigan fransuzcha so‘z va iboralar odatda modaga hos so‘zlardir. Bu atamalar ham tovush, ham ma’no jihatdan zamonaviy: arabesk (ot) - arabcha uslub, argenté (ot) – kumush, baqlajon (ot) – baqlajon / to‘q binafsha rang, biju (ot) – marvarid, cache-coeur (fe'l) - ko'kragiga o'ralgan/ o'ralgan, chapeau (ot) - shapka, chaussures (ot) - poyabzal, chemisier (ot) - bluzka, foncé (sifat) - qorong'u, marinière (ot) - Breton uslub, mélanger (sifat) - aralash, moyenne (sifat) - o'rta.

Purviqorlik va yoqimlilik kashf etuvchi frantsuzcha so'zlar.

Agar siz hayotdan ozgina ilhom izlayotgan bo'lsangiz, bir nechta frantsuzcha so'zlar sizni ko'proq his qilishga va ko'proq viqorli bo'lishga undashi mumkin: alunissage (f`el) - oyga qo'nish, bienvenue (ot) - xush kelibsiz, chatoyer (fe'l) - porlash, espérer (ot) - umid, esprit (ot) - aql, etoile (ot) - yulduz, félicitations (ot) - tabriklar, flâner (fe'l) - maqsadsiz sargardon bo'lmoq, gentil (sifat) - mehribon, meilleur (sifat) - eng yaxshi, rayonner (fe'l) - nur sochmoq yoki porlamoq, rêvasser (fe'l) - xayol surmoq, vivant (sifat) – tirik.

Oddiy ma'noga ega go'zal frantsuzcha so'zlar.

Yoqimsiz, qo'rqinchli va oddiy narsalar uchun ham frantsuzcha so'zlar chiroyli bo'lishi mumkin: araignée (ot) - o'rgimchak, blaireau (ot) - bo'rsiq, boulangerie (ot) - nonvoyxona, camion (ot) - yuk mashinasi, chanson (ot) – qo‘shiq, koksinelle (ot) – ladybug, deuxième (son) – ikkinchi, grenouille (ot) – qurbaqa, grisaille (sifat) – kulrang yoki ma’yuslik, jonquille (sifat) – za’faron, mademoiselle - miss (turmushga chiqmagan ayol), pâquerette (ot) - kichik yovvoyi romashka, pâtisserie (ot) - qandolatxona, poisson (ot) – baliq, troisième (son) – uchinchi, vivace (ot) – ko‘p yillik. L'amour de la Beauténi - to'kib tashlang.

Agar siz go‘zallikni kashf etlmoqchi bo‘lsangiz “go'zallikka bo'lgan muhabbat uchun” fransuz tilidagi lug'atlardan eng chiroyli so‘zlarni topig va qarang. Chiroyli frantsuz so`z va iboralaridan foydalanish har qanday insonni yanada oqila va mehribon qilishi tabiiy. Hayotingizni yanada go'zal qilishi mumkin bo`lgan kundalik turmushia qo'llanilinayotgan frantsuzcha so'z va iboralardan kengroq foydalanig . (Internet mariallari asosida tayyorlandi).

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Словары и переводчики.www/translationmemory/net
2. google.uz
3. http://www.rae/ru/forum
4. http://www.cle.fr/centre_linguistique-fr-idm-105-n-Exercices-idh-17.html
5. www.granddictionnaire.com
6. www.francophonnie.hacherre-livre.com
7. www.pedagog.uz
8. www.edu.u
9. https://www.dw.com/de/frenche-lernen/s-2055

“ILM-MA’RIFAT” SEMALI LUG’AVIY BIRLIKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЕМАЛЬНО-СЛОВАРНЫХ ЕДИНИЦ «ИЛМ-МА'РИФАТ»

METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF “ILM-MA'RIFAT” SEMALI LEUGAL UNITS

D. Rahmatullayeva-filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), Qo‘qon DPI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “ilm-ma’rifat” semali lug’aviy birliklarning uslubiy xususiyatlari yoritilgan bo’lib, unda o’zbek tili lug’at tarkibida bo’lgan ilm-ma’rifatga oid ayrim so’zlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: ilm-ma’rifat, nutq uslublari, semema, sema, ziyo, bilag’on, maktab, kengash.

Annotation. This article describes the methodological features of the semantic lexical units "science and enlightenment", which analyzes some words related to science and enlightenment in the Uzbek language dictionary.

Keywords: science, enlightenment, speech methods, semema, sema, enlightenment, bragging, school, council, knowledge.

Аннотация. В данной статье описываются методологические особенности семантических лексических единиц «наука и просвещение», в которой анализируются некоторые слова, относящиеся к науке и просвещению в словаре узбекского языка.

Ключевые слова: наука, просвещение, речевые приемы, семема, сема, просвещение, хвастовство, школа, совет, знание.

Tilshunoslikda muayyan lisoniy birliklarning nutq jarayonida namoyon bo’lishi, ularning uslubiy imkoniyatlari tahliliga qaratilgan bir qator ishlar mavjud bo’lib, bu tadqiqotlar nutq uslublarining shakllanish va taraqqiyot omillarini yoritish, har qaysi nutq uslubining o’ziga xos belgilarini aniqlash, ma’lum bir tarixiy davr, alohida ijodkor tomonidan yaratilgan badiiy manbalarining lug’aviy-uslubiy jihatlarini ochib berish, muayyan nutq tiplarining nutq uslublaridagi ko’rinishlarini o’rganish, so’z turkumlarining funktsional-stilistik xususiyatlarini aniqlash, badiiy asarlar tilining ma’noviy-uslubiy jihatlarini yoritish bilan bog’liq ravishda olib borildi.

Borliq hodisalarini idrok etishda tilning lug’aviy sathini tashkil etuvchi so’zning o’rnini alohida ko’rsatish zarur. Chunki borliqdagi har qanday mavjudot kabi leksemalar ham serqirradir. Ularda moddiylik, qurilish, tarixiy-etimologik, mansublik, ma’no, shakl, qo’llanish, uslubiy bo’yoq va boshqa jihatlar bor. Leksemalar har bir jihati (qirrasi, belgisi) asosida mustaqil tasnif manbai bo’la oladi[1:18].

Haqiqatan ham, nutq uslublari orasida badiiy matn ta’sirchanlik, bo’yoqdorlik, serqirralilik belgilari bilan birga, intertekstuallik xususiyatiga ham ega bo’ladi. Chunonchi, ifoda etilayotgan voqea-hodisa, muayyan jarayonni ishonarli, tushunarli tarzda yoritish maqsadida badiiy matnda turlicha nutq uslublarining ma’lum elementlari berilishi mumkin. Jumladan, turlicha soha vakillari hayoti, dunyoqarashi, nutqiy o’ziga xosligini to’laqonli yoritish uchun ana shu soha vakillarining kundalik maishiy turmush tarzi, kasbiy faoliyatini ko’rsatuvchi dalillar xususida ma’lumot olishimiz mumkin.

O’zbek tili leksik sistemasida “ilm-ma’rifat” semali lug’aviy birliklarning uslubiy xususiyatlari borasida fikr yuritilganda, ularning bu jihatdan rang-barang funktsional tabiatga ega ekanligini kuzatish mumkin. Jumladan,”ilm-ma’rifat” semali umumiy tushunchalar nomlari; shaxs nomlari; joy nomlari; narsa-predmet nomlari; belgi ifodalovchi nomlar; harakat ifodalovchi so’zlarning har qaysisi turli nutq uslublarida turli-tuman holatda namoyon bo’ladi.

Ayniqsa, bu rang-baranglik badiiy va so’zlashuv uslubida yaqqol ko’zga tashlanadi. Xususan, badiiy uslubdagi mazkur tushunchalarning o’ziga xos xususiyatlarini ayrim nasriy va lirik asarlardan olingan parchalar misolida kuzatish mumkin.

“Ilm-ma’rifat” semali leksemalar orasida denotativ ma’nosi tarkibidagi ayrim semalarini saqlab, ma’lum uslubiy maqsadlarga qaratilgan holda qo’llaniluvchi lug’aviy birliklar ham talaygina. Masalan:

O’tlamoq – 2. mavzuga oid bo’lmagan, kerakli-keraksiz, og’ziga kelgan gaplarni gapirmoq[3:180].

Ko’rinadiki, mazkur leksemaning konnotativ ma’nosi orqali “adashish”, “mavzudan uzoqlashish”, “o’rinsiz so’zlash” belgilari bilan namoyon bo’ladi. Bu so’zning konnotativ ma’nosi ko’proq og’zaki so’zlashuv jarayonida kuzatiladi:

Ey, nimalar deyapsan?! O’tlab ketding-ku!(So’zlashuvdan)

Bu yerda qo’llanilgan o’tlab ketding fe’li mavzudan uzoqlashish, masalaning mohiyatidan chalg’ish ma’nosiga to’g’ri keladi. Xuddi shunday bilag’on so’zining ham keyingi ma’nosi bilan og’zaki so’zlashuvda funktsional xususiyatlari o’zgaradi:

Bilag’on – 1. Ko’p narsadan xabardor bo’lgan, ko’p biladigan, bilarmon.

2. “Aslida hech narsani bilmaydigan”, aravani quruq olib qochuvchi[3:259].

Keyingi ma’noda “bilmaslik”, “o’zini bilimdon qilib ko’rsatish” semasi ustunlik qiladi.

N.Mahmudov va Yo.Odilovlar antonimiya va enantiosemiya hodisalari xususida bahs yuritib, ular o’rtasidagi umumiy va xususiy jihatlarni batafsil izohlaydilar. Xususan: ”Enantiosemiya ham, antonimiya ham ma’nolar o’rtasidagi qarama-qarshi munosabatga asoslanadi. Ammo enantiosemiya so’zda, antonimiya so’zlarda voqelanadi. Antonimiya anglatadigan zidlikni kontekstsiz ham tushunish mumkin, ammo enantiosemiya anglatadigan zidlikni nutqiy vaziyat namoyon etadi”[1:48].

O’zbek kino san’atining ajoyib namunalaridan biri bo’lgan “Suyunchi” badiiy filmida Anzirat xolaning nabirasi, professor laqabini olgan yigit (10 o’g’ilning to’ng’ichi) ayni vaqtda mustaqil, mulohaza orqali fikr yuritishga ega bo’lmagan, hali deyarli hayotga tayyor bo’lmagan bola sifatida gavdalanadi. Bu yerda professor tushunchasi xalqona soddalikka yo’g’rilgan, biroz yumor bilan qo’llanilgan.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da ziyo so’zi shunday izohlanadi:

Ziyo – 1. Yog’du, yorug’lik, nur.

2. Bilim, ma’rifat, ilm; ongni yorituvchi har qanday narsa[3:146].

Izohdan ma’lum bo’ladiki, bu leksemaning ikkinchi ma’nosi ushbu so’zning “ilm-ma’rifat” semali guruh tarkibiga kirishi uchun asos bo’ladi. Anglashiladiki, bilim, ilm, ma’rifat tushunchalari inson ongini yorituvchi nurga tengdir. Masalan: Maktab – ziyo maskani gapida maktab, bilim, ma’rifat singari tushunchalarning uzviy bog’liq ekanligiga ishora qilinadi.

Ta’lim bilan bog’liq joy nomlari orasida maktab leksemasining funktsional imkoniyatlari keng bo’lib, nutqda faol qo’llaniladi. Maktab leksemasi tarkibida “joy”, “bino”, “muassasa”, “ilm-ma’rifat”, “ta’lim” semalari mavjud:

Maktabda senga shuni ta’lim beradimi?(A.Qahhor)

“Ilm-ma’rifat” semali lug’aviy birliklar orasida kengash so’zi ham alohida xususiyat kasb etadi. Lug’atda bu so’zning izohi shunday beriladi:

Kengash – 1. Biror ish, harakat yuzasidan fikr-mulohaza, yo’l-yo’riq; maslahat.

2. O’zaro, birgalikdagi muhokama; shunday muhokama majlisi; yig’ilish.

3. Biror korxona, muassasa, jamiyatning farmoyish yoki maslahat beruvchi organi[3:352].

Ko’rinadiki, izohli lug’atda mazkur so’zning barcha ma’nolari tahlil etilayotgan guruh tarkibiga olib kiradi.

So’zning dastlabki ma’nosi “maslahat”, “yo’l-yo’riq” semasi bilan; ikkinchi ma’nosi “majlis”, “muhokama” semasi bilan; uchinchi ma’nosi esa “vakolatli organ” semasi bilan ko’zga tashlanadi. Leksemaning dastlabki ma’nosi keyingi ma’nolari orqali funktsional jihatdan ancha kengaygan.

Badiiy uslubda “ilm-ma’rifat” semali lug’aviy birliklarning o’ziga xos konnotativ ma’nosi gavdalanadi.

Masalan:

Vatan tanangdagi jondir, qondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.
(A.Oripov, Imtihon)

Imtihon leksemasining ma’nolari tarkibidagi “sinov” semasi konnotativ ma’noga asos bo’lmoqda.

Qarshingda turibdi yosh bir iste’dod,
Balki olamshumul bo’lajak daho.
Bir og’iz so’z aytib, bersang gar imdod,
Tillaring kesilib qolgaymikan yo?
(A.Oripov, Baxillik).

Bu satrlarda shoir she’riy matnning talablaridan kelib chiqib, ifodaning badiiyligini ta’minlash, so’zning ta’sir kuchini oshirish maqsadida iste’dod, daho so’zlarining ellipsisga uchragan shaklidan foydalangan. Bu o’rinda iste’dod, daho so’zlari bevosita shaxs va uning belgisini ifodalashga xizmat qilgan

.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madrahimov I.S. O’zbek tilida so’zning serqirraligi va uni tasniflash asoslari: Filol. fanl. nomz....diss. avtoref. Toshkent, 1994. – B.18.

2. Mahmudov N., Odilov Yo. So’z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. Toshkent: Akademnashr, 2014. – B.48.
3. O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildli. 2-jild. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – B.146.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ ТОПОНИМИИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ИХ ИЗУЧЕНИЕ
HISTORICAL SOURCES OF TOPONYMY OF THE FERGANA VALLEY AND THEIR STUDY
FARG’ONA VODIYSI TOPONIMIYASINING TARIXIY MANBALARI VA ULARNING TADQIQI

К.М.Хамидова – соискатель, КокандДПИ

Аннотация. В статье рассматриваются богатые географические, исторические, лингвистические: лексико-семантические, этимологические, номинативно-мотивационные, словообразовательные сведения о топонимии Ферганской долины и используемых в них исторических топонимах.

Ключевые слова: топоним, топонимия, исторический топоним, ойконим, полисоним, гидроним, ороним, вариант топонима, фонетический вариант топонима, лексико-семантический анализ, этимологический анализ, номинативно-мотивационная основа, словообразовательный признак.

Annotation. The article deals with the rich geographical, historical, linguistic: lexical-semantic, etymological, nominational-motivational, derivational information about the toponymy of the Fergana Valley and the historical toponyms used in them.

Keywords: toponym, toponymy, historical toponym, oykonim, polysonym, hydronym, oronym, toponym variant, phonetic variant of toponym, lexical-semantic analysis, etymological analysis, nominational-motivational basis, derivational feature.

Annotatsiya. Maqolada Farg’ona vodiysi toponimiyasi haqida boy geografik, tarixiy, lisoniy: leksik-semantik, etimologik, nominatsion-motivatsion, derivatsion ma’lumotlar beruvchi asarlar va ularda qo’llangan tarixiy toponimlar masalasi yoritilgan.

Kalit so’zlar: toponim, toponimiya, tarixiy toponim, oykonim, polisonim, gidronim, oronim, toponim varianti, toponimning fonetik varianti, leksik-semantik tahlil, etimologik tahlil, nominatsion-motivatsion asos, derivatsion xususiyat.

Farg’ona vodiysi toponimlarining tarixiy variantlarini to’plash va o’rganishda Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” asarining “Movarounnahr” qismi, muallifi noma’lum “Hudud ul-olam” (X asr), Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiyning “Hasan at-Taqosim”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg’ona” asarlari muhim va noyob manba sanaladi.

Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” (“Erning surati kitobi”) asarining “Movarounnahr” qismi “Farg’ona”, “Farg’ona viloyatlari”, “Farg’ona konlari” nomli bo’limlarida Farg’ona o’lkasi, geografik joylashuvi, viloyatlari, qadimiy shaharlari va tog’lari xususida geografiya fani nuqtai nazardan tavsiflar berilgan. Asar vodiyning xoronim va oykonimlarining tarixiy variantlarini o’rganish hamda boshqa tarixiy manbalarga qiyoslashda muhim manbadir.

Arab geografi va sayyohi Muqaddasiyning “Ahsan at-taqqosim fi ma’rifat al-aqolim” (“Iqlimlarni o’rganish uchun eng yaxshi qo’llanma”) nomli asarida Farg’ona vodiysidagi 40 ta shahar qatorida *Axsikat, Koson, Bob* (Pop) shaharlari ham qayd etilgan [1]. Anglashiladiki, Namangan viloyati oykonimiyasiga mansub *Axsikent, Kokonsoy, Pop* qadimiy va tarixiy shaharlardir. Asarda hozirgi *Axsikent* oykonimi *Axsikat, Kosonsoy* polisonimi *Koson*, *Pop* polisonimi *Bob* variantida keltirilgan.

Muallifi noma’lum “Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag’rib” (“Olam (Er)ning mashriqdan mag’ribgacha bo’lgan chegaralari haqida kitob”), fanda qisqacha “Hudud ul-olam” shaklida tanilgan tarixiy-geografik asarda ham Markaziy Osiyo, xususan, O’zbekistonga doir geografik, etnografik ma’lumotlar berilgan. Jumladan, *Buxoro, Vaykand (Poykend), Sug’d, Tavovis, Karmina (hozirgi Karmana), Kushoniy (Kushaniya), Samarqand, Kesh, Tirmiz (Termiz), Farg’ona, Shosh* va boshqa shahar hamda viloyatlar ta’rifi keltirilgan. Asarda hozirgi Tojikistan, Qirg’iziston, Turkmaniston, O’zbekiston va G’arbiy Xitoy hududi ancha mukammal tasvirlangan. Unda dengiz, daryo va boshqa joy nomlari batafsil keltirilgan.

“Hudud ul-olam”da Namangan viloyati toponimiyasiga mansub *Xatlom* (hozirgi Norin) daryosi, *Bob* (hozirgi Pop), *Axsikat* (hozirgi Axsi) kabi tarixiy toponimlar kuzatiladi [2]. Kitobning “Daryolar haqidagi so’z” nomli qismida Xatlom daryosiga quyidagicha izoh beriladi: *“Yana biri Xatlom daryosi. Moniso to’g’idan, Xallux va Yag’mo o’rtasidagi chegaradan boshlanadi. Xatlom shahridan o’tib, Bob yaqinigacha boradi va O’zgand daryosiga quyiladi”* (9-bet). SHuningdek, kitobning boshqa o’rnida mazkur shaharga oid quyidagi qayd kuzatiladi: *“Kashokas, Pob – ikkita obod shaharcha, ekinzorlari ko’p. Mazkur shaharlar barchasi Farg’ona nohiyatiga mansub”* (16-bet). Demak, mazkur manbada hozirgi *Pop* oykonimi *Bob, Pob* kabi fonetik variantlarda qo’llangan.

Risolaning “Movarounnahr nohiyati va undagi shaharlar haqida so’z” qismida xozirgi *Axsikent* oykonimi aynan Muqaddasiyning “Ahsan at-taqqosim fi ma’rifat al-aqolim” asaridagi kabi *Axsikat* shaklida berilgan: *“Axsikat – Farg’onaning qasabasi, amir va mas’ul a’yonlarning qarargohi erur; katta shahar, Xashart daryosi bo’yida joylashgan; tog’ etagida”* (15-b.). Bizningcha, *Xashart* ham *Yaksart* nomining fonetik variatni bo’lib, hozirgi *Sirdaryo* gidronimining tarixiy leksik varianti. *Yaksart, Yaxshart, Chinchuxe, Yinchu, Xashart* kabi daryoning tarixiy nomlari aynan bir ma’noga ega.

Z.M.Boburning «Boburnoma», G’iyosiddin bin Humomiddin Xondamirning «Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar» («Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do’st») kitobi (1523 y.), Muhammad Haydar mirzo Ayoziyn «Tarixi Rashidiy» asarlari [3] XV–XVI asrlar Farg’ona vodiysi toponimiyasi haqida yorqin ma’lumotlar beruvchi manbalardir.

Viloyatdagi tarixiy *Axsi* oykonimi asarda eng ko’p qo’llangan bo’lib, 34 o’rinda aynan Axsi shaklida beriladi. Bobur nom manbalarda *Axsikat* tarzida yozilganligini ham aytadi: *“Sayxun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: biri Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitarlar”*(Boburnoma, 36-b.) Shuningdek, asarda hozirgi *Kosonsoy* polisonimi *Koson, G’ova* oykonimi *G’avo* variantlarida qo’llangan.

Muhammadhakimxon To’raning «Muntaxab at-tavorix» («Saylangan tarixlar kitobi») [4], Mirzoolim Mushrifning «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» («Sultonlar nasablari va xoqonlar tarixlari») [5], Niyoz Muhammad Ho’qandiyning «Ibratul xavoqin (Tarixi Shahruxiy)» («Xonlarga ibrat») [5], Mirzo Olim Maxdum hojining «Tarixi Turkiston» [7], Is’hoqxon to’ra Ibratning «Farg’ona tarixi» asari [8] XVIII – XIX asr Farg’ona vodiysi toponimiyasining tarixiy manbalardir.

Asarning “Dengizlar va qo’ltig’lar haqidagi so’z” nomli bobida Xazar dengizi (hozirga Kaspiy dengizi), Xorazm dengizi (Orol dengizi), “Daryolar haqidagi so’z” bobida Jayhun (Amudaryo), Xarnob (Panj daryosi irmog’i bo’lishi mumkin), Chag’onrud (Surxondaryo), O’zgand (Qoradaryo), Xirsob (Qurshob), O’sh daryosi (Oqbura), Xatlom (Norin), Parak (Chirchiq), Buxoro daryosi (Zarafshon) kabi tarixiy gidronimlarning leksik va fonetik variantlari keltirilgan [9].

Asarning “Tog’lar va undagi ma’danlar haqidagi so’z” deb atalgan bobida bir qancha oronimlarning tarixiy variantlari tilga olingan va tavsiflangan. Kitobda Talas Olatovi tizmasi To’las shaklida qo’llangan: “.... Tug’uzg’uz chegarasidan Isko’k dengizi yaqinida bir tog’ boshlanadi; u davom etib, Tuxsiyonning oxirigacha va Xallux chegarasi boshlanishigacha boradi. Undan bir tizma ajralib , xirxiz qavmlaridan biri [joylashgan]

nohiyaga qaytadi va uni *To’las to’g’i* deyishadi” (7-b.). Demak, Talas Olatovi tizmasi Issiqko’l dengizi yaqinidan boshlangan va To’las deb atalgan. To’las oronimning tarixiy varianti. Shuningdek, asarda Ramijantepa oronimi ham tavsiflangan: Karmina, Dabusiy, Rabinjan – Sug’ddagi shaharchalar [Buxorodan] Samarqandga boradigan yo’lda; obod [joylar], noz-ne’mat, oqar suvlar va daraxtlar [ko’p] (12-bet).

Rabinjan qadimiy shaharcha o’rni bo’lib, hozirda Samarqand viloyatining Kattaqo’rg’on tumani hududidagi *Ramijantepa* deb ataladigan joy.

Asarda *Butamon // Buttamon // Buttam* (hozirgi Nisor tizmasi), O’rta *Butamon // Buttamon* (hozirgi Zarafshon tizmasi), *Tashqi Buttam* (Turkiston tizmasi) kabi oronimlar ham qayd etilgan.

“Josht hududida tugaydi. Shimoli – g’arbda Movarounnahrdagi ***Butamon*** *hududiga o’tadi...”.*

“Asosiy tizma Butamonga yetganda ikki tizmaga ajralib chiqadi. ***Butamon*** *– Daryoja bilan Chag’oniyon oralig’idan o’tib Samarqand va So’g’d hududiga boradi va Buxora hududigacha [etadi]”* (7-bet). Shuningdek, asarda tarixiy xoronimlar – ma’muriy-hududiy bo’linmalarning tarixiy atoqli nomlari, Choch daryosi (Sirdaryo), Dizak (Jizzax), Ishtixan (Ishtixon), Xavokand (Qo’qon), Avol (Avval), Chadg’al (Chotqol), Gurgonj (Urganj) kabi gidronimlar, oykonimlarning tarixiy variantlari keltirilgan va izohlangan.

Tahlil va dalillardan ko’rinadiki. “Hudud ul-olam” asari o’zbek tilining hozirgi oykonimiyasi va gidronimiyasiga mansub toponimik birliklarning tarixiy fonetik, leksik variantlarini qiyosiy-tarixiy tadqiq qilish, xususan, tilning toponimik tizimidagi lisoniy o’zgarishlar va ularning yuzaga kelishi bilan bog’liq lisoniy, nolisoniy omillar hamda toponimiyadagi sotsiolingvistik, pragmatik takomillashuvlarni o’rganishda muhim ahamiyatga ega manbadir.

V.V.Bartold asarlari o’zbek tili, jumladan, Farg’ona vodiysi tarixiy toponimiyasini o’rganishda alohida mohiyatga ega [10]. Olimning «Энциклопедии ислама» kitobida Farg’ona vodiysi toponimiyasiga mansub *Andijon, Axsiket, Marg’ilon, Farg’ona, Qo’qon* shaharlarining tarixi va nomlanishini qadimiy arab, fors va turkiy tillardagi manbalarga tayangan holda yoritilgan.

P.B.Lur’ening sug’d toponimiyasiga doir tadqiqotida ham *Farg’ona, Axsikat, Kand, Salot, Andukan, Koson, Miskan, Zarkan, Ushtikan, Vorux, Navkat, O’zgand, Xuvakand, Zandarmetan, Jadg’al, Xo’jand* toponimlarining strukturasi, ma’nosi va etimonlariga doir qimmatli tahlillar berilgan [11].

Sh.S.Kamoliddin Markaziy Osiyoning qadimgi turkiy til toponimiyasiga doir monografiyasida *Axsikat, Qubo, O’sh, O’zgand, Otboshi, Qo’chqorboshi, Aval, Jadg’al // Jidgil (Chotqol), Yettikand, Ushtikan, Biskand, Andukan, Asbara // Aspara // Ashpara (Isfara)* kabi toponimlarni turkiy til asosida yuzaga kelgan nomlar guruhiga kiritadi [12].

S.Qoraevning tadqiqotlari ham Farg’ona vodiysi toponimiyasiga mansub ayrim nomlarning tarixiy variantlarini o’rganishda muhim manba hisoblanadi [13]. A.Muhammadjonovning turkum maqolalarida ham *Farg’ona, Marg’ilon, Andijon, Namangan, Xo’jand, Quva, Qo’qon, Izbosgan* kabi yirik shahar nomlarining paydo bo’lishi, lug’aviy qatlamlari, strukturasi va motivatsion-nominatsion xususiyatlari yoritilgan [14].

G.Jo’raboeva Farg’ona vodiysi tarixiy toponimiyasini tadqiq etar ekan, ayrim tovush o’zgarishlariga uchragan va birdan ortiq variantdorlikni hosil qilgan toponimlarni quyidagicha guruhlaydi:

a) bir davr manbalarida tovush o’zgarishiga uchragan nomlar: *Prag’ana ~ Parg’ana ~ Farg’ona; Besharig’ ~ Beshariq; Yormazor ~ Yormozor; Arziqtepa ~ Arzangtepa ~ Arziktepa; Tirg’ov ~ Targ’ova; Xurramsaroy ~ G’urumsaroy* [15]*;*

b) turli davr manbalarida tovush o’zgarishiga uchragan nomlar:

ikki davrga xos variantdor nomlar: *Labbaytag’o // Labbaytog’a; Isbosgan // Izbosgan; Bob ~ Pob // Pop; Chamash ~ Chamashbiy // Chamoch; Nasux // Nursux; Oqjangal ~ Oqjingil // Oqchangal; Chahortog’ // Chortoq; Yozyabon //*

Yozyovon; Paloson ~ Faloson // Poloson; G’avo // G’ova; Bibi Ubayda // Buvayda; Jaloyir // Jalaer; Xafalak // Xapalak; Besaron // Besarang; Chadg’al ~ Jadg’al // Chotqol; Ulug’nahr // Ulug’nor va boshqalar;

uch davrga xos variantdor nomlar: *Xshikat ~ Axsikat // Axsi // Axsi ~ Axsikent; Qubo // Qubod ~ Qubo ~ Quva // Quva; Andukan ~ Andukon // Andigon ~ Andigan ~ Andijon // Andijon; Marg’inon // Marg’inon ~ Marg’ilon // Marg’ilon; Asbara // Ispara ~ Isfara // Isfara* kabilar;

to’rt davrga xos variantdor nomlar: *O’zgand ~ Uzkand ~ Yuzkand // O’zgand ~ O’zjand // O’zgand // O’zgan; Xavokand ~ Xo’qand // Xo’qon // Xo’qand // Qo’qon; Rishton // Rushdon // Rashidon ~ Roshidon // Rishton* va boshqalar.

3. Tarkibidagi leksemalar ayrim o’zgarishlarga uchragan toponimlar: *G’ijdon G’ozibek > G’ozig’ijdon; Qaynar Oxund > Oxunqaynar; Ovuli Qozoqon > Qozoqovul; Koson > Kosonsoy; Shahriamir > Shahrixon* [16].

Har bir toponimda insoniyat tarixining kichik bir qirrasi, zarrasi o’z aksini topadi. O’zbek tili, jumladan, Farg’ona vodiysi tarixiy toponimlari xalq tarixi, etnik tarkibi va taraqqiyoti, tarqalishi, turmush tarzi, kasb-kori, etnografiyasi hamda qadimiy toponimlarning etimonlari, lisoniy takomili kabilar haqida yorqin ma’lumotlar beradi.

N.Uluqov qayd etganidek, kelgusida “Hudud ul-olam” va Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiyning “Xasan at-Taqosim”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg’ona” va boshqa tarixiy asarlardagi o’zbek tili toponimlarining areal, qiyosiy-tarixiy, etimologik, struktural-tipologik jihatdan tadqiq etish o’zbek toponimikasining navbatdagi muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.Аҳмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 122-123.
2. “Ҳудуд ул-олам”. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 64. Ушбу манбадан олинган иқтибосларнинг саҳифаси кейинги ўринларда қавс ичида кўрсатилади.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 704; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. – Тошкент: O’zbekiston, 2013. – Б. 1272; Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Тошкент: Шарқ, 2010. – Б. 719; Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. – Тошкент: O’zbekiston, 2011. – Б. 704.
4. Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 716.
5. Мирзоолим Муширф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – Б. 128.
6. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул хавоқин. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – Б. 700.
7. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 242.
8. Исҳоқхон Жунайдуллохожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. «Мерос» туркумидан. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 336; Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 105.
9. “Ҳудуд ул-олам”/ Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исъхоқов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 6-10.
10. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Санкт-Петербург, 1900. – С. 573; Ўша муаллиф. Сочинения. Том III. – Москва: Наука, 1965. – С. 326, 342, 462, 481, 527.
11. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: дисс. канд. филол. наук. – СПб.: Институт востоковедения РАН, СПб филиал, 2004.
12. Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарқ, 2006. – Б. 84-88.
13. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005; Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 162-248.
14. Муҳаммаджонов А. «Андукон», «Андигон» ва «Андижон» топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2002. – № 2; «Қува» ёки «Қубо» топоними ва «Қубод» атамасининг этимологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. – № 3; Фарғона номининг маъносига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 6; Латиф шаҳарлар // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1987. – № 12; Марғилон – Марғинон номининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 3.
15. Олима бир даврдаги вариантдорликни ~, икки ва ундан ортиқ даврдаги вариантдорликни кўрсатиш учун **//** белгисини қўллаган.
16. Жўрабоева Г. , 59.

RANG BILDIRUVCHI SIFATLAR VA O‘ZBEK ETNOGRAFIYASI

ЦВЕТОВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА И УЗБЕКСКАЯ ЭТНОГРАФИЯ

COLOR-EXPRESSING QUALITIES AND UZBEK ETHNOGRAPHY

М.Хирожиддинова-таянч докторант, Қўқон ДПИ

Annotasiya: Ushbu maqolada rang-tus ifodalovchi ayrim sifatlarining o‘zbek etnografiya bilan bog‘liq tomonlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: sifat, rang-tus, rang tus sifatlari, ko‘k, yashil, qora, sariq, etnografiya, bog‘liqliklik

Аннотация: Данная статья изучает связь некоторых цветообразующих прилагательных с этнографией узбекского народа.

Ключевые слова: прилагательные, цветовых прилагательные, синие, зелёные, жёлтых, красных, этнография, связанность

Annotation. : This article studies the connection of some color-forming adjectives with the ethnography of the Uzbek people

Keywords: adjectives, color adjectives, blue, green, yellow, red, ethnography, connectedness

Tildagi har bir so‘z millatning oyinasi sifatida uning barcha jihatlarini ko‘rsatib turadi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy o‘z vaqtida “Har bir millatning o‘zligini ko‘rsatadigan narsa uning tili va adabiyotidir”, “Milliy tilni yo‘qotmoq, millatning ruxini yo‘qotmoqdir” [4), deb alohida ta’kidagan edi. Darhaqiqat, har bir millatning oyinasi bu uning tili (va adabiyoti) bo‘lar ekan, bu millatning so‘zi, ruxiyati, tashqi qiyofasi, ichki olami, kiyinishi, muomala madaniyati, mehmon kutish odobi - turli xil udumlari va tutumlari vaziyat uchun tanlangan alohida so‘zlar bilan bayon etiladi. Bularda istifoda etilgan so‘z grammatik jihatdan qaysi turkumga mansubligidan qat’i nazar, muayyan urf-odatlarga tegishliligi bilan e’tiborni tortadi.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar turkiy xalqlar urf-odatlarida alohida mavqe kasb etadi. Bir turkum rang-tus bildiruvchi sifatlar borki, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy yoki salbiy ta’siriy bahosi bilan ana shu urf-odatlarni ifodalasa, yana bir turkum sifatlar boshqa turkumdagi so‘zlar (ko‘proq ot turkumiga mansub so‘zlar) bilan qo‘shilib, qo‘shma ot yoki so‘z birikmasi shaklida urf-odatlarning ifodachisiga aylanadi. Yoki yana bir turkum sifatlar bevosita otga ko‘chib ana shu vazifani ado etishga moslashadi. Masalan, quda-andachilik marosimlarida kuyov bo‘lmish tomondan fotiha uchun kelgan mehmonlar kelganida, ularning oyoq ostiga oq poyandoz solinadi. Bu odat yangi kuyov o‘z do‘stlari (kuyovnavkarlar) bilan tashrif buyurganida ham, to‘yning uchinchi kuni kelinning uyiga kuyov kelganida ham takrorlanadi. Ayrim bir hududlarda to‘yga tashrif buyurgan yoshi ulug‘ ayollarning oq kiyimlar kiyib, oppoq ro‘mollarda kelishi odat tusiga kirgan. Marg‘ilonda issiq marosim bo‘ladimi, sovuq marosim bo‘ladimi, ana shu oq ro‘mol o‘rash odati saqlanib qolgan. Albatta, bu odatda ham alohida hikmat bo‘lib, unda marosimlarga tashrif buyurganlarning eng yaxshi tilaklari mujassamlashgan bo‘ladi.

Yoki Abdulla Qodiriyning “O‘tgkan kunlar” romani nihoyasida (epilogda) bosh qahramonlardan biri Otabekning keyingi taqdiri haqida xabar bergan yozuvchi Yusufbek xojining Qanoatshohdan xat olganligi, xatda Otabekning rus bosqinchilari bilan bo‘lgan muxorabada shahid bo‘lganligini qayd etar ekan, romanni bunday yakunlaydi: “Shundan keyin Yusufbek xoji buni elga oshkor qilib osh berdi. O‘zbek oyim qora kiyib, aza ochdi”[11]. Bu o‘rinda rang-tus sifati bo‘lgan “qora” so‘zi, otga ko‘chib, muayyan bir

musibatni – xalq o‘rtasida biror yaqin kishisi vafot etganida, azani ma’lum etib, qora kiyim kiyishiga ishora qilyapti. Bu udum bugungi kunda ham bir qator hududlarda saqlanib qolgan. Ayrim hududlarda esa (masalan, vodiy hududlarida) ayollarning ko‘k matodan tikilgan ko‘ylak-lozim kiyishlari, shu rangda ro‘mol o‘rashlari urf bo‘lgan. Erkaklar esa, qora chopon kiyishganlar. Shunday marosimlarda ”qora”, “ko‘k” rangli matolar muayyan muddat (masalan, ayollar kishi vafot etgandan boshlab, qirq kungacha) davomida kiyib yuriladi. Er vafot etgan bo‘lsa, uning xotini iddasi chiqqunga qadar (uch oyu o‘n kun) qora yoki ko‘k kiyimni kiyib yurishi odat tusga kirgan. Shulardan keyingina o‘lik egalarining azadorlikdan chiqishlarini ayon etuvchi marosim o‘tkaziladi. Bunda azadorlarning boshlariga oq mato tashlanadi. Bu “oqlik” deyiladi. Bundan tashqari, shu marosimda ayollar qatnashib, oq osh (shirguruch – sutga pishirilgan guruch) pishirishadi va shundagina tutilgan aza nihoyasiga yetadi. Biror kishi vafot etganida, uni yuvib-tarab, oq matoga o‘rab (bu kafan deyiladi) dafn qilinadi. Tobutni oq matoga o‘rash, Toshkent va unga yaqin hududlarida urf bo‘lgan. Farg‘ona hududlarida ham tobut ustiga oq mato tashlanadi.

Xalq o‘rtasida og‘ir mehnat “qora mehnat” deyilgan bo‘lsa, shu ish tufayli yoki qattiq iztirob tufayli terga botgan odamni “qora terga tushdi” deyilgan. Kishini qiynab qo‘yadigan yoxud uyat holatiga tushishiga sabab bo‘ladigan ishlar “qora ish” deb yuritilgan. Uyat holatiga tushganlarni “yuzi qaro” deyish ham shu bilan bog‘liq.

Musulmon dunyosida haj safari vaqtida erkaklarning ikki bo‘lak oq matodan ehrom bog‘lashlari talab qilingan. Ayollar ham ko‘proq oq, ba’zan ko‘k gullari bor oq, oqish matodan ko‘ylak-lozim kiyishlari talab qilingan. Bu kiyimlar faqat haj amallarini bajarish vaqtida kiyilgan.

Kishi ulg‘ayib, oltimish yoshdan o‘tganda, soqollariga, sochlariga oq tushadi. Bu yoshdagi kishilar “oqsoqol” deyiladi va turli marosimlarning izzatli kishilari sifatida uyning to‘riga o‘tqaziladi, yoshlar ularga xizmat qiladi. Mahalla kayvonilari (rahbarlari) ham, yoshidan qat’i nazar, “oqsoqol” deb hurmat qilinadi. Hazrat Navoiy bu yoshdagi kishilarning yorug‘ dunyoga mehmonligini ta’kidlash maqsadida ushbu baytni aytgan:

Соқолнинг **оқи** ўлимга пешравдур,
Tiriklik sabzasi uzra qiravdur [1].

Turkiylar orasida, ayniqsa, o‘zbek xalqida bolalarga ism qo‘yish, bir xil ismli kishilarni o‘zaro farqlash, laqab berish, rangi-ro‘yidan kelib chiqib yoki fe’l-atvorini ifodalash uchun ham rang-tus sifatlaridan keng foydalanganini kuzatish mumkin. Masalan, G‘afur G‘ulom o‘zining shum bolasini alohida ism bilan atamagan. Ayrim o‘rinlarda shum bolani personajlar tilidan erkalatib “Qoravoy” deb ketadi, shu ismga yozuvchining o‘zi ham odatlanib qolganidanmi, adabiyotshunoslikda “Shum bola” qissasining bosh qahramoni “Qoravoy” bo‘lib ketgan. Xalq orasida ham ayrim kishilarning ismi “Qoravoy”, Oqboy bo‘lganligidan bugunda “Qoraboyev”, “Oqboyev” deb nomlangan familiyalar isbotlab beradi. Afsuski, bu ism bugunga kelib, iste’moldan butunlay chiqib ketmoqda. Holbuki, mazkur ismlar rang-tusni emas, ulug‘likni, muqaddaslik, extiromni ifodalashga ko‘chgan. Shu bilan birga, Mallavoy, Sariboy ismlari ham o‘tmishda keng istemolda bo‘lgan. O‘zbek xalq eposi sanalgan “Alpomish” dostonida Hakimbek (Alpomish) Boysarining o‘g‘li, “Kuntug‘mish” dostonida Kuntug‘mish Avliyoyi Qoraxonning o‘g‘li, deb ko‘rsatiladi. Bundan 4400 yil ilgari paydo bo‘lgan “O‘g‘izxon” dostonida O‘g‘izxonning otasi Qoraxon deyilgan. Sariboy, Boysari singari o‘zbekona ismlaridagi “sari” (sariq) rang-tus bildiruvchi so‘z ikki xil ma’noga ishora qiladi. Bir tomondan, shu odamlarning tana rangini ifodalasa, ikkinchi tomondan, uning boy-badavlatligiga ishora qiladi, ya’ni boyligi - oltini ko‘p ma’nosida istifoda qilingan.

Ayrim toponimlar “qora” rang-tus sifati bilan Qorabog‘, Qoratepa, Qorabozor, Qorako‘l, Hasanqora, ba’zilari “oq” so‘zi bilan Oqqo‘rg‘on, Oqjar, Oqmachit, Oqyozbobo, Oqqayin, boshqalari “ko‘k” so‘zi bilan ifodalanishi (Ko‘kdo‘ppi, Ko‘kyozbobo)da, shuningdek, Olabuqa, Qiziltepa singari joy nomlarida xalq urf-odatlarining ta’siri borligi

sezilib turadi. Sohibqiron Amir Temur bobomiz Shahrisabzdagi ulkan imoratni Oqsaroy deb atagan. Temuriylarning Samarqanddagi qarorgohi Ko‘ksaroy deb yuritilgan.

Ba’zida aziz-avliyolar, ularning ayollariga ham rang-tus sifatlari ishtirok etgan so‘zlarni qo‘shib murojaat qilish urf bo‘lgan: Qorasoch momo, Qorayoz bobo, Ko‘k to‘nli bobo, Ko‘kyoz bobo, Qizil soqol buva, Oq buva, Oppoqxo‘ja buva kabi. Ayrim bir mozorotlar nomida ham rang-tus bildiruvchi sifatlar ishtirok etib, bu joylarda ko‘kyo‘tal, badaniga oq tushish, hushdan ayrilish, toshma, qo‘rquv kasalligini davolash umidida hozirgacha odamlar kelib turadi. Ular xalq tilida Oqmozor, Qoramozor, Ko‘kmozor deb yuritiladi. O‘tmishda bolalar o‘rtasida badaniga qizil toshmalar (qizamiq kasalligi) toshishi ko‘p kuzatigan. Hozirdagi mavjud vaksinalar – emlash vositalari bo‘lmaganidan, bu kasalliklar “qizil ko‘ylak”, “chechak” (ya’ni qizil gul) deb tabu qilingan. Insu jinslarga ishonish natijasida yoki ayrim irimlar nomida ham rang-tus sifatlari istifoda qilingan. Masalan, ketayotgan odamning oldidan qora mushuk kesib o‘tsa, ishi o‘ngidan kelmasligiga sabab qilib ko‘rsatilgan. Yoki ba’zi bir ayollar musibatli xonadonlarga bir borib kelsa, kasallikka chalinib qolaverganidan, “qoramni sotib kelaman”, deya azayimxonlarga qatnashgan. O‘g‘il bolalarni sunnatga yotqizish paytida “qora chiroq” (yog‘ to‘lg‘azilgan pilikli idish)ni yoqib, undan ham yoritish maqsadida, ham kulidan malham o‘rnida foydalanganlar va buni ham ilohiylik bilan bog‘laganlar.

Ro‘zg‘orni moddiy ta’minlash maqsadini ifodalashda ham rang-tus sifatlaridan foydalanilganini kuzatish mumkin: Qora qozonim qaynab turibdi; Uyida qo‘ra qumg‘oni vaqillab turibdi. O‘tmishda uy xizmatkori bo‘lgan xotin-qizlarni “oqsoch” deb ataganlar.

Nasl-nasabni ifodalashda ham rang-tus sifati qatnashgan birliklarga duch kelish mumkin. O‘tmishda eshon va to‘ralar “oqsuyaklar” deb yuritilgan bo‘lsa, oddiy avomlar “qoralar” deyilgan. Bu odat ayrim hududlarda hozir ham saqlanadi va oqsuyaklar qoralarga qiz bermaydilar, ammo qoralardan kelin qilishlari mumkin bo‘lgan. Kishilarni rangiga qarab ajratish ham udum sirasiga kiradi. Masalan, ayrim qizlarning oppoq, tiniq yuzli ekanini ifodalash uchun “Voy, ko‘rdingizmi, qizi tushmagur sutga chayib olganday oppoq yuzli-ya” deydilar yoki sal qoraroq odamni “qoramag‘iz”, “bug‘doyrang” deyish ham rasmlardan biridir.

Navoiy asarlari, ayniqsa lirik asarlarida ma’shuqaning qora xoli ko‘p va xo‘b tilga olinganini kuzatish mumkin[1]. Bu haqida B.Bafoyev tadqiqotlarida ham alohida to‘xtab o‘tilgan[5]. Darhaqiqat, o‘zbeklar “xol” so‘zi bilan badanda paydo bo‘lgan qora tusli o‘smani nazarda tutadi. Turkmanlarda buni o‘tmishda ham, hozir ham “meng” deyishadi. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “meng” so‘zini umumturkiy so‘zlar turkumiga qo‘shib, fors-tojik tilidan o‘zlashgan “xol” so‘zi bilan sinonim ekanligini ko‘rsatgan [2]. Turkmanlarda Mengli ismi bo‘lgani kabi (turkman shoiri Maxtumquli o‘z she’rlarining bir qismini suyuklisi Menglixonga atagani ham bunga dalil bo‘la oladi) o‘zbeklarda Xolboy, Xolmo‘min, Xolmuhammad, Xolmat, Xoliniso, Tojixol, Xoltursun kabi antroponimlar borki, ularning barchasi ham “qora” so‘zi bilan bog‘liq. Bulardan tashqari, “qizil” so‘zining xuddi shunday holatni anglatuvchi Nortoji, Normuhammad, Norboy, Norbuvi, Xamrobibi singari forsiy, arabiy variantlari bilan ifodalash ham odat tusiga kirgan.

Kishi ismlari bir xil bo‘lib qolgan hollarda, ularni ajratish uchun oq, qora so‘zlarini qo‘shib aytish odati ham yo‘q emas: oq Karim, qora Karim kabi. Ba’zan laqablar kishi ismidan so‘ng qo‘shib aytiladi yoki aynan rang tus sifati bilan ifodalash udumi bor: Salim qora, Adham qora, Mahmud sariq.

Kishilarning ayrim bir vaziyatlardagi ruhiy holatlari, turmushidagi og‘ir kunlarni ifodalashda ham rang-tus bildiruvchi sifatlar asosiy ma’noni yuzaga chiqaruvchi qismga aylanadi. “Eh, bu boshim ne qora kunlarni ko‘rmadi, deysiz!”, “Men bir qaro kunda tug‘ildim, Tug‘ildimu, shu on bo‘g‘ildim”, (Hamid Olimjon), “Yer yutkur, meni qon qaro qaqshatib ketdi-ya!”, “Shu voqea tufayli hayotim kitobining qora sahifalari boshlandi”, “Hayotimning oq tonglari otdi”,

“Turmushimizda oppoq, nurli kunlar boshlandi” kabi.

Ayrim odamlarning fe’l atvori, kishining kishiga zulmini ifodalash, biror tashrifni izohlash maqsadida ham ana shu “qora”, “oq” sifatlarini istifoda qilish odati bor. Agar birorta odamning xasadgo‘yligini, janjalkashligini ifodalash zarur bo‘lsa “ichi qora odam” deyiladi. Agar har jihatdan komil bo‘lgan tarbiyali kishiga nisbatan “oq ko‘ngil”, “ko‘ngli oq” deyish rasm bo‘lgan. “El o‘rtasida yuzi qora bo‘ldi” deyilganda ham xalqning biror niyati bayon etiladiki, bunda ayrim kishilar yolg‘on gapirib yoki nojo‘ya ish qilib sharmanda bo‘lgani anglashiladi. Uzoqdan tanish yoki notanish kimsa ko‘rinsa, “falonchining qorasi ko‘rindi”, “birovning qorasi ko‘zga tashlandi”, deyiladi. Yoki birov birovni vosita qilib bir yumush bilan kelgan bo‘lsa, “falonchi Ahmadboyni qora qilib kelgan edi” deyiladi. Yana, kishi kishini g‘iybat qilsa ham, “shunday odamni qora qildi-ya”, deydilar.

Turkiy xalqlar orasida ot juda ardoqli hayvonlardan sanalgan. Ana shu otlarning nasli, rang-tusidan kelib chiqib turli nomlar bilan atashgan. Bunda ham rang-tus sifatlarining o‘rni muhim sanalgan. Masalan, oq tusli otlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri “oqot” , “oqbiya” deyilgan bo‘lsa, oq rang bilan ko‘k rang o‘rtasidagi otlarni “bo‘zot”, “bo‘zbiya” deb atashganlar. Qora-qizil ranglarga ega bo‘lgan otlar “to‘riq” deyilgan. Olachipor ot esa “burul”, manglayi (peshonasi) oq otlar “shapaq”, tanasi qora, manglayida oqi bor otlar “qo‘zaqashqa”, och qo‘ng‘ir otlar “qulrang”, sariq tusli otlar “saman ot”, qizil-sarg‘ish tusli otlar “jiyronot”, “jiyronbiya”lar deb yuritilishi ham xalqning qadim-qadim an’analari, udumlari bilan bog‘lanib ketgan. Otning qorabayr turi ham mavjudki, bu ham faqat turkiy xalqlar tilida uchraydi.

Bular daryodan tomchi xolos. O‘zbek xalq urf-odatlarida boshqa turkumdagi so‘zlar qanchalik ko‘p va xo‘b ishlatilib, muayyan so‘zlarning ijobiy yoki salbiy ma’no qirralarini namoyon etishga xizmat qilgan bo‘lsa, rang-tus sifatlari bu borada “peshqadam” so‘zlar maqomida alohida mavqe tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 1-жилд. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 804.
2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ziyouz.com.
3. Авлоний А. Танланган асарлар. ziyouz.com.
4. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Т.:2008. – Б. 14.
5. Бафоев Б. Навоийнинг сўз қўллашдаги маҳоратининг яна бир қирраси.// Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. Т,: Фан, 1993. – 208.
5. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М., 2006. – С. 73.
6. Мамадалиева М. Номловчи бирликларнинг ички маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2000. – №. 6. – Б. 40-42.
7. Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 18.
8. Мақсумова С. С. Э. Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши. Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Т.: , 2012. – Б. 18.
10. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Т.: Фан, 1074.
9. Қиличев Э., Қиличев Б. Коннотатив маъно ва унинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2006. – №. 6. – Б. 68.
10. Қодиров З. Синтактик бирликларнинг коннотатив аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2003. – №. 6. – Б. 40-41.
11.Қодирий А. Ўтган кунлар. Т.: Шарқ. 2012.

ABDURAUF FITRATNING O‘ZBEK TILINING RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN XISSASI

ВКЛАД АБДУРАУФА ФИТРАТА В РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

ABDURAUF FITRAT'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE

Ф.А.Ашурова- Тошкент давлат аграр университети

Annotasiya: Til shaxs va jamiyat salohiyati hamda madaniyati saviyasining o‘ziga xos belgisidir. Bundan 30 yil muqaddam o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi chindan ham ulug‘ va tarixiy voqea bo‘lgan edi. Ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur” degan hikmatli so‘zlari yurtning istiqboli tilda ekanligini chiroyli isbotlaydi. Darhaqiqat, tilidan ayrilgan xalqning ma’naviy Vatani bo‘lmasligi muqarrar. Millatning yuzi, yurtning istiqboli tilda, unga bo‘lgan hurmatda o‘z aksini topadi.

Maqolada til, adabiyot va madaniyat masalasi juda qadimdan o‘ta dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelganligi hamda bugungi kunda ona tilimiz va adabiyotimizga bo‘lgan e’tibor haqida fikrlar bildirilgan. Tarix sahnasida o‘zbek tili va adabiyoti ne mashaqqatlar bilan omon qolganligi, bu jarayonda jadidlarning sa’y-harakatlari asosan nimalarga qaratilganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Til, adabiyot, madaniyat, millat, jadid, “Chig‘atoy gurungi”, milliy til, maorif, sheva, ma’naviyat, nafosat, nazokat.

Аннотация: Язык - это показатель потенциала культуры человека и уровня общества. 30 лет тому назад придание узбекскому языку статуса государственного языка было поистине великим и историческим событием. Просвещенный писатель Абдулла Авлони сказал: «Зеркало жизни каждой нации, которая показывает свое существование в мире, - это ее язык и литература". Его мудрые слова: “Утрата национального языка - это потеря духа нации” доказывает что, что будущее страны - в языке. На самом деле, неизбежно, что у нации, лишенной языка, не будет духовной Родины. Лицо нации, будущее страны отражается в языке, в уважении к нему.

В статье высказывались мнения о том, что вопрос языка и культуры был одним из самых актуальных вопросов с древнейших времен, а также о внимании к нашему родному языку сегодня. На историческом этапе узбекский язык выжил с большим трудом, на что в основном были направлены усилия джадидов в этом процессе.

Ключевые слова: язык, культура, нация, джадид, "Чигатой гурунги", национальный язык, просвещение, диалект, духовность, изящество, изысканность.

Annotation: Language is a hallmark of the level of potential and culture of the individual and society. The granting of the status of the state language to the Uzbek language 30 years ago was a truly great and historic event. The enlightened writer Abdullah Avloni wrote, “The mirror life of every nation in the world is language and literature. To lose the national language is to lose the spirit of the nation” and these wise sayings beautifully prove that the future of the country is in language. Indeed, it is inevitable that a nation deprived of its language will not have a spiritual Homeland. The face of the nation, the future of the country is reflected in the language and respect for it.

The article discusses the fact that the issue of language and culture has long been one of the most topical issues, and the attention paid to our native language nowadays. It is described that, how the Uzbek language survived on the stage of history, and what the efforts of the Jadids in the process.

Keywords: language, culture, nation, jadid, “Chigatay gurungi”, national language, education, dialect, spirituality, sophistication, delicacy.

Til xususida bildirilgan fikrlar turlicha, lekin haqiqat shuki, til benihoya muqaddas va mo‘tabardir. U insonni shakllantirgan, taraqqiyot sari yetaklagan, uning aql ne’matlarini ifoda etib, tafakkur gulshani darvozalarini ochgan tengsiz bir robitadir. Shunday ekan, bugungi kunda uni asrab avaylash, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish har birimizdan katta mas’uliyat talab qiladi. Prezidentimiz *Sh. Mirziyoev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta’kidlab o‘tganlaridek:”Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu olijanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”* [Xalq so‘zi 2019:1].

Millat tili taraqqiyoti manaviyatmizni belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. O‘tmishga, xususan, XX asr boshlarida alohida ijtimoiy xodisa sifatida baholangan jadidichilik harakati namoyandalari ijodiy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, bugungi kunda respublikada ma’naviy sohada olib borilayotgan izchil siyosat bilan hamohanglikni ko‘ramiz. Bundan 100 yil muqaddam millat, vatan, til, adabiyot - hayot va mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqqan edi. Binobarin, shuni ta’kidlai lozimki, bu borada fikr yuritgan jadidlar, xorijiy tillarni o‘rganishni inkor etmay, balki o‘zlari ham 10 dan ortiq tillarni bilgan, bu sohada bir necha tillarni o‘z ichiga olgan lug‘at kitoblar tuzgani holda, mildiy til va adabiyot himoyachilari sifatida uning sofligi va taraqqiyoti uchun kurash olib borganlar.

Til shaxs va jamiyat salohiyati hamda madaniyati saviyasining o‘ziga xos belgisidir. Bundan 30 yil muqaddam o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi chindan ham ulug‘ va tarixiy voqea bo‘lgan edi. Ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur” degan hikmatli so‘zlari yurtning istiqboli tilda ekanligini chiroyli isbotlaydi. Darhaqiqat, tilidan ayrilgan xalqning ma’naviy Vatani bo‘lmasligi muqarrar. Millatning yuzi, yurtning istiqboli tilda, unga bo‘lgan hurmatda o‘z aksini topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4997-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligini nishonlash borasida 2019 yil 4 oktyabrdagi Qarori, 2019 yil 21 oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni va 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar davlat tilining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi. Bugun o‘zbek tilining bor bo‘y-bastini, boyligini ko‘rsatish va kelajak avlodning undan to‘la bahramand bo‘lishi uchun izohli va imlo lug‘atlari, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun alohida turli nomlarda lug‘atlarning yaratilishi tilimizga bo‘lgan ehtiromning yorqin namunasi sanaladi.

Tarix sahnasida o‘zbek tili ne mashaqqatlar bilan omon qoldi. Uning yashab qolishida ne-ne insonlar fidoyilik qilmadi. Bu jaryonda XX asr boshlaridagi jadidlar harakat alohida o‘rin tutadi.

XX asrning dastlabki choragida yashab ijod etgan shoir va yozuvchilarning asarlarini o‘qir ekansiz, ularning mutlaqo o‘zga adabiy tilda — arabiy va forsiy so‘zlar bilan to‘lib-toshgan, murakkab jumlalar silsilasidan iborat til va uslubda yozilgani yaqqol seziladi. Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon singari adiblarning ulkan xizmati shundaki, ular hozirgi adabiy tilimizni shakllantirib, sayqallantirib berdilar. Munavvar qori ham xuddi shu jarayonda ishtirok etib, tilimizning tilla jilolar bilan tovlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Ma’lumki, XX asr boshida o‘zbek tili va uning uslubiga forsiy, arabiy, usmonli turk, tatar tillarining ta’siri keragidan ortiq edi. Bu holat badiiy asarlar, publitsistik

maqolalar, umuman gazetalar tilida ham aks etar edi. Bu tabiiy ravishda har qanday adabiy-badiiy matnning tushunilishini qiyinlashtirar, ularning ta’sir kuchini susaytirar edi.

O‘zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili Fitrat ham til masalalariga juda katta e’tibor bilan qaragan. 1918 yil oxirida «Chig‘atoy gurungi» tashkil etiladi. Fitrat uning rahbarlaridan va faol a’zolaridan biri edi. Bu harakatning vujudga kelishiga zarur sabablar bor edi: maktablarda usmonli til va usmonli adabiyot ona tili o‘rnida o‘qitila boshlanadi, o‘zbek tiliningmavqei tushib ketadi. Fitratning ta’kidlashicha, «Chig‘atoy gurungi» o‘zbek millatchiligi: o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti shiorlari ostida panturkist to‘dalarga va shunga berilgan jadidlarga qarshi kurashdi...

«Tilimiz» maqolasida o‘zbek tilining ashaddiy targ‘ibotchisi va himoyachisi sifatida ko‘rinadi. Bitta «bil» o‘zagidan 98 ta so‘z yasash mumkinligini va turkiy tilning so‘z boyligi fors, arab tillariga nisbatan ko‘proq ekanligini ta’kidlab bunday deydi: «Arab, fors, rus, nemis, fransuz tillaridan qay birining sarf (morfologiya demoqchi) kitoblarini olib qarasak, ko‘ramizki, bir so‘zni yasamoq uchun bir qancha yozilg‘on, undan so‘ng shul qoidadan tashqari qolg‘on (mustasno) so‘zlar deb to‘rt-besh so‘z ko‘rsatilgan. Turk so‘zlarida esa bunday so‘z topilmaydir... Tilimizning avjy to‘g‘risida ham boyligi, tugalligi bilindimi? Endi so‘zni turkchaning baxtsizligiga ko‘chiraman. Turk tili shuncha boyligi, shuncha tugalligi bilan baxtsizlikdan qutula olmamishdir. Turk tili dunyoning eng baxtsiz tilidir», deb arablar, forslar hukmronligi davrida bu tilning qisilganligini aytib, sho‘rolar davrida ham erkin rivojlanmayotganiga ochiq ishora qiladi [Fitrat 2006:125].

1918 yili Turkiston Kompartiyasining topshirig‘iga ko‘ra, Fitrat (Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda) dastlabki ona tili darsligini yaratadi (bu haqda «Ishtirokiyun» ro‘znomasining 1918 yil 1 may sonida «Birinchi ona tili kursi» degan maqola ham chiqqan). Keyinroq olim bu sohadagi ishlarini mukammallashtirib «O‘zbek tilining sarfi» (grammatikasi)ni e’lon qiladi. O‘zbekiston Maorif nozirligi tomonidan tasdiqlangan bu darslik 1925—30 yillar davomida besh marta nashr etilgan.

Fitrat 1919 yilda «Tilimiz» nomli maqolasida o‘zbek tilining o‘sha paytdagi holatidan benihoya yozg‘irib, kuyib-yonib mana bunday degan edi: “Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezila kelmishdir. Lekin, bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim boydir. Turkcha yashamishdir. Yashar, lekin o‘zini arab, fors tillarindan qutqara olurmi, yo‘qmi? So‘zni bu yerga yetirgach, barmog‘imni yaraning o‘zagiga bosmish bo‘ldim” [Fitrat 2006:127].

Xalqni savodsizlikdan qutqarib, ma’rifatga yetishtirish uchun harf va imloni isloh qilish, o‘zbek tilining qat’iy qonun-qoidalarini ishlab chiqish, o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish kabi oliy maqsadlarni amalga oshirish niyatida Fitrat tomonidan tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” to‘garagida ko‘plab olimlar faoliyat yuritgan. Bizga ma’lumki, o‘tmish ajdodlarimizning ko‘pchiligi arab va fors so‘zlaridan tahallus tanlashgan. Til sofligi uchun kurashgan “Chig‘atoy gurungi” a’zolari esa bu an’anadan voz kechib, sof turkiy so‘zlardan tahallus tanlay boshladilar. Masalan, yuksak bilim va iqtidorga ega bo‘lgan Fitrat guruh a’zolariga Botu, O‘ktam, Elxon, Elchi, Chig‘atoy, O‘g‘uz, O‘ktoy, Eltuzar, Jig‘oy, Yildirim kabi jasurlik, qahramonlik bobida dong taratgan ajdodlarimiz nomlari asosida taxallus tanlab bergan.

20-30-yillar o‘zbek ziyolilari gardanida g‘oyat mas’uliyatli vazifalar turar edi. Shuning uchun ular tor doirada cheklanib qolmasdan, o‘z ijodiy faoliyatlarini keng qamrovda olib bordilar, o‘zbek madaniyatini rivojlantirish, yuksaltirish uchun qo‘llaridan kelgancha xizmat qildilar. Abdurauf Fitrat ana shunday olimlarning yo‘lboshchisi edi desak, sira ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-4997-сон Фармони.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги «Давлат тили ҳақида»ги қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ-4479-сон Қарори.

3.Ш.Мирзиёев ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Халқ сўзи. 21 октябрь 2019 йил

4.Наим Каримов. Мунавварқори Абдурашидхонов танланган асарлар Тошкент. «Маънавият» 2003, 2-бет

5.Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. Тошкент, Маънавият, 2006.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI “NUTQ” MA’NOLI FRAZEMALARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI

TYPES OF UZBEK AND KARAKALPAK NUTQ MEANINGFUL PHRASEMAS BY STRUCTURE

ТИПЫ УЗБЕКСКИХ И КАРАКАЛПАКСКИХ РЕЧЕВЫХ СМЫСЛОВЫХ ФРАЗЕМ ПО СТРУКТУРЕ

N.G.Allambergenova – mustaqil tadqiqotchi, Nukus DPI

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi “nutq” ma’noli frazemalarning tuzilishiga ko‘ra turlari tahlil qilingan. Birikmaga va gapga teng qurilishli frazemalarning struktur-semantik jihatlariga ko‘ra farqlanishi asoslangan. Shuningdek, frazemalarning har bir xalq milliy madaniyatiga bog‘liq ravishda o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: frazema, gapga teng qurilishli, birikmaga teng qurilishli, “nutq” ma’noli frazemalar, lug‘aviy ma’no, stilistik xususiyat, nutqiy xoslanish.

Annotation: The article analyzes the types of phrases with the meaning of "speech" in Uzbek and Karakalpak languages. It is based on the structural and semantic differences of phrases with equal structure and sentence. It also belongs to characteristics of the phrases, depending on the national culture of each nation.

Keywords: phrases, phrases with the same structure as the sentence, with the same structure as the compound, phrases with the meaning of "speech", lexical meaning, stylistic features, speech adaptation.

Аннотация: В статье анализируются типы словосочетаний со значением «речь» в узбекском и каракалпакском языках. Он основан на структурно-семантических различиях словосочетаний с одинаковой структурой и предложением. Это также относится к характеристикам словосочетаний в зависимости от национальной культуры каждого народа.

Ключевые слова: словосочетания, словосочетания с той же структурой, что и предложение, с той же структурой, что и сложносочиненное, словосочетания со значением «речь», лексическое значение, стилистические особенности, речевая адаптация.

Leksemalarning o‘zaro sintaktik bog‘lanishi natijasida bog‘lanma yuzaga keladi. Bu, albatta, nutq birligi hisoblanadi. Chunki u ma’lum bir fikrni ifoda etish uchun nutq jarayonida tuziladi, fikr anglatilgach, bu jumla tilda yaxlitligicha saqlanib qolmaydi. Frazemalar erkin bog‘lanmadan o‘z grammatik qurilishining mohiyati bilan farq

qiladi. Ular har gal nutq jarayonining o‘zida tashkil topmay, balki ungacha bir butun holga kelgan bo‘ladi. Frazemalar tarkibida komponentlarning bir-biri bilan bog‘lanishida o‘zbek tilidagi sintaktik bog‘lanishlarning hamma turlari uchraydi. “Frazemalarning ko‘p qismi birikmaga teng qurilishli. Erkin birikmalarda bo‘lganidek sintaktik qurilishi birikmaga teng frazemalarda ham tobe a‘zo leksemashakl bilan, hokim a‘zo esa leksema bilan ifodalanadi, frazema bir butun holda turg‘un birikmaga teng bo‘ladi”,– deb ko‘rsatadi prof. Sh.Rahmatullaev [1, C.163]. Biz to‘plagan o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi “nutq” ma’noli frazemalarning ham ko‘pchiligi birikmaga teng qurilishli ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Og‘zidan gullamoq frazemasini ravish holi vazifasida ishlatish uchun ot komponentga nisbatlovchi va chiqish kelishigi qo‘shimchasi, hokim komponentga ravishdosh shaklini yasovchi qo‘shimcha qo‘shiladi. Misol: *Mahalla-ko‘ydagilar bo‘lsa, bu xabar boshlab eshitilganda, hamma* ***og‘izlaridan gullab****, Shokir akani bosh ko‘tarib yura olmaydigan qilgan edilar* (G‘.G‘ulom).

Frazema kesim vazifasida qo‘llanganda tobe komponent nisbatlovchi va chiqish kelishigi qo‘shimchasini, hokim komponent esa zamon, shaxs-son, qo‘shimchalarini olib, tuslanadi, kesim vazifasida kela oladigan darajada grammatik shakllanganidan keyin butunga, birikmashaklga aylanadi. Misol: “***Og‘zidan gulladi****... Hammamizni chalpib chiqdi... Bir o‘ziga bino qo‘ygan, suyagi yo‘q shaloq ekan. “Nigora meni sevadi, bilaman, – deydi. Ammo men uni sevmayman, chunki uning dadasi...” –“Bas!– Nigora sapchib o‘rnidan turdi. Suyunchi olgani keldingizmi? Rahmat sizga!”* (S.Anorboev).

Piching otmoq frazemasi tarkibidagi birinchi ot komponenti belgisiz tushum kelishigi vositasida hokim komponentga bog‘langan. Hokim komponent esa fe’lga xos tuslovchi affikslarni qabul qiladi va grammatik jihatdan shakllanadi. Misollar: *“Hammalari sog‘-salomat, diydoringizga muntazir...”– “Hoy nomard Samad, buning nima deydi? Diydori nima o‘zi,* ***kimga piching*** *otmoqchi bu nomarding? Boshini qo‘ltiqlatib qo‘yaymi?*” (G‘.G‘ulom). *Munisxon kitobda ostiga chizilgan jumlalarni daftarga ko‘chirayotib,* ***piching otdi****: “Dam olmasdan bir necha soat o‘qish ko‘zni tindirar ekan-da! Ehtiyot bo‘ling, o‘zingizni biron narsaga urib olmang tag‘in...”* (A.Qahhor).

Og‘iz ko‘pirtirmoq frazemasi tarkibidagi tobe qism belgisiz shakldagi nisbatlovchi va tushum kelishigi qo‘shimchasi yordamida hokim qismga bog‘lanadi. Hokim a’zo harakat nomi shakl yasovchisi va shaxs-son qo‘shimchasini olib, kesim vazifasini bajaradi. Misol: *Qudratga nasha qilgan narsa, Rahimning qilig‘idan ko‘ra, Qo‘ziboyning* ***og‘iz ko‘pirtirishi*** *edi* (H.Nazir).

Frazema ravish holi vazifasini bajarishi uchun tobe qism belgisiz shakldagi nisbatlovchi va tushum kelishigi qo‘shimchasi yordamida hokim qismga bog‘lanadi. Hokim qism ravishdosh shakli yasovchisini qabul qiladi. Misol: *Ahmoq majlis chaqirib, “Ishga ichib keladi, progul qiladi, intizomsiz. Barcha ma’muriy choralarni ko‘rib bo‘ldik, endi haydash qoldi”,– deb* ***og‘iz ko‘pirtirib*** *va’zxonlik qildi. Boshqa gapirsa, indamas edim.*

Men uni do‘st deb yursam, ilonning yog‘ini yalagan kazzob ekan! (S.Abduqahhor).

Qoraqalpoq tilshunosi prof. E.Berdimuratov frazeologizmlarni grammatik qurilishi bo‘yicha quyidagicha turlarga ajratadi:

1. Sodda so‘z birikmasiga teng qurilishli frazeologizmlar.
2. Sodda gap shakliga teng qurilishli frazeologizmlar.
3. Qo‘shma gap shakliga teng qurilishli frazeologizmlar.

E.Berdimuratovning mazkur ishida frazeologik so‘z birikmalari komponentlarining leksik-grammatik tarkibi bo‘yicha tasnifi ham berilgan, shuningdek, frazeologik so‘z birikmalarining uslubiy xususiyatlari ham ko‘rsatilgan [2, C.136].

Keyinchalik frazeologizmlarning lug‘atlarda berilishi masalasi S.T.Nawrızbaeva tomonidan monografik planda o‘rganildi. Mazkur tadqiqotda qoraqalpoq tilidagi ot frazeologik

birikmalarning bo‘linish kriteriyalari belgilangan, ularning qoraqalpoqcha-ruscha lug‘atda joylashish tamoyillari va usullari aniqlangan, muammo yuzasidan yangi fikrlar aytilgan [3, C.17].

G.Aynazarova qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlarni ma’no, grammatik va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra tadqiq qiladi. Frazeologizmlarning tuzilishiga ko‘ra juda murakkab ekanligini alohida ta’kidlab, konstruksiyasiga ko‘ra teng ikki komponentdan tuzilgan frazeologizmlarni alohida o‘rganadi [4, C.7-9].

Qoraqalpoq tilidagi ***awız ashtırmadı*** frazemasi tarkibidagi tobe komponent – ot belgisiz shakldagi nisbatlovchi va tushum kelishigi qo‘shimchasi yordamida hokim komponent – fe’lga bog‘langan. Hokim komponent nisbat, bo‘lishsizlik va shaxs-son, zamon qo‘shimchalarini qabul qilish orqali gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Misol: *Yaq, yaq, jaman aytpay jaqsı joq, jamanlig‘ında da kolxozg‘a tuwralı* ***awız ashtırmadı*** *– násiyatı da, húkimi de usi (Sh.Seyitov). –Ane bular* ***awızıńdı ashtırmaydı,*** *– dedi Jiyeng‘aliy, basqılasınıń men tárepke awg‘anına ózin jeńil sezip (M.Nizanov).*

Búlbil boldı frazemasi tarkibidagi tobe komponent – ot turlovchi qo‘shimchalar olmasdan, faqat ma’no jihatdan hokim komponentga bog‘langan. Hokim komponent nisbat, shaxs-son, zamon qo‘shimchalarini qabul qilish orqali gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Misol:

Qus tilinde qosıq jazar Nawrızda,

Búlbil bolıp *ilinip júr awızg‘a* (H. Ayımbetov).

Gáp qaytardı frazemasi tarkibidagi tobe komponent – ot belgisiz shakldagi tushum kelishigi qo‘shimchasi yordamida hokim komponent – fe’lga bog‘langan. Hokim komponent nisbat, bo‘lishsizlik va shaxs-son, zamon qo‘shimchalarini qabul qilish orqali gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Misol: *Ag‘ajan, keshir! Endi* ***gápińdi qaytarsam*** *g‘arg‘ıs algan perzentiń bolayın!*(M.Nizanov).

Birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatidayoq birikmashaklga teng bo‘ladi. Masalan, ***og‘zi bo‘sh*** frazemasi asli “sifatlanmish X sifatlovchi” qolipida tuzilgan birikmaga teng, lekin bu frazema faqat birlik, bosh kelishik shaklidagina ishlatiladi, bunday grammatik tabiat ushbu frazemaga lisoniy birlik sifatida mansub*: Sadr va uning o‘rtoqlari ertalab masxaralari chiqqandan beri achchiq qilib yurishar, karta o‘ynaganlari haqida “ayg‘oqchilik” qilganni qidirishardi. Nihoyat,* ***og‘zi bo‘shroq*** *Shavkatdan gumonsirab, obedda uni bir chetga olib chiqib ketishdi* (P.Qodirov). *Saidiyning* ***og‘zi bo‘shligi****, shoshqaloqligi xavf keltiradigan bo‘lsa, qo‘mita a’zolari aytganday, o‘z ustida bir mas’uliyat his qilganidan keyin tuzaladi, quyiladi* (A.Qahhor).

Qoraqalpoq tilida: ***awzı g‘ajıw*** (ko‘p gapiradigan, so‘zamol) frazemasi ham “sifatlanmish X sifatlovchi” qolipida tuzilgan birikmaga teng, lekin bu frazema faqat birlik, bosh kelishik shaklidagina ishlatiladi, bunday grammatik tabiat ushbu frazemaga lisoniy birlik sifatida mansub. Misol: *Patiymanıń* ***awızı g‘ajıw****, adamg‘a sóz bermeydi* (Awızeki sóylesiwden).

Tili bir qarıs *(qulash) – (tili bir qarich (quloch)* frazemasi ham “sifatlanmish X sifatlovchi” qolipida tuzilgan, birikmaga teng, lekin bu frazema faqat birlik, bosh kelishik shaklidagina ishlatiladi:

Sayımbettiń ***tili bir qulash****, dawısı ashıwlı shıqtı: – Atım hayran qalıp turg‘an shıg‘ar, júdá! “Atıńdi bayla” deydi-aw! Ash tez! Baplag‘anov tag‘ı baplap ketti* (Sh.Seyitov).

Frazema gapshaklga teng qurilishli bo‘lsa ham jumla ichida boshqa gap bo‘laklari bilan sintagmatik munosabatga kirishganda qo‘shimcha va yordamchi so‘zlar olib, gapda bir bo‘lakka teng keladi:

Ámet sazırayıp, ***tilin bir qarıs*** *etti: – Bul, altın, – dedi! Usı ushn Keńes te meni ańlıydı. Keńes emes te meni ańlıydı* (Sh.Seyitov).

Mazkur jumlada frazema “ot +nisbatlovchi+tushum kelishigi X son X ot X fe'l + zamon+mayl” qolipida tuzilgan.

Qoraqalpoq tilidagi ***awızı altı qarıs*** frazemasining strukturasi ham ***tili bir qarıs (qulash)*** frazemasiniki bilan o‘xshash:

Há degennen ***awzıńdı altı qarıs*** *etip, ókpeńdi qolıńa alıp, tayag‘ıńdı izley*

bergenshe, kórpeńe qarap ayaq uzatıp, soyaqların da oylanıp kór (Sh.Seyitov).

Demak, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalarga bir butun holda tashqi grammatik shakllanish lisoniy birlik sifatida xos bo‘lib, shu jihati bilan bunday frazema erkin birikmadan farqlanadi.

Frazemalarning bir qismi sintaktik qurilishi jihatidan gapshaklga teng bo‘lib, tarkibida ega bo‘lak mavjud bo‘ladi: ***Til(i) bormadi***, allofrazemasi: ***til bormaydi***. ***Til****(i)* ***boradi****?!* “Bunday frazemaning gapshaklga teng ekanligi tarkibida ega vazifasidagi leksemashakl qatnashayotganligi va shu leksemashakldan anglashiladigan bajaruvchining shaxs-soniga monand ravishda frazemaning oxirgi a’zosiga tuslovchi qo‘shilayotganligi bilan belgilanadi. Tuslovchidan oldin bunday tuzilishli frazemaga bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchisi qo‘shiladi va bu grammatik ko‘rsatkichlar frazemaga ob’ektiv voqelikka ko‘ra nutqning o‘zida tanlab qo‘shiladi”– deb ko‘rsatadi prof. Sh.Rahmatullaev [1, C.163]. Misollar:

U onasining avzoyidan biron alam o‘tganini sezdi-yu, lekin “Nima bo‘ldi?”– deb so‘rashga ***tili bormadi*** (N.Nazarov). *Ayol kishiga qo‘l ko‘tarish erkakning ishi emas. Haqorat qilishga* ***til bormaydi***. (R.Fayziy). *Uyatni bilmaysizmi!.. Kolxozimizda ilmga qarshi odamlar bor degani kimning* ***tili boradi****?!* (A.Qahhor).

Dami kesildi I allofrazemasi: ***nafasi kesildi***: *Prokuror nimanidir aniqlamoqqa, luqma tashlab* ***damini kesmoqqa*** *urindi. (I.*Rahim*). Valixonning qo‘l siltab rad qilganini ko‘rgach,* ***dami kesilib****, og‘zini ochganicha tek qarab qoldi.* (Sh.Toshmatov). *“Kim gumon qiladi?” – “Olimxon ellikboshi”. Salimboyvachchaning* ***nafasi kesildi****. Boshini ikki qo‘li orasiga olib jim bo‘ldi.* (Oybek).

Qoraqalpoq tilida tili *súrnikti (tili qoqildi), jag‘ı tınbadı (jag‘i tinmadi)* frazemalarida ham grammatik ega ot bilan ifodalangan, nisbatlovchi olgan. Kesim tarkibi fe'l bilan ifodalanib, zamon, shaxs-son, bo‘lishli-bo‘lishsizlik ko‘rsatkichlarini olgan. Misollar: *Men ózge millet wakili bola turıp ukrainsha qosiqtı aytqanda* ***tilim súrnikpedi*** (M.Nizanov). *“Bul gáp usı jerde qalsın” degen Bazardıń sózi bar, bıraq báribir hayallardıń* ***jag‘ı tınbadı*** (Sh.Seyitov).

Gapga teng qurilishdan birikmaga teng qurilishga va aksincha aylanish “nutq” ma’noli frazemalarda juda kam uchrashi aniqlandi. Qoraqalpoq tilidagi ***awızı ashıq (og‘zi ochiq)*** frazemasi gapga teng qurilishli bo‘lib, “Qoraqalpoq tilining frazeologik so‘zligi”da *“sir saqlay olmaydigan, g‘iybatchi*” ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan. (QTFS,17)**.** ***Ashıq awız (ochiq og‘iz)*** frazemasi ham “*sir saqlay olmaydigan, g‘iybatchi*” ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan. (QTFS, 22).

Sarıatawdıń ústi menen Shag‘al jag‘ısına táwir-aq qalg‘anda bir sharwanıń úyine qos bastı. úy iyesi ańqıldag‘an ***ashıq awız*** *adam eken, bir serkeni keńespesten jayrattı da tasladı* (Sh.Seyitov).

Frazemalarning birinchisi gapga, ikkinchisi birikmaga teng qurilishli hisoblanadi. Misollar: *“Bar, joldas Saparov. Men siz aytqanday ańqawda, awızına kók shıbın kirip shıg‘atug‘ın* ***awızı ashıq*** *ta emespen, bildińiz be!”* (Sh.Seyitov). *–* ***Awızı ashıq*** *bolmasań, shabarman degen zańg‘ardan ispolkomnıń pármanin soramaymısań, tildey qag‘az almaymısań! – dep kúyindi Saparov* (Sh.Seyitov).

Tarkibida ega bo‘lagi bor ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida to‘liq grammatik shakllangan birikmaga teng bo‘ladi. Masalan, ***tomdan tarasha tushganday*** frazemasi asli "o‘rin hollovchisi X ega X kesim" qolipida tuzilgan gapshaklga teng, lekin bu frazema faqat bir shaklda - -gan + day shakl yasovchilari qo‘shilgan holda ishlatiladi. Ushbu frazema asli gapshaklga teng tuzilishli frazemaning transformasiga teng [1, C.164]. Misollar: *O‘zining shu yerdaligini bildirsinmi? Yo‘g‘e.* ***Tomdan tarasha tushganday-a?*** (S. Anorboev). *Har qanday bo‘lsa ham gapni* ***tomdan tarasha tushganday*** *gapirma, yotig‘i bilan tushuntir*. (R. Fayziy). *Qiziq, tuppa-tuzuk yigit, u yo‘q, bu yo‘q,* ***tomdan tarasha tushganday*** *qilib birdan sovchi yuborgani qanday?* (O. Yoqubov).

Qoraqalpoq tilidagi ***awızına suw urtlag‘anday (og‘ziga suv ho‘plaganday), awızına qum quyılg‘anday (og‘ziga qum quyilganday)*** frazemalarining transformasi

va nutqda qo‘llanilishi o‘zbek tilidagi ***tomdan tarasha tushganday*** frazemasiniki bilan o‘xshash. Misollar: *Men **awızıma suw urtlag‘anday**, dım úndemey tura berdim* (M.Nizanov). *Otırg‘anlar biri birine qarasıp, suwıq demin alıssa, Sayımbettiń **awızına qum quyılg‘anday** boldı da qaldı* (Sh.Seyitov).

Nafasing(iz)ni yel uchirsin. Ushbu frazema asli gapshaklga teng tuzilishli frazema bo‘lib, “vositasiz to‘ldiruvchi X ega X kesim” qolipida tuzilgan. Asli gapshaklga teng bo‘lib nutqda faqat shu shaklda ishlatiladi. Misol: *“Qizingiz sabil qoladigan bo‘ldi, boyvachcha, kennoyim ertaga turmaga peredacha qilib olib bormasalar deb qo‘rqaman uni”. – “**Nafasingizni yel uchirsin-ey**, bu qanaqa gap, afandixon?!”* (S.Ahmad).

Og‘z(i)dan chiqib, yoqasiga yopishsin! Frazema birikmashaklga teng bo‘lib, “vositali to‘ldiruvchi X ravish holi X vositali to‘ldiruvchi X kesim” qolipida tuzilgan. Nutqqa ham faqat shu shaklda kiritiladi. Misol: *“Oxiratga munchalik xirs qo‘ygan ekansan, boraver”. “**Og‘zingdan chiqib, yoqangga yopishsin!”*** (A.Qahhor).

Qoraqalpoq tilidagi ***únine suw quyıldı*** frazemasi (allofrazemasi ***sestine suw quyıldı) (ovoziga suv quyildi)*** gapshaklga teng bo‘lib, “vositali to‘ldiruvchi X ega X kesim” qolipida tuzilgan bo‘lib, nutqqa shu shaklda kiritiladi. Misollar: *Sayımbettıń **sestine suw quyılıp qaldı** g‘oy!* (Sh.Seyitov). *“Sonsha qazıwshınıń kózinshe is arttira ma!” degen qáwip bar, shıqpayın dese “eń bolmasa, Qabaq demey **únine suw quyılsa** bolar edi-aw!”* (Sh.Seyitov).

Ayrim frazemalar tarkibidagi birinchi qism birikmashaklga, ikkinchi qism gapshaklga teng bo‘ladi. ***Og‘z(i)ga oq it kirib, qora it chiqdi*** frazemasining birinchi qismi birikmaga teng qurilishli, Bu frazemaning ikkinchi qismi gapshaklga teng qurilishli, shunga ko‘ra **-di III** shaxs tuslovchisi bilan ishlatiladi, undan oldin bo‘lishli shakl, qatnashadi; bu qismdagi ega bo‘lak birlik va bosh kelishik shaklida keladi, faqat nisbatlovchi tanlab qo‘shiladi, odatda shaxs nisbatlovchisi bilan ishlatiladi. Misollar: *Ismathoji boshida Xayri opani, keyin o‘sha erdagilarni qattiq urishdi. Hammasining kapalagi uchib, bezrayishib qoldilar. “Yo‘qollaring, hammangning basharang qursin!”– deb **og‘ziga oq it kirib, qora it chiqdi*** (Oybek).

***Og‘z(i)dan bodi kirib, shodi chiqadi**. U – serjahl odam. Sal narsaga ranjiydi, **og‘zidan bodi kirib, shodi chiqadi** (Oybek). Ota uning kayfi borligini va hozir uning **og‘zidan bodi kirib, shodi chiqishini** bildi-yu, yuzini teskari o‘girib, o‘tib ketdi* (S.Ahmad).

Qoraqalpoq tilida ham o‘zbek tilidagi kabi ***awzınan aq iyt kirip, qara iyt shıqtı*** frazemasi mavjud bo‘lib, uning tuzilishi, ma'nosi va qo‘llanishi o‘zbek tilidagi frazema bilan o‘xshash. Misol: *Sonı qulag‘ıńa altın sırg‘a etip tag‘ıp al degenimdi bilemen, ábden sharbayalanıp aspang‘a shapshıdı,* ***awzınan aq iyt kirip, qara iyt shıqtı*** (G. Esemuratova).

Men ne deymen, qobızım ne deydi frazemasi ikkala qismi ham gapshaklga teng qurilishli bo‘lib, “ega X to‘ldiruvchi X kesim” qolipida tuzilgan. Bog‘lanish jihatidan bog‘langan qo‘shma gapga o‘xshaydi. Nutqda ham shu shaklda ishlatiladi.

– Ha-aw — dedi Tilewxan apa ókpelegendey túr bildirip.

*— “**Men ne deymen, qobızım ne deydi**”, ayttım g‘o, ilimpaz bala qorqıp, dayısınıń úy betine Shımbayg‘a áketken, soyaqqa anasın-ám aldırg‘an dep* (M.Nizanov).

O‘zbek tilida bunday frazemani “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da uchratmadik.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi frazemalar tarkibidagi komponentlar orasidagi sintaktik munosabatlarda tillardagi sintaktik bog‘lanishning barcha turlari o‘z aksini topadi.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi “nutq” ma’nolari frazemalarning ham ko‘pchiligini birikmaga teng qurilishli frazemalar tashkil qiladi, gapga teng qurilishlilari kam ekanligi aniqlandi.

Tillardagi “nutq” ma’noli frazemalarning qoliplari asosan bir-biriga o‘xshaydi, lekin ba’zilari farqlanadi. Bu tafovutlar xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlari, frazemalarning o‘rganilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – S. 163.

2.Berdimuratov Ye. Házirgi zaman qaraqalpaq tili. Leksika. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1964. – S. 136.

3.Naurızbaeva S.T. Tipı imennıx frazeologicheskix edinits karakalpakskogo yazıka i ix otrajeniya v karakalpaksko-russkom slovare. AKD. – M. 1967.

4.Aynazarova G. Qaraqalpaq tilindegi teńles eki komponentli frazeologizmlerdiń leksika-semantikalıq hám stillik ózgeshelikleri. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2015. – B. 7-9.

5.Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 380 s.

6.Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2018. – 160 s.

INGLIZ TILIDA MAQTOV KONSEPTINING NUTQ HARAKATIDA IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ ПОНЯТИЯ ПОХВАЛЫ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ В РЕЧЕВОМ

ДВИЖЕНИИ EXPRESSION OF THE CONCEPT OF PRAISE IN ENGLISH IN SPEECH MOVEMENT

D.A.Kadirova-o ‘qituvchi, Qo’qon DPI

D.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz madaniyatida maqtov konseptini o’ziga xos milliy xususiyatlari va ularning ma’nosida ingliz xalqining madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarzi va nutq harakatida ifodalanishi aks ettirilishi ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: lingvistikmadaniyat, konsept, muloqot, qadriyatlar, ahloq, odob, xususiyat

Аннотация. В данной статье рассматриваются национальная специфика особенности понятия похвалы в английской культуре и то, как оно выражается в культуре, мировоззрении, образе жизни и речевом движении английского народа.

Ключевые слова: лингвокультурология, концепт, общение, ценности, нравственность, особенность.

Abstract. This article discusses the specific national characteristics of the concept of praise in English culture and how it is expressed in the culture, world outlook, lifestyle and speech movement of the British people.

Keywords: linguoculturology, concept, communication, values, morality, peculiarity

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida tilshunoslikda ilmiy bilimlardagi paradigmalarning o’zgarishi funksional antropologik shakllanishi bilan belgilanadi, bu tilda qandaydir immanent tizim sifatida tushunilmaydi, balki konstitusiyani tashkil etuvchi tizim sifatida, asosiy xususiyatlarida shakllangan inson mulki uning umumiy biologik va neyrofiziologik tuzilishiga ta’siri, shaxsiyati, tafakkuri, ma’naviy va amaliyligi bilan chambarchas bog’liq faoliyat va dunyoni bilish orqali ifodalanadi.

Antropologik yondashish til va tafakkur tabiatiga nisbatan ona tilida so’zlashuvchilar nutqidagi kommunikativ birliklarni har tomonlama o’rganishni taklif qiladi.

Muloqotning ijtimoiy mohiyatini tasdiqlash nafaqat falsafa, balki sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslik va boshqa fanlar uning asosiy tamoyilidir. Muloqotning ijtimoiy va lingvistik parametrlarining o’zaro bog’likligi tilshunoslikdagi eng qiyin muammolardan biridir. Tilshunoslikda shaxslararo munosabatlar muammolari ishlanmalari, og’zaki munosabatlar va muloqotning og’zaki bo’lmagan komponentlari, nutq ta’siri jarayonlari muloqotning ijtimoiy parametrlarini hisobga olishni talab qiladi,

masalan: kommunikativ vaziyat, muloqot qiluvchilarning rol va pozitsiya xususiyatlari, odob-axloq qoidalari va madaniy me’yorlarning ta’siri; an’analar va boshqalardir.

Zamonaviy funksiyaga yo’naltirilgan tilshunoslikda nutqiy asarlarni (bayonlarni) tushunish maqsadli nutq harakatlari sifatida tavsiflanadi [1]. So’zlovchi tomonidan ko’zlangan eng muhim maqsadlardan biri shundaki, nutqni ishlab chiqaruvchi va boshqa ishtirokchilarga kommunikativ harakat/epizodning ta’sir qilishdir.

Lingvistik adabiyotlarda [2] nutq ta’sirining bir qancha asosiy turlari mavjud. Muloqot jarayonida asosan aksiologik munosabatlar namoyon bo’ladi, ular til darajasida xam, nutqida xam turli vositalar orqali ifodalanadi.

So’zlashuv funksiyasining barcha xilma-xilligi va moslashuvchanligini o’rganishda shuningdek, inson faoliyatida til omilini kuchaytirishda “ijobiylik/salbiylik” hodisasiga alohida e’tibor berilgan, baholash va tasdiqlash/inkor etish elementlari aksiologik kategoriyaning ko’rinishlari hisoblanadi.

O’zga shaxsga ijobiy ma’qullash munosabati quyidagilardan iborat:

1) shaxsga, uning fazilatlariga, harakatlariga va fikrlariga ijobiy baho berish;

2) xolislikka intilish, suhbatdoshni tushunish va tinglash;

Nutq harakatlarida ingliz tili so’zlashuvchi madaniyat vakillari tomonidan keng tarqalgan ma’qullash maqsadida ishlatilingan munosabat maqtov hisoblanadi. Ingliz tilida so’zlashuvchilarning nutq xatti-xarakatlarida maqtov “keng qo’llaniladigan ijtimoiy va og’zaki strategiya” dir [3].

Tilshunoslik va madaniyatshunoslik rivojlanishida har qanday madaniyatning o’ziga xos ega ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Muloqotni kamida ikkita ishtirokchi ishtirok etadigan jarayon sifatida muhokama qilganda, kommunikativ ong fenomenini ham hisobga olish kerak, bu asosan bayonotlar qurishning milliy o’ziga xosligini va ushbu qurilish mexanizmlarini tushuntiradi. Kommunikativ ong - bu inson ongining kommunikativ faoliyatini ta’minlaydigan mexanizmlari yig’indisidir. U ma’lum jamiyatda qabul qilingan kommunikativ me’yor va qoidalarni belgilovchi ongning kommunikativ munosabatlari va turli ruhiy kommunikativ kategoriyalarni o’z ichiga oladi [4].

Maqtovni og’zaki (va/yoki og’zaki bo’lmagan) til va nutqda ma’qullash ifodasi sifatida aniqlash mumkin.

Inglizcha “praise” so’zi etimologik jihatdan “qadriyat”, “qadr-qimmat” degan ma’nosini anglatuvchi lotincha “pretium” so’ziga to’g’ri keladi.

Lotincha so’zdan kelib chiqqan ingliz tilidagi sifatdosh “precious” so’zi yuqori baholanadigan yoki maqtovga loyiq deb tasvirlanadi.

Maqtovni tahlil qilish va to’g’ri talqin qilish odamning ongida chuqur tushunishni talab qiladi. Bu jarayon empatiya deb ataladi va “boshqa odam bilan mavjud bo’lishning bir usuli ...,boshqaning ichki dunyosiga o’zinikidek kirish” tushuniladi.

Maqtov empatiyaning o’ziga xos ko’rinishi bo’lib, siz suhbatdoshingizni tushunsangiz, ko’rsangiz, eshitishingizni xis qilsangizgina samarali bo’lishi mumkin [5]. Shuning uchun, maqtov shaxsning tabiati va aloqa holatiga mos kelishi kerak. Tventier “insonni tahlil qiling, ayniqsa insonga past baho berib maqtashda ehtiyot bo’lishingiz kerak” deb aytib o’tadi [6].

Inson doimiy ravishda emas, balki kamdan-kam holatda maqtasagina maqtov yoqimli va mazmunli bo’lib ko’rinishi mumkin. Agar qabul qiluvchi hamma atrofdagilarni odatiy maqtasa, uning maqtovi kichik ta’sirga ega bo’ladi.

Shunday qilib, maqtov inson ehtiyojlarining asosiylaridan biri degan xulosaga kelish mumkin.

Shuning uchun, maqtov eng ko’p qo’llaniladigan odamlarning xulq-atvori, munosabatiga ta’sir qiladigan umumiy strategiyalarning biri bo’lishligi ajablanarli holat emas. Maqtov orqali tan olish va ma’qullashni ifodalash mumkin va o’zaro munosabatlarni yanada uyg’un, muvofiqlashtirilgan, samarali qiladigan vositadir.

Ingliz madaniyatida maqtovning muhim ahamiyati haqida ko’p kuzatuvchilar

tomonidan qayd etilgan, xususan, A. Vejbistka fikricha, maqtov “manipulyativ” emas, balki samimiy va haqiqiy bo’lishi kerak deb ta’kidlaydi. “Maqtov shunchaki qabul qiluvchining rozi qilish istagi emas, balki “to’g’ridan-to’g’ri yurakdan” chiqsa va samimiy xis-tuyg’ularni namoyon qila olsagina qadrlanadi”[7].

M.A.Kormilitsina va G.R.Shamenova fikriga ko’ra, xushmuomalalikning kommunikativ kategoriyasi muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun axloqiy kommunikativ jihatdan sharoit yaratishga imkon beradi.

Tahlil qilinadigan asosiy tarkibiy qismlarga quyidagilar kiradi:

a) suhbatdoshga hurmat, hamdardlik, yaxshi niyat, e’tibor, yordam ko’rsatishga tayyor bo’lish;

b) salbiy baho va xis-tuyg’ularni ifodalashda o’zini boshqara olish va o’z fazilatlarini tadqiq qilish;

c) ushbu jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya qilish[8].

T.V.Larina fikriga ko’ra, ingliz madaniyatining eng muhim qadriyatlaridan biri individualistik tipdagi madaniyatlarga tegishli bo’lgan shaxsning avtonomiyasi hisoblanadi. Inglizlarning avtonomiyaga bo’lgan ajralmas huquqini ifodalash uchun ingliz tilida privacy leksemasi mavjud. Shaxsiy avtonomiya konsepti o’zbek madaniyatiga xos bo’lmagan ingliz kommunikativ xatti-harakatlarning ko’plab xususiyatlarini aniqlaydi [9].

Ingliz madaniyati vakillari bir-birining avtonomiyasini saqlash, kuzatish va o’z-o’ziga xosligini saqlab qolishning ehtiyoji ushbu til madaniyatida puxta ishlab chiqilgan aloqa strategiyalari va taktikalarining to’plamining paydo bo’lishiga olib keldi. Shu bilan birga, ingliz madaniyati vakillarining muloqoti uchun ma’lum darajada soxtalashtirish yoki murojaat qiluvchining murojaat etuvchiga ta’siri ham maqbuldir.

Ingliz madaniyatida ijobiy xushmuomalalik strategiyalari bilan birga iltifot, salomlashish, minnatdorchilik, kechirim so’rash va maqtov (praise)lar ham kiradi.

Ingliz madaniyatida maqtov pragmatik emas, balki funksio-semantik jihatdan emotsional nutq harakatidir. Pragmatik nuqtai nazardan esa, maqtovlar ingliz so’zlashuvchilar uchun xissiy bayonotlarning turlaridan biridir.

Ingliz madaniyati vakillari tomonidan maqtovning mohiyatini tushunish ko’p jihatdan o’zbek madaniyati vakillarining tushunishiga o’xshaydi. Lug’at ta’riflari tahlili shuni ko’rsatadiki, ingliz so’zlashuvchilarida maqtovni murojaat qiluvchining muayyan og’zaki va og’zaki bo’lmagan harakatlari, ko’nikmalari, shuningdek, qabul qiluvchining yoki uchinchi tomonning qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari va boshqa shaxsiy fazilatlari natijasida yuzaga kelgan ijobiy xis-tuyg’ularning izohi sifatida tushunishadi. (ko’pincha muloqot vaqtida emas).

Ingliz madaniyatidagi maqtov (praise) bu hayratni ifodalash (expression of admiration), samimiy ma’qullash (warm approbation) nutqiy harakatlari orqali namoyon bo’ladi.

Aynan hayrat ifodasi (expression of admiration) ingliz lingvistik madaniyatidagi “maqtov” madaniy tushunchasining substantiv minimumi hisoblanishi mumkin. Murojaat qiluvchiga hayrat bildirish, uning xatti-harakati, mahorati, kasbiy mahorati va hokazolarni qadrlash orqali uning shaxsiy hayotiga aralashmaslik bo’yicha milliy ijtimoiy qadriyatlar majmuasi tomonidan belgilangan majburiyatlarni to’liq bajaradi.

Ma’lumki, baholash deganda shaxsning ongli yoki ongsiz qadriyatlar tizimiga muvofiq baholash obyektining afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr bildirish tushuniladi. Shaxs jamiyatdan mustaqil subyekt sifatida o’z munosabatini bildiradi va jamiyat vakili sifatida baho beradi.

Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, maqtov (praise)ning baholovchi bayonotlari murojaat qiluvchilarning ijtimoiy mavqelari va obyekt-murojaat qiluvchilar yoki uchinchi tomon obyektlariga nisbatan qiziqarli hisoblanadi.

Maqtov leksemasi semantikasida qayd etilgan “hayrat ifodasi” semantik xususiyatidan tashqari, kommunikativ maqtovni ifodalovchi 6 ta xususiyat bilan ham ajratiladi (diniy ulug’lashlardan farqli o’laroq ko’pincha bir xil leksema bilan ifodalanadigan): 1) harakat; 2) nutq; 3) hukm

yoki fikr bildirish; 4) samimiy; 5) shaxs yoki narsaning taxminiy mukammalligini baholash; 6) qabul qiluvchiga yoki uchinchi shaxsga og’zaki, qo’shik shaklida minnatdorchilik bildirish.

Anna Vejbitskayaning fikriga ko’ra, ingliz madaniyatida “Maqtovning tasviriy maqsadi so’zlovchining shaxsiy ijobiy mulohazalarini ifodalashidadir. Ehtimol, maqtov subyekti qabul qiluvchini xursand bo’lishini xohlaydi. Uning o’z hukmi boshqalarga ma’lum bo’lishini xohlamasligi mumkin. Ammo, yagona o’zgarmas maqsad ma’ruzachi nimani o’ylayotganini ifoda etishidadir” [10].

A. Vejbitskaya tomonidan qaydga ko’ra, ingliz tilida so’zlashuvchilarning bir-biriga nisbatan xushmuomalalik belgisi, ularning bir-birining mahfiylik zonasiga bo’lgan munosabatini hisobga olsak, murojaat qiluvchilarning “egosentrikligi”, murojaat qiluvchilarning murojaat etuvchilarga “e’tiborsizligi” va ularning xissiy va ruhiy holati (o’zbek madaniyati vakillari nuktai nazaridan) aslida ishonchli noverbal bo’lib xizmat qiladi.

Maqtov bayonotlarida ushbu omilning roli ham muhim, ammo u iltifot yoki xushomad so’zlari kabi katta ahamiyatga ega emas, agar qabul qiluvchi e’tiborga olinmasa, bu muvaffaqiyatli (murojaat qiluvchilar nuqtai nazaridan) muloqot prinsipial jihatdan imkonsizdir. Shunga ko’ra, ushbu bayonotlarning murojaatchilari muloqotdan pragmatik jihatdan muvaffaqiyatga erisha olmaydilar, hattoki muloqot boshlanishidan oldin ular kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka duchor bo’ladilar[11].

Shu bilan birga, ingliz madaniyatida kommunikativ xulq-atvorning noaniqligi, xushmuomalalik nazariyasi, maqtov bayonotlari ko’pincha xissiyotlarga emas, balki xissiy bayonotlarga tegishli ekanligi, ya’ni murojaat qiluvchining murojaat etuvchiga bevosita kommunikativ ta’sirini oldini olish istagi kabi xususiyat mavjudligiga asoslanadi. Ushbu baholovchi bayonotlarning asosiy pragmatik maqsadi murojaat qiluvchilarning xissiy holatini tushuntirish, shuningdek, murojaat qiluvchilarning xissiy holatiga keyingi yashirin ta’sir ko’rsatishi, muloqotchilarning aloqalarini mustahkamlash bilan bog’liqdir. Shuningdek, ushbu maqsad qabul qiluvchilarning o’zlari tomonidan ijobiy xissiy o’zini-o’zi idrok etishini mustahkamlash yoki qabul qiluvchilar uchinchi shaxslarga nisbatan kelajakda aloqalarni davom ettirishi mumkin bo’lgan xissiy munosabatini o’zgartirish bilan bog’liq bo’ladi.

Ba’zi hollarda maqtov uchinchi shaxslarni qabul qiluvchilarning noxaq passiv himoya qilish vositasi sifatida ishlaydi. Bunday holda, qabul qiluvchilar va maqtov obyektlari o’rtasidagi aloqalarni davom ettirish imkoniyati muhim emas. Bunday maqtovning maqsadi faqat qabul qiluvchining ijobiy xis-tuyg’ularini tushuntirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев А.Н. Общее понятие о деятельности // Основы теории речевой деятельности. - М., 1974. – 253 с; Сидоров Е.В. Проблемы речевой системности. - М.: Наука, 1987. – 140 б.; Сидоров Е.В. Проблемы речевой системности. - М.: Наука, 1987. – 140 с.; Halliday M. An Introduction to Functional Grammar. – London: E. Arnold, 1994. – 325 p.; Halliday M. An Introduction to Functional Grammar. – London: E. Arnold, 1994. – 325 p.

2. Федорова Л.А. Типология речевого воздействия и его место в структуре общения // Вопр. языкознания. - 1991. - №6. - С. 43-57.

3. Twentier G. The Positive Power of Praising People. - Chicago: Contemporary Books, Chicago, 1998. – 202 p.

4. Стернин И.А. Русское коммуникативное поведение // Русское и финское коммуникативное поведение. Воронеж: Изд-во Воронежского гос. ун-та, 2002. Вып. 8. С. 5.

5. Klochko L. The Pragmatic Strategy of Praise in Modern Language // Pragmatics and Beyond. - Kharkiv: Vasyl Karazin National University. – 2001. – P. 19-20.

6. Twentier G. The Positive Power of Praising People. - Chicago: Contemporary
Books, Chicago, 1998. – 202 p.; Серль Дж.Р., Вандервекен Д. Основные понятия исчисления речевых актов // Новое в зарубежной лингвистике. - М.: Прогресс, 1986. - Вып. 18. - С. 242-262.

7. Wierzbicka A. Semantics. Primes and Universals. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. – 425 p.

8. Кормилицына М.А., Шамьенова Г.Р. Категория вежливости в оценочных речевых жанрах // Жанры речи—2. Саратов: Изд-во ГУНЦ «Колледж», 1999. С. 257
9. Ларина Т.В. Категория «вежливость»... С.138.
10. Wierzbicka A. English Speech Act Verbs: A Semantic Dictionary. Sydney: Academic Press, 1987. P. 199

11. Леонтьев В.В. Синтаксическая специфика комплиментов: (На примере английской лингвокультуры) // Вестник ВолГУ. Сер. 2. Языкознание. Вып. 2. 2002. С. 179; Он же. О важности учета фактора адресата при анализе речевого жанра «Flattery» // Вестник ВолГУ. Сер. 2. Языкознание. Вып. 3.2003-2004. С. 137

KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA LINGVOKONTSEPTOLOGIYADA KONTSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ КОНЦЕПТ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И ЛИНГВОКОНЦЕПТОЛОГИИ
INTERPRETATION OF THE CONCEPT IN COGNITIVE LINGUISTICS AND LINGUOCONCEPTOLOGY

Z.M.Tuxtasinova- katta o’qituvchi , Qo‘qon DPI,

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik va lingvokontseptologiya fanlarida kontsept tushunchasi o’rganilgan. Shuningdek, ushbu sohada tadqiqot olib borgan va fanni rivojiga hissa qo'shgan olimlarning fikrlari ko’rib chiqilgan .

Tayanch so'zlar: kontsept, kontseptual tizim, lisoniy tizim, kontseptosfera, kontseptlashtirish, olamning kontseptual manzarasi .

Аннотация: В данной статье исследуется понятие концепта в когнитивной лингвистике и лингвоконцептологии. Также были учтены мнения ученых, которые проводили исследования в этой области и внесли свой вклад в развитие науки.

Ключевые слова: концепт, концептуальная система, языковая система, концептосфера, концептуализация, концептуальная картина мира.

Annotation: This article explores the concept in cognitive linguistics and linguoconceptology. The opinions of scientists who have conducted research in this field and contributed to the development of science were also considered.

Keywords: concept, conceptual system, linguistic system, conceptosphere, conceptualization, conceptual view of the universe.

Tilshunoslik fani rivojlanishining zamonaviy bosqichi tilning inson ongi va tafakkuri, bilim va madaniyati bilan o’zaro munosabatlariga asoslangan izlanishlar bilan ajralib turadi. Lisoniy tadqiqotlarning markazida “inson omili” muhim o’rin egallaydi. Shunday izlanishlarning mahsuli sifatida kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmatilshunoslik, sotsiotilshunoslik, linvokulturologiya kabi fan tarmoqlari yuzaga keldi. Til va tafakkurning munosabatiga asoslangan tadqiqotlarning salmoqli qismi esa kognitiv tilshunoslik xissasiga to’g’ri keladi. Kognitiv tilshunoslik majmuaviy tadqiqot yo’nalishi bo’lib, u tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun’iy intellect nazariyasi, psixotilshunoslik, neyrotilshunoslik kabi fan sohalariga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi [1,14]. V. Z. Demyankova va E.S. Kubryakovalarning fikriga ko’ra “Kognitiv tilshunoslik tilni kognitiv mexanizm sifatida o’rganadi va u axborotni ifodalash va o’zgartirishda muhim o’rin egallaydigan belgilar tizimi sifatida namoyon bo’ladi” [2,53]. L. V. Pravikovaning fikricha “kognitiv tilshunoslik tilning mazmun parametrlarini ya’ni, kognitiv semantika, freym semantikasi, kategoriya va kategoriyalashtirish, kontsept va kontseptlashtirish, metafora va metaforalashtirish, referentsiya kabi til hodisalarini o’rganadigan fandir” [3,37].

Kognitiv tilshunoslikdagi asosiy atamalarga tafakkur, bilim, konseptuallashuv, kontseptual tizim, bilish, olamning lisoniy voqelanishi, kognitiv asos, psixik tasvirlar, kognitiv model,

kategoriyalashtirish, madaniyat konstantalari, kontsept, konseptosfera, milliy madaniy makon va boshqalarni kiritish mumkin. Bu tushunchalarning barchasi insonning kognitiv faoliyati bilan bog’langan, ya’ni bular orqali inson olamni anglaydi, qarorlar qabul qiladi, bilimlarni egallaydi. Kognitiv tilshunoslik inson ongi haqidagi fan sifatida ta’riflangani bois, ong va tafakkur uning eng murakkab tushunchalaridan biri hisoblanadi, shu bilan birgalikda, kognitiv yo’nalish uchun asosiy qo’llaniladigan atamalar hisoblanadi. Inson ong orqali narsa hodisalar, ularning o’zaro aloqadorligi, sabab-oqibat munosabatlari, qadriyatlarni anglaydi. Madaniy konstantalar qadimgi davrlarda paydo bo'lgan va hozirgi kungacha mutafakkirlar, yozuvchilar va oddiy ona tilida so'zlashuvchilarning qarashlari orqali kuzatilishi mumkin bo'lgan tushunchalardir.

Ushbu tadqiqotimiz asoslanadigan yana bir muhim yo’nalishlardan biri bu – lingvokontseptologiyadir. Tilshunoslikda olamning kontseptual manzarasini, milliy madaniyatga xos bo’lgan tushunchalarni lisoniy birliklar orqali o’rganish sohasi faol rivojlanib bormoqda. Bu esa lingvomadaniy kontseptologiya yoki boshqacha so’z bilan aytganda lingvokontseptologiyaning shakllanishiga olib keldi. Shuningdek, mazkur fanning paydo bo’lishi kontseptning lisoniy voqelanish jarayonini o’rganishga bo’lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Bu sohaning tadqiq etilishi va rivojlanishiga Rossiyalik olimlar I. A. Sternin, A. Vejbitskaya, S. G. Vorkachev, A. V. Projilov, V. I. Karasik va boshqalar katta xissa qo’shishgan. Ularning qarashlari ko’proq lingvokontseptologiya fanining kognitologiya, lingvokulturologiya fanlari bilan aloqasi va ulardan farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, linvokontseptologiyaning taqdiqot ob’ekti, yo’nalishlarini aniqlashga qaratilgandir.

Turli tillardagi lisoniy madaniyatning alohida qismlarini qiyosiy jihatdan o’rganish lingvokontseptologiyaning asosiy vazifalaridan sanaladi. Lingvokontseptologiya mumtoz, struktur va funktsional semantikaning davomi hisoblanib, kulturologiya, kognitologiya, sotsiologiya, tarix va boshqa fanlardagi mavjud axborotlar bilan boyitilgan [4, 24]. Kontseptlarning milliy-madaniy hususiyatlarini aniqlash jihatidan ham semantikadan ajralib chiqqan fan deb tahmin qilinadi. Struktur semantikaning asosiy tadqiqot metodlari komponent tahlil va maydon nazariyasidan lingvokontseptologiyada ham unumli foydalaniladi. Bu semantik maydonda joylashgan kontseptning ma’no belgilariga ko’ra tahlil qilinishi orqali yuzaga chiqadi. Biroq semantikaga qaraganda lingvokontseptologiyaning tadqiqot qamrovi ancha keng. Uning keng qamrovliligi paremiya, aforizm, badiiy asarlar kabi matn va diskurslardagi mental birliklarning semantik belgilarini ham o’rganishida namoyon bo’ladi [5,12]. Ushbu tilshunoslik yo’nalishi doirasida o’tkaziladigan tadqiqotlarning diqqat markazida xalq va millatning milliy-madaniy hususiyatlarini o’zida aks ettirgan mental birliklarni tadqiq etish yotadi.

Lingvokulturologiya va lingvokontseptologiyaning o’zaro aloqadorligi va bir-biridan farq qiluvchi tomonlari yuzasidan fikrlarni bir nechta olimlarning tadqiqot ishlarida ko’rishimiz mumkin. S. G. Vorkachev olib borgan izlanishlari davomida lingvokulturologiya va lingvokontseptologiya orasidagi farqni aniqlashga uringan. Olimning fikriga ko’ra, lingvokulturologiya lingvomadaniyatni butunligicha o’rgansa, lingvokontsepologiya uning alohida fragmentlarini o’rganadi [5,14].

Lingvokontseptologiyaning kategorial apparati tarkibiga kontseptuallashuv, kontseptosfera, olamning kontseptual manzarasi, kontseptual tizim, kontsept kabi tushunchalar kiradi.

Tilshunoslikning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri tafakkur birligi sanalgan kontseptning nutqda aks etishini ta’minlaydigan strukturalar, qoidalarni aniqlash bo’lib, bunda tashqi olamni anglash jarayonining vosita va shakllarini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilninig vazifasi fikrlarni tizimlashtirish (kodlash) va uni tashqariga chiqarishdir. Ayrim hollarda inson fikrini so’z bilan ifodalay olmay qoladi. Bu esa inson miyasida kechayotgan kontseptuallashuv jarayonining ko’lami

cheksiz tuyulsada, fikrni ifodalashda tilning imkoniyati chegaralangan ekanligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kontseptuallashuv jarayoning miqyosi lisoniy jarayonga qaranganda anch kengligini ko’rishimiz mumkin [6, 7]. Kontseptuallashuv jarayoni haqida so’z yuritar ekan Ronald W. Langacker uning ichki tuzilmasi va tashqi olam bilan bog’liqlik jihatlariga e’tibor qaratadi. Uning nazariyasiga ko’ra “Garchi kontseptuallashuv miyaning qayta ishlash faoliyatida sodir bo’lsa-da, u avtonom yoki kapsulalangan emas va uning o’zi tafakkur ob’ekti ham emas. Keng ma’noda kontseptuallashuv idrok tajribasini, ichki qo’zg’alish (motor activity) va u keltirib chiqaradigan kinestetik sezgilarni markaziy nazorat qilishni, shuningdek, suxbatdoshlarning nutqi va va uni qo’llb-quvvatlovchi interfaol kontekstni o’z ichiga oladi” [7, 431]. Shunday qilib kontseptuallashuv jarayoni haqida gapirganda uning insonning tashqi olam bilan o’zaro munosabati asosida miyada to’plangan tajribaga aloqadorligini ham nazardan chetda qoldirmaslik zarur.

Kontseptosfera atamasini fanga birinchi bo’lib kiritgan olim D. S. Lixachev bu tushuncha “millatning tushunchalari yig’indisi bo’lib, u o’sha tilda so’zlashuvchilarning umumiy tushunchalari majmuasi orqali shakllanadi” deb ta’kidlaydi. Kontseptosfera haqida so’z yuritar ekan, V. A. Maslova uni “so’zlovchining dunyoqarashi aks etadigan tushunchalar to’plami” [8,44] deb ta’riflaydi. Demak, kontseptosfera ma’lum bir millatga xos bo’lgan tushinchalarning tartibga solingan majmui, tafakkurning axborot manbaasi hisoblanadi. Ma’lum bir etnik millat vakillarining kontseptosferasi tahlili o’sha xalqning lisoniy ongi, mental olamining hususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bunda olam manzarasi kontseptlar tizimi sifatida namoyon bo’ladi.

Inson tashqi olamdagi narsa va hodisalarni dunyoqarashi, hissiyotlari, ichki xohish va irodasi, qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda baholaydi. Subyektiv nuqtai nazardan u olam haqida ma’lum bir bilimlar, tasavvurlar tizimiga egadir. Bu tizim fanlar kesimida olam manzarasi, olamning kontseptual manzarasi, olamning qiyofasi kabi turlicha nomlar bilan ataladi. Olamning kontseptual manzarasi uning lisoniy manzarasidan tubdan farq qiladi. U tuzilishiga ko’ra murakkab, asosiy ajralib turuvchi jihatlaridan biri ko’p qatlamli ekanligidadir. A. E. Sherbinina olamning kontseptual manzarasini “inson g’oyalari asosida shakllangan tushunchalar prizmasi orqali aks ettirilgan voqelik” [9,222] deb ta’riflaydi. Olam haqidagi aniq tasavvurlarning paydo bo’lishi psixik jarayonlar bilan ham bog’lanadi. Bunda xissiy qabul qilish, tasavvurning paydo bo’lishi va fikrlash jarayonlarining o’zaro uyg’unligi kontseptlar tizimining mazmun mohiyatini tashkil etadi. Shunday qilib olamning kontseptual manzarasi bizning ongimizda mavjud bo’lgan, maxsus tashkil etilgan kontseptlar shaklida berilgan olam haqidagi tasavvurlar yig’idisi bo’lib, u kontseptlarda aks etgan axborotni o’z ichiga oladi.

Til zamonlar osha yangilanib, boyib boradi. Taraqqiyot bilan birga nutqimizga yangi bilim va tushunchalar ham kirib keladi. Kontseptual tizim esa olamning kontseptual manzarasini yangi lisoniy birlik va shakllar bilan to’ldirib boradi. Evans Vyvyan kontseptual tizimga ta’rif berar ekan, faqatgina insonga xos bo’lgan “tushunchalar ombori” bo’lib, u tushunchalarni kategoriyalash va kontseptsiyalashga yordam beradigan tizim ekanligini ta’kidlaydi. Kontseptual tizimdagi har bir kontsept til orqali kodlanadi va ifodlanadi [10, 38]. Y. S. Kubryakovaning fikriga ko’ra, kontseptual tizim mental daraja hisoblanib, u yerda inson ongidagi mavjud barcha kontsept va ma’lumotlar tartibli ravishda jamlanadi [2, 14].

Inson dunyoga kelishidan boshlab uning olam haqidagi bilim va ko’nikmalari shakllanib, takomillashib boradi. U atrofidagi voqelik va hodisalarni anglash, ularga baho berish va ularni bir-biridan farqlashni boshlaydi. Bu kabi jarayonlarning hosil bo’lishi inson ongidagi kontseptual tuzilmalarning paydo bo’lishi bilan bog’lanadi. Shu sababli, kontsept tushunchasiga lisoniy belgilar bilan

ifodalanadigan psixik obrazlar deb ham qaraladi.

Tilshunoslikning zamonaviy yo’nalishlarida kognitologiya fanidan kelib chiqqan kontsept tushunchasining mohiyatini o’rganish muhim ahamiyatga ega. Kontsept nafaqat lingvokontseptologiyaning, balki kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya kabi bir qator yo’nalishlarning ham tadqiqot ob’yekti bo’lib, unda xalqning ko’p asrlik tajribasi, madaniyati va mafkurasi jamlangan.

Croft Williams va D. Alan Crusening “Cognitive linguistics” asarida kontseptual kategoriyalar to’g’risida fikr yuritiladi. Mualliflarning ilgari surgan g’oyalaridan biri bu kontseptlarning umumiy (generic) va individual (individual) xususiyatlariga ko’ra ajratishdirc[11,74]. Masalan, *odam, jinoyatchi* umumiy kontsept hisoblansa, *Zulfiya, Alpomish* individual konteptlardir.

Lingvokonseptologiyani tadqiq etar ekan, E.V. Dzyuba “Когнитивная лингвистика” asarida kontseptning rus olimlari tomonidan turli yo’nalishlarda o’rganilganligi haqida ma’lumot berib o’tadi. Jumladan, mantiqiy (N. D. Arutyunova, L. G. Babenko, R. I. Pavilyonis), lingvokulturologik (S. G. Vorkachev, V. I. Karasik, V. I. Krasnix, V. A. Maslova, V. M. Pimenova, G. G. Slishkin, Yu. S. Stepanov), kognitiv (A.P. Babushkin, N. N. Boldirev, E. S. Kubryakova, Z. D. Popova, I. A. Sternin) , kognitiv diskursiv (A. V. Baranov, V. Z. Demyankov, Yu. N. Karaulov, I. M. Kobozeva, A. P. Chudinov, E. I. Sheygal) yo’nalishlarda o’tkazilgan izlanishlarning tadqiqot ob’ekti va materiallarini sanab o’tadi. Kontseptni o’rganishga mantiqiy yondashuv namoyondalari kontseptni tilning mantiqiy birligi sifatida o’rganishni taklif etadilar. Kognitiv semantik yondashuv tarafdorlari tomonidan esa kontseptuallashuv va kategoriyalash, kontseptning tabiati va tuzilishi, uning turlari aniqlangan. Kognitiv diskursiv yondashuvda kontseptni turli diskurs (matn)larda, jumladan, siyosiy, badiiy, publitsistik, meditsinaga oid, agrotexnik, yuridik kabilarda tadqiq etilishini ko’zda tutadi. Lingvokulturologik yondashuvga ko’ra esa kontsept madaniyatshunoslik va madaniyatlararo muloqotning asosiy birligi sifatida namoyon bo’ladi.

Voqelikni lisoniy vositalar orqali ifodalanish hususiyatlarini tadqiq etuvchi olimlar tomonidan kontsept kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchasi ekanligi e’tirof etiladi. Kontseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni haqida so’z yuritar ekan, Sh. Safarov “Voqelikni aks ettirish to’g’ridan-to’g’ri tilning vazifasiga kirmaydi, bu vazifani dastlabki o’rinda tafakkur bajaradi. Lekin tafakkurda yuzaga kelgan mental tuzilmalar til tizimida o’z ifodasini topadi… So’z, huddi boshqa til birliklaridek, alohida bir predmetni yoki voqeani atovchi oddiy bir yorliq bo’lmasdan, balki voqelikni bilish vositasidir…Dastlabki o’rinda kontseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o’rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmaslik kerak” [1,21] deb ta’kidlaydi.

Kontseptlar kuzatilgan va tasavvur qilinadigan xilma-xil hodisalarni yagona nom ostida birlashtiradi va dunyo haqidagi bilimlarni saqlashga imkon beradi. Ular ma'lumotlarni umumlashtirish orqali tajribani qayta ishlashga hissa qo'shadigan kontseptual tizimni tashkil etuvchi elementlariga aylanadi. Kognitiv tilshunoslik atamalarining izohi ustida izlanish olib borgan E. S. Kubryakova va boshqa olimlar “kontsept” tushunchasiga atroflicha ta’rif berib o’tishgan. Ularning fikriga ko’ra, kontsept - insonning bilim va tajribasini aks ettiradigan axborot tuzilmasini va ongimizning aqliy yoki psixik resurs birliklarini tushuntirishga xizmat qiluvchi atama, shuningdek, inson psixikasida aks etgan olam manzarasi, kontseptual tizim, mental til (lingua mentalis), xotiraning operativ mazmun birligi hisoblanadi. Kontsept tushunchasi predmet va uning xossalari haqidagi ma’lumotlarni yaralish jarayonida vujudga keladi. Ushbu ma’lumotlar doirasiga ham mavjud borliqdagi, ham hayolot dunyosidagi axborotlar kiradi [2,14].

Semantika bo’yicha o’tkazilgan tadqiqotlarni yo’naltirgan ilmiy farazlardan biri shundan iboratki, so’zlar kontseptlarni, ma’no birliklarini bildiradi. Kontseptlar yordamida ma’lum bir tilning semantik

makonini tasavvur qilish mumkin. Aynan semantik makon xalqning o’ziga xos milliy xususiyatlarini anglash imkonini beradi. Kognitiv tilshunoslik fanini tadqiq etgan Vyvyan Evans va Melanie Greenning fikriga ko’ra semantik tuzilma (struktura) bu kontseptual tuzilmadir. Til tashqi olamdagi narsalarga emas, balki so’zlovchining ongidagi kontseptlarga ishora qilishini ta’kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, semantik tuzilma (so’zlar va boshqa birliklar bilan shartli bog’langan ma’nolar) ni kontsept bilan tenglashtirish mumkin [6,157]. V. A. Maslova zamonaviy tilshunoslik fani haqida so’z yuritar ekan, kontsept tushunchasiga bo’lgan uchta asosiy yondashuv haqida ta’kidlab o’tadi. Bular:

1) Kontseptni ko’rib chiqishda asosiy e’tibor uning kulturologik aspektiga qaratiladi (yondashuv tarafdori rus tilshunos olimi Yu. S. Stepanov). Kontseptlarning o’zaro aloqadorligi va ularning yig’indisi madaniyat deb tushuniladi. Yana ushbu yondashuvga ko’ra, kontseptga insonning mental olamidagi madaniyatining bir bo’lagi sifatida qaraladi.

2) Kontseptni tashkil etuvchi yagona vosita – bu lisoniy belgi semantikasidir. Bu yondashuv vakillari N. D. Arutyunova va uning maktabi, T. V. Buligina, A. D. Shmelev, N. F. Alefirenkolardir. N. F. Alefirenkoga ko’ra kontsept kognitiv semantikaning birligi hisoblanadi.

3) D.S. Lixachev, E. S. Kubryakovalar kontseptni ta’riflashda navbatdagi yondashuv vakillari bo’lib, ularning fikricha kontsept to’g’ridan-to’g’ri so’zning ma’nosidan kelib chiqmaydi, balki, so’z ma’nosi va insonning shaxsiy va xalqona tajribasi to’qnashuvidan kelib chiqadi [8,46].

Kontseptning tuzilishi va uning semantikasi borasida ham ko’pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan. Lekin hozirga qadar uning tuzilishini tugal belgilab beradigan ta’rif (nazariya) mavjud emas. Bunga sabab kontseptning fikrlash jarayonidagi dinamik, ya’ni o’zgaruvchan xususiyatga ega ekanligidadir. I. A. Sterninning yozishicha “kontsept har doim harakatda, o’zining turli tarkibiy qismlarida va aspektlarida aktuallashadi, ayrim tushunchalar bilan bog’lanadi va ayrimlaridan chetlashadi” [12,58].

Jakendoff kontseptual strukturani ongning ibtidoiy, fundamental xossalari va aqliy kombinatsiya (sensorimotor bosqichning oxirgi subfazasiga xos bo'lgan kognitiv qayta ishlash jarayoni)ning tamoyillari to’plamidan iboratligini ta’kidlaydi. “Kontseptining tarkibiy qismlari” deb nomlangan birliklarning har biri narsa (yoki ob’ekt), hodisa, holat, harakat, joy, yo’nalish, mulk va miqdor kabi kichik kontseptual kategoriyalarga tegishlidir. Ushbu kontseptual tarkibiy qismlarga jumlalar xaritasini tashkil etuvchi asosiy sintaktik tarkibiy qismlarni kiritib, ularni quyidagi misol orqali ifodalaydi:

Jon uy tomonga yugurdi (John ran toward the house)

Bu yerda kontsept *Jon* va *uy* narsa (ob’ekt), *tomonga* (yo’nalish), *Jon uy tomonga yugurdi* (hodisa) kabi kontseptual kategoriyalardan tashkil topgan [13,22].

Z. D. Popova va I. A. Sternin konsteptni turidan qat’iy nazar uchta asosiy qatlamga ajratadi: asosiy qatlam (yadro, obrazli qatlam ham deyiladi), axborot mazmuni va talqin etilish maydoni [14, 54].

Asosiy qatlam ma’lum bir xissiy obrazni ifodalaydi. Ushbu obraz universal kodning birligi hisoblanadi va kontseptni fikrlash jarayoni uchun kodlaydi. Kontseptni ta’riflashda metaforik o’xshatishdan ham foydalaniladi. Agar kontseptni meva deb tasavvur qilsak, uning o’rtasidagi danagi uning asosiy qatlamidir.

Kontseptning tarkibidagi xissiy obraz har doim ham bir hil emas. U pertseptiv-kognitiv va obrazli belgilarga egadir. Pertseptiv-kognitiv belgi deb atrofdagi borliqni ko’rish, eshitish, ta’m bilish kabi sezgi organlari orqali inson ongida shakllanadigan belgilarga aytiladi. Narsa yoki hodisani metafora uslubida tafakkur qilish shakliga esa obrazli belgilar deb nom berilgan. Obrazli belgilarni mavhum kontseptni moddiy olamga yo’naltiradigan obrazlar deb aytish ham mumkin. Kognitiv obrazlar xilma-xildir, ular pertseptiv obrazlarga qaraganda qiyinroq xosil bo’lsa-da, narsa yoki hodisaning kontseptuallashuvida ikkisining ham xissasi muhim. Aytib o’tish joizki, garchi

hamma kontseptlarda ham qo’shimcha kognitiv qatlamlar bo’lmasada, har bir kontseptning asosiy qatlami mavjud.

Kontseptning ikkinchi qatlami, yuqorida aytib o’tganimizdek, axborot mazmuni deb nomlanib, kontseptuallashayotgan narsa yoki hodisaning belgilarini, boshqalardan ajralib turuvchi jihatlarini aniqlab keladi. Asosiy qatlam, qo’shimcha kognitiv belgilar, kognitiv qatlamlar salmog’i kontseptning hajmini tashkil etadi. Kontseptning axborot tarkibi deyinganda ko’proq uning lug’aviy ma’nosi tushuniladi. Ayrim kontseptlarda esa bunday ma’no bo’lmasligi ham mumkin.

Kontseptning talqin etilish maydoni kontseptning uchinchi qatlami hisoblanib, ma’lum bir madaniyatda kontseptning mazmunidan kelib chiqadigan, xabar va boshqa mazmunda talqin qilinadigan kontseptual belgilarning uyg’unligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv tilshunoslik va lingvokontseptologiya fanlari doirasida yana bir qator izlanishlar va yangiliklar o’z muallifini kutmoqda. Zero, kelgusi izlanishlarning maqsadi milliy madaniyatdagi kontseptlarning ifodalanish usullarini o’rganish bilan birgalikda uning til tizimidagi semantik, leksik-semantik, leksik-grammatik, sintaktik maydonlardagi tutgan o’rnini aniqlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: - Сангзор нашриёти, 2006, 92 б.
2. Кубрякова Е. С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. М., 1996, 197 с.
3. Правикова Л.В. Когнитивная и когитативная лингвистика // Вестник Пятигорского государственного университета. – Пятигорск. – 1999. - №2. - С. 37-44.
4. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — М.: Гнозис, 2004, 477 с.
5. Воркачев С. Г. Лингвокультурная концептология и ее терминосистема (продолжение дискуссии) // Политическая лингвистика. 2014. № 3 (49). С. 12—20.
6. Vyvyan Evans & Melanie Green. Cognitive linguistics: An Introduction. Edinburgh University Press, 2006, P.830
7. Dirk Geeraerts & Hubert Cuyckens. Oxford Handbook of cognitive linguistics. Oxford University Press, 2007. P. 1334
8. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. Учебное пособие. 3-е изд. перераб.и доп.- Минск: ТетраСистемс, 2008.-272 с.
9. Щербинина А.Е. Понятие «картина мира» в современных лингвистических исследованиях // Проблемы концептуализации действительности и моделирования языковой картины мира: сб. науч. тр. / Сост., отв. ред. Т.В. Симашко. – М.: Архангельск, 2009. – Вып. 4. – С. 222-226.
10. Vyvyans E. A Glossary of Cognitive Linguistics. Edinburgh University Press, 2007, P. 244
11. William Croft & D. Alan Cruse. Cognitive linguistics. Cambridge textbooks in linguistics. Cambridge University Press, 2004, P.374
12. Стернин И. А. Методика исследования структуры концепта. Методологические проблемы когнитивной лингвистики. Воронеж. Воронежский государственный университет, 2001. - Стр. 58-65
13. Jackendoff, Ray. 1990. Semantic structures. Cambridge, MA: MIT Press, P. 354
14. Попова З. Д., Стернин И. А. Очерки по когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2003. – 191с.

ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭВФЕМИЗМОВ

ЕВФЕМИЗМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

PRACTICAL ASPECTS OF THE USE OF EUPHEMISMS

Н.Икромова –студентка, Коканд ГПИ

Аннотация. Довольно часто мы находимся в ситуациях, где не можем называть предметы, свойства или действия по их настоящим именам. Причиной этого может являться стремление избегать коммуникативных конфликтов, завуалировать существо дела; целью может быть также намерение скрыть от других то, что говорящий хочет сообщить только конкретному адресату. В таких ситуациях нам нужно найти другое средство обозначения явлений. Таким видом иносказания является эвфемизация.Мы попытались в данной статье рассмотреть практические аспекты использования эвфемизмов.

Ключевые слова: эвфемизм, дисфемизм, эвфемизация, табу, функции эвфемизма.

Аннотация. Кўпинча биз нарсаларни, хусусиятларни ёки ҳаракатларни уларнинг ҳақиқий исмлари билан чақира олмайдиган вазиятларга дуч келамиз. Бунинг сабаби коммуникатив низолардан қочиш, масаланинг моҳиятини яшириш истаги бўлиши мумкин; мақсад, шунингдек, маърузачи фақат маълум бир адресатга айтмоқчи бўлган нарсани бошқалардан яшириш нияти бўлиши мумкин. Бундай вазиятларда биз ҳодисаларни белгилашнинг бошқа воситасини топишимиз керак. Бундай аллегория евфемизмдир. Биз ушбу мақолада евфемизмлардан фойдаланишнинг амалий томонларини кўриб чиқишга харакат қилдик.

Таянч сўзлар: евфемизм, дисфемизм, евфемизм, табу, евфемизм функсиялари.

Abstract. Quite often we use products in nature where we don't talk about things, properties or actions by their true names. this may be the detection of the detection of communicative manifestations, to veil the occurrence of cases; there may also be an intention to hide from others what the speaker wants to reveal only infections in the addressee. In such cases, we need to find another means of notation. This kind of allegory is euphemism. We tried in this article to consider the practical aspects of using euphemisms.

Key words: euphemism, dysphemism, euphemization, taboo, euphemism functions.

Эвфемизмы стали приметой современной речи, нацеленной на вуалирование грубых и неприемлемых для собеседника смыслов, на поиск комфортных для обоих коммуникантов условий общения. Эвфемизм как «слово или выражение, заменяющее другое, неудобное для данной обстановки или грубое, непристойное», призван выполнять в языке в первую очередь функцию смягчения и кодирования табуированной информации. В современном языкознании проводится изучение эвфемизмов с самых разных позиций: семантической, лексико-грамматической, структурной, стилистической, функциональной, лингвопрагматической, социолингвистической и т. п.

Эвфемизм - это правильный языковой стиль, который люди используют в социальном общении для достижения идеального коммуникативного эффекта. Эвфемизм позволяет избежать и смягчить коммуникативные конфликты, деликатные или неудобные темы. Во всех сферах и в каждой стране широко используются эвфемизмы. Создание и использование эвфемизма - обычное явление в человеческом языке. Поскольку эвфемизм используется в

определенном сообществе и находится под влиянием социокультурных факторов, он сильно отмечен социально-культурными особенностями. Как особый языковой феномен, эвфемизм включает не только те эвфемистические выражения, которые принимаются членами сообщества, но также включает эвфемистический стиль общения, который люди принимают в определенной среде. Использование эвфемизма зависит от пола, возраста, социального статуса, занятия и т. д. Эвфемизм охватывает различные аспекты социальной культуры, включая социальные условности, традиционную мораль, религию, социальные ценности и политику, которые показывают, что эвфемизм глубоко укоренился в социальной культуре. Невозможно иметь четкое представление о языке без обращения к социальной культуре.

Эвфемизм - широко используемый языковой прием. Признано, что в каждом языке есть определенное количество эвфемизмов. Энрайт заявил: «Язык без эвфемизмов был бы несовершенным инструментом коммуникации» [2, с.29]. Хью Роусон также утверждает, что эвфемизмы настолько глубоко укоренились в нашем языке, что немногие из нас, даже те, кто гордится своей откровенностью, когда-либо проживают день, не используя их. С развитием общества все больше внимания уделяется правам человека и неприкосновенности частной жизни, и наше общество становится более вежливым, чем раньше. Поэтому, чтобы произвести хорошее впечатление, люди непременно прибегают к большему количеству эвфемизмов. Эвфемизм давно привлекает внимание людей. Когда люди хотят поговорить на какие-то деликатные, неприятные, оскорбительные или табуированные темы и в то же время хотят быть вежливыми, они, вероятно, будут использовать эвфемизмы. Когда Адам и Ева начали использовать «фиговые листья», чтобы прикрыть определенные части своего тела, люди уже посеяли семя для использования эвфемизма. Вот почему некоторые лингвисты называют эвфемизмы «лингвистическими фиговыми листьями». Многие лингвисты, социологи, антропологи и риторы отметили важную роль, которую эвфемизм играет в различных аспектах общения в реальном мире.

Известно, что эвфемизм - это форма языка, намеренно созданная в социальных отношениях для достижения идеального общения. В поисках приемлемого определения эвфемизма мы сталкиваемся с его различными измерениями, каждое из которых дает конкретное понимание этой стратегии: риторическое, литературное, лингвистическое и т. д.

Происхождение термина эвфемизм очень ясно раскрывает цель устройства. «*Эв»* происходит от греческого слова, которое означает «хорошо», а «*фема»* означает «говорить», поэтому слово эвфемизм изначально означает «хорошо говорить». В лексике любого языка можно найти синонимы, смягчающие грубую или неприятную идею. Эвфемизм иногда образно называют «приспособлением для побелки». Как особый способ выражения эвфемизм определяется по-разному в разных учебниках.

Так, по определению К. Аллана «Эвфемизмы являются альтернативой искаженным выражениям и используются во избежание возможной потери лица. Непредпочтительное выражение может быть табу, внушающим страх, неприятным или по каким-либо другим причинам иметь слишком много негативных коннотаций, чтобы удачно выполнить коммуникативное намерение говорящего в данном случае» [1, с.11].

В общем смысле эвфемизм - это слово, фраза или стиль общения, который используется в определенном контексте, чтобы смягчить или скрыть что-то неприятное. Таким образом, эвфемизм предотвращает оскорбление, поскольку он больше не несет отрицательного знака прямого обозначения. В этом смысле эвфемизм -

недостоверное средство выражения, крайняя форма которого была бы настоящей ложью. Несмотря на то, что эвфемизм нельзя просто отождествлять с ложью, поскольку он позволяет говорить о неудобных предметах, а не просто игнорировать их или заменять их противоположностями. Это, по крайней мере, экономичный способ разобраться с правдой, называя приятным образом или сосредоточив внимание на конкретной, менее неприятной детали.

Эвфемизмы в основном используются в разговоре, поэтому концепция функций эвфемизма, понимаемых как его эффекты, вызывает отношения взаимной координации между намерением говорящего и восприятием этой стратегии слушателем. Однако окончательный контроль над этой координацией осуществляет говорящий, поскольку он должен использовать эвфемизм или принять решение о прямом обозначении. В этом смысле конкретное намерение лежит в основе использования эвфемизма, который обычно касается его восприятия слушателем. Эвфемизм выполняет две основные функции: «функция сокрытия» и / или «функция вуалирования». Различие между этими двумя функциями проблематично, потому что два слова, используемые для их названия, являются синонимами. Фактически, один эвфемизм может одновременно выполнять обе функции в дискурсе. Следовательно, это требует попытки разграничить значение и диапазон каждой функции.

В первом случае, если эвфемистическое выражение выполняет функцию сокрытия, то есть некоторый факт или тема (или название, под которым оно известно), которые намеренно скрыты или исключены из дискурсивного взаимодействия. Опять же, это решение принимает во внимание другие факторы, что существуют не подлежащие упоминанию субъекты дискурса, например, традиционно установленные табу и лингвистические табу, а также соглашения относительно дискурса, которые позволяют избежать табу и заменить его эвфемизмом. Другими словами, социальная обусловленность языкового выражения приводит к необходимости избегать определенного аспекта слова или концепции, которая может нарушить установленные нормы. В этом случае выход состоит в смягчении этого аспекта путем выбора менее явного обозначения, обеспечивающего соблюдение этих норм. Маскирующие эвфемизмы предоставляют языковую возможность учитывать условности и тем самым соблюдать их. Примерами с этой же целью смягчения смысла некоторых лексем используют эвфемизмы вместо нейтральных по стилистической окраске слов и выражений:

- *инвалид — человек с ограниченными возможностями*
- *прислуга — помощница по хозяйству*
- *парикмахер — стилист*
- *слепой — незрячий*
- *глухой — слабослышащий*
- *пьяный — нетрезвый человек*
- *наркоман — человек с вредными привычками.*

Во втором случае, эвфемизм также может выполнять другую цель: функцию вуалирования. Эта функция состоит в маскировке сегмента реальности, так что эвфемистическое выражение представляет факт таким образом, что внимание слушателя направляется на определенные части высказывания или на мнения, которые намеренно выбираются говорящим. В отличие от маскирующих эвфемизмов, которые учитывают интересы как говорящего, так и слушателя, учитывая их общее уважение к условностям, маскирующие эвфемизмы больше ориентированы на говорящего и его намерения, которые обычно подразумевают эффекты, которые он хочет вызвать у слушателя. Последний знает как десигнат, так и намерения говорящего, только если он знаком с предметом дискурса. В этом смысле большее фактическое знание соответствует увеличению понимания

эвфемизма. Более того, интересно отметить, что манипулирование говорящим этой дискурсивной рецепцией не обязательно означает потерю лица, поскольку говорящий на самом деле не лжет. Таким образом, маскирующие эвфемизмы могут быть очень тонкой формой неточности или искажения истины.

Язык прессы дает нам множество примеров завуалированных эвфемизмов. В качестве первого примера рассмотрим словосочетание *непопулярные меры (шаги)*. Здесь речь идет о камуфлирующей функции эвфемизмов, потому что за довольно расплывчатым по смыслу понятием кроются конкретные действия, такие как повышение цен, увеличение налогов и сокращение социальных расходов. Вообще, слова с достаточно общим смыслом очень часто используются для обозначения совсем конкретных явлений в эвфемистическом значении. Словосочетание непопулярные меры, очевидно, сохранилось в качестве эвфемизма еще из периода 80- х гг. и экономической политики периода перестройки. Преемственность указанного эвфемизма свидетельствует о том, что власти всегда будут стараться прикрыть или улучшить восприятие определенных аспектов своей деятельности, несмотря на государственное устройство и характер правления

- *Если за **непопулярные меры** возьмется одна партия, она очень быстро перестанет быть парламентской.*
- *Идти на **непопулярные шаги** никто не хочет*.

Данное словосочетание обладает всеми основными признаками эвфемизмов: 1) негативный характер денотата (конкретные действия, которые подразумеваются под понятием «непопулярные меры», безусловно имеют отрицательную коннотацию); 2) семантическая неопределенность или семантическая редукция (эвфемистическое выражение «непопулярные меры» обладает семантической редукцией по сравнению с заменяемым); 3) улучшение денотата («непопулярные меры» имеет менее отрицательную коннотацию, чем прямо указанные конкретные действия); 4) формальный характер улучшения денотата (понятие улучшается лишь формально, а на самом деле адресату понятно, о чем идет речь) [4, с 17-18].

Таким образом, эвфемизм, как явление языка, наблюдается повсюду во всех обществах и используется во всех человеческих взаимодействиях. Использование эвфемизма - это активная прагматическая стратегия говорящих в определенное время и в определенной ситуации. Вполне очевидно, что эвфемизм обладает большей гласностью, легитимностью и респектабельностью. Фактически, эвфемизм проникает через основные каналы во все уголки мира, как и фильмы, музыку, книги, журналы, радио и телевидение. Например, «психиатрическая больница» (эвфемистически относящаяся к сумасшедшему дому) и «зубная пластина» или «зубной протез» (эвфемистически относящаяся к вставным зубам) сейчас популярны в наших повседневных разговорах.

Эвфемизмы больше склонны казаться тропами, чем просто выражениями, потому что служат для усиления выразительности речи, особенно разговорной, характерные особенности эвфемизмов, в частности, способности к изменению структуры эвфемизма, выделение их в разговорной речи, доказывают это. В этом также проявляется сходство фразеологизмов и эвфемизмов.

Использованная литература:

1. Валгина, Н. С. Современный русский язык [Текст] / Н. С. Валгина. – М.: Высшая школа, 2003. – 416 с
2. Дегтярева Е.Р. Функциональная типология эвфемизмов современного русского языка: дис. … канд. филол. наук. Кемерово, 2015. 265 с

3. Сеничкина, Е. П. Словарь эвфемизмов русского языка [Текст] / Е. П. Сенечкина. – М.: Флинта: Наука, 2008. – 464 с.
4. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М.: Азбуковник, 1999. 944 с

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТЕРМИНЛАРИНИ РУС ТИЛИНИ ЎРГАТИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND AGRICULTURAL TERMS IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE

Д.Х.Мухитдинова- Тошкент Давлат аграр университети

Аннотация: Қишлоқ хўжалигида рақамли технологиялар билан ишлай оладиган мутахассисларга бериладиган таълим бевосита Интернет тармоғи имкониятларидан фойдаланиб, Интернет таълим тизимини шакллантиришга имкон беради. Бунда қуйидагиларни алохида ажратиган холда, таълимни ривожланишидаги мухим омиллар сифатида келтириш мақсадга мувофиқдир: Ушбу технологияни таълимда қўллаш масофавий таълимдаги талаба ва университет ўртасидаги тўсиқни йўқотиш ва дарс жараёнини виртуаллаштириш имконини беради. Дунёнинг исталган нуқтасида жойлашган талабаларни ягона таълим олиш муҳитига бирлаштириш ва ўқитувчининг ишлаш самарадорлигини ошириш имкониятини таъминлайди.

Калит сўзлар: Smart agriculture, Mobile Learning, One-to-One computing, Cloud computing, Ubiquitous learning, 3D Internet.

Annotation: The training of specialists who are able to work in agriculture using digital technologies and using appropriate terms allows us to form an Internet education system that directly uses the capabilities of the Internet, enrich agricultural vocabulary and ensure its rapid dissemination. It should be noted that one of the important factors of education is the fact that the usage of this technology in agricultural education makes it possible to eliminate the barrier between a student and a university in distance learning and improve the virtual learning process and visual representation. This makes it possible to unite not only students from anywhere in the world into a single learning environment, but also researchers, thereby increasing the effectiveness of the teacher

Keywords: Smart agriculture, Mobile Learning, One-to-One computing, Cloud computing, Ubiquitous learning, 3D Internet

Аннотация: Обучение специалистов, способных работать в сельском хозяйстве с использованием цифровых технологий и уместно использующих соответствующие термины позволяет сформировать систему интернет-образования, непосредственно использующую возможности сети Интернет, обогащать сельхоз лексику и обеспечить её быстрое распространение. Необходимо отметить, что одним из важных факторов образования является и то, что применение данной технологии в аграрном образовании позволяет устранить барьер между студентом и вузом в дистанционном обучении и улучшить виртуальный учебный процесс и визуальное представление. Это дает возможность объединить не только студентов из любой точки мира в единую учебную среду, но и исследователей, тем самым повысить эффективность работы преподавателя.

Ключевые слова: Smart agriculture, Mobile Learning, One-to-One computing, Cloud computing, Ubiquitous learning, 3D Internet

Нам необходимо разработать "национальную концепцию цифровой экономики", которая предусматривает обновление всех сфер экономики на основе цифровых технологий. На этой основе мы должны реализовать программу "Цифровой Узбекистан-2030". Цифровая экономика позволяет увеличить валовой внутренний продукт не менее чем на 30 процентов, резко снижая коррупцию. [1]

Для реализации Указа Президента Республики Узбекистан от 19 февраля 2018 года № ПФ-5349 «О мерах по дальнейшему развитию сферы информационных технологий и связи», в целях создания условий для быстрого развития современных информационных технологий в системе государственного управления цифровой экономикой в стране Кабинет Министров 31 августа 2018 года принял Постановление «О дополнительных мерах по внедрению и дальнейшему развитию цифровой экономики в Узбекистане».

Будущее развитие всех сфер жизни общества напрямую связано с развитием цифровых технологий. Информационные технологии - одно из направлений цифровых технологий. Цифровая техника - это дискретная система, основанная на методах кодирования и передачи информации, которая позволяет решать различные задачи в относительно короткие сроки.

Для того чтобы мы смогли воплотить в жизнь программу "Цифровой Узбекистан-2030", для того чтобы выполнить огромные задачи, поставленные программой, прежде всего, необходимо уделить особое внимание реорганизации системы образования. Главной характерной чертой современного человека является умение овладевать навыками цифровых технологий, применять их в повседневных домашних условиях и условиях труда. Для того чтобы обеспечить экономику работниками с цифровыми технологиями, необходимо внедрить эти технологии в систему образования.

Цифровые технологии в образовании - это метод создания современной образовательной среды на основе цифровых технологий.

В соответствии с постановлением Президента нашей страны "о мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Ташкентского государственного аграрного университета" от 19 августа прошлого года приоритетными направлениями дальнейшего развития аграрного образования и науки в этом высшем учебном заведении и его филиалах были определены применение инновационных ресурсосберегающих технологий в сети, подготовка кадров с современными знаниями. Это станет важным фактором подготовки квалифицированных кадров, которые, в то же время, способны работать в сельском хозяйстве с цифровыми технологиями, освоившие международный опыт, учитываются на уровне государственной политики в подготовке зрелых кадров во всех аспектах системы высшего образования. [3]

Обучение специалистов, способных работать в сельском хозяйстве с использованием цифровых технологий, позволяет сформировать систему интернет-образования, непосредственно использующую возможности сети Интернет. В данном случае в качестве основных факторов развития образования целесообразно привести следующие:

Mobile learning. Мобильное чтение и обучение. Аппаратные и программные достижения стали толчком к созданию инструментов для создания mobile " smart phones " пространства. Мобильные устройства, которые подключены к Интернету и имеют возможность работать, стали популярными с современных компьютеров.

Cloud computing. За последние несколько лет концепция облачных вычислений и принцип цифровизации значительно эволюционировали и стали одной из важнейших технологий в области информационно-коммуникационных технологий. Облачные вычисления сами по себе представляют собой благоприятную среду для использования пользователями интернет – приложений: с этой точки зрения актуальность их использования играет важную роль в общественно-политической деятельности страны, в том числе в рамках внедрения и формирования электронного правительства.

One-to-one computing. Информационные носители, организованные на месте обучения, все чаще осуществляются в тесной и дружественной для слушателя манере. Выдвигается принцип универсальности технологий Bunda, позволяющий легко использовать различные устройства и объекты в различных ситуациях (создание прозрачного класса на базе таких как laptop, computer, smart phone, tablet).

Ubiquitous learning. Принцип здесь в любое время и в любом месте (“anytime, anywhere”) предполагает улучшение продолжительности и организации традиционного урока: "ubiquitous" – широкий охват возможностей слушателя через виртуальное пространство.

3D-интернет-технология - это интеграция интернета и технологии 3D-графики, в результате которой интерактивный 3D-контент через Интернет передается в режиме реального времени в виде веб-сервиса. Эта технология, разработанная на основе концепции Web 3.0, позволяет создавать виртуальный мир с помощью интернета. Для организации этой технологии необходимы 3D-камера и высокоскоростной интернет. Применение данной технологии в образовании позволяет устранить барьер между студентом и вузом в дистанционном обучении и улучшить учебный процесс. Это дает возможность объединить студентов из любой точки мира в единую учебную среду и повысить эффективность работы преподавателя.

На основе этой технологии создается виртуальная мультимедийная обучающая среда.

3D Интернет имеет ряд преимуществ:

Пользователи сети объединяются и управляются вируально, расстояние не имеет значения, все находятся в пространстве, в виртуальном едином месте друг с другом, контентом может управлять каждый пользователь сам, любой пользователь сети может напрямую взаимодействовать с другим пользователем сети.

Организация виртуальной образовательной системы на основе технологии 3D Internet позволяет организовать следующие виды обучения и научных исследований:

Стать членом любых виртуальных университетов мира, организация виртуального дистанционного обучения, экскурсии, проведение виртуальных исследований, приобретение виртуальных книг и учебных пособий, организация виртуальных семинаров и конференций, организация виртуальных рабочих групп и проектов и т.д.

Применение технологии 3D Internet в образовательной системе дает следующие достижения:

Организация виртуального дистанционного обучения, сокращение затрат на обучение, сокращение транспортных расходов, формирование неограниченной студенческой аудитории и проведение онлайн-занятий по всему миру, организация виртуальных исследований и привлечение ведущих ученых и экспертов со всего мира, взаимодействие с новыми научными инновациями виртуальное наблюдение и предложения, и, конечно же, виртуальное участие в конференциях и семинарах.

В заключение можно сказать, что использование этих технологий в образовании во многом способствует дальнейшему повышению качества

образования, резкому развитию современных видов образования, повышению уровня грамотности обучающегося и, что немаловажно, дальнейшему развитию государства.

Использованная литература:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису Республики Узбекистан о важнейших задачах на 28 декабря 2019 года
2. Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы».
3. Ш. Носиров. Начальник управления внедрения инновационных технологий и цифровизации сельского хозяйства Министерства сельского хозяйства https://pv.uz/uz/новые газеты / aqlli-qishloq-xojaligi-konsepsiyasi
4. Что такое Цифровая экономика? https://www2.deloitte.com/mt/enpages/ technology/articles/mt-what-is-digital-economy.html >

INNOVATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIKADAGI MUHIM JIHATLARI

ПОНЯТИЕ ИННОВАЦИИ И ЕЕ ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ В ПЕДАГОГИКЕ

THE CONCEPT OF INNOVATION AND ITS IMPORTANT ASPECTS IN PEDAGOGY

N. M. Babayeva – i.f.n.,dotsent, Qo‘qonDPI

Annotatsiya. Maqolada innovasiyalar ahamiyati va ta’limni modernizasiya qilish hamda isloh etish sharoitlarida innovasion jarayonlarni kiritish zarurati yoritib berilgan. Innovasiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari va pedagogika sohasidagi innovasiyalarning o’ziga hos muhim jihatlari aks ettirilgan. Innovasion jarayonlarning asosiy komponentlari tavsiflangan va innovasiyalarni ta’lim hizmatlari bozori bilan o’zaro aloqalari ochib berilgan.

Kalit so’zlar. Novatsiya, innovatsiya, innovatsion maydon, pedagogik innovatsiya, islohot (pedagogik), innovatsiyalar diffuziyasi, innovasion jarayon.

Аннотация. В статье подчеркивается важность инноваций и необходимость внедрения инновационных процессов в условиях модернизации и реформирования образования. Отражены научно-теоретические основы понятия инновации и наиболее важные аспекты инновационной деятельности в области педагогики. Описаны основные составляющие инновационных процессов и выявлено взаимодействие инноваций с рынком образовательных услуг.

Ключевые слова. Новация, инновация, инновационное поле, педагогическая инновация, реформа (педагогическая), диффузия инноваций, инновационный процесс.

Abstract. The article emphasizes the importance of innovation and the need to introduce innovative processes in the context of modernization and reform of education. The scientific and theoretical foundations of the concept of innovation and the most important aspects of innovation activity in the field of pedagogy are reflected. The main components of innovative processes are described and the interaction of innovations with the market of educational services is revealed.

Keywords. Novation, innovation, innovation field, pedagogical innovation, reform (pedagogical), diffusion of innovations, innovation process.

Jamiyatimizning barcha sohalarida (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy) yuz berayotgan o'zgarishlar mamlakatning kelajakdagi intellektual salohiyatini

belgilaydigan va uning gullab-yashnashi va rivojlanishining sharti bo'lgan ta'lim tizimiga ta'sir qilmasligi mumkin emas. Shu sababli, ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim muassasalarining (keyingi o'rinlarda - TM) innovatsion faoliyati belgilanishi ajablanarli emas.

Ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish zarurligini anglash amalda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga kiritish muqarrarligiga, ularni doimiy ravishda "innovatsion maydonda" faoliyat yuritishga va eng muhimi, ma'lum bir yangiliklarni o’zlashtirishga olib keladi.

Bu, ayniqsa, bizning davrimiz uchun juda muhimdir, chunki innovatsion faoliyat ham ta'lim muassasasining omon qolish sharti, uning o'quvchi (talaba)lari hamda barcha o'qituvchilar tarkibining ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash shartidir.

Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi paytda jahon ta'lim muassasalarining 90% dan ortig'i ta'lim faoliyatining yangi vositalari, usullari va shakllarini izlash bilan shug'ullanmoqda. Ta'lim muassasalarida, ayniqsa so'nggi o'n yillikda juda ko'p turli xil innovatsion jarayonlar amalga oshirildi. Bu miqdoriy statistika.

Shu bilan birga, sifat tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pincha ta’limdagi innovatsion jarayonlar - tarqoq, samarasiz boshqariladigan, batafsil o'ylab chiqilmagan va joriy etishga tayyor emas. Ta'lim muassasalari yuqoridan berilgan buyurtma yoki zamonaviylik natijasida ma'lum bir ta'lim muassasasi hayoti bilan bog'liq bo'lmagan turli xil yangiliklarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar. Natijada an'anaviy "harakatlar rejasi" yoki rahbar tomonidan yaratilgan murakkab "san'at asari" tushunarsiz, jamoaga yot bo’lib qolib, jamoa tomonidan rad etiladi. Natijada e'lon qilingan innovatsion loyihalarning ommaviyligi u yoki bu yangilikni muvaffaqiyatli o'zlashtirganlar soni bilan tasdiqlanmaydi.

Ushbu nomuvofiqlikning asosiy sabablaridan biri ma'lum bir TMda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish va boshqarish tizimining etishmasligi hisoblanadi. Amalda, bu shuni anglatadiki, ba'zi bir yangiliklarni o'zlashtirgan holda TM har qanday va har kimning muammolarini hal qiladi, lekin o'zinikini emas. Bundan tashqari, bu muammolar har doim ham ushbu muassasalar rahbarlari tomonidan oqilona va aniq shakllantirilmaydi. Yaratilayotgan innovatsiyalar ma'lum bir TM muammolarini hal qilish vositasi va natijada uni rivojlantirish yo’li bo’lolmasa, ularni ta’lim tashkiloti uchun keragi bo’lmaydi. Hozirda, o'qituvchilarning o'zi TMda ishlanishi kerak bo'lgan masalalarni e'tiborsiz qoldirmoqda. Ko'pgina o'qituvchilarning faoliyatini yangilash zaruriyatlaridan biri bu TMning rivojlanishiga va oldinga siljishiga xalaqit beradigan ahamiyatli muammolarini hal qilishdan ko'ra, ular tomonidan yangi yondashuvlarni, ishlash usullarini sinab ko'rish va yoshlar uchun qiziqarli o’qitishni ta’minlash istagi mavjudligidir.

Ta'lim jarayoni uning samaradorligini hal qiluvchi omillaridan biri bo'lgan ta'lim innovatsiyalarini maxsus o'rganishni, samarali tashkil etishni va boshqarishni talab qiladi.

"Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" dan kelib chiqqan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgartirish") va "in" prefiksi lotin tilidan “yo'nalishda” ma’nosida ishlatilgani sababli innovatsiya so’zi so'zma-so'z tarjima qilinadigan bo'lsa, "Innovatio". - "o'zgarish yo'nalishida" ma’nosini anglatadi.

Innovatsiya tushunchasining birinchi marotaba 19-asrda ilmiy tadqiqotlarda paydo bo’la boshlagan. U birinchi marta madaniyatshunoslik va tilshunoslikda ko‘chirish jarayonini – bir madaniyat elementlarining boshqasiga kirib borishini va yangi, ilgari bo‘lmagan sifatlarni egallashini anglatish uchun bir asrdan ko‘proq vaqt oldin qabul qilingan. Bunday kirib borish madaniyatlar rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida qaraldi. Zamonaviy dunyoda u turli xil bilim va faoliyat sohalarida, ayniqsa iqtisodiyot sohasida faol qo'llanildi.

“Innovatsiya” tushunchasi 20-asr boshlarida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi J.Shumpeterning ilmiy ishlarida “innovatsion kombinatsiyalar”ni, iqtisodiy tizimlar rivojlanishidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish natijasida yangi hayot oldi. Shumpeter 1900-yillarda olimlardan birinchi bo’lib ushbu

atamani iqtisodiyotga ilmiy foydalanishga kiritdi.

J. Shumpeter barcha yangi kombinatsiyalarni tijoratlashtirishni innovatsiyalar deb hisobladi. Bu kombinasiyalar qo’yidagilardir:

- yangi materiallar va komponentlarni qo'llash;
- yangi jarayonlarni joriy etish;
- yangi bozorlarni ochish;
- yangi tashkiliy shakllarni joriy etish.

SHu qatorda, Shumpeter innovatsiyani faqat texnologiya darajasida inobatga oldi.

“Innovatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar” (Oslo qo'llanmasi)ga muvofiq innovatsiya yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi usulini yoki biznes amaliyotida yangi tashkiliy usulni joriy etish, ish joylarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishning yangi metodini ifodalaydi.

Innovatsiyalar - bu yangi bilimlarni ishlab chiqish va o'zlashtirish, odamlar hayotining turli sohalarini (texnologiyalar, mahsulotlar; ta'lim, boshqaruv, mehnatni tashkil etish va boshqalar kabi jamiyat mavjudligining tashkiliy shakllari) yangilash va qo’shimcha qiymat (foyda, etakchilik, ustuvorlik, tubdan yaxshilash, sifat ustunligi, ijodkorlik, taraqqiyot)ga ega bo’lib, ularni keyingi jarayonlarda joriy etish uchun ilgari foydalanilmagan g'oyaning intellektual yechimiga investitsiya qilish natijasidir.

Umumiy ilmiy tasavvurlarga o‘ziga xos xususiyatlarni kirituvchi pedagogika nuqtai nazaridan innovatsiya murakkab, ko‘p o’lchovli tushunchadir. Ko‘p tadqiqotchi-o‘qituvchilar (N. L. Korshunova, V. A. Slastenin, N. R. Yusufbekova va boshqalar) innovatsiyani ikki jarayonning birligi deb hisoblaydilar: yangini paydo bo‘lishi, ya’ni pedagogik innovatsiyalarni yaratish, va shu bilan birga uni amalga oshirish, pedagogik jamoa tomonidan o’zlashtirish, ta’lim va tarbiya amaliyotida foydalanish. [1]

A. V. Xutorskoy innovatsiyaning uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi: innovatsiyalarni yaratish, ishlab chiqish va qo'llash. Shu bilan birga, u yangilik va innovatsiyani farqlash kerakligini ta'kidlaydi. Agar pedagogik innovatsiya deganda ma’lum bir g‘oya, usul, vosita, texnologiya yoki tizim tushunilsa, bu holda yangi kiritma bu yangilikni joriy etish va o‘zlashtirish jarayoni bo‘ladi.[2] Shunday qilib, ushbu muallif uchun "innovatsiya" tushunchasi "yangi kiritma" tushunchasi bilan sinonimdir.

Pedagogikada "innovatsiya" tushunchasi quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

innovatsion faoliyatni tashkil etish shakli;

o'qituvchining tarbiya va ta'limning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan yangi kasbiy harakatlari majmui [talabalarga yo'naltirilgan ta'lim nuqtai nazaridan];

ta'lim amaliyotidagi o'zgarishlar;

texnika, texnologiya, pedagogika, ilmiy tadqiqotlar sohasida yangi amaliy vositani yaratish, tarqatish va undan foydalanishning murakkab jarayoni;

innovatsion jarayonning natijasi.

Bu xilma-xillik ilmiy adabiyotlarda “innovatsiya” (“yangi kiritma” sifatida) tushunchasini talqin qilishda sezilarli farqlarga olib keladi.

Sharhlashdagi farqlar muhim yo’nalish olimlarining farqli qarashlari, shuningdek, ba'zida innovatsiyalarning radikalizmi bilan bog'liq. Bir qator tadqiqotchilar, innovatsiyani faqat ma'lum bir tizimda tub o'zgarishlarga olib keladigan yangilik deb hisoblash mumkinligiga ishonishadi, boshqalari bu toifaga har qanday, hatto ahamiyatsiz yangiliklarni ham kiritadilar. [3,4]

Innovatsiyaning muhim xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni jarayon va mahsulot (natija) sifatida ko'rib chiqish uchun barcha asoslar mavjud.

Innovatsiya jarayon sifatida tizim holatini va tegishli inson faoliyatining qisman yoki keng ko'lamli o'zgarishini anglatadi.

Natijada innovatsiya yangi narsani yaratish (qayta ishlab chiqarish) jarayonini ta'minlaydi, u "novatsiya" deb qabul qilinadi.

Shu asosda "innovatsiya" ("yangi vosita") tushunchalari ko'pincha ma'lum bir vosita (yangi g'oyalar, usullar, texnikalar, texnologiyalar, dasturlar va boshqalar) va "yangilik" sifatida ajralib turadi, chunki ular ma'nosi kengroq.

Jadval 1

Innovatsion jarayonning asosiy komponentlari

Novatsiya – yangi g’oya, yangi bilim	Tugallangan ilmiy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlanmalar natijasi, boshqa ilmiy-texnik yutuqlar
Kiritilgan yangilik = innovatsiya (ingl. innovation- yangilikni kiritilishi)	YAngi bilimni kiritilishi natijasi, uni bozorda yoki amaliy faoliyatda foydalaniladigan takomillashgan texnologik jarayonda qo’llaniladigan yangi yoki takomillashgan mahsulotda joriy etilishi
Innovatsiyalar diffuziyasi	Avval o’zlashtirilgan va joriy etilgan innovatsiyani tarqatish jarayoni, ya’ni yangi joylar va sharoitlarda innovatsion mahsulotlarni, hizmatlarni, texnologiyalarni qo’llash

Novatsiya fan va amaliyotda tubdan yangi narsalarni ochadigan shaxs yoki jamoaning ijodiy izlanish natijasi (mahsuloti), innovatsiya esa yangi g‘oyalarni yaratish, shakllantirish va amalga oshirish natijasi hisoblanadi. Aynan yangi g'oyalarning ruyobga chiqarish, novatsiyalarni innovatsiyalardan to'g'ri ajratib olishga imkon beradigan hususiyatdir: agar o'qituvchi printsipial jihatdan yangilikni kashf qilsa, u novator, ilmiy g'oyani amaliyotga aylantirsa, u innovatordir.

Pedagogik innovatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri pedagogik vositaning yangiligidir.

Pedagogik amaliyotda, boshqa faoliyat sohalarida bo'lgani kabi, yangilik ham shaxsiy, ham tarixiy jihatdan nisbiydir: bitta o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa boshqasi uchun yangilik bo'lmasligi mumkin. Yangilik har doim aniq tarixiy xususiyatga ega bo'ladi - ma'lum bir davrda tug'ilib, aniq tarixiy bosqich muammosini bosqichma-bosqich hal qilib, vaqt o'tishi bilan u ommaviy amaliyot, umumqabul qilingan me’yorga aylanadi yoki keyinchalik - hatto rivojlanishga to’sqinlik ham qilishi mumkin.

Pedagogikada yangilik mutlaqo yangi, nisbiy yangilik, sub'ektiv yangilik, soxta yangilik sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy xususiyatlari ushbu darajalarning har birida mavjud.

Mutlaq yangilik. U ilgari noma'lum yangiliklarni o'z ichiga oladi, ular amalga oshirilishi natijasida tubdan (radikal) yangi narsalarga aylanadi. Uni ma'lum bir yangilikning analoglari, aniq prototiplari yo'qligi uchun qayd etishadi.

Nisbiy yangilik. U bir nechta variantlarda o'zini namoyon qiladi - qisman yangilik sifatida, u har qanday jihatdan yangi bo'lganda tizim elementlaridan birini yangilashdan iborat bo’lgandagi yangilik; ma'lum elementlarning g'ayrioddiy kombinatsiyasidan kelib chiqadigan shartli yangilik; mahalliy yangilik - boshqa ob’ektlarda va boshqa yangi sharoitlarda mavjud novasiyani qo'llashda yuzaga keladi.

Subyektiv yangilik. U haqida ob’ekt berilgan sub’ekt uchun yangi bo'lganida gapirishadi. Masalan, biror narsa yoki hodisa bir shaxs uchun mutlaqo yangi, muayyan jamiyat uchun (masalan, bir mamlakatda) me’yoriy jihatdan yangi bo‘lishi mumkin va boshqa mamlakatda boshqa jamiyat uchun yangi bo‘lmasligi mumkin.

Sof yangiligidan tashqari, novatsiya innovatsion potentsialga ega bo'lishi kerak – bu uning undan uzoq vaqt davomida foydalanishdan foydali natijani ta'minlash qobiliyatidir. Agar yangilik foydali effekt bermasa, demak bu **soxta yangilik**. Bu ko'pincha o'quv jarayoniga kompyuterlar kiritilganda sodir bo'ladi va shuni anglatadiki, kompyuter texnik o'qitish vositasi sifatida innovatsion salohiyatga ega emas - bunday imkoniyatlar uni o'quv jarayoniga kiritish usullari bilan ta'minlanmagan, bu esa uning asosiy imkoniyatlaridan foydalanishni imkonsiz qiladi.

Zamonaviy sharoitda innovatsiyalarni yaratishni rag'batlantirish bozordagi raqobatni o'z ichiga oladi, ya'ni innovatsiyalar bozor bilan bog'liq. Raqobat TMni ta’lim xizmatlari bozorida o'z pozitsiyalarini saqlab qolish uchun yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga va joriy etishga, yoki yangi segmentni ishlab

chiqishga (bozor segmenti - bozorning bir qismi bo'lib, u bir xil tovarlar bir hil munosabatda, ularni sotib olishga bir hil aks javob qiladigan iste'molchilar guruhini qamrab oladi; tovarga bozor talabi zonasidir) va qo'shimcha raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lish (muassasaning innovatsion strategiyasiga qarab)ga undaydi.

Innovatsiya va bozor o'rtasidagi munosabatlar o'zaro taqozo qilinadigan darajada bog'liqdir: qondirilmagan bozor talabi yangilikni yaratish va joriy etishni rag'batlantiradi; o'z navbatida, bozorda innovatsiyalarning paydo bo'lishi talab va taklif nisbatini o'zgartiradi, yangi bozor ehtiyojlarini keltirib chiqarib bozorning yangi segmentlarini shakllantiradi. (1 -rasm).

Rasm 1. Bozorning innovatsiya bilan o’zaro aloqasi



SHunday qilib, xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, innovatsiya - bu innovatsion jarayon sub'ektlarining rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan faoliyatining natijasidir:

a) yangi innovatsion g’oyalarni izlab va ular asosida yangiliklarni ishlab chiqaradigan novatorlar - innovatsion jarayon ishtirokchilari;

b) Ta’lim xizmatlari bozorida yangilikni joriy etish va targ’ib qilish bilan shug’ullanadigan innovatorlar – innovatsion jarayon ishtirokchilari;

v) innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni moliyalashtiruvchi investorlar - innovatsion jarayon ishtirokchilari;

d) innovatsiyalarni joriy etishning asosiy funktsiyalarini amalga oshiruvchi ta’lim muassasalari – innovpasion jarayon sub’ektlari.

Innovatsion jarayonlarni yuqori sifat bilan boshqarish innovatsion risklarni sezilarli darajada kamaytirish va tijoratlashtirish samarasini oshirishi mumkin. TMda o'z -o'zidan sodir bo'ladigan o'zgarishlar innovatsiya deb hisoblanmaydi.

Shunday qilib, taqqoslaymiz.

Innovatsiya - bu ishchilar, xodimlar, mutaxassislar tomonidan tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan yangilik.

Pedagogik innovatsiya - ta'lim muhitiga alohida qismlarning xususiyatlarini va umuman ta'lim tizimining o'zini yaxshilaydigan barqaror elementlarni (yangiliklarni) kiritadigan maqsadli o'zgarishdir.

Islohot (pedagogik) - davlat organlari tomonidan tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan yangilik. Bunday holda, yangilik innovatsiya natijasi sifatida ko’riladi, innovatsiya jarayoni esa qo’yidagi bosqichlarning rivojlanishi sifatida o’rganiladi: g'oyaning paydo bo'lishi (ma'lum bir holatda, ilmiy kashfiyot), g'oyaning amaliy jihatdan ishlab chiqilishi va uni amaliyotga tatbiq etilishi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish

bosqichiga olib chiqish va ijtimoiy-pedagogik muhit bilan bog'liq o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat - bu innovatsion faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсуфбекова. Н.Р. Общие основы педагогической инноватики: опыт разработки теории инновационных просессов в образовании. М., 1991.
2. Хуторской. А.В. Педагогическая инноватика: учебное пособие для студ. высш. учеб. завед. - М.: Академия, 2008. - 256 с.
3. Лазарев Б.С., Мартиросян Б.П.. Педагогическая инноватика: объект, предмет и основные понятия // Педагогика. 2004. № 4.
4. Полонский В.М.. Инновасии в образовании (методологический анализ) // Инновасии в образовании. 2007. № 3.
5. Имакаев В.Р.. Педагогическое знание // Философские науки. 2005.
6. Вагизова А.И. Подходы к формированию системы инновационного образования РФ // Вестник Казан. технол. ун-та. – 2011. Т. 14, № 23 - С. 293-298.
7. Пивкин С.Д., Валеева Н.Ш.,. Мингалеева А.И. Самоопределение обучающихся в инновационном курсе // Вестник Казан. технол. ун-та. – 2012. Т. 15, № 6 - С. 258-262.

TA'LIMDA SUISID HOLATLARINI OLDINI OLISH VA KORREKSIYA QILISH MASALALARI

ПРОБЛЕМЫ ПРОФИЛАКТИКИ И КОРРЕКЦИИ СУИЦИДА В ОБРАЗОВАНИИ

ISSUES OF PREVENTION AND CORRECTION OF SUICIDALITY IN EDUCATION

D. X.Muxitdinova- Toshkent DAU

Аннотация: В данной статье освещены возможности подробного изучения, предупреждения и коррекции суицидальных ситуаций среди учащихся и студентов в образовательных учреждениях. Выявлены предпосылки суицида в семье среди детей, подростков и молодёжи. Приведены рекомендации и подробные разработки для педагогов и психологов, исследователей, работающих над темой суицида среди молодёжи.

Ключевые слова: суицид (самоубийство), педагог-психолог, цели, задачи, коррекция, мировоззрение, поддержка, кризисные ситуации

Annotation: This article covers in detail the study, prevention and correction of suicides among students and students in educational institutions. Among children, adolescents and young people, the factors of suicide in the family have been identified. Recommendations and detailed developments were given to teachers, psychologists and researchers who are working on the topic of suicide among young people.

Keywords: suicide, educational psychologist, goals, tasks, correction, worldview, support, crisis situations*.*

Annotasiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish holatlarini batafsil o‘rganish, oldini olish va tuzatish imkoniyatlari yoritilgan. Bolalar, o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida oilada o‘z joniga qasd qilishning omillari aniqlab berilgan. Yoshlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish mavzusida ishlaydigan o‘qituvchilar, psixologlar xamda tadqiqotchilar uchun tavsiyalar va batafsil ishlanmalar berilgan.

Kalit so‘zlar: suisid (o‘z joniga qasd qilish), pedagog-psixolog, maqsad, vazifalar, korreksiya, dunyoqarash, qo‘llab-quvvatlash, krizis holatlar

Barchamizga ma'lumki farzandga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, uni parvarishlash, ma'naviy yetuk inson etib tarbiya qilish ota-bobolarimizdan qolgan merosdir. O‘zbekiston ahli bolajon, mehribon, mehnatsevar xalq.

O‘zbekiston, boshqa sobiq ittifoq davlatlari kabi, mustaqillika erishgandan so‘ng yoshlar tarbiyasiga juda katta e'tibor berib, ularni xar tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga katta imkoniyat eshiklarini ochdi. Yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi va mushtarakligi alohida e'tiborga sozovor.

Yosh avlodni xar tomonlama yetuk inson bo‘lib o‘sishiga qaratilgan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilayotgan va Respublikamizda olib borilayotgan qator islohotlar buning dalilidir. Milliy boyligimizni qayta tiklovchi yangi maktablarni ochilishi, jumladan, Toshkent shahridagi Al' Xorazmiy nomli ixtisoslashtirilgan maktab, Termizdagi baxshilar maktabi, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Ishoqxon Ibrat nomidagi majmua va h.k. Shuningdek 2018 yilning 16 mart PQ-3606-sonli “Yoshlar – O‘zbekiston kelajagi” Davlat dasturida Prezident qarori tasdiqlanishi mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi faoliyatni yanada takomillashayotganidan dalolat bo‘lib kelmoqda. Shuningdek Davlat dasturi asosida, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, yoshlar bilan o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va bayram tadbirlariga g‘oyaviy mazmun baxsh etish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashga qaratilgan samarali tizimlar joriy etish, yoshlarda mehnatsevarlik, ishbilarmonlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish maqsadida qabul qilinishi mumkin.

“Yoshlar – O‘zbekiston kelajagi” Davlat dasturining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan tashkil topgan:

- yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozisiya va chuqur bilimlarga ega, millatlararo hamjihatlik ruhida Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlaridagi faolligini oshirish;
- yoshlar o‘rtasida ommaviy-madaniy va bayram tadbirlarini g‘oyaviy mazmun bilan to‘ldirish, ular o‘rtasida xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash, konferensiyalar va ko‘rgazmalar o‘tkazish, yoshlarning iqtidori va iste'dodini to‘laqonli namoyon qilishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish, yoshlar orasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish;
- yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlariga va bandligini ta'minlashga qaratilgan samarali tizimlar joriy etish, ularni boqimandalik kayfiyatidan xalos etgan holda mehnatsevarlik, ishbilarmonlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish.Ushbu dasturni amalga tadbiq etishda pedagog-psixologlarning o‘rni aloxida e'tiboga sozovor.

Bugungi kunda axborot oqimi uzliksiz ravishda kommunikasiya tarmoqlaridan uzatilayotgan davrda xavsizlikni ta'minlash, salbiy oqibatlarni oldini olish ma'suliyati biz - pedagog-psixologlarning zimmamizda deb bilamiz. Aynan shuning uchun o‘quvchi yoshlarimiz ta'lim olishida, mehnat qilishida ruhiy sog‘lom bo‘lishi kerak, ya'ni pedagog-psixologlar nerv-psixik kasalliklarini oldini olishning mohiyatini tushuntirib bormog‘i darkor. Insonlarning ruhiy holati xaqida gap ketar ekan, aholiga psixiatriya yordami ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan “Psixiatriya yordami ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3606-son Prezident qarori 2018 yilning 18 mart kuni qabul qilinganligi ta'kidlash joiz.

Yuqorida keltirilgan qarorlardan ko‘zlangan asosiy maqsad bu yoshlarimiz erkin fikrlaydigan, salbiy ta'sir etuvchi g‘oyalardan, tafakkur, ong qaramligidan

ozod, oilada, jamiyatda bo‘layotgan voqeya-hodislarni haqqoniy baholaydigan va o‘z fikriga, intelektual kuchga ega xarakatchan, bilimli, odobli, tibbiy, psixologik bilmilarga ega bo‘lmog‘i kerakligi nazarda tutiladi.

Bugungi kunda axborot oqimi uzliksiz ravishda kommunikasiya tarmoqlaridan uzatilayotgan davrda xavsizlikni ta'minlash, salbiy oqibatlarni oldini olish ma'suliyati biz - pedagog-psixologlarning zimmamizda deb bilamiz. Aynan shuning uchun o‘quvchi yoshlarimiz ta'lim olishida, mehnat qilishida ruhiy sog‘lom bo‘lishi kerak, ya'ni pedagog-psixologlar nerv-psixik kasalliklarini oldini olishning mohiyatini tushuntirib bormog‘i darkor. Insonlarning ruhiy holati xaqida gap ketar ekan, aholiga psixiatriya yordami ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan “Psixiatriya yordami ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3606-son Prezident qarori 2018 yilning 18 mart kuni qabul qilinganligi ta'kidlash joiz.

Yuqorida keltirilgan qarorlardan ko‘zlangan asosiy maqsad bu yoshlarimiz erkin fikrlaydigan, salbiy ta'sir etuvchi g‘oyalardan, tafakkur, ong qaramligidan ozod, oilada, jamiyatda bo‘layotgan voqeya-hodislarni haqqoniy baholaydigan va o‘z fikriga, intelektual kuchga ega xarakatchan, bilimli, odobli, tibbiy, psixologik bilmilarga ega bo‘lmog‘i kerakligi nazarda tutiladi.

Bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarini qo‘llab, xalqaro talablar darajasida yo‘lga qo‘yish muxim vazifa sifatida o‘rin egallaydi. Yoshlar o‘rtasida, -“ jamoada o‘z o‘rnimni topishim mushkul, men xech kimga kerak emasman” - degan fikrlar o‘z joniga qasd qilishga olib kelmoqda. Bunday psixologik krizis kichik maktab yoshida, o‘spirin va o‘smirlik yosh davrlaridagi ko‘proq o‘tish davri bilan bog‘liq.

Mana shunday krizis holatlardan biri bu insonning o‘z joniga qasd qilishi – ruhiy hodisa, psixologik inqirozning yechim usuli sanalib, bunday holatni idrok etish uchun, o‘zini o‘zi o‘ldirmoqchi bo‘lgan kishi qalbida kechayotgan hayajonli his-tuyg‘ularni tushunib yetish zarurdir. Zero, kishi o‘z joniga hayotining alohida, favqulodda fursatida, qalbini zimiston qamrab, umid uchquni so‘ngan fursatda qasd qiladi. Kechirilayotgan hayot ma'nosini yo‘qotish bilan bog‘liq ijtimoiy xulq-atvorning eng fojiali ko‘rinishlaridan biri – o‘z joniga qasd qilishdir.

Shaxs atrofida qaror topgan mikro-ijtimoiy muhitning kishi ongida shakllangan hayotiy qadriyatlar va o‘z jonini saqlash instinktining barham topishiga olib keladigan darajada tanglikka uchrashi bilan bog‘liq bo‘lib, hayotni ixtiyoriy ravishda, jamiyat tomonidan qoralanadigan ma'naviy sabablar tufayli tark etish holati – o‘z joniga qasd qilish, deb tasniflanadi.

Yuqorida belgilangan vazifalarni inobatga olgan holda, jamiyatda mavjud bo‘lgan o‘z joniga qasd qilish muammosini o‘rganib chiqish natijasida quyidagi tahliliy va korreksion ishlar keltirildi.

Kishining o‘z joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan quyidagi sabablar mavjud:

kishi tarbiya ko‘rgan shart-sharoitlar, xususan, ota-onasining hayotligi, oilasining xotirjamligi yoki ota-onasiz tarbiya ko‘rganligi;

kishi oilasida yuz berayotgan (yuz bergan) mojarolar, bunday holatlar qanchalik tez takrorlanib borishi, oila a'zolari bilan yo‘lga qo‘yilgan munosabatlar tangligi;

ota-ona va yoru-birodarlar bilan olib borilayotgan muloqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, muloqot mazmunida boshdan kechirilayotgan (kechirilgan) ruhiy larzalarga oid ma'lumotlar bor-yo‘qligi;

kishining xulq-atvorida o‘z joniga qasd qilish holatlari muqaddam kuzatilganligi, bu borada po‘pisa yoki bayonot qilganligi;

kishining yaqin qarindoshlari orasida o‘zini-o‘zi o‘ldirganlar yoki o‘z joniga qasd qilishga uringanlar bo‘lgan-bo‘lmaganligi;

o‘zini o‘ldirgan shaxsning bosh miyasi muqaddam jarohatlanganligi, ruhiy kasallik yoki bosh miyaning yuqumli kasallikka chalingan-chalinmaganligi;

o‘zini o‘ldirgan shaxs jamoadagi norasmiy mikroguruhda tutgan o‘rni va mavqei, xususan, salbiy yetakchi bo‘lgan-bo‘lmaganligi, bunday guruhdan surib chiqarilgan-chiqarilmaganligi, kamsitilgan-kamsitilmaganligi.

O‘z joniga qasd qilishga moyil shaxsning o‘zini o‘zi o‘ldirish arafasidagi xulq-atvorida kuzatilgan g‘ayrioddiy holatlar, jumladan, yurish-turish tarzida kuzatilgan keskin o‘zgarishlar, shaxsiy buyumlarini tarqatgani yoki tortiq qilib yuborganligi, qarzlarini uzib, vidolashish so‘zlarini aytganligi va shu kabi boshqa harakatlari o‘limi oldidan yozgan xatining mazmuni, agar yozgan bo‘lsa, o‘rganib chiqilishi kerak.

Bolani ongida o‘z joniga qasd qilish g‘oyasi tug‘ilishiga olib keladigan xavfli omillar jumlasiga: moliyaviy-iqtisodiy sabablar; moddiy-maishiy sabablar; oiladagi kelishmovchiliklar; ota-oansining (turmush o‘rtog‘iga nisbatan) xiyonati; javobsiz qolgan sevgi; dardning tuzalmas ekanligi sub'ektiv idrok etilishi; bedavo dard; diniy og‘ish; vijdon azobi, sharmandalik; kishiga nisbatan g‘ayriqonuniy munosabatlar; jamoadagi intizomiy amaliyotning og‘ishi; mikro-ijtimoiy muhitda qaror topgan salbiy muhit; qonunbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishdan hadiksirash;

jamoaga ijtimoiy-ruhiy jihatdan moslasha olmaslik; a'nanaviy va noa'nanaviy taqdidlarga qarshi immuniteti shakllanmaganligi kiradi.

Bugungi kunda ta'lim beruvchi, psixolog, oila, maxalla bilan ishlashi nazarda tutilganligini inobatga olsak, bolaga ta'aluqli quyidagi ma'lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Hususan, **bola tarbiya ko‘rgan sharoitlar:**

bolalikdan ota/ona tarbiyasini ko‘rmaganligi;

oila a'zolari orasida ruhiy kasallar bor-yo‘qligi;

oilada onasi hukmron bo‘lganligi, ya'ni ona ta'sirining kuchliligi;

mehr ko‘rmaganligi, bolalik va o‘smirlik chog‘laridan xo‘rlanib kelganligi;

ota-ona nikohi bekor qilinganligi, onasiga taloq berilganligi;

haddan tashqari erka o‘sganligi «oila arzandasi» qabilida tarbiya ko‘rganligi;

oilada har xil mojarolar tez-tez yuz berib turishi;

ota-ona hayot bo‘la turib yetimxonada tarbiya ko‘rganligi;

oila a'zosi o‘zini o‘ldirgani yoki o‘z joniga qasd qilishga uringani yoxud qavm-qarindoshlar orasida o‘zini o‘zi o‘ldirishini bayonot qilganlar bo‘lganligi.

Kishining xulq-atvorida kuzatilgan o‘ziga xos xususiyatlar:

uydan qochib yurishi;

o‘qish yoki ish joyini tez-tez almashlab borishi;

spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilishi, narkotik moddalarni iste'mol qilishi;

o‘z joniga qasd qilishga uringanligi.

Tarjimai xoliga oid boshqa tavsiflar:

o‘smirlikka xos hayotiy masalalarni hal etish davomida yuz bergan muvaffaqiyatsizliklar turkumi;

o‘qishga kirish masalasidagi omadsizliklar;

jamoa hayotida yakkalanib qolishi;

yoru-birodarlar orasida o‘zini o‘ldirganlar yoki o‘z joniga qasd qilishga uringanlar borligi (ularga taqlid).

O‘z joniga qasd qilishga moyil kishi tabiatiga xos, deb topilishi mumkin bo‘lgan xususiyatlar:

bolaning qat'iyatsizligi;

o‘zi haqida salbiy fikr yuritib, o‘ziga o‘zi juda past baho berishi;

doimo diqqat-e'tibor markazida bo‘lish, iliq so‘zlar eshitishga, atrofidagi odamlar his-tuyg‘uli munosabat bildirishlari, qo‘llab-quvvatlashlari, hamdard bo‘lishlari va tushunishlariga ehtiyoj sezishi;

uzil-kesil qaror qabul qilishga jur'ati yetmasligi;

murakkab vaziyatda umidsizlikka yuz tutishi, tabiatida faollik yetishmasligi;

aksariyat hollarda o‘zini o‘zi ayblab, aybini oshirib yuborishga moyilligi;irodasizligi;

shaxsiy hayoti jamoa hayoti bilan uyg‘un kechmasligi;

shaxs sifatida yetilmay, g‘o‘rligicha qolganligi kiradi.

Yuzaga kelgan qiyinchiliklar, hayotiy faoliyatning murakkablashib borishi, odatiy hayot tarzining tubdan o‘zgarib ketishi, mulohaza yuritilayotgan toifaga mansub kishi uchun sub'ektiv ahamiyatga egadir. Hayotda yuz bergan salbiy hodisaga ro‘baru kelganida, bunday shaxs, ushbu hodisaga depressiv munosabat bildirishga, ya'ni ruhiy siqilishga moyil bo‘lib, yuzaga kelgan vaziyatdan chiqishning yagona to‘g‘ri yo‘li – hayotni tark etish, deb biladi.

Murakkab vaziyatga tushgan bolaga uzatiladigan yordam qo‘li aynan o‘qituvchi, psixolog qo‘li bo‘lishi kerak. Boshiga kulfat tushgan, ruhiyatida ziddiyatlar bo‘lib, umidsizlikka yuz tutgan inson, tabiiyki, o‘z atrofidagi odamlar unga hamdardlik bildirishlarini, ichida to‘planib qolgan dard-u, alamni to‘kib-sochib, ruhan yengil tortishni istaydi, albatta. Zero, ovoz chiqarib bayon etilgan ichki dard go‘yo so‘z vositasida kishi ruhini tark etadi va shu zahoti, yengil tortib, ichki kechinmalardan xalos bo‘ladi. Shunday ekan o‘quvchi yoki talabangizning ruhi tushganligi, xulq-atvorida o‘z joniga qasd qilishga moyillik alomatini sezsangiz, uni zudlik bilan suhbatga chorlang!

Suhbat qurishga shaxsan o‘zingiz, imkon qadar yakka tartibda taklif qilishingiz zarur. Huzuringizga chaqirish uchun uning oldiga uchinchi odamni yo‘llash-xatodir.

Suhbat o‘tkaziladigan joy. Suhbatni xizmat xonasida o‘tkazish mumkin, albatta. Biroq muloqot «norasmiy» vaziyatda o‘tgani afzal. Eng asosiysi, suhbat o‘tayotgan joyda boshqa odam bo‘lmasligi va qancha vaqt davom etishidan qat'i nazar, muloqotni hech kim to‘xtatib qo‘ymasligi shart.

Suhbat tashabbuschisining xatti-harakatlari. Modomiki suhbat boshladingiz-mi, diqqat e'tiborli bo‘lib, suhbatdoshingiz bayon etayotgan fikr-mulohazalarga katta qiziqish bildiring. Hozir sizni, ushbu suhbat mavzusidan boshqa hech narsa qiziqtirmayotganini namoyon eta biling.

Suhbat o‘tkaziladigan vaqt. Suhbatni imkon qadar hamma o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lgan paytda yoki ishdan tashqari vaqtda o‘tkazing.

Suhbatning dastlabki bosqichi. Suhbat chorlangan kishi bilan samimiy-ruhiy munosabat bog‘lash, ushbu bosqichda ko‘zlangan eng asosiy maqsaddir. Suhbatdosh bayon etayotgan muammolarni to‘la-to‘kis idrok etishingiz, g‘am-tashvishi, boshdan kechirayotgan qiyinchiliklariga yurakdan sherik bo‘layotganingizga ishontira olishingiz shart. Birinchi bosqichda asosan, suhbatdosh hikoyasini diqqat va sabr-toqat ila tinglash zarur bo‘lib, so‘zlarini shubha ostiga olish, tanqid qilishga yo‘l qo‘ymaslik darkor. Shuningdek, suhbatdoshning yaqinlari, jumladan, ota-onasi, yaqin qarindoshlari, yoru-birodarlari, sinfdosh yoki kursdoshlari haqidagi ma'lumotlarni oldindan (va suhbat davomida) aniqlab oling. Negaki, ayni o‘sha odamlar suhbatdoshingizga amaliy yordam berish, uni qo‘llab-quvvatlashning zaxira manbasi sanaladi.

Suhbatning ikkinchi bosqichi. Ikkinchi bosqich davomida inqirozli vaziyatning yuzaga kelishiga olib kelgan hodisalar izchilligi, suhbatdoshning ruhiy holatiga qanday omillar ta'sir o‘tkazganligi aniqlanadi. Ushbu bosqichning eng muhim jihatlari va ko‘zlangan maqsadlaridan biri – suhbatdoshingiz ongida vaziyatdan chiqishga oid umidsizlikka barham berishdir. Aksariyat odamlar o‘xshash holatlarga tushganliklari, hech shubhasiz. vaziyatdan chiqib ketish yo‘li borligiga suhbatdoshingizni ishontira oling. Ushbu bosqich xotimasida «ixtilof mazmuniga ta'rif berish» usulini qo‘llash, ya'ni kishini tashvishga solgan vaziyatni aniq tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

Suhbatning uchinchi bosqichi. Uchinchi bosqich inqirozli holatni yengish maqsadida amalga oshiriladigan kelgusi xatti-harakatlarni suhbatdosh bilan birgalikda rejalashtirishdan iborat bo‘lishi lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, bunday reja tuzilayotganida suhbatdoshingiz qanchalik yetakchi rol' o‘ynasa, rejalashtirilayotgan ishlarning amalga oshish ehtimolligi shu qadar yuqori bo‘ladi. Agar kelgusi xatti-harakatlarni rejalashtirish borasida suhbatdoshingiz qiyinchilik sezayotgan bo‘lsa, ruhiy inqirozdan olib chiqish mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarning muayyan variantlarini, yuzaga kelgan muammolarni hal etishning ehtimoliy usullarini taklif qiling. Ruhiy jihatdan shikast yetkazadigan vaziyatni yengish ishlariga kirishish, ya'ni ushbu vaziyatni nisbatan kichik, tubdan hal etib yuborsa bo‘ladigan mayda muammolarga parchalab yuborib, yaqin kelajakda amalga oshiriladigan ishlarga oid qarorlarning bir nechta variantlarini suhbatdosh bilan birgalikda muhokama qilishga urinib ko‘ring. Noxush vaziyatdan chiqish borasida suhbatdosh tomonidan kelgusida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarning konstruktiv rejasi –

suhbat bosqichining yakuniga aylanishi lozim.

Suhbatning yakuniy bosqichi. Yakuniy bosqich – muammoni hal etishga doir qarorni shakllantirish, kishining o‘z kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini ruhan qo‘llab-quvvatlash bosqichidir. Amalga oshiriladigan harakatlar rejasi o‘ta aniq, izchil va lo‘nda ifodalanishi lozim. So‘ng muammoga oid kelgusi ishlaringiz rejasi suhbatdoshingiz tabiatining xususiyatlari va yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda, u bilan o‘tgan suhbat tahliliga asosan shakllanadi. Mulohaza yuritilayotgan kishiga nisbatan o‘zi istamagan harakatlar bajarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Suhbat davomida suhbatdoshingiz ma'lum qilgan har qanday ma'lumotni, uning roziligini olmay turib, kimga bo‘lishidan qat'i nazar oshkor qilish, ayniqsa, jamoada muhokama qilinadigan mavzuga aylantirish mumkin emas. Suhbat natijalarini batafsil idrok etib borishingiz shart. Agar suhbatdosh inqirozli vaziyatdan chiqish variantlarini suhbat davomida qat'iyatsiz bayon etgan, kelajakka noumid qaragan, hayotni tark etish fikrini qat'iy bildirgan bo‘lsa, uni darhol yaqin oradagi davolash muassasasiga yo‘llash zarur. Ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatilishi uchun kasalxonaga yotqizish imkoni bo‘lmaydigan vaziyat ham yuzaga kelishi mumkin. O‘xshash holatda mulohaza yuritilayotgan kishiga: uning hayoti oila a'zolari, yaqinlari va yoru-birodarlariga kerak ekanligini, o‘z o‘limi bilan ularga bitmas jarohat yetkazishini; bu yorug‘ olamda otaning yelkasi uchun farzand tobutidan og‘ir yuk bo‘lmasligini ta'kidlab, ishontira bilish kerak.

Shu bilan birgalikda Butunjahon Sog‘liqni saqlash Tashkiloti inson ruhiy olamini shahsning ajratib bo‘lmas qismi deya tan olishining o‘zi ham suisid kasallik emasligini dalilidir. Shu qatorda, bizning ulammolarimiz esa inson ruhiy olami ma'naviyat va ma'rifat bilan oziqlanadi deyishadi. Aynan shuning uchun, ta'lim va tarbiyaga e'tibor xam, talab xam kattadir.

Yuqoridagi tavsiyalar bilan bir qatorda o‘quvchi/talaba shahslarda suisidal harakatlarni aniqlashda ularning yoshiga oid xususiyatlarga alohida e'tibor qaratmoq kerak. Psixolog olimlar inson **psixologik inqirozlarini quyidagi ikki turga ajratishadi:**

1. Salbiy kechinmalar, mojaroli holatlarni oshirib, o‘z joniga qasd qilish xatti-xarakatlarning sodir bo‘lish ehtimolini oshiruvchi asta-sekin o‘sib boradigan psixologik inqiroz.

2. Ruhiyatga ta'sir etuvchi, kutilmaganda sodir bo‘lgan voqea natijasida to‘satdan sodir bo‘ladigan psixologik inqiroz. Ayniqsa, bu holatning voqeyadan keyingi dastlabki soatlarda va birinchi sutkadan keyin sodir bo‘lish ehtimoli mavjud.

Suisidga olib keluvchi sabab qanday bo‘lishidan qattiy nazar pedagog, psixolglar oldida o‘z vaqtida uni aniqlash va to‘g‘ri maslaxat, korreksiya ishlarini olib borilishini talab etiladi.

O‘z joniga qasd qiliishning aniqlash va oldini olishda “O‘zini anglash”, “O‘z-o‘ziga baho berish”, “Tengdoshlar”, “Maysazordagi xayvon”, “Mavjud bo‘lmagan xayvon rasmi”, “Tugallanmagan gaplar” metodikasi, Lyusher testi, A.Bass va I. Darkning “Agressiya shakli va uning ko‘rsatkichlari diagnostika qilish” metodikasi, “Xavf-xatarga moyillik” testi, “Ota-onalarning o‘smir yoshli farzandini tushunish” testi kabilar ko‘mak beradi.

Shulardan bittasi bo‘lmish Z.Korolyovaning “Sizning o‘z joningizga qasd qilishga moilligingiz” testida (1-rasm)

to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, suxbatdoshga noa'ananaviy shakldagi o‘rtasi qora rang bilan bo‘yalgan, tugallanmagan rasm taqdim etiladi. Ushbu rasm sizga yoqmagunga qadar bo‘yashni davom ettirishingiz kerak.

1. Agar sizning rasmingizda bo‘yalgan qismi ko‘proq bo‘lsa, bu sizning ruhiy xolatingiz yaxshi emasligidan dalolat beradi. Sizni nimadir qiynab kelayotgan, xavotirga solayotganini anglatadi. Bu siz uchun o‘ta muxim narsa, lekin tez orada o‘z yechimini topadi. Siz o‘z joningizga qasd qiladigan insonlar toifasiga kirmaysiz, va bu kabi insonlarni tushunmaysiz.

2. Siz ushbu shaklda xech narsani bo‘yamasdan faqat atrofini chizib chiqgan bo‘lsangiz bu sizning irodangiz kuchliligidan dalolatdir. Siz barcha qiyinchiliklarga dosh

bera olasiz, o‘z joniga qasd qilish katta gunoh ekanligini anglaysiz, xech qachon bu kabi xarakatga intilmaysiz.

3. Uchdan ziyod kichik qismlarni bo‘yagan bo‘lsangiz, ba'zi vaziyatlarda siz suisid xaqida o‘ylagan bo‘lishingiz extimoli borligidan, balki xarakat qilganingizdan dalolat beradi.

Baxtingizga siz yaxshilikni ko‘ra oladigan insonsiz, kamdan kam vaziyat sizga chorasizdek tuyuladi, siz xar bir ishda yaxshilik g‘alaba qozonadi degan fikr bilan yurasiz.

4. Rasmning chap tomonini to‘ldirdingiz, siz xaddan ziyod ta'sirchangsiz, ruxiy tushkunliklarga tez-tez tushasiz, noxaqliklarni og‘ir qabul qilasiz. Suisidga moilligingiz bor. Sizni to‘xtatib turgan yagona narsa – bu sizning yaqinlaringizga bo‘lgan muhabbatingiz. Siz ularning dilini og‘ritmaslik uchun, o‘zingizdagi qasd qilishga bo‘lgan moyillikni jilovlab turasiz.

5. Rasmning o‘ng tomonini to‘ldirgan bo‘lsangiz, siz suisidal moilligingizni o‘z foydangizga ishlatasiz degani. Atrofdagilarni e'tiborini o‘zingizga qaratish, ularni qo‘rqitish sizning hayot tarzingizga aylanib bo‘lgan. Siz bilan yashash o‘ta qiyin.

6. Siz berilgan rasmni to‘liq bo‘yab chiqgan bo‘lsangiz, bu sizning ong osti fikringiz o‘lim xaqida ekanligidan dalolat beradi. Tashqi ko‘rinishdan suisidga moilligingiz sezilarli darajada bo‘lmasa xam, sizdagi mortido (o‘z – o‘zini yemirish, o‘ldirish xissi), libido (birlamchi ijodkorlik hissiyoti) xissi bilan barobarligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda o‘smirlar orasida o‘z joniga qasd qilish muammosini kamaytirish va yechimini topishda oila, maxalla, tibbiyot xodimlari, amaliy psixologlar, pedagogik jamoa birgalikda korreksion tadbirlarni amalga oshirishda kompleks yondoshuvi maqsadga muvofiqdir va yosh avlodning hayoti, salomatligi uchun mas'uliyat hissini yuklaydi.

Suisidning oldini olish o‘z vaqtida uni aniqlash, diagnostika qilish bilan chegaralanib qolmasdan mutaxassislardan keng qamrovli ishlarni amalga oshirilishini talab etadi. O‘z joniga qasd qilmoqchi bo‘lgan odam nima uchun shu holatga tushib qolganligini, omillarni o‘rganib chiqish darkor. Ayniqsa, bolajonlar o‘rtasidagi suisidal holatlarni oldini olish profilaktik ishlar, psixik jixatdan sog‘lomligini aniqlash, oiladagi o‘z'aro munosabatlarni, etnopsixologik jixatlarni, oilaning ma'naviy yetukligi, diniy bilimlarning darajasining o‘rganilishi pedagog-psixolog tomonidan korreksion ishlarning olib borilishida to‘liq ko‘mak beradi. O‘quv muassasada jamoaviy yoki yakka tartibda moxirona o‘tkaziladigan terapiya, tushuntirish ishlari suisidga moilligi bor bo‘lgan bolalarning jamoa ishlarda faolligini oshirilishiga, xurmat qozonishga, maqsad sari intilishga undaydigan chora-tadbirlarga jalb etilishi bolada o‘ziga ishonch, hayot mazmunini aniqlashga ko‘mak beradi.

Bolaga yordam qo‘lini uzatib suisidni oldini olish uchun nima qilish mumkin?

Avvalo yuqorida ta'kidlaganimizdek o‘ta e'tiborli bo‘lish darkor, bolalar o‘rtasida o‘z'aro ishonchni mustahkamlovchi o‘yinlarni, vaziyatlarni yaratish, ular o‘rtasida psixologik bilimlarni o‘stirish kerak.

Suisidga moilligi bo‘lgan bolalarga ko‘proq e'tibor ajrating, u nimaga muxtoj bo‘lganligini aniqlab, jamoaviy xal qilishga urining. Bizning beetiborligimiz bir insonni ko‘z yumishiga sabab bo‘lishi mumkinligini unutmaslik kerak. Bolani tanqid qilmay uning

ishonchiga kirib tinglash fikrini tushunish kerak. Aql o‘rgatish xar doim xam ijobiy natija bermaydi. Mimika, xarakatlar bilan uni tushinishingizni, unga xamdardligingizni bildiring.

Diqqat bilan tinglang, aslo tanqid qilmang, baxslashmang. Muammosini yechimini birgalikda topishingiz mumkinligini suxbatdoshingiz his etsin. Ko‘proq uni eshiting. Suisid holatiga olib kelgan sababni verbal va noverbal xatti-xarakatlardan foydalangan holda aniqlashga yordam bering, bunda sizdagi samimiylik aloxida ishonch uyg‘otadi. “Siz o‘z joningizga qasd qilmoqchimisiz?” degan savol suxbatdoshingizni shoshiltirib qo‘yishi mumkun, lekin bu savolga javob berishi o‘z fikrlarini sizga ochishiga va taxlil qilishga undaydi. Aslo tanqid qilmagan xolda unga minnatdorchilik bildiring, u ahir sizga ishondi va ochildi. Siz esa o‘z navbatida suxbatdoshingizni xech kim bilan taqqoslamagan xolda, o‘ziga xos yechim yo‘llarini o‘rganib chiqishni taklif eting. Umid uyg‘ota olganingizdan so‘ng suxbatdoshingizda maqsad qo‘yib, maqsad sari intilish yo‘llarini ko‘rib chiqishga qiziqishni uyg‘otish kerak bo‘ladi. Krizis davrida oila, o‘rtoqlari, yaqinlari bilan birgalikda doimo aloqada bo‘lish kerak va suisidentni yolg‘iz qoldirmaslikga xarakat qilish kerak. Kerak bo‘lsa psixiatr, klinik psixolog ko‘mak berishini so‘rash kerak. O‘z vaqtida o‘tkazilgan korreksiya ishlari suisidni oldini olishga yordam beradi. Masalan, o‘smirlarni oladigan bo‘lsak 13-16 nafar o‘quvchidan iborat guruhlarda, dastur asosida ish olib borish. Dastur uch blokdan iborat bo‘lib, ular kuydagilar:

- Kognetiv
- Emosional
- Hatti-xarakatli.

Dastur maqsadi: o‘smirlarda salbiy yondoshuvni olib tashlash, hayot mazmuni, maqsadini qayta ko‘rib chiqishga undash.

Vazifalar:

- bugungi kundagi va kelajakdagi hayoti mazmunini anglash
- guruhda baxslashuv qobiliyatini shakllantirish;
- bolaga stress xolatidan chiqib ketishga ko‘mak berish uning xavsizligini ta'minlash;

Xar bir mashq kirish, asosiy va yakun yasash qismlardan iborat.

Barcha mashqlarning kirish qismi 5-7 daqiqadan iborat bo‘lib o‘zida o‘yinlarni qamrab olgan; boshqaruvchi, ishtirokchilarni o‘z'aro do‘stona munosabatlarini o‘rnatishga ko‘mak beradi, shuningdek bolalarning emosional xolatini yaxshilaydi.

Asosiy qismga 45 daqiqa vaqt ajratilib, u o‘zida korreksiya ishlarni qamrab olgan.

Yakunlash qismi ishtirokchilarning psixoemosional taranglik xolatidan chiqarib, ijobiy natijani mustaxkamlashga qartilgan, relaksasiya, yaxshi kayfiyatni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

1-blok. “ Yagona hayot”

Yerda yashovchi jonzodlardan faqat inson o‘zini o‘zgartira oladi. Faqat odam o‘z hayotining arxitektori bo‘la oladi degan V.Djeyms.

Kirish qismi. “Mening ismim”.

Maqsad: ishtirokchilarni o‘z'aro tanishuvi, do‘stona muhitning shakllanishi. Xar bir ishtirokchi o‘z ismini aytib, so‘ng o‘ziga xush kelgan narsani (fil'm, kitob, ichimlik va h.k.) aytib tanishtiradi keyngi ishtirokchi davom etadi.

Asosiy qism:

“Menga o‘zimda yoqadigan narsa bu...”

Maqsad: xar bir ishtirokchi o‘zining yaxshi tomonlarini ko‘rib chiqib o‘z o‘zini qabul qilish uchun tayanch bo‘la oladigan hislatlarini aniqlaydi. Ushbu mashq davomida boshqaruvchi va jamoa ko‘mak beradi.

Markazga stul qo‘yiladi, inson atrofdagilarga gapirib ularda o‘z aksini “tirik tosh oynada” ko‘rgandek tuyuladi. O‘zidagi ijobiy resurslarini ochiq aytib, ishtirokchi boshqalarning ko‘zida ishonch uyg‘onganini ko‘radi va unda o‘ziga bo‘lgan ishonch kuchayadi. Guruh uchun xam bu mashq o‘ta foydali, ular o‘zgalarning hayotiga qiziqish uyg‘otadi, bir birini qo‘llab quvatlashga, qadrlashga undaydi.

“Qiymatlar zanjiri” o‘yini.

Maqsad: xar bir ishtirokchiga hayotning yorqin taraflarini ko‘rib o‘ziga munosibini topishda yordam berish.

Ishtirokchilarga hayot qiymatlari yozilgan varoqchalar (rasmlari bilan bo‘lishi mumkun) tarqatiladi: bahtli oila, sevimli ish, do‘stlar, ishonch, sevgi, boylik, ozodlik, avtomobil', bilim.

Bolalar 5 eng muhimini tanlab, ustivorligi bo‘yicha yozib olishadi, so‘ng o‘zaro taqsimlashadi.

“Inson hayoti mazmuni nimadan iborat deb xisoblaysiz?”, “Inson necha yoshdan o‘z hayoti mazmunini tushunishga xarakat qilishi kerak?” degan savollarga javob topishadi.

“Oltin gul” rasmi.

Maqsad: qiymatlarni, hayot davomida hamrox bo‘lish uchun, qog‘ozda aks ettirish.

Oq varoqda oltin gul chizing, u gul sizning hayot tarzingizni anglatishi kerak. Tagida o‘zingizning hayotga bo‘lgan munosabatingizni aks ettiruvchi gap o‘z iborangizni yozing.

Ushbu rasmni saqlab qo‘ying, u sizga og‘ir vaziyatlarda hayot mazmuningizni eslatib tursin.

Yakuniy qism.

“Tomchi” mashqi.

Maqsad: o‘quvchilarga muammo, nizolarni fojiya darajasiga yetkazish kerak emasligini, xar bir muammo o‘z yechimini topishi mumkunligini uqtirish.

O‘qituvchi xar bir ishtirokchining oq varaqiga bir tomchi bo‘yoqdan yoki tushdan tomchilatib chiqadi. Xar bir ishtirokchi o‘zi nima xoxlasa shuni qiladi. Kimdir borligicha qotirib qo‘yadi, kimlardir rasm chizadi.

Taxliliy xulosa kuydagicha: xar bir vaziyatdan chiqib ketish mumkun, pashshadan fil yasash kerak emas.

2 – Emosional –blok.

“O‘z tanlovi bo‘yicha hayot”

Kirish qismi. “Fikrlash uchun baliq”

Ushbu mashqda xar bir ishtirokchi o‘z balig‘ini qarmoqqga ilintiradi. Kartochkalar o‘lja vazifasini bajaradi, ularda gapning bir qismi yozilgan, ishtirokchi tutib olgandan so‘ng ovoz chiqarib o‘qiydi va fikrni o‘zi davom ettirishi kerak.

Kartochkalardagi gaplar quydagicha bo‘lishi mumkun:

Eng katta qo‘rquv, bu - ...

Men ... kabi odamlarga ishonmayman

... vaziyatlarda men g‘azablanaman

... vaziyatlarni men yoqtirmayman

... achinarli xolat

Men baxslashganimda...

Men bilan yuqori ovozda gaplashganda ...

Men uchun eng achinarlisi ...

Odam ... vaziyatlarda omadsiz hisoblanadi

... vaziyatlarda men zerikaman.

... vaziyatlarda mening insonlarga ishonchim yo‘qoladi.

Muhokama. Gaplarni to‘ldirganingizda nimani his ettingiz? Qachonlardir qo‘rquvini his etgan xolatga tushib qoldingizmi, esladingizmi? Siz hafa bo‘lgan, kayfiyatingiz buzulgan, zerikkan vaziyatlarni boshingizdan kechirgan bo‘lsangiz kerak. Qadimdan odamlar o‘zini himoya qilish uchun turli hil tumorlardan foydalanishgan. Bugungi kunda, biz o‘zimizni himoya qilish uchun, kuyidagi quvvatlash ma'nbaani yaratamiz.

Asosiy qism. “Bir-birimizga maqtov so‘zlarni aytamiz” mashqi.

Boshqalardan masofa saqlagan xolda ikki nafar stul qo‘yib bitta ishtirokchini tinglovchi qilib o‘tirishini so‘raymiz. Bo‘sh kursiga navbatma- navbat xamma ishtirokchi o‘tirib tinglovchining barcha ijobiy fazilatlarini sanab o‘tadi.

Ta'rif jarayonida nimani his ettingiz?

“O‘ziga ishongan- surbet- uyatchang” mashqi.

Bolalar o‘rtasida agressiya xolatini korreksiya etish.

Boshlovchi barcha ishtirokchilarga galma-galdan uchta kartochkadan birini tanlashni taklif etadi. Ularda “O‘ziga ishongan”, “Surbet”, “Uyatchang” degan so‘zlar yozilgan bo‘lib, guruh kartochkadagi so‘zdan behabar bo‘lishi kerak, ishtirokchi vazifasi-kartochkadagi so‘zni hatti-xarkati bilan ko‘rsatib berishi kerak. Guruh esa so‘zni topishi kerak.

Refleksiya.

-Qaysi hatti-xarakatni aniqlash oson? Nima uchun?

-O‘ziga ishongan odam xarakatlrini aniqlash osonmi, surbetning?

-Nima bilan farq qiladi?

“Maqtov” mashqi.

Maqsad: o‘zini o‘zi xolisona baholash.

Xar bir ishtirokchi kursiga chiqib o‘zini kuchli tomonlarini aytib maqtash, qiziqishlarini sanab o‘tishi kerak.

Refleksiya.

-O‘zingizni maqtash osonmi, yoki uning aksi?

-Nimalarni his ettingiz?

“Issiq havo shari” mashqi.

Maqsad: asosiy emosional xolatlarning baholash qobiliyatini shakllantirish.

Ishtirokchilar ko‘zini yumib boshlovchini tinglaydi.

Boshlovchi: “Ko‘zingizni yuming, chuqur nafas olib sekin 10dan 1gacha sanang. O‘zingizni bo‘sh qo‘ying. Ko‘z oldingizga maysazordagi havo sharini keltiring. Ushbu shar ostidagi savatga o‘zingizdagi bor muammolarni hayolan tahlab chiqing. Havo shari savatchasi to‘lgandan so‘ng, arqoni o‘z-o‘zidan yechilib uchib ketayotganini tasavvur eting. Havo shari sizning muammolaringizni olib uzoqlashib osmondagi nuqtachaga aylanib yo‘q bo‘lib ketadi”.

Endi nimani his ettingiz?

Nimalar hayolingizdan o‘tmoqda?

3-blok- Haddi xarakatli. “Hammasi o‘z qo‘lingda”

Kirish qismi.

“Diqqat” uyini.

Maqsad: guruhni ijobiy ishlarga yo‘naltirish.

Barcha ishtirokchilar bir qator bo‘lib bir qatorga tizilishadi, eng bo‘yi baland bo‘lgan bola, ketidan pastrog‘i va h.k.; ishtirokchilarning tug‘ilgan kuniga qarab (1 yanvardan, to 31 dekabrga qadar) saflanishi; soch, ko‘z rangining to‘qigiga qarab saflanishi mumkun.

“His tuyg‘ularimiz sanab o‘tamiz” mashqi.

Maqsad: ishtirokchilarning emosional lug‘atini boyitish.

Guruh ishtirokchilari barcha so‘zlarni yozib, tushunmagan so‘zlarga izoh berishadi. Asosiy emosiyalarni anglatuvchi so‘zlar kiritilishini boshlovchi nazoratga oladi – g‘azab, quvonch, qo‘rquv, alam kabilar. Vatman to‘lgach boshlovchi “Nimalarni his ettingiz? Oxirgi marotaba nazorat ishini yozganda nimani his etgan edingiz? Ta'til yaqinlashganda nimani his etgan edingiz? Uy jihozlardan birortasini sindirb qo‘yganingizda nimani his etgansiz?” degan savollar bilan murojaat etadi. So‘ng muhokama qilinadi: Qaysi his tuyg‘u sizning nazaringizda eng salbiysi? Qaysisi sizga yoqadi? Aytilganlardan qaysi biri sizga tanish? (uning aksi)

“Yaxshi-yomon” mashqi.

Maqsad: Ishtirokchilarda eng yomon vaziyatlardan xam o‘z foydasini chiqarish mumkun degan tushunchani shakllantirish.

Ishtirokchilarga yoqmagan vaziyat misol tarzida keltiriladi. Ushbu vaziyatda nima yaxshi-yu nima yomonligi doskga alohida ustunlarga yoziladi. So‘ng muhokama qilinadi.

“Men yolg‘iz emasman” mashqi.

Maqsad: Bolaga o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmasligini, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishga o‘rgatadi. Ishtirokchilar doira bo‘lib turib, bir-birini qo‘llarini olishadi. Atrofga nazar tashlab bir-birini kuchini his etadi, so‘ng ustozlarini qo‘llab-quvvotlovchi kuchini his etadi. Xayolan ko‘chaga, uyiga, do‘stlarining oldiga yo‘l oladi va yaxshi maslaxatlar, qo‘llab-quvvatlovchi kuch oladi. Bizning umrimiz ba'misoli kurash. Ushbu kurash davomida inson kimnidir yelkadoshligini his etib yashash kerak.

Ushbu maqolam yakunida shuni aytishni lozim topdimki pedagog-psixolog zimmasidagi ma'suliyat undan muntazam ravishda sezgrilikni, e'tiborli bo‘lishni, o‘z ustida ishlashni, izlanishni talab etadi. Siz mehr bera olsangiz, mehr olib yashaysiz. Barcha treninglarimni: “XAYOTDAN ZAVQLANIB YASHANG!”- deya tugataman. Bugun maqolamni xam aynan shu so‘zlar bilan tugatmoqdaman.

foydalanilgan adabiyotlar:
1. Психология. Психодиагностика. Книга 3 . Р.С.Немов Москва ВЛАДОС ИМПЭ им.А.С.Грибоедова. 2001г.
2. Психотерапия детей и подростков/ Под ред. Х.Ремшидта- Москва “Мир” 2000-656 стр.
3. Психологические тесты для всех. З.Королёва Москва 2006г-336стр. ISBN: 5-8183-0260-1
Internet manbayi:
1 http://lex.uz/docs/3588130?twolang=1
2 http://school2em.ucoz.ru/Psycholog/Suizid/test_vashi_suicidalnye_naklonnosti.pdf

ZIRKNING KIMYOVIY TARKIBI ASOSIDA UNDAN YANGI OZIQ-OVQAT QO'SHILMALARI OLISH

ПОЛУЧЕНИЕ НОВЫХ ПИЩЕВЫХ ДОБАВОК НА ОСНОВЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА БАРБАРИСА

OBTAINING NEW FOOD ADDITIVES BASED ON THE CHEMICAL COMPOSITION OF BARBERRY

I.R.Asqarov-k.f.d,professor,
N.A.Razzaqov, ADU

Annotasiya: Ushbu maqola zirk mevasidan vakuum sharoitida ekstrakt olish hamda uning kimyoviy tarkibi asosida yangi oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish haqida.
Kalit so'zlar:ekstrakt,vitamin C, alkaloid, Bertran reaktivi,termolabil,organoleptik.
Аннотация: Эта статья о том, как извлечь из плодов барбариса в условиях вакуума и создать новые пищевые добавки на основе его химического состава
Ключевые слова: экстракт, витамин С, алкалоид, реактив Бертрана, термолабиль, органолептик.
Anotation: This article is about how to extract from the fruits of barberry in a vacuum and create new food additives based on its chemical composition
Key words: extract, vitamin C, alkaloid, reagent Bertrand, thermolabile, organoleptic.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining hisobotiga, ko'ra dunyo bo'yicha har besh kishidan to'rttasi ya'ni yer shari aholisining 80% i sintetik dorivor preparatlar qabul qilib keladi. Endilikda ularning o'rnini tabiiy ya'ni o'simlik va hayvon organlaridan tayyorlangan preparatlar hamda tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari egallab kelmoqda.

Yangi, ayni vaqtda samarali tabiiy preparat va oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqarish sohasi hozirda jadal su'ratda rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Olimlarimizning say-harakatlari sababli respublikamiz aholisini sintetik va tabiiy preparatlar hamda oziq-ovqat qo'shilmalari bilan ta'minlash misli ko'rilmagan darajada rivojlanib bormoqda.Bunda xalq tabobati bilan yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lgan kimyogar olimlarimizning shug'ullanayotganligi va ularning samarali mehnatlari o'z natijalarini bermoqda.[1]

Zirk o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganish, uning tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olish hamda dorivor o'simlikning kimyoviy tarkibiga asoslangan holda yangi oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, ularning shifobaxshlik hususiyatlarini o'rganish va amaliyotga joriy etishni maqsad qilib oldik.

Qadim zamonlardan qora zirk (Berberis oblonga Schneid)dan O'rta Osiyo xalqlari foydalanib kelmoqda, xatto uning mevasini milliy taomlarimizga qo'shiladi.Xalq tabobatida zirk shifobaxsh o'simlik sifatida ko'proq uning mevasidan foydalanilib, ishtaha ochuvchi damlama tayyorlab iste'mol qilib kelingan.[2]

Eksperimental qism. Qora zirk mevasidan 10kg olib,TN-300 rusumli vakuumli ekstraktorda 0,008 MPa bosim va 65^0S ekstraktsiya bajarildi.Ekstragent sifatida suvdan foydalanib , quruq meva bilan erituvchini 1:10 nisbatda olib, 12 soat mobaynida ekstraktsiya qilinib, 100l xajmdagi ekstrakt olindi.Quyidagi jadvalda ekstraktning ba'zi xossalari keltirildi :

Organoleptik ko'rsatkichlari	
Rangi	qoramtir-qizil
Xidi	xushbo'y
tashqi ko'rinishi	suyuq
Ta'mi	yoqimli
Ayrim fizik ko'rsatkichlari	
Zichligi	1,08 g/ml
Muhiti	nordon

Olingan zirk mevasi ekstraktining kimyoviy tarkibini o'rganish maqsadida bir qancha kimyoviy usullar bilan miqdor va sifat tahlillar bajarildi.

Yodometriya usuli bilan ekstrakt tarkibidagi askorbin kislotasi miqdorini aniqlandi. Buning uchun yodning 5% li etanoldagi eritmasi hamda kraxmaldan foydalanildi. Hisoblashimizga ko'ra ekstrakt tarkibida 0,19 mg% vitamin C tutishi aniqlandi.Reaktsiya quyidagi tenglama asosida boradi:



Bioflavonoidlarga xos taxlilda, ekstrakt tarkibida suvda eruvchan bioflavonoidlar mavjudligini 1% li $FeCl_3$ eritmasi orqalianiqladik.Tuzilishi quyidagicha bo'lgan:



yorqin-zangori rangdagi kompleks birikma hosil bo'lishi bilan tasdiqlandi.

Alkaloidlarga xos taxlil.Alkaloidlar odatda o'simliklar tarkibida asos holatida bo'lib, ular suvda erimaydi lekin o'simlik tarkibidagi organik (olma, limon, vino va boshqa) kislotalar bilan hosil qilgan tuzlari suvda eruvchan bo'ladi.[3]

Sifat taxlilni bajarish uchunBertran reaktividan foydalanildi.Buning uchun avval bir necha tomchi ektrakt olinib, 2-3 tomchi 10% li H_2SO_4eritmasidan qo'shgach,shisha tayoqcha bilan aralashtirildi. Shunda alkaloidlar asos holatdan tuz holatga o'tadi so'ngra 10% li kremnevolfram kislota ($H_4[Si(W_3O_{10})_4]$ x nH_2O)sidan bir necha tomchi qo'shilganda, ko'zga chalinar darajada, alkaloidlarga xos bo'lgan oq tusdagi amorf cho'kma hosil bo'ldi.Demak, olingan ekstrakt alkaloidlar jamlanmasiga ega degan xulosani berdi.[4]

O'zRFA ning o'simlik moddalari kimyosi institutining alkaloidlar laboratoriyasi olimlari tomonidan madaniylashtirilgan Berberisoblonga o'simligining barglarining alkaloid tarkibi o'rganilgan va talikmidin,izokaridin,glousin, oksiakantin,berbamin va berberin alkaloidlari ajratib olingan.[6]

Zirk mevasi olma kislotasiga juda boy bo'lganligi sababli, olingan suvli ekstrakt kislotali muhit hosil qildi.

Bundan tashqari yana meva tarkibida mono- va disaxaridlarning miqdori yuqori ekanligi sababli, ekstrakt shirin ta'mga ega bo'lmoqda.

Xulosa. Demak, zirk mevasi suvli ekstraktining kimyoviy tarkibiga ko'ra vitaminlarga boy bo'lganligi sababli, kamquvvatlik, Gipovitaminoz, anemiya kabi kasalliklarga qarshi kurashishda qo'llash mumkin bo'lgan oziq-ovqat qo'shilmalari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ayniqsa, ekstrakt vitamin C ga boy bo'lganligi sababli undan shamollash kasalliklarini oldini olish va uni davolash, qon tomirlarni mustahkamlash, kamqonlikka qarshi kurashuvchi, ishtaha ochuvchi tabiiy vositalar yaratish mumkin.

O'simliklar tarkibidagi flavonoidlar, antioksidant, antivirus hamda antimutagent xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, kishi organizmida immunitetni oshirishi evaziga rak hujayralarining rivojlanish ehtimolligini kamaytiradi.[5]Shunday ekan zirk o'simligidan yuqorida sanab o'tilgan patologik holatlarga qarshi kurashish maqsadlarida qo'llash o'rinlidir.

Tadqiqotlar zirk mevasi kimyoviy tarkibiga asoslangan holda modda almashinuvini yaxshilovchi, immunitetni ko'taruvchi, qizil qon hujayralari sintezini stimullovchi va o'tkir raspirator kasalliklarini davolash hamda ularni oldini olish maqsadida shifobaxsh, yangi oziq-ovqat qo'shilmalarining biologik tarkibi uchun asosiy dorivor o'simlik sifatida qo'llash mumkin degan xulosaga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.R.Asqarov "tabobat qomusi" Toshkent "mumtoz so'z" 2019 y,595 b.
2. I.R.Asqarov“Sirli tabobat” Toshkent “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” 2021. 1084 b.
3.Melnikov O.F., Peleshenko N.A.,Zabolotnaya D.D., Rilskaya O.G. " Иммуномодуляция фитопрепаратами в терапии воспалительных заболеваний верхних дыхательных путей " Kiev. 2013y , 24b
4.H.X.Xolmatov,O'.A.Ahmedov. " Фармокогнозия". Toshkent, “Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashri” 1997y, 192 b
5.Sharova, E. I.“ Антиоксиданты растений”.Sankt-Peterburg : Izd-vo Spbgu, 2016 – 140 s.
6.I.I.Khamidov, A.K.Karimov, S.F.Aripova , "Alkoloids from of cultivated Berberisoblonga" , USA , 2003 , 407.

ANOR MEVA PO‘STLOG‘I EKSTRAKTINING ANTIOKSIDANT FAOLLIGI

АНТИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ ЭКСТРАКТА КОЖУРЫ ГРАНАТА

ANTIOXIDANT ACTIVITY OF POMEGRANATE PEEL EXTRACT

X.Isaqov - tex.f.d., professor,
I.R.Asqarov - k.f.d., professor,
Sh.O.To‘raxonov –o‘qituvchi, ADU.

Annotasiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda yetishtirilayotgan anor meva po‘stlog‘ining antioksidant faolliklari standart antioksidantlarga solishtirishlar asosida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: oksidlovchi, stress, kislorodli oksigenaza, biokimyoviy mexanizmlari, yog‘-moy, konditer, sutni qayta ishlash, go‘sht, baliq mahsulotlari, texnologik va gigiyenik, sintetik antioksidantlar, butiloksianizol.

Резюме: В данной статье рассматривается антиоксидантная активность кожуры граната, выращенного в Узбекистане, на основе сравнения со стандартными антиоксидантами.

Ключевые слова: окислительные, стрессовые, оксигеназа, биохимические механизмы, жиры, кондитерские изделия, переработка молока, мясные, рыбные продукты, технологические и гигиенические, синтетические антиоксиданты, бутилоксианизол.

Abstract: This article examines the antioxidant activity of pomegranate peel grown in Uzbekistan on the basis of comparisons with standard antioxidants.

Key words: oxidizing, stress, oxygenated oxygenase, biochemical mechanisms, fats, confectionery, milk processing, meat, fish products, technological and hygienic, synthetic antioxidants, butyloxyanizole.

Inson tanasida oksidlovchi stress kislorodli oksigenazadan foydalanishning biokimyoviy mexanizmlari o‘rtasidagi muvozanat buzilganda kislorod almashinuvi muammolari paydo bo‘ladi. Oksidlovchi stressni bartaraf etish biologik faol moddalar xususan polifenol tabiatli tabiiy antioksidantlar yordamida amalga oshiriladi [1].

Antioksidantlar – bu hujayralarni yoki aksincha hujayra membrana- larini zararli ta’sirlardan yoki tanadagi ortiqcha oksidlanishga olib keladigan reaksiyalardan ximoya qiladigan birikmalardir [2,3].

Antioksidantlar erkin radikallar uchun o‘ziga xos donor vazifani bajarib, o‘zlarining elektronlarini qurbon qilish orqali erkin radikal shakllanishini to‘xtata oladilar va erkin radikallarga aylanmaydilar. Shu tufayli tanadagi xujayralarning oksidlanishi sekinlashadi yoki xatto to‘liq to‘xtatiladi [4,5].

Antioksidantlar asosan yog‘-moy, konditer, sutni qayta ishlash, go‘shtni qayta ishlash, baliq mahsulotlarini qayta ishlash kabi oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida ko‘plab ishlatiladi [6,7].

Texnologik va gigiyenik jihatdan antioksidantlarni oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi ulushi 0,02% dan ortmasligi talab etiladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini oksidlanishidan saqlashda ularga oz miqdor antioksidantlar qo‘shiladi [8,9].

Antioksidantlarning Ye kategoriya (Yevroosiyo iqtisodiyot ittifoqi) bo‘yicha Ye 300 dan Ye 350 intervalda joylashgan 10 dan ortiq turlari ishlatiladi [10,11].

Antioksidantlar oziq-ovqat mahsulotlarini havo kislorodi ta’sirida oksidlanishidan saqlovchi moddalar hisoblanadi. Bu jarayonda antioksidantlar oksidlanish jarayonida sarflanadi ya’ni havo kislorodi ta’sirida parchalanadi. Shuning uchun mahsulot tarkibida qancha ko‘p antioksidant bo‘lsa uni saqlash muddati shuncha uzoq bo‘ladi. Lekin antioksidantlarni ko‘p miqdorda qo‘shilishi oziq-ovqat mahsulotlari tarki-biga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [12,13].

Antioksidantlar oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash muddatini oshirsada, biroq ular zararli xususiyatlarni ham namoyon qilishi mumkin. Quyida ayrim sintetik antioksidantlarning xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz [14].

Butiloksianizol. Propilgallat n-propanolni 3,4,5-trigidroksibenzoy kislotasi bilan reaksiyasi natijasida olinuvchi sintetik antioksidant xisoblanadi. Ushbu antioksidant nafaqat oziq-ovqat sanoatida, balki farmasevtika va kosmetika sanoatida ham keng qo‘llaniladi.



Propilgallat organizmda astma, teri allergiyasi va oshqozon-ichak kasalliklarini rivojlantiradi [15-17].

Kversetin – S15N10O7. R- guruhi vitamin namunalariga kiradi.

Bu bir qator biologik faol qo‘shilmalar (BFQ) va dorilarning bir qismidir, shuningdek alternativ (noan’anaviy) tibbiyotda qo‘llaniladi.



Gliklozid qusish, qorin og‘rig‘i, toshma, jigari va buyragida muammolari bo‘lgan bemorlarga, shuningdek homilador ayollarga tavsiya etilmaydi [18-20].

Anor meva po‘stlog‘i ekstraktlarining antioksidant faolliklari tahlili natijalari.

Anor meva po‘stlog‘ining suvli ekstraktlarining antioksidantlik faolliklari spektrofotometrik tahlil usulida tekshirish uchun olingan namunalar asosida tayyorlangan dastlabki konsentrat eritmalardan bidistillyat suv yordamida 10 %, 25 %, 50 %, 75 %, 100 % va konsentrasiyadagi tahliliy eritmalar tayyorlandi.

Olingan taxliliy eritmalarning 100 % konsentrasiyadagi eritmalari-dagi antioksidantligi yuqoriligi ko‘rib chiqildi. Spektrofotometrik aniqlashlarni EMC-30PC-UV spektrofotometrida o‘rganildi.

Tahlil uchun olingan 0,2 M natriy-karbonat (Na2CO3-NaHCO3) rN = 10,65 li bufer eritmasiga 5 xil konsentrasiyada adrenalin gidroxlorid eritmasi qo‘shildi. Huddi shunday buferga 5 xil konsentrasiyada tahlil qilinayotgan anor meva po‘stlog‘i ekstraktlari eritmalari va adrenalin gidroxlorid eritmasi qo‘shilib, hosil qilingan aralashmalar qalinligi 10 mm bo‘lgan kyuvetaga joylandi va EMC-30PC-UV spektrofotometrida aralashmalarning 347 nm to‘lqin uzunligidagi optik zichliklari o‘lchandi. Spektrofotometrik tahlillar natijalari 1-jadvalda berilgan.

Namunalarning optik zichliklari qiymatlari asosida tekshiriluvchi eritmalarning antioksidant faolligi (%) quyidagicha hisoblandi:

$$\text{AA} = \frac{(D_1 - D_2) * 100}{D_1} = \frac{(0{,}117 - 0{,}0320) * 100}{0{,}117} = \mathbf{72{,}6\ \%}$$

Aniqlangan hisoblashlar natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-жадвал

Anor meva po‘stlog‘i ekstraktining spektrofotometrik va antioksidant faolligi(AA%) ko‘rsatkichi

№	Tahlil qilinuvchi eritmalar	Nazorat (D_1)	Tajriba (D_2)	AA%
1	Meva po‘stlog‘i - (100%) 1000 mg/ml	0,1170	0,0320	**72,6**
2	Kversetin (100%) 1000 mg/ml	0.1170	0.0732	**37.4**
3	Gliklazid (100%) 1000 mg/ml	0.1170	0.1053	**10**

Tekshiriluvchi namunalarning antioksidant faolligini qiyosiy tahlil qilish maqsadida standart namuna sifatida antioksidantlik xossalarini namoyon qiluvchi oziq-ovqat sanoatida BFQ sifatida ishlatiladigan kversetin (S15N10O7), hamda farmasevtika va tibbiyotda ishlatiladigan gliklazid (C15N21N3O3S) moddalaridan foydalanildi.

Anor meva po‘stlog‘ining ekstraktidan tayyorlangan eritmalarning antioksidant faolligi standart antioksidant kversetin hamda gliklazidlar bilan solishtirildi. O‘rganilgan kversetin moddasining 1mg/ml antioksidant hususiyati 37.4% va gliklazid moddasining antioksidant xususiyati 10% ekanligi aniqlangan bo‘lib bu ko‘rsatkichga solishtirsak anor meva po‘stlog‘ining antioksidantlik hususiyati yuqorirok ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Прида А.И., Иванова Р.И. “Природные антиоксиданты полифенольной природы (антирадикальные свойства и перспективы использования)”. Пищевые ингридиенты. Сырье и добавки. 2004. №2. С. 76–78.
2. Малахова А.И., Федоровский Н.Н. Исследование состава травы мелиссы лекарственной и ее водного извлечения // Науки о человеке : материалы VIII конгресса молодых ученых и специалистов. Томск, 2007. С. 230–231.
3. Хасанова С.Р., Плеханова Т.И., Гашимова Д.Т., Галиахметова Э.Х., Клыш Е.А. Сравнительное изучение антиоксидантной активности растительных сборов // Вестник ВГУ. Серия: Хим. Био. Фарм. 2007. №1. С. 163–166.
4. Юдина Т.П., Цыбулько Е.И., Ершова Т.А., Черевач Е.И., Бабин Ю.В. Антиоксидантная и антирадикальная активность сапонинсодержащего сырья, используемого в производстве растительного эмульгатора // Современные наукоемкие технологии.– 2004. № 2.–С.77-78;
5. Волков В.А., Волкова Л.А., Паханов П.М. Спектрофотометрический способ определения антиродикальной активности низкомолекулярных антиоксидантов в экстрактах пищевых и лекарственных растений. Бюл. № 9. 2011 г. С.119
6. Fasmon C.S. Cole Pi. Williams A.J. Hastings M. The measurement of opsonic and phagocytic (Unction by iuminol-dependt chemilumincscence. Immunology. 1980; 41: 67-74.
7. Glavind J. Antioxidams in animal tissue. Acta Chem Scand. 1963; 13(17): 1635-1640.
8. Коток В.А.. Потапович А.И.. Ковпева З.В. Простой чувствительный метод для определения активности супероксиддисмутазы основанный на реакции окисления кверсетина. Вопросы.медицинской химии. 1990; 2(36): 88-91.
9. Кочикян А.Т., Ананикян В.В.,Ерибекян М.И.,Топчян А.В., Ревазова Л.В. Изучение антирадикальной активности некоторых лекарственных и пищевых растений // Ж: Медицинская наука Армении НАН РА № 3., 2009 г. С. 126-131.
10. Ананикян В.В., Ерибекян М.И., Мнацаканян В.А. Ускоренный метод выявления антирадикальной активности органических соединений. Globe of Science. 2007. 7. p. 31-33.
11. Мнацаканян В.А., Ерибекян М.И., Ананикян В.В. Сравнительная оценка антирадикальной активности некоторых изохинолиновых алкалоидов. Globe of Science. 2009. S. p. 31-33.
12. Bandvopadhjay D.,Chattopadhyay A., Ghosh G, DattaA.G. Oxidative stress-induced ischemic heart disease: protection by antioxidants.Curr. Med. Chem.. 2004. vol.ll. 3. p. 369-387.

13. Contestabile A. Antioxidant strategies for neurodegenerative diseases. Expert. Opin. Therapeutic Patients. 2001. vol.ll. 4. p.573-585.

14. Medina J.H., Viola H., Wo If in an C. et al. Neuroactive flavonoids: new ligands for the benzodiaz-epine receptor. Phytomedicine. 1998. vol. 5. p.235-243.

15. Масленников П.В., Чупахина Г.Н., Скрыпник Л.Н. и др. Содержание низкомолекулярных антиоксидантов в лекарственных растениях Калининградской области // Химия раститель. сырья. 2012. № 3.С. 127–133.

16. Мадрахимов Ғ.Н., Хожиқулов А.С., Хакимова Л.А. Озиқ-овқат таркиби-даги антиоксидантлар ва уларнинг хоссалари. // Халқаро миқиёсида илмий-техник конференция материаллари тўплами - Наманган, 2019 й. 53-55 б.

17. Макарова М.Н.,Макаров В.Г.,Зенкевич И.Г. Антирадикальная активность флавоноидов и их комбинаций с другими антиоксидантами // Фармация. 2004. № 2. С. 30–32.

18. Луценко С.В., Фельдман Н.Б., Быков В.А. Растительные флаволигнаны. Биологическая активность и терапевтический потенциал. – М. 2006. 236 с.

19. Сергеева Е.О., Доркина Е.Г. и др. Изучение антиоксидантного действия гесперидина, диосмина, флавицина и кверцетина *in vitro* // Сборник научных трудов: «Разработка, исследование и маркетинг новой фармацевтической продукции». – Пятигорск. 2012. Вып. 67. С. 372–374.

20. Хайруллина В.Р., Якупова Л.Р. и др. Антиокислительные свойства бикомпонентных композиций на основе кверцетина и дигидрокверцетина // Тезисы материалов V Всеросс. научной конф. «Химия и технология растительных веществ

ХИМИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РАСТЕНИЯ CONVOLVULUS SPINIFER, ПРОИЗРАСТАЮЩЕГО В УЗБЕКИСТАНЕ

O‘ZBEKISTONDA O‘SADIGAN CONVOLVULUS SPINIFER O‘SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBINI O‘RGANISH

CHEMICAL STUDY OF THE PLANT CONVOLVULUS SPINIFER, GROWING IN UZBEKISTAN

Х.В.Исраилова - КГПИ магистрант
А.М.Гаппаров – КГПИ доцент
Н.Т.Хужаева - КГПИ стар.преподаватель

Аннотация. Из надземной части растения Convolvulus spinifer, произ-растающего в Узбекистане, выделено 2 алкалоида известной структуры -конволвин и конволамин, а также впервые из рода Convolvulus - кумарин скополетин, β-ситостерин, этоксипроизводное кофейной кислоты, вератровая кислота, глюкозы, маннозы, галактозы и нового этоксипроизводного кумарина умбеллиферона.

Ключевые слова: Convolvulus spinifer, алкалоиды, конволвин и конволамин, кумарин скополетин, β-ситостерин, этоксипроизводное кофейной кислоты, вератровая кислота, ацетамид, глюкоза, манноза, галактоза, этоксиумбеллиферон.

Annotatsiya. O‘zbekistonda o‘sadigan Convolvulus spinifer o‘simligining er ustki qismidan konvolvin va konvolamin tuzilishga ega 2 ta alkaloid - shuningdek, birinchi marta Convolvulus turkumidan - kumarin skopoletin, kofein kislotasining etoksi hosilasi β - sitosterol, veratrik kislota, glyukoza, mannozalar, galaktoza va kumarin umbelliferonning yangi etoksi hosilasi ajranildi.

Kalit so‘zlar: Convolvulus spinifer, alkaloidlar, konvolvin va konvolamin, kumarin skopoletin, β-sitosterol, kofein kislota etoksi hosilasi, veratrik kislota, atsetamid, glyukoza, mannozalar, galaktoza, etoksiumbelliferon.

Annotation. This article is devoted to the study of the aerial part of the plant Convolvulus spinifer growing in Uzbekistan, 2 alkaloids of known structure - convolvin and

convolamine have been analysed, and also for the first time from the genus Convolvulus - coumarin scopoletin, β-sitosterol, an ethoxy derivative of caffeic acid, veratric acid, glucose, mannose, galactose and a new ethoxy derivative of coumarin umbelliferone.

Key words: Convolvulus spinifer, alkaloids, convolvin and convolamine, coumarin scopoletin, β-sitosterol, ethoxy derivative of caffeic acid, veratric acid, acetamide, glucose, mannose, galactose, ethoxyumbelliferone.

Ранее из надземной части Convolvulus spinifer, произрастающего в Узбекистане выделено 2 алкалоидов [1,2], производных тропана, среди которых главными отмечены конвольвин и конволамин. Количественным определением установлено содержание в надземной части 0.6 %, а в корнях - 1.6 % суммы оснований, в которой содержание главных алкалоидов - конвольвина и конволамина, составляет 45-50 % общей смеси. Экстракт после удаления алкалоидов нейтрализовали до pH 7, разбавляли водой в соотношении 1:1 и обрабатывали последовательно бензином, этилацетатом, хлороформом. В оставшейся водной части обнаружили маннозу, глюкозу и галактозу. Из бензиновой фракции выделены кристаллы с т. пл. 1360, идентифицированные с истинным образцом β-ситостерина. Маточник обрабатывали ацетоном, при сгущении последнего получили кристаллы с т. пл. 81-820, идентифицированные с ацетамидом. При обработке маточника смесью ацетон - метанол выделили вещество с т. пл. 181-1820, идентифицированное с образцом вератровой кислоты.

Хлороформную фракцию также обрабатывали ацетоном, из которого при сгущении выпадают кристаллы с т. пл. 201-2020. В ИК-спектре соединения присутствуют полосы поглощения активного водорода (3115 см-1 - OH), - CH (3045 см-1), ароматического кольца (1605, 1562, 1506 см-1), сопряжённого карбонила (1702 см-1) [3,4]. В УФ - спектре наблюдаются максимумы поглощения при 297 и 345 нм, характерные для 6-,7–диоксикумаринов [5]. В ПМР - спектре кумарина наблюдаются сигналы ароматических протонов при 6.149 и 7.793 м.д. в виде двух дублетов (J=9.6 Гц) от протонов при С-3 и С-4. В области 7.045 м.д. имеется сигнал в виде синглета от протона при С-5, при 6.705 м.д. – сигнал в виде синглета от протона при С-8. В более сильном поле при 3.845 м.д. обнаружен трех - протонный синглет от ароматической метоксильной группы. Для компонент сигнала Н-4, а также сигнала Н-8 наблюдается уширение, вызванное дальним спин – спиновым взаимодействием между ними. J H-4 и J H-8 практически равны нулю [6].

Молекулярный вес кумарина подтверждён пиком с массой 192 в хроматомасс – спектре вещества. Указанные спектральные характеристики свидетельствуют о том, что выделенный кумарин является скополетином [7], впервые изолированным из растений рода Convolvulus.

При хроматографировании этилацетатной фракции на колонке с силикагелем из фракций этилацетат - бензин получили вещество с т. пл. 140-1410. Методом хроматомасс – спектроскопии для него установлена молекул-ярная масса, равная 208 атомным единицам. В УФ-спектре соединения наблюдаются максимумы при 218, 245, 330 нм, характерные для сопряжён-ной ароматической системы. В ИК - спектре отмечаются полосы поглощения 1,3,4-тризамещенного бензольного кольца при 1682, 1588, 870, 814 см-1. В ПМР - спектре соединения в сильном поле присутствует 3-х протонный триплет при 1.224 м.д. (J= 7.2 Гц) от сигналов метила этильной группы. При 4.128 м.д. в виде квартета проявляется сигнал от O-CH2 (2H, J=7.2 Гц), при 6.162 м.д. отмечается однопротонный дублет (J=16.2 Гц) – сигнал β-протона (=CH-Ar). Между ними имеются сигналы протонов

пирокатехиновой системы ароматического цикла: при 6,710 м.д. (1H, d, J =8.4, H-5 1) при 6.853 м.д. (1H, ddd, J=1.6 , H-21), при 6.967 м.д. (1H, d, J=1.6, H-61). Вышеуказанные спектральные характеристики свидетельствует о том, что выделенное нами соединение является этиловым эфиром кофейной кислоты, впервые изоли-рованное из растения. Кофейная кислоты и её эфиры являются промежуточ-ными продуктами биосинтеза кумаринов и флавоноидов. Методом хроматомасс – спектроскопии в спиртовом экстракте растения обнаружен пик с молекулярной массой 190 и 141, которые, по-видимому, отвечают соответственно кумарину этоксиумбеллиферону и аминоспирту тропину.

Таким образом, из spinifer выделено 2 известных алкалоида - конвольвина и конволамина, а также впервые из данного растения – скополетин, этиловый эфир кофейной кислоты, β-ситостерин, вератровая кислота, ацетамид и обнаружено присутствие глюкозы, маннозы, галактозы, кумарина этоксиумбеллиферона

Экспериментальная часть

ИК– спектры сняты на Фурье ИК-спектрометре фирмы “Perkin-Elmer”, модель 2000 в таблетках с KBr, УФ – спектр – на спектрофотометре фирмы «Hitachi» в растворе этанола. ЯМР-спектры регистрировали на приборе Tesla BS-567 A/100 МГц (растворители – CD3OD, внутренний эталон - ГМДС, d-шкала).

Для колоночной хроматографии использовали окись алюминия (нейтральная) 100/160 мкм, тонкослойную хроматографию осуществляли на пластинках с силикагелем марки КСК в системах: хлороформ – метанол, 9:1 (1), хлороформ-метанол 40:1 (2).

Выделение скополетина и этилового эфира кофейной кислоты.

Хлороформную часть спиртового экстракта обрабатывали ацетоном, из не растворившейся в ацетоне части получены кристаллы с т. пл. 205-2060, Rf 0.5 (система 2), не дающие депрессии т. пл. с истинным образцом скополетина. Этилацетатную фракцию спиртового экстракта хромато-графировали на колонке с силикагелем. Из первых этилацетат – бензиновых фракций выделили кристаллы с т. пл. 1400-1410 (10 мг), Rf 0.46 (система 2) - этиловый эфир кофейной кислоты.

Литература

1. А. М. Гаппаров, Н. А. Раззаков, С. Ф. Арипова., Химия природ. соедин., 242 (2007)
2. А. М. Гаппаров, С. Ф. Арипова, Н. А. Раззаков, В. У. Хужаев, Химия природ. соедин., 601 (2008)
3. W. A. Andreae, Can . J. Res. (C), 26, 31 (1948)
4. Г. В. Букреева, Г. В. Пигулевский, ЖПХ, 39, 7, 1541 (1966)
5. Г. В. Пигулевский, Г. А. Кузнецова, ЖОХ, 24, 12, 2174 (1954)
6. М. Е. Перельсон, Ю. Н. Шейнкер, Г. П. Сырова, Химия природ. соедин., 6 (1970)
7. Н. Ф. Комисаренко, И. Г. Левашова, У. А. Ахмедов, Химия природ. соедин., 247 (1984)

ARSOLQUYRUQ (LEONURUS TURKESTANISUS V.KRECZ. ET KUPRIAN.) O‘SIMLIGINING MUHIM SHIFOBAXSH VA ASALLI EKANLIGI XUSUSIDA

ЛЬВИНЫЙ ХВОСТ (LEONURUS TURKESTANISUS V. KRECZ. ET KUPRIAN.) ЯВЛЯЕТСЯ ВАЖНЫМ ЛЕКАРСТВЕННЫМ И МЕДОНОСНЫМ РАСТЕНИЕМ

THIS ARTICLE EXPLAINS THAT THE LION'S TAIL PLANT (LEONURUS TURKESTANISUS V. KRECZ. ET KUPRIAN.) IS AN IMPORTANT MEDICINAL AND MELLIFEROUS PLANT

M.R.Xolikulov -Farg‘ona DU,
G‘.M. Mahkamov -Qo‘qon DPI

Annotatsiya. Arslonquyruq ko‘p yillik o‘tchil o‘simlik bo‘lib, poyalari tik bo‘lib 100-180 sm, shoxlangan, tuklar bilan qoplangan. O‘zining muxim dorivor va “asalli” ekanligi bilan xarakterlanadi. Uning xar bir guli 2-3 kungacha ochilib turadi va 0,31 mgdan 0,63 mggacha gulshira ajratadi. Gulshiraning konsentratsiyasi 34% dan 68% gacha, o‘rta hisobda 51% ni tashkil qiladi. Gulshirani (nektarni) ajralishi ertalabdan, to kechgacha davom etadi.

Arslonquyruq muhim va qimmatbaho dorivor, hamda yaxshi va ishonchli asalli o‘simlik bo‘lib, uni mahsus ekib o‘stirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu turning tabiiy zaxiralari muhim dorivor vosita, hamda asalli o‘simlik sifatida imkoniyati bor joylarga ekilsa asalarichilik xo‘jaliklarini yanada rivojlantirishga va tibbiyot uchun maqbul vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Arslonquyruq, asalli, gulshira, nektar, oq quray, areal, biomassa, xavo xarorati, ekologik omil, madaniylashtirish, asalarichilik

Аннотация. Львиный хвост - многолетнее травянистое растение, стебли прямостоячие, 100-180 см, разветвленные, покрытые перьями. Он отличается важными лечебными и «медовыми» свойствами. Каждый его цветок цветет в течение 2-3 дней и выделяет от 0,31 до 0,63 мг шиповника. Концентрация нектара колеблется от 34% до 68%, в среднем 51%. Отделение розмарина (нектара) длится с утра до вечера.

Львиный хвост - важное и ценное лекарственное растение, а также хороший и надежный медонос, желательно выращивать его специально. Природные ресурсы этого вида являются важным лечебным средством, а также приемлемым инструментом для дальнейшего развития пчеловодства и медицины при выращивании в районах.

Ключевые слова: львиный хвост, мед, шиповник, нектар, белая смородина, ареал, биомасса, температура воздуха, экологический фактор, культура, пчеловодство.

Annotation. The lion's tail is a perennial herb, erect stems, 100-180 cm, branched, covered with feathers. It has important medicinal and honey properties. Each of its flowers blooms for 2-3 days and releases from 0.31 to 0.63 mg of rose hips. The nectar concentration ranges from 34% to 68%, with an average of 51%. The branch of rosemary (nectar) lasts from morning to evening.

Lion's tail is an important and valuable medicinal plant, as well as a good and reliable honey plant, it is advisable to grow it on purpose. The natural resources of this species are an important medicinal agent, as well as an acceptable tool for the further development of beekeeping and medicine when growing in regions.

Key words: lion's tail, honey, wild rose, nectar, white currant, habitat, biomass, air temperature, ecological factor, culture, beekeeping.

O‘zbekistonda yovvoyi holda o‘sadigan 4500 dan ortiq yuksak o‘simlik turlaridan Lamiaceae oilasiga mansub 100 dan ortiq turlar uchraydi.Shulardan biri

Turkiston arslonquyrug‘i - Lamiaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t. O‘zbekistonda arslonquyruqning ikki turi o‘sadi. Turkum nomi yunon tilida “leon” arslon “icha” dumi ma’nosida. To‘pguli arslon dumiga o‘xshagani uchun shunday nom berilgan.

Xozirgi vaqtdagi global iqlim o‘zgarishlari va miqyosi ortib borayotgan antropogen ta’sirlar tufayli o‘simliklar olami tanazzulga uchrab, ularni tur tarkiblari kamayib, areallari qisqarib bormoqda. Shunga qaramay foydali o‘simliklarning xom ashyosiga bo‘lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib va muammoning muhimligi hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asalarichilikni rivojlantirish va dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish zarurati to‘g‘risida maxsus qarorlari qabul qilingan. Muammoning dolzarbligi va zaruratini hisobga olib, biz mahalliy floramizning tabbiy vakillaridan hisoblangan arslonquyruq (Leonurus turkestanicus V.Krecz. et Kuprian) o‘simligini bioekologik xolatlarini o‘rgandik.

Ma’lumki o‘simliklar olami, agar ulardan meyorida va samarali foydalanilsa, xalq xo‘jaligi va inson hayoti uchun bitmas tuganmas xazina hisoblanadi. Shunday o‘simliklardan biri arslonquyruq hisoblanib , uning damlamasi yurak, me’da, asab kasalliklari, qon bosimini pasaytiruvchi, hamda asalarilar uchun muhim taom hisoblangan asal beruvchi tabiiy giyohlardan sanaladi.

Arslonquyruq ko‘p yillik o‘tchil o‘simlik, poyalari tik bo‘lib 100-180 sm, shoxlangan, tuklar bilan qoplangan. ((Flora Uzbekistana, Tom. V. 1971), (Gluxov 1974), (Kuliev 1987), (Meliboev va boshqalar 2018), (Hamidov, 1977)). Gullari uncha katta emas. Iyulda gullab oktabrgacha boradi. Har qaysi gul 2 kun turadi, 1-2 mg gacha nektar ajratish, asal mahsuldorligi 200-300 kg/ga. Eng qimmatli asal beruvchi o‘simliklardan hisoblanadi. Shuning bilan birga arslonquyruq dorivor o‘simlik hisoblanadi. Dorivor qismi yuqori gullayotgan novdalari, barglari, dorivor vosita sifatida foydalaniladi. Arslonquyruqning preparatlari tinchlantiruvi, qon bosimini pasaytiradigan, yurak faoliyatini yaxshilaydigan, oshqozon-ichak faoliyatini normallashtiradi. Arslonquyruqning muhim shifobaxsh va asalli xususiyatlari hisobga olib, uni tajriba maydonida sinab ko‘rdik va oson o‘sishi va rivojlanishini shohidi bo‘ldik. Laboratoriya va dala sharoitida urug‘ini unib chiqishi ancha yuqori 78% va 88% tashkil qildi. Mahalliy sharoitlarda yig‘ib olingan urug‘ni haydalgan va begona o‘tlarni ildizlaridan tozalangan maydonga ekildi. Ekish muddati, kuz faslining oktabr oxiri va noyabr oyi boshiga to‘g‘ri keldi. Urug‘lar 1-7 sm chuqurlikka, agatlar orasi 60 sm qilib ekildi. Bir gektar maydonga 5-6 kg urug‘ sepish mumkin.

O‘simlikni laboratoriya sharoitida unib chiqishi 5-7 kunlarda boshlanadi, tajriba uchastkasida esa 15-20 mart va aprel oyiga to‘g‘ri keladi. O‘simlik mezofit tabiatli bo‘lishi bois, uchun 3-4 marta sug‘orish mumkin.

G‘unchalashi iyun oyini boshlarida, gullashi esa iyunni oxirgi o‘n kunligida bo‘ladi. Gullashi ancha uzoq davom etadi, oxirgi gullari sentabrgacha davom etadi, urug‘ini pishishi oktyab-noyabr oylarida. Vegetatsiyasini oxirida o‘simlik 150-170 sm baland bo‘ladi, uni ildizi ham 40-60sm chuqurlikka borib yetadi.

Ikkinchi yili vegetatsiyasi ancha ilgari boshlanadi, aprel oyida tez o‘sadi. O‘simlik massasini muhim dorivor manba ekanligini hisobga olib uni hosildorligini aniqladik. Xo‘l holatda birinchi yili gektar hisobiga 70-73, ikkinchi va uchinchi yillari 107 va 160 sentnerni tashkil qiladi. (jadval 1)

jadval 1

№	Yillar	Hosildorligi s/ga	
		Ho‘l massasi	Quruq massasi
1.	2018	23	7,8
2.	2019	102	29

3.	2020	160	43

Arslonquyruqni ba’zi bioekologiyak xossalarini aniqlashga erishdik. Gullarining ochilishi ertalab soat 7-8 larda boshlanib qiyg‘os ochilishi esa kunning ikkinchi yarmi soat 13-14 larda to‘g‘rikeladi. Har bir gul 2-3 kungacha ochilib turadi. Gulshirani (nektarni) ajralishi ertalabdan, to kechgacha davom etadi. Har bir guli 0,31 mgdan 0,63 mggacha gulshira ajratadi, gulshiraning konsentratsiyasi 34% dan 68% gacha, o‘rta hisobda 51% ni tashkil qiladi.

Arsloquyruqni fenologik fazalari (jadval 2), o‘sish dinamikasi (jadval 3) va gulshira ajratish dinamikasi (jadval 4) quyida keltirilgan.

jadval -2

Vegetatsiyani boshlanishi	G‘unchalashi	Gullashni Boshlanishi	Qiyg‘os gullashi	Gullashni oxiri	Urug‘ni pishishi
10-mart	10-may	28-may	7-iyun	1-iyul	10-avgust
25-mart	15-may	5-iyun	15-iyun	5-iyul	15-avgust
30-mart	20-may	15-iyun	25-iyun	10-iyul	20-avgust
28-mart	25-may	20-iyun	30-iyun	20-iyul	25-avgust

jadval 3

Birinchi yilgi vegetatsiyasi		Ikkinchi yilgi vegetatsiyasi	
Kunlar	O‘simlikning o‘sish xolati	Kunlar	O‘simlikning o‘sish xolati
8.05.19	65 sm	5.05.20	70 sm
15.05.19	75 sm	15.05.20	94 sm
20.05.19	100 sm	21.05.20	107 sm
30.05.19	130 sm	30.05.20	128 sm
5.06.19	160 sm	5.06.20	139 sm
5.07.19	165 sm	15.06.20	146 sm
20.07.19	170 sm	20.07.20	150 sm

jadval 4

vaqti	27.07.2019y			16.07.2020y		
	Havo harorati (S^0)	Bir gul hisobiga gulshira miqdori mg	Gulshira konsen-tratsiyasi %	Havo harorati (S^0)	Bir gul hisobiga gulshira miqdori mg	Gulshira konsen-tratsiyasi %
8	23	0,52	45	22	0,30	49
10	27	0,90	55	27	0,33	70
12	30	1,00	60	28	0,33	75
14	30	1,04	63	30	4,00	74
16	30	0,90	65	29	0,37	74
18	28	0,40	72	24	0,22	67
20	25	0,30	61	22	0,20	63

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, arslonquyruq muhim va qimmatbaho dorivor, hamda yaxshi va ishonchli asalli o‘simlik hisoblanib, uni mahsus ekib o‘stirish maqsadga muvofiq. Ushbu turning tabiiy zaxiralari muhim dorivor vosita, hamda asalli o‘simlik sifatida biz va kelgusi avlodlarimiz uchun uzoq yillar xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Flora Uzbekistana, Tom V. Tashkent, 1971.
2. Gluxov M.M. Medonostnыe rasteniya. Moskva “Kolos”, 1974.
3. Hamidov G‘, H. “O‘zbekistonning asalli o‘simliklarni”. Toshkent, 1977.
4. Kuliev N.M. Zadachi izucheniya medonosnыx i perganosnыx rasteniy. Moskva, 1987.
5. Meliboev S., Isroilov M., Isomiddinov Z., Abdunazarov X., Tursunova Sh. “O‘zbekiston florasida uchraydigan dorivor o‘simliklar”. Farg‘ona nashriyoti, 2018.
6. A.O‘smonxo‘jaev va boshqalar. “O‘zbekistonda o‘sadigan shifobaxsh o‘simliklarning etimologik zamonaviy ensiklopediyasi” Toshkent 2018.
7. Hamidov G‘.H., Akbarova M.X., Davidov M.A., Xoliqulov M.R. “O‘zbekiston asalli o‘simliklari va asalarichilikning rivojlanish istiqbollari”. Farg‘ona, 2019.

GO‘ZA O‘SIMLIGIDA TURICHI VA TURLARARO F_1 DURAGAYLARDA BITTA KO‘SAKDAGI PAXTA VAZNINI IRSIYLANISHI

НАСЛЕДОВАНИЕ ВЕСА ХЛОПКА В ОДНОМ КОРОБОЧЕК У ВИДОВЫЕ И МЕЖВИДОВЫЕ ГИБРИДОВ F_1 В РАСТЕНИИ ХЛОПЧАТНИКА

INHERITANCE OF THE WEIGHT OF COTTON IN ONE POD IN SPECIFIC AND INTERSPECIFIC F_1 HYBRIDS IN A COTTON PLANT

ADU, dotsent G’.N.Jo‘raqulov,
ADU, doktorant A.A.Mamajonov,
ADU, magistrant H.A.Musayev

Annotatsiya. Maqolada g‘o‘za o‘simligida resiprok va qo‘sh duragaylash orqali turichi va turlararo F_1 duragaylarda bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishi tahlillari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Transgressiya, duragay, dominant, geterozis, ekolo-geografik, allotetroploid, mutagenez, resiprok.

Аннотация. В статье анализируется наследование массы однокоробочного хлопчатника у внутривидовых и межвидовых гибридов F_1 путем реципрокной и двойной гибридизации у растений хлопчатника.

Ключевые слова: Трансгрессия, гибрид, доминантный, гетерозис, эколо-географический, аллотетроплоид, мутагенез, ресипрок.

Annotation. The article analyzes the inheritance of the mass of single-bolled cotton in intraspecific and interspecific F_1 hybrids by reciprocal and double hybridization in cotton plants.

Keywords: Transgression, hybrid, dominant, heterosis, ecological-geographical, allotetraploid, mutagenesis, reciprocal.

G‘o‘za o‘simligidan olinadigan hom ashyo salmog‘ini ta’minlaydigan asosiy qimmatli xo‘jalik belgilaridan biri bitta ko‘sakdagi paxta vazni hisoblanadi. Bitta ko‘sakdagi paxta vaznini ortishi bevosita mahsuldorlikni oshishiga ijobiy ta’sir qiladi. Shuning uchun mazkur belgini avloddan-avlodga irsiylanishini o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishi haqidagi ma’lumotlar o‘tgan asrning boshlaridan, ya’ni g‘o‘za o‘simligidan maksimal hosil olish uchun qaratilgan ilmiy ishlar natijalari ilmiy adabiyotlarda bayon etila boshlagan. V.L.Bolls (1906-Pulatov bo‘yicha 1981) [1] tomonidan bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanisi hamda,

bu belgi ko‘p genlar orqali naslga berilishi aniqlandi.

V.I.Kokuyev, K.A.Visotskiy, S.S.Kanash, V.F.Bel [2], V.I.Kokuyevlarning [3] ta’kidlashicha, bitta ko‘sakdagi paxta vazni ko‘sak yirikligiga, chanoq va chigitlar soniga bog‘liq. Yirik ko‘sakli g‘o‘za mayda ko‘sakli g‘o‘za bilan chatishtrilganda ko‘p hollarda F_2 populyatsiyasida oraliq holda irsiylanishi kuzatildi. Ba’zi chatishtirish kombinatsiyalarida yirik ko‘sak mayda ko‘sak ustidan qisman ustunlik qilishi aniqlangan.

Straumal B.P. tomonidan [4] bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishini tadqiq qilish natijasida, yaqin ko‘rsatkichli ota-onalarni chatishtirishdan olingan resiprok duragaylarda bu belgi bo‘yicha geterozis hodisasini va keskin farq qilgan ko‘rsatkichli g‘o‘zalarni duragaylash orqali olingan o‘simliklarda oraliq holda irsiylanishini aniqlagan. Shunday xulosalarni 1967-yilda Z.Yu.Maqsumov [5] va 1969-yilda Ter-Avanesiyan D.V., Kameneva Y.I. [6], 1973-yilda J.Turayevlar ekologik uzoq navlarni chatishtirib [7], F_1 – F_3 populiyatsiyalarini tadqiq qilib, hamda Sh.Samanov, B.Amanov, S.Rizayeva, B.Gapparov, I.Samadovlar 2019-yilda ingichka tolali g‘o‘za navlarini yirik ko‘sakli tizmalar bilan duragaylab ham shunday natijalarni qayd qilishdi [8].

G‘.N.Jo‘raqulov g‘o‘zaning *G.hirsutum* L. navlariaro duragaylarida fotokimyoviy faollik bilan miqdoriy belgilarning irsiylanishi orasidagi o‘zaro bog‘liqligini o‘rganib, bitta ko‘sakdagi paxta vazni to‘liqsiz ustun holda irsiylanishini aniqladi [9].

Yuqoridagi kabi xulosalar, Uzoqov va boshqalar [10], T.Muhiddinov larning [11] ishlarida ham keltirilgan.

Bitta ko‘sakdagi paxta vazni F_1 o‘simliklarda to‘liq dominant holda irsiylanishi, F_2 o‘simliklarda transgressiya hodisasi mavjudligini bir necha olimlar ta’kidlaganlar [12].

Oddiy va qo‘sh duragaylash orqali olingan F_1 o‘simliklarida bitta ko‘sakdagi paxta vazni o‘ta dominantlik, to‘liq dominantlik va qisman dominantlik holatida irsiylanishi, qo‘sh duragay kombinatsiyalarida salbiy geterozis ham kuzatilgan [13].

G‘o‘zaning ekologo-geografik va genetik uzoq F_1 duragaylarida bitta ko‘sak vaznini irsiylanishida oraliq, ijobiy, salbiy to‘liq va qisman dominant irsiylanishi aniqlangan [14].

Tadqiqot materiallari va usullari

Tajribada turichi va turlararo F_1 duragaylarida bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishini o‘rganish maqsadida tabiiy allotetroploid bo‘lgan *G.hirsutum* L. va *G.mustllinum* L. turlarga mansub navlar (G‘olib, Andijon-35, Namangan-77, Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt.) va xromosomalar soni diploid bo‘lgan turlardan ($F_{[6]}$(Kelajak x (ssp.nanking (oq tolali) x *G.nelsonii*) sun’iy mutagenez yo‘li bilan olingan allotetroploid T-85 tizmasidan foydalanildi.

Navlar va F_1 osimliklarining bitta ko’sakdagi paxta vaznining statistik tahlili B.A.Dospexov usulida aniqlandi [15].

Natija va ularning muhokamalari

Tajribada bitta ko‘sakdagi paxta vazni bo‘yicha ota-ona shakllari ichida yuqori ko‘rsatkich G‘olib (6,4±0,34 gr) naviga, nisbatan past ko‘rsatkich T-85 (3,3±0,1) tizmasiga tegishli ekanligi aniqlandi (1-jadval).

O‘tkazilgan tajribada F_1 duragaylarida bitta ko‘sak vaznini irsiylanish qonuniyatlarini chuqurroq tadqiq qilish maqsadida ashyo sifatida olingan nav va tizmalarni resiprok duragay qilindi. Shu bilan birga G‘olib, Andijon-35 va Namangan-77 o‘simliklarining F_1 duragaylariga nisbatan bitta ko‘sakdagi paxta vazni kichik bo‘lgan Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmalarini chatishtirib F_1 o‘simliklari olindi. Izlanishlarda olingan natijalar 1-jadvalga umulashtirildi va tahlil qilindi.

G‘olib navi bilan bitta ko‘sakdagi paxta vazni bo‘yicha yaqin ko‘rsatkichga ega bo‘lgan Andijon-35, Namangan-77 navlari ishtirokida resiprok duragaylash orqali olingan F_1 o‘simliklarida geterozis holatda irsiylanish aniqlanmadi. F_1 o‘simliklarining bitta ko‘sakdagi paxta vazni ota-ona shakllari oralig‘ida bo‘ldi. G‘olib va Qizil baraka navlarining F_1 duragaylarida

(5,5±0,2; 5,5±0,40) har ikki shaklda bitta ko‘sak vazni Qizil baraka navi tomon og‘di (*hp*= -0,4). G‘olib navi bilan bitta ko‘sakdagi paxta vazni keskin farq qiluvchi *G.mustllinum* Miers. ex Watt. turi bilan F_1 duragaylarida G‘olib navining ona shakli bo‘lganida ham (4,9±0,2 gr), ota shakl bo‘lganida ham (4,48±0,19 gr) mazkur belgi G‘olib navi tomon og‘ganligini ko‘rish mumkin (*hp*= 0,7; 0,1). G‘olib navi T-85 tizmasi bilan ona shakl bo‘lgan F_1 duragaylari urug‘dan unib chiqmadi. G‘olib navi ota shakli bo‘lib ishtirok etgan F_1 duragaylarida esa bitta ko‘sak vazni (4,6±0,26 gr) bo‘yicha T-85 tizmasi qisman salbiy dominantlik qilganligi kuzatildi. G‘olib navi ona yoki ota shakl qilib olingandagi F_1 o‘simliklarida bitta ko‘sakdagi paxta vazni keskin farq qilmadi. Qisman ijobiy va salbiy irsiylanish aniqlandi. Lekin geterozis kuzatilmadi (1-jadval).

1-jadval

№	Turichi va turlararo F_1 duragay kombinatsiyalari	Bitta ko‘sakdagi paxta vazni, gr				
		X±m%	min-max	S	V%	*hp*
	Ota-ona shakllari					
1	G‘olib	6,4±0,34	4,6-8,8	1,07	16,66	-
2	Andijon-35	5,82±0,22	4,6-7,2	0,68	11,75	-
3	Namangan-77	5,6±0,2	5,1-6,2	0,53	7,45	-
4	Qizil Baraka	5,1±0,37	3,1-7,7	1,16	22,68	-
5	*G.mustllinum* Miers. ex Watt.	3,71±0,25	2,3-5,5	0,82	21,69	-
6	T-85	3,3±0,1	3,1-3,9	0,31	9,68	-
	F_1 o‘simliklari					
7	G‘olib x Andijon-35	6±0,1	5,5-6,2	0,26	4,42	-0,4
8	Andijon-35 x G‘olib	6,13±0,34	4,1-8	1,09	17,77	0,1
9	G‘olib x Namangan-77	6,13±0,34	5-7,4	0,62	10,28	0,3
10	Namangan77 x G‘olib	6,3±0,3	5,2-6,2	0,89	14,03	0,7
11	G‘olib x Qizil Baraka	5,5±0,2	4,1-7	0,6	12,15	-0,4
12	Qizil baraka x G‘olib	5,5±0,40	2,2-9,2	1,28	23,29	-0,4
13	G‘olib x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,9±0,2	4-6,4	0,6	12,54	0,7
14	*G.mustllinum* Miers. ex Watt. x G‘olib	4,48±0,19	3,1-6,1	0,6	13,29	0,1
15	T-85 x G‘olib	4,6±0,26	3,2-6,8	0,81	17,43	-0,2
16	Andijon-35 x Namangan-77	5,2±0,19	4-6,4	0,59	11,33	-5
17	Namangan-77 x Andijon-35	4,67±0,27	2,7-6,2	0,85	18,26	-10,3
18	Andijon-35 x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,24±0,17	3,3-5,6	0,54	12,76	-0,5
19	*G.mustllinum* Miers. ex Watt. x Andijon-35	4,51±0,18	3,5-5,8	0,57	12,6	-0,2
20	Namangan-77 x Qizil baraka	5,5±0,2	4,4-7	0,6	11,65	0,6
21	Qizil baraka x Namangan-77	5,89±0,27	4,4-7,3	0,87	14,69	2,2
22	Namangan-77 x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,4±0,18	3,1-5,8	0,57	12,98	-0,3
23	*G.mustllinum* Miers. ex Watt. x Namangan-77	3,87±0,32	2,2-5	1	25,8	-0,8
24	Namangan-77 x T-85	4,6±0,26	3,2-5,9	0,81	17,63	0,13

25	T-85 x Namangan-77	4,38±0,25	3,2-5,6	0,78	17,7	-0,1
26	Qizil baraka x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,5±0,18	3,1-5,7	0,56	12,40	0,1
27	*G.mustllinum* Miers. ex Watt. x Qizil Baraka	4,48±0,19	3,1-6,1	0,6	13,29	0,1
28	Qizil baraka x T-85	4,36±0,33	2,2-5,8	1,06	24,2	0,2
29	T-85 x Qizil Baraka	4,3±0,32	2,7-6,2	1,02	23,76	0,1
30	*G.mustllinum* Miers. ex Watt. x T-85	4,25±0,2	2,6-5,3	0,6	14,71	3,6
31	T-85 x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	3,9±0,16	3,2-4,5	0,5	12,93	1,9
32	F_1(G‘olib x Andijon-35) x Qizil Baraka	5,36±0,18	4,3-6,2	0,56	10,49	-0,4
33	F_1(G‘olib x Andijon-35) x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,59±0,2	3,2-6,1	0,64	13,98	-0,2
34	F_1(G‘olib x Andijon-35) x T-85	4,39±0,26	2,8-6,3	0,82	18,69	-0,2
35	F_1(G‘olib x Namangan-77) x Qizil Baraka	5,22±0,29	3,7-7,2	0,9	17,28	-0,7
36	F_1(G‘olib x Namangan-77) x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,73±0,18	3,9-6	0,57	12,08	-0,1
37	F_1(G‘olib x Namangan-77) x T-85	4,96±0,41	2,8-8,1	1,3	26,28	0,2
38	F_1(Andijon-35 x G‘olib) x Qizil Baraka	5,29±0,28	3,9-7,5	0,89	16,74	-0,6
39	F_1(Andijon-35 x G‘olib) x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,34±0,19	3,6-5,6	0,6	13,72	-0,5
40	F_1 (Namangan-77 x G‘olib) x Qizil Baraka	5,28±0,24	3,6-7,3	0,74	14,07	-0,7
41	F_1 (Andijon-35 x Namangan-77) x Qizil Baraka	5,14±0,26	3,3-6,9	0,83	16,17	-0,2
42	F_1 (Andijon-35 x Namangan-77) x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,27±0,19	3,2-5,5	0,6	14,06	-0,2
43	F_1 (Andijon-35 x Namangan-77) x T-85	3,93±0,28	2,5-6,4	0,9	22,87	-0,3
44	F_1 (Namangan-77 x Andijon-35) x Qizil baraka)	5,54±0,25	4,2-7,6	0,78	14,13	3,1
45	F_1 (Namangan-77 x Andijon-35) x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.	4,7±0,22	3,6-6,5	0,69	14,57	1,1
46	F_1 (Namangan-77 x Andijon-35) x T-85	4,55±0,15	3,6-5,1	0,47	10,32	0,8
47	T-85 x F_1 (Namangan-77 x Andijon-35)	5,35±0,23	4,5-6,7	0,73	13,65	1,9
48	T-85 x F_1 (Namangan-77 x G‘olib)	4,23±0,18	3,3-5	0,56	13,22	-0,4

Andijon-35 va Namangan-77 navlari o‘zaro resiprok duragaylarida kuchli salbiy geterozis kuzatildi (*hp*= -5; -10,3). Andijon-35 va *G.mustllinum* Miers. ex Watt. larning resiprok F_1 duragaylarida (4,24±0,17; 4,51±0,18) o‘rganilayotgan belgi bo‘yicha *G.mustllinum* Miers. ex Watt. ning bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishini ta’minlaydigan genlari qisman salbiy dominantlik (*hp*= -0,5; -0,2) qilgani aniqlandi. Har ikki (Andijon-35 x *G.mustllinum* Miers. ex Watt.; *G.mustllinum* Miers. ex Watt. x

Andijon-35) duragay o‘simliklarda ham F_1 avlod bitta ko‘sakdagi paxta vazni oraliq holda irsiylandi. Bitta ko‘sak vazni bo‘yicha keskin farq qiluvchi ota-ona shakllarining F_1 duragaylarida mazkur belgi oraliq holda irsiylanishini ushbu kombinatsiya natijalari, hamda ilmiy adabiyot manbalarida tasdiqlanganini guvohi bo‘ldik (1-jadval).

Izlanishlar davomida Namangan-77 navi bitta ko‘sak vazni bo‘yicha o‘ziga yaqin ko‘rsatkichli Qizil baraka navi bilan resiprok duragaylash orqali olingan F_1 o‘simliklarida Namangan-77 navi qisman dominantlik qilganligi (*hp*= 0,6) va kuchli geterozis (*hp*=2,16) kuzatildi. Namangan-77 navi *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmasi bilan Andijon-35 navi kabi munosabatda ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Qizil baraka navining o‘zidan bitta ko‘sakdagi paxta vazni bo‘yicha keskin farqlanuvchi *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmasi bilan olingan resiprok duragaylarining F_1 o‘simliklarida mazkur belgi oraliq holda irsiylandi. Barcha kombinatsiyalarda Qizil baraka navi qisman dominantlik (*hp*=0,1 - 0,2) qilgani aniqlandi.

G.mustllinum Miers. ex Watt. va T-85 tizmalarining bitta ko‘sakdagi paxta vazni ko‘rsatkichlari yaqin holatda. Ushbu ikki ashyo resiprok duragaylarining F_1 o‘simliklarida mazkur belgi to‘liq dominantlik holatida irsiylandi. Ushbu holat yuqorida keltirilgan adabiyot ma’lumotlarini tasdiqladi.

1-jadval ma’lumotlarini tahlillariga ko‘ra resiprok chatishtirish ishlarida ashyolarning ota yoki ona o‘simlik sifatida ishtiroki bitta ko‘sakdagi paxta vaznini birinchi avlodda irsiylanish natijalariga katta ta’sir etmasligi aniqlandi. Tur ichi duragaylariga qaraganda turlararo duragaylarda bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishida ko‘proq ijobiy natijalar olindi.

Izlanishlar davomida bitta ko‘sakdagi paxta vaznini F_1 avlodda irsiylanishini tadqiq qilish uchun G‘olib, Andijon-35 va Namangan-77 navlarini resiprok F_1 o‘simliklariga *G.hirsutum* turiga mansub Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va sun’iy mutagenez usuli bilan olingan T-85 tizmasi bilan chatishtirildi va ulardan olingan F_1 o‘simliklarida bitta ko‘sakdagi paxta vaznining irsiylanishi o‘rganildi.

F_1(G‘olib x Andijon-35) o‘simliklari Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmalari bilan chatishtirildi va olingan F_1 o‘simliklarida bitta ko‘sakdagi paxta vazni oraliq holda irsiylandi va qisman salbiy dominantlik kuzatildi.

F_1(G‘olib x Namangan-77) o‘simliklari bilan Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmalarining F_1 duragaylarida mazkur belgi oraliq holda irsiylandi, qisman salbiy va ijobiy dominantlik aniqlandi.

F_1(Andijon-35 x G‘olib), F_1(Namangan-77 x G‘olib), F_1(Andijon-35 x Namangan-77), o‘simliklari bilan Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmalarining F_1 duragaylarining barchasida salbiy dominantlik (*hp*=-0,2; -0,7) aniqlandi (1-jadval).

F_1(Namangan-77 x Andijon-35) o‘simliklarining bitta ko‘sakdagi vazni (4,67±0,27 gr; *hp*=-10,3) ota-ona shakllari ko‘rsatkichidan keskin salbiy natija ko‘rsatgan. Lekin bu holat Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmalarining bitta ko‘sakdagi vazniga ota-ona shakllariga (Andijon-35, Namangan-77) nisbatan yaqin natija namayon qildi. F_1(Namangan-77 x Andijon-35) va Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt. va T-85 tizmalarining bitta ko‘sakdagi vazni to‘liq va o‘ta dominant (*hp*=3,1; 1,1; 0,8) holda irsiylandi.

Qo‘sh duragaylashda ham resiprok F_1 (F_1 (Namangan-77 x Andijon-35) x T-85, T-85 x F_1 (Namangan-77 x Andijon-35) avlodlar olindi. Bitta ko‘sakda paxta vaznini irsiylanishi mazkur durugay o‘simliklarida ham oddiy resiprok chatishtirish natijalarini takrorladi.

Qo‘sh duragaylash orqali olingan F_1 o‘simliklarida bitta ko‘sakdagi paxta vazni qisman salbiy dominantlik holida irsiylandi. Lekin adabiyotlarda keltirilgan salbiy yoki ijobiy geterozis kuzatilmadi (1-jadval).

Izlanishlarda qo‘sh duragaylash uchun olingan F_1 o‘simliklarda va Qizil baraka, *G.mustllinum* Miers. ex Watt., T-85 tizmalarining bitta ko‘sakdagi paxta vazni keskin farq qiluvchi ota-ona shakllari hisoblanadi. Olimlardan B.P.Straumal, Z.Yu.Maqsumov, YE.I.Kamenevalar, D.V.Ter-Avanesiyan, Dj.Turayev,

Sh.Samanov, B.Amanov, S.Rizayeva, B.Gapparov, I.Samadovlar bitta ko‘sakdagi paxta vaznini irsiylanishini tadqiq qilishi natijasida, oddiy duragaylarda bitta ko‘sakdagi paxta vazni ota-ona shakllari keskin farq qiluvchi o‘simliklarda o‘rganilayotgan belgi oraliq holda irsiylanishi aniqlagan. Ushbu xulosalar mazkur tajriba davomida qo‘sh duragaylash orqali olingan F_1 o‘simliklarida ham tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пулатов М. Наследование основных хозяйственно ценных признаков хлопчатника при внутривидовой гибридизации. Автореф. дисс. канд. с/х наук. Ташкент, 1981, - 21 с.
2. Кокуев В.И. Наследование величины коробочек у американского хлопчатника *G.hirsutum* L. //В сб. Краткое содержание и направление исследовательских работ ЦСС Союз НИХИ, -Ташкент. 1936, – С. 33-35.
3. Кокуев В.И. Наследование некоторых хозяйственных морфологических признаков у хлопчатника. –Ташкент. УзГиз, 1935, 80 с.
4. Страумал Б.П. Межсортовые скрешивания хлопчатника. // Сельское хозяйство Узбекистана. -1950. -№3. – С. 72-73.
5. Максудов З.Ю. Изучение гибридов, полученных от скрещивания экологически отдалённых сортов хлопчатника *G. hirsutum* L. (сел. СССр и США. Автореф. дисс… канд. с/х наук. –Ташкент, 1967. - 27 с.
6. Тер-Аванесян Д.В., Каменева Е.И. Изменчивость веса коробочки у гибридов хлопчатника // Генетика. -1969. – Т.5. №9. – С. 168-170.
7. Тураев Дж. Использование способов внутривидовой гибридизации для получения высокопродуктивных и высококачественных форм хлопчатника вида *G.hirsutum* L. Автореф. дисс… канд. С/Х наук. –Душанбе, 1973, - 23 с.
8. Ш.Саманов, Б.Аманов, С.Ризаева, Б.Гаппаров, И.Самадов. Ғўзанинг ингичка толали навларини йирик кўсакли тизмалар билан дурагайлаш асосида олинган F_1 ўсимликларда қимматли хўжалик белгиларнинг ирсийланиши //Агро илм, 2019. -№6. – С. 27-28.
9. Ғ.Н.Жўрақулов. Ғўзанинг *G.hirsutum* L. Навлариаро дурагайларида фотокимёвий фаоллик билан миқдорий белгиларнинг ирсийланиши орасидаги ўзаро боғлиқлик. Бфн. дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. - 44 б.
10. Узоков Й., Набиев С., Аширыулов А. Ва бошқалар. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -2001. -№3. 39-40 б.
11. Муҳиддинов Т. Методы исследования селекционно-генетических признаков. // Сельское хозяйство Узбекистана. -2001. №5. – С. 18-20.
12. Бердымурадов Р. О наследование крупности коробочки у гибридов. // Хлпководство. 1970. №11. – С. 34-35.
13. Номозов Ш., Сиддиқов А. Генетик жиҳатдан келиб чиқиши турлича бўлган ғўза навларини чатиштиришда асосий хўжалик белгиларининг ирсийланиши // ЎзҒСУИТИнинг илмий асарлар тўплами. - Тошкент, 2002.- 143-145 б.
14. Амантурдиев И.Ғ., Намазов Ш.Э., Бобоев С.Ғ., Тўхлиев М. Ғўзанинг эколого-географик ва генетик узоқ F_1 дурагайларида ҳосилдорлик компонентларининг шаклланиши // Генетика, геномика ва биотехнологиянинг замонавий муаммолари. Тез. тўплами (16 май 2019 й.) –Тошкент, 2019. 186-189 б.
15. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – Москва: Агропромиздат, 1985. – 338 с.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING “BADOYE’ UL-AFKOR” ASARI TADQIQI

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ХУСЕЙНА ВАЙЗА КАШИФИ "БАДОЙЕ УЛ-АФКОР"

RESEARCH OF HUSSEIN WAIZ KASHIFI'S WORK "BADOYE UL-AFKOR"

O.J.Hamroyeva- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent DO‘TAU

Annotatsiya: Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor” asari poetika ilmiy nazariy asoslari keltirilgan muhim manbalardan biridir. Maqolada “Badoye’ ul-afkor”ning tarkibiy qismi va qilmi qofiyaga oid ilmiy-nazariy fikrlar tadqiq etiladi.

Kalit so’zlar: Poetika, risola, ilmi segona (Ilmlar uchligi), qofiya, hurufi qofiya (qofiya harflari), qofiya turlari

Аннотация: «Бадое ул-афкор» Хусейна Ваиза Кашифи - один из самых важных источников по теоретическим основам поэзии. В статье рассматриваются научно-теоретические взгляды на состав и рифму «Бадое ул-афкор».

Ключевые слова: Поэтика, памфлет, илми сегона (Троица наук), рифмовка, рифмующиеся буквы, виды рифмовки.

Annotation: Hussein Vaiz Kashifi's “Badoye ul-afkor” is one of the most important sources on the theoretical foundations of poetry. The article examines the scientific and theoretical views on the composition and rhyme of “Badoye ul-afkor”.

Keywords: Poetics, pamphlet, ilmi segona (Trinity of Sciences), rhyme, letter rhyme (rhyming letters), types of rhyme

Mumtoz poetika ilmi nazariyasiga bag‘ishlangan muhim manbalardan biri Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor fi sanoe’ ul-ash’or” asaridir. Koshifiyning ushbu asari mumtoz poetikaning tarkibiy qismlaridan biri ilmi badi’ tadqiqiga bag‘ishlangan. Ilmi badi’ning aruz va qofiya bilan o‘zaro bog‘liq jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan ushbu asar fors adabiyotining muhim manbalaridan biridir. Husayn Voiz Koshifiy o‘zigacha yaratilgan arabiy va forsiy tildagi risolalar va ilmiy manbalar bilan chuqur tanishgan holda ushbu asarini yaratigan. XV asr Xurosondagi ilmiy muhit bu asarning yuzaga kelishiga zamin yaratib berdi. Mumtoz poetika ilmining bilimdoni Abdurahmon Jomiyning poetika ilmi tarkibiy qismlaridan bo‘lmish aruz hamda qofiyaga oid “Risolai qofiya” va “Risolai aruz” asarlarining yaratishi, bu davr ilmiy muhiti yuqori pog‘onada ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiyning aruz vazni nazariyasiga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” asari esa turkiy tildagi ilmi aruz bag‘ishlangan muhim manbalardan biridir. Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor fi sanoye’ ul-ash’or” asari ham shu davrda yaratilgan muhim manbalardan biri bo‘lib, muallif asar so‘zboshisida o‘z risolasini Hirot shohi Sulton Husaynga taqdim qilganini ta’kidlaydi. Sulton Husaynni adolatli hukmdor sifatida ta’riflab, “Badoye’ ul-afkor fi sanoye’ ul-ash’or” uning e’tibori bilan yaratilganini ma’lum qiladi.

Mumtoz poetika ilmiga bag‘ishlangan ushbu asarda mumtoz she’r nazariyasi borasida bahs yuritiladi. Adabiy tur va janrlar, ularning o’ziga xos xususiyati, badiiy san’atlar tavsifi asar mohiyatini belgilab bergan. Asar 1488-1489-yillar oralig‘ida yaratilgan. “Badoye’ ul-afkor”ning matni olim R.Musulmonqulov tomonidan Moskvada e’lon qilingan. Ushbu nashrga asarning faksimel nusxasi ham ilova qilingan. Keyinchalik sharq mumtoz poetikasiga oid tadqiqoti uchun ushbu asarni alohida tadqiq etgan. Olimning “Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika” asarida “ilmi segona” tarkibiga kiruvchi aruz, qofiya va ilmi bade’ga oid X-XV asrlarga oid manbalar tadqiqot obyektiga aylantirilgan.

Husayn Voiz Koshifiy asar so‘zboshisida ushbu asar mumtoz she’r ilmi, nazariyasi, janrlar, she’r qismlari, badiiy

san’atlar, qofiya ilmi haqidagi asar ekanligiga urg‘u berib ketadi. Koshifiy she’rshunoslikda bu ilmning o‘rni katta ekanligini alohida ta’kidlab, qofiya ilmi, unsurlar, harakatlar qofiya tizimining mukammal bo’lishiga zamin yaratishini alohida ta’kidlaydi. Koshifiy risolani yaratishda o’zigacha yaratilgan barcha ilmiy manbalar bilan tanish bo‘lgan. Ularning uslubini davom ettirgan holda “Badoye’ ul-afkor” asarini yaratgan. Garchi asarda ularning nomlari keltirilmagan bo‘lsa-da, san’atlar ketma-ketligi, namunalar Koshifiyning mumtoz poetika ilmiga bag’ishlangan forsiy manbalar bilan tanish bo‘lganligini ko’rsatadi.

“Badoye’ ul-afkor” asari muqaddima, ikki bob va xotima qismdan iborat bo‘lib, boblar ma’lum tartib asosida she’r qismlari, janrlari, badiiy san’atlar haqida ma’lumot beradi. Muqaddima 4 fasldan tarkib topgan. Koshifiy fasllarni taqdim qilishda o‘ziga xos uslubga tayangan: har fasl so’ngida maxsus ikki qismli “Nukta” va “Foyda” sarlavhasi ostida izoh qismni taqdim etgan. Dastlabki fasl “She’r ta’rifi” haqida bo‘lib, she’rning o‘ziga xos xususiyatlari, yozilish tartibi xususida batafsil ma’lumot beriladi. Ikkinchi fasl “She’r na’vlari” xususida bo’lib, Koshifiy umumiy xususiyatga ega bo’lgan she’r shakllarini bir nom ostida birlashtiradi. Uchinchi faslda “Dar bayoni aqsomi she’r” sarlavhasi bilan qofiya va shakl jihatidan bir umumiy xususiyatga ega she’r shakllari haqida ma’lumot beriladi.

Husayn Voiz Koshifiy asarning Xotima qismida qofiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlarni taqdim etadi. Bu qismda g‘azal va qasida janriga oid she’riy asarlar to‘liq shaklda keltirilgan bo‘lib, ba’zi o’rinlarda qasida va g‘azal baytlari bilan tanishtirish asnosida qofiya harflari, harakatlari va qofiya ayblari xususida ma’lumot keltiriladi. Keltirilgan bu ma’lumotlarning aksariyati baytlar misolida tushuntiriladi. Koshifiy “Yakunlovchi qismning xulosalari” sarlavhasi ostida dastlab bir raqami ostida VII asrning mashhur notiqi Imom Hiraviydan qasida keltiriladi.

Ayo zi bahri tafohur myxadaroti sepehr,

Hamisha dar harami hurmate tu, karda sujud!

Sabab vujud tu bud, ar na charh vorunkor

Nayofaridi xud Vojib-al vujud, vujud.

Undan so‘ng qofiya harakatlari nomlarining barchasi aks etgan, mumtoz qofiyaga oid fors tilidagi risolalarning deyarli barchasida keltirilgan bayt taqdim qilinadi.

Rass-u ishbo-u, hazv-u tavjih ast;

Boz majro-yu bad azust nafoz.

Ma’lumki, qofiya ilmi nazariyasiga ko‘ra qofiya harakatlari (oltita)sifatida rass, ishbo’, hazv, tavjih, majro, nafoz keltiriladi. Ularning har biri qofiya harflari bilan yonma-yon joylashadi. “Badoye’ ul-afkor”da bu harakatlar haqida, ularning o‘rni va joylashuvi borasida batafsil ma’lumot keltirilmaydi. Asarning keyingi qismlarida g‘azal, qasida, qit’a, ruboiy janriga oid she’riy parchalar to‘liq holatda taqdim qilinadi. Bu she’riy asarning aksariyati Kamol Xo‘jandiy qalamiga mansub bo‘lib, Koshifiy Kamoliddin Xo’jandiyning badiiy jihatdan mukammal g‘azal va qasidalarini tanlab olgan. Keyingi qismlarda qofiya ayblari keltiriladi. Ayni o’rinda Husayn Voiz Koshifiy bu sohaning etuk mutaxassisi sifatida qofiya harf va harakatlardagi ayblarni (ixtiloflar) arab va fors tili she’riyati asosida alohida izohlagan. Olim o‘zigacha yaratilgan risolalardagi nazariy ma’lumotlarni qiyosiy o’rgangan. Qofiyadagi ixtiloflar xususida to‘xtalganda, arab va fors adabiyotidagi farqli jihatlarni ko‘rsatadi. Qofiya nazariyasi oid fors tilidagi muhim manbalardan biri Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo’jam” asariga murojaat qiladi. “Badoye’ ul-afkor”dagi nazariy qarashlarning tamal toshi sifatida “Al-mo’jam”dagi ma’lumotlarga tayanadi.

Arab she’rlarida esa majro o‘rtasidagi farq iqvo deyiladi. Fors sheriyatida majro o‘rtasidagi tafovut ko‘proq uchraydi. Iqvo mohiyatan ipning burilishidir. Va hable muqavviy (kuchaytiruvchi ip) deb shunday arqonga aytadilarki, uning burilishi sust va zaif boladi; hazv yo tavjih harakatidagi farqli holat qofiyada kelganda, unga iqvo deyiladi. Koshifiy qofiya ayblarini amaliy jihatdan baytlar misolida tushuntiradi.

Az gussai hijroni tu dil pur doram;
Payvsta, az on dida ba xun tar doram.

Baytdagi “doram” so’zi radif, “pur - tar” so’zlari o‘zaro qofiyadosh so’zlar sanaladi. Qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi “r” undoshi raviy sanalsa, raviydan oldingi harakat hazv sanaladi. E’tibor qilinsa, raviydan oldingi tovushlar turlicha. Bu holat qofiya ilmida kamchilik – ayb sifatida e’tirof etilib, iqvo nomi bilan yuritiladi.

Koshifiy “Badoye’ ul-afkor” asarida arab va fors she’riyatidagi mumtoz qofiyaga bo‘lgan munosabatlardagi farqli jihatlarni ham ko’rsatib o‘tadi. Xususan, qofiya ayblaridan biri sinod haqida ma’lumot berish chog’ida ayni holat ko’zga tashlanadi. Sinod arab sheriyatida hazv va ta’sisning ixtiloflidir. Fors she’riyatida esa ridfning ixtiloflidir.

Kuni noxush, ba mo bar zindagoniy,
Agar az mo dame duri guziniy.

Baytdagi qofiyadosh so‘zlarga e’tibor berilsa, raviy sifatida n tovushi olinsa, raviydan oldin joylashgan “i - o” unlilari - cho‘ziq unli ridf sanaladi. Koshifiy ayni baytdagi ridfdagi ixtilof sifatida fors she’riyatidan namuna keltiradi. Va qofiya ayblari o‘rtasida sinodning (ridflar o‘rtasidagi ixtilof) bo‘lishi xunuk ekanligi ta’kidlaydi. Chunki qofiya ayblarining aksariyatida qofiya harakatlari ixtilofga uchrasa, sinodda qofiya harfi ixtilofga uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor” asari mumtoz poetika ilmiga bag‘ishlangan muhim manbalardan biridir. Risola tarkibidagi ilmi qofiyaga oid ilmiy-nazariy fikrlar mumtoz matnni to‘g‘ri sharhlash va tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Jomiy. Risolai qofiyai Mulla Jomiy. Kalkutta, 1867.
2. Voxid Tabrizi. Djam i muxtasar. Kriticheskiy tekst, per. I primech. A. Ye Bertelьsa. – M.: Nauka, 1959.
1. Kamal ad-din Xusayn Va-iz Kashifi. Badai-al-afka- fi san-i al-ash’ar (Novыe mыsli o poeticheskom iskusstve) Izdanie teksta, predislovie, primechaniya i ukazateli R.Musulьmankulova. – M.: Nauka, 1977. Koshifӣ Kamoluddin Husayn Voizi Sabzavorӣ. Badoe’u-l-afkor fӣ sanoe’i-lash’or. Virosta va guzordai Mirҷaloluddini Kazzozӣ.-Tehron: Nashri markaz. 1369.– 387 s.
3. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mu’jam fi ma’oyiri ash’oru-l-ajam. - Dushanbe: Adib, 1991. - Sah. 161.
4. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. - T.: Xazina, 1996.

AHMAD TABIBIY “MUNISU-L-USHSHOQ” DEVONINING QO‘LYOZMA NUSXASI HAQIDA

О РУКОПИСИ ДИВАНА АХМАДА ТАБИБИ «МУНИСУ-Л-УШШАК»

ABOUT THE MANUSCRIPT OF AHMAD TABIBI'S "MUNISU-L-USHSHAQ" DIVAN

Ш.Н.Амонов- ТГУУЯЛ имени Алишера Навои

Аннотация: Есть две рукописи «Мунису-л-ушшак» Ахмада Табиби. В данной статье представлена информatsiя об экземпляре этого девана, который хранится под номером 6226.

Ключевые слова: Ахмад Табиби, рукопись, девон, «Мунису-л-ушшак», фонд, поэт, поэма, источник, текст

Annotation: There are two manuscripts of Ahmad Tabibi's "Munisu-l-ushshaq". This article provides information about the copy of this divan, which is stored under number 6226.

Keywords: Ahmad Tabibi, manuscript, divan, “Munisu-l-ushshaq”, fund, poet, poem, source, text.

Annotatsiya: Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonining ikkita qo‘lyozmasi mavjud. Mazkur maqolada ushbu devonning 6226-raqami bilan saqlanayotgan nusxasi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Ahmad Tabibiy, qo‘lyozma, devon, “Munisu-l-ushshoq”, fond, shoir, she’r, manba, matn.

O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonining ikkita qo‘lyozmasi 6226 va 3461-raqamlari bilan saqlanadi. Bulardan 6226-raqamli qo‘lyozma “Munisu-l-ushshoq”ning mukammal varianti hisoblanadi. Quyida devonning mazkur nusxasi (6226-raqamli manba nazarda tutilmoqda – Sh.A.) haqidagi ma’lumotlar beriladi.

Ushbu qo‘lyozma manba qalin qora muqovada bo‘lib, muqova ustida ham oxirida ham 3 tadan unvon bor. Mazkur manba Ahmad Tabibiyning o‘z devonlari uchun yozgan maxsus debochasi bilan boshlanadi. 1[b] -sahifa o‘rtasida qizil siyoh bilan *“Debochayi Tabibiy”* deb sarlavha qo‘yilgan. So‘ng *“Bismillohir-Rahmonir-Rahim”* bilan debocha matni keltirilgan. Debocha matni 9[a] -sahifada tugaydi. Devon matni boshdan oxirigacha avval to‘q ko‘k siyohda, so‘ng tilla rangli ramka ichiga olingan. Ayrim sahifalarda poygirlar bor. 9[b] va 10[a] -sahifalar bo‘sh qoldirilgan. 10[b] -sahifada qizil siyohda *“Devoni Tabibiyi turkiy musammo ba Munisu-l-ushshoq”* sarlavhasi bor. So‘ng pastda *“birlanchi safha”* va *“Bism”* degan yozuvlar bor. So‘ng g‘azallar qizil siyoh bilan raqamlangan holda ko‘chirilgan bo‘lib, birinchi g‘azal:

E*y vujudingg‘a emas zohir zamoni ibtido,*
Uylakim ermas ongo mavjud vaqti intiho, –

matla’si bilan boshlanadi.

G‘azallar 170[a] -sahifadagi 607-raqamdagi:

Bahoroso jamoling to namoyon o‘ldi gulzori,
Oning yuz ishtiyoq shavq birla bo‘ldi gulzori,

– matla’li g‘azal bilan yakunlanadi.

Shu sahifadagi mustazodlar bilan devon matni davom etadi. Mustazodlar ham qizil siyoh bilan sarlavhalanib, raqamlanib, shoirning uchta mustazodi yozilgan. So‘ng 172[a] sahifadan 221[b] – sahifagacha Tabibiyning musammat she’rlari ko‘chirilgan. 172[a] -sahifada murabba’ deb qizil siyoh bilan raqamlangan uchta murabba’ keladi. Birinchi murabba’ 10 band, ikkinchi murabba’ 9 band, uchinchi murabba’ 18 banddan iborat. Murabba’lar 175[a] -sahifada yakunlanadi va shu sahifadan Tabibiyning o‘z va o‘zga shoirlar g‘azallariga bog‘lagan 53 ta muxammasi ko‘chirilgan. Birinchi muxammas *“muxammasi Tabibiy g‘azali Ogahiy”* degan sarlavha bilan keladi. So‘ng 176[a] -sahifada shoirning ikkinchi muxammasi *“muxammasi Tabibiy g‘azali Feruz”* sarlavhasi bilan keladi. Qolgan muxammaslar esa quyidagi tartibda keladi: *“muxammasi Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammasi Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Navoiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Fuzuliy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Fuzuliy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Feruzshohiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Munis”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Feruz”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Amir”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Feruzshohiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Feruzshohiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Navoiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Feruz”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Navoiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Amir”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Sultoniy”*, *“muxammasi Tabibiy g‘azali Feruzshohiy”*, *“muxammasi Tabibiy g‘azali Navoiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Munis”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Navoiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Ogahiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Munis”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Mirzo”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Ravnaq”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Rojiy”*, *“muxammas Tabibiy”*, *“muxammas Tabibiy g‘azali Xayoliy”, “muxammas Tabibiy g‘azali G‘ulomiy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Fuzuliy”, “muxammas Tabibiy”, “muxammas*

Tabibiy g‘azali Adliy”, “muxammas Tabibiy”, “muxammas Tabibiy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Adliy”, “muxammas Tabibiy g‘azali G‘ulomiy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Adliy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Adliy”, “muxammas Tabibiy g‘azali fuyuzot”, “muxammas Tabibiy g‘azali Xon”, “muxammas Tabibiy g‘azali Munis”, “muxammas Tabibiy g‘azali Rojiy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Rojiy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Ma’oliy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Nadimiy”, “muxammas Tabibiy g‘azali Balig‘o”, “muxammas Tabibiy g‘azali Fuzuliy”. Muxammaslar 213[a]-sahifada yakunlanib, shu sahifadan 218[b] -sahifagacha *“musaddasoti Tabibiy”* sarlavhasi bilan shoirning ettita musaddasi ko‘chirilgan. Birinchi musaddas – 8 band, ikkinchisi – 7 band, uchinchisi – 7 band, to‘rtinchisi – 7 band, beshinchisi – 7 band, oltinchisi – 7 band, ettinchisi – 6 band, jami 49 band musaddas berilgan.

218[b]-sahifada o‘n uch banddan iborat musabba’ ko‘chirilgan bo‘lib, ushbu ettilik she’r:

E*y ko‘ngul, doim tuzar rasmi adolat xonimiz,*
Qilg‘amiz qurbon onga har dam dil ila jonimiz,
Kim oni tutsun g‘ariqi bazl ila ehsonimiz,
Qolmadi bir zarra asrida oning armonimiz,
Fikri ash’or aylabon sidq ila midhat xonimiz,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz – bandi bilan boshlanib, 220[a]-sahifada:
To Tabibiy zor ham topib farahlar behisob,
Xizmatig‘a aylabon jon birla sa’y irtikob,
Bo‘lg‘ali lutfu inoyotidin damodam komyob,
Axtarib doim zamiri daftarini bob-bob,
Rishtai nazm uzra cheksun ro‘zu shab durri xushob,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizning sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizning davronimiz – tarzida yakunlanadi.

220[b] -sahifada etti banddan iborat “*Ohkim, kin aylabon man xastag‘a yor, ey ko‘ngul*” misrasi bilan boshlanuvchi musamman, 221[b] -sahifadan besh banddan iborat “*Ikki olam mulki bo‘lmishdur sanga joyi makon”* mutassa’ (to‘qqizlik) she’r ko‘chirilgan. Shu sahifada *“Oshiq ishi oh, zor ilandur, Ham diydai ashk bor ilandur”* misralari bilan boshlanuvchi to‘rt bandlik muashshar berilgan.

223[a] - sahifadan 224[a] –sahifagacha besh bandli (birinchi band band – 14 misra, ikkinchi band – 16 misra, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi bandlar – 14 misradan iborat) tarje’band matni keladi. 224[a]-sahifada “birlanchi masnaviy”, 225[b]-sahifada “ikilanchi masnaviy”, 227[a]-sahifada “uchlanchi masnaviy”, 229[a]-sahifada “to‘rtlanchi masnaviy”, 231[a]-sahifada “beshlanchi masnaviy”lar ko‘chirilgan.

Qo‘lyozmaning 233[a] -sahifasidan “ruboiyoti Tabibiy” matni boshlanadi.

Jami 143 ruboiy keltirilgan. Ruboiylar qizil siyohda raqamlangan bo‘lib, 245[a]-sahifada tugaydi. 246[b] va 247[b]-sahifalarda ikkita qasida matni mavjud. Ularning birinchisi 42 bayt (84 misra), ikkinchisi 30 bayt (60 misra)ni tashkil qiladi. 247[b]-sahifadan esa “g‘azali Tabibiy shirin shakar” sarlavhasi bilan shoirning oltita mulamma’ g‘azali ko‘chirilgan.

Qo‘lyozmaning 249[a] sahifasida “1-varsoqi”, 249[b]-sahifasida “2-varsoqi” sarlavhasi bilan ikkita she’r ko‘chirilgan. Varsoqilar to‘rtlik shaklida bo‘lib, birinchisi 9 band, ikkinchisi 8 banddan iborat. Devon 250[b]-sahifada yakunlanadi. Bu manba “Munisu-l-ushshoq”ning mukammal qo‘lyozmasi hisoblanadi.

6226-raqamli mazkur qo‘lyozma quyidagi kolofon bilan yaunlanadi:

“Sayid Muhammad Rahim Alhamdu val minna hazrat zilli as-Subhon xalifat ur-Rahmon boisi alaman val amon alhoqon va sulton ibn Sulton Abul Muzaffar val Mansur Abulg‘oziy Bahodirxon Soniy holadallah taoliy mulukuhu va davlatuhu va zayyada umruhu ul hazratning farmoni oliylari bila bu faqir al haqir kasir al tafsir Muhammad Ya’qub devon mulaqqabi ba Xarrot bin usto Qurbonniyoz Xorazmiy devoni Tabibiyni bir ming uch yuz yigirma ettilanchi yil mohi ramazonning yigirmalanchisi chahorshanba kuni yozib itmomg‘a etkurdi, muvofiq tovuq yili 1327”

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiy ijodiy merosi, shoirning turkiy va forsiy

devonlari haligacha to‘liq ilmiy tadqiq etilgani yo‘q. Shoirning butun boshli devonlarini nashrga tayyorlash, shu asosda, shoir ijodining milliy adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rnini belgilash echimini kutayotgan ilmiy muammo sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi №**11499, №9494, №12561, № 12561, №**1134, №3460, №3461, 2662 inventar raqamli qo‘lyozma manbalar.
2. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi 8989 inventar raqamli toshbosma manba.
3. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Хоразм-Урганч. 1992.
4. Ходим. Хоразм навозандалари. Тошкент. “Tafakkur qanoti”, 2011.
5. Аҳмад Табибий. Танланган асарлар. Тошкент. Бадиий адабиёт, 1968.
6. Қосимов Б. Излай-излай топганим. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1983.
7. Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. Тошкент, Фан, 1978

TO‘LEPBERGEN KAIPBERGENOVNING “NARIGI DUNYOGA, BOBOMGA XATLAR” BADIASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ТОЛЕПБЕРГЕНА КАЙПБЕРГЕНОВА "ПИСЬМА НА ТОТ СВЕТ, ДЕДУ"

THE COVERAGE OF ECOLOGICAL PROBLEMS IN TULIPBERGEN KAIPBERGENOV' WORK "LETTERS TO THE AFTERLIFE TO MY GRANDFATHER"

F.A.ASHUROVA, o‘qituvchi, Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya: Global ekologik muammolar paydo bo‘lguniga qadar inson tabiatga ustaxona sifatida qarab, uni bo‘ysindirish yo‘lida bor kuchini ayamadi. Oqibatda bugungi kunda insoniyat kelajagi xavf ostida qolganligini, o‘zining tabiatdagi o‘rni va hayotining mazmuni bevosita tabiatni asrash bilan bog‘liqligini anglab etmoqda. Ushbu maqolada T.Kaipbergenovning “Narigi dunyoga, bobomga xatlar” badiasida ekologik muammolar qanday yoritilganligi yuzasidan fikrlar bildirib o‘tilgan. Orol dengizi muammolari, mazkur muammolarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqida o‘quvchiga ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik muammo, inson, tabiat, Orol fojeasi, ekin maydonlari, hayvonot dunyosi, genofond, markaziy nerv tizimi, kasalliklar.

Аннотация: До появления глобальных экологических проблем человек смотрел на природу как на мастерскую и делал все возможное, чтобы ее подчинить. В результате человечество сегодня осознает, что его будущее находится под угрозой, что его место в природе и смысл жизни напрямую связаны с охраной природы. В данной статье рассматрены вопросы экологии затронутые автором в «Письмах на тот свет, деду». Читатель знакомится с проблемами Аральского моря, причинами и последствиями этих проблем.

Ключевые слова: Экологические проблемы, человек, природа, Аральская трагедия, пашни, животный мир, генофонд, центральная нервная система, болезни.

Annotation: Before beginning of global problems Man looked at nature as a workshop, did not spare his strength to curb it. As a result, it is understandably that nowadays future of man is in danger, his place in natural environment and his purpose in life is to protect the nature. In this article the ideas about how the ecological problems described in works of T.Kaipbergenov are given. The examples are given about problems of Oral sea, the reasons

of appearing of these problems and their aftermath from Writer’s novel also art work “Narigi dunyoga, bobomga xatlar” (Letters to the afterlife to my grandfather).

Key words: Ecological problem, man, nature, Oral tragedy, crop field, animal world, genepool, central nervous system, diseases.

Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Chunki katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o‘zlashtirildi, dorilar bilan g‘itlandi, o‘rmonlar qirqildi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda o‘rmon yong‘inlari, chang bo‘ronlari, toshqinlar va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bular tabiatning tabiiy muvozanatiga putur etkazmasdan qolmasligi bugun barchamizga kunday ravshandir.

Ekologiya biologiya doirasidan chiqib, boshqa fanlarga integrasiyalashgan, fanlararo, insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi fanga aylandi. Ekologiya “inson — tabiat” muammosini tushunish yo‘lida uzoq va murakkkab yo‘lni bosib o‘tdi. Global ekologik muammolar paydo bo‘lguniga qadar inson tabiatga ustaxona sifatida qarab, uni bo‘ysindirish yo‘lida bor kuchini ayamadi. Oqibatda insoniyat kelajagi xavf ostida qolganligini, o‘zining tabiatdagi o‘rni va hayotining mazmuni bevosita tabiatni asrash bilan bog‘liqligini kun sayin anglab etmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida ilk ekologik muammo va tushunchalar 1950-yillardan, Orolning qurishi oqibatida yuzaga kela boshlagan. Bu haqida olimlarning OAVlaridagi maqolalari va badiiy asarlar orqali bilimga ega bo‘lishimiz mumkin.

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi To‘lepbergen Kaipbergenov asarlarida ham ekologiya bilan bog‘liq muammolarning yoritilishi keng o‘rin olgan.

Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra Orol dengizining qurishi Orolbuyi mintaqasida ijtimoiy ekologik vaziyatning og‘irlashishiga olib keldi. Har yili Orolning qurigan tubidan millionlab tonna tuz va chang ko‘tarilib, juda katta hududda havo, tuproqlarning ifloslanishiga olib kelmoqda. Aholi o‘rtasida kasallanishlar va o‘lim darajasi oshib bormoqda.

To‘lepbergen Qaipbergenov XX asrning ulkan yozuvchilaridan biri sanaladi. Adibning qoraqalpoq xalqining bir necha asrlik hayotini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan tarixiy romanlari dunyoga ma’lumu mashhur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 20 may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyobonida yozuvchi, shoir va ziyolilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Olib borilgan ishlar davomida adib dunyoning o‘nlab mamlakatlarida bo‘lib, xalqaro minbarlarda turib Orol fojeasi bilan bog‘liq fikrlar bildirganligining guvohi bo‘ldik. Ushbu maqolada T.Kaipbergenovning asarlarida ana shu muammolar qanday yoritilganligi yuzasidan biroz fikrlar bildirib o‘tmoqchimiz.

Adibning “Narigi dunyoga. bobomga xatlar” badiasida Orol dengizi muammolari, mazkur muammolarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqida o‘quvchiga juda ko‘p ma’lumotlar berib o‘tilgan. Adib asar orqali o‘quvchiga bir vaqtning o‘zida ham tarixiy, ham ilmiy ma’lumotlar beradi va falsafiy fikrlar orqali kelajak haqida o‘ylashga majbur qiladi. Agar yozuvchining tarjimai holiga e’tibor qaratilsa, u nafaqat ijodkor, balki atoqli jamoat arbobi sifatida ham xalq orasida mashhur bo‘lganligiga guvoh bo‘lasiz. Adibni ko‘rgan, uning asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan insonlar To‘lepbergen Qaipbergenov dunyoning o‘nlab mamlakatlarida bo‘lib, xalqaro minbarlarda Orol fojeasi haqida bong urganligi, umrining oxirigacha xalq dardi bilan yashaganligini, ulug‘ yozuvchidan bizga juda katta ijodiy meros qolganligini aytadi. Jumladan, adibning zamondoshlaridan biri bo‘lgan Rahimjon Otayev asarga yuksak baho berib: *“To‘lepbergen Kaipbergenov O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida yozib,*

kamina jadal ravishda o‘zbek tiliga tarjima qilgan navbatdagi asar Orol dengizi haqidagi “Narigi dunyoga. bobomga xatlar” badiasi bo‘ldi. Bu antiqa asar dastlab 1993-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida “Qoraqalpog‘istonliklar ikkinchi vataniga ko‘chmoqchi” degan o‘ziga yarasha antiqagina nom ostida e’lon qilingan edi. Mazkur nom donishmand muallifning yanada donishmandroq bobosi aytgan bir hikmatli gapga asoslangan edi: “Qoraqalpoq xalqi uchun ikki vatan bor, biri – hozirgi Qoraqalpog‘iston erining usti. Ikkinchisi ayni shu erning osti!” “O‘lsak o‘lamizki, lekin shu Vatan dod desang ham, voy desang ham bizniki!” degan po‘skalla gapning indallosi, topqirlik bilan ta’sirchan shaklda aytilgan chinkamiga hikmatli gap edi bu!”,- deb aytadi.

Orol muammosini o‘zining dardi deb hisoblagan adib haqida, uning yuksak minbarlarda turib so‘zlagan nutqlarini esga olib *“Yozuvchi qanday unvon yoki lavozimga ega bo‘lmasin, hamisha xalq manfaati uchun xizmat qildi. 1989-yilda Moskva shahrida sobiq ittifoq xalq deputatlarining I syezdida “Orol yashashi zarur!” degan shiorni ko‘tarib, jamoatchilikni o‘sha vaqtlarda yuz berayotgan ekologik fojeaning oldini olishga chaqirdi. Uning otashin so‘zlari xalq vakilarini larzaga solgan bo‘lsa kerak. Shuning uchun akademik Saxarov: “ ...Deputat T.Kaipbergenov Orol dengizi haqida so‘zladi. Bu dardli holat o‘zining ko‘lami va uzoq muddatga cho‘zilishi jihatidan jahonshumul fojia hisoblanadi”,-* deydi Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Kengesboy Karimov.

Darhaqiqat, adibning “Narigi dunyoga, bobomga xatlar” asarini o‘qir ekansiz ekologik fojealar bilan bog‘liq juda ko‘plab ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

Olimlarning fikriga ko‘ra har yili Yer shari bo‘yicha tuproqning sho‘rlanishi natijasida 200-300000 ga sug‘oriladigan erlar ishdan chiqadi.

Tuproq ifloslanishi pestitsidlardan noto‘g‘ri foydalanish tufayli kelib chiqadi.

Yozuvchi ushbu kimyoviy moddalardan sobiq SSSR davrida qanday foydalanilganligi va uning oqibatlari haqida quyidagilarni bayon qiladi.

Sobiq SSSRda har gektar ekinzorga o‘rtacha 30 kilogrammdan pestitsid va gerbitsid sepilgan bo‘lsa, bu raqam O‘rta Osiyoda – 500-600 kilogrammdan, Orolbo‘yida esa, qariyb bir tonnadan to‘g‘ri keladi. Boshqa zaharli kimyoviy moddalar sobiq SSSRda har gektar erga o‘rta hisobda 1-2 kilogrammdan, O‘rta Osiyoda – 34,4 kilogrammdan, Orol bo‘yida esa 50 kilogrammdan sepilgan. Amudaryo va Sirdaryoga oqizilgan oqavalar tufayli ichimlik suvi tarkibidagi pestitsid va gerbitsidlar miqdori chegaradagidan bir necha bor oshib ketgan. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Qoraqalpog‘iston xalqining ichib o‘tirgan suvidan ichsangiz, nima desam ekan, meni ma’zur tutasiz-u, buni ikki-uch kun avval boshqa birov ichmaganmi mobodo, degan xayolga borsangiz ehtimol. Qoraqalpog‘iston dalalariga sepilgan kimyoviy moddalarning 12-16 foizi chorva yaylovlariga tushgan. Ob-havoning o‘zgarishiga bog‘liq holda qo‘ra-qo‘tonda boqiladigan chorvani har xil hasharot-u yuqumli kasalliklardan asrash maqsadida xlorafos va boshqa dorilar bilan dorilanadi. Bunday dorilashdan keyin, deylik, sigirning suti 24 foizga kamayibgina qolmay, suti, yog‘i, go‘shtida xlorafos kamida ikki yil saqlanib turadi.

Orol dengizining quriy boshlashi iqlimga ham ta’sir ko‘rsatdi. Iqlim yanada kontinentallashib, qishqi harorat o‘rtacha ikki gradusga pasaydi, yozgi harorat esa ikki gradusga ko‘tarildi. Buning natijasida sovuq kunlar erta tushib, ekinlarning pishib etilishi kechika boshladi.

“Yildan yilga kuz ertaroq tushadigan, bahor esa aksincha, kechroq kiradigan bo‘lib bormoqda. Havoning tabiiy aylanishi maromi buzildi. Avvallari dengiz ustiga ko‘tariladigan iliq havo oqimlari Arktikadan keladigan sovuq shamol oqimlariga tabiiy to‘siq edi. Bu iliq havo oqimining ko‘lami toboro torayayotgani sabab, endi sovuq oqim, o‘z ishini qilib, bora olgan joyigacha bormoqda”,- deya dengizning qurib borishi iqlim o‘zgarishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganligini aytadi.

Mazkur ekologik muammo oqibatida tug‘ilish, ko‘payish bilan bog‘liq quyidagi ma’lumotlarni sanab o‘tadi. *“Agar faqatgina 1978-yilda Qoraqalpog‘istonda 716 nafar “Qahramon ona” yangidan paydo bo‘lgan bo‘lsa, 1991-yilda ular soni atigi 187 ga tushib qoldi. 1992-yildan boshlab esa “Qahramon ona” unvoni mutlaqo berilmaydigan bo‘ldi. Berilgan taqdirda ham, endi Qoraqalpog‘istondan “Qahramon ona” chiqishi qiyindir-ov! Chunki bolalar o‘limi ko‘p, onalar kamqon... Bu yog‘ini so‘rasangiz. Hattoki yangi tug‘ilgan chaqaloqning sochida ham fosfor, temir, marganes, qo‘rg‘oshin, magniy kabi zararli unsurlar miqdori behad oshib ketyapti. Odam jismida og‘ir ma’danlarning paydo bo‘lishi qon ko‘payish va qon aylanish jarayonini susaytiradi, markaziy nerv faoliyatini bo‘shashtiradi. Suyaklar va tomirlarda ham har xil kasalliklar keltirib chiqaradi. Orolga yaqin yashaydigan xalqlar orasida yangi tug‘ilgan har besh nafar chaqaloqdan bir nafarida markaziy nerv tizimi faoliyati izdan chiqqan....*

Orol dengizi qurib borishi Orolbo‘yida yashab kelayotgan xalq orasida turli kasalliklarning kelib chiqishi va xaddan tashqari ko‘payishi bora-bora qoraqalpoq xalqi genofondiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganligini statistik ma’lumotlar bilan birma-bir tushuntirib beradi.

So‘nggi o‘n yil ichida Orolbo‘yi xalqlari orasida, xususan Qoraqalpog‘istonda qamqonlik kasali 550 barobar, gipertoniya 60 barobar, tug‘ma yurak xastaligi 25 barobar ko‘paydi. Hatto siydik yo‘llarida tosh paydo bo‘lish hollari 4-5 barobar. Sil ikki barobar oshdi. Yoshlarning jismoniy balog‘atga etish jarayoni juda xatarli tus oldi. Ularning o‘rtacha vazni talab darajasidagidan 15-35 kilogramm kam, bo‘ylari 10-45 santimetr qisqa, har 5 o‘spirindan bittasi harbiy xizmatga mutlaqo yaroqsizdir. Tug‘ish yoshidagi ayollarning 98 foizi kamqonlik kasaliga mubtalo. Sobiq SSSRni qo‘ya turib, O‘rta Osiyo jumhuriyatlarini taqqoslaganda ham Qoraqalpog‘istonda oshqozon-ichak kasalliklari ulardagidan to‘rt barobar ko‘proq.

Eng dahshatlisi – bularning barchasi birgalashib qoraqalpoq xalqining genofondi, xalq sifatida yashashini ta’min etuvchi irsiy imkoniyatllarga jiddiy tahdid solmoqda. Xalqning ertasi qanday bo‘lishi qorong‘u....

Bir fojiani ikkinchi fojiaga qiyoslash hamisha nisbiy,- deydi yozuvchi - chunki har birining o‘z sabablari-yu oqibatlari bor. Masalan, Chernobil va Orol fojialarida shunday. Ayni chog‘da bu fojialarning o‘xshash jihatlari ham ko‘p: har ikkisi bir guruh odamlarning ochofatligi-yu ikkinchi guruhning loqayd-beparvoligi tug‘dirgan fojia” -deya baholab, falokatlar kelib chiqishining asosiy sababchisi insonning o‘zi ekanligi afsus va nadomatlar bilan aytadi.

Tabiatga nisbatan hurmat va e’tibor bilan qaraydigan insonlar, uning har bir qarich erida bo‘layotgan ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni sezadi, kuzatadi, tabiatga yordamga boradi, ya’ni yiqilgan butani tiklaydi, kasal hayvonni davolaydi, iflos suvni tozalashga harakat qiladi, yong‘inni o‘chiradi va hokazo. Insonning bunday ijobiy harakatlari uning koinotdagi o‘rni va shu erni muhofaza qilishga qodirligidadir. Hozirgi kunda jamiyat ichida, jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib borayotgan bir davrda, xo‘jalikning turli sohalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, atrof-muhit muhofazasi va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanishga oid chuqur bilimli, ekologik ma’lumotli yoshlarni o‘rta va oliy bilim dargohdarida tayyorlash va tarbiyalash vaqti keldi. Ekologik ta’limning nazariy asosi — atrof-muhit muhofazasiga oid ta’limni bog‘cha, maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida ma’lum o‘quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Bugungi davr har birimizdan mavjud ekologik muammolarni kelib chiqish sabablari, ularni kamaytirishga qaratilgan tashkiliy va texnologik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tabiiy resurslarning sinflanishi va ulardan oqilona foydalanish asoslari haqida bilimga ega bo‘lishimizni talab etmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assableyasining 72-sessiyasida “Ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, qa’tiy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz” nomli nutqida, “Mintaqaning umumiy suv zahiralaridan oqilona foydalanish” borasida,

“Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zahiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘ta olmaymiz”,- deya ta’kidladilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ekologik ta’lim va tarbiyaning asosiy vazifalari va maqsadi insonni tabiat bilan va unda sodir bo‘layotgan voqeliklar bilan qiziqtirish, inson va tabiat o‘rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va echish yo‘llarini, chora-tadbirlarini topish, etarli ekologik bilimlarga ega bo‘lgan holda atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishdir. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Qahramoni To‘lepbergen Qaipbergenovning yuqorida aytib o‘tilgan asari bizga ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqida ilmiy, tasdiqlangan va ayrim statistik ma’lumotlarni egallashimizda yaqindan yordam beradi. Ularni o‘qib o‘rganish, tahlil qilish va targ‘ib etish yoshlar o‘rtasida ekologik ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishda samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.
2. Ekologiya av atrof muhitni muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan nashriyoti”,2009.
3. Imlo lug‘ati. Toshkent-2018-yil.
4. To‘lepbergen Qaipberganov.Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.Toshkent – 2019.

BADIIY MATNDA TARIXIY TERMINLARNING POETIK-ESTETIK QIMMATI

ПОЭТИЧЕСКО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

POETIC-AESTHETIC VALUE OF HISTORICAL TERMS IN LITERARY TEXT

D.M.Jamoliddinova- f.f.d. (DSc), dotsent,
Sh.O.A’zamova –tadqiqotchi,
Qo’qon DPI

Annotatsiya: Maqolada tarixiy terminlarning badiiy matnda qo’llanilish imkoniyatlari xususida fikr yuritilgan.Tarixiy terminlarni matniy qurshovda o’rganish ularning poetik-estetik qimmatini namoyon bo’lishida muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so’zlar: tarixiy terminlar, lingvopoetika, badiiy matn, leksik birlik, eskirgan terminlar, ko’chma ma’no, poetik aktuallashish

Annotation: The article discusses the possibility of using historical terms in the literary text. It is scientifically based that the study of historical terms in the text is an important factor in the manifestation of their poetic and aesthetic value.

Keywords: Historical terms, lingvopoetics, literary text, lexical unit, obsolete terms, figurative meaning, poetic actualization.

Аннотация: В статье рассматривается возможность использования исторических терминов в художественном тексте. Научно обосновано, что изучение исторических терминов в тексте является важным фактором проявления их поэтической и эстетической ценности.

Ключевые слова: Исторические термины, лингвопоэтика, художественный текст, лексическая единица, устаревшие термины, переносное значение, поэтическая актуализация.

Ma’lumki, so’zlar qo’llanish darajasiga ko’ra faol va nofaol kabi turlarga bo’linadi. Nofaol so’zlar bugungi kunda qo’llanilmaydigan, eskirgan so’zlar sanaladi. E.Qilichev qayd etganidek, “Xuddi tirik organizm kabi tildagi so’zlar ham doimiy harakatda bo’ladi. Turmushdagi biror yangi narsa yoki tushunchani nomlash uchun yangi so’zlar paydo bo’ladi. Ayrim so’zlar esa turli sabablarga ko’ra eskirib, kam qo’llanadigan bo’lib qoladi”. [1.B41] Xuddi shunday, terminlar ham leksik birlik sifatida davr o’tishi bilan eskirishi va yoki yangisi hosil bo’lishi mumkin.

Badiiy matnda eskirgan terminlar muallifning uslubiy maqsadi asosida o’z yoki ko’chma ma’nolarida qo’llaniladi. Badiiy asarda eskirgan terminlar ko’proq muayyan davr ruhini berish uchun ishlatiladi. Ba’zan bunday terminlar ko’chma ma’nolarda qo’llanib, kinoya, piching, yumor, hajv kabilarni hosil qilishga xizmat qiladi.

Badiiy matnda terminlar ham poetik aktuallashish imkoniyatiga ega bo’lgan leksik birlikdir.Ular badiiy matnda yozuvchining idiolekti bilan bog’liq holda o’rinlashib, lingvopoetik maqsad hosilasiga aylanadi. Lekin terminlar o’z mohiyatini gap doirasida namoyon eta olmaydi, ularning to’liq reallashishi uchun matniy qurshov zarur. Shuning uchun ham terminlarni matndan ayro holda tahlil etib bo’lmaydi.

“Matn gapdan yirik sintaktik-kommunikativ birlik bo’lib, uni yaratishda matn tuzuvchining maqsadi, matn uchun tanlangan voqelik, uning ko’lami, matn janri kabilar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Matn tiplarining belgilanishi ham ana shu omillar asosida belgilanadi.

Matnda fikr bayon qilishning turli shakllari mavjud bo’ladi: xabar berish, tasvirlash, muallif nutqi, dialog yoki personajlar suhbati kabi. Matnlar orqali moddiy va ma’naviy hayot turli tarzda ijtimoiy, madaniy, umumiy va shaxsiy, badiiy yoki ilmiy tarzda yoritiladi. Shu nuqtai nazardan ular nutqning turli uslublariga xos bo’ladi.” [2.B.5]

Eskirgan terminlar badiiy matnda o’z ma’nosida ham qo’llaniladi. Bunday vaqtda matnga tarixiylik ruhi singdiriladi. Masalan:

Ahmad Maxzum Buxoro madrasalaridagi rasmiy darslarga qanoat qilmay, nujum, handasa va hisobga o’xshash ilmlarni o’rgangan. (S.Ayniy)

Ushbu matnda nujum, handasa, hisob kabi turli fanlar sohasiga oid eskirgan terminlar o’z ma’nosida qo’llangan. Matnni o’qir ekanmiz, xotiramizda o’tmish davrning o’ziga xos lavhalari tiklanadi.

Eskirgan terminlar ko’chma ma’nolarda qo’llanilib, emotsional-uslubiy bo’yoqqa ega bo’lishi mumkin. Masalan:

Qaytdiyu ikki kunda uyga sig’may qoldi. Xuddi rub’i maskunning butun oshubu g’avg’osi boshiga tushgandek. Ko’rinib turibdiki, dardi bor –gaplashadigan kimsasi yo’q. (A.Muxtor)

Ushbu matnda qo’llangan rub’i maskun eskirgan forsiy izofali birikma geografik termin xisoblanib, badiiy matnda ko’chma ma’noda qo’llangan. Mazkur terminning lug’aviy ma’nosi geografik nuqtai nazardan yer yuzasining bir qismi quruqlik va qolgan uch qismi esa suvlik ekanini bildiruvchi ilmiy tushunchaga tengdir. Yozuvchi asar qahramonining ruhiy holatini va tashqi ko’rinishini ifodalash maqsadida bu terminni kiritgan. Go’yoki, yer yuzasining muammolari boshiga tushgandek tashvishli degan holatning orttirma darajasini kitobxonga qabartirib, bo’rttirib ifodalashda termin generator vazifasini o’tagan.

Sof terminlar qatorida kasb-hunar leksikasiga oid eskirgan birliklar ham badiiy matnda ko’chma ma’nolarda qo’llanilishi yoki o’xshatishli qurilmalarni hosil qilib, matnning ta’sir kuchini orttirishi mumkin.

Quyida eskirgan birliklarning badiiy adabiyotda qo’llanilishi bilan bog’liq ayrim holatlarni tahlil qilamiz:

A’lo sortli dostonlar ortgan

She’riyatning qizil karvoni. (E.Vohidov)

Ushbu she’riy parchada sort eskirgan atamasi qo’llangan. Sort atamasi hozirda o’zbekcha nav ekvivalenti bilan almashgan. Lekin ba’zan hali ham so’zlashuv uslubida uning qo’llanilishi uchraydi.

Badiiy asarda muallif nutqi orqali nafaqat asar g’oyasi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar aks etadi, balki personajlar xarakteri, ruhiyati, tashqi olamga bo’lgan munosabati, qiziqishlari, kasb-kori, jinsi haqidagi ma’lumotlar ham bevosita namoyon bo’ladi. Bu jihatdan muallif nutqini til birliklarining ichki imkoniyatlarini namoyish qiluvchi nutqiy birlik hisoblash mumkin.

So’z ustasi badiiy asar yaratar ekan, tilning maxsus birliklaridan, shu jumladan, terminlardan ham qahramonlarning nutqini individuallashtirishda unumli foydalanadi

Ma’lumki, badiiy ijodda har qanday so’z emas, shoirning qalb prizmasidan o’tgan so’zlargina badiiy bo’yoqdorlik, baho munosabati kabi uslubiy-pragmatik xususiyat kasb etadi. Badiiy matnda bunday eskirgan terminlarni ko’plab uchratamiz. Eskirgan terminlar, asosan, tarixiy voqea- hodisalarni real tasvirlash maqsadida ishlatiladi. Bu esa terminlarning uslubiy vosita sifatida qo’llanishini ta’minlaydi.

Masalan:

Muhabbatga dargohing och hech qursa bir bor,

Nahotki ishq xotirasi – misli zindonbon. (A.Oripov)

Keltirilgan misolda o’tmishda mavjud bo’lgan mansablardan birining nomini bildiruvchi zindonbon leksemasi qo’llangan. Eskirgan birlik bo’lgan ushbu kasb-hunar leksemasi yordamida she’riy matnda o’ziga xos o’xshatishli qurilma hosil qilingan. Ya’ni insonning o’z sevgisini pinhon tutishi va uni hech kimga oshkora qilmay o’zida saqlovchi ishq xotirasi zindonbonga o’xshatilgan.

Bu o’rinda ta’kidlash joizki, eskirgan terminlarning badiiy matnda to’g’ri va o’rinli qo’llanilishiga e’tibor qaratish lozim. Aks holda uslubiy g’alizlik yuzaga kelib, terminni o’quvchi tushunishi qiyin bo’ladi.

Tarixiy asarlarda eskirgan terminlar eskilik bo’yog’i bilan ishtirok etib, badiiy tasvirni yanada yorqinlashtiradi. Bunday terminlar tilning diaxron va sinxron aspekti o’rtasida ko’prik vazifasini bajaradi hamda terminlarning tarixiy taraqqiyoti masalasini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, detektiv badiiy asarlarda tarixiy terminlar butunlay o’zgacha tarzda, qahramonlar nutqida jargon sifatida, jamiyat qonunlariga bo’ysunmaydigan, alohida o’zlari tuzgan qoidalar asosida yashaydigan jinoyat olamining vakillari tomonidan qo’llanilib, asarda jinoyatchilarning ma’naviy dunyosini ochib berishga zamin yaratadi. Bunday tarixiy terminlarning yorqin namunasini Tohir Malikning “SHaytanat” asarida uchratamiz:

Qozi shunday deyishi bilan Kesakpolvon uni yoqasidan oldi:

– Isi chiqmasin, buni faqat senu men bilaman. Agar sal nari-beri bo’lsa orqasidan o’zing ham jo’naysan, – Kesakpolvon shunday deb uni bir-ikki silkidi, so’ng yoqasini bo’shatmagan holda, ammo muloyimroq ohangda qo’shib qo’ydi: – Choyxonani o’zing ishongan bolaga topshir. Endi mening yonimda sen yurasan. Qozi mansab pillapoyasidan ko’tarilib, noiblik darajasiga yetgani, bu martabaning bahosi Xumkallaning joni ekanini angladi-yu, xojasiga qulluq qildi.

Keltirilgan parchada qozi, noiblik kabi tarixiy terminlar qo’llangan. Bu ikki termin ham O’rta asrlardagi martaba bildiruvchi yuqori darajadagi mansab xisoblanadi. Jinoyat olamida insonlar ismi bilan emas, balki bajarayotgan vazifasiga qarab laqab bilan nomlanadi. Qozi tarixiy termini hozirgi kundagi sudya lavozimiga to’g’ri keladi. Asardagi jinoyatchiga qozi deb laqab qo’yilishiga sabab, Asadbekka bo’sunmagan mayda jinoyatchilarni shu inson sud qiladi va hukm chiqaradi. Yozuvchi o’tkir kesatiq bilan uning bu lavozimdan noiblik lavozimiga ko’tarilishini oddiygina odamni taqdirini hal qilish orqali erishayotganini ifodalash asnosida jinoyat olamining naqadar dahshatli yozilmagan qoidalari borligini va qanchalik tuban kimsalar ekanligini tarixiy terminlarni kiritish orqali ochib beradi. Qozi lavozimidan noib baland lavozim, chunki, hokimning o’rinbosaridir. Asarning yana bir o’rnida esa Asadbek choyxonani qozixona deb ataydi:

Uni bezovta qilma. Sen bundan buyog’iga yigitlarga ko’z-quloq bo’lib tur, bevoshlik qilishmasin. Avval ham aytuvdim, a? Esingdami? Zamonga qaralaring, noziklashib qoldi. Qozixonangni yopdingmi?

Asarda jinoyat olamining vakillarining nutqida “qirol”, “knyaz” kabi tarixiy terminlar qo’llaniladi. Bu terminlarni berish asnosida, adib, jinoyatchilarning birinchilikka intilishi, o’zlaricha yaratgan chirkin dunyolaridagi shafqatsiz qoidalarni tarixdagi taxt uchun kurashga qiyoslaydi.

“Qirol o’ldi, yashasin qirol!” deganlaridek yangi qirol muammosi uni befarq qoldirish mumkin emasdi. Gap o’ziga mute odamni qirol taxtiga o’tqazishdagina emas. Taxtga kim o’tirsa ham qayirib olishga qurbi yetadi. Bo’ysunishni istamagan yangi qirolga atalgan bittagina o’q to’pponcha o’qdonida zanglab qolmaydi. Xongireyning muddaosi boshqa: Asadbekka vafo qilmagan taxtga lalaymagan odam o’tirishi shart. Siyosatchilar tili bilan aytganda, bu taxtga kurash yo’li bilan borgan ma’qul. Kim aqlliroq bo’lsa, kim rahmdil bo’lmasa, kim raqibi qalbini sug’urib olib chaynab yutishga qodir bo’lsa – o’sha qirol!

Yoki yana bir o’rinda:

Qonundagi o’g’ri shohsupasida o’tirgan, ustozi Zelixon tomonidan “Knyaz” deb erkalangan Xongirey qimorbozlarni azaldan yoqtirmas edi.

Asarda ijodkor Asadbekni xukmdor tarixiy termini bilan atash orqali kitobxonda unga nisbatan ham ijobiy, ham salbiy munosabatlarni uyg’otishga erishadi.

Shaytanat olamidagi kichik bir mamlakat hukmdori Asadbekning taxtiga o’tirish onlari yaqinlashgani sayin Kesakpolvon o’sha suhbatni bot-bot esladi.

Asarda jinoyat olamining to’daboshilari o’zlariga xizmat qiladigan to’dasidagi jinoyatchilarni “a’yon”larim deb ataydi. Tarixiy termin hisoblangan a’yon atamasi qadimda xonnining saroyidagi yuqori martabali, shohga yaqin bo’lgan amaldorlarga nisbatan ishlatilgan. Asarning bosh qahramoni Asadbek jinoyat olamining xukmdori va shu sababli sodiq yigitlarini a’yonlar deb chaqiradi.

Qabr tepasida turib a’yonini haydagan bo’lsa-da, keyinroq «ishqilib adashgan bo’layin, ishqilib boshqa odam bo’lsin», deb umid qildi. Chuvrindining o’limi uni zaharli o’q bilan yaraladi.

Xulosa qilish mumkinki, boshqa lug’aviy birliklar singari terminlar ham til lug’at boyligining taraqqiyotida muhim o’rin tutadi. Davrlar o’tishi bilan ayrim terminlar eskirishi va ularning o’rniga yangi terminlar kelishi mumkin. Bu, albatta, ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog’liq holda kechadigan jarayondir. Eskirgan terminlar tilda o’z ma’nosida ham, ko’chma ma’nolarda ham qo’llana olish imkoniyatiga ega. Eskirgan terminlar o’quvchiga bir tomondan tarixiy voqelikni idrok etishga yordam bersa, ikkinchi tomondan til zaxirasidagi terminlar, garchi eskirgan bo’lsa-da, boxabar bo’lish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qilichev E. O’zbek tilining praktik stilistikasi. **–** Toshkent: O’qituvchi, 1985. **–** B.41.

2.Mamajonov A. Badiiy matnning stilistik xususiyatlariga doir / Filologiyaning dolzarb muammolari va kontrastiv tilshunoslik. Res.Ilmiy-amaliy konf.materiallari **– Farg’ona,** 2018. **–** B.5.

MUSTAQIL VA YORDAMCHI SO‘ZLARNING MUNOSABATI

ОТНОШЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ И ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ

THE RELATION OF INDEPENDENT AND AUXILIARY WORDS

Z.Isaqov – dotsent, Qo‘qon DPI

Annotatsiya. Maqolada so‘zlarni mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga ajratishning umumiy hamda xususiy tomonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z, so‘z shakl, leksema, morfema, so‘z turkumlari, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, kategoriya, yuklama, bog‘lovchi, ko‘makchi, enkliza, delimitatsiya, identifikatsiya, yondosh vazifa, sintaktik vazifa.

Аннотация. В статье раскрыты общие и специфические аспекты расчленения слов на самостоятельные и служебные части речи.

Ключевые слова: слово, форма слова, лексема, морфема, части речи, самостоятельные слова, вспомогательные слова, категория, частицы, союзы, послелог, энклиза, делимитация, идентификация, вторичная функция, синтаксическая функция.

Abstract. General and specific aspects of word classification on independent and official parts of speech are revealed in article.

Key words: word, word form, lexeme, morpheme, parts of speech, independent words, auxiliary words, category, particles, conjunctions, post logs, encloses, delimitation, identification, secondary function, syntax function.

Tilshunoslik tarixida so‘zlarni turkumlarga tasniflash – mustaqil va yordamchi so‘zlarga ajratish juda qadim davrlardanoq boshlangan. O‘sha davrlardan boshlab hozirgacha mustaqil va yordamchi so‘zlar o‘zaro umumiy kategorial ma’noning mavjud yoki mavjud emasligiga qarab farqlanishi an’ana tusiga kirgan [9,15]. Masalan, otlarning umumiy leksik ma’nosi predmetlik, fe’lning umumiy leksik ma’nosi harakat-holat ifodalash, deb belgilab kelinadi. Yordamchi so‘zlarda, darhaqiqat, umumiy leksik ma’no yo‘q, muayyan guruhga kiruvchi yordamchilarning hammasi grammatik ma’no ifodalaydi, deb bo‘lmaydi. Ammo ularda ham muayyan umumgrammatik belgi mavjudligi shak-shubhasiz.

Yordamchi so‘zlarning so‘zlik mavqeini rad etishda tilshunoslar turli jihatlardan yondashadilar. Xususan, A.K.Vasilyeva mantiqiy jihatga e’tibor qiladi. Uning fikricha, so‘z fikrning verbal ifodasi bo‘lib, tushuncha ifodalay olmaydigan so‘z so‘z turkumlari sirasiga kirmaydi [1,74; 7,21]. Bu fikr bir tomondan to‘g‘ri sanaladi, chunki yordamchi so‘zlar tushuncha ifodalamaydi. Yordamchilar fikrni verballashtirishda mustaqil so‘zlardan keskin ortda qolmaydi. Qurilishga Karimjon va Salimjon boradi. // Qurilishga Karimjon yoki Salimjon boradi. Bu o‘rinda bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki fikrning paydo bo‘lishiga yordamchi so‘zlar – bog‘lovchilar vosita bo‘layotgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

Professor A.Nurmonov yordamchi so‘zlarning mavqeini belgilashda til sistemasi tabiatidan kelib chiqib, baho berishga harakat qiladi: *«Yuklama morfemalar urg‘usiz bo‘lib, leksik morfemaga enkliza holida qo‘shiladi. Urg‘u leksik morfemaning oxirgi bo‘g‘inida qolib, yuklama morfemaga o‘tmaydi. Bog‘lovchilar esa bir so‘z shaklini ikkinchi so‘z shakli bilan munosabatini bildirish bilan birga, gaplar o‘rtasidagi munosabatni ham bildiradi va o‘zaro bog‘lanib kelayotgan lisoniy birliklar bilan fonetik yaxlitlikni tashkil etmaydi. Lekin yuklama va bog‘lovchilar so‘z shakl sinfiga (morfologik so‘zga) kirmaydi. Chunki yuklama va bog‘lovchilar qurilmalik xususiyatiga, tarkibi morfemalarga bo‘linish xususiyatiga egamas»* [5,49].

Ko‘rinadiki, bu talqinda asosan qo‘shimcha morfemalar va yordamchi so‘zlar munosabatiga e’tibor berilgan. Yuklamalar va bog‘lovchilar so‘z doirasiga kiritilmaydi. Ko‘makchilar esa so‘z (so‘zshakl) tarkibida, uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Yordamchi so‘zlarni bu tadqiqotchilar ham so‘z turkumi doirasida sanamaydilar.

Bizningcha, mustaqil va yordamchi so‘zlarning o‘zaro munosabatini, bir-biriga nisbatan tutgan o‘rnini baholashdagi bunday ikkilanishlarning asosiy sababi ikkita: so‘zga mukammal ta’rifning yo‘qligida; so‘z turkumiga aniq ta’rifning yo‘qligida.

Tilshunoslik tarixida so‘zga berilgan yuzdan ortiq ta’riflar ma’lum bo‘lsa-da, tadqiqotchilar so‘zga o‘ziga yaqin bo‘lgan mezondan kelib chiqib baho beradilar. Ta’riflar qaysi jihatdan o‘zini oqlasa-da, to‘lig‘icha ma’qul ta’rif hamon mavjudmas.

So‘zga ta’rif berish ikkita jihatni qamrab oladi:

1. Delimitatsiya (so‘zning chegarasini aniqlash).
2. Identifikatsiya (turli qo‘llanishlarda (shakllarda) so‘zni aniqlash).

Har ikkala muammo ham tilshunoslik tarixida juda ko‘p ishlandi, ammo oxiriga yetmadi. Agar yordamchi so‘zlar va mustaqil so‘zlarni bir-biridan ajratish, to‘g‘rirog‘i, ularning “teng emasligi”ni isbotlash oson bo‘lganda edi, bu natija allaqachon qo‘lga kiritilgan bo‘lardi. Tilshunoslikda so‘z turkumlari sirasiga kiritilgan va chiqarilgan birliklar behisob bo‘lgan. Ammo yordamchi so‘zlar har qancha tanqidga qaramay mustaqil so‘zlar bilan bir qatorda tilga olinib kelinadi. Har qancha g‘alati bo‘lmasin, mustaqil va yordamchi so‘zlarning bunday kelisha olmasligi atama bilan ancha bog‘liq.

Rus tilshunosligidagi qabul qilingan atama o‘zbek tilshunosligidan ko‘ra ancha qulay. V.V.Vinogradov bu atamalarning kelib chiqishiga va masala mohiyatini aniqlashga ta’siri borligiga e’tibor bergan. Ma’lumki, rus tilshunosligida “chasti rechi” (nutq bo‘laklari)ga qarama-qarshi turuvchi “chastitsi rechi” (nutq bo‘lakchalari) ajratiladi.

“Chastitsa atamasi (lot. particula), grammatik terminologiyaning katta qismi kabi, rus grammatikasiga antik grammatikadan, unga esa o‘z navbatida sharq grammatikalaridan (qiyosl. arabcha – harf – bo‘lakcha) kirib kelgan” [2,544]. “Nutq bo‘lagi va bo‘lakchalari” atamasi shuning uchun ham qulayki, bo‘lak yoki bo‘lakcha bo‘lishidan qat’i nazar ular bir butunning qismi ekanligi sezilib turadi. Ammo so‘z turkumi atamasida bu qulaylik yo‘q, aksincha, atama ancha noqulaylik keltirib chiqarib mustaqil va yordamchi so‘zlarni darhol ikkiga ayirib yuboradi: *“Adabiyotlarda so‘zga ajratishning asosiy tamoyillari sifatida tushuncha ifodalash, shakliy yaxlitlik, fonetik bir butunlik belgilari ko‘rsatiladi. Agar bu belgilarga jiddiy e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning hammasi mustaqil so‘zlarni ajratishga yordam beradi, yordamchi so‘zlar esa bunday xususiyatga ega emas. Shunday ekan, yordamchi so‘zlarni, masalan, -mi, -chi, -u(-yu), -da singarilarni “so‘z” atamasi ostida birlashtirish mumkinmi? Tabiiyki, yo‘q. Chunki ular “so‘z” tamoyillarining birontasiga ham javob bermaydi”* [5,47].

Mustaqil va yordamchi so‘zlarni farqlovchi belgilargina emas, birlashtiruvchi jihatlar ham mavjud. Avvalo, yuqorida ham murojaat etib o‘tganimiz – mantiqiy jihatga e’tibor bersak. Falsafiy nuqtayi nazardan narsa qancha muhim bo‘lsa, uning aloqalari ham shuncha muhimdir. *“O‘zaro munosabatlardan tashqarida narsa hech nimadir”* [3,124]. Munosabatlarni ifodalashga aynan yordamchi so‘zlar ixtisoslashgan. Shuning uchun ham ular nutqda juda keng qo‘llaniladi. Bu borada statistik kuzatishlar olib borgan fransuz stenografi Estu qo‘llanish darajasi 40% bo‘lgan holatgacha qayd etgan [2,544]. Ana shundan kelib chiqib, mustaqil va yordamchi so‘zlarni farqlaydi. Ko‘rinadiki, mustaqil va yordamchi so‘zlar muayyan o‘zaro aloqada turadi. Ammo bu bog‘liqlik tenglik degani emas, albatta. Ularning o‘zaro munosabatlari tipini aniq ko‘rsatish uchun morfologik tizimning yana boshqa a’zolari – qo‘shimchalarga to‘xtalib o‘tish lozim.

Yordamchi so‘zlarni “so‘z” doirasidan chiqaruvchilar ishonarli dalillarini keltirishlari shubhasiz. Ammo alternativ qarashlar ham bor. Xususan, Sh.Shahobiddinova *-jon, -xon, -oy, -chak, -loq, -choq* kabi qo‘shimchalar haqida so‘z yuritib shunday deydi: *“Xo‘sh, ularning so‘z emasligi shubha tug‘diradimi? Bir qarashda bu savolga javob berish osondek tuyuladi. Sababi, yuqorida aytib o‘tilganidek ularning shaklan va mazmunan so‘zga yaqin kelmasligi aniq. Biroq ularning qo‘shimchalar emasligini ko‘rsatuvchi omillar ham yo‘q emas. Bu omillardan asosiysi sifatida doimo so‘z oxiriga ko‘chuvchi so‘z urg‘usining bu birliklarga ko‘chmasligini ko‘rsatish mumkin. Ammo bu omilni kuchsizlantiruvchi keyingi jihat mavjud bo‘lib, ularning “o‘z” urg‘usi ham yo‘q. Demak, ular qo‘shimchalardan urg‘u olmasligi, so‘zlardan esa urg‘usi yo‘qligi bilan farqlanadi”* [8,27].

Aslida mustaqil va yordamchi so‘zlarning o‘zaro munosabatiga doir bo‘lgan muammo “qo‘shimcha yuklamalar” deb atalgan birliklarga aloqador bo‘lganda yanada keskinlashadi. Ularning, ko‘rib o‘tganimizdek, so‘zga o‘xshamasligi qancha aniq bo‘lsa, qo‘shimchaga ham o‘xshamasligi shunchalik aniq. So‘zga o‘xshamasligi borasida bildirilgan fikrlar anchagina.

Qo‘shimchalar va yuklamalar orasidagi munosabat deyarli barcha tillar tadqiqotchilari uchun qiziqarli material bo‘lib kelgan. Xususan, N.D.Arutyunova shunday qoida orqali ularning farqlarini aniqlab berishga harakat qiladi: *“...qandaydir V so‘zni shakllantiruvchi n “yordamchi elementi”, agar V dan kelib chiquvchi qandaydir ZV birikmasi mavjud bo‘lsa va unda Z albatta o‘sha n yoki n ga bog‘liq boshqa yordamchi element bilan shakllansagina va faqat shunda, affikslar sirasiga kiradi. Aks holda, ya’ni bunday birikma tilda bo‘lmasa, n elementi yuklamalar sirasiga kiradi”* [6,223]. Sh.Shahobiddinova turkiy tillar tabiatidan kelib chiqib, qo‘shimcha va yordamchi so‘zlarni farqlashga bir oz boshqacharoq yondashadi: *“Muayyan ko‘rsatkich -n agar birikma, gap, matn qurilishiga muayyan ta’sir ko‘rsatsa, o‘ziga o‘xshashlari bilan izchil ziddiyatli bog‘lanishlar asosida distributiv munosabatlarda tursa –*

qo‘shimcha, aks holda yuklamadir” [8,29]. Mana shu qoidaning tatbiqi sifatida yuklamalar tizimiga ko‘rsatib o‘tilgan *-jon, -xon, -oy, -cha, -chak* va hokazolarni kiritish mumkin.

Ko‘rinadiki, turkiy tillarda qo‘shimcha bilan munosabatlar shakliy xususiyatlaridan kelib chiqib, ko‘pincha yuklamaga kelib taqalsa-da, aslida yordamchi so‘zlarning barchasiga taalluqlidir. So‘zlardan qo‘shimchalargacha bo‘lgan masofada yordamchi so‘zlarning qanday izchillikda joylashishi har bir yordamchi so‘zlar mohiyatini aniqlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vasilyeva A. K. O prirode chastey rechi kak sistemi klassov polnoznachnix slov // Filologicheskie nauki. – 1973. – №6. – S.65-75.
2. Vinogradov V. V. Russkiy yazik. – Moskva: Visshaya shkola, 1986. – 640 s.
3. Gegel. Nauka logiki. T.II. – Moskva: Misl, 1971. – 248 s.
4. Madrahimov I. Leksemalar tasnifidagi ilk bosqich//O‘TA. – 2003. – №3. – B.29.
5. Nurmonov A. va boshq. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 164 b.
6. Obshee yazikoznanie. Vnutrennyaya struktura yazika. – Moskva, 1972. – 565 s.
7. Sunik O. P. Obshaya teoriya chastey rechi. – Leningrad, 1966. – 131 s.
8. Shahobiddinova Sh. Ayrim qo‘shimchalarning mavqei xususida // O‘TA. – 2000. – №5. – B.27-29.
9. Eltazarov J. So‘z turkumlari haqidagi lingvistik nazariyalar. – Samarqand, 1996. – 127 b.

ПЕРЕДАЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ПРИ ПЕРЕВОДЕ

ТАРЖИМАДА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

TRANSFER OF PHRASEOLOGICAL UNITS DURING TRANLATION

З.И.Мирзаюнусова -преподаватель Коканд ГПИ

Аннотация: В этой статье дается всесторонняя информация о переводе фразеологических единиц. Даются рекомендации учащимся по эквивалентному переводу художественных произведений в процессе перевода.

Ключевые слова: перевод, фразеологизм, пословица, ценности, художественность, значение, стиль, адекватность, эквивалентность, сопоставление.

Аннотация: Мақолада фразеологик ибораларни таржима қилиш жараёни тўғрисида маълумотлар келтирилган. Талабаларга бадиий асарларни эквивалент таржима қилиш борасида керакли тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: таржима, фразеологизм, мақол, қадриятлар, бадиийлик, маъно, услуб, адекватлик, эквивалентлик, қиёслаш.

Annotation: This article provides comprehensive information on the transfer of phraseological units. Pupils are given on equivalent translation of artistic works in the process of translation.

Key words: translation, phraseology, proverb, values, artistry, meaning, style, adequacy, equivalence, comparison.

Одной из самых сложных и спорных задач в процессе перевода является перевод фразеологизмов. Поэтому процесс перевода фразеологических единиц требует большой ответственности, творческого подхода, внимательности и мастерства от человека, который занимается переводом. В плане сопоставления изучение фразеологизмов имеют большое значение, так как они служат для обогащения речевой деятельности учащихся. При обучении русскому языку

создание адекватного перевода, понимание авторского стиля и стиль перевода, умение отражать национальный калорит в переводе является важным звеном. Перевод фразеологизмов имеют большое значение в отражении индивидуального авторского стиля при переводе. ***Как выражается А.В. Федоров:*** «Перевод рассматривается, прежде всего как речевое произведение в его соотношении с оригиналом и в связи с особенностями двух языков и с принадлежностью материала к тем или иным жанровым категориям». Благодаря художественному переводу обогащается фразеологический запас языка учащихся. Крылатые фразы не умеют летать буквально, зато своим образным полетом они делают нашу речь интереснее и динамичнее. Мы не придумываем фразеологизмы в процессе диалога, а берем их из языковой памяти, как готовые кирпичики для построения образной и выразительной речи. Именно поэтому в студенческие годы важно много читать художественную литературу, чтобы пополнять словарный и фразеологический запас.

Фразеологизмы делают нашу речь образной и живой, они помогают передать больше смысла и сделать это эмоционально и выразительно. Фразеология играет несравненную роль в отражении национального духа, выраженного в языке художественной литературы. В переводческой деятельности перевод фразеологизмов занимает главное место. Поэтому переводчик сам лично должен быть осведомленным об этой проблеме. Ученый-переводчик А. Б. Фёдоров считает целесообразным применение следующих способов при переводе фразеологизмов:

1. Точный перевод фразеологизмов с полным сохранением значения их структуры.

2. С частичным изменением значения или формы фразеологических единиц оригинала.

3. Возможность перевода фразеологизмов путем подбора фразеологизмам оригиналам их соответствующих аналогов в языке перевода.

По указанию автора, в случаи неприменимости первых и вторых способов перевода фразеологизмов, считается приемлемым их замена с имеющимися в языке перевода выражениями с переносным значением. Этот способ занимает огромное место в процессе перевода. Каждое выражение или словосочетание, примененное с переносным значением, считается для переводчика действительным фразеологизмом. Входящие в состав фразеологизмов, созданные и совершенствованные народом в течение столетий, пословицы, поговорки и идиомы становились богатым наследием для подрастающего поколения. Пословицы, являясь одним из обладающих краткой формой, но глубоким содержанием жанром устного народного творчества, создавались на основе многовековых жизненных наблюдений народа, социально - экономического, политического и культурного опыта. Пословицы по своим социальным, идейным задачам, становятся выразителем мировоззрений в основном широкой народной массы, а в некоторых случаях определенного социального слоя или группы. По этой причине, тематический объём пословиц является очень обширным, и будет невозможным ограничить этот объём в пределах незначительной жизненной реальностью, и в связи с этим не найдется ни одна сфера социальной жизни которая бы не нашла своё яркое отражение в пословицах. Например: В русском языке: *Худые вести на крыльях летают.* Пять пальцев, да все разные. Семь раз отмерь, один раз отрежь. Делать из мухи слона. *В узбекском языке: Ёмон сўзнинг қаноти бор*. *Беш қўл баробар эмас*. *Етти ўлчаб, бир кес*. Пашшадан фил ясамок и т.д. Пословицы являются огромной сокровищницей нашей речи для выражения нашей мысли

чётко, ясно и образно, и их применение с искусством делает произведение писателя, речь оратора многозначительным и привлекательным, способствуют к становлению более впечатлительным для образного выражения своей мысли. Сопоставительное изучение пословиц и процесс их перевода имеют научное и практическое значение. Также стоит упомянуть о наличии буквального, пояснительного или описательного способов при переводе фразеологических единиц. Например: В русском языке: Хорошо смеётся тот, кто смеётся последним. В узбекском языке: Охирги кулган, яхши кулади. Исследование соответствующих эквивалентов к словам и выражениям, использование выражений, эквивалентных по смыслу с теми, что раскрыты в произведении, расширяя пределы образности перевода, способствуют к более выразительному его чтению. Переход фразеологизмов с полным сохранением значений слов в их структуре, считаясь одним из самых распространенных способов перевода, способствует к вхождению новых фразеологических единиц в язык перевода произведения и обогащению фразеологического состава данного же языка. Это положение можно ясно обнаружить в следующих примерах: Например: В русском языке: В здоровом теле - здоровый дух. В узбекском языке: Соғ танда – соғлом ақл.. Пословицы и поговорки обладая краткой формой и глубинным содержанием, считаются очень важным средством выражения чёткой, ясной и образной мысли. Обратим наше внимание к следующим примерам. В русском языке: Рыба тухнет с головы. В узбекском языке: Балиқ бошидан сасийди. Мы можем чётко проследить идентичность составляющих эту пословицу слов-компонентов в сопоставляемых языках. В русском языке: Что посеешь, то и пожнешь. В узбекском языке: Нима эксанг, шуни ўрасан. Нам становится ясно с вышеприведенных примеров, что полный эквивалент этой пословицы существует и в русском и узбекском языках. Процесс перевода фразеологизмов оригиналов, пользуясь эквивалентами содержащихся в языке перевода, считается одним из распространенных способов перевода. В этом способе, несмотря на то, что меняется форма, выбирается самое близкое по семантике выражение. Например: В русском языке: Волков бояться – в лес не ходить. В узбекском языке: Чумчуқдан қўрққан – тариқ экмайди. Ещё примеры: «Бир калла яхши, икки калла ундан ҳам яхши» (дословный перевод: «Одна голова хорошо, а две головы ещё лучше») эквивалентно русской пословице «Ум хорошо, а два лучше; «Қарс икки қўлдан чиқади» эквивалентно русскому выражению «Рука руку моет, и обе белы бывают»; «Ой тунда керак, ақл кунда керак» (дословный перевод: «Луна по ночам нужна, а ум нужен повседневно») эквивалентно русской пословице «Красота приглядится, ум пригодится»; «Бошингга қилич келса ҳам, тўғри сўзла» – «Хлеб – соль ешь, а правду режь»; и другие.

В качестве итога проведенных исследований целесообразно было бы утвердить, что фразеологические единицы, являясь разнообразным по идейному содержанию, духовно-нравственным итогом, обладают характерными особенностями и по своей стилистической функции. В связи со сходством закона мышления во всех нациях и существованием у них близких друг к другу убеждений и представлений, даже в языках различающиеся по структуре могут создаваться одинаковые или близкие по значению пословицы и поговорки.

Использованная литература:

1. К.Мусаев., Таржима тахлилининг назарий асоси. Таржима тарихи ва назарияси. Туплам. Тошкент 1992 й.

2. Н. М. Шанский., О фразеологизме как языковый единице и предмете фразеологии Москва 1985 г.
3. Я. И. Рецкер., Теория перевода и переводческая практика. Москва 1974 г.
4. Садыкова М.А. Русско-узбекский фразеологический словарь. – Ташкент: Фан, 1972.

VERTIKAL CHIZIQ QARINDOSHLIK ATAMALARI TIZIMIDA GIPERONIM XARAKTERIDAGI “AVLOD” ATAMASINING SUPPLETIVDOSH GIPONIMLARI HAQIDA

ВЕРТИКАЛЬНАЯ ЛИНИЯ СОСТОИТ В ТОМ, ЧТО SAPUPIDI HEATIONS ТЕРМИНА «ПОКОЛЕНИЯ» «ПОКОЛЕНИЯ» ХАРАКТЕРА ГИПЕРОНА В СИСТЕМЕ РОДСТВА РОДСТВА

THE VERTICAL LINE IS ABOUT THE SAPUPIDI HIATIONS OF THE TERM "GENERATION" OF THE "GENERATION" OF THE CHARACTER OF THE HYPERONE IN THE SYSTEM OF KINSHIP

D.Burxanova-tayanch doktorant, Qo’qon DPI

Annotatsiya: Maqolada vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimining “avlod” giperonimiga qarashli giponimlari va ularning suppletiv valentliklari haqida fikr yuritiladi. “Avlod” giperonimiga qarashli atamalar semantik qurilishining murakkabligi ularda ham “ota, ona” va ham ikki jinsga xos “farzandlar” ma’nosining sinkret iifodalanishi bilan bog’lanadiki, bu xususiyat o’zaro suppletivdosh“avlod” giperonimiga qarashli yetti bosqich barcha giponimlar uchun bir xil tegishlidir.

Tayanch so’z va iboralar: Qarindoshlik atamalari, vertikal chiziq qarindoshlik, avlod, giperonim, giponim, suppletivlik, yetti avlod, atamalarning semantik qurilishi, sinkretlik va b.

Аннотация: В статье рассматриваются гипонимические члены гиперонима «авлод»(«предки»), которые относятся к вертикальной линии родства и их супплетивные возможности, Отмечается, что семантическая структура всех гипонимических членов гиперонима «авлод»(«предки») является сложной, в которой синхронно-синкретично совмешены значения и «родители», и «дети», Кроме этого, сложность семантической структуры гипонимов гиперонима «авлод» («предки») характеризуется тем, что в ней являются нейтрализованным семы «мужской пол и женский пол».

Ключевые слова и выражения: Термины родства, вертикальной линии родства, предки, гипероним, гипоним, супплетивизм, семь предок, семантическая структура терминов родства, синкретизм и др.

Annotation: The article deals with the hyponymic members of the hypernym "avlod" ("ancestors"), which refer to the vertical line of kinship and their suppletive possibilities. It is noted that the semantic structure of all hyponymic members of the hypernym "avlod" ("ancestors") is complex, in which the meanings of both “parents” and “children” are syncretically combined. In addition, the complexity of the semantic structure of the hyponyms of the hypernym “avlod” (“ancestors”) is characterized by the fact that the semes “male and female” are neutralized in it.

Key words and expressions:Terms of kinship, vertical line of kinship, ancestors, hypernym, hyponym, suppletivism, seven ancestors, semantic structure of kinship terms, syncretism, etc.

Vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimining keng ma’nodagi bir necha bosqich “farzandlar” tushunchasi quyidagi atamalar tizimini o’z ichiga oladi, ya’ni: farzand (1),

nabira (11), chevara (111), evara(1U), zuvola //paynevara(U), uvora// kukun nevara (U1) va begona // yot nevara [1]

o’zbek tilida *paynevara* ***zuvola*** so’zining, *kukun nevara* ***uvora*** so’zining, *yot nevara* ***begona*** so’zining lug’aviy dubletlaridir va shu asosda ular o’zaro biri boshqasiga nisbatan suppletiv muqobillar ham hisoblanadi.

bir necha bosqich “farzandlar” tushunchasining ifoda plani paradigmasida *bola, nabira, chevara* va *evara* so’zlari o’zbek adabiy tilida me’yoriy rasmiylashgan lisoniy birliklar sanalib, ularning beshinchi, oltinchi va yettinchi bosqich ma’nosidagi *zuvola* yoki *paynevara, .uvora* yoki *kukun nevara, begona* yoki *yot nevara* singari atamalar o’zbek tilining ayrim shevalarida uchraydi.

vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimining birinchi bosqich “farzand” atamasidan keyingisi “nabira” so’zidir.

“Nabira” leksemasi vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimining giperonim xarakteridagi “avlod” leksemasining giponimidir. “Nabira” so’zi anglatgan shaxs “avl**od**” atamasi ma’nosiga tobe bo’lgan “farzand”larning ”farzandi” xarakteridagi davomidir.

“*Nabira*” leksemasining semantik qurilishida ham, “farzand” leksemasi semantik qurilishida bo’lganidek, “*jinsga ko’ra farq*” neytrallashgan, ya’ni betaraf semadir. SHu bois *“nabira*” leksemasi *“o’g’il nabira”, “qiz nabira”* so’z birikmalari ma’nosini o’zida sinxron-sinkret tarzda mujassam etgan holda, ana shu so’z birikmalariga (“*o’g’il nabira”, “qiz nabira”*) nisbatan oraliq zona giperonim xarakterida bo’ladi. “*Nabira*” leksemasining oraliq zona giperonimligi vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimida amal qiluvchi ierarxiya munosabatiga ko’ra bo’lib, “*nabira”* leksemasi “*avlod”* leksemasining giponimi hisoblansa, ayni o’rinda “*nabira”*ning o’zi “*o’g’il nabira”, “qiz nabira”* so’z birikmalariga nisbatan giperonimdir. Bu lisoniy “lahza”da o’zaro suppletiv munosabatdagi “*o’g’il nabira*” va “*qiz nabira*” so’z birikmalari biri boshqasiga nisbatan ekvonimlar ham hisoblanadi, ya’ni mazkur so’z birikmalari *“nabira*” so’zi bilan giponimdosh lisoniy birliklar sanalsa, shu giponimdoshlikka ekvonimdoshlik ham qo’shilgan bo’ladi. Ayni bir lug’aviy birlikda funktsional-semantik jihati har xil ikki hodisaning bir vaktda baravar mavjudligi funktsional-semantik sinkretizm deb ataladi.

demak, ma’lum bo’ladiki, *“nabira*” so’zi bildirgan shaxs “*etti avlod”* silsilasining xronologik jihatdan ikkinchi bosqichiga tegishli tushunchadir.

turkiy tillarda, shu jumladan, o’zbek tilida ham, *“etti avlod”* tushunchasi, turkiy tillar qavm-qarindoshlik atamalari bo’yicha tadqiqot olib borgan i.ismoilovning yozishicha, birinchi avlod *bola,* ikkinchi avlod *nabira,* uchinchi avlod *chevara,* to’rtinchi avlod *evara,* beshinchi avlod *paynevara,* oltinchi avlod *kukun nevara, ye*ttinchi avlod *yot nevara* deb nomlanadi [2].

Mavjud qomusiy manbalarda qayd etilishicha, *“nabira*” lug’aviy birligi ko’p ma’noli, ko’p vazifali bo’lib, u, vertikal chiziq qarindoshlik tizimiga xos “*farzandlarning farzandi*” ma’nosidan tashqari, gorizontal chiziq qarindoshlik tizimiga xos *“aka va ukalarning farzandlari”, “opa va singillarning farzandlari” (ya’ni “jiyan”)* ma’nosini ham bildirar ekan. Bu fikr qadimgi turkiy yozma yodgorliklari tomonidan ham tasdiqlanadi: qadimda hozirgi *“nabira”* va “*jiyan*” so’zlari ma’nosida *ati* so’zi ishlatilgan [3]. Shuningdek, sari uygur tilida *hati* so’zi, “nabira”dan tashqari, *“kichik, mayda”* ma’nolarini ham bildirgan[4] . Ma’lum bo’lishicha, yana boshqa turkiy tillarda ayollarga qarashli “*nabira*” va “*jiyan*” ma’nolarida *yegen* leksemasi ham ishlatilgan ekan [5].

O’zbek tilida “*nabira” (“nevara”)* so’i semantikasida shu so’z anglatgan shaxsning kimga qarashliligi noaniq bo’lib, ular *“o’g’il”, “qiz”* leksemalari ishtirokida hosil bo’lgan so’z birikmalari vositasida ma’lum bo’ladi: “*nabira”//”nevara*” o’g’ilga qarashli bo’lsa, “*o’g’ilning farzandi*”, qizga qarashli bo’lsa, “*qizning farzandi”* so’z birikmalari yordamida ifodalanadi. Bunday lisoniy vaziyatda *“o’g’ilning farzandi*” va *“qizning farzandi*” so’z birikmalari biri boshqasiga nisbatan ham giponim, (“*nabira*” giperonimiga nisbatan), ham ekvonim xarakterida bo’ladi.

Bulardan tashqari, “*nabira”(“nevara”)*leksemasining semantik qurilishida *“jinsga ko’ra farq*” semasi ham neytrallashgan bo’lib, uning(nabiraning) aniq jinsi “*o’g’il”* va *“qiz”* so’zlari ishtirokidagi so’z birikmalari yordamida anglashiladi (*o’g’il nabira, qiz nabira)*: bu holatda ham bu ikki so’z birikmasi biri boshqasiga nisbatan ham giponim (giperonimi: yana “*nabira”//”nevara*”), ham ekvonim tavsifida bo’ladi. bundan shu narsa seziladiki, *“nabira*” leksemasining mazmun plani o’ta murakkab bo’lib, unda shaxsning “*o’g’il yoki qizga qarashliligi*”, “*erkak yoki ayol jinsiga mansubligi*” semalari sinkretik ifodaga ega bo’ladi va *“nabira*” leksemasi, shu semalarning har biriga ko’ra, alohida-alohida lug’aviy-semantik variant (lsv) xarakterini kasb etadi, ya’ni:

a) nabira-LSV -1 “o’g’ilning farzandi” (“nabira” so’zidan anglashilgan shaxs egoning o’g’li);
b) nabira-LSV -2 “qizning farzandi”(“nabira so’zidan anglashilgan shaxs egoning qizi) ;
v) nabira-LSV -3: “o’g’ilning o’g’li”;
g) nabira-LSV -4: “o’g’ilning qizi”;
d) nabira-LSV -5: “qizning o’g’li”;
e) nabira-LSV – 6: “qizning qizi”.

O’zbek mumtoz adabiy tilida “nabira”(”nevara”) so’zining hozirgi davrda rasmiylashgan ma’nolarida arab va fors-tojik tillaridan o’zlashgan “*axfod* (nal,77), *navbovi* (nal, 444), *xonavoda* (nal, 660) kabi so’zlar ham uchraydi[6].

Qachon va qaysi davrda bo’lishidan qat’iy nazar, “*o’g’il va qizning farzandi”* ma’nosidagi lug’aviy birliklar “*ota va onaning ota va onasi*” ma’nosidagi lug’aviy birliklarning suppletiv muqobillari maqomida bo’lgan, ya’ni *“o’g’il*” ma’nosidagi leksema ham, *“qiz”* ma’nosidagi leksema ham *“bobo”* va “*buvi”* leksemalari bilan suppletiv munosabatdagi funktsional-semantik mikrosistema (FSMS) tarkibida uning korrelyativ jufti sanaladi.

Vertikal chiziq qarindoshlik ma’nolari tizimida markaziy nuqtani “farzandni dunyoga keltiruvchi erkak va ayol” ma’nosidagi “*OTA*” va “*ONA*” lksemalari (ularning giperonimi: *oila boshlikqlari*) tashkil qiladi. Ana shu nuqtadan undan keyingi qarindoshlikni bildiruvchi atamalar “*avlod”* giperonimiga tegishli lug’aviy birliklar sanaladi va ular anglatgan ma’nolarda ham “*ota va ona*”, ham ularning muayyan xronologik tartibdagi *“farzand*”lari ustuvor, ya’ni yetakchi semalar hisoblanadi.

“Avlod” giperonimi *“farzand*” (“*ota va onaning o’g’il//qiz farzandi”*) giponim leksemasidan boshlanib, so’z birikmasi xarakteridagi “*yot nevara” (begona*) bilan yakun topadi, ya’ni:

bola...nabira...chevara...evara....zuvola(pay nevara)...uvora(kukun nevara)..... begona(yot nevara).

“Avlod” giperonimiga qarashli ba’zi giponim atamalar ishtirok etgan quyidagi gaplarga e’tibor beraylik:

1.Ikki ***o’g’li*** uylangan, bir ***qizi*** erga tekkan, ***nabira***lari ham bor. (Oybek, Tanlangan asarlar).

2.Me’morning **ikki *nevarasi*** va bir **e*varasi*** bor(Mirmuhsin, Me’mor)

3.Bu yigit bir vaqtlar uning ***chevarasi*** *T*emir bilan qalin o’rtoq edi.(H.G’ulom, Zamin yulduzlari).

“Avlod” giperonimi ma’nosi *farzand, nabira, chevara, evara, zuvola (paynevara), uvora(kukun nevara)* va *begona(yot nevara)* atamalari anglatgan ma’nolarni o’z ichiga oladiki, bu silsilali xronologik tizimga tegishli har bir lug’aviy birlikning semantik qurilishida ham “*ota* va *ona”* va ham ularning “*o’g’il va qiz farzandlari*” ma’nosi mavjud bo’ladi, ya’ni ***“nabira”*** ma’nosida “ota va onaning har ikki jinsga xos farzandi”, “chevara” ma’nosidan anglashilgan “har ikki jinsga xos shaxslarning ota va onasi”; ***“chevara”*** ma’nosida “har ikki jinsga xos shaxslarning har ikki jinsga xos farzandi” va “evara” leksemasi anglatgan har ikki jinsga xos shaxslarning ota va onasi”; “***evara”*** ma’nosida “chevara”dan anglashilgan shaxslarning har ikki jinsga xos farzandi” va “paynevara”dan anglashilgan har ikki jinsga xos farzanlarning ota va onasi”; “***zuvola”(”“paynevara”)*** ma’nosida “kukun nevara” dan anglashilgan har ikki jinsga xos shaxslarning farzandi” va “kukun nevara”dan anglashilgan har ikki jinsga xos shaxslarning ota va onasi”; ***“uvora”(“kukun nevara”)*** ma’nosida esa, “paynevara”dan

anglashilgan har ikki jinsga xos shaxslarning har ikki jinsga xos farzandi” va “yot nevara”dan anglashilgan har ikki jinsga xos shaxslarning ota va onasi” kabi semalar ularning, ya’ni, *nevara, chevara, evara, zuvola(paynevara), uvora(kukun nevara), begona(yot nevara)* kabi atamalar semantik tarkibining yetakchi, ustuvor semalari hisoblanadi. Boshqacha aytganda, “avlod” giperonimining har bir giponimida “ham ota va onalik” va ham “har ikki jinsga xos farzandlik” semalari sinxron-sinkret tarzda mavjud bo’ladi.

Vertikal chiziq qarindoshlik ma’nolari atamalarining “*avlod*” giperonimi va uning giponimlari ma’nolariga xos bunday silsilali (ierarxiyali) munosabatlar azarbayjon tilining vertikal chiziq atamalari misolida G.G.Djafarov tomonidan ham e’tirof etiladi [7].

Xullas, “avlod” giprenimi va uning giponimlari vertikal chiziq qarindoshlik atamalari tizimining eng murakkab funktsional-semantik hodisalari hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Ishaev A. O’zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlari. // . O’zbek xalq shevalari lug’ati. Toshkent : Fan, 1971. –s.320-385; Ishaev A. Terminologiyamizning rivojlanishida o’zbek shevalarining roli. // O’zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari; Ishaev A. O’zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlari. // . O’zbek xalq shevalari lug’ati. Toshkent : Fan, 1971. –s.320-385.
2. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. Toshkent: Fan, 1966. 150s.
3. Древнетюркий словарь. .Ленинград: “Наука”, 1969. Б.67
4. Тенишев Э.Р. Строй сарыг-югурского языка. –М.: Наука, 1976. 214с.
6. Navoiy asarlari lug’ati. Toshkent, 1972.

СИНОНИМИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА АДЪЕКТИВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ РУССКОГО ЯЗЫКА

SYNONYMIC PARADIGM OF ADJECTIVE PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE RUSSIAN LANGUAGE

RUS TILIDAGI ADYEKTIV FRAZEOLOGIK BIRLKLARNING SINONIMIK PARADIGMASI

М.Ш.Шералиева – КГПИ, преподаватель

Аннотация: Статья посвящена исследованию явления синонимии в адъективных фразеологических единицах. Рассмотрены такие понятия, как фразеологическая синонимия, проанализированы фразеологические единицы и варианты, дана классификация адъективных фразеологизмов по отнесенности их к синонимическим парадигмам и рядам.

Ключевые слова: *адъективные фразеологические единицы, фразеологическая синонимия, синонимическая парадигма, фразеологическая единица, фразеологический вариант.*

Annotation: The article is devoted to the study of the phenomenon of synonymy in adjective phraseological units. Concepts such as phraseological synonymy are considered, phraseological units and variants are analyzed, the classification of adjectives of phraseological units is given in accordance with their attribution to synonymic paradigms and series.

Keywords: *adjectival phraseological units, phraseological synonymy, synonymic paradigm, phraseological unit, phraseological variant. Keywords: adjectival phraseological*

units, phraseological synonymy, synonymic paradigm, phraseological unit, phraseological variant.

Annotatsiya: Maqola sifatdosh frazeologik birliklardagi sinonimiya hodisasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Frazeologik sinonimiya kabi tushunchalar ko‘rib chiqiladi, frazeologik birliklar va variantlar tahlil qilinadi, sifatdosh frazeologik birliklar sinonimik paradigma va qatorlarga munosabatiga ko‘ra tasniflanadi.

Kalit so‘zlar: sifatdosh frazeologik birliklar, frazeologik sinonimiya, sinonimik paradigma, frazeologik birlik, frazeologik variant.

В настоящее время изучение синонимии фразеологических единиц является одной из важных вопросов и проблем изучения фразеологической парадигматики.

Существует много работ, посвященных синонимии, в основном это труды по лексической синонимии, синонимия фразеологических оборотов изучается менее активно. До сих пор нет общепризнанного определения синонимов и единого подхода к установлению синонимичности.

Явлению синонимии во фразеологии посвящены труды многих лингвистов, в числе которых можно назвать В. Вапорджиева, Л. А. Введенскую, Л. П. Зимину, Е. А. Иванникову, Ю. Д. Апресяна, Н. Каменецкайте, Н. А. Кирсанову, Е. Н. Миллер, В. Д. Смирнова, А. П. Хазанович, Г. И. Краморенко, И. И. Чернышеву, А. Т. Галиеву и др.

В настоящее время существует множество определений синонимии, а также фразеологических синонимов. Например, в лингвистическом энциклопедическом словаре В.Н.Ярцевой даётся следующее определение фразеологическим синонимам: «Слова одной и той же части речи (а также в более широком понимании, фразеологизмы, морфемы, синтаксические конструкции), имеющие частично или полностью совпадающие значения».

Однако, Ю. Д. Апресян подчеркивает при определении термина фразеологических синонимов такое понятие, как оттеночность фразеологических синонимов. Он пишет, «Под фразеологическими синонимами понимаются такие фразеологические единицы, которые при совпадении своего стержневого значения отличаются оттенками значений и, благодаря возникающей на этой основе лингвистической связи, способны заменять друг друга в ряде строго определенных контекстов, где они употребляются в одной и той же синтаксической конструкции и сочетаются с одним и тем же лексическим окружением».

Примечательно то, что большинство существующих определений фразеологический синонимии также ссылается на оттеночность значения. К примеру, А.В. Кунин отмечает, что фразеологическими синонимами являются такие фразеологические единицы, которые относятся к одному грамматическому классу, частично совпадающие или полностью совпадающие по лексическому составу, имеющие общие и дифференциальные семантические компоненты и различающиеся или совпадающие в стилистическом отношении.

Н. А. Кирсанова также считает: «Синонимичные фразеологизмы, подобно словам-синонимам, нельзя считать единицами, имеющими одинаковое значение и легко заменяющими друг друга. Фразеологические синонимы, объединяясь общим значением, по-разному выражают оттенки этого значения, ибо общее существует лишь в отдельном, через отдельное».

Что касается внешней формы фразеологической синонимии, имеет место быть определение И. И. Чернышевой: «Фразеологическими

синонимами являются разноструктурные и одноструктурные фразеологические единицы, имеющие одинаковое значение при неадекватности образной мотивированности единиц и возможных различиях в семантических оттенках значения, функциональностилистической принадлежности и сочетаемости».

А также в лингвистике существует такое понятие, как фразеологический вариант. Весьма важно не путать эти два понятия: фразеологический синоним и фразеологический вариант. При этом достаточно ёмкими определениями фразеологических вариантов можно считать определения, данные Г. И. Краморенко и А. П. Хазановичем.

Г.И. Краморенко пишет: «Фразеологические варианты не только совпадают по значению, но и имеют общность в структуре, образе, лексическом составе, различаясь, в основном, лексическим оформлением одного-двух компонентов…».

А. П. Хазанович отмечает следующие различия между фразеологической синонимией и фразеологическим вариантом:

1. «Структура фразеологических вариантов одинакова, в то время как структура фразеологических синонимов может различаться.

2. Варианты одной и той же идиомы в качестве обязательного условия имеют близкий компонентный состав: различаться могут лишь один, а иногда два компонента.

3. Единство или сходство образов является характерной чертой фразеологических вариантов». Сравните: *при деньгах – тощий карман* являются синонимической фразеологией, а *тощий карман и тугой карман* фразеологическим вариантом. Например: *ветер в голове бродит – ветер в голове гуляет; Аллах знает какой – Бог знает какой – господь знает какой – черт знает какой* и т.д.;

Таким образом, проанализировав приведенные выше определения, можно заключить, что в круг «фразеологических синонимов» включаются одноструктурные и разноструктурные фразеологические единицы, обозначающие одно и то же понятие или понятия, значение которых характеризуется наличием общего стержневого и дифференциальных компонентов значения; близкие между собой, принадлежащие к одному лексикограмматическому классу, как правило, различающиеся оттенками значений или же стилистически, употребляющиеся в рамках конкретных контекстов.

Два и более фразеологических синонима объединяются в синонимические ряды (группы, парадигму или гнезда). Как и у слов, синонимические ряды могут иметь различную протяженность, однако в типичном случае фразеологический синонимический ряд короче по сравнению с синонимическим рядом однословных лексем. Сравним: *бедный – неимущий – нищий – убогий – небогатый – сирый – бездомный – нуждающийся – несостоятельный – скудный – малоимущий* и т.д.; *Ни кола ни двора - ветер свистит в карманах - ни копейки за душой - ни гроша - тощий (пустой) карман - гол как сокол* и т.д. Таким образом, синонимический ряд однословных лексем со стержневым словом «бедный» состоит из 11 синонимов, в то время как синонимический ряд фразеологических единиц со значением «бедный» состоит из 6 оборотов.

А также следует отметить то, что многие фразеологические единицы полесемичны и во всех значениях не могут быть синонимичными друг другу, так как речь идет не о фразеологической единице, а об их значениях.

Соответственно, синонимические ряды адъективных фразеологических единиц включают в свой состав как однозначные, так и многозначные

фразеологические единицы. Следовательно, они могут входить в разные синонимические ряды разными своими значениями. Например, адъективные фразеологические единицы «с головой» имеет два значения. Одним своим значением - умный, толковый – входит в синонимический ряд: семи пядей во лбу, с царём в голове, ума палата и т.д. Другим значением - очень много (дел, работы) – фразеологический оборот входит в другой синонимический ряд.

Изучая синонимические ряды адъективных фразеологических единиц, мы выявили 58 ряда (248 оборотов). Синонимические ряды насчитывают от 2 до 17 членов. Двучленных синонимических рядов адъективных фразеологизмов 24. Например*: одна кожа да кости, ни кожи ни рожи; Не по карману, на вес золота; Под пару, под стать; Язык проглотишь, пальчики оближешь.* Трехчленных синонимических рядов 14. Например: *Середина на половину, ни два ни полтора, ни то ни сё; Песок сыплется, в летах, в годах; Воды (водой) не замутит, тише воды, ниже травы, мухи не обидит; Один как перст, без роду и племени, ни роду ни племени* и т.д. 3 синонимических ряда включают в свой состав по четыре члена: *В костюме Адама, в костюме Евы, в чем мать родила, в натуре; Встречный-поперечный, каждый встречный, кто ни на есть, первый попавшийся.* Пятичленных синонимических рядов четыре: *Нос не дорос, молоко на губах не обсохло, мало каши ел, без году неделя, Вновь испечённый; Пятое колесо в телеге, не пришей не пристегни, сбоку припека, как бельмо в глазу, не пришей кобыле хвост.* Три синонимических ряда включают в свой состав шесть членов: *Ни кола ни двора, ветер свистит в карманах, ни копейки за душой, ни гроша, тощий (пустой) карман, гол как сокол.* Два синонимических ряда состоит из семи членов: *Головой выше, на голову выше, голова на плечах, с головой, ума палата, семи пядей во лбу, с царем в голове; С ноготок, от горшка два вершка, от земли не видать, чуть от земли видать, с булавочную головку, короче воробьиного носа, с гулькин нос.* Два синонимических ряда состоят из восьми членов: *Видеть на три аршина под землёй, видеть на три аршина в землю, глаз набит, рука набита, тертый калач, из молодых да ранний, стреляный воробей, видать виды.* Один синонимический ряд состоит из десяти членов: *Так себе, ни рыба ни мясо, средней руки, ни богу свечка ни черту кочерга, звезд с неба не хватает, не ахти какой, не фонтан, не так большой руки, не бог весть какой, не бог весть.* Два синонимических ряда включают в свой состав 11 членов: *Как свинцом налита, без задних ног, едва ноги носят, ноги не держат, едва на ногах стоит, на ногах не стоит, ни жив ни мертв, тяжел на ногу, еле-еле душа в теле, едва держаться на ногах, в чём только душа держится*). 13 фразеологических единиц входят в следующий синонимический ряд: *Как две капли воды, капля в каплю, на одну колодку, на одно лицо, под одну масть, один в одного, один к одному, на один покрой, с одного покроя, два сапога пара, одного поля ягода, ни дать ни взять, свой в доску.* 16 фразеологических единиц входят в следующий синонимический ряд: *Не все дома, без головы; как пробка, солома в голове, богом убитый, без царя в голове, как из-за угла мешком прибитый, дырявая голова, непутевая головушка, словно из-за угла мешком ударенный, голова садовая, крепок головою, толстая кожа, дурная голова, ни уха ни рыла, задним умом крепок*. В самый длинный синонимический ряд включаются 17 фразеологических единиц: *С большой буквы, высшей пробы, высшей марки, большой руки, хватать звезды с неба, первой руки, на большой палец, разлюли малина, из ряда вон выходящий, невесть какой, на редкость, на ять, что надо, цены нет, бог не обидел, на большой, на большой палец.*

Необходимо напомнить, что несмотря на то, что принято говорить о

синонимии фразеологических единиц или лексем, в синонимические ряды входят не единицы, а их значения, таким образом, полисемичные единицы входят в синонимические ряды одним из своих значений. Чаще всего синонимичны два и три фразеологические единицы, реже четыре, пять и т.д. Оптимальное количество членов в синонимическом ряду два-три. Двучленные, трехчленные синонимические ряды способны выразить одно понятие наиболее точно, большее количество членов синонимического ряда делает понятие размытым, возможно, выражение не одного понятия, а близких понятий.

Изучая лингвистическую природу синонимии, можно прийти к выводу, во-первых, о сложности явления синонимии как языкового и речевого факта, во-вторых, о его неоднозначности, о необходимости разработки критериев синонимичности, в-третьих, о необходимости изучения синонимии как факта отражения объективной действительности.

Список литературы:

1 Апресян Ю. Д. Фразеологические синонимы типа «глагол-существительное» в современном английском языке : Автореф. дис. канд. филол. наук. - М., 1956. – С. 8.
2 Кирсанова Н. А. О некоторых семантических признаках ФЕ (К вопросу о многозначности и синонимике в сфере фразеологии) // Проблемы фразеологии. - М. ; Л. : Наука, 1964. – С. 91-92.
3 Краморенко Г. И. Фразеологические варианты в идиоматике современного немецкого языка : дис. ... канд. филол. наук. - М., 1961. – С. 11.
4 Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка : учебник для ин-тов и ф-тов иностр. яз. - М. : Высшая школа ; Дубна : Феникс, 1996. – С. 68.
5 Хазанович А. П. Синонимия во фразеологии современного немецкого языка : дис. ... канд. филол. наук. - Л., 1957. – С.164.
6 Чернышева И. И. Фразеология современного немецкого языка - М. : Высшая школа, 1970. – С.81.
7 Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.447.

GAZETA SARLAVHALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГАЗЕТНЫХ ЗАГОЛОВКОВ

LINGUISTIC FEATURES OF NEWSPAPER HEADLINES

A.Shamsiddinova -1-bosqich magistrant, Qo‘qon DPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada gazeta matni sarlavhalari leksik-semantik, grammatik, pragmatik jihatdan tahlil qilingan. Tahlilni dalillash maqsadida respublikadagi yetakchi gazetalarda yozilgan maqolalarning sarlavhalaridan foydalanilgan.

Kalit so’zlar: gazeta matnlari, sarlavha, pretsedent birlik, retsipiyent, psixolingvistik tahlil.

Аннотация: В данной статье заголовки газетного текста анализируются лексико-семантически, грамматически, прагматически. Для обоснования анализа использовались заголовки статей, опубликованных в ведущих газетах республики.

Ключевые слова: газетные тексты, заголовок, прецедентная единица, реципиент, психолингвистический анализ.

Annotation: In this article, the titles of the newspaper text are analyzed lexically-semantically, grammatically, pragmatically. In order to substantiate the analysis, the headlines of articles written in the leading newspapers of the republic were used.

Keywords: newspaper texts, title, precedent unit, recipient, psycholinguistic analysis.

Sarlavha – gazeta sahifalarida berilayotgan maqolaning mazmunidan darak beruvchi, maqola mavzusi haqida o’quvchida birinchi taassurotni uyg’otuvchi mustaqil birlikdir. Shu sababli tilshunoslikda gazeta tili va uslubi o’rganilganda uning sarlavhasiga ham e’tibor qaratiladi. Jumladan, jahon tilshunosligida gazeta matni sarlavhalarining leksik-semantik xususiyatlari F.Fortunatov, A.Shaxmatov, Borogoditskiy, V.Vinogradov, Kostumarov kabi tilshunoslar tomonidan o’rganilgan. O’zbek tilshunosligida gazeta matni sarlavhalarining turli xususiyatlari bo’yicha A.Abdusaidov, A,Boboyeva, I.Toshaliyev, B.Mirzayevlarning ilmiy maqolalari va o’quv qo’llanmalari mavjud [1]. Gazeta matnlarini o’rganish borasida tilshunos A.Abdurahmonovning “Gazeta jurnalistikasi terminlarining qisqacha izohli lug’ati” ham yaratildiki, mazkur lug’atda quyidagicha ta’rif beriladi: “Sarlavha – maqola va materialning ichki mazmunidan kelib chiqib, unga qo’yiladigan nom” [2. 30-bet]. Bundan tashqari, tilshunos I.Azimova o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida gazeta sarlavhalarining retsipiyent tomonidan tushunilishi bo‘yicha psixolingvistik aspektda tajriba olib boradi va gazeta sarlavhalarini 4 turga ajratadi [3. 87-bet]. Biz ham maqolada mana shu tasnifga asoslangan holda “Xalq so‘zi” va “O‘zbekiston ovozi” gazetalarida nashr etilgan maqolalardagi sarlavhalarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qildik.

Darak gap shaklida ifodalangan sarlavhalar: “Ayol baxtli bo‘lsa, yurt farovon bo‘ladi”, “Investitsiyalar o‘zini oqlayapti”, “Bog‘dorchilikda innovatsion texnologiyalar”, “So‘z millat qiyofasini ifodalaydi”, “Barkamol avlod yurtni yuksaltiradi”. Mazkur sarlavhalar maqola mazmunini umumlashtirib, xabar mazmunini ifodalaydi. Bugungi matbuot sahifalarida darak gap shaklidagi sarlavhalarni ifodalashda sarlavhaosti izohi ham berilmoqdaki, bu maqolaning ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, “Noyob ilmiy meros germaniyaliklar bilan birga tadqiq qilinadi”, “Mo‘ynoqdagi tarixiy o‘zgarishlar Qozoqdaryo ovuliga ham xayrli keldi”, “Diniy va dunyoviy ta’lim yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan akademiya”, “Kadrlar qo‘nimsizligi ish samaradorligiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi”. Bunda maqola sarlavhasi o‘quvchi diqqatini jalb qilishga qaratilsa, sarlavhaosti izohi uning ma’nosini to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

So‘roq gap shaklidagi sarlavhalar: “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirishlar kiritildi. Bundan xabardormisiz?”, “Xalqaro reytinglar biz uchun qanchalik muhim?”, “Jinoyatchilikka qarshi kurashish qanday samara beryapti?”, ““Ishonasizmi, familiyamni eslay olmadim?!”, “Qamoq jazosi… bolani to‘g‘ri yo‘lga boshlay oladimi?..”. Mazkur sarlavha turi gazeta maqolalarida eng ko‘p qo‘llaniluvchi turidir. Bunga asosiy sabab shuki, maqola avvalida so‘roq gap orqali o‘quvchiga ta’sir o‘tkaziladi va mazkur savolning yechimi maqola so‘nggida beriladi.

Matnning mazmunini mavhumlashtirib ifodalovchi sarlavhalar: “Xalq borki, davlat bor”, “Kalutaradagi muvaffaqiyat”, “Yigirma uch asrlik qadimiy shahar”, “Kuyla, do‘mbiram…”, “Hayotbaxsh tashabbuslar “Bo‘ston”ni gulistonga aylantiradi”, “Noyob hujjatlar xazinasi”. Mazkur sarlavhalarda mazmun yashiringan bo’lib, o‘quvchini maqola bilan tanishishga undaydi.

G‘ayriodatiy lisoniy vositalar qo‘llangan sarlavhalar: “KOPIA nega aynan O‘zbekistonni tanladi?”, “Olamning lisoniy manzarasi”, “Xotin-qizlar uchun barqaror ish o‘rni… bu masalada “kampaniyaboz”lik qilishning oqibati og‘ir bo‘ladi…”. Mazkur sarlavhalarda o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmalari qo‘llanadiki, ular maqolani o‘qish uchun reklamalilik vazifasini bajaradi.

Gazeta sarlavhalari bilan ishlash jarayonida shu narsa aniq bo’ldiki, maqola sarlavhalari gazetaning qaysi sohalardagi axborotlarni yetkazishiga qarab turlicha ifodalanadi. Masalan, “Xalq so‘zi” gazetasida darak gap shaklidagi sarlavhalar 4 ta, so‘roq gap shaklidagi sarlavhalar 3 ta, mazmunni mavhumlashtirib ifodalovchi sarlavhalar 3 ta, g‘ayriodatiy lisoniy vositalar orqali ifodalangan sarlavhalar 1 ta berilgan.

“O‘zbekiston ovozi” gazetasida berilgan maqolalarda esa darak gap orqali ifodalangan sarlavhalar 6 ta, so‘roq gap orqali ifodalangan sarlavhalar 4 ta, matn mazmunini mavhumlashtirib ifodalovchi sarlavhalar 3 ta, g‘ayriodatiy lisoniy vositalar orqali ifodalangan sarlavhalar 2 ta ekanligi ayon bo‘ldi. Maqola sarlavhalarining turlicha ifodalanganligiga sabab sifatida mazkur gazetalarning ijtimoiy-siyosiy gazeta ekanligini nazarda tutish lozim. Ijtimoiy-siyosiy xabarlarni yoritishda esa ko‘pincha xabarni umumlashtirib ifodalovchi darak gaplardan foydalaniladi. Kuzatishlarimiz natijasida gazeta sarlavhalarining yuqoridagi tasnifda ko‘rsatilganlaridan tashqari quyidagi turi borligi ham ayon bo‘ldi. Gazeta sahifalarida Intervyu rukni ostida suhbat olib borilayotgan suhbatdoshning maqola mazmunidan kelib chiqqan holdagi keltirilgan fikrlari bevosita maqola sarlavhasiga aylantiriladi. Masalan, Szyan Yan XXRning O‘zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi: “Xitoy va O‘zbekiston tomonidan “Bir makon, bir yo‘l”ning birgalikda barpo etilishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”, Pak Ning Xu, Koreya Respublikasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot vaziri: “Bizda tibbiy sug‘urtani tatbiq etishga 40 yildan ziyod vaqt ketgan bo‘lsa, O‘zbekiston bu yo‘lni 20 yilda bosib o‘tishi shubhasiz”, Li Dong Uk, O‘zbekiston sog‘liqni saqlash vazirining Janubiy Koreyalik o‘rinbosari: “O‘zbekiston tibbiyoti rivojiga hissa qo‘shish menga faxr bag‘ishlaydi”, “Alan Dunkan: O‘zaro aloqalarni yanada taraqqiy ettirish niyatidamiz”, “Vladimir Jonibekov: Yerga qaytish… har doim og‘ir kechgan…”, “U Duk Chen: Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo birdamligiga asos soldi….”. Bunday sarlavhalar qo‘llanilganda intervyu olib borilgan suhbatdoshning maqolada nima demoqchi bo‘lganligi, asosiy maqsadi o‘quvchiga o‘z fikrlari orqali yetkaziladi va ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Pak Ning Xu, Koreya Respublikasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot vaziri: “Bizda tibbiy sug‘urtani tatbiq etishga 40 yildan ziyod vaqt ketgan bo‘lsa, O‘zbekiston bu yo‘lni 20 yilda bosib o‘tishi shubhasiz” sarlavhasini o‘qish jarayonida intervyu kim bilan olib borilishi, nima mavzuda ekanligi xabari yetkazilishi bilan birga, suhbatdoshning o‘zi orqali berilgan alohida e’tirofi maqolani o‘qishga undaydi. Shunisi e’tiborga loyiqki, mazkur shakldagi sarlavhalarda, asosan, chet ellik mutaxassislarning O‘zbekistonda bugungi kunda olib borilayotgan siyosatga nisbatan e’tirofi aks etadi. Ularning hammasi ijobiy munosabatni ifodalaydi. Aytish mumkinki, sarlavhalarning mazkur turlari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning ommaviy axborot vositalari tiliga bevosita ta’sirini yaqqol namoyon etadi.

Bundan tashqari, bugungi globallashuv jarayonida o’zbek matbuotida chop qilinayotgan maqolalarning ommabopligini ta’minlash, emotsional-ekspressivlikni oshirish maqsadida turli lisoniy vositalardan foydalanilmoqda. Bunga misol sifatida xalqimiz milliy merosi sanalgan maqollar, aforizmlar, iboralar va hadislar, yozuvchi va shoirlarning ijod namunalarini keltirish mumkin. Masalan, “Yoshlar ovozi” va “Ma’rifat” gazetalarida berilgan maqolalarni kuzatganimizda pretsedent birliklar orqali ifodalangan gazeta matni sarlavhalari salmoqli o’rin egallaganligi ma’lum bo’ldi [5]. Masalan, “Do’st og’ir kunda bilinadi” (“Yoshlar ovozi” 2019), “Yaxshi niyat – yarim davlat” (“Yoshlar ovozi”, 2019), “Qush uyasida ko’rganini qiladi” (“Ma’rifat”, 2019) sarlavhali maqolalarni gazetxon o’qishi bilanoq, tafakkurida mazkur maqol mazmuni bilan bog’liq assotsiatsiya paydo bo’ladi va maqolani o’qishga undaydi.

Gazeta matni sarlavhalari o’rganilganda maqollarning shakli o’zgartirilgan holda sarlavha qo’yish holatlari ham kuzatildi. Mazkur holatda maqolning o’zgarmagan holatdagi mazmuni gazetxonga anglashilaveradi. Masalan, “Bir bolaga yetti psixolog ota-ona” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhasi “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, “Bilimi zo’r mingni yengar” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhasi “Bilagi zo’r birni yiqar, bilimi zo’r mingni”, “Izlanganga omad yor” (“Ma’rifat”, 2019) sarlavhasi “Izlaganga tole yor”, “Hunar bilan xor bo’lmas kishi” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhasi “Hunarli kishi xor bo’lmas”, “O’zga yurtda xor bo’lma, do’stim!” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhasi

“O’zga yurtda xor bo’lguncha o’z yurtingda gado bo’l” maqolining ma’lum maqsadda o’zgartirilgan shakllaridir. Maqollarni o’zgartirgan holatda qo’llash mamlakatning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy vaziyati bilan ham bog’liq bo’ladi. Masalan, “Bir bolaga yetti psixolog ota-ona” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhali maqolada hozirgi sharoitda psixologlarga katta mas’uliyat yuklatilganidan darak beradi. “O’zga yurtda xor bo’lma, do’stim!” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhali maqolada esa chet elga ishlash maqsadida ketgan fuqarolarning qismati yoritilgan. “Ishlamagan tishlaydi(mi?)” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhasida “Ishlagan tishlaydi” maqoli muallif maqsadiga ko’ra o’zgartirilgan. Shuningdek, ekspressivlikni yanada kuchaytirish maqsadida -mi yuklamasidan ham foydalanilgan.

Sarlavhalarda maqola mazmuni bilan aloqadorlikni ta’minlash maqsadida ijodkorlarning barchaga ma’lum, hikmatli so’zga aylangan fikrlaridan ham foydalaniladi. “Birni ko’rib fikr qil, Birni ko’rib…” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhasini o’qiganimizdayoq Navoiy dahosi yodimizga keladi va maqola shukronalik haqida ekanligi assotsiatsiyasi paydo bo’ladi. “Ona tilim, sen borsan, shaksiz!” (“Yoshlar ovozi”, 2019) sarlavhasini o’qigan gazetxon beixtiyor Abdulla Oripovning til haqidagi mashxur she’rini esga oladi va maqola mavzusi ona tili haqida ekanligi assotsiatsiyasi paydo bo’ladi. (“Yoshlar ovozi”, 2019), “Mendan nima qolur…” sarlavhasini o’qiganda Muhammad Yusuf ijodidan boxabar har bir gazetxonda maqola mavzusi she’r haqida ekanligi ayon bo’ladi.

Bundan tashqari, gazeta matni sarlavhasi barcha tinglaydigan qo’shiqlar orqali ifodalanganligiga ham guvoh bo’ldik. Masalan, “Mendirman o’shal…” (“Ma’rifat”, 2019) sarlavhasini o’qishimiz bilan mashxur san’atkorning qo’shig’i tafakkurimizda paydo bo’ladi va maqola vatanparvarlik mavzusida ekanligi anglashiladi. Mazkur sarlavhalar maqolaning asosiy matni bilan uzviy bog’liqlikni ta’minlaydi va o’quvchini jalb qiladi.

Maqolamizning xulosasi sifatida qayd etish lozimki, gazetalarda sarlavhalarning tuzilishini, odatda, shu sohadagi mavjud an’analar belgilab beradi. An’anaviy bo‘lmagan tuzilishdagi sarlavhalar jamiyat hayotidagi keskin o‘zgarishlar va xalqaro ommaviy axborot vositalari tajribasi ta’sirida kirib keladi

.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol. fan. dok. diss. ..avtore. – Toshkent, 2005.
2. Abdurahmonov A. Gazeta jurnalistikasi terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
3. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Filol. fan. nom. diss… avtore. – Toshkent, 2008.
4. Odilov Y, Musayeva F. Publitsistik matnlar sarlavhalarining lingvistik xususiyatlari. //Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2018.
5. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2014.

INGLIZ TILIDAGI ANTONIMLARNING STRUKTURAVIY JIHATLARI

СТРУКТУРНЫЕ АСПЕКТЫ АНТОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

STRUCTURAL ASPECTS OF ANTONYMS IN ENGLISH

K.Oripova -o’qituvchi, Qo’qon DPI

Annotatsiya: Antonimlar - qarama-qarshi ma'noli so'zlar hisoblanadi. Antonimiya esa qarama-qarshilik munosabatini bildiradi. Antonimlar berilgan so‘z va sinonimlarning aniq ma’nosini aniqlashda juda bebahodir. Antonimlar bizga ko'pincha qarama-qarshilik uchun ma'lum bir fikrning aksini qisqacha ifodalash imkonini beradi.Tilshunoslik nuqtai nazaridan, antonimlarning o‘rganishning asosiy masalalaridan biri bu so‘zlarning chegaralarini aniqlashdir. Tilshunoslar olimlar tomonidan antonimlar uch xil turga, ya’ni darajali antonimlar, to‘ldiruvchi antonimlar va qarama-qarshi antonimlarga bo’lingan.

Tayanch so’zlar: antonim, sinonim, polisemantik, til, vositaviy, to’ldiruvchi antonimlar,tilshunoslik.

Annotation: Antonyms are words with opposite meanings. Antonymy, on the other hand, refers to a contradictory relationship. Antonyms are invaluable in determining the exact meaning of given words and synonyms. Antonyms often allow us to summarize the opposite of a particular idea for contradiction. Linguistically, one of the main tasks in the study of antonyms is to define the boundaries of these words. Linguists have divided antonyms into three types: level antonyms, complementary antonyms, and opposite antonyms.

Keywords: antonym, synonym, polysemantic, language, intermediate, complementary antonyms, linguistics.

Аннотация: Антонимы – это слова с противоположным значением. Антонимия, с другой стороны, относится к противоречивым отношениям. Антонимы имеют неоценимое значение для определения точного значения данных слов и синонимов. Антонимы часто позволяют обобщить противоположное тому или иному представлению противоречие. В лингвистическом отношении одной из основных задач при изучении антонимов является определение границ этих слов. Лингвисты делят антонимы на три типа: антонимы уровня, дополнительные антонимы и противоположные антонимы.

Ключевые слова: антоним, синоним, многозначность, язык, промежуточные, комплементарные антонимы, языкознание.

Ingliz tili boy lug’atga ega bo’lib, biz o’z his-tuyg’ularimizni, atrofimizdagi dunyo obyektlarini va hodisalarini tasvirlashda , talablarimizni bayon qilishda va nimanidir isbotlashga harakat qilishda foydalanamiz. Buning uchun nutqimizda tildagi qarama-qarshilik turkumini ifodalashning leksik usullari bo’lgan antonim va so’z birikmalaridan foydalanamiz. Tilda barcha lug’at tizimli bo’lib, antonomiya til va tafakkurdagi tizimli munosabatlarning muhim ko’rinishlaridan biridir. So’zlar va ularning ma’nolari bir-biridan alohida mavjud emas, ular bizning ongimizda turli guruhlarga birlashtiriladi va guruhlash uchun asos bo’lib, o’xshash ma’nodagi o’xshashlik birlashtiriladi va guruhlash uchun asos bo’lib, o’xshash ma’nodagi o’xshashlik yoki to’g’ridan-to’g’ri qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Antonimik tahlil tilshunos olim Smit tomonidan sinonim so’zining aksi sifatida tilshunoslikga kiritilgan. 1867- yilgacha antonimlar va ularning strukturasi o’rganilmagan bo’lsada, bugungi kunda tilshunoslikda antonimlar aktual mavzu bo’lib kelmoqda. Ingliz tilida antonimlarni o'rgangan olimlardan biri Jon Lyonsdir. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan leksik birliklar antonimlardir , bu degani, ular orasidagi aloqani o'z ichiga oladi va antonimlarning uch turi mavjud. Lyons fikriga ko’ra ,

ma'noning teskarisi uch shaklda namoyon bo'ladi: antonimiya, oppozitsiya, farqlilik. Ma'nosiga ko'ra berilgan va qarama-qarshi bo'lgan so'zlar antonimlar hisoblanadi. Ziddiyat va farqlilik tilda antonimlarning ko‘pligiga sabab bo‘ladi. Bunda ham aynan bu ikki xususiyatiga ko'ra tegishli antonimlar yanada kengroqdir.

James Palmer ham antonimlarning uch turini qayd qiladi: daraja (gradable), to’ldiruvchi (complementary) va aloqali (relational). Bu jarayonning har biri tuzilishida farq qiladi va so’zlarning semantik aksini yuzaga chiqaradi.

Darajalangan antonimlar qiyoslanadigan, o'lchanadigan til birliklar orasida sodir bo'ladi. Issiq / sovuq, past / baland, katta / kichik kabi antonimik juftliklar daraja antonimlarga tegishlidir. Ko'rib turganimizdek, bu so'zlar ko'proq sifatlarga asoslangan. Antonimlarning bu turi eng ko’p foydalanilgan turidir. Antonimlarning darajasi-bu so'zlarning ma'nolari o'rtasidagi bog’liq bo’lgan darajadir . Misol uchun, biz , ob-havo issiq emas, deb aytishimiz mumkin. Bu ob-havo sovuq degani emas. Sovuq va issiq sifatlar o'rtasida yana bir daraja bor va bu sifat iliq sifatidir. Quyida daraja antonimlarining uchta xususiyati haqida ma’lumot berilgan.

Birinchi - antonimik juftlar orasidagi darajada farq bor. Ma'no darajalari antonim hosil qiluvchi juftlar o'rtasida farq qiladi. Ikkinchidan, antonimlarning bu turida antonimik juftliklar bir-biridan turli me'yorlar, o'lchamlarga ko’ra farq qiladi . Uchinchidan , antonim hisoblangan so'zlar biri boshqasi bilan qiyoslanganda, baholangan va o'lchanganda farq qiladi. Birinchi belgisi bo'yicha antonim juftlarni tashkil etuvchi so'zlardan biri har qanday tushuncha bo’lishi mumkin, agar biri mavjud bo’lsa , boshqasi uning mutlaq mavjudligini ko'rsatmaydi. Bundan tashqari, ular orasida taqqoslash va darajalilik ham mavjud. Masalan, "yaxshi" va "yomon" so'zlarining o’rtasida taqqoslanish va daraja bor. "Yaxshiroq" va "yomonroq", "yaxshi" bo'lmagan narsa, "yomon" yoki har qanday yomon narsa, yaxshi bo'lishi shart emas. "Yaxshi" va "yomon" o'rtasida yana bir daraja joy bor. Yana bir misol sifatida, "katta" va "kichik" so'zlarini aytishimiz mumkin. Bu ikki so'z o'rtasida "o'rtacha" so'zi bor. Ushbu misollardan ko’rinib turibdiki, daraja antonimlari so’z ma’nolari o’rtasidagi darajasi jihatidan farqlanadi. Ikkinchi xususiyatga nazar tashlasak, antonimik juftliklar orasida mutlaq mezon yo‘q, deyishimiz mumkin. Ya'ni, agar biz bir narsa uchun "katta" va boshqasi uchun "kichik" deb aytsak, bu ikki so'z o'rtasida mutlaqo nisbiylik emas , balki bu hodisa taqqoslash bo'ladi. Ma'lumki, har qanday katta sichqon har qanday kichik fildan kichikroq bo'ladi. Shuning uchun biz aytamizki, daraja antonimlari orasida darajalar turli me'yorlarga, o'lchamlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Uchinchi xususiyatga ko‘ra, antonimik juftlikni tashkil etuvchi so‘zlardan biri asosiy tushuncha hisoblanadi va urg’usiz, ikkinchisi esa urg’uli bo’ladi.

To’ldiruvchi antonimlar daraja antonimlaridan butkul farqlidir.

Bu turdagi juft antonimlarda o'rta daraja yo'q, so'zlar bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo’ladi. Masalan: tirik-o'lik, (dead-alive) . Bu antonimlar ham uchta xususiyatga ega. Dastlab har qanday to'ldiruvchi antonimlar biri semantik ma'noni butunlay ajratib turadi, ikkinchisi - bu turdagi mutlaq mezon, uchinchisi - bu juftliklar orasida urg’uli so'zlar yo'q. To‘ldiruvchi antonimlarda ma’no aniq, birinchi tur antonimlardan farqli o'laroq, yaqinlik va vositaviylik yo'q. Masalan, qiz va yigit so'zlari o'rtasida o'rta daraja yo'q va bu so'zlar ham qiyoslash va ustunlik darajasiga ega emas. Ikkinchisi bunday antonimlardagi mezonlar mutlaqdir. Masalan, o'lim so'zi barcha tirik organizmlar uchun bir xil ma’no anglatadi. Uchinchi xususiyat shundaki, u bu turdagi antonimlarda asosiy tushuncha yoki urg‘u xususiyati yo'q.

Aloqaviy antonimlar (o‘zaro bog‘liq antonimlar) ushbu antonimlar so'zlar orasidagi ma'noni qayta tiklashga, bir-birini to'ldirishga asoslangan. Bu juftliklardagi so'zlar orasida aloqa juda kuchlidir. Antonimlarning bu turida o'zaro ta'sir kuchi namoyon bo'ladi. . Masalan: sotib olish-sotish, berish-qabul qilish, er-xotin, talaba-o'qituvchi. Ko'rinib turibdiki, antonimlarning

bu turlarida bir tomonning mavjudligi boshqa tomonning ham mavjudligini ta’minlaydi. Bu antonimlardagi juftlardan biri deyilsa, beixtiyor ravishda ikkinchisi ham eslanadi. Bu bir tomonning bir-biriga qarama-qarshi emas, balki ijobiy bo'lgan salbiy tomoni yo'q yagona antonimdir. Ushbu uch turdagi antonimlardan tashqari, tilshunos olim Palmer tomonidan antonimlarning yana bir turi qayd etiladi: polisemantik antonimlar. Nomidan ko'rinib turibdiki, bunday antonimlar bir nechta so'z antonimlariga ega. Masalan, baxtli so'zining antonimligi xafa, qayg’uli, g’amgin, ma’yus kabi so'zlarini olish mumkin. Bu so'zlarning qaysi biridan foydalanish esa mazmunga va matnga bog'liq. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Palmer antonimiyasining asosi uning ma'nosiga teskari va bu ziddiyat daraja yoki to'liq kontrastda yoki qo'shimcha shaklda yoki bu juda ko'p sonli shaklda bo'ladi. Ushbu turdagi antonimlarning har biri boshqasidan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biber, Douglas, Susan Conrad, and Randi Reppen. 1998. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Egan, R.F. 1968. Survey of the History of English Synonymy. Spingfield, MA: Merriam-Webster.
3. Lyons, John. 1977. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Leech, Geoffrey. 1981. Semantics (2nd edition). Harmondsworth: Penguin Books.
5. Palmer, (1982). Semantics:
6. Smith, Charles John, Synonyms and antonyms 1867.
7. https://www.arts.gla.ac.uk/stella/LILT/antonym.htm

GENDER VA DISKURSGA OID TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH TARIXI

HISTORY OF DEVELOPMENT OF THE RESEARCHES ON GENDER AND DISCOURSE

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАНИЙ ГЕНДЕР И ДИСКУРСА

M.Ubaydullayeva –o‘qituvchi, Qo‘qon DPI

Annotatsiya. Ushbu maqola gender va diskursga oid tadqiqotlarning rivojlanish tarixini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, bu turdagi tadqiqotlarning asosiy xususiyatlari va mazmuni, ularda ilgari surilgan nazariya va qarashlar haqida ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: gender, diskurs, tanqidiy tahlil, feminism, nazariya, lingvistik, tadqiqot an’anasi, feministik nutq tahlili, diskursiv psixologiya, lingvistik antropologiya, suhbat tahlili.

Annotation. This article examines the history of development of gender and discourse researches. The main features and content of this type of research, as well as the theories and views put forward in them, are also described.

Keywords: gender, discourse, critical analysis, feminism, theory, linguistics, research tradition, feminist speech analysis, discursive psychology, linguistic anthropology, conversation analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается история развития гендерных и дискурсивных исследований. Описаны также основные черты и содержание данного вида исследований, а также выдвигаемые в них теории и взгляды.

Ключевые слова: гендер, дискурс, критический анализ, феминизм, теория, лингвистика, исследовательская традиция, феминистический анализ речи, дискурсивная психология, лингвистическая антропология, анализ разговора.

Til va jinsni birgalikda o'rganish tobora ko'proq nutqni tadqiq qilish masalasiga aylandi. Fonologik, leksik va boshqa turdagi lingvistik tahlillar fanlararo tadqiqotlar sohasida hamon o‘z nufuzlilik darajasini saqlab qolayotganligiga qaramasdan, diskurs sathi har doim til va gender ilmiy izlanishlarning markaziy yondashuviga aylanadi. Bu jarayon tilshunoslik nutq tahlili va genderga bog‘liq bo‘lgan muayyan muammolarini ko'rib chiqadigan, kamida to'rtta kitobdan iborat “Gender va Diskurs” nomli asarning yaralishiga ham turtki bo‘ldi (Cheshir va Trudgill 1998; Tannen 1994; Todd va Fisher 1988; Vodak 1997). [1, 45] Bundan tashqari, nutq va jins o'rtasidagi turli xil tahliliy nazariya va qarashlar yuzlab fanlar bo'yicha ko'plab kitoblar, maqolalar va dissertatsiyalar kesishuvi orqali tekshirilishiga sabab bo‘ldi. Ilmiy izlanishlarning bu qadar jadallashuvi har qanday keng qamrovli urinish uchun umumiy muammolarni keltirib chiqaradi. Tanqidiy nutq tahlili o‘zining nazariy konturlariga egaligi bois tarixan alohida qiziqishga sabab bo‘ldi. Marksistik tafakkur asoslariga tayangan ushbu diskursiv nazariyalar kundan kunga rivojlanib bordi (Fairclough 1992)[2,53]. So'nggi paytlarda rivojlanayotgan nutq tahlilining boshqa yondashuvlari hamda lingvistik antropologiya ham tarixiy kontekstni ta'kidlaydi. Boshqa tilshunos olimlar guruhi ilgari surgan ilmiy yo'nalish esa nutqni so'zning ma'nosi, harakatni vaqt va makonda kuzatish orqali ko‘rib chiqadilar. Gender va diskurs tadqiqotlari tarixida bu nutq va nutqlarni tarixiylashtirish uchun juda zarur bo'lgan vaqtinchalik nazariyalarni keltirib chiqaradi. Chunki bu tadqiqotlarning ko'pchiligi nutq tahlili tushunchalariga tayangan holda aniq tarzda tuzilgan bo'lsa-da, ularning yondashuvlari juda xilma-xilligi bois til, jinsni o'rganish uchun nutq tahliliga yagona yondashuvni taklif qilish mumkin emasligi isbotlab berdi. Shuning uchun "feministik nutq tahlili" deb nomlanishi mumkin bo'lgan diskursga aniq belgilangan yondashuv mavjud emas; albatta, hammasi emas, gender va nutqqa yondashuvlar o'z yo'nalishi bo'yicha feministik, barcha feminist olimlar obuna bo'lgan feminizmning yagona shakli mavjud.

Gender va diskurs bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tadqiqotlarning mazmuni va yondashuvlari har xil bo'lganligiga qaramasdan, ilmiy izlanishlarning barchasi gender nutq tahlili olish mumkin bo'lgan shakllar va ulardan qanday foydalanish yuzasidan bir eskizni taqdim etish maqsadida olib borilganligi ma’lumdir. Ushbu sohada salmoqli izlanishlar olib borgan M.Bakoltz shunday yozadi: “Men, ayniqsa, sifatli yondashuvlarga e'tibor qarataman, gender bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, diskurs tahlilida miqdoriy usullardan foydalanadigan, ularning ba'zilari ramkalarga asoslanadi”. Uning nazariyasiga ko‘ra, o‘rganilgan nutq tahliliga yondashuvlar to'rt xil, lekin ko'pincha bir-biriga bog'liq bo'lgan tadqiqot an'analaridan kelib chiqadi [3,44]:

1. Madaniy amaliyotlarga qaratilgan antropologik an'ana;
2. Ijtimoiy harakatga urg‘u beruvchi sotsiologik an'ana;
3. Asosiy e'tiborni matnlarga qaratgan tanqidiy an'ana;
4. Yaqin o‘tmishda paydo bo‘lgan antropologik an'ana.

Ushbu modellar bir-biridan ajratilmagan, balki bir-biri bilan bog’liq va bir-birini o’zaro to’ldiradi. Masalan, kommunikativ uslubni genderga alohida belgilarini tadqiq qilish.

Birinchi marta lingvistik va lingvistik bo'lmagan gender bo'yicha ilmiy ma'lumot beruvchi nutq ta'riflari, nazariyalar tekshirgandan so'ng, har bir yondashuvning tarixi va rivojlanishi bahs-munozaralarga urg'u beradi va raqobatdosh ramkalar orasidagi nosozliklarlarga sabab bo‘ladi. Chunki har qanday dastur gender masalalariga diskurs-tahliliy asoslar majmuini olib keladi va nutqning o'zaro bog'liqligi haqidagi nazariy taxminlar, o'ziga xoslik, shuningdek, muayyan nazariyalarning har qanday yo'llarini ko'rib chiqadi, nutq genderning alohida nazariyalarini nazarda tutadi. Bu mavzuda davom etishdan oldin shuni ta'kidlash kerakki, til va jins ko'p hollarda aniq

aniqlash qiyin ko'pgina lingvistik yoki lingvistik bo‘lmagan tadqiqotlar olib borilgan an’analar diskursning yagona yondashuviga tayanmaydi. Bunday ilmiy izlanishlarda bayon etilgan nazariylar ma'lum bir ramkaga rioya qilishlari uchun emas, balki tanlangan holda, lekin nutq tahlilining o'ziga xos turlari tafsilotlarini tasvirlash qobiliyati uchun jinsga nisbatan qo'llaniladi.

Ilm-fanning taraqqiy etib borishi gender va diskurs bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlarning yangicha qirralari yoritishiga sabab bo‘ldi. Angliyada qo'shma vositalar yordamida yangi tadqiqot an'anasi paydo bo'ldi. Bu yangi tadqiqot an’anasi lingvistik adabiyotlar va matnlarda suhbat tahlili, feminizm va ijtimoiy psixologiyaning birlashuvidan kelib chiqqan deb baholanadi. Ushbu yondashuv ijtimoiy hayotning keng qamrovli, o'xshash feministik loyihasiga qaramasdan, diskursning nazariy va uslubiy jihatdan bir biridan farq qiladigan bir qancha yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Uezeral va Geloiz, o‘z asarlarida diskurs nazariyalarini gender nazariyalari sifatida jinsga va nutqga bo'lgan yondoshuvdagi kichik sohalar, ular orasidagi farqlarni to'liqroq muhokama qilishadi [5,286]. Edvards va Potter kabi olimlarning ko‘pchiligi diskursiv psixologiyaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan, psixologiyaning diskurs tahlilini asosiy usul sifatida tajribadan o‘tkizib, keng tarzda foydalanishgan. Elizabet Stok ham ilmiy izlanishlari davomida Shegloffsning dalillariga ergashadi, tadqiqot ishtirokchilarning o'zaro munosabatlariga asoslangan feministik suhbat tahlilining jinsga yo'naltirilganligi, uning misollarida bunday yo'nalish ot va olmoshlarning genderga oid misollarini diskursiv tahlili orqali ifodalanadi[4,63]. Stok o‘z taqdiqotining xulosa qismida bir savolni ochiqligicha qoldiradi: gender va diskurs tahlili faqat shunday qat’iy bo‘lishi kerakmi? Psixologiyadagi boshqa feminist olimlar aynan shu sababga ko'ra bir-biriga mos kelmaydigan ikkita nuqtai nazar bu savolning javobi sifatida topadilar. Enn Uezeral gender tahlilidagi suhbat-analitik asosini rad etadi.

Ushbu tarixan yosh bo‘lgan tadqiqot an'anasinidan xabardor qiluvchi salmoqli ishlar qatorida Maykl Silversteynning (1985) til mafkuralari haqidagi qarashlarini ham misol qilish mumkin. Ammo bu nazariyaga feministik tilshunoslar bir qatorda e'tiroz bildiradilar. Keyinchlaik esa Debora Kemeronniki (1995) til sifatida lingvistik retseptivizm yoki "og'zaki gigiena" ustida ishlaydi, u esa tilshunoslar tomonidan chuqur gender ta'siriga ega mafkura deb tan olinadi. Diskurs va genderga oid bo‘lgan tadqiqotlarning ko'p qismi mafkuralar va gender, shuningdek his-tuyg'ularga e'tibor qaratadi.

I.Goffmanning nazariyasiga qaraganda, genderning tilda tuzilishini ifodalash asosan ikki modeldan tuzilgan bo’ladi: - gender fikrlari tuzilish mexanizmini uning paydo bo’lish va interpretatsiya (aytilish) aspektlarida tushuntirish imkonini beruvchi kognetiv-pragmatik va stilistik erkak yoki ayol jinsiga taalluqligidan darak beruvchi; semiotik markerlar to’plami (madaniy kodlar) singari “gender displeyi” dan tuzilgan tilning “yuzaki” yozilishi va aniqlashga asoslangan.

Taraqqiyotning har qanday omili tishunoslikni, qolaversa, diskursni chetlab o‘tmaydi. Shu boisdan, gender va diskursga oid bo‘lgan tadqiqotlar kundan kunga rang barang tus olib bormoqda, ushbu ilmiy izlanishlarning markaziga yangidan yangi tadqiqot muammolarining qo‘yilishi yangicha nazariya va qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, gender va diskursga oid tadqiqotlar rivojlansihdan to‘xtamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cheshire, Jenny and Trudgill, Peter (eds) 1998: The Sociolinguistics Reader, vol. 2: Gender and Discourse. London: Arnold.
2. Fairclough, Norman 1992: Discourse and Social Change. Cambridge: Polity Press.
3. Mary Bucholtz. Theories of Discourse as Theories of Gender: Discourse Analysis in Language and Gender Studies.
4. Stokoe, Elizabeth H. 2000: Toward a conversation analytic approach to gender and discourse. Feminism and Psychology 10(4):
5. Weatherall, Ann 2000: Gender relevance in talk-in-interaction and discourse. Discourse & Society.

“IT” SOHASIDAN KIRIB KELAYOTGAN SO'ZLARINING O'ZBEK TILIGA TA'SIRI VA UNING LINGUISTIK TAHLILI

INFLUENCE OF WORDS FROM THE FIELD OF “IT” ON THE UZBEK LANGUAGE AND ITS LINGUISTIC ANALYSIS

ВЛИЯНИЕ СЛОВ ИЗ ОБЛАСТИ “IT” НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК И ЕГО ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

K.Ismoilova- o‘qituvchi, Qo‘qon DPI

Annotatsiya: ushbu maqola, bugungi kunning eng dolzarb va shiddat bilan rivojlanib borayotgan sohalaridan hisoblanmish it sohasi haqida va uning tilshunoslikka ta’siri haqida bir qancha fikr-mulohazalar yuritadi. bundan tashqari, maqolada it sohasidagi so’zlarning dastlabki ma’nolari va ularning rivojlanish bosqichlari ham berilgan.

Kalit so’zlar: rivojlanish, lug‘at, so‘z ma’nosi, kengaytirish, tor, ma’lumot, ifoda, ko‘rsatma, fatik, estetik.

Annotation: This article discusses the IT , one of the most relevant and rapidly evolving fields today, and its impact on linguistics. The article also gives the initial meanings of words in the field of IT and their stages of development.

Key words: development, vocabulary, word meaning, expand, narrow, the informational, the expressive, the directive, the phatic, the aesthetic

Аннотация: В этой статье рассматриваются информационные технологии, одна из наиболее актуальных и быстро развивающихся областей сегодня, и их влияние на лингвистику. Также в статье приведены первоначальные значения слов в сфере IT и этапы их развития.

Ключевые слова: развитие, словарный запас, значение слова, расширение, сужение, информационное, экспрессивное, директивное, фатическое, эстетическое.

The twenty first century is a technological and technological improvements century. Without any shadow of a doubt, it can be mentioned that the technological tools have changed humans’ life considerably. One can face up any kind of technological tool in a life, even sometimes without analyzing it. People watch TV, listen to a radio, work on computer, log on the internet, use various types of robots to the clothes or to wash the dishes, even to cook meal. All mentioned above need technology to have a good result. So, people try to develop new machines, equipment and ways of doing things that are based on modern knowledge about science and computers. Having these knowledge makes people having the new words and terminology which is based on the new sphere of life like, computer, internet, site, log in, log on, update, internet resource, virtual life etc. Moreover, having the new electrical appliances gives new sphere of life.

IT – means “information technologies” and myriad people prefer to use the phrase in short form. Information Technologies is a study or use of electronic processes and equipment for storing information and making it available. As technology is being increased, new vocabulary words have been coming to uzbek language. Moreover, some words and phrases have been taking extra meanings to the previous meaning of it. For example: the uzbek word “yuklab olmoq” in English “download” is used in IT sphere, however, it was used in another meaning like “carrying the luggage”, “narsalarni aravaga yuklamoq”. Furthermore many other new words and phrases have appeared in the language like, “avtomat”, “noutbuk”, “kabel”, “ulanish (this word also have lost its primary meaning, as connected to the internet. Actually “ulanish” means connecting one

thing to another, but the word shows hidden meaning when it is used in IT field)".

The main technical means of information technology are non-organizational means of communication - telephone, teletype, telefax and many other words and phrases. Although information technology has existed at different stages of human development, a distinctive feature of modern information society is that for the first time in the history of civilization, the energy expended on knowledge and production is converted into energy, raw materials and consumables. We can say without hesitation that this situation is globalization and the globalization is becoming wider. So, linguoculturology is a current sphere of may scientists. V. A. Maslova, who has created serious research in the field of linguoculturology, divides the development of this field into 3 stages:

1) the creation of the first research that led to the formation of science (the work of linguists such as V. von Humboldt, E. Benvenist, L. Weisgerber, A.A. Potebnya, E. Sepir);
2) separation of linguoculturology as a separate field;
3) developmental stage of lingvoculturology

Language plays an important role in people's lives. It is a social phenomenon. One of the main objectives of language is to communicate with people and to understand them. In fact, we use language in many different ways, some of these are, the informational, the expressive, the directive, the phatic, the aesthetic. We use language and that language is a part of society. Actually, any language fluctuates according to, the nature of the society, what kind of people, and their attitudes. People use language according to their situation. [1.222]

The expansion of the social functions of the language influenced the use of words in the socio-political, ideological, economic, cultural and other spheres, and as a result of the stylistic use of the word, the following changes occurred the transition of stylistically limited words to a neutral layer, the stylistic limitation of a neutral language, the transition of stylistically limited words to another field. Analysis of the language composition of the Uzbek language in the period of independence showed that the expansion of the language functions of the language is a key element in its vocabulary content. [3.5] It is important to note that changes have occurred in various spheres of society, as a result of which the expansion of the social function of the Uzbek language was influenced mainly by the lexical layer of the language, such semantic changes as meaning, transition, expansion / narrowing of the meaning of the word. The influence of the expansion of the social functions of the Uzbek language on the development of the word meaning was compiled by Z.M.Marufov in a 2 volume dictionary of the Uzbek language in English (1981) which contains more than 60,000 words and phrases. Comparing the meanings of a 5 volume Explanatory dictionary of the Uzbek language (2006-2008) which contains more than 80,000 words and phrases edited by A.Madvaliyev the meaning of some words has expanded, and some have narrowed the meaning and have been observed in various social spheres.

As a result of the development of science and education in our republic, 54 (4.4%) biology, 49 (4%) history, 37 (3.02%) zoology, 33 (2.7%) linguistics, and 19 (1.55%) literature, 18 (1.5%) for chemistry, 9 for mathematics, 29 (2.4%) technical, 21 (1.7%) vocabulary, 9 (0.73%) philosophy, 8 (0.65%) physics, 6 (0.5%) astronomy, 6 (0.5%) of geography and 4. (0.32%) of anatomy 4 (0, 32%) of pedagogy, 4 (0.32%) physiological, 2 (0.16%) geological, 2 (0.16%) geometry and 2 (0.16%) medical biology, 2 (0.16%) and publications in perspective, 2 (0.16%) in psychology, 1 (0.08%) pedagogical psychology, 1 (0.08%) in pharmacology of an active role in the content of vocabulary. [3.5]

It can be analyzed that technical word changing and development increased for 2.4 % and this a considerable result for the linguistics of uzbek.

Bibliography:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.
2. A. Primov, X. Qodirova, TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI. O’quv uslubiy qo’llanma. Urgench 2019
3. Kushacova Barnokhon Yuldashevna Uzbekistan State World Languages University, THE IMPACT OF THE EXPANSION OF THE SOCIAL FUNCTIONS OF A LANGUAGE ON THE SEMANTIC STRUCTURE OF A WORD. https://archivarius.org.ua/Archive/DOI/BARNOKHON%20YULDASHEVNA%20KUSHACOVA.pdf
4. Rajapova M. A. The usage of cognitive metaphor and allegory in discourse. “Экономика и социум” №1 (80) ч 1ю 2021ю www.iupr.ru

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIK VA LINGVOKULTROLOGIK PARADIGMALAR

АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКАЯ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМЫ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

ANTHROPOCENTRIC AND LINGUOCULTUROLOGICAL PARADIGMS IN MODERN LINGUISTICS

E.M.Yusufaliyev - o‘qituvchi, Qo‘qon DPI

Аннотация: В статье анализируются новые парадигмы, формирующиеся в современной лингвистике, в том числе идея антропоцентрического языка, соотношение языка и культуры, лингвокультурология как продукт антропоцентрической парадигмы в современной лингвистике и концепты, составляющие основу категориального аппарата этой науки: языковая личность и концепт.

Ключевые слова: Личность, антропоцентрическая парадигма, язык и культура, лингвокультурология, языковая личность, концепт.

Annotation: The article analyzes new paradigms that are emerging in modern linguistics, including the idea of an anthropocentric language, the relationship between language and culture, cultural linguistics as a product of the anthropocentric paradigm in modern linguistics, and the concepts that form the basis of the categorical apparatus of this science: linguistic personality and concept.

Keywords: Personality, anthropocentric paradigm, language and culture, linguoculturology, linguistic personality, concept.

Annotatsiya: Maqolada Zamonaviy tilshunoslikda paydo po’lgan yangi paradigmalar jumladan tilning antropotsentrikligi g'oyasi, til va madaniyat o'rtasidagi munosabat, madaniy tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigmaning mahsuli sifatida va ushbu ilmiy fanning kategorik apparati asosini tashkil etuvchi tushunchalar: lingvistik shaxs va kontsept ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Shahs, antropotsentrik paradigma, til va madaniyat, madaniy tilshunoslik, lingvistik shaxs, konsept.

Zamonaviy tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati antropotsentrizm yoki inson koinotning va dunyoda sodir bo'layotgan barcha hodisalarning markazi va eng oliy maqsadi sifatida o’rin egallaydi.(qarang [1]). Ko'pgina fundamental fanlarda antropo-yo'naltirilgan tadqiqotlarning gullab-yashnagan davri 20-asr oxirida shakllanganligi bilan bog'liq. Kognitiv-diskursiv paradigma va buning natijasida shaxsga va uning ehtiyojlariga bo'lgan qiziqishning ortishi faoliyatning hal qiluvchi

omillari sifatida insonni turli xil hodisalarning asosiy bo’g’iniga qo'yadi va shu bilan birga bu ularning istiqbollari va so’ngi maqsadlarini belgilaydi.

Antropotsentrizm bizda insonning atrofdagi voqelikni idrok etish, uni ong prizmasi orqali sindirish va dunyoning o'ziga xos tasvirini yaratish qobiliyati sifatida qaraladi, uning bir qismi o'zini o'zi anglash bo’lib nutqiy fikrlash jarayonida takrorlanadi. Dunyo tasvirinining antropotsentrik qurilish asosi voqelikni inson ongida aks ettirishning o'ziga xos xususiyati, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri hissiy tajriba chegarasidan mavhum ratsional tajriba doirasiga olib o'tish bo’lib uning murakkab sabab-oqibat munosabatlarini shu olamda aks ettirishdir.

Tilshunoslikda an'anaviy ravishda uchta ilmiy paradigma ajralib turadi: qiyosiy-tarixiy (19-asr tilshunosligiga xos bo'lib qiyosiy tarixiy metodga asoslangan), tizimli-strukturaviy (ularning diqqat markazida so'z turadi) va nihoyat, antropotsentrik paradigma, "insonga "hamma narsaning o'lchovi" maqomini qaytardi va uni olam markaziga qayta olib chiqadi" [2, 64.bet]. Ushbu ilmiy paradigma doirasida tadqiqotchining qiziqishlari «idrok ob'ektlaridan sub'ektga o'tadi, ya'ni insonni tilda, tilni insonda tahlil qiladi”. [3, 6.bet].

Til har doim etnosning eng yorqin belgilovchi xususiyati sifatida e'tirof etilgan. “Til va madaniyat”, “til va inson” muammosi 19-asr tilshunosligida markaziy masalalardan biri bo‘lib, bu masala V. Fon Gumboldt, E. Benveniste, G. Steyntal, A.A. Potebniy va boshqa olimlar tomonidan ilgari surilgan. Biroq, 20-asrning birinchi yarmida u ikkinchi darajaga tushib ketdi va til "uning o'zida va o'zi uchun" deb hisoblana boshlandi. Yu.K.Voloshin ta’kidlaganidek, “ko‘p o‘n yilliklar davomida tilshunoslar “gung odam”ni (til, go‘yo o‘zini alohida, shaxsni esa alohida) o‘rganib kelishdi. Tilni va shaxsni ya'ni kompleks tarzda o'rganish zaruratini anglash “So’zlovchi shaxs” tadqiqotchilarni ushbu murakkab muammoning barcha jihatlariga jiddiy e’tibor qaratishga undadi” [4,20.bet].

Shunday qilib, tilning antropotsentrikligi g'oyasi zamonaviy tilshunoslikda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu paradigma nuqtai nazaridan, inson dunyoni "o'zini anglash, undagi nazariy va ob'ektiv faoliyati orqali" o'rganadi va bu unga "o'z ongida narsa va hodisalarning antropotsentrik tartibini yaratish" huquqini beradi, bu esa uning " ruhiy mohiyati, uning harakat motivlari va qadriyatlar ierarxiyasidir "(5, 6-7-betlar).

Yigirmanchi asr tilshunosligining antropotsentrik paradigmasi bilan bog'liq masala to'rtta yo’nalishga ajratiladi, ammo shunga qaramay turli yo'nalishlarga bo'lingan. Birinchi yo'nalish tilni shaxsning "ko'zgusi" sifatida o'rganadi, dunyoning lingvistik tasviri tushunchasi uning uchun asosiy hodisa hisoblanadi va asosiy vazifa - inson o'zini tilda qanday aks etishini o'rganishidir. Ikkinchi yo'nalish kommunikativ tilshunoslik sohasi bo'lib, u insonga, birinchi navbatda, uning muloqot jarayoniga aloqadorligiga qiziqishi bilan tavsiflanadi. Uchinchi yo'nalish boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda, kognitiv jarayonlarda tilning rolini va shaxsning kognitiv asotsatsiyasini o'rganadi. Antropotsentrik tilshunoslikning to'rtinchi yo'nalishi o'z nomiga bog’liq bo'lmagan holda, tilni shaxsning o'zida qanday mavjud ekanligini yoritishga qaratilgandir. S.G. Vasileva tilshunoslikning ushbu bo'limini sub'ekt ichidagi tilshunoslik yoki ona tili nazariyasi deb atashni taklif qiladi (6). Uning asoschisi I. A. Boduen de Kurtene misolida e’tirof etilgan bo‘lib, bu “til faqat individual onglarda, faqat ruhda, faqat ma’lum lingvistik jamiyatni tashkil etuvchi shaxslar yoki individlar psixikasida mavjud” deb hisoblagan.

Til ancha murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Buni aks ettirish uchun Yu.S. Stepanov uni bir qancha obrazlar shaklida taqdim etgan: 1) til-individ tili sifatida; 2) tillar oilasiga kiruvchi til; 3) til structur sifatida; 4) til tizim sifatida; 5) til tip va xarakter sifatida; 6) til kompyuter sifatida; 7) til tafakkur maydoni va “ruh uyi” sifatida (M.Xaydegger) [M, C.4]. 20-asr oxirida tilga “madaniyat mahsuli, uning muhim tarkibiy qismi va mavjudlik sharti, madaniy kodlarni shakllantirish omili sifatida qarala boshlandi” [3, 6.bet]. Tilda tadqiqotining yangicha

munosabati va maqsadlari, yangi asosiy tushuncha va usullari paydo bo'ldi.

Shunday qilib, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi "lingvistik muammolarning shaxsga va uning madaniyatdagi o'rnining" burilishiga olib keldi, chunki madaniyat va madaniy an'analarning markazida barcha narsalar xilma-xilligi bilan til shaxsi asosiy o’rinda turadi: men jismoniyman, men ijtimoiyman, men intellektualman, men - hissiyotliman, men - nutqni o'ylayman" [3, 7. bet]. “Har-bir tilshunoslik madaniy-tarixiy mazmun bilan singib ketgan, chunki uning predmeti madaniyatning sharti, asosi va mahsuli bo‘lgan tildir” [3, 8. bet].

Madaniyat kommunikativ-faoliyat, qadriyat va ramziy xususiyatga ega. Til u bilan shunchaki chambarchas bog'liq emas: u «uning ichida o'sib boradi, unda rivojlanadi va ifodalanadi» [3, 9.bet]. Zero, o‘zingizga ma’lumki, “xalq madaniyatining barcha nozik jihatlari o‘ziga mos va o‘ziga xos bo’lgan tilda namoyon bo‘ladi, chunki dunyoni va undagi odamni turlicha yo’nalishda qamrab oladi” [3, 3.bet]. Yu.K. Voloshin ta'kidlaganidek, "madaniyat ko'pincha o'z-o'zidan soqov bo'lib, bunday hollarda u tilsiz hech nima qila olmaydi" [4, 5.bet].

Bu ikki tushuncha o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik g‘oyasi lingvokultrologiyada o‘z ifodasini topgan – tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida paydo bo‘lgan va “xalq madaniyatining tilda aks ettirilgan va mustahkamlangan ko‘rinishlarini” o‘rganadigan fandir. Ushbu ilmiy fanning kategoriyaviy apparati “lingvistik shaxs” va “kontsept” atamalariga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda lingvistik shaxsni o'rganishda turli xil yondashuvlar mavjud. Avvalo, bu atama ona tilida so’zlovchi shaxs sifatida tushuniladi, uning nutq faoliyati qobiliyatidan olingan - mohiyatan nutqiy shaxsdir. Shuningdek, u tildan muloqot vositasi sifatida foydalanadigan shaxsning og'zaki xatti-harakati xususiyatlarining majmuini - kommunikativ shaxsni anglatadi. Va nihoyat, "til shaxsi" deganda ma'lum bir tilda so'zlashuvchining asosiy milliy-madaniy prototipi, asosan leksik tizimda mustahkamlangan, mafkuraviy munosabatlar asosida tuzilgan "semantik eskiz" turi sifatida tushunilishi mumkin va lug'atda aks ettirilgan qiymat ustuvorliklari hamda xulq-atvor reaktsiyalari - lug'ati va shu bilan birga etnosemantik shaxshamdir (2).

Kontsept “inson ongidagi madaniyat parchasi; Madaniyat insonning ruhiy olamiga qay shaklda kiradi va "bu orqali inson - "madaniy qadriyatlarni yaratuvchisi" emas, balki shunchaki, oddiy odam" – uning o'zi madaniyatga kirib boradi va ba'zi holatlarda unga ta'sir qiladi" (6). S. G. Vorkachevning fikricha, “Konseptning lingvomadaniy o‘ziga xos belgilari bilan psixikada shakllanishining belgilanishi gumanitar, xususan, lingvistik bilimlarning antropotsentrik paradigmasini shakllantirishdagi mantiqiy qadamidir. Aslida, kontseptsiyada etnosemantik shaxsga nisbatan shaxssiz va ob'ektiv kontsept tabiiy tilning semantik tizimida mustahkamlangan ushbu tilning ona tilida so'zlashuvchining asosiy milliy-madaniy prototipi sifatida tasdiqlangan"[2, 67-bet].

Hulosa qilib shuni aytish joizki, antropotsentrik paradigma odamni birinchi o'ringa olib chiqadi va til uning asosiy xususiyati, eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Madaniyat va til “antropotsentrik mohiyatdir, ular shaxsda bo‘lib, insonga xizmat qiladi va shaxssiz hech qanday ma’noga ega emas” [4, 23.bet]. Madaniy tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigmaning “mahsuli”dir. Til shaxsi va kontseptsiyasi uning asosiy kategoriyalari bo'lib, "umumlashtirilgan va ona tilida so'zlashuvchining mentaliteti hamda madaniyatida aks ettiruvchi va ushbu ilmiy intizomni" so'zlashuvchi shaxsi "prototipi qiyofasini qayta yaratish uchun tadqiqot vositasi bilan ta'minlaydi [2, 72-bet].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кубрякова Е.С. Роль словообразования в формировании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира / Отв. ред. Б.А. Сереб-ренников. – М.: Наука, 1988. – С. 141–172..

2. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001. – №1. – С.64-72.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр Академия, 2001. – 208 с.
4. Волошин Ю.К. Общий американский сленг: состав, деривация и функция (лингвокультурологический аспект): Монография. – Краснодар: Кубан. гос. ун-т, 2000. – 282 с.
5. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.
6. Васильева С.Г. И.А. Бодуэн де Куртенэ и антропоцентрическая парадигма лингвистики XX в. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.philol.msu.ru/~rlc2004/ru/participants/psearch.php?pid=94128.

“QO‘QON” TOPONIMINING MANBALARIDA YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОКОВ ТОПОНИМА “КОКАНД”

ILLUMINATION OF THE ORIGINS OF THE TOPONYM “KOKAND”

S.A.Usmonova-o ‘qituvchi, Qo‘qon DPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘qon toponimining G‘arb va O‘rta Osiyo olimlari tomonidan yoritilishi haqida mulohazalar berilgan.

Kalit so’zlar: Xo‘qand, Xuyqand, Xo‘qandi latif, Kokand, Qo‘qon.

Аннотация: В данной статье рассматривается освещение кокандского топонима западно- и среднеазиатскими учеными.

Ключевые слова: Коканд, Хуйканд, Хоканды латиф, Куканд, Коканд.

Annotation: This article discusses the coverage of the Kokand toponym by Western and Central Asian scholars.

Key words: Kokand, Huikand, Khokandy latif, Kukand, Kokand.

O’rta Osiyo jahonning eng qadimdan taraqqiy etgan markazlaridan biri bo’lib, u o’zining tabiiy boyliklari, yoqimli tabiati, mohir hunarmandlari, savdo, karvon yo’llarining obodligi va boshqa jihatlari bilan g’arbliklarni qiziqtirib kelgan. Bu yurtlarda bo’lgan olimlar, tarixchilar, sayyohlar, albatta, o’z asarlarida xonliklar va amirlikdagi tabiiy-geografik sharoit, aholining etnik tarkibi, turmush tarzi, davlat boshqaruv tizimi va unda yetakchi rol o’ynaydigan amaldorlar, soliq turlari hamda barcha sohalarga doir, kelajak avlod uchun asqotadigan muhim ma’lumotlarni yozib qoldirganlar.

O’zbekiston toponimlari haqidagi ma’lumotlar horij sharqshunoslari, sayyoh va adiblarining asrlarida ham ko’plab uchraydi.

Qo’qon xonligi tarixi bo’yicha rus mualliflarining turli janrlarda: kundaliklar, eslatmalar, esdaliklar, maxsus maqolalar, esselar va individual tarixiy asarlar tadqiqotlarida o’z aksini topgan. Ushbu asarlarning yaratuvchilari, asosan, savdogarlar, elchilari, podshoh armiyasining vakillari, rus va xorijiy sayohatchilar va sharqshunoslari bo’lgan.

Jumladan, yevropalik sharqshunoslar J.Tonnele va X.Vamberi O’rta Osiyodagi joy nomlarining lug’atlarini tuzgan edilar. Afsuski, bu ma’lumotlar xorijiy tilda yozilganligi, rus yoki o’zbek tiliga tarjima bo’lmaganligi bois keng kitobxonlar e’tiboridan chetda qolmoqda. Parijdagi Osiyo jamiyatining a’zosi Jyul Tonnele 1869-yilda “Qo’qon xonligining tasviri” kitobini yozgan. Bu aslida Farg’ona vodiysi va uning chekka viloyatlarining geografik lug’ati bo’lib, muallifning aytishicha, “Xitoy va musulmoncha kitoblardan alfavit tartibida to’plagan hamda lozim izohlar berilgan. Bular tarixiy joylar bo’lib, Chingizxon va

Temurlang vatanidir”. Unda Taroz, Toshkent, Qo’qon, Xo’jand, Andijon, O’sh, Namangan, Marg’ilon, Norin va Sirdaryo sarlavhalari bor. Lug’at frantsuz tilida yozilgan bo’lib, uni toshkentlik o’lkashunos G.Chabrov rus tiliga tarjima qilgan, lekin nashr ettirmagan[12. 135-144]. Biz ushbu manba bilan qiziqib ko’rganimizda unda, asosan, o’sha davrda shaharlar holati, aholining ijtimoiy ahvoli, kasb-kori, tabiiy boyliklari haqida ma’lumotlar berilganligiga guvoh bo’ldik.

Yurtimiz joy nomlari haqidagi ilmiy asoslangan, toponimik tadqiqotlar XIX asrda yuzaga keldi. O’zbekiston Rossiyaga qo’shib olingach, O’rta Osiyodagi joy nomlarini ilmiy jihatdan o’rganishga jiddiy kirishildi. Dastlab harbiy strategik, bosqinchilik maqsadlarida ruslar tomonidan mukammal o’rganilgan joy nomlari keyinchalik tilshunoslikning alohida bir tarmog’i sanalgan onomastikaning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun turtki bo’ldi.

XX asrning 60-70 yillarida o’zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo’nalishlar paydo bo’ldi: eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, sotsiolingvistika, areal lingvistika, lingvostatistika va boshqalar. Mana shu davrda yuzaga kelgan va jadal rivojlanishga yo’l tutgan ilmiy yo’nalishlardan biri – o’zbek onomastikasi, ya’ni nomshunosligidir [1. 3]. O’zbek onomastikasi ham o’sha davrlarda vujudga kelgan yangi sohalardan biri sanaladi.

2000 yillik tarixga ega bo’lgan Xo’qandi latif Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy markazlaridan biri sifatida mashhur bo’lib kelgan. Hozir rasman Qo’qon deb atalsa-da, manbalarda “Xo’qand”, “Xo’qandi latif” shaklida uchraydi.

Qadimda Farg’ona vodiysi Parkan deb yuritilgan, Parkan - atrofi tog’ bilan o’ralgan katta vodiy demakdir. Bu yerda shaklarga mansub farg’oniy xalqi yashagan. Eradan avvalgi II asr (138-126 yillar) da Farg’onaga kelgan xitoylik sayyoh (ayrim manbalarda elchi deb beriladi) Chjen Tsyan, eramizning 629- yillari, Syuanь-Tszan (16 yil davomida) butun O’rta Osiyoni kezib chiqib ko’plab toponimik atamalarni yozma tarzda qayd etgan [2. 6]. Xitoy manbalarida Farg’ona – Parkan (xitoycha Davan) da 60 dan ziyod katta va kichik shaharlar mavjudligini yozib ketgan. Xo’qand ana shu shaharlardan biri edi.

VIII asrning birinchi yarmida Parkan arab qo’shini tomonidan zabt etilgach, xalifalik tarkibiga kiradi. “Parkan” arabcha talaffuzga moslanib, “Farg’ona” shaklini oladi [6. 13].

IX-XII asrlarda yashab o’tgan Sharq muarrixlari, sayyohlari, va lug’atshunos olimlari asarlarida Xo’qand shahri haqida ham ma’lumotlar uchraydi.

Muallifi noma’lum “Hudud al-olam” (983-yil) asarida “Huvakand, Roshidon va Zandarmish shaharlarining aholisi zich joylashgan bo’lib, ekin ekiladigan yerlari ko’p bo’lgan-,”[3.104] deb yozilgan. Bu manbada berilgan ma’lumotga tayanib, Qo’qon avvaldan aholisi gavjum, ekin yerlar ko’p bo’lgan maskanlardan biri bo’lganligini ko’rsatadi.

Alloma va sayyoh Yoqut Hamaviy “Mo’’jam ul-buldon” asarida “Xo’qand Farg’onadagi bir shahar. Hijratning 500 yilida vafot etgan adib, ustoz Abu Tayyib Tohir ibn Muhammad al-Mahzumiy al-Xo’qandiy shu yerlik bo’lganlar,”[11] -deb yozilgan asarda ham Qo’qon shahar sifatida tilga olingan.

Qo’qon haqidagi ma’lumotlar X asr arab mualliflarining geografiyaga oid asarlarida uchraydi. Masalan, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istahriy “Kitab al-masalik” asarida: “Kimki Xo’janddan Farg’onaning asosiy shahri bo’lgan Axsiketgacha borishni istasa, u Kenddan So’xga bitta manzil va So’xdan Xukandgacha – bitta katta manzil, Xukanddan Axsikentgacha bir manzil yuradi...” [7.60].

Shuningdek, Istarxiy, Bakron, Maqdisiy, Jamol Qarshiy kabi allomalar ham o’z asarlarida Xo’qand haqida ma’lumotlar yozib qoldirganlar.

Demak, bizgacha yetib kelgan qo’lyozma manbalariga ko’ra Qo’qon shahar sifatida arab olimlariga X asrdayoq yaxshi ma’lum bo’lganligini kuzatamiz.

1222 -yili shahar Chingizxon qo’shini tomonidan yakson etilgach, uning qayta tiklanishi uzoq yillarga cho’zilgan. Xo’qand

qayta tiklangan bo’lsa-da, hali o’rchin - shaharcha maqomida bo’lgan.

1732-yilda Shohruhbiyning o’g’li Rahimbiy hukmdor bo’lgach, Qo’qon shahriga asos soldi, faqat shu paytdan boshlab Qo’qon o’z nomiga ega bo’ldi. Shu yerlik mahalliy kishilar esa shaharga asos solinish vaqtini 1153-/1740-yillar deb hisoblaydilar [7.56], deb yozgan edi V. P. Nalivkin.

Bu haqda Bartold “V. P. Nalivkin xatolikka yo’l qo’ygan. Shahar haqida yana 1718-yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan Oriental komissiyasining kotibi Florio Beneveni 1725-yilda yozilgan esdaliklarida quyidagilarni keltiradi: “Buxorodan Sharqgacha 23ta shahar bor: Azara, Karmana, Toshkent, Qo’qon, Marg’ilon, Andijon, Qoshg’ar...”[3.104] kabi shaharlarning nomlarini sanab o’tgan. Ma’lumki, shahar bo’lish uchun u yerda ko’p yillar aholi yashashi, ma’lum qulayliklarning mavjudligi talab etiladi. Demak, Qo’qon shahri V.P.Nalivkin aytgan yildan ancha avval barpo etilgan.

XIX asrda shaharga kelgan sayyohlarning so’zlariga qaraganda, Qo’qon bog’larida yoshi bir necha asrni ko’rgan daraxtlar borligi ta’kidlangan[8.31].

1830-yil yanvar oyida Qo’qonga kelgan G. N. Potanin “...shaharda vaqt o’tishi bilan putur yetgan, buzilgan qadimgi yodgorliklar turibdi”,-[5.213] deb yozgan.

1849-yilda “Rus imperatorining geografiya jamiyati axborotlari” (“Zapiski Imperatorskogo russkogo geograficheskogo obshestva”)da nashr etilgan “Qo’qon xonligining hozirgi ahvoli tahlili” (“Obozrenie Kokandskogo xanstva v nineshnom yego sostoyanii”) maqolasida “...bu yer (Qo’qon) qadimiy shimoliy davlatlarning qo’shinlari bosqinidan mavh etilib, qirib tashlangan shahar bo’lganligiga tevarak-atrofdagi xarobalar guvohdir,”[9. 282] - deb ko’rsatadi.

XIX asr oxirlarida Qo’qon xonligi tugatilib, shaharga o’t tushib, ruslar tomonidan vayronaga aylantirilgandan so’ng bu yerda bo’lgan rus knyazi shunday yozadi: “Qo’qon xonligining sobiq poytaxti hozirgi kunda Farg’ona hukumatining tuman shahri bo’lgan Qo’qon mahalliy va rus kabi ikki qismga bo’linadi. Mahalliy qismida qadimgi xonlarning saroyidan tashqari ajoyib narsa yo’q. Rossiya qismida ko’chalar keng va daraxtlar bilan o’ralgan. Pochta-telegraf idorasi, davlat banki bo’limi va 60 mingdan ortiq aholi mavjud”[4.52].

Darhaqiqat, V.S.Trubetskoyning o’g’li A.V.Trubetskoy ham “Xotiralar”ida “O’rta Osiyoning barcha shaharlari Farg’onadan tashqari ikki qismga – Eski va Yangi shaharga bo’lingan”ligini alohida ta’kidlaydi [10.96].

Qo’qon xonligining boshiga solingan xunrezliklar bo’lib o’tgan barcha yovuzliklar nafaqat insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida, balki joy nomlarida ham o’z aksini topgan edi. O’zbekistonning markaziy shaharlari bilan bir qatorda eng chekka va kichik hududlar nomlanishlarida ham ittifoq mafkurasiga mos toponimlar qadimiy, tarixiy nomlar o’rniga qo’yilgan.

Xulosa qilib aytganda, Qo’qon nomi tarixiy manbalarda mavjud va uning geografik o’rni, toponimik obyekt sifatida o’rganilishi dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E., Uluqov N.O’zbek onomastikasi terminlarining izohli lug’ati. Namangan.2006, B.3.
2. Bobobekov H. Qo’qon tarixi. Toshkent: – “Fan va texnologiyalar”, 2019. 6-b.
3. Bartold V. V. Istoriya kulьturnoy jizni Turkestana. Leningrad, 1927. S. 104.
4. Vladimīr Andreevich Dolgorukov (kniaz') Führer durch Sibirien und die Mittelasiatischen Besitzungen Russlands – TOMSK. 1898-1899. 52
5. Gorchakov I. D. Obozrenie Kokandskogo xanstva v nьıneshnom yego sostoyanii//Zapiski Imperatorskogo russkogo geograficheskogo obщestva. SPB, 1849. S. 213.
6. Dadaboev Y. Xo’qandi latif manoqibi. Toshkent:- “Mavvorounnahr”, 2018. B.13.
7. Nalivkin V. P. Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva. Kazanь, 1886. S. 60, 56.
8. Turkestanskiy sbornik. Tom 23. S. 31
9. Turkestanskiy sbornik. Tom 38. S. 282.
10. Trubetskoy A.V. Andijondan xotiralar. Vodiynoma. 2016 1-son. 96-bet.
11. Yoqut Hamaviy. Mo’’jam ul-buldon.

12. Chabrov G. Iz istoriya izucheniya Sredney Azii. Izvestiya Uzb. Filiala geogr. Ob-va SSSR. T.VI. – Tashkent,1962. - S. 135-144.

MEANS OF EXPRESSING IRONY IN ENGLISH

СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ИРОНИИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

IRONIYANI INGLIZ TILIDA IFODA QILISH VOSITALARI

A.A.Parmonov- teacher, Kokand SPI

Annotation: The article deals with the concept of "irony" as a linguistic term. The question of the belonging of irony to language is investigated and the conclusions are reduced to the fact that irony is inextricably linked with language and is expressed with the help of linguistic means. The article gives various linguistic means of expressing irony in English and gives examples from fiction. The article attempts to show the features of the language means that express irony in the texts of various directions. The theoretical basis of this study is domestic and foreign works on the theory of stylistics, where irony is considered as a stylistic device.

Key words: irony, language, paradox, semantics, neologism, homonym, proper noun, linguistic means.

Аннотация: В статье рассматривается понятие «ирония» как лингвистический термин. Исследуется вопрос о принадлежности иронии языку и выводы сводятся к тому, что ирония неразрывно связана с языком и выражается при помощи языковых средств. В статье даны различные языковые средства выражения иронии в английском языке и к ним приведены примеры из художественной литературы. В статье предпринимается попытка показать особенности языковых средств, которыми выражается ирония в текстах различных направлений. Теоретическую основу настоящего исследования составляют отечественные и зарубежные работы по теории стилистики, где ирония рассматривается как стилистический прием.

Ключевые слова: ирония, язык, парадокс, семантика, неологизм, омоним, имя собственное, языковые средства.

Annotatsiya: Maqolada "ironiya" tushunchasi lingvistik atama sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada tilga tegishli ironiya masalasi o‘rganildi, ironiya til bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til vositalari yordamida ifodalanadi, degan xulosaga kelindi. Maqolada ingliz tilida kinoyani ifodalashning turli lingvistik vositalari berilgan va badiiy adabiyotdan misollar keltirilgan. Maqolada turli yo'nalishdagi matnlarda istehzoni ifodalovchi til vositalarining xususiyatlarini ko'rsatishga harakat qilinadi. Ushbu tadqiqotning nazariy asosini stilistika nazariyasiga oid mahalliy va xorijiy ishlar tashkil etadi, bu erda ironiya stilistik vosita sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: ironiya, til, paradoks, semantika, neologizm, omonim, atoqli ot, lingvistik vositalar.

Since ancient times, people have tried to make their statements comical effect to attract special attention or to achieve some other goal. People from ancient times and in many areas use irony to create a comic effect. Irony can be found everywhere in a work of art, in advertising, in a political text, even in ordinary conversation.

Irony is difficult to fully understand, that comic, which carries a subtle mockery. It is necessary to stand at a high degree of education, which helps to find it in a text or speech and determine its meaning. So irony is sometimes difficult to understand not only for foreigners who study the language, but also for people who are native speakers.

Dictionaries and various sources give different interpretations of irony:

“Irony: 1. a form of humour in which you use words to express the opposite of what the words really mean; 2. a strange, funny, or sad situation in which things happen in the opposite way to what you would expect” [2, p.179].

“Irony – language which expresses a meaning other than that literary conveyed by the words, usually for humorous or dramatic effect” [1,p. 170].

“Irony – the use of words that mean the opposite of what you really think in order to be funny; a situation that is strange or funny because things happen in a way that seems to be the opposite of what you expected” [11]

Thus, Irony is a rhetorical figure in which words are used in the reverse sense of the literal, with the aim of ridicule. In everyday consciousness, such a representation is most common when irony is understood as a caustic intonation of a statement, which is often identified with a hidden mockery, or they see it as just playfulness, laughter under the guise of feigned seriousness.

In English, in order to create an ironic effect, it is typical to use such techniques as:

1. A play of words, which is the use of such characteristics of homonyms as polysemy or the sound similarity of words in order to achieve a comic effect. The play on words, which is based on polysemy, is based on the fact that there is a use of different meanings of the same word in different contexts. The fact that in the context there can be a combination of two or more dictionary-recorded meanings of a polysemic word gives the author the opportunity to express various shades of irony. Irony, which is built, for example, on homonymy, is based on the clash of concepts that belong to distant semantic spheres, when the author gives the statement a new meaning due to the fact that lexemes are used, the meaning of which is both appropriate and inappropriate in context, for example: *“Burning question son tunnel safety unanswered"*. It is the title of an article about the possibility of fires in the Eurotunnel passing under the English Channel. The play on words in this case is in the words Burning questions, which can be translated as burning questions, that is, questions about fire. But in English, the phrase burning question is another way to say about the importance and urgency of its solution.

Language paradoxes also belong to the play of words. Paradox is one of the most commonly used stylistic devices used to create a mocking, ironic effect. A paradox is a saying or judgment that is sharply at odds with generally accepted, traditional opinion or (sometimes only outwardly) common sense. The fact that irony and paradox are based on contradiction makes paradox one of the means of ridiculing any facts or phenomena of reality, for example: “*A woman will flirt with anybody in the world as long as other people are looking on”; “Less is more”; “All animals are equal. But some animals are more equal”*

2. To increase the visual and expressive power of the impact of what is described; writers traditionally turn to antithesis as one of the diversity of irony. The authors of works of art use the antithesis for various purposes: for the title of a story, for creating a portrait description of a character, landscape sketches, depicting the internal state of the characters, etc. Antithesis allows you to more clearly shade the characters, the relationship of the characters, to convey the author's attitude towards the characters. The formation of the ironic component of the antithesis takes place due to the opposition of symbols, which is understood as the opposition of the statement of the subject of irony to the words of the object, for example: That’s Andrew all over. He never does a proper thing without giving an improper reason for it. (B. Snow) [7, p. 66]

3. Use of proper names:” *Obama is like Apple, Google and Facebook: a once hip brand tainted by Prism” [The Washington Post, URL].* The author of the article compares US President Obama with well-known companies based on their similar experience of success and failure. In this situation, President Obama is perceived not as a living person, but as another successful

conceived brand that did not live up to expectations. It creates the effect of irony.

4. Use of neologisms: If we let rampant gastrofication ruin the gloriously dodgy meat content of our kebabs, it'll be Chicken Cottage next. In order to draw attention to the phrase he said, the author uses a kind of neologism, the word gastrofication, which resulted from the combination of the basis of gastronomy and the affix -fication, with the help of which nouns are formed that describe some kind of action.

Thus, we can conclude that the creation of irony in the text occurs through the use of all means of the structure of the language. Lexico-semantic means have the greatest ironic potential, since it is the vocabulary that has the greatest expressiveness. An adequate interpretation of irony occurs in the context of a sentence (statement), and that is why the level of the text is the component that unites all the means of creating irony, putting them in their place

.

References:

1. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language/D. Crystal –Cambridge: CUP, 1995. – 489 p
2. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners (New Edition), 2007.
3. Wilson D. On Verbal Irony // Irony in Language and Thought: A Cognitive Science Reader. - New York: Lawrence Erlbaum Associates, 2007. – Pp. 25-33.
4. Арнольд В.И. Стилистика. Современный английский язык. – М.: Наука, 2015.– 328 с.
5. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка, М., 1958.
6. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка: опыт систематизации выразительных средств. Изд. стереотип.. – М.: URSS, 2016. - 376 с.
7. Гулямова, З. Р. Особенности стилистического приема антитезы (на примере английского языка) Молодой ученый. — 2010. — № 1-2 (13). — Т. 2. — С. 66-69.
8. Ликинова О.А. Виды иронии – насмешки и средства их выражения в звучащем англоязычном художественном тексте // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. – 2012. - №2 (5). – С. 1276-1279.
9. Походня С.И. Языковые виды и средства реализации иронии. – К., 2009.– 166 с.
10. Проскурина А.В., Нефедова Н.В. К вопросу о характерных особенностях английского юмора // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. XLVI междунар. науч.-практ. конф. № 3(46). – Новосибирск: СибАК, 2015.
11. http://www.thefreedictionary.com/irony

AYOLLAR VA ERKAKLAR NUTQI ORASIDAGI FARQLI XUSUSIYATLAR

DIFFERENT FEATURES BETWEEN WOMEN AND MEN'S SPEECH

РАЗЛИЧНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ И МУЖСКОЙ РЕЧИ

D.X.Zakirova- o‘qituvchi, Qo‘qon PI

Annotatsiya: Ushbu maqolada , tadqiqotchilarning nutq janrlari muammolariga qiziqishlarini xisobga olgan xolda, ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar borasida olib borilgan izlanishlarga aloxida e’tibor qaratilmoqda

Kalit so'zlar: jamiyat, nutq janrlari,muloqot,suxbat,zamonaviy nutq, madaniyat, ong, stratifikatsion va situativ diskurs

Аннотация: настоящей статье, учитывая неослабевающий интерес исследователей к проблеме речевых жанров, особое внимание уделяется исследованиям отличительных особенностях женской и мужской речи.

Ключевые слова: общество, речевой жанр, разговор, современная речь, культура, сознание, дискурс.

Annotation: In this article, taking into account the unflagging interest of researchers in the problem of speech genres, special attention is paid to the study of the distinctive features of female and male speech.

Key words: society, speech genre, conversation, modern speech, culture, consciousness, discourse.

Til insonlar ongida mohiyat sifatida yashar ekan, har bir individ nutqida voqelanib, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni ro’yobga chiqaruvchi asosiy omil sanaladi. Shunday ekan, til jamiyat bilan, uning kechasi, buguni, ertasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, ijtimoiy taraqqiyot bevosita tilda ham o‘z aksini topadi. Tilning taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotiga bog‘liqdir. Uning rivojlanish darajasi inson tafakkurining saviyasiga, taraqqiyoti darajasiga mos kelishi shart, shu bilan birga ikkalasining rivojlanishidagi tendentsiya, insoniyat jamiyati taraqqiyoti darajasi va asosiy rivojlanish tendentsiyalari bilan belgilanadi.

Muayyan sotsial guruh vakillari nutqida zaruriylik, mutanosiblik, muqobillik tushunchalari jamlanadi, nutqiy akt vositasida jamiyatning milliy-tarixiy xususiyatlari aks etadi. Shu kabi diskursda ham muayyan sotsial guruh vakillarining nutqida o’sha sotsial guruh xususiyatlari aks etadi. Diskursda sotsial faktorlar muhim ahamiyatga ega, u kommunikantlar o‘rtasidagi sotsial munosabatlarni belgilaydi. Shu sababli ularga yuqori ijtimoiy variantlik xos. Diskursning sotsial variantligini o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1) stratifikatsion (ijtimoliy guruhga xoslangan) diskurs;

2)situativ (ijtimoiy vaziyatga xoslangan) diskurs.

Firsova N.M. bu ikki o‘lchamni til va nutq variantligini belgilash uchun ishlatgan. Ko‘rinadiki, stratifikatsion variantlilik ijtimoiy guruhlarga xoslangan ichki belgilarni namoyon etsa, situativ variantlilik ijtimoiy vaziyatga xoslangan tashqi belgilarni ko‘rsatadi.

Stratifikatsion diskurs - diskursning ijtimoiy guruhga xoslangan turi. Diskursning ijtimoiy guruhga hoslangan variativligi jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bevosita aloqada bo‘ladi, u turli xil ijtimoiy qatlam hamda guruhlarda ko‘zga tashlanadigan til va nutqiy tafovutlarda o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy guruhga xoslangan variativlik bilan aloqador bo‘lgan tushunchalar qatoriga shaxsning ijtimoiy va sotsialdemografik, ya’ni sinfiy, ijtimoiy guruhga qarashliligi, kasbi, ma’lumot darajasi, jinsi, yoshi kabi belgilar kiradi. Bu belgilar o‘zgarmas va o‘zgaruvchi belgilarga bo’linadi. O‘zgaruvchi belgilar diskursga o‘z ta’sirini o’tkazadi, albatta. Buni quyidagicha ko‘rsatishimiz mumkin:

Stratifikatsion diskurs	
O‘zgarmas belgilar	*O‘zgaruvchi belgilar*
kasbga xoslangan diskurs	ma’lumot darajasiga xoslangan diskurs
jinsga xoslangan diskurs	yoshga xoslangan diskurs
jinsga xoslangan diskurs	

Diskurs jins jihatdan ham qator o‘ziga xosliklarga ega. Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi bo‘yicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud. Turkiyshunoslikda bu borada N.I.Grodekov (qozoq va qirg’izlar misolida), Ye.D.Polivanov (Samarqand eronilarining o’zbekcha nutqi misolida), A.N.Samoylovich (qozoqlar va oltoylar misolida) larning kuzatishlari, shuningdek, qator turkiyshunos-dialektologlarning asarlarida mazkur masala bilan bog’liq ko’plab qaydlar bor.

V. M.Alpatov yapon ayollarining nutqi haqida ancha batafsil ma’lumot beradi va yaponiyada hatto maxsus ayollar tili (nutqi)

mavjudligini, ayollar nutqi erkaklar nutqidan muloyimligi, nazokatliligi, shuningdek, ayrim maxsus til birliklari bilan farqlanib turishligini ta’kidlaydi.

O‘zbek ayollari nutqining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tilshunoslarning kitob va maqolalarida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Erkak va ayollarning burchi va haq-huquqlardagi, mehnat taqsimotidagi farqlar qanchalik katta bo‘lsa, diskursdagi farqlar ham shunchalik katta bo‘ladi. Ayollarning turli davrlardagi ijtimoiy holatlari, ya’ni ayollarga bo‘lgan munosabatlar, erkak va ayollar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti tilda, nutqda o‘z ifodasini topadi. Diskursning mehnat taqsimoti bilan bog‘liq holda jins jihatdan xoslanishning asosiy sababi mehnat, umuman faoliyat, ya’ni insonning doimiy ravishdagi mashg‘ulotining uning jismiga va ruhiga ta’sir etishligidadir.

Ko‘rinadiki, ayollar nutqi bilan erkaklar nutqi farqlanadi:

1. Aql va hissiyot. Erkaklarga nisbatan ayollarda hissiyot kuchli bo‘ladi, shuning uchun ular ta’sirchan bo‘lishadi. Ayollar qarg‘ishi alohida intonatsiya bilan aytiladi. Masalan, ko‘chada o‘sayotgan ko‘chatning shoxini sindirgan bolaga nisbatan, erkak kishi boshini ikki tomonga qimirlatib, norozilik bildirsa, ayol kishi “Ha, qo‘lginang sinsin!”, “Ha, uyingdagi daraxtlar qurib bitsin!”, “Ilohim, mevaga zor bo‘lgin!” deb o‘z hissiyotini yuzaga chiqaradi.

2. Bosiqlik va tezoblik. Ma’lum vaziyatda erkaklar bosiqlik bilan shoshilmay fikr yuritishsa, ayollar unga ko’proq salbiy fikr bildirishadi. Masalan, uyiga qaynonasidan arazlab kelgan qiziga “Uyinginasi kuysin!”, “Alloh jazosini bersin!”, “Kelinga zor bo‘lsin!”kabi qarg‘ishlarni ishlatishadi.

3. Kamgaplik va sergaplik. Erkaklar uzoq o’ylaydi, shu sababdan bo‘lsa kerak, fikrini ham kam so‘z bilan ifodalaydi. Ayollar fikrini ochib berish uchun gapni uzoqdan boshlaydi, natijada xulosaga yetib borguncha so‘z miqdori o‘z-o‘zidan ko‘payadi. Ulardan ko‘pi esa qarg‘ishga o‘tib ketadi.Masalan, “Men bilgan edim, sezgan edim. Bu pismiqda gap ko‘p deb. Indamay yurishida bir gap bor deganman. Ha, beting qursin! Qilgan ishini qarang, ha, niyating o‘zingga ursin! Birovning oilasiga ko‘z olaytirmay ko‘zlaring o‘yilsin! Bunday ayollardan yaxshilik kutib bo‘lmaydi, ha”.

4. Mushohada va qiziquvchanlik. Erkaklardan biror narsa so‘ralsa, o‘ylanib qolishadi. Ayollardan so‘rasangiz, ko’proq “Nimaga?” savolini eshitasiz. Ayollar o‘z qiziqishini qondirgandan keyingina, fikr bildirishadi. Fikr bildirganda ham ijobiyga nisbatan salbiy fikr ko‘proq bo‘ladi. Masalan, “Bunda bir gap bor. Yana biror falokatni boshlab qolmasin, yer yutkur! Aytgandima, undan yaxshilik chiqmaydi deb. Ha, niyating o‘zingga urgur!”

Demak, erkaklar va ayollar nutqi orasidagi farqli xususiyatlarni urganishimiz natijasida shunday xulosaga kelamiz joiz - stratifikatsion diskurs ijtimoiy guruhlarga xos bo‘lib, unda ma’lum guruhga xos bo‘lgan umumiy ichki belgilar ro‘yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. AbdullayevF. Til qanday rivojlanadi? - T., Fan, 1972
2. Firsova N.M. Ispanskiy rechevoy etiket M., 1991, s. 15
3. Alpatov V. M. Yaponiya. Yazik i obshestvo. - M.: Nauka, 1988, s. 70.
4. Qarang: Doniyorov X. Kipchoq dialektlarining leksikasi.

– T.: Fan, 1979, 111112b; Iskandarova Sh. Ayollar nutqida undov so‘zlarining qo‘llanishi // Respublika yosh filolog olimlarning an’anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari T., 1991, 61-63-b.

5.O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Itom. -Moskva, 1981. – B. 640

NORMANDLAR DAVRIDA INGLIZ TILINING RIVOJLANISHI

РАЗВИТИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НОРМАННСКИЙ ПЕРИОД

THE DEVELOPMENT OF ENGLISH DURING THE NORMAN PERIOD

X.YU.Olimov – o‘qituvchi,Q o‘qon DPI

Annotasiya: Ushbu maqola ingliz tilining tarixiy rivojlanishi jarayoni va olimlarning turlicha nazariy qarashlari,hamda o’zlashtirma so’zlarning ahamiyati masalasiga bag’ishlangan.

Kalit so'zlar:nazariy tushuncha ;olimlarning o’rganish usullari; o’zlashtirma so’zlarning roli,assimliyasiya so’zlarning ahamiyati, tarixiy rivojlanish, nazariy qarashlar

Аннотация Эта статья посвящена историческому развитию английского языка и различным теоретическим взглядам ученых, а также важности усвоения слов.

Ключевые слова: теоретическая компетентность; навыки ученых методов обучения; усвоение слов, историческое развитие, значение, роль заимствование слов, теоретические взгляды.

Annotation: This article is devoted to the historical development of the English language and the different theoretical views of scholars, as well as the importance of assimilation words.

Yevropa qit’asi va Britaniyaning Keltlar yashaydigan qismida yaratilgan dastlabki tarixiy manbalarda nemislar saksonlar deb nomlangan. Angliyada nemislar tomonidan yozilgan eng qadimgi tarixiy asar – cherkov yozuvchisi Bedening "Historia ecclasiastica Anglorum" ("Angllar cherkovining tarixi") “Dastlab VIII – asrning ikkinchi yarmida Angli-Saxones "anglo – saksonlar " yoki Saxones-Angli "sakson - anglolar " juft nomlari ishlatila boshlandi”. Hozirgi kunda ushbu nom shundayligicha qabul qilinadi.Bu Buyuk britaniyada joylashgan german qabilalarini anglatadi va ikkinchisining tili ko’pincha anglo – sakson deb ham nomlanadi.

K. Brunnerning so’zlariga ko’ra, linguistik jihatdan keltlar, ikkita gurugha tegishli: Buyuk Britaniyada yashagan ingliz keltlari va Irilandiyada yashagan gal keltlari. Britaniyalik keltlar Britaniyaga ko’chib kelganlaridan keyin ham, qit’a bilan aloqalarini to’xtatmadilar, bu ham inglis tiling rivozhlanishiga ta’sir ko’rsatdi[1].

Ingliz tiliga ta'sir ko’rsatgan chet tillaridan biri lotin tili edi; Xristianlikning qabul qilinishi tufaili, Anglo-Saxonlar bu tilni ayniqsa yaxshi bilishgan. lekin, lotin tiling ingliz tilining so’z boyligiga tasiri biroz qadimgi davrda namoyon bo’ldi. Britaniya orollariga joylashib olgan skandinavialiklar, Angliyani bosib olgan Fransuz normandlari ingliz tiliga sezilarli ta'sir ko’rsatdilar. Skandinaviyaliklar tomonidan Angliyani zabt etish katta harbiy-siyosiy voqea bo’lib, uning ta'siri til sohasida ham sezildi. Anglo-Saksonlar ular bilan o’jar va uzoq muddatli kurash olib borishlari kerak edi. Kelajakda skandinaviyaliklar Temzaning shimolida butun Angliya bo'ylab mustakam o'rnashdilar.

Skandinavia istilosining ingliz tiliga tasiri, avvalambor, qadimgi ingliz tili davridan keyin, yani XII-XIII asrlardan keyin paydo bo’lgan ko’plab skandinaviya o’zlashtirma so’zlarida namoyon bo’ladi. Lotin yoki boshqa so’zni inglizcha yoki Skandinavia tomonidan o'zlashtirma so’z sifatida olish yoki yo’qligini aniqlash har doim ham mumkin emas. Bu, avvalo, ikkala tildagi so’zlarning tovushlari bilan bir hil bo’lganligi bilan bogliq. Ammo aynan shu narsa, o’zlashtirma so’zlarning ingliz tiliga kirib ketishiga yordam berdi. Anglo-Saksonlar va skandinaviyaliklar bir-birlarini tushunar edilar. Ko’pincha ingliz va skandinaviya so’zlarini bir-biridan faqat bir narsa tovushlar bilan farqlash mumkin edi.

Qadimgi ingliz tilida tasdiqlangan Skandinaviya o’zlashtirma so’zlari,avvalalambor, harbiy lug’at bilan bog’liq bo’lgan so’zlar

bo’lib,skandinaviyaliklarni jangchi, dengizchi va qaroqchi sifatida tavsiflaydi, shuningdek, ularing qurollari nomlarini belgilaydigan so’zlardir. Ushbu so’zlarning aksariyati "Old English Chronicle" ning keyingi qismlarida uchraydi va faqat chet elliklar haqida gap ketganda qo’llaniladi.

Skandinaviya istilosining ingliz tilining morfologik rivojlanishiga ta’sirini aniqlash qiyin. Keltlarning yo’q bo’lib ketishiga qaratilgan umumiy tendensiya, avvalambor, shimoliy va sharqiy Angliyada namoyon bo’ladi, ehtimol tilni boshqa odamlar o’rganayotganda shu ta'sir tufaili sodir bo’lgan, soddalashtirish tendensiyasi mavjud[2]. Ammo bu soddalashtirish va birlashishga bo’lgan umumiy tendensiyaning individual namoyon bo’lishiga Skandinavia ta'sirini isbotlash mumkin emas.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, istilo Angliyaning butun ma’naviy va madaniy hayotini ikki asr davom etgan chet el hukmronliga bo’ysundirdi va bu hayot sohalarida va tilda o'chmas iz qoldirdi.

